Ключевые слова: *модернизация, интеллект, компетентность, тенденция, коллаборативная деятельность, модель 4К, парадигма, креативность, критическое мышление, коммуникация и коллаборация, OECD, UNESCO, эмпатия, модель «Learning Compass 2030».*

ENHANCING THE PROFESSIONAL COMPETENCIES OF PROSPECTIVE PRIMARY EDUCATION TEACHERS BASED ON CONTEMPORARY TRENDS

This article analyzes the issues of developing the professional competencies of future primary school teachers based on modern trends. The study examines the structural composition of pedagogical competence, including cognitive, practical, axiological, communicative, creative, collaborative, reflective, innovative-creative, socio-cultural, and technological components. The article demonstrates the organic interconnection of these components and reveals the possibilities of their effective application in the process of pedagogical training. The research findings contribute to the formation of professional competencies of future teachers, the organization of innovative and integrative educational processes, and the development of professional activity in accordance with contemporary pedagogical trends.

Keywords: *modernization, intelligence, competence, trend, collaborative activity, 4C model, paradigm, creativity, critical thinking, communication and collaboration, OECD, UNESCO, empathy, Learning Compass 2030 model.*

Kirish. Bugungi globallashuv va ta’lim tizimining jadal modernizatsiyasi sharoitida boshlang‘ich ta’lim bosqichi jamiyatning intellektual, ma’naviy va ijtimoiy taraqqiyotida muhim o‘rin egallaydi. Aynan ushbu bosqichda o‘quvchilarda bilim olishga bo‘lgan munosabat, o‘quv faoliyatining asosiy ko‘nikmalari hamda shaxsiy va ijtimoiy kompetensiyalar shakllanadi. Mazkur jarayonning samaradorligi esa bevosita

boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisining kasbiy tayyorgarligi, pedagogik mahorati va kompetensiyalar darajasiga bog‘liqdir. So‘nggi yillarda xalqaro ta’lim amaliyotida o‘qituvchi faoliyatiga nisbatan qo‘yilayotgan talablar tubdan o‘zgardi. An’anaviy bilim uzatuvchi model o‘rnini kompetensiyaviy yondashuv egallab, o‘qituvchidan nafaqat fan mazmunini puxta egallash, balki kreativ fikrlash, kollaborativ faoliyatni tashkil etish, raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish, tanqidiy tafakkurni rivojlantirish va refleksiv tahlil olib borish kabi ko‘nikmalarni ham talab etmoqda. Shu jihatdan, bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini zamonaviy tendensiyalar asosida takomillashtirish masalasi dolzarb ilmiy-pedagogik muammolardan biri sifatida maydonga chiqmoqda. Zamonaviy ta’lim paradigmasi doirasida o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasi integrativ tizim sifatida talqin qilinib, unda metodik, kommunikativ, axborot-raqamli, kreativ va kollaborativ kompetensiyalar o‘zaro uzviy bog‘liqlikda namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, 21-asr ko‘nikmalari (4K: kreativlik, tanqidiy fikrlash, kommunikatsiya va kollaboratsiya)ning pedagogik tayyorgarlik jarayoniga tatbiq etilishi bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy moslashuvchanligi va innovatsion salohiyatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimini rivojlantirishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar va strategik dasturlarda ham o‘qituvchi kasbiy kompetensiyalarini zamon talablari asosida rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Bu esa pedagog kadrlar tayyorlash tizimida mazmun, shakl va metodlarni qayta ko‘rib chiqishni, ta’lim jarayoniga innovatsion va integrativ yondashuvlarni joriy etishni taqozo etadi. Shu nuqtayi nazardan, mazkur maqolada bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini zamonaviy tendensiyalar asosida takomillashtirishning nazariy asoslari tahlil qilinib, kompetensiyaviy yondashuv, kreativ va kollaborativ faoliyatni rivojlantirish imkoniyatlari hamda pedagogik tayyorgarlik jarayonini samarali tashkil etish masalalari yoritib beriladi.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. Kompetensiya so‘zining lug‘aviy ma’nosi (lotincha “competo” so‘zidan olingan bo‘lib, “erishaman, muvofiqman, mos kelaman” ma’nolarini beradi) — kishi egallagan muayyan bilim, ko‘nikma, malakalar majmuasini anglatadi.

Pedagogik kompetensiyaning shakllanishi esa bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisining kasbiy o‘zligini anglash, o‘quvchilarning individual va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda ta’lim jarayonini tashkil etish, interaktiv va shaxsga yo‘naltirilgan metodlardan foydalanish, pedagogik hamkorlik va muloqot madaniyatini shakllantirish hamda innovatsion texnologiyalarni samarali qo‘llash kabi zamonaviy yondashuvlar bilan uzviy bog‘liq holda rivojlanadi.

Tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, pedagogik kompetensiya bu – o‘qituvchining o‘z kasbiy faoliyatini samarali tashkil etish, mustaqil qaror qabul qilish, innovatsion yangiliklarni joriy etish, o‘quvchilarning individual imkoniyatlariga mos yondashish va ijtimoiy-huquqiy javobgarlikni his qilishga tayyorligini aks ettiruvchi murakkab integrativ sifatlar majmuidir.[1]

Shuningdek, E.V. Bondareva kompetensiyani “ta’lim oluvchining o‘z bilim va ko‘nikmalarini muayyan kasbiy vaziyatlarda qo‘llay olish qobiliyati, ularni zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirish salohiyati” deb ta’riflaydi.[2] Kompetensiya tushunchasi shunchaki bilim, ko‘nikma va malakalarning yig‘indisigina bo‘lmay, balki shaxsning kasbiy faoliyatda mavjud muammolarni tahlil qilish, hal etish va mustaqil qaror qabul qilishga layoqatli bo‘lishini anglatadi. Zamonaviy kompetent mutaxassis o‘z kasbiy faoliyatida nafaqat mavjud bilim va ko‘nikmalarni qo‘llaydi, balki doimiy o‘rganish, o‘z-o‘zini rivojlantirish, kasbiy faollik va tanqidiy tafakkur bilan ajralib turadi. Lacerda va Marques (2021) qayd etishicha, kompetent mutaxassis o‘z bilimlarini amaliyot bilan uzviy bog‘lay oladi, har qanday o‘zgaruvchan vaziyatda to‘g‘ri va tezkor qaror qabul qila oladi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, zamonaviy ta’lim tizimlarining asosiy vazifalaridan biri – bo‘lajak mutaxassislarni global va mahalliy miqyosdagi murakkab, ko‘p qirrali muammolarni anglaydigan, ularni hal qila oladigan, ijtimoiy javobgarlikni his etadigan kompetent shaxs sifatida shakllantirishdir. Shu bois xalqaro miqyosda ishlab chiqilgan kompetensiya modellarida (xususan, OECD, UNESCO, EU-komissiyasi kabi tashkilotlar tavsiyalarida) quyidagi mezonlar muhim hisoblanadi:

- *Zamonaviy ilmiy, pedagogik, ijtimoiy va siyosiy muammolarni tushunish.* Bu talabdan ko‘zlangan asosiy maqsad – mutaxassis nafaqat o‘z fan sohasi bilan chegaralanib qolmasligi, balki jahon miqyosidagi ilmiy-ijtimoiy jarayonlarga ongli va tanqidiy yondasha olishi kerakligidir. [7]
- *Fanlararo bilimlarni integratsiyalashgan holda amaliyotga tatbiq etish.* Bugungi kunda fanlararo intehratsiya – bilimlarni izolyatsiyalashdan voz kechish, ya’ni tabiiy fanlar, ijtimoiy fanlar va gumanitar fanlar o‘rtasida o‘zaro bog‘liqlikni anglab, ularni amaliy vaziyatlarda uyg‘un qo‘llashni anglatadi. [4]
- *Loyihalash, muammolarni hal qilish va pedagogik qarorlar qabul qilish ko‘nikmalari.* Har qanday kasb egasi – ayniqsa, o‘qituvchi – pedagogik jarayonda turli murakkab vaziyatlar bilan to‘qnashadi. Shu bois u vaziyatni tahlil qilish, yechim ishlab chiqish, jarayonni loyihalashtirish va samarali qaror qabul qilish

ko‘nikmalariga ega bo‘lishi talab etiladi. Bu kompetensiya tanqidiy fikrlash va ijodiy yondashuv bilan bevosita bog‘liqdir. [5]

- *Jamoa bilan ishlash, kasbiy va axloqiy mas’uliyat, madaniyatlararo muloqotga tayyorlik.* XXI asr kasblarining muhim xususiyati – ular jamoaviy hamkorlikni talab qiladi. Ayniqsa, o‘qituvchi o‘z faoliyatida ota-onalar, sinfdoshlar, ma’muriyat va jamiyat bilan samarali muloqotda bo‘lishi lozim. Bundan tashqari, xalqaro mobillik sharoitida madaniyatlararo muloqotga tayyorlik, tolerantlik, empatiya, o‘zaro hurmat kabi fazilatlar mutaxassisning asosiy sifatlari sifatida qaraladi. [6]

OECD (Organisation for Economic Co-operation and Development) tomonidan ishlab chiqilgan “Future of Education and Skills 2030” dasturi zamonaviy ta’limni qayta ko‘rib chiqish, Bo‘lajak o‘qituvchilarni kelajakda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma, qadriyatlar va munosabatlarni shakllantirishni ta'minlashga qaratilgan xalqaro tashabbus hisoblanadi. [7]Bu dastur ta'lim strategiyalarining istiqboldagi asosiy yo‘nalishlarini belgilab beradi va turli mamlakatlar ta'lim siyosati va amaliyotlarini uyg‘unlashtirishga xizmat qiladi. Bu yondashuv "Learning Compass 2030" modeli orqali ifodalangan bo‘lib, unda o‘quvchilarning faolligi (student agency), farovonligi (well-being), asosiy kompetensiyalar (knowledge, skills, attitudes, and values) va transformativ kompetensiyalar asosiy elementlar sifatida ko‘rsatilgan. “Learning Compass 2030” modeli o‘quvchining shaxsiy va ijtimoiy hayotda to‘laqonli ishtirok etishi uchun zarur bo‘lgan transformativ kompetensiyalarni belgilaydi. Ular orasida quyidagilar alohida ahamiyatga ega:

1) yangi imkoniyatlarni yaratish,

2) qarama-qarshiliklarni hal qilish,

3) kollektiv farovonlik uchun mas'uliyatni o‘z zimmasiga olish.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur kompetensiyalar shaxsiy mustaqillik, ijtimoiy ong va innovatsion fikrlash kabi tarkibiy qismlar bilan chambarchas bog‘langan. [8] Ushbu dastur, shuningdek, ta’lim mazmunini yangilash, o‘quv dasturlarini qayta ko‘rib chiqish va o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishini ta’minlashga alohida e’tibor qaratadi. 2020-yilda nashr etilgan “What Students Learn Matters” nomli hisobotda ta'lim tizimlarida o‘quv dasturlarining kompetensiyaga asoslangan modelga o‘tishi zarurligi ta'kidlangan. Bu kompetensiyalar faqatgina bilimlarni emas, balki tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, muloqot va hamkorlik kabi 21-asr ko‘nikmalarini ham qamrab oladi. [9] Ta’lim 2030 tashabbusi doirasida ishlab chiqilgan o‘quv modeli talabaning o‘rganishdagi faolligini oshirish, o‘z ta’lim yo‘lini tanlashda ishtirokini kuchaytirish, shuningdek, o‘z o‘rganish faoliyatining natijalari uchun mas’uliyatni his qilishiga turtki beradi. Bu yondashuv talabani passiv qabul qiluvchi emas, balki faol ishtirokchi sifatida ko‘radi. Mazkur yondashuvda “co-agency” tushunchasi alohida ahamiyatga ega bo‘lib, talaba, o‘qituvchi, ota-ona va jamiyat o‘rtasidagi hamkorlik aloqalarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Bundan tashqari, OECDning “Curriculum Analysis of the OECD Future of Education and Skills 2030” (2020) texnik hisobotida dunyo mamlakatlaridagi ta’lim dasturlarini o‘rganish asosida zamonaviy o‘quv dasturlarini loyihalash, joriy etish va baholash mexanizmlariga oid tajribalar umumlashtirilgan. Hisobotda ilgari surilgan asosiy takliflardan biri – bu o‘quv dasturlarining kontekstual moslashuvchanligidir. Har bir mamlakat o‘z milliy ehtiyojlariga muvofiq, global kompetensiyalarni o‘z ta’lim tizimiga integratsiya qilishi lozim. Ta’lim 2030 konsepsiyasi shuningdek, o‘qituvchilarning kompetensiyalarini rivojlantirish, ularni zamonaviy texnologiyalar bilan ishlashga tayyorlash, shuningdek, professional rivojlanish uchun mos muhit yaratishga ham katta e’tibor qaratadi. O‘qituvchilar bu tizimda faqat bilim yetkazuvchilar emas, balki mentorlardir. Ular o‘quvchilar bilan birgalikda o‘rganadilar, refleksiya qiladilar va rivojlanadilar. Yana bir muhim jihat shundaki, dasturda o‘quvchining farovonligi asosiy qadriyat sifatida qaraladi. Bu – nafaqat jismoniy va psixologik holat, balki o‘zini jamiyatda foydali va zarur shaxs sifatida his qilish, o‘z qiziqishlari va maqsadlarini ro‘yobga chiqarish imkoniyatiga ega bo‘lishni anglatadi. Farovonlik o‘z navbatida o‘quvchining agentligi va bilim olishga bo‘lgan ichki motivatsiyasiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Shuningdek, “Learning Compass 2030” doirasida ta'limning asosiy maqsadi sifatida o‘quvchining “o‘zgaruvchan dunyoda yashash va muvaffaqiyatga erishish uchun zarur kompetensiyalarni egallashi” belgilangan. Bu – transformativ kompetensiyalar, ya’ni, insonning o‘zini va dunyoni ijobiy o‘zgartirishga intilishi, bu yo‘lda mas’uliyatli qarorlar qabul qilishi, ijtimoiy adolatga e’tibor berishi, ekologik muammolarga loqayd bo‘lmasligi kabi qator fazilatlarni o‘z ichiga oladi. OECDning “Future of Education and Skills 2030” tashabbusi nafaqat xalqaro darajadagi ta’lim islohotlariga zamin yaratmoqda, balki har bir mamlakatga o‘z ta’lim tizimini zamonaviy talablar asosida qayta ko‘rib chiqish, uni insonparvar, barqaror va kompetensiyaga asoslangan ta’lim modeliga aylantirish imkonini bermoqda. Bu, o‘z navbatida, nafaqat ta’lim sifati, balki butun jamiyat taraqqiyoti uchun poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

Shunday qilib, kompetensiya nafaqat kasbiy tayyorgarlik darajasining belgisi, balki shaxsning ijtimoiy, madaniy va axloqiy pozitsiyasini ifodalovchi muhim me’zon sifatida talqin qilinmoqda. Bu esa

pedagogik ta’lim mazmunini yangilash, fanlararo integratsiyani kuchaytirish, amaliyotga yo‘naltirilgan yondashuvlarni tatbiq etish zaruratini yuzaga keltiradi.

Pedagogik kompetensiya — bu o‘qituvchining o‘z kasbiy faoliyatini samarali va ijodiy tashkil etishga imkon beradigan bilim, ko‘nikma, qadriyat va shaxsiy sifatlar majmuasidir. Bu tushuncha zamonaviy ta’lim strategiyalarining markazida turib, o‘qituvchining kasbiy tayyorgarligi va amaliyotdagi samaradorligining asosiy mezoni hisoblanadi.

Yevropa kengashi tomonidan ishlab chiqilgan kompetensiyaviy yondashuvlar asosida ham bugungi pedagog zamonaviy ta’limning asosiy ishtirokchisi sifatida ko‘riladi. U nafaqat bilim beruvchi, balki shaxsiy, ijtimoiy va madaniy rivojlanishga rahbarlik qiluvchi, tarbiyachi, mentor, fasilitator sifatida faoliyat yuritishi lozim.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Pedagogik kompetensiyaning tuzilmasini o‘rganishda uning quyidagi asosiy komponentlarini ajratib ko‘rsatish mumkin:

Pedagogik kompetensiyaning tarkibiy tuzilmasi

№	Komponent nomi	Tavsifi	Asosiy funksiyalari	Amaliy ahamiyati
1.	Kognitiv komponent	Pedagogik, psixologik, metodik, ijtimoiy va maxsus fanlarga oid nazariy bilimlar majmuasi.	Darsni rejalashtirish, o‘quvchilarning ehtiyojlarini aniqlash, bilimlarni asoslash.	O‘qituvchining bilim asosidagi qaror qabul qilishiga asos bo‘ladi.
2.	Amaliy komponent	Nazariy bilimlarni real sharoitda qo‘llay olish, dars o‘tish, baholash, sinf muhitini boshqarish kabi amaliy ko‘nikmalar.	O‘quv faoliyatini tashkil qilish, muammoli vaziyatlarni hal etish.	Ta’lim jarayonining samaradorligini oshiradi, o‘qituvchining kasbiy harakatlarini aniq belgilaydi.
3.	Aksiologik komponent	pedagogning kasbiy faoliyatida qadriyatlar tizimiga asoslangan yondashuvini, kasbga bo‘lgan sadoqatini, pedagogik etikaga rioya qilishini, shaxsiy javobgarlik hissini hamda kasbiy o‘zini rivojlantirishga bo‘lgan ehtiyojini ifodalaydi.	Pedagogik etikani, insonparvarlik va ijtimoiy mas’uliyatni ta’minlash.	Kasbiy etika va o‘z-o‘zini rivojlantirishga yo‘naltiradi.
4.	Kommunikativ komponent	O‘qituvchining o‘quvchi, ota-ona, hamkasb va jamoatchilik bilan samarali muloqot olib borish qobiliyati.	Axborot almashish, ijtimoiy hamkorlik, madaniyatlararo muloqot.	O‘quv muhitida sog‘lom va hamkorlikka asoslangan atmosferani yaratishga xizmat qiladi.
5.	Kreativlik	Pedagogik kompetensiyaning **integrativ, metakompetent komponenti** bo‘lib, o‘qituvchining o‘quv-tarbiya jarayonida **nostandart, innovatsion va samarali yechimlar** ishlab chiqish qobiliyatini ifodalaydi.	Yangi pedagogik texnologiyalar, metodlarni ishlab chiqish va joriy etish; o‘quvchilarning individual ehtiyojlariga mos pedagogik yondashuvni tanlash; darsni emotsional va kognitiv jihatdan boyitish; O‘quvchilarda tanqidiy va divergent tafakkurni shakllantirish;	O‘quv materiali o‘quvchiga **qiziqarli va tushunarli shaklda** yetkaziladi; ijodiy va mustaqil fikrlash rivojlanadi; Ta’lim islohotlari va yangilanishlarga tez moslashish; Kompetensiyaviy va natijaga yo‘naltirilgan ta’limni amalga oshirish;
6.	Kolloboratsiya	Pedagogik kompetensiyaning muhim ijtimoiy-kasbiy komponenti bo‘lib, o‘qituvchining ta’lim	Ta’lim jarayonida ishtirokchilarning o‘zaro hamjihatligini ta’minlash;	O‘qituvchining jamoa bilan ishlash, pedagogik muloqot o‘rnatish, hamkorlikdagi ta’limni

		jarayonida o‘quvchilar, hamkasblar, ota-onalar va ta’lim muassasasi bilan maqsadga yo‘naltirilgan, o‘zaro mas’uliyatli va samarali hamkorlikni tashkil etish qobiliyatini ifodalaydi.	O‘quvchilarda ijtimoiy kompetensiyalarni (mas’uliyat, yetakchilik, murosaga kelish) rivojlantiradi.	tashkil etish kompetensiyasini ifodalaydi.
7.	Refleksiv komponent	O‘qituvchining o‘z faoliyatini tahlil qilish, xatolarni tan olish va ularni tuzatish bo‘yicha salohiyati.	O‘z ustida ishlash, o‘z faoliyatini baholash va rivojlantirish.	Kasbiy tajribaning chuqurlashishiga va yangilanishiga olib keladi.
8.	Innovatsion-ijodiy komponent	Pedagogik faoliyatda yangi g‘oyalarni ilgari surish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, metodik yangiliklarni loyihalash va joriy etish ko‘nikmalari.	Innovatsion g‘oyalarni joriy etish, texnologik savodxonlik hamda kreativlik.	Ta’lim sifati va yangilanish jarayonini jadallashtiradi.
9.	Ijtimoiy va madaniy kompetensiya	O‘qituvchining o‘z kasbini jamiyatdagi roli bilan uyg‘unlashtira olish salohiyati, madaniy qadriyatlarni hurmat qilish.	Jamiyatda ijtimoiy mas’uliyatni his qilish, ijtimoiy rollarni anglash.	Ta’limning ijtimoiy funktsiyalarini samarali amalga oshirishga zamin yaratadi.
10.	Texnologik komponent	Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, raqamli vositalar bilan ishlash ko‘nikmalari.	Onlayn darslar o‘tkazish, raqamli resurslarni qo‘llash, elektron baholash.	Raqamli ta’limga moslashuvchanlikni ta’minlaydi, o‘qituvchining raqamli savodxonligini rivojlantiradi.

Pedagogik kompetensiyani tashkil etuvchi har bir komponent o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lib, pedagogning kasbiy salohiyatini har tomonlama rivojlantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’limda faoliyat yurituvchi o‘qituvchilar uchun bu komponentlarning shakllanishi o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda samarali ta’lim berishda hal qiluvchi omil hisoblanadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, pedagogik kompetensiyaning mazmunini tahlil qilish, uning tarkibiy komponentlarini aniqlash va o‘rganish — bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarlik darajasini oshirish, zamonaviy ta’lim talablariga javob beradigan shaxsni shakllantirish uchun muhim ilmiy va amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi. Bu kompetensiyalar asosida shakllanadigan kasbiy malaka o‘qituvchini nafaqat samarali dars beruvchi, balki tarbiyachi, lider, innovator va ijtimoiy faol shaxsga aylantiradi.

Adabiyotlar:

1. Kholdorova N. R. (2021). Boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisining pedagogik kompetensiyasini shakllantirishda innovatsion yondashuvlar. Toshkent: Ilm Ziyo.
2. Бондарева Э. В. (2019). Педагогическая компетенция: сущность и стратегии развития [Pedagogical competence: essence and development strategies]. Moskva: Pedagogika.
3. OECD. (2019). Future of Education and Skills 2030: OECD Learning Compass *2030*.
4. Mushynska I. (2018). Competence approach in the training of future teachers: theory and practice. European Journal of Education, 3(1), 22–31.
5. Lacerda C., & Marques, P. (2021). Professional competence development for the 21st century: Challenges and educational strategies. Journal of Teacher Education Research, 54(2), 130–142.
6. Kovshar A. V., Mukhina, V. S., & Frolova, E. A. (2019). Formation of professional competencies in the system of teacher education. Moscow: Pedagogika Press.
7. OECD. (2020a). Future of Education and Skills 2030: Curriculum analysis.
8. OECD. (2019). OECD Learning Compass 2030: A Series of Concept Notes.
9. OECD. (2020b). What Students Learn Matters: Towards a 21st Century Curriculum.

O‘SMIRLARNING PSIXOLOGIK VA KOGNITIV RIVOJLANISHIDA SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINING TA’SIRI: IMKONIYAT VA CHEKLOVLAR

Axmedov Davlatbek Saloxidin o‘g‘li,
University of Business and Science
Pedagogika va psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi
davlatbekaxmedov690@gmail.com

Ushbu maqolada sun’iy intellektning o‘smirlar psixologik rivojlanishiga ijobiy imkoniyatlari hamda ehtimoliy cheklovlari tahlil qilinadi. O‘smirlar psixologiyasi va kognitiv fikrlashiga hozirgi zamon sun’iy intellekt texnologiyalari qay darajada ta’sir qilayotgani va bu ta’sirning ularning tafakkuri, emotsional dunyosi hamda ijtimoiy xulq-atvoridagi darajasi yoritib beriladi. Bundan tashqari o‘smirlar psixologiyasi bilan ishlashda ulardagi sun’iy intellekt bilan bog‘liq muvozanatni ta’minlash bo‘yicha tavsiyalar berib o‘tiladi.

Kalit so‘zlar: *kognitiv rivojlanish, o‘smirlar psixologiyasi, ChatGPT, emotsional rivojlanish, kognitiv cheklovlar, mustaqil fikrlash.*

ВЛИЯНИЕ ТЕХНОЛОГИЙ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА НА ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ И КОГНИТИВНОЕ РАЗВИТИЕ ПОДРОСТКОВ: ВОЗМОЖНОСТИ И ОГРАНИЧЕНИЯ

В статье анализируется позитивный потенциал и потенциальные ограничения искусственного интеллекта для психологического развития подростков. Показана степень влияния современных технологий искусственного интеллекта на психологию и когнитивное мышление подростков, а также степень этого влияния на их мышление, эмоциональный мир и социальное поведение. Кроме того, даны рекомендации по обеспечению сбалансированного подхода к использованию искусственного интеллекта в работе с подростковой психологией.

Ключевые слова: *когнитивное развитие, подростковая психология, ChatGPT, эмоциональное развитие, когнитивные ограничения, самостоятельное мышление.*

THE IMPACT OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE TECHNOLOGIES ON THE PSYCHOLOGICAL AND COGNITIVE DEVELOPMENT OF ADOLESCENTS: OPPORTUNITIES AND LIMITATIONS

This article analyzes the positive potential and potential limitations of artificial intelligence for the psychological development of adolescents. It highlights the extent to which modern artificial intelligence technologies affect the psychology and cognitive thinking of adolescents and the level of this impact on their thinking, emotional world, and social behavior. In addition, recommendations are given to ensure a balance in relation to artificial intelligence in working with adolescent psychology.

Keywords: *cognitive development, adolescent psychology, ChatGPT, emotional development, cognitive limitations, independent thinking.*

Kirish. XXI asr texnologiyalari ichida eng dolzarb yangiliklardan biri — sun’iy intellektning (SI) yaratilgani bo‘ldi. U ta’lim, tibbiyot, iqtisod va kundalik hayotning deyarli barcha sohalariga kirib keldi. O‘smirlik davri inson shaxsining eng faol psixologik va kognitiv rivojlanish bosqichlaridan biri bo‘lgani uchun, sun’iy intellekt texnologiyalarining ularning tafakkuri, emotsional dunyosi hamda ijtimoiy xulq-atvoriga ta’siri masalasi alohida ilmiy e’tibor talab qiladi. O‘smirlar psixologiyasi va ularning tarbiyasidagi buzilishlar hozirgi kunda ota-onalarnig global muammosiga aylanmoqda. Ichki ruhiy buzilishlar va tashqi ta’sirlar doirasida ularning ongidagi g‘oyaviy bo‘shliq tobora kengayib bormoqda. Bu holatni ularning jamiyatdagi qilayotgan xatti-harakatlaridan ham ko‘rishimiz mumkin. O‘smir-ota-ona o‘rtasidagi munosabatlarning tobora keskinlashuvi[5], har xil to‘dalarga qo‘shilib katta va kichik jinoyatlarni sodir etish, bundan tashqari kiberjinoyatchilikning juda katta foizi o‘smirlar hisobiga to‘g‘ri keladi. Zamon borgan sari o‘zgarib texnologiyalar asri kirib kegan hamda inson o‘z aql salohiyatini texnologiyalarga topshirib qo‘yayotgan bir paytda o‘smirlarning sun’iy intellekt ta’siri ostida ko‘pgina amaliyotlarni bajarishi ularga nisbatan ma’lum bir nazoratni amalga oshirishni talab qiladi. Quyida sun’iy intellekt o‘zi nima degan savolga javob beramiz. **Sun’iy intellekt (SI)** - bu kompyuter fanlari, kognitiv fanlar va amaliy tilshunoslik

kesishmasida shakllangan fanlararo yo‘nalish bo‘lib, u inson tafakkuriga xos bo‘lgan bilish jarayonlarini - o‘rganish, idrok etish, mantiqiy xulosa chiqarish, qaror qabul qilish, tabiiy tilni tushunish va ishlab chiqishni - modellashtirish hamda texnologik tizimlar orqali amalga oshirishni maqsad qiladi. Sun’iy intellekt tizimlari katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilish asosida o‘z faoliyatini moslashtiradi va takomillashtirib boradi[3]. To‘g‘ri, sun’iy intellekt yoshlarning bilim olishiga, ishlab pul topishiga, yangiliklar yaratishiga juda ko‘plab imkoniyatlar eshigini ochdi, ammo “asalning ham ortiqchasi zahar” deganlaridek hayotning har jabhasida sun’iy intellektga bog‘lanib qolish insonlar kelajagini tanazzulga olib keladi. Shunday ekan sun’iy intellekt texnologiyalarining o‘smirlar psixologiyasi va kognitiv fikrlashiga ta’sirini o‘rganish o‘smirlar psixologiyasining o‘rganilishi kerak bo‘lgan muhim jabhalaridan biridir.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. So‘nggi yillarda sun’iy intellekt texnologiyalarining ommalashuvi jamiyatning yosh qatlami orasida sezilarli o‘rin egalladi. Mazkur texnologiyalardan foydalanish jarayonida ayrim ijobiy jihatlar bilan birgalikda ayrim **salbiy holatlarni ham ko‘rishimiz mumkin.** Ushbu holatlar, ayniqsa, ta’lim, axborot va shaxsiy rivojlanish jarayonlariga ta’sir ko‘rsatib yoshlarni qaram fikrli shaxsga aylantirib qo‘ymoqda. Bugungi kunda yoshlar tomonidan sun’iy intellektdan noto‘g‘ri foydalanishning eng ko‘p foizi - ta’lim jarayonida akademik halollikning buzilishi bilan ko‘zga tashlanmoda. Jumladan, referat, esse, kurs ishlari va boshqa yozma topshiriqlarni mustaqil fikrlamasdan, sun’iy intellekt yordamida tayyor holda topshirish holatlari yoshlar orasida borgan sari odat tusiga aylanmoqda. Bu esa bilimlarning yuzaki shakllanishiga, tanqidiy va mantiqiy fikrlash ko‘nikmalarining rivojlanishdan orqada qolishiga olib keladi. Sun’iy intellekt yordamida yaratilayotgan soxta matnlar, yolg‘on xabarlar va manipulyativ kontentlar ijtimoiy tarmoqlarda tez tarqalmoqda. Yoshlar orasida bunday materiallardan foydalanish jamiyatda noto‘g‘ri qarashlar shakllanishiga, axborot ishonchliligining pasayishiga va madaniyatlararo tushunmovchiliklarga sabab bo‘lishi mumkin. Sun’iy intellektga haddan tashqari tayanish yoshlar orasida mustaqil izlanish va ijodiy yondashuvning pasayishiga olib kelmoqda. Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, sun’iy intellektdan foydalanish salbiy hodisa emas, balki undan **noto‘g‘ri, nazoratsiz va mas’uliyatsiz foydalanish** yoshlar ongi va salohiyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli ta’lim jarayonida sun’iy intellektdan foydalanish madaniyatini shakllantirish va yoshlarni tanqidiy fikrlashga yo‘naltirish muhim vazifa hisoblanadi.

Sun’iy intellektdan noto‘g‘ri foydalanish o‘smirlar orasida eng keng tarqalgan desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Chunki, O‘smirlik (11–18 yosh) o‘ziga xos psixologik o‘zgarishlarga boy, hissiy beqaror davr hisoblanadi. Bu davrda kognitiv rivojlanish, mantiqiy fikrlash kuchayadi, mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati rivojlanadi, emotsional soha: o‘zini anglash, o‘z-o‘ziga baho berish, ijobiy va salbiy emotsiyalar keskinlashadi. Shu bilan birga ijtimoiy rivojlanish: do‘stlik, guruhdagi mavqe va jamiyatdagi o‘rnini aniqlashga bo‘lgan ehtiyoj ortadi. Aynan shu bosqichda texnologiyalar, jumladan, sun’iy intellekt vositalaridan foydalanish o‘smirlar ongida katta o‘zgarishlarga sabab bo‘lishi mumkin. Shaxs sifatida baxt tuyg‘usiga ta’sir qiluvchi omillar[4] o‘rnini sun’iy intellekt asta – sekin egallab bormoqda.

Sun’iy intellekt (SI) texnologiyalari yordamida hozirgi zamon o‘smirlarining o‘rganish, diqqat, tanqidiy fikrlash va ijodiy ishlash kabi kognitiv qobiliyatlarida yangi imkoniyatlar yuzaga kelmoqda. Shu bilan birga, haddan tashqari texnologiyalar olamiga mukkasidan ketish, sun’iy intellektdan me’yoridan ortiqcha foydalanishning salbiy oqibatlari ham ko‘zga tashlanmoqda. Eng ko‘p ijobiy ta’sir ta’lim sohasida ko‘zga tashlansa, salbiy ta’sir o‘smirlarning mustaqil fikrlash qobilyatida ko‘rinmoqda. Quyida sun’iy intellektning bir qancha ijobiy tomonlari keltirib o‘tilgan. Shulardan biri - UNICEF ma’lumotlariga ko‘ra, SI platformalari chekka hududlardagi yoshlarga sifatli ta’lim olish imkonini yaratib, ta’limda tengsizlikni kamaytiradi, ma’lum darajada ijodiy fikrlashni (ijodkorlik, ijrochi fikr, g‘oyalarni kengaytirish) rag‘batlantiradi, lekin bu jarayonda kognitiv qolipga tushib qolish va ishonch darajasining pasayishi kuzatiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Izlanishlarimiz davomida aniqlangan sun’iy intellektning salbiy jihatlari ham bir qancha bo‘lib, nima sababdan o‘smirlar kognitiv va psixologik rivojlanishida sun’iy intelektga nisbatan ba’zi cheklovlar bo‘lishi kerak degan savolga quyidagilardan javob olishimiz mumkin. Sun’iy intellektdan me’yoridan ortiqcha foydalanganda kognitiv susayish va xotiradagi pasayish yuzaga keladi. SI-ga haddan tashqari tayanish faol yod olish, mustaqil fikrlash va xotira mustahkamligini zaiflashtiradi. Tanqidiy fikrlashda zaiflik kuzatiladi, ChatGPT va shunga o‘xshash SI vositalaridan foydalanayotgan o‘smirlar miyasida faollik pasayadi, tanqidiy fikrlash ham sezilarli darajada kamayadi [1]. SI tavsiyalariga haddan tashqari tayanish ijodiy fikrlashni cheklaydi, mustaqil qaror qabul qilish va kreativlikda pasayishga olib keladi. Ijtimoiy moslashuv va his-tuyg‘ularga ta’sir ko‘rsatadi. Bundan tashqari SI vositalariga tayanish o‘quvchilarda akademik ongni kamaytiradi, shuningdek, mustaqil harakat qilish istagi susayadi. Kognitiv, psixologik jihatdan esa sun’iy intellekt o‘smirlarga quyidagicha ta’sir o‘tkazadi va ba’zi o‘rinlarda rivojlanishni cheklaydi.

1. Emotsional rivojlanishga salbiy ta’sir: Virtual muloqotning ortishi real ijtimoiy ko‘nikmalarni pasaytirishi mumkin. Bu holat dastlab jonli muloqotning kamayishida seziladi.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Sun’iy intellektga asoslangan chat-botlar, virtual yordamchilar va ijtimoiy tarmoqlar insonlar o‘rtasidagi jonli muloqotni qisqartirmoqda. Ayniqsa, bolalar va o‘smirlar real hayotdagi suhbat o‘rniga virtual muloqotni afzal ko‘ra boshlaydi. Natijada empatiya, his-tuyg‘ularni anglash, boshqalarning kayfiyatini sezish kabi muhim emotsional ko‘nikmalar yetarli darajada rivojlanmaydi. Bundan tashqari, hozirda ba’zi foydalanuvchilar sun’iy intellekt bilan emotsional bog‘liqlik hosil qilishmoqda. Virtual suhbatdoshlar doimo tushunadigan, bahslashmaydigan va foydalanuvchiga moslashadigan tarzda yaratilgani sababli, inson real munosabatlardagi murakkabliklardan qochib, sun’iy muhitga qaram bo‘lib qolishi mumkin. Bu holat yolg‘izlik hissini kuchaytirib, real ijtimoiy aloqalarning susayishiga olib keladi. Sun’iy intellekt doimiy yordamchi vazifasini bajargan sari, inson mustaqil qaror qabul qilish va muammolarni emotsional jihatdan hal qilish qobiliyatini yo‘qota boshlaydi. Masalan, stress, xavotir yoki tushkunlik holatida odamlar yaqinlari bilan suhbatlashish o‘rniga SI ga murojaat qilishi mumkin. Bu esa insonning o‘z his-tuyg‘ularini boshqarish ko‘nikmasini zaiflashtiradi. Bolalik va o‘smirlik davri emotsional rivojlanishning eng muhim bosqichi hisoblanadi. Agar bola ko‘p vaqtini sun’iy intellektli qurilmalar bilan o‘tkazsa, u yuz ifodalarini o‘qish, his-tuyg‘ularni ifodalash va boshqalar bilan hissiy aloqani shakllantirishda qiyinchilikka duch keladi. Bu esa kelajakda ijtimoiy moslashuv muammolariga sabab bo‘lishi mumkin. Yana bir e’tibor qaratilishi kerak bo‘lgan jihat sun’iy intellekt algoritmlari inson emotsiyalarini ma’lum qoliplarga solib tahlil qiladi. Bu esa insonlarda his-tuyg‘ularni chuqur anglash emas, balki soddalashtirilgan tarzda qabul qilishga olib kelishi mumkin. Natijada murakkab emotsional holatlar e’tibordan chetda qoladi.

2. Kognitiv cheklovlar: Tayyor yechimlarga suyanish mustaqil fikrlashni susaytiradi.

Raqamli texnologiyalar, xususan, sun’iy intellekt (SI) bugungi zamonaviy jamiyatning barcha sohalariga chuqur kirib bormoqda. Ta’lim tizimi ham bundan mustasno emas. SI nafaqat bilim yetkazuvchi vosita, balki inson tafakkuri, fikrlash jarayoni va kognitiv salohiyatini rivojlantiruvchi muhim instrument sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ammo SI’dan noto‘g‘ri foydalanish insonning mustaqil fikrlash, tahlil qilish va ijodiy qaror qabul qilish qobiliyatlarini susaytirishi mumkin. Shu sababli, sun’iy intellektdan oqilona, muvozanatli va pedagogik asoslangan foydalanish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Kognitiv salohiyat insonning: idrok, xotira, diqqat, tafakkur, mantiqiy fikrlash, muammo yechish, metakognitsiya (o‘z fikrlashini anglash)kabi psixik jarayonlar majmuini o‘z ichiga oladi. Ushbu jarayonlar rivoji shaxsning intellektual, ijtimoiy va professional taraqqiyotida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Sun’iy intellekt asosidagi tizimlar (aqlli platformalar, adaptiv ta’lim dasturlari, chatbotlar, tahliliy algoritmlar) insonning kognitiv faoliyatiga ikki xil ta’sir ko‘rsatishi mumkin:

Rivojlantiruvchi ta’sir – fikrlashni faollashtiradi, tahliliy ko‘nikmalarni kuchaytiradi.

Passivlashtiruvchi ta’sir – tayyor javoblarga qaramlikni kuchaytiradi, mustaqil fikrlashni cheklaydi.

Demak, natija texnologiyaning o‘zida emas, balki undan foydalanish modeli va metodologiyasida namoyon bo‘ladi. SI’dan oqilona foydalanishning asosiy yo‘nalishlari

- Fikrlashni rag‘batlantiruvchi interaktiv muhit yaratish. SI foydalanuvchiga tayyor javob bermasdan, muammo yechimiga olib boruvchi savollar orqali yo‘naltirishi zarur. Bu usul tahliliy va tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi.

- Metakognitiv rivojlanishni qo‘llab-quvvatlash. SI yordamida o‘quvchi yoki foydalanuvchi o‘z fikrlash jarayonini tahlil qilishga o‘rganadi. Bu refleksiya, o‘z-o‘zini baholash va kognitiv nazoratni kuchaytiradi.

- Adaptiv (moslashuvchan) o‘qitish tizimlari. Sun’iy intellekt shaxsning bilim darajasi, tezligi va qobiliyatiga mos ravishda o‘quv materiallarini taqdim etadi. Bu individual rivojlanish trayektoriyasini shakllantiradi.

- Ijodiy tafakkurni qo‘llab-quvvatlash. SI ijodiy jarayonni almashtirmasdan, uni stimullashtiruvchi muhit yaratadi: g‘oyalar taklifi, muqobil yondashuvlar, kreativ modellash orqali tafakkur kengayadi.

- Kognitiv yuklamani muvozanatlash. Murakkab axborotni vizual, strukturaviy va soddalashtirilgan shaklda taqdim etish orqali SI kognitiv ortiqcha yuklanishni kamaytiradi va samarali o‘zlashtirishni ta’minlaydi.

- Mustaqil fikrlash ustuvorligini saqlash. Oqilona modelda SI – yordamchi vosita, inson esa asosiy subyekt hisoblanadi. Qaror qabul qilish, baholash va xulosa chiqarish inson tafakkuriga tegishli bo‘lishi kerak.

3. Axloqiy-psixologik muammolar: Shaxsiy ma’lumotlarning xavfsizligi va noto‘g‘ri qadriyatlar bilan tanishish ehtimoli mavjud.

Sun’iy intellekt axloqiy jihatdan betaraf vosita bo‘lsa-da, uni yaratish va undan foydalanish jarayonida inson omili hal qiluvchi ahamiyatga ega. Algoritmlar muayyan ma’lumotlar asosida ishlab chiqiladi va agar

ushbu ma’lumotlar biryoqlama yoki noto‘g‘ri bo‘lsa, SI qarorlari ham adolatsiz bo‘lishi mumkin. Bu holat diskriminatsiya, shaxsiy hayot daxlsizligining buzilishi va mas’uliyat masalasida axloqiy muammolarni keltirib chiqaradi. Masalan, sun’iy intellekt asosida qabul qilingan qarorlar uchun kim javobgar ekani masalasi hanuz ochiq qolmoqda. Sun’iy intellektga asoslangan tizimlar, ayniqsa ijtimoiy tarmoqlar va raqamli platformalar, inson psixologiyasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Tavsiya algoritmlari foydalanuvchining qiziqishlarini cheklab, uni muayyan axborot doirasida ushlab qoladi. Natijada tanqidiy fikrlash pasayib, shaxs mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini yo‘qotishi mumkin. Bundan tashqari, SI bilan doimiy muloqot qilish yolg‘izlik hissini kuchaytirib, real ijtimoiy munosabatlarning zaiflashishiga olib keladi. Sun’iy intellektning eng xavfli jihatlaridan biri uning yoshlar va bolalar ongida qadriyatlar tizimiga ta’siridir. Agar sun’iy intellekt taqdim etayotgan axborotda moddiy manfaat, tezkor muvaffaqiyat yoki agressiv xatti-harakatlar targ‘ib qilinsa, insoniylik, mehr-oqibat, mas’uliyat kabi qadriyatlar ikkinchi o‘ringa tushib qolishi mumkin. Natijada jamiyatda axloqiy me’yorlarning buzilishi, individualizmning keskin kuchayishi va ma’naviy bo‘shliq yuzaga keladi.

Sun’iy intellektning hissiy tushunishga ta’siri: sun’iy intellektning his-tuyg‘ularni tahlil qilish va his-tuyg‘ularni aniqlash orqali o‘smirlarning hissiy intellektiga qanday ta’sir qilishini o‘rganishdan iborat. Bu sun’iy intellekt texnologiyalariga ta’sir qilish empatiya va hissiy xabardorlikni rivojlantirishni kuchaytiradimi yoki to‘sqinlik qiladimi, yo‘qligini tekshirishni o‘z ichiga oladi.

Hissiy qo‘llab-quvvatlash tizimlari: Hissiy qo‘llab-quvvatlash va tushunishni ta'minlash uchun mo‘ljallangan sun’iy intellekt ilovalarini va ularning ijobiy hissiy rivojlanishni rag‘batlantirishdagi potensial rolini chuqur o‘rganish lozim.

Kutilmagan oqibatlar: Inson his-tuyg‘ulariga sezgirlikni pasaytirish yoki nozik hissiy holatlarni noto‘g‘ri talqin qilish kabi hissiy tushunish uchun sun’iy intellektga tayanishning potensial xavflarini muhokama qilish.

Hissiy ajralish xavfi: sun’iy intellekt o‘zaro ta’siriga tobora ko‘proq bog‘liqlik tufayli haqiqiy hissiy tajribalardan ajralish ehtimoli bilan bog‘liq xavotirlarni chuqur o‘rganish.

Inson-kompyuter o‘zaro ta’siri: sun’iy intellektning shaxslararo munosabatlar va hissiy aloqalarga ta’sirini, shu jumladan yuzma-yuz o‘zaro ta’sirlarni kamaytirish potensialini baholash.

Sun’iy intellekt yordami va insonning hissiy aloqalarini muvozanatlash: O‘smirlik davrida sog‘lom kognitiv va hissiy rivojlanish uchun zarur bo‘lgan hissiy qo‘llab-quvvatlash uchun sun’iy intellektdan foydalanish va mazmunli insoniy aloqalarni saqlab qolish o‘rtasida muvozanatni saqlash strategiyalarini taklif qilish. Sun’iy intellekt va bolalar bilan bog‘liq xavotirlar asosan maxfiylik, xavfsizlik va axloqiy jihatlar atrofida aylanadi. Mana ba'zi potensial tahdidlar:

Maxfiylik bilan bog‘liq xavotirlar

- Ma’lumotlarni to‘plash: Bolalarga qaratilgan sun’iy intellekt ilovalari maxfiy ma’lumotlarni to‘plashi mumkin, bu esa ushbu ma’lumotlarning qanday ishlatilishi, saqlanishi va ulashilishi haqida xavotirlarni tug‘diradi.

- Onlayn xatti-harakatlarni kuzatish: Shaxsiylashtirilgan kontent uchun bolalarning onlayn xatti-harakatlarini kuzatish rozilik, ma’lumotlar xavfsizligi va potensial ekspluatatsiya haqida savollar tug‘diradi.

Nomaqbul kontentga ta’sir qilish

- Kontent algoritmlari: Sun’iy intellekt algoritmlari bolalarni tasodifan yoshga mos kelmaydigan kontentga duchor qilishi yoki filtr pufakchalarini yaratishi, turli nuqtai nazarlarni cheklashi mumkin.

Xavfsizlik xavflari

- Onlayn o‘zaro ta’sirlar: Sun’iy intellektga asoslangan platformalar noo‘rin o‘zaro ta’sirlar, kiberhujumlar yoki yirtqich xatti-harakatlarni keltirib chiqarishi mumkin, bu esa bolalar xavfsizligiga xavf tug‘diradi.

Giyohvandlik va farovonlik

- Ekran vaqti: Sun’iy intellektga asoslangan ilovalar va kontentdan haddan tashqari foydalanish ekranga qaramlikka olib kelishi mumkin, bu esa bolalarning aqliy va jismoniy farovonligiga ta’sir qiladi.

Xolislik va adolat

- Xolislik algoritmlari: Agar sun’iy intellekt tizimlari xolislikni namoyon qilsa, ular stereotiplarni kuchaytirishi yoki bolalarning ayrim guruhlariga nisbatan bexosdan kamsitishi mumkin.

Sun’iy intellektning axloqiy-psixologik salbiy ta’sirini kamaytirish uchun birinchi navbatda axloqiy me’yorlarga asoslangan SI tizimlarini ishlab chiqish zarur. Ta’lim jarayonida raqamli savodxonlik va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, sun’iy intellektdan foydalanishda inson qadri, mas’uliyat va nazorat mexanizmlarini ustuvor qilish lozim. Sun’iy intellekt zamonaviy taraqqiyotning ajralmas qismi bo‘lib, u katta imkoniyatlar bilan birga jiddiy axloqiy va psixologik muammolarni ham yuzaga keltirmoqda. Agar ushbu texnologiya ongli va mas’uliyatli tarzda

boshqarilmasa, qadriyatlarning noto‘g‘ri shakllanishiga va jamiyat ma’naviy inqiroziga sabab bo‘lishi mumkin. Shu bois sun’iy intellekt rivoji bilan bir qatorda insoniylik, axloq va ma’naviyat masalalari doimo e’tibor markazida bo‘lishi zarur.

O‘smirlik davri — bu shaxs shakllanadigan, dunyoqarash, axloqiy qarashlar va mustaqil fikrlash rivojlanadigan eng nozik bosqichdir. Shu sababli sun’iy intellektdan cheklanmagan va nazoratsiz foydalanish o‘smirlarning ruhiy, intellektual va ijtimoiy rivojiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Mazkur maqolada o‘smirlarning sun’iy intellektdan foydalanishida qanday cheklovlar bo‘lishi kerakligi, bu cheklovlarning ahamiyati va ularni amalga oshirish yo‘llari tahlil qilinadi. Sun’iy intellekt o‘smirlar uchun juda katta imkoniyatlar yaratadi. U individual o‘rganish, tezkor ma’lumot olish, murakkab tushunchalarni sodda shaklda tushuntirish kabi afzalliklarga ega. SI yordamida o‘smirlar chet tillarini o‘rganishi, mantiqiy fikrlashini rivojlantirishi va ijodiy salohiyatini oshirishi mumkin. Shu bilan birga, xavfli jihatlar ham mavjud. O‘smirlar hali tanqidiy fikrlash qobiliyati to‘liq shakllanmaganligi sababli sun’iy intellekt tomonidan berilgan ma’lumotlarni tekshirmasdan qabul qilishi mumkin. Bundan tashqari, noto‘g‘ri yoki zararli kontent, axloqiy me’yorlarga zid javoblar, psixologik bosim va texnologiyaga qaramlik xavfi ham mavjud. Shu nuqtai nazardan, sun’iy intellektdan foydalanishda ma’lum cheklovlarni belgilash zaruratga aylanadi. Ular quyidagilar.

Yoshga mos kontent cheklovlarining ahamiyati.

O‘smirlar uchun eng muhim cheklovlardan biri — bu yoshga mos bo‘lmagan kontentdan himoyalashdir. Sun’iy intellekt ochiq axborot manbalariga tayanib ishlagani sababli, nazorat bo‘lmasa, zo‘ravonlik, pornografiya, ekstremizm yoki o‘z joniga qasd qilishga oid ma’lumotlar bilan to‘qnash kelish ehtimoli yuqori. Bunday kontent o‘smir psixikasiga jiddiy zarar yetkazishi, qo‘rquv, tushkunlik yoki agressiv xatti-harakatlarga olib kelishi mumkin. Shu sababli sun’iy intellekt tizimlarida yosh filtrlari, avtomatik bloklash mexanizmlari va axloqiy standartlar qat’iy joriy etilishi lozim. Bundan tashqari, SI javoblari o‘smirning yoshiga mos tilda, sodda va tushunarli bo‘lishi, murakkab yoki noto‘g‘ri talqin qilinishi mumkin bo‘lgan mavzulardan ehtiyotkorlik bilan foydalanishi zarur.

Ta’lim jarayonida cheklovlar va akademik halollik

Bugungi kunda ko‘plab o‘smirlar sun’iy intellektdan uy vazifalarini bajarish, insho va referatlar yozish uchun foydalanmoqda. Agar bu jarayon nazoratsiz bo‘lsa, o‘quvchilarda mustaqil fikrlash va izlanish qobiliyati sustlashadi. Sun’iy intellekt o‘quvchi o‘rniga barcha ishni bajarib beruvchi vositaga aylanmasligi kerak. Aksincha, u murakkab mavzularni tushuntiruvchi, misollar keltiruvchi va o‘smirni o‘ylashga undovchi yordamchi bo‘lishi lozim. Ta’lim muassasalarida SI’dan foydalanish bo‘yicha aniq qoidalar ishlab chiqilishi, akademik halollik tamoyillari tushuntirilishi zarur. O‘qituvchilar va ota-onalar o‘smirlarni “tayyor javob olish” emas, balki “bilim olish” madaniyatiga o‘rgatishi muhim ahamiyatga ega.

Mustaqil va tanqidiy fikrlashni himoyalash

O‘smirlik davrida mustaqil fikrlash shakllanadi. Agar o‘smir har bir savoliga tayyor javobni sun’iy intellektdan olsa, u o‘z fikrini shakllantirishga kamroq harakat qiladi. Bu esa kelajakda qaror qabul qilish qobiliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli o‘smirlarga sun’iy intellekt javoblarini shubha ostiga olish, solishtirish va tahlil qilish o‘rgatilishi kerak. “Bu ma’lumot qayerdan olingan?”, “Boshqa manbalar nima deydi?” kabi savollarni berish ko‘nikmasi shakllantirilishi zarur. Cheklovlar o‘smirni fikrlashdan to‘xtatish emas, balki uni faol tafakkurga undashga xizmat qilishi lozim.

Shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish masalasi

O‘smirlar ko‘pincha internet va texnologiyalarning xavfini to‘liq anglamaydi. Sun’iy intellekt bilan muloqot jarayonida ular o‘z shaxsiy ma’lumotlarini, fotosuratlarini yoki joylashuvini oshkor qilishi mumkin. Bu esa ma’lumotlar o‘g‘irlanishi, kiberbosim yoki firibgarlik xavfini oshiradi. Shu sababli sun’iy intellekt platformalarida shaxsiy ma’lumotlarni kiritishni cheklash, ogohlantirishlar va maxfiylik bo‘yicha tushuntirishlar bo‘lishi shart. Ota-onalar va maktablar o‘smirlarga raqamli xavfsizlik qoidalarini muntazam tushuntirib borishi zarur.

Psixologik ta’sir va emotsional bog‘liqlikni cheklash

Ba’zi o‘smirlar sun’iy intellektni do‘st yoki maslahatchi sifatida qabul qila boshlaydi. Bu holat real ijtimoiy munosabatlarning o‘rnini bosib, yolg‘izlik va ijtimoiy ajralishga olib kelishi mumkin. Sun’iy intellekt hech qachon insoniy mehr, tushunish va professional psixologik yordamni to‘liq almashtira olmaydi. Shu sababli SI tizimlari o‘smirlarni real hayotdagi muloqotga, ota-ona, o‘qituvchi yoki mutaxassislarga murojaat qilishga undashi lozim. Ruhiy muammolar yuzaga kelganda sun’iy intellekt faqat yo‘naltiruvchi rolni bajarishi kerak.

Vaqt va qaramlikni cheklash

Sun’iy intellektdan haddan tashqari ko‘p foydalanish texnologik qaramlikni keltirib chiqarishi mumkin. Bu esa uyqu buzilishi, diqqatning pasayishi va jismoniy faollikning kamayishiga olib keladi.

O‘smirlar uchun foydalanish vaqtini cheklash, dam olish eslatmalari va muvozanatli hayot tarzini targ‘ib qilish muhim. Texnologiya hayotni osonlashtirishi kerak, uni boshqarib qo‘ymasligi kerak.

Muhokama. Sun’iy intellekt — zamonaviy jamiyatning ajralmas qismi bo‘lib, u o‘smirlar rivoji uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Biroq bu imkoniyatlar bilan birga jiddiy mas’uliyatni ham nazardan chetda qoldirmaslik kerak. O‘smirlarning sun’iy intellektdan foydalanishida yoshga mos kontent, ta’limiy, psixologik, axloqiy va vaqt bo‘yicha cheklovlar bo‘lishi zarur.

O‘smirlar psixologiyasi bilan ishlashda ulardagi sun’iy intellekt bilan bog‘liq muvozanatni ta’minlash kerak. Negaki, so‘nggi yillarda sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalarning o‘smirlar psixologik rivojlanishiga, kognitiv fikrlashiga ta’siri tobora kuchayib bormoqda. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, AQShdagi 13–17 yoshli o‘smirlarning 26 foizi ChatGPT kabi sun’iy intellekt vositalaridan maktab ishlari uchun foydalanadi[6]. Bu esa ta’lim jarayonida ijodkorlik, tezkorlik va ma’lumotlarni qayta ishlash imkoniyatlarini oshirsa-da, haddan tashqari foydalanish mustaqil fikrlash va tahliliy qobiliyatlarni susaytirishi mumkin.

Shuningdek, o‘smirlarning 34 foizi ruhiy salomatlik haqidagi ma’lumotlarni ijtimoiy tarmoqlardan olishadi[7]. Bu ijobiy jihatdan yoshlar uchun kerakli maslahatlarni tezkor topish imkonini bersa-da, salbiy tomoni - noto‘g‘ri yoki tekshirilmagan ma’lumotlarga duch kelish xavfi yuqori.

Yevropada o‘tkazilgan tadqiqotlarga ko‘ra, zararli ijtimoiy medialardan foydalanish darajasi 2018-yildagi 7 foizdan 2022-yilda 11 foizga oshgan. Bu raqam o‘smirlar orasida internet va sun’iy intellekt texnologiyalariga ortiqcha Ijtimoiy xavf-xatarlar: Yolg‘on ma’lumotlar va noto‘g‘ri kontent o‘smirlar ongiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. qaramlik kuchayib borayotganidan darak beradi.

AQSh Kasalliklarni nazorat qilish markazi (CDC) tadqiqotiga ko‘ra, ekran qarshisida ko‘p vaqt o‘tkazadigan o‘smirlarning 25,9 foizida depressiya simptomlari aniqlangan, kamroq vaqt o‘tkazadigan tengdoshlari orasida esa bu ko‘rsatkich 9,5 foizni tashkil etadi[8]. Demak, sun’iy intellekt texnologiyalari, ijtimoiy tarmoqlar va umuman ekran oldida o‘tkaziladigan vaqt bevosita psixologik holatga ta’sir ko‘rsatmoqda.

UNICEF ma’lumotlariga ko‘ra, ayrim mamlakatlarda yoshlarning uchdan bir qismi kiberjinoyatdan aziyat chekmoqda[9]. Bu esa sun’iy intellekt asosida ishlovchi ijtimoiy platformalar va ularning nazorat mexanizmlarini yanada kuchaytirish zarurligini ko‘rsatadi.

Sun’iy intellektning o‘smirlar psixologiyasiga ta’siri

Ta’sir yo‘nalishi	Ijobiy ta’sir (%)	Salbiy ta’sir (%)
Kognitiv rivojlanish	70	30
Emotsional rivojlanish	55	45
Ijtimoiy munosabatlar	65	35
O‘quv jarayoni	80	20

Jadvalda ko‘rinib turganidek o‘smirlar orasida sun’iy intellektdan foydalanishning ijobiy tomonlari bilan birga salbiy jihatlari ham sezilarli darajada.

Xulosa. Umuman olganda, bu borada o‘rganilgan statistikalar sun’iy intellekt o‘smirlarning bilim olish, muloqot qilish va ma’lumot topish jarayonida yangi imkoniyatlar yaratishini, biroq psixologik qaramlik, ruhiy tushkunlik va ijtimoiy muammolar xavfini ham kuchaytirishini ko‘rsatmoqda.

Shuning uchun sun’iy intellekt – asosiy vosita emas, balki yordamchi vosita sifatida xizmat qilishi kerak. SI yordamidan oldin mustaqil fikrlash va muammoni aniqlash ustun bo‘lishi kerak[2]. Ta’limda kognitiv ongni shakllantirish uchun o‘smirlar SI etikasi, mustaqil fikrlash va ongli foydalanish yo‘nalishida tarbiyalanishi zarur.

Sun’iy intellekt texnologiyalari o‘smirlarning kognitiv va psixologik rivojlanishida yangi bosqichni boshlab berdi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Bu texnologiyalar orqali bilimga bo‘lgan kirish imkoniyati kengaydi, o‘quv jarayonida interaktivlik va individual yondashuv kuchaydi, ijodiy fikrlashga turtki beruvchi vositalar shakllandi. Ayniqsa, chekka hududlardagi o‘smirlar uchun sifatli ta’lim resurslariga ega bo‘lish imkoni kengaydi. Shu bilan birga, bu jarayon muayyan xavflarni ham keltirib chiqarmoqda. Tanqidiy va mustaqil fikrlashga bo‘lgan ehtiyojning kamayishi, sun’iy intellektga haddan tashqari tayanish, emotsional va ijtimoiy ko‘nikmalarning zaiflashuvi bugungi kunda bu masala bo‘yicha chuqur tahlilni talab qilmoqda.

Kognitiv salohiyatni rivojlantirishda sun’iy intellektdan oqilona foydalanish, o‘smirlarning raqamli muhitda ongli harakat qilishini ta’minlash yana bir dolzarb vazifadir. Ta’lim muassasalari va oilalar ushbu texnologiyalarni nafaqat bilim manbayi, balki tarbiyaviy vosita sifatida to‘g‘ri yo‘naltira olsagina, sun’iy intellekt kognitiv rivojlanishni kuchaytiruvchi muhim omilga aylanishi mumkin. O‘smirlarni raqamli etikaga o‘rgatish, sun’iy intellekt vositalaridan me’yorida va maqsadli foydalanishni shakllantirish hamda ijtimoiy-emotsional rivojlanishni qo‘llab-quvvatlash - barqaror va sog‘lom avlodni tarbiyalashda muhim asos bo‘lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Akgun, M., and Toker, S. (2024). Evaluating the effect of pretesting with conversational AI on retention of need information. ArXiv, abs/2412.13487. doi: 10.48550/arXiv.2412.13487
Ijtimoiy mas’uliyat	Jamiyat va xodimlar oldidagi burchni anglash (Quronov, 2003, b. 115)	Adolat va halollik tamoyillari kuchayadi	Tashkilot nufuzi va ishonch darajasi oshadi
Rahbarning shaxsiy namunasi	Xulq-atvor, qarorlarda adolat va vijdonlilik (Jurayev, 2007, b. 40)	Xodimlar uchun ijobiy namuna shakllanadi	Boshqaruv jarayonlari tizimli va samarali bo‘ladi

Jadvalda ko‘rsatganidek, rahbar shaxsi ma’naviyati va axloqi shakllanishi bir qator ijtimoiy-psixologik omillar ta’sirida kechadi. Ma’naviy qadriyatlar, milliy an’analar va oilaviy tarbiya rahbarda vijdonlilik, adolatlilik va insoniylik hissini rivojlantirib, qarorlar qabul qilishda adolat va shaffoflikni ta’minlaydi. Bu omil jamoada ishonch va barqaror psixologik muhit yaratishda muhim ahamiyatga ega.

Ijtimoiy muhit va jamoa psixologiyasi rahbarning xolislik va mas’uliyat hissini mustahkamlaydi. Xodimlar bilan samarali muloqot va ishonch muhitini shakllantirish rahbarning axloqiy namunasini

kuchaytirib, xodimlarning faolligi va tashabbuskorligini oshiradi. Shuningdek, rahbarning shaxsiy namunasi xodimlar uchun ijobiy model sifatida xizmat qiladi va jamoada madaniy hamjihatlikni ta’minlaydi.

Shaxsiy psixologik xususiyatlar, jumladan, empatiya, stressga chidamlilik va emotsional barqarorlik, rahbarda axloqiy barqarorlik va sabr-toqatni rivojlantirib, nizoli vaziyatlarda to‘g‘ri va konstruktiv qarorlar qabul qilish imkonini beradi. Korporativ madaniyat va ishlab chiqilgan axloqiy kodeks rahbarning xulq-atvor standartlarini mustahkamlaydi va tashkilotda barqaror boshqaruv va sog‘lom psixologik muhit yaratishga xizmat qiladi.

Ijtimoiy mas’uliyat va rahbarning shaxsiy namunasi rahbarning ma’naviy-axloqiy kamolotini mustahkamlab, tashkilotning ijtimoiy nufuzi va ishonchini oshiradi. Bu omillar birgalikda rahbarlikdagi qarorlar sifatini yaxshilash, jamoa faolligini oshirish va tashkilotning barqaror rivojlanishini ta’minlaydi.

Shu bilan, rahbar shaxsi ma’naviyati va axloqi shakllanishi — bu individual psixologik xususiyatlar, ijtimoiy muhit, jamoa munosabatlari va korporativ madaniyat uyg‘unligi natijasida yuzaga keladigan kompleks ijtimoiy-psixologik jarayondir. Mavzu bo‘yicha ma’naviy-axloqiy omillarga e’tibor qaratilgan tadqiqotlar rahbar kadrlarni tayyorlash va rivojlantirish jarayonlarida muhim ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatadi.

Xulosa va takliflar. Tadqiqot natijalari ko‘rsatadiki, rahbar shaxsi ma’naviyati va axloqi shakllanishi ko‘p qirrali ijtimoiy-psixologik jarayon hisoblanadi. Bu jarayonda ijtimoiy muhit, jamoa munosabatlari, shaxsiy psixologik xususiyatlar, korporativ madaniyat va rahbarning shaxsiy namunasi asosiy rol o‘ynaydi. Ma’naviy qadriyatlar va axloqiy prinsiplarga asoslangan rahbarlik tashkilotda ishonch va barqaror psixologik muhitni ta’minlaydi, jamoa faolligini oshiradi va qarorlar samaradorligini ta’minlaydi.

Rahbarning axloqiy va ma’naviy kamoloti faqat individual psixologik sifatlar bilan cheklanmay, balki ijtimoiy muhit va korporativ madaniyat bilan uyg‘unlikda rivojlanadi. Shu bois rahbarlik kadrlarini tayyorlashda va rivojlantirishda ma’naviy-axloqiy omillar va ijtimoiy-psixologik sharoitlarga alohida e’tibor qaratish zarur.

Amaliyot uchun tavsiya qilinadi, tashkilotlarda rahbarlikka tayyorlov dasturlari tarbiyaviy va axloqiy komponentlarni o‘z ichiga olgan holda tashkil etilsin. Jamoada ishonch va hamjihatlik muhitini mustahkamlash uchun rahbar shaxsi misolida adolatlilik, vijdonlilik va emotsional barqarorlik kabi sifatlar namoyon qilinsin. Shuningdek, korporativ madaniyat va axloqiy kodekslar rahbarlik jarayonida ijobiy ta’sir ko‘rsatishi uchun muntazam qayta ko‘rib chiqilib, xodimlar uchun ham tushunarli va qo‘llash oson bo‘lishi ta’minlansin.

Shu tariqa, rahbar shaxsi ma’naviyati va axloqi shakllanishini ta’minlash, tashkilotda barqaror psixologik muhitni yaratish va boshqaruv samaradorligini oshirishda muhim omil sifatida xizmat qiladi. Mavzu bo‘yicha ilmiy va amaliy tadqiqotlar shu yo‘nalishda rivojlantirilishi maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar:

1. Erkayev A. Ma’naviyat — millat kamoloti asosi. – Toshkent: Ma’naviyat, 2001. – B. 45-62.
2. Quronov M. Ma’naviyat va jamiyat. – Toshkent: Akademiya, 2003. – B. 112-130.
3. Shoumarov Sh. Ijtimoiy psixologiya. – Toshkent: O‘qituvchi, 2004. – B. 78-95.
4. Juraev R. Kadrlar tayyorlashda ma’naviy-axloqiy tarbiya. – Toshkent: Fan, 2007. – B. 34-50.
5. Safayev N. Boshqaruv psixologiyasi va rahbar shaxsi. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2012. – B. 88-105.
6. To‘ychiev Yo., Xolmurodov B. Zamonaviy rahbarlik va korporativ madaniyat. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2018. – B. 56-74.
7. Raxmonov A. Ijtimoiy-psixologik muammolar va rahbar shaxsi. – Toshkent: Fan, 2010. B. 22-40.
8. Abdullayev Sh. Ma’naviyat va rahbarlik psixologiyasi. – Toshkent: Akademik nashr, 2015. – B. 60-85.
9. Ismoilov J. Boshqaruvda etika va axloq. – Toshkent: Iqtisod va siyosat, 2017. – B. 35-55.
10. Yunusov B. Ma’naviy kamolot va tashkilotda psixologiya. – Toshkent: Fan va bilim, 2019. – B. 45-70.
11. Sobirov F. Jamiyatda rahbarning ma’naviy roli. – Toshkent: Innovatsiya va taraqqiyot, 2020. – B. 12-30.
12. Tursunov N. Korporativ madaniyat va rahbarlik sifatlari. – Toshkent: Fan va texnika, 2021. – B. 50-68.

TALABALARDA KOGNITIV AVTONOMIYANI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Mamadiyeva Zilola Shavkat qizi,
Termiz davlat universiteti tayanch doktoranti
zilolamamadiyeva@gmail.com
ORCID: https://orcid.org/0009-0007-3256-2859

Mazkur maqolada talabalarda kognitiv avtonomiyani rivojlantirish zamonaviy oliy ta’lim tizimida dolzarb pedagogik muammo sifatida tahlil qilinadi. Kognitiv avtonomiya talabaning mustaqil fikrlashi, bilimlarni ongli ravishda o‘zlashtirishi, muammoli vaziyatlarda qaror qabul qilishi hamda o‘z o‘quv faoliyatini boshqara olishi bilan bog‘liq murakkab pedagogik hodisa sifatida talqin etiladi. Maqolada kognitiv avtonomiyaning pedagogik mohiyati, uni rivojlantirishga to‘sqinlik qilayotgan omillar, an’anaviy va zamonaviy ta’lim yondashuvlari o‘rtasidagi ziddiyatlar ilmiy jihatdan asoslanadi. Tadqiqot natijalari talabalarda kognitiv avtonomiyani shakllantirish pedagogik jarayonni modernizatsiya qilishni talab etishini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: *kognitiv avtonomiya, pedagogik muammo, metakognitiv, refleksiya, talaba faolligi, ta’lim sifati.*

РАЗВИТИЕ КОГНИТИВНОЙ АВТОНОМИИ СТУДЕНТОВ КАК ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА

В настоящей статье развитие когнитивной автономии у студентов рассматривается как актуальная педагогическая проблема в современной системе высшего образования. Когнитивная автономия трактуется как сложное педагогическое явление, связанное со способностью студента к самостоятельному мышлению, сознательному усвоению знаний, принятию решений в проблемных ситуациях и управлению собственной учебной деятельностью. В статье научно обосновывается педагогическая сущность когнитивной автономии, выявляются факторы, препятствующие её развитию, а также анализируются противоречия между традиционными и современными подходами к обучению. Результаты исследования показывают, что формирование когнитивной автономии у студентов требует модернизации педагогического процесса.

Ключевые слова: *когнитивная автономия, педагогическая проблема, метакогнитивный, рефлексия, студенческая активность, качество образования.*

DEVELOPING COGNITIVE AUTONOMY IN STUDENTS AS A PEDAGOGICAL PROBLEM

This article analyzes the development of cognitive autonomy in students as a pressing pedagogical problem within the modern higher education system. Cognitive autonomy is interpreted as a complex pedagogical phenomenon related to a student's capacity for independent thought, conscious assimilation of knowledge, decision-making in problematic situations, and the ability to manage their own learning activities. The article scientifically substantiates the pedagogical essence of cognitive autonomy, the factors hindering its development, and the conflicts between traditional and modern educational approaches. The research findings indicate that fostering cognitive autonomy in students necessitates the modernization of the pedagogical process.

Keywords: *cognitive autonomy, pedagogical problem, metacognitive, reflection, student engagement, quality of education.*

Kirish. Zamonaviy oliy ta’lim tizimi globallashuv, raqamli transformatsiya sharoitida tubdan yangilanib bormoqda. Bugungi kunda jamiyat rivoji uchun faqat tayyor bilimlarni egallagan emas, balki mustaqil fikrlay oladigan, muammoli vaziyatlarda tez va oqilona qaror qabul qiladigan, o‘z bilish faoliyatini ongli ravishda boshqara oladigan mutaxassislarni tayyorlash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtayi nazardan, talabaning ta’lim jarayonidagi faol subyekt sifatidagi o‘rni tobora kuchayib bormoqda.

Mazkur jarayonda talabaning kognitiv avtonomiyasi ta’lim samaradorligini belgilovchi muhim omillardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Kognitiv avtonomiya talabaning o‘z bilish jarayonini rejalashtirish, nazorat qilish, baholash, mustaqil bilim izlash va refleksiya yuritish qobiliyatlarini o‘zida mujassamlashtirgan murakkab pedagogik hodisadir. Biroq amaliy ta’lim jarayonida ko‘plab talabalarda

ushbu sifat yetarli darajada shakllanmaganligi, ularning o‘qituvchi ko‘rsatmalariga haddan tashqari bog‘lanib qolayotgani kuzatilmoqda.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. An’anaviy o‘qitish yondashuvlarining ustunligi, reproduktiv xarakterdagi topshiriqlarning ko‘pligi, mustaqil va reflektiv faoliyatga yetarli e’tibor berilmasligi talabalarda kognitiv avtonomiya rivojlanishiga to‘sqinlik qilmoqda. Shu bois talabalarda kognitiv avtonomiyani rivojlantirish masalasini pedagogik muammo sifatida chuqur ilmiy tahlil qilish dolzarb vazifaga aylanmoqda.

Bunday vaziyatda kognitiv avtonomiyani rivojlantirish masalasi nafaqat individual talabaning o‘quv faoliyati samaradorligi, balki butun ta’lim tizimining sifat ko‘rsatkichlari bilan ham chambarchas bog‘liqdir. Chunki kognitiv avtonomiyaga ega bo‘lgan talaba o‘z bilim faoliyatini tashqi nazoratga tayanmasdan, ichki ehtiyoj va motivlar asosida tashkil etadi, o‘rganilayotgan materialning mazmunini chuqur anglaydi va uni yangi vaziyatlarda qo‘llay olishga intiladi. Bu esa bilimlarning barqarorligi va amaliy ahamiyatini oshiradi.

Pedagogik tadqiqotlarda kognitiv avtonomiya tushunchasi ko‘pincha mustaqil ta’lim, o‘z-o‘zini boshqarish, metakognitiv kompetensiya va reflektiv fikrlash bilan uzviy bog‘liq holda talqin etiladi. Ushbu jihatlar talabaning o‘z bilish faoliyatini anglash, rejalashtirish va baholash jarayonida faol ishtirok etishini ta’minlaydi. Shunga qaramay, amaliy ta’lim jarayonida bu komponentlar ko‘pincha e’tibordan chetda qolib, ta’lim jarayoni asosan bilimlarni uzatishga yo‘naltirilgan holda tashkil etilmoqda.

Talabalarda kognitiv avtonomiyaning yetarli darajada shakllanmasligi bir qator salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi. Xususan, talabalar mustaqil qaror qabul qilishda ishonchsizlikka duch keladi, murakkab vaziyatlarda tayyor yo‘riqnomalarni kutishga moyil bo‘ladi, o‘z xatolarini tahlil qilish va ulardan xulosa chiqarish ko‘nikmalari esa sust rivojlanadi. Natijada ta’lim jarayoni yuzaki o‘zlashtirish bilan cheklanib, chuqur va barqaror bilimlar shakllanmaydi.

Shu bilan birga, bugungi kunda oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilaridan nafaqat nazariy bilimlar, balki amaliy muammolarni mustaqil hal eta olish, tanqidiy fikrlash, tez moslashish va o‘z ustida ishlash qobiliyatlari talab etilmoqda. Bu talablar esa bevosita kognitiv avtonomiyaning rivojlanganlik darajasi bilan belgilanadi.

Demak, talabalarda kognitiv avtonomiyani rivojlantirish masalasi faqat pedagogik emas, balki ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega bo‘lgan muammo sifatida ham namoyon bo‘ladi.

Ta’lim jarayonida kognitiv avtonomiyani rivojlantirishga to‘sqinlik qilayotgan omillardan biri o‘quv mashg‘ulotlarining mazmuni va tashkil etilish shakllarida talaba faolligiga yetarlicha e’tibor berilmayotganidir. Ko‘plab mashg‘ulotlarda talabaning bilish faoliyati tayyor ma’lumotlarni eslab qolish va qayta bayon etish bilan cheklanib qolmoqda. Bu holat esa talabaning mustaqil fikrlashi va reflektiv tahlil ko‘nikmalarining rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Zamonaviy pedagogik yondashuvlar esa, aksincha, talabaning bilish jarayonidagi faol rolini kuchaytirishni, uni ta’lim jarayonining markaziy subyekti sifatida shakllantirishni nazarda tutadi. Bunday yondashuvlarda ta’lim jarayoni muammoli vaziyatlar, tadqiqotga yo‘naltirilgan topshiriqlar, mustaqil izlanish va refleksiyaga asoslangan faoliyat orqali tashkil etiladi. Aynan shu jarayonlar talabalarda kognitiv avtonomiyani rivojlantirish uchun qulay pedagogik shart-sharoit yaratadi.

O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar ham talabalarning mustaqil ta’limini rivojlantirish, ularning intellektual salohiyatini oshirish va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga alohida e’tibor qaratmoqda. Ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlarda talabaning mustaqil faoliyatini kuchaytirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish muhim vazifalar sifatida belgilangan. Bu esa kognitiv avtonomiyani rivojlantirish masalasini ilmiy asosda tadqiq etishni yanada dolzarb etadi.

Shu nuqtayi nazardan, talabalarda kognitiv avtonomiyani rivojlantirishni pedagogik muammo sifatida o‘rganish ta’lim jarayonida mavjud bo‘lgan an’anaviy yondashuvlar bilan zamonaviy ta’lim talablari o‘rtasidagi ziddiyatlarni aniqlash, ularni bartaraf etish yo‘llarini belgilash imkonini beradi. Mazkur muammo bo‘yicha olib boriladigan ilmiy izlanishlar oliy ta’lim tizimida ta’lim samaradorligini oshirishga, talabalarning bilish faolligini kuchaytirishga va ularni raqobatbardosh mutaxassis sifatida tayyorlashga xizmat qiladi.

Mavzuning dolzarbligi. Bugungi kunda oliy ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar ta’lim jarayonini shaxsga yo‘naltirilgan, kompetensiyaviy va innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etishni talab etmoqda. Zamonaviy jamiyatda bilimlarning tez yangilanishi, axborot oqimining keskin ortishi hamda raqamli texnologiyalarning ta’lim jarayoniga keng joriy etilishi talabalardan mustaqil fikrlash, bilimlarni tanlab va ongli ravishda o‘zlashtirish, shuningdek, o‘z o‘quv faoliyatini boshqara olish ko‘nikmalariga ega bo‘lishni taqozo etadi.

Amaliy kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, talabalarning muayyan qismi hali ham tayyor bilimlarni qabul qilishga moyil bo‘lib, mustaqil tahlil qilish, refleksiya yuritish va muammoli vaziyatlarda qaror qabul

qilishda qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Bu holat, asosan, ta’lim jarayonida o‘qituvchi markazli yondashuvlarning saqlanib qolayotgani va mustaqil ta’lim faoliyatining yetarli darajada tashkil etilmaganligi bilan izohlanadi. Natijada talabalarning kognitiv faolligi va intellektual mustaqilligi past darajada qolmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ta’lim sohasini rivojlantirishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlarida ham oliy ta’lim sifatini oshirish, mustaqil ta’limni kuchaytirish, tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan. Ushbu vazifalarni amaliyotga samarali tatbiq etish esa talabalarda kognitiv avtonomiyani rivojlantirishning pedagogik mexanizmlarini ilmiy asosda o‘rganishni talab qiladi.

Shu sababli talabalarda kognitiv avtonomiyani rivojlantirish masalasini pedagogik muammo sifatida tadqiq etish ta’lim nazariyasi va amaliyoti o‘rtasidagi mavjud ziddiyatlarni aniqlash, ularni bartaraf etish yo‘llarini belgilash hamda oliy ta’lim jarayonini modernizatsiya qilish uchun muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Mazkur muammoning dolzarbligi shundaki, oliy ta’lim jarayonida kognitiv avtonomiyaning yetarli darajada rivojlanmaganligi talabalarning o‘quv faoliyatida passivlik, tashabbussizlik va tashqi nazoratga yuqori darajada bog‘liqlikni keltirib chiqarmoqda. Bunday sharoitda talabalarning bilimlarni mustaqil egallashi, ularni tahlil qilishi va amaliyotga tatbiq etishi cheklanib qolmoqda. Natijada ta’lim jarayonida chuqur, barqaror va tizimli bilimlar shakllanishi sekinlashadi.

Bugungi mehnat bozori sharoitida mutaxassisdan nafaqat kasbiy bilim va ko‘nikmalar, balki tez moslashuvchanlik, muammoli vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish, tanqidiy va ijodiy fikrlash kabi universal kompetensiyalar ham talab etilmoqda. Ushbu kompetensiyalarning shakllanishi bevosita talabaning kognitiv avtonomiyasi bilan bog‘liq bo‘lib, uning rivojlanish darajasi bitiruvchining kasbiy va ijtimoiy muvaffaqiyatini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi.

Shu bilan birga, raqamli ta’lim muhitining kengayib borishi talabaning o‘quv faoliyatida yanada mustaqil bo‘lishini taqozo etmoqda. Masofaviy ta’lim, onlayn platformalar, raqamli o‘quv resurslaridan samarali foydalanish uchun talaba o‘z bilish jarayonini mustaqil rejalashtira olishi, axborotni tanlash va baholash, o‘z faoliyatini nazorat qilish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi lozim. Agar ushbu ko‘nikmalar yetarli darajada shakllanmagan bo‘lsa, raqamli muhit ta’lim samaradorligini oshirish o‘rniga aksincha, yuzaki o‘zlashtirishga olib kelishi mumkin.

Ta’lim amaliyotida kuzatilayotgan yana bir muhim jihat shundan iboratki, talabalarda kognitiv avtonomiyani rivojlantirish masalasi ko‘pincha alohida pedagogik vazifa sifatida ko‘rilmay, umumiy ta’lim jarayonining ikkinchi darajali komponenti sifatida baholanadi. Bu esa mazkur muammoni tizimli ravishda hal etishga to‘sqinlik qiladi. Holbuki, kognitiv avtonomiya ta’lim mazmuni, metodlari va shakllari bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan kompleks pedagogik hodisa hisoblanadi.

Shu nuqtayi nazardan, talabalarda kognitiv avtonomiyani rivojlantirishni pedagogik muammo sifatida chuqur o‘rganish oliy ta’lim tizimida ta’lim sifati va samaradorligini oshirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur muammoni ilmiy asosda tahlil qilish, uning sabablari va oqibatlarini aniqlash, shuningdek, samarali pedagogik yechimlarni ishlab chiqish ta’lim jarayonini zamonaviy talablar asosida takomillashtirishga xizmat qiladi.

Demak, talabalarda kognitiv avtonomiyani rivojlantirish masalasining dolzarbligi nafaqat ta’lim nazariyasi nuqtayi nazaridan, balki oliy ta’lim amaliyoti, mehnat bozori ehtiyojlari va jamiyat taraqqiyoti bilan ham chambarchas bog‘liqdir. Ushbu muammoni pedagogik tadqiqot obyekti sifatida tanlash va uni ilmiy asosda o‘rganish zamonaviy oliy ta’lim oldida turgan dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Tadqiqot obyekti va qo‘llanilgan metodlar. Mazkur tadqiqotning obyekti oliy ta’lim muassasalarida ta’lim olayotgan talabalarning o‘quv-bilish faoliyati hisoblanadi.

Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi:

– ilmiy-pedagogik va psixologik adabiyotlarni tahlil qilish;

– pedagogik kuzatuv;

– suhbat va so‘rovnomalar;

– diagnostik testlar;

– tajriba-sinov ishlari;

– taqqoslash va umumlashtirish usullari.

Mazkur metodlar talabalarda kognitiv avtonomiya darajasini aniqlash va mavjud pedagogik muammolarni ochib berishga xizmat qildi.

Natijalar va ularning tahlili. O‘tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, talabalarning aksariyatida o‘quv faoliyatini mustaqil rejalashtirish, o‘z bilimlarini baholash va refleksiya yuritish ko‘nikmalari yetarli darajada shakllanmagan. Dastlabki diagnostika natijalarida talabalar asosan reproduktiv

faoliyatga yo‘naltirilganligi, muammoli vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilishda qiyinchiliklarga duch kelayotgani aniqlandi.

Tajriba-sinov jarayonida mustaqil ta’limga yo‘naltirilgan topshiriqlar, reflektiv mashg‘ulotlar va muammoli vaziyatlar asosida tashkil etilgan o‘quv faoliyati talabalarning kognitiv faolligi va mustaqilligini oshirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Natijalarning taqqoslama tahlili kognitiv avtonomiyani rivojlantirishga yo‘naltirilgan pedagogik yondashuvlar samarador ekanligini tasdiqladi.

Xulosa va takliflar Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, talabalarda kognitiv avtonomiyani rivojlantirish zamonaviy oliy ta’lim tizimining muhim va murakkab pedagogik muammolaridan biri hisoblanadi. Kognitiv avtonomiya talabaning mustaqil fikrlash qobiliyati, o‘z bilish faoliyatini ongli rejalashtirish, nazorat qilish va baholash, shuningdek, muammoli vaziyatlarda mas’uliyatli qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Ushbu sifatning yetarli darajada rivojlanmaganligi talabalarning o‘quv jarayonida passiv ishtirok etishiga, tayyor bilimlarni qabul qilishga qaram bo‘lib qolishiga olib kelmoqda.

Tadqiqot jarayonida aniqlanishicha, an’anaviy o‘qitish usullarining ustunligi, reproduktiv xarakterdagi topshiriqlarning ko‘pligi, mustaqil va reflektiv faoliyatga yetarli sharoit yaratilmaganligi talabalarda kognitiv avtonomiyaning shakllanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu bilan birga, ta’lim jarayonida metakognitiv yondashuvlar, muammoli ta’lim, mustaqil izlanishga yo‘naltirilgan topshiriqlar va reflektiv mashg‘ulotlardan tizimli foydalanish talabalarning kognitiv faolligi va intellektual mustaqilligini oshirishga xizmat qilishi aniqlandi.

Tajriba-sinov natijalari talabalarning o‘quv faoliyatini mustaqil rejalashtirish, bilimlarni tahliliy qayta ishlash, o‘z-o‘zini baholash va refleksiya yuritish ko‘nikmalarida ijobiy o‘zgarishlar yuz berganini ko‘rsatdi. Bu esa kognitiv avtonomiyani rivojlantirishga qaratilgan pedagogik yondashuvlarning amaliy jihatdan samarali ekanligini tasdiqlaydi. Shu nuqtayi nazardan, kognitiv avtonomiya oliy ta’lim jarayonining muhim pedagogik natijalaridan biri sifatida e’tirof etilishi lozim.

Olingan ilmiy xulosalar asosida quyidagi amaliy takliflar ilgari suriladi:

1. Ta’lim jarayonida kognitiv avtonomiyani rivojlantirish ustuvor pedagogik maqsad sifatida belgilanishi, o‘quv dasturlari va fan mazmunida mustaqil fikrlash va refleksiv faoliyatga yo‘naltirilgan topshiriqlar ulushini oshirish zarur.
2. Mustaqil ta’lim faoliyatini tizimli tashkil etish, talabalarning o‘z bilish jarayonini rejalashtirish va nazorat qilish ko‘nikmalarini rivojlantiruvchi metodlardan keng foydalanish lozim.
3. Muammoli ta’lim, tadqiqotga yo‘naltirilgan o‘qitish va metakognitiv strategiyalarni o‘quv jarayoniga bosqichma-bosqich joriy etish tavsiya etiladi.
4. O‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini oshirish, xususan, kognitiv va metakognitiv metodlardan samarali foydalanish bo‘yicha malaka oshirish kurslarini yo‘lga qo‘yish maqsadga muvofiqdir.
5. Ta’lim jarayonida refleksiv muhit yaratish, talabalarning o‘z o‘quv faoliyatini baholash va tahlil qilishiga imkon beruvchi shart-sharoitlarni ta’minlash zarur.

Xulosa qilib aytganda, talabalarda kognitiv avtonomiyani rivojlantirish nafaqat ta’lim samaradorligini oshirish, balki raqobatbardosh, mustaqil fikrlovchi va ijtimoiy mas’uliyatli mutaxassislarni tayyorlashda muhim pedagogik omil hisoblanadi. Mazkur tadqiqot natijalari oliy ta’lim amaliyotida kognitiv avtonomiyani rivojlantirishga qaratilgan pedagogik yondashuvlarni takomillashtirish uchun ilmiy-metodik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF–5847-son “O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni (2019).
2. Saidahmedov N. S. (2018). Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent: Fan va texnologiya.
3. Yo‘ldoshev J. G‘,Usmonov S. A.. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. Toshkent: O‘qituvchi. (2017)
4. Abdullayeva M. A. Talabalarda mustaqil ta’lim ko‘nikmalarini rivojlantirishning pedagogik asoslari (pedagogika fanlari bo‘yicha PhD dissertatsiya). Toshkent. (2020).
5. Mamadiyeva Z.Sh. Talabalarda metakognitiv ko‘nikmalarni shakllantirish orqali autokompetentlikni tarkib toptirish. Tanqidiy nazar, tahliliy tafakkur va innovatsion g‘oyalar, (2025)195–197.
6. Mamadiyeva Z. Sh.. Talabalarning kognitiv avtonomiyasini rivojlantirish: nazariy va metodologik yondashuvlar. Farg‘ona metodika maktabi – Fergana Methodical School, (2025)1(3), 92–96.

7. Flavell J. H. Metacognition and cognitive monitoring: A new area of cognitive–developmental inquiry. American Psychologist, 34(10), 906–911.

8. Brown A. L. Metacognition, executive control, self-regulation, and other more mysterious mechanisms. In Metacognition, Motivation, and Understanding. Hillsdale, NJ: Lawrence Erlbaum Associates.

9. Schraw G., & Dennison R. S.. Assessing metacognitive awareness. Contemporary Educational Psychology, 19(4), 460–475.

10. Zimmerman B. J.. Becoming a self-regulated learner: An overview. Theory Into Practice, (2002)41(2), 64–70.

11. Holec H. Autonomy and foreign language learning. Oxford: Pergamon Press.

UO‘K 373.2;37.013;378

TALABALARDA LIDERLIK KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH BO‘YICHA MAHALLIY VA XORIJIY TAJRIBA TAHLILI

Narimbayeva Lola Kuzibayevna,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
“Maktabgacha va boshlang’ich ta’lim metodikasi” kafedrasi
dotsenti, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Lolaxon@tdau.uz

Ushbu maqolada talabalarning liderlik salohiyatini transformatsiya qilishda talabalar o‘z-o‘zini boshqarish institutlarining funksional roli qiyosiy tahlil etilgan. Germaniya, Polsha, Skandinaviya davlatlari hamda Rossiya va O‘zbekiston tajribasi misolida mazkur tizimlarning huquqiy-iqtisodiy determinatlari, boshqaruv iyerarxiyasidagi statusi va talabalarning professional kompetensiyalarini shakllantirishdagi strategik ahamiyati yoritilgan.

Shuningdek maqolada talabalar o‘z-o‘zini boshqarishini turli yo‘nalishlar bo‘yicha Yevropa va MDH mamlakatlari, mahalliy olimlarning qarashlarini tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: *talabalar, o‘z-o‘zini boshqarish, rivojlantirish, liderlik sifati, tajriba, ob’ektivlik, qiyosiy tahlil, tizimlilik, tamoyillar, mexanizm,tatqiqot, transformatsiya, strategik hamkorlik, ijtimoiy subyekt, ko‘nikma,model, daraja, intellectual,talabalar almashinuvi.*

АНАЛИЗ ОТЕЧЕСТВЕННОГО И ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА РАЗВИТИЯ ЛИДЕРСКИХ НАВЫКОВ У СТУДЕНТОВ

В данной статье проводится сравнительный анализ функциональной роли институтов студенческого самоуправления в трансформации лидерского потенциала молодёжи. На примере опыта Германии, Польши, стран Скандинавии, а также России и Узбекистана освещаются правовые и экономические детерминанты данных систем, их статус в управленческой иерархии и стратегическое значение в формировании профессиональных компетенций студентов. Кроме того, в статье анализируются взгляды европейских, отечественных и учёных стран СНГ на развитие студенческого самоуправления по различным направлениям.

Ключевые слова: *студенты, самоуправление, развитие, лидерские качества, опыт, объективность, сравнительный анализ, системность, принципы, механизм, исследование, трансформация, стратегическое партнёрство, социальный субъект, навык, модель, уровень, интеллектуальный, студенческий обмен.*

ANALYSIS OF LOCAL AND FOREIGN EXPERIENCE IN DEVELOPING LEADERSHIP SKILLS IN STUDENTS

This study presents a comparative analysis of the functional role of student self-government institutions in the transformation of youth leadership potential. Drawing on the experiences of Germany, Poland, the Scandinavian countries, as well as Russia and Uzbekistan, the article highlights the legal and economic determinants of these systems, their status within the management hierarchy, and their strategic importance in developing students' professional competencies. Furthermore, the article analyzes the perspectives of European, local, and CIS scholars regarding the development of student self-government across various dimensions.

Keywords: *students, self-government, development, leadership qualities, experience, objectivity, comparative analysis, systematic approach, principles, mechanism, research, transformation, strategic partnership, social subject, skill, model, level, intellectual, student exchange.*

Kirish. So‘nggi yillarda oliy ta’lim tizimida talabalarning o‘z hayot faoliyatini tashkil etish jarayonlariga integratsiyalashuvi zarurati ekstrapolyatsiya qilinmoqda. Ushbu hodisa talabalar muhitiga an’anaviy davlat ta’sirining transformatsiyalashuvi hamda talaba yoshlarning ijtimoiy subyekt sifatida o‘zini namoyon qilish ehtiyoji bilan interpretatsiya qilinadi. Talabalar o‘z-o‘zini boshqarishi nafaqat demokratik institut, balki bo‘lajak mutaxassislarda boshqaruv va liderlik ko‘nikmalarini shakllantiruvchi amaliy-metodologik platforma sifatida namoyon bo‘ladi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Akademik doiralarda ushbu mavzu O.A. Buryakova, I.B. Ignatova, T.M. Davidenko va V.I. Kovalenko kabi tadqiqotchilar tomonidan konseptual o‘rganilgan bo‘lib, ular talabalar faolini universitet ma’muriyatining strategik hamkori sifatida tavsiflaydilar. Talabalar o‘z-o‘zini boshqarishini rivojlantirishning dolzarbligi talabalar muhitiga rasmiy davlat va jamoat ta’sirining tabiiy ravishda minimallashishi hamda subyektlarning o‘z hayot faoliyati jabhalarini optimallashtirishga faol jalb etilishi bilan bevosita bog‘liq.

Zamonaviy universitet menejmentida talabalar korpusining o‘rni T.M. Davidenko, V.I. Kovalenko, A. Kostyuchenko, N.D. Nikandrov, A.V. Sadovnichiy va M.I. Sitnikova kabi tadqiqotchilarning ilmiy ishlarida yoritilgan. Ushbu mualliflar talabalar faollarini universitet ma’muriyatining strategik hamkori sifatida e’tirof etadilar. Ularning qarashlariga ko‘ra, ma’muriyat tomonidan boshqaruv funksiyalarining bir qismini talabalarga delegatsiya qilinishi ya’ni,vakolatlar berilishi oliy ta’lim tashkilotining umumiy samaradorligini oshiruvchi muhim omildir.

Talabalarda liderlik sifatlarini shakllantirish va ularning professional moslashuvidagi o‘rni sotsiologik tadqiqotlar kontekstida o‘rganilgan. Xususan, Moskva davlat psixologiya-pedagogika universiteti olimlarining empirik tahlillari shuni ko‘rsatadiki, kreativ fikrlash, stressga chidamlilik va mas’uliyat kabi “soft skills” ko‘nikmalari talabalar tomonidan professional muvaffaqiyatning asosiy poydevori sifatida qabul qilinadi. Bu borada talabalar o‘z-o‘zini boshqarishi amaliyotga yo‘naltirilgan muhit vazifasini o‘tashi ta’kidlanadi.

Mavzuning huquqiy asosi sifatida Boloniya jarayoni doirasidagi hujjatlar va Berlin kommyunikesi muhim ahamiyatga ega. Ushbu xalqaro hujjatlarda talabalar tashkilotlari oliy ta’limni boshqarish tizimining teng huquqli hamkorlari ekanligi qat’iy belgilab qo‘yilgan. Bu esa Yevropa va MDH mamlakatlari akademik makonida talabalar huquqlarini himoya qilishning huquqiy kafolati bo‘lib xizmat qiladi.

Adabiyotlarda Germaniya akademik erkinlik, Finlyandiya Xelsinki modeli – iqtisodiy mustaqillik Polsha resurslarni tasarruf etish va Skandinaviya qaror qabul qilishda talabalarning 30-50% ulushi tajribalari alohida modellar sifatida tahlil qilingan. Bu tadqiqotlar har bir mamlakatning madaniy va huquqiy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda talabalar o‘z-o‘zini boshqarishining variativligini ko‘rsatib beradi.

Adabiyotlar sharhi shuni ko‘rsatadiki, mavzu bo‘yicha nazariy baza yetarli darajada shakllangan bo‘lsada, har bir mamlakatning xususan, O‘zbekistonning o‘ziga xos milliy tajribasini tizimli tahlil qilish va uni xalqaro andozalar bilan qiyoslash dolzarb tadqiqot yo‘nalishi bo‘lib qolmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotning metodologik asosi yoshlarda liderlik ko‘nikmalarini rivojlantirishda talabalar o‘z-o‘zini boshqarish tizimining samaradorligini aniqlashga qaratilgan kompleks yondashuvdan iborat. Tadqiqot jarayoni ob’ektivlik, qiyosiy tahlil va tizimlilik tamoyillariga tayanadi.

Tadqiqot davomida quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi:

Germaniya, Polsha, Finlyandiya, Daniya, Rossiya va O‘zbekistonning talabalar o‘z-o‘zini boshqarish tizimiga oid me’yoriy-huquqiy bazasi va amaliy tajribasi o‘zaro solishtirildi.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti Maktabgacha va boshlang’ich ta’lim fakultetining 40 nafar talabasi o‘rtasida liderlik sifatlarini baholash yuzasidan o‘tkazilgan empirik ma’lumotlar tahlil qilindi.

Talabalar tashkilotlari Chirchiq davlat pedagogika universitet boshqaruv iyerarxiyasidagi o‘rni va funksional vazifalari nuqtai nazaridan o‘rganildi.

Mavjud tajribalarni umumlashtirish orqali yoshlar liderlik salohiyatini oshirishning umumiy modellari ishlab chiqildi.

Tadqiqotning empirik va nazariy bazasini quyidagilar tashkil etdi:

Yevropa oliy ta’lim makonidagi xalqaro hujjatlar (Boloniya deklaratsiyasi, Berlin kommyunikesi).

Xorijiy universitetlarning (Varshava, Xelsinki, Orxus va Germaniya OTMlari) rasmiy ustavlari va yillik hisobotlari.

O‘zbekiston va xorijiy mamlakatlarning ta’limga oid qonunchilik hujjatlari.

Ilmiy davriy nashrlar va elektron ta’lim resurslari (window.edu.ru va b.).

Tadqiqot to‘rt bosqichda amalga oshirildi:

Mavzuga oid adabiyotlar va nazariy qarashlar tahlil qilindi.

Turli mamlakatlardagi talabalar o‘z-o‘zini boshqarish modellarining moliyaviy, huquqiy va ijtimoiy jihatlari bo‘yicha ko‘rsatkichlar jamlandi.

To‘plangan ma’lumotlar asosida Yevropa va MDH modellari o‘rtasidagi farqli va o‘xshash jihatlar aniqlandi.

Olingan natijalar asosida xulosalar va amaliy tavsiyalar shakllantirildi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, talabalar o‘z-o‘zini boshqarish tizimi shunchaki ma’muriy tuzilma emas, balki liderlik kapitalini shakllantiruvchi murakkab ijtimoiy mexanizmdir. Olingan ma’lumotlar asosida quyidagi tahliliy natijalarni taqdim etamiz:

O‘rganilgan mamlakatlar tajribasini uchta asosiy modelga ajratish mumkin. Tahlillar natijasida ularning liderlikni rivojlantirishdagi samaradorlik darajasi quyidagicha aniqlandi:

Avtonom-iqtisodiy model (Finlyandiya, Germaniya): Bu modelda talabalar ittifoqlari (masalan, Xelsinki modeli) o‘z biznes-tuzilmalariga ega. Natijada, talaba yetakchilari real iqtisodiy jarayonlarni boshqaradi, bu esa ularda strategik menejment va moliyaviy mustaqillik ko‘nikmalarini 85-90% gacha yuqori darajada shakllantiradi.

Ishtirokchi-demokratik model (Daniya, Norvegiya): Universitet kengashlarida 30% dan 50% gacha vakillikka ega bo‘lish talabalarga oliy ta’lim siyosatiga ta’sir qilish imkonini beradi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, bu muhitda talabalar muzokara olib borish va kollegial qaror qabul qilish ko‘nikmalarini o‘zlashtiradilar.

Ijtimoiy-hamkorlik modeli (O‘zbekiston, Rossiya): Bu modelda asosiy urg‘u loyihaviy boshqaruv va ijtimoiy nazoratga beriladi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, bu tizim talabalarda tashkilotchilik va ijtimoiy mas’uliyat sifatlarini shakllantirishda samarali, biroq iqtisodiy mustaqillik darajasi nisbatan past.

Empirik natijalar: Liderlik sifatlarining iyerarxiyasi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabalari o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rovnoma natijalari professional muvaffaqiyat uchun zarur bo‘lgan liderlik sifatlarining quyidagi ustuvorligini ko‘rsatdi:

Kreativ fikrlash va muammolarni hal qilish: 92% respondentlar buni eng muhim deb hisoblaydi.

Stressga chidamlilik va moslashuvchanlik: 88% holatlarda professional adaptatsiyaning asosi deb topildi.

Mas’uliyat va qaror qabul qilish: 85% respondentlar talabalar o‘z-o‘zini boshqarish faoliyati orqali ushbu sifatlarni amalda sinab ko‘rganliklarini ta’kidlashdi.

Funksional yo‘nalishlar samaradorligi.

Tadqiqot davomida talabalar o‘z-o‘zini boshqarishning turli yo‘nalishlari qaysi turdagi liderlik kompetensiyasini rivojlantirishi tahlil qilindi:

Ilmiy-tadqiqot yo‘nalishi: Analitik fikrlash va loyihalarni boshqarish.

Ijtimoiy-maishiy yo‘nalish: Empatiya, huquqiy savodxonlik va himoya qilish

O‘quv-tashkiliy yo‘nalish: Nazorat qilish va resurslarni taqsimlash ko‘nikmalari.

O‘zbekiston tajribasidagi transformatsion natijalar

O‘zbekistonda talaba yetakchilarining Ilmiy kengash tarkibiga kiritilishi va "Korrupsiyasiz soha" loyihalaridagi ishtiroki quyidagi natijalarni berdi:

Talabalarning boshqaruvga bo‘lgan ishonchi ortdi;

Jamoatchilik nazorati mexanizmi orqali shaffoflik ta’minlandi;

Liderlik sifatlari nazariy tushunchadan real fuqarolik pozitsiyasiga aylandi.

Model xususiyatlari	**G‘arbiy Yevropa (Finlyandiya, Germaniya)**	**Skandinaviya (Daniya, Norvegiya)**	**MDH va O‘zbekiston (Rossiya, O‘zbekiston)**
Boshqaruv shakli	Korporativ-avtonom	Kollegial-demokratik	Konsultativ-hamkorlik
Qaror qabul qilishdagi ulushi	Yuqori (Veto huquqi mavjud)	Juda yuqori (50% gacha ovoz)	O‘rtacha (Maslahat ovozi)
Moliyaviy manba	Shaxsiy biznes va badallar	Davlat va OTM kafolati	OTM va davlat grantlari
Liderlikka ta’siri	Strategik boshqaruv ko‘nikmasi	Muzokaralar va jamoaviy ish	Tashkilotchilik va nazorat

Xalqaro tajriba tahlili shuni tasdiqlaydiki, talabalar o‘z-o‘zini boshqarish tizimiga qanchalik ko‘p real vakolat va resurslar berilsa, u yerdan yetishib chiqadigan kadrlarning liderlik salohiyati shunchalik yuqori bo‘ladi. Germaniya va Finlyandiya modellaridagi "to‘liq mas’uliyat" prinsipi eng yuqori natija ko‘rsatmoqda.

Xulosa. Olib borilgan qiyosiy tahlillar va xalqaro tajriba interpretatsiyasi asosida yoshlarda liderlik ko‘nikmalarini rivojlantirishda talabalar o‘z-o‘zini boshqarish tizimining roli bo‘yicha quyidagi konseptual xulosalarga kelindi:

1. Talabalar o‘z-o‘zini boshqarish – liderlik kompetensiyalarini shakllantirishning institutsional platformasi

Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, talabalar o‘z-o‘zini boshqarish organlari nafaqat ijtimoiy faollik markazi, balki bo‘lajak mutaxassislar uchun “soft skills” majmuasini shakllantiruvchi amaliy poligondir. Germaniya va Skandinaviya tajribasi tasdiqlaganidek, qaror qabul qilish jarayonlarida bevosita ishtirok etish talabalarda mas’uliyat, strategik rejalashtirish va krizis holatlarida boshqaruv ko‘nikmalarini tabiiy ravishda rivojlantiradi.

2. Avtonomiya va moliyaviy mustaqillikning ahamiyati

Xelsinki va Varshava universitetlari misolida ko‘rildiki, talabalar o‘z-o‘zini boshqaris tizimining samaradorligi uning moliyaviy va huquqiy avtonomiyasi bilan korrelyatsiya qilinadi. Talabalar tashkilotlarining shaxsiy byudjetga ega bo‘lishi va uni mustaqil tasarruf etishi – liderlikning eng muhim qirrasi bo‘lgan resurslarni boshqarish qobiliyatini yuzaga chiqaradi. Rossiya va O‘zbekiston tajribasida ushbu yo‘nalish ko‘proq davlat va oliy ta’lim tashkiloti grantlariga tayanadi, bu esa boshqaruvda ma’muriy hamkorlik modelini shakllantiradi.

3. “Akademik erkinlik” va individual mas’uliyat.

Germaniya oliy ta’lim tizimidagi akademik erkinlik tamoyili talabani o‘z o‘quv trayektoriyasini mustaqil modellashtirishga undaydi. Bu jarayon talabada o‘z-o‘zini boshqarish va vaqtdan unumli foydalanish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Mazkur tajribani mahalliy ta’lim tizimiga tadbiq etish, talabalarga tanlov fanlari va mustaqil ta’lim jarayonida ko‘proq vakolatlar berish maqsadga muvofiqdir.

4. Ijtimoiy nazorat va korrupsiyaga qarshi kurash.

O‘zbekiston tajribasida talabada o‘z-o‘zini boshqarish tizimining "Korrupsiyasiz soha" loyihalariga va jamoatchilik nazoratiga integratsiyalashuvi o‘ziga xos demokratik modelni yuzaga keltirmoqda. Bu nafaqat liderlikni, balki talabalarda fuqarolik pozitsiyasi va ijtimoiy adolat tamoyillarini mustahkamlaydi. Talaba yetakchilarining Ilmiy kengash tarkibiga kiritilishi esa ularning statusini "maslahatchi"dan "qaror qabul qiluvchi" darajasiga ko‘tardi.

5. Strategik takliflar.

Tahlillar natijasidan kelib chiqib, yoshlar liderlik salohiyatini yanada oshirish uchun quyidagilar taklif etiladi:

-Talabalar tashkilotlarining moliyaviy mustaqilligini kichik biznes loyihalari yoki maqsadli fondlar orqali bosqichma-bosqich oshirish;

-Yevropa ittifoqi (ESIB) tajribasidan kelib chiqib, xalqaro talabalar almashinuvi dasturlarini boshqaruv yo‘nalishida ham kengaytirish;

-Liderlik ko‘nikmalarini baholashning metrik ko‘rsatkichlarini (KPI) ishlab chiqish va ularni talabaning professional portfolioga kiritish.

Talabalar o‘z-o‘zini boshqarish tizimi — bu shunchaki universitet ichidagi struktura emas, balki mamlakatning intellektual va boshqaruv elitasi zaxirasini shakllantiruvchi strategik muhim institutdir.

Adabiyotlar:

1. Болонская декларация. Совместное заявление европейских министров образования 19 июня 1999 г.

2. Берлинское коммюнике. Материалы конференции министров образования стран-участниц Болонского процесса 2003 г.

3. O‘zbekiston Respublikasining O‘RQ-637-son «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni. 2020-yil 23-sentabr.

4. Бурякова О.А. Педагогические условия развития студенческого самоуправления в современном вузе. – М., 2011.

5. Давиденко Т.М., Коваленко В.И. Управление современным вузом: теория и практика. – Белгород: Изд-во БелГУ, 2008.

6. Игнатова И.Б. Студенческое самоуправление как фактор формирования социальной активности молодёжи // Культура и образование. – 2014.

7. Коваленко В.И. Теоретические основы управления студенческим корпусом в условиях трансформации высшей школы. – СПб., 2010.

8. Никандров Н.Д. Россия: социализация и воспитание на рубеже тысячелетий. – М.: Гелиотс, 2000.

9. Тимерманис И.Э. Методологические основы самоуправления в образовательных учреждениях. – СПб.: Наука, 2009.

10. Единое окно доступа к образовательным ресурсам: Информационная система / «Информатика». – URL: http://window.edu.ru

11. European Students' Union (ESU/ESIB). Official reports on student participation in governance. – URL: https://www.esu-online.org.

12. Helsingin yliopiston ylioppilaskunta (HYY). Helsinki University Student Union Annual Report. – URL: https://hyy.fi/en.

13. Universität Berlin (AStA/StuPa). Studentische Selbstverwaltung in Deutschland: Handbuch. – URL: https://www.asta.fu-berlin.de.

BO‘LAJAK BOSHLANG’ICH SINF O‘QITUVCHILARIDA KREATIVLIK KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH TIZIMINING SAMARADORLIGI

Nazarova Madinabonu Narzi qizi,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi,
boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 1-bosqich magistranti
madinabonunazarova02@gmail.com

Mazkur ilmiy maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida kreativlik ko‘nikmalarini shakllantirish tizimining pedagogik samaradorligi nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda kreativlik tushunchasining zamonaviy talqinlari, uni boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisi kasbiy kompetentligining ajralmas qismi sifatida shakllantirish zarurati asoslab beriladi. Mualliflik yondashuviga tayangan holda kreativlikni rivojlantirishga xizmat qiluvchi didaktik shart-sharoitlar, ta’lim jarayonini tashkil etish mexanizmlari hamda ularning natijadorligi yoritilgan. Maqolada oliy pedagogik ta’lim muassasalarida qo‘llanilayotgan an’anaviy yondashuvlar imkoniyatlari va cheklovlari tahlil qilinib, kreativ yo‘naltirilgan tizimli ta’limning ustun jihatlari asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: *kreativlik, kreativ ko‘nikma, bo‘lajak o‘qituvchi, boshlang‘ich ta’lim, pedagogik tizim, ta’lim samaradorligi.*

ЭФФЕКТИВНОСТЬ СИСТЕМЫ ФОРМИРОВАНИЯ КРЕАТИВНЫХ НАВЫКОВ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

В данной научной статье с теоретической и практической точек зрения анализируется педагогическая эффективность системы формирования креативных умений у будущих учителей начальных классов. В исследовании обоснованы современные трактовки понятия креативности и необходимость её формирования как неотъемлемой составляющей профессиональной компетентности учителя начального образования. На основе авторского подхода раскрываются дидактические условия, способствующие развитию креативности, механизмы организации образовательного процесса и их результативность. В статье также анализируются возможности и ограничения традиционных подходов, применяемых в высших педагогических образовательных учреждениях, и обосновываются преимущества креативно ориентированной системной модели обучения.

Ключевые слова: *креативность, креативные умения, будущий учитель, начальное образование, педагогическая система, эффективность образования.*

THE EFFECTIVENESS OF THE SYSTEM FOR DEVELOPING CREATIVE SKILLS IN FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS

In this scientific article, the pedagogical effectiveness of the system for developing creative skills in prospective primary school teachers is analyzed from both theoretical and practical perspectives. The study substantiates modern interpretations of the concept of creativity and emphasizes the necessity of forming it as an integral component of the professional competence of primary education teachers. Based on an authorial approach, the article highlights didactic conditions that promote the development of creativity, mechanisms for organizing the educational process, and their effectiveness. Additionally, the possibilities and limitations of traditional approaches used in higher pedagogical education institutions are examined, and the advantages of a creativity-oriented systemic education model are justified.

Keywords: *creativity, creative skills, prospective teacher, primary education, pedagogical system, educational effectiveness.*

Kirish. Bugungi globallashuv va axborotlashuv sharoitida ta’lim tizimi oldiga qo‘yilayotgan talablar tubdan o‘zgarmoqda. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichi o‘qituvchisining kasbiy tayyorgarligi nafaqat fan bilimlari, balki ijodiy fikrlash, noodatiy pedagogik vaziyatlarga moslashish, innovatsion yondashuvlarni amaliyotga tatbiq eta olish kabi sifatlarni ham talab etadi. Shu nuqtayi nazardan, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida kreativlik ko‘nikmalarini shakllantirish oliy pedagogik ta’limning ustuvor vazifalaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bugungi kunda raqamli texnologiyalar va interaktiv ta’lim resurslarining keng

qo’llanishi boshlang’ich sinf o’qituvchilaridan nafaqat an’anaviy bilimlarni, balki kompyuter savodxonligi va pedagagogik dizayn ko’nikmalarini ham talab qiladi. Kreativlikni shakllantirish jarayonida individual yondashuv va talabaning shaxsiy qiziqishlariga moslashtirilgan pedagogik strategiyalar muhim rol o’ynaydi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko’rsatadiki, muammoli vaziyatlarda faol ishtirok etish va interfaol mashg’ulotlar talabalar ijodiy fikrlashini sezilarli darajada rivojlantiradi. Pedagogik faoliyatda ijodiy yondashuvni rag’batlantirish, o’quv materiallarini modellashtirish va real pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish orqali talabalar mustaqil va kritik fikrlash qobiliyatiga ega bo’ladi. Zamonaviy ta’limda kreativlikni baholash mezonlari faqat natija emas, balki talabaning izlanish jarayoni va innovatsion yondashuvlarini qo'llash darajasi bilan belgilanadi. Shu bilan birga kreativlikni rivojlantirish tizimining samaradorligi pedagogik muhitning qo’llab-quvvatlashi va o’qituvchi tomonidan yaratiladigan psixologik xavfsizlik bilan ham bevosita bog’liq hisoblanadi. Chunki pedagogik jarayonda psixologik xavfsiz muhit yaratish talabalarning xato qilishdan qo’rqmasdan, erkin ijodiy fikr bildirishlariga yo'l ochadi.

Tadqiqot metodologiyasi va adabiyotlarning tahlili. Kreativlik masalasi uzoq yillar davomida psixologik hodisa sifatida o‘rganilgan bo‘lsa-da, hozirgi davrda u pedagogik kategoriya sifatida keng talqin etilmoqda. J. Guilford kreativlikni divergent tafakkur bilan bog‘lab izohlagan bo‘lsa, E. Torrance uni shaxsning muammolarga nisbatan original yechim topish qobiliyati sifatida talqin qiladi. Ushbu yondashuvlar ta’lim jarayonida kreativlikni ongli va tizimli shakllantirish mumkinligini ko‘rsatadi. Boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisining kasbiy faoliyati bevosita kichik yoshdagi o‘quvchilarning tafakkuri, tasavvuri va mustaqil fikrlashini rivojlantirish bilan bog‘liq. Shu sababli o‘qituvchining o‘zi kreativ bo‘lmasa, ta’lim jarayonida kreativ muhitni yaratish mushkul bo‘ladi. Bu esa bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash jarayonida kreativlikni shakllantirish tizimining samaradorligini ilmiy asosda o‘rganishni taqozo etadi. Mazkur maqola nazariy-tahliliy xarakterga ega bo‘lib, unda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida kreativlik ko‘nikmalarini shakllantirish masalasi mavjud ilmiy manbalar va pedagogik yondashuvlar asosida tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida ilmiy adabiyotlarni o‘rganish, taqqoslash, tahlil va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida kreativlik ko‘nikmalarini shakllantirish tizimi, avvalo, pedagogik ta’lim mazmuni, shakl va metodlarining o‘zaro uyg‘unligiga tayanadi. An’anaviy ta’lim amaliyotida bilimlarni reproduktiv o‘zlashtirish ustuvor bo‘lib, talabaning ijodiy faolligi yetarli darajada rag‘batlantirilmaydi. Vaholanki, zamonaviy ta’lim paradigmasi talabaning shaxsiy tajribasi, mustaqil fikri va kreativ yondashuvini rivojlantirishni talab etadi. Ilmiy adabiyotlar tahlili va pedagogik yondashuvlarni taqqoslash asosida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida kreativlik ko‘nikmalarini shakllantirish tizimi samaradorligi muayyan pedagogik shart-sharoitlar bilan bog‘liq ekani asoslandi: ta’lim jarayonining muammoli xarakterda tashkil etilishi, interfaol metodlardan maqsadli foydalanish, refleksiv faoliyatni rag‘batlantirish hamda talabaning mustaqil ijodiy faoliyatiga keng imkoniyat yaratish. Mazkur shartlar mavjud bo‘lgan ta’lim muhitida talabalar bilimni tayyor holatda emas, balki izlanish va tahlil asosida egallaydi. L.S. Vygotskiy tomonidan ilgari surilgan “yaqin rivojlanish zonasi” haqidagi g‘oya bo‘lajak o‘qituvchilarda kreativlikni shakllantirishda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu yondashuvga ko‘ra, talabaning imkoniyatlari faqat mavjud bilimlar bilan cheklanmaydi, balki to‘g‘ri pedagogik yo‘naltirish orqali uning yashirin ijodiy salohiyatini ochish mumkin. Shu bois kreativlikni shakllantirish tizimi talabaning individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda tashkil etilishi zarur.

Tahlil va olingan natijalar. Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalarning kreativlik ko‘nikmalarini rivojlantirishda amaliy mashg‘ulotlarning o‘rni alohida ahamiyat kasb etadi. Dars ishlanmalari tuzish, muammoli vaziyatlarni modellashtirish, rolli o‘yinlar va pedagogik loyihalar talabaning kasbiy tafakkurini faollashtiradi. P. Torrance ta’kidlaganidek, kreativlik faqat iqtidor natijasi emas, balki muayyan mashq va muhit mahsulidir. Tizim samaradorligini baholash jarayonida talabalar kreativ fikrlashining moslashuvchanligi, original g‘oya ilgari surish qobiliyati va pedagogik vaziyatlarga noodatiy yondashuvi asosiy mezon sifatida qaraldi. Ilmiy manbalarda keltirilgan natijalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, kreativlikka yo‘naltirilgan ta’lim tizimida tahsil olgan talabalar pedagogik muammolarni hal etishda yuqori faollik va mustaqillik namoyon etadi. O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, kreativlik ko‘nikmalarini shakllantirish tizimi faqat alohida fan yoki mashg‘ulot doirasida emas, balki butun pedagogik ta’lim jarayonini qamrab olgan holda amalga oshirilgandagina yuqori samaradorlikka erishadi. Yana shuni qo’shimcha qilish mumkinki, rolli o’yinlar va pedagogik loyihalar talabalarda muammolarni mustaqil hal qilish qobiliyatini oshiradi va ularni real pedagogik vaziyatlarga tayyorlaydi. N.V. Kuzmina o‘qituvchi kasbiy mahoratini tizimli faoliyat sifatida talqin qilib, unda ijodiy komponentning yetakchi o‘rinni egallashini ta’kidlaydi. Shuningdek, A.V. Xutorskoy tomonidan ilgari surilgan kompetensiyaviy yondashuv kreativlikni bo‘lajak o‘qituvchi tayyorgarligining muhim natijasi sifatida qarash imkonini beradi. Ushbu yondashuvda bilim emas, balki uni amaliy vaziyatda qo‘llash qobiliyati ustuvor hisoblanadi. Bu esa

kreativlik ko‘nikmalarini shakllantirish tizimining samaradorligini yanada oshiradi. Maqolada bayon etilgan xulosalar bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida o‘quv mashg‘ulotlarini loyihalash va metodik ta’minotni takomillashtirishda foydalanilishi mumkin.

Munozara. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida kreativlik ko‘nikmalarini shakllantirish tizimi pedagogik jarayon samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Rolli o‘yinlar va pedagogik loyihalar talabalarning muammoli vaziyatlarda ijodiy fikrlashini rag‘batlantiradi va ularni mustaqil yechim topishga undaydi. Interfaol metodlardan foydalanish o‘quv jarayonida talabalarni faol ishtirok etishga undaydi, bu esa ularning kreativ salohiyatini yanada rivojlantiradi ,tizimli pedagogik yondashuv talabalarning amaliy ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi va pedagogik vaziyatlarga noodatiy yondashuvni rivojlantiradi. Shaxsiy va guruh ishlari orqali talabalar innovatsion fikrlash va hamkorlik ko‘nikmalarini mustahkamlaydi, bu esa kelajakdagi professional faoliyatga tayyorgarlikni oshiradi. Pedagogik loyihalarni amalga oshirish jarayonida talabalarning o‘z g‘oyalarini tizimli va strukturalashgan tarzda ifoda eta olish qobiliyati shakllanadi. Didaktik shart-sharoitlarning to‘g‘ri tanlanishi talabalarning ijodiy faoliyatini rag‘batlantiradi va ularning motivatsiyasini oshiradi. Vygotskiy “yaqin rivojlanish zonasi” g‘oyasi talabalarning yashirin ijodiy salohiyatini ochish va rivojlantirishda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi, kreativlikka yo‘naltirilgan ta’lim tizimida talabalarning pedagogik muammolarni hal qilish qobiliyati yuqori darajada namoyon bo‘ladi. Interfaol va innovatsion pedagogik metodlar ta’lim jarayonini qiziqarli va motivatsion qiladi, bu esa talabalarni faol ishtirokga undaydi. Tizimli yondashuv va refleksiv mashg‘ulotlar talabalarning ijodiy fikrlashini mustahkamlash bilan birga, ularning kasbiy kompetentligini oshirishga xizmat qiladi, talabalarning original g‘oya ishlab chiqish qobiliyati va muammolarga noodatiy yondashuvi tizim samaradorligining asosiy mezonidir. Kompetensiyaviy yondashuv talabalarga bilimni amaliy vaziyatda qo‘llash imkonini beradi, bu esa ularning professional faoliyatga tayyorgarligini kuchaytirad hamda pedagogik muhit va o‘qituvchining psixologik qo‘llab-quvvatlashi talabalarning ijodiy salohiyatini oshiradi.Talabalar ijodiy faoliyat orqali muammoli vaziyatlarda tez va moslashuvchan qarorlar qabul qilishni o‘rganadi. Shu bilan birga, tizimli va maqsadga yo‘naltirilgan pedagogik yondashuv talabalarning shaxsiy rivojlanishi bilan bevosita bog‘liqdir. Kreativlikni shakllantirish tizimi talabalarning kasbiy kompetentligini oshirishga va ularni kelajakdagi pedagogik faoliyatga tayyorlashga xizmat qiladi. Olingan natijalar an’anaviy ta’lim yondashuvlaridan farqli ravishda, talabaning mustaqil fikrlash va amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir. Shu bilan birga, tizimli pedagogik yondashuv va ijodiy mashg‘ulotlar birgalikda talabalarning bilim, ko‘nikma va kreativ salohiyatini yanada oshiradi. Shu sababli, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlashda kreativlik ko‘nikmalarini shakllantirish tizimi ustuvor ahamiyatga ega bo‘ladi.

Xulosa. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida kreativlik ko‘nikmalarini shakllantirish tizimi pedagogik jarayon samaradorligini sezilarli darajada oshiradi, chunki talabalar interfaol va ijodiy mashg‘ulotlar orqali muammoli vaziyatlarni mustaqil hal qilishni o‘rganadi. Rolli o‘yinlar, pedagogik loyihalar va innovatsion metodlar talabalarning original g‘oya ishlab chiqish va noodatiy yondashuv qobiliyatini rivojlantiradi va tizimli pedagogik yondashuv talabalarning kasbiy kompetentligini oshirishga xizmat qiladi. Pedagogik shart-sharoitlarni to‘g‘ri tashkil etish va mentorlik tizimi talabalarning ijodiy faoliyatini rag‘batlantiradi, bu esa ularni kelajakdagi professional faoliyatga tayyorlaydi. Kompetensiyaviy yondashuv asosida bilimni amaliy vaziyatda qo‘llash talabalarning pedagogik malakasini mustahkamlaydi. Munozarada keltirilgan interfaol va innovatsion metodlar xulosada tasdiqlanib, tizimli pedagogik jarayonning samaradorligini oshiradi. Tizimli va maqsadga yo‘naltirilgan pedagogik yondashuv talabalarni shaxsiy rivojlanishi va kreativ salohiyatini oshirishga yo‘naltiradi. Shu sababli, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlashda kreativlik ko‘nikmalarini shakllantirish tizimi pedagogik ta’lim mazmunini takomillashtirish va samaradorligini oshirishda ustuvor ahamiyatga ega. Umuman olganda, tizimli, interfaol va ijodiy pedagogik yondashuvlar bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy va shaxsiy rivojlanishini birdek qo‘llab-quvvatlaydi, bu esa, zamonaviy ta’lim talablari bilan uzviy bog‘liqdir.

Xulosa qilib aytganda, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida kreativlik ko‘nikmalarini shakllantirish tizimi pedagogik ta’lim samaradorligini belgilovchi muhim omillardan biridir. Tizimli va maqsadga yo‘naltirilgan yondashuv asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni talabalar kreativ salohiyatining ochilishiga, ularning kasbiy kompetentligining oshishiga xizmat qiladi. Mazkur nazariy tahlil natijalari kreativlik ko‘nikmalarini shakllantirish masalasiga tizimli yondashuv zarurligini ko‘rsatadi hamda pedagogik ta’lim mazmunini takomillashtirish uchun metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Guilford J.P. The Nature of Human Intelligence. – New York: McGraw-Hill, 1967.

2. Torrance E.P. Creativity in the Classroom. – Washington: NEA, 1977.
3. Vygotskiy L.S. Tafakkur va nutq. – Moskva: Pedagogika, 1982.
4. Кузьмина Н.В. Профессионализм личности преподавателя. – Москва: Просвещение, 1990.
5. Хуторской А.В. Компетентностный подход в образовании. – Москва: Эидос, 2003.
6. Зимняя И.А. Педагогическая психология. – Москва: Логос, 2004.
7. Begimqulov U.Sh. Pedagogik innovatsiyalar. – Toshkent: Fan, 2018.
8. Yo‘ldoshev J.G‘. Boshlang‘ich ta’lim metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019.
9. Abdurahmonov F.R. Pedagogik kompetentlik asoslari. – Toshkent: Innovatsiya, 2020
10. Muslimov N.A. Bo’lajak kasb ta’limi o’qituvchilarini kasbiy shakllantirish. –T.:Fan,2004.
11. Xodjayev B.X., Choriyev A., Saliyeva Z.T. Pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi.-T.: Iqtisod dunyosi, 2018.
12. Karimova V., Akramova F. Psixologiya. –T.:2000
13. Ziyomuhamedov B., Abdullaeva Sh. Pedagogika. –T.: O’zbekiston milliy entsiklopediyasi ,2000.
14. Jumaev A. Bo’lajak o’qituvchi shaxsining ijtimoiy faollik omillari. / “Xalq ta’limi” jurnali , 2006.
15. Mavlanova R.A, Raxmonqulova N.X. Boshlang’ich ta’limda pedagogika, innovatsiya, integratsiya. –T.,2013.
16. Voloshyn, M., Babkina, M., & Yaremko, H. (2022). Pedagogical technologies for the development of students’ professional competence. // Revista Tempos e Espaços em Educação.
17. Загвязинский В.И. Методология и методика дидактических исследований /В.И. Загвязинский. – М.: Педагогика, 1992.
18. Новиков А.М. Структура педагогической деятельности. Является ли деятельность педагога управленческой и почему? / А.М. Новиков //Инновационные проекты и программы в образовании. – 2010.
19. Qodirov, Farrux. «Protecting websites from various attacks». Ахборот-коммуникация технологияларини ривожлантириш шароитида инновациялар мавзусидаги Республика илмий-амалий анжуман маърузалар тўплами (2019).
20. Qodirov, Farrux. “Raspberrey pi qurilmasining texnik xususiyatlari va uning imkoniyatlari”. ижтимоий соҳаларни рақамлаштиришда инновацион технологияларнинг ўрни ва аҳамияти республика илмий-амалий анжумани маърузалар тўплами (2020).

BO‘LAJAK TEXNOLOGIYA FANI O‘QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENSIYALARINI ANIQLASHDAGI YONDASHUVLAR

Nurmamatov Zuxriddin Shavkat o‘g‘li,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Maktabgacha ta’lim kafedrasi mudiri, p.f.f.d (PhD),
Shahrisabz, O‘zbekiston
zuxriddinnurmamatov50@gmail.com

Mazkur maqolada bo‘lajak “Texnologiya” fani o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini aniqlash va baholash masalalari yoritilgan. Tadqiqotda kompetensiyaviy yondashuv, tizimli yondashuv, faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuv hamda shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim konsepsiyalarining mazmuni tahlil qilingan. Shuningdek, bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish va aniqlashda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, innovatsion metodlar va baholash mezonlarining ahamiyati asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari pedagog kadrlar tayyorlash tizimida kompetensiyaviy yondashuvni takomillashtirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: *kasbiy kompetensiya, texnologiya fani, bo‘lajak o‘qituvchi, kompetensiyaviy yondashuv, pedagogik faoliyat, baholash mezonlari.*

ПОДХОДЫ К ОПРЕДЕЛЕНИЮ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ «ТЕХНОЛОГИИ»

В данной статье рассматриваются вопросы определения и оценки профессиональных компетенций будущих учителей предмета «Технология». В исследовании проанализировано содержание концепций компетентностного подхода, системного подхода, деятельностно-ориентированного подхода и личностно-ориентированного образования. Также обоснована важность современных педагогических технологий, инновационных методов и критериев оценки в формировании и определении профессиональных компетенций будущих учителей технологии. Результаты исследования способствуют совершенствованию компетентностного подхода в системе подготовки учителей.

Ключевые слова: *профессиональная компетентность, технология, будущий учитель, компетентностный подход, педагогическая деятельность, критерии оценки.*

APPROACHES TO DETERMINING THE PROFESSIONAL COMPETENCIES OF FUTURE TECHNOLOGY TEACHERS

This article examines the definition and assessment of the professional competencies of future technology teachers. The study analyzes the concepts of the competency-based approach, the systems approach, the activity-oriented approach, and the student-centered approach. The importance of modern pedagogical technologies, innovative methods, and assessment criteria in developing and defining the professional competencies of future technology teachers is also substantiated. The results of the study will serve to improve the competency-based approach in teacher training.

Keywords: *professional competence, technical skills, future teachers, competency-based approach, teaching activities, assessment criteria.*

Kirish. Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida ta’lim tizimi oldiga qo‘yilayotgan talablar tobora murakkablashib bormoqda. Ayniqsa, umumta’lim maktablarida o‘qitiladigan “Texnologiya” fanining mazmuni va metodikasi zamonaviy ishlab chiqarish, texnika va texnologiyalar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, bu holat bo‘lajak o‘qituvchilardan yuqori darajadagi kasbiy kompetensiyalarni talab etadi.

O‘zbekiston Respublikasi ta’lim sohasidagi islohotlar doirasida pedagog kadrlarni tayyorlashda kompetensiyaviy yondashuv yetakchi o‘rinni egallamoqda. Ushbu yondashuv faqat bilim berish bilan cheklanib qolmasdan, balki talabalarda amaliy faoliyatni samarali tashkil eta olish, muammoli vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish, innovatsion fikrlash kabi sifatlarni shakllantirishni nazarda tutadi.

“Texnologiya” fani o‘qituvchisining kasbiy faoliyati o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, u pedagogik, texnik, dizaynerlik, iqtisodiy va mehnat madaniyati elementlarini o‘zida mujassamlashtiradi. Shu

sababli bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini aniqlash va baholash uchun kompleks yondashuvlarni ishlab chiqish dolzarb ilmiy-pedagogik muammo hisoblanadi.

Pedagogika fanida “kasbiy kompetensiya” tushunchasi so‘nggi yillarda keng qo‘llanilmoqda va u mutaxassisning kasbiy faoliyatni samarali amalga oshirishga tayyorlik darajasini ifodalaydi. Ilmiy manbalarda kasbiy kompetensiya quyidagi jihatlar orqali tavsiflanadi:

- kasbiy bilimlar majmuyi;
- amaliy ko‘nikma va malakalar;
- shaxsiy sifatlar (mas’uliyat, ijodkorlik, tashabbuskorlik);
- kasbiy faoliyatga nisbatan motivatsiya va qadriyatlar.

Mazkur tadqiqotning maqsadi bo‘lajak “Texnologiya” fani o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini aniqlashdagi asosiy yondashuvlarni tahlil qilish va ularning samaradorligini asoslab berishdan iborat.

Tadqiqot metodlari. Tadqiqot jarayonida quyidagi ilmiy-tadqiqot metodlaridan foydalanildi:

Nazariy tahlil-pedagogik, psixologik va metodik adabiyotlarni o‘rganish orqali kasbiy kompetensiya tushunchasining mohiyatini aniqlash;

Taqqoslash va umumlashtirish – turli yondashuvlar asosida shakllantirilgan kompetensiya modellarini solishtirish;

Izimli tahlil-bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchisining kasbiy kompetensiyalarini yaxlit tizim sifatida ko‘rib chiqish;

Pedagogik kuzatuv-ta’lim jarayonida talabalarning kasbiy faoliyatga tayyorgarlik darajasini aniqlash;

Diagnostik metodlar-so‘rovnoma, test va amaliy topshiriqlar orqali kompetensiyalarni baholash.

Bo‘lajak “Texnologiya” fani o‘qituvchisining kasbiy kompetensiyasi umumiy pedagogik kompetensiyalardan tashqari, texnik-texnologik bilimlarga asoslanganligi bilan ajralib turadi. Bu esa mazkur fan o‘qituvchisidan ishlab chiqarish texnologiyalari, mehnat xavfsizligi, dizayn asoslari va zamonaviy texnik vositalarni bilishni talab etadi.

Hozirgi kunda texnologiya fani faqatgina qo‘l mehnati yoki buyum yasash bilan cheklanmaydi. U o‘quvchilarda:

- texnologik tafakkur;
- loyiha faoliyati ko‘nikmalari;
- kasbga yo‘naltirish madaniyati;
- innovatsion fikrlash qobiliyatlarini shakllantiradi.

Tadqiqot obyekti oliy ta’lim muassasalarida “Texnologiya” fani bo‘yicha pedagog kadrlar tayyorlash jarayoni bo‘lsa, predmeti esa bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini aniqlashdagi yondashuvlar hisoblanadi.

Tizimli yondashuv kasbiy kompetensiyalarni alohida elementlar emas, balki yagona tizim sifatida ko‘rib chiqadi. Ushbu yondashuvga ko‘ra:

- bilim → ko‘nikma → malaka → kompetensiya ketma-ketligi ta’minlanadi;
- nazariya va amaliyot o‘zaro bog‘lanadi;
- talabaning shaxsiy rivojlanishi hisobga olinadi.

Faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuvda talabaning real pedagogik faoliyatdagi harakatlari asosiy mezon sifatida olinadi. Ushbu yondashuv quyidagi vositalar orqali amalga oshiriladi:

- amaliy mashg‘ulotlar;
- pedagogik va ishlab chiqarish amaliyotlari;
- loyihaviy faoliyat;
- modellashtirish va treninglar.

Bu yondashuv bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchisining kasbiy kompetensiyalarini aniqlashda eng samarali usullardan biri hisoblanadi.

Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv ta’lim jarayonida talabaning individual xususiyatlarini hisobga olishga asoslanadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ushbu yondashuv:

- kasbiy motivatsiyani oshiradi;
- ijodiy faoliyatni rag‘batlantiradi;
- o‘z-o‘zini rivojlantirish kompetensiyasini shakllantiradi.

Bo‘lajak “Texnologiya” fani o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini aniqlashda quyidagi mezonlar qo‘llanilishi mumkin:

1. Bilimlar darajasi – texnologik va pedagogik bilimlarning to‘liqligi;
2. Amaliy ko‘nikmalar – mashg‘ulotlarni tashkil etish, jihozlardan foydalanish;
3. Ijodiy faoliyat – loyihalar va innovatsion ishlanmalar;

4. Kasbiy motivatsiya – kasbga bo‘lgan qiziqish va mas’uliyat;

5. Refleksiv kompetensiya – o‘z faoliyatini tahlil qilish qobiliyati.

Mazkur yondashuvlar asosida kasbiy kompetensiyalarni aniqlash:

- pedagog kadrlar tayyorlash sifatini oshiradi;
- ta’lim mazmunini zamonaviylashtirishga xizmat qiladi;
- bo‘lajak o‘qituvchilarning raqobatbardoshligini ta’minlaydi

Natijalar. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, bo‘lajak “Texnologiya” fani o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini aniqlashda bir nechta asosiy yondashuvlar mavjudligi aniqlandi.

1. Kompetensiyaviy yondashuv-Mazkur yondashuv o‘qituvchining bilim, ko‘nikma va malakalarini amaliy faoliyatda qo‘llay olish qobiliyatiga urg‘u beradi. Bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchisining kasbiy kompetensiyasi quyidagi tarkibiy qismlardan iborat ekanligi aniqlandi:

- pedagogik kompetensiya;
- texnik-texnologik kompetensiya;
- metodik kompetensiya;
- kommunikativ kompetensiya;
- axborot-kommunikatsiya texnologiyalari kompetensiyasi.

2. Tizimli yondashuv-Tizimli yondashuv asosida kasbiy kompetensiyalar o‘zaro bog‘liq elementlar majmui sifatida ko‘rib chiqildi. Bu yondashuv bo‘lajak o‘qituvchining shaxsiy sifatlari, kasbiy bilimlari va amaliy tajribasini yagona tizimda rivojlantirish imkonini beradi.

3. Faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuv-Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarining kompetensiyalarini aniqlashda ularning real pedagogik faoliyatga tayyorgarlik darajasini baholash muhim ahamiyatga ega. Amaliy mashg‘ulotlar, loyiha ishlari va ishlab chiqarish amaliyotlari bu yondashuvning asosiy vositalari hisoblanadi.

4. Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv-Ushbu yondashuv talabaning individual qobiliyatlari, qiziqishlari va kasbiy motivatsiyasini hisobga olishni nazarda tutadi. Tadqiqot jarayonida shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalaridan foydalanish kasbiy kompetensiyalarni aniqlash samaradorligini oshirishi aniqlandi.

Shu sababli bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy kompetensiyalari quyidagi talablar asosida shakllanishi lozim:

1. Fanlararo integratsiyani amalga oshira olish;
2. Zamonaviy texnologiyalar (3D modellashtirish, raqamli dizayn, AKT)dan foydalanish;
3. Mehnat ta’limida xavfsizlik texnikasiga rioya qilish;
4. O‘quvchilarni mustaqil va ijodiy faoliyatga yo‘naltira olish.

Muhokama. Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, bo‘lajak “Texnologiya” fani o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini aniqlashda birgina yondashuv bilan cheklanib qolish yetarli emas. Kompetensiyaviy yondashuv tizimli, faoliyatga yo‘naltirilgan va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlar bilan integratsiyalashgan holda qo‘llanilgandagina yuqori samaradorlikka erishish mumkin.

Kompetensiyaviy yondashuv ta’lim jarayonining natijaga yo‘naltirilganligini ta’minlaydi. Bu yondashuv asosida bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchisi:

- bilimni amaliyotda qo‘llay olishi;
- muammoli vaziyatlarni hal qila olishi;
- pedagogik jarayonni mustaqil loyihalashi kerak.

Mazkur yondashuv kasbiy kompetensiyalarni quyidagi turlarga ajratish imkonini beradi:

- Umumpedagogik kompetensiyalar
- Kasbiy-maxsus (texnologik) kompetensiyalar
- Ijtimoiy-kommunikativ kompetensiyalar
- Innovatsion va axborot kompetensiyalari

Ayniqsa, texnologiya fanining amaliy yo‘nalganligi o‘qituvchidan nafaqat nazariy bilim, balki real ishlab chiqarish jarayonlarini tushunish va ularni o‘quvchilarga moslashtirib yetkazish ko‘nikmalarini talab etadi. Shu sababli baholash jarayonida an’anaviy testlardan tashqari amaliy vazifalar, portfoliolar va loyihaviy ishlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, bo‘lajak “Texnologiya” fani o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini aniqlash murakkab va ko‘p qirrali jarayon hisoblanadi. Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalar chiqarildi:

1. Kasbiy kompetensiyalarni aniqlashda kompetensiyaviy yondashuv asosiy metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

2. Tizimli, faoliyatga va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlar kompetensiyalarni baholashning samaradorligini oshiradi.

3. Amaliy mashg‘ulotlar va innovatsion pedagogik texnologiyalar bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

Mazkur tadqiqot natijalari oliy ta’lim muassasalarida “Texnologiya” fani o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonini takomillashtirishda ilmiy-uslubiy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. “O‘zbekiston” 2017.

2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. “O‘zbekiston” 2016.

3. Abdullayeva M. Pedagogik kompetensiya asoslari. – Toshkent, 2020.

4. Xodjayev B. Kasbiy ta’lim metodikasi. – Toshkent, 2019.

5. Зимняя И.А. Компетентностный подход в образовании. – Москва, 2018.

6. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni.

7. Texnologiya fanini o‘qitish metodikasi bo‘yicha o‘quv qo‘llanmalar.

8. Nurmamatov Z.Sh. Bo’lajak texnologiya fani o’qituvchisini innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorlash. // Fan, ta’lim va texnikani innovatsion rivojlantirish masalalari. - Andijon. 2022 - y. B. 31-34.

9. Nurmamatov Z.Sh. Current status of development of innovative activity of future technology teachers. // International Conference of Scientific and Management Current Affairs. - Angliya. 2022 - y. B. 1-4.

TA’LIM JARAYONIDA HISSIY VA MANTIQIY BILISH DARAJALARIDAN SAMARALI FOYDALANISH

Ortikov Oybek Rustamovich,
Buxoro davlat pedagogika instituti Umumiy pedagogika kafedrasi dotsenti. p.f.f.d (PhD)
Saidqulova Husniya Abdug‘afforovna,
Buxoro davlat pedagogika instituti 1-bosqich magistranti

Mazkur maqolada ta’lim jarayonida hissiy va mantiqiy bilish darajalarining o‘rni hamda ulardan samarali foydalanish masalalari yoritilgan. Hissiy bilish orqali o‘quvchilarning idrok, tasavvur va emotsional qabul qilish jarayonlari faollashtirilishi, mantiqiy bilish esa tahlil, taqqoslash, umumlashtirish va xulosa chiqarish ko‘nikmalarini shakllantirishdagi ahamiyati ochib berilgan. Shuningdek, ushbu bilish darajalarining uyg‘unligi ta’lim samaradorligini oshirish, bilimlarni mustahkamlash va o‘quvchilarda mustaqil fikrlashni rivojlantirishga xizmat qilishi asoslab berilgan. Maqolada zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida hissiy va mantiqiy bilish darajalarini ta’lim amaliyotiga tatbiq etish yo‘llari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: *ta’lim jarayoni, bilish darajalari, hissiy bilish, mantiqiy bilish, tafakkur, idrok, mustaqil fikrlash, pedagogik yondashuv, ta’lim samaradorligi.*

ЭФФЕКТИВНОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ЭМОЦИОНАЛЬНЫХ И ЛОГИЧЕСКИХ УРОВНЕЙ ПОЗНАНИЯ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ

В данной статье рассматриваются роль эмоционального и логического уровней познания в образовательном процессе, а также вопросы их эффективного использования. Раскрывается значение эмоционального познания в активизации процессов восприятия, воображения и эмоционального восприятия у обучающихся, а логического познания – в формировании навыков анализа, сравнения, обобщения и выведения выводов. Также обосновано, что гармоничное сочетание данных уровней познания способствует повышению эффективности обучения, закреплению знаний и развитию у обучающихся самостоятельного мышления. В статье проанализированы пути внедрения эмоционального и логического уровней познания в образовательную практику на основе современных педагогических подходов.

Ключевые слова: *образовательный процесс, уровни познания, эмоциональное познание, логическое познание, мышление, восприятие, самостоятельное мышление, педагогический подход, эффективность обучения.*

EFFECTIVE USE OF EMOTIONAL AND LOGICAL LEVELS OF COGNITION IN THE EDUCATIONAL PROCESS

This article examines the role of emotional and logical levels of cognition in the educational process and the issues related to their effective use. The importance of emotional cognition in activating students’ perception, imagination, and emotional engagement is revealed, while logical cognition is shown to play a key role in developing skills of analysis, comparison, generalization, and drawing conclusions. In addition, it is substantiated that the integration of these levels of cognition contributes to increasing educational effectiveness, strengthening knowledge, and developing students’ independent thinking. The article also analyzes ways of implementing emotional and logical levels of cognition into educational practice based on modern pedagogical approaches.

Keywords: *educational process, levels of cognition, emotional cognition, logical cognition, thinking, perception, independent thinking, pedagogical approach, educational effectiveness.*

Kirish. Zamonaviy ta’lim tizimida shaxsning har tomonlama rivojlanishini ta’minlash, unda mustaqil fikrlash, tahlil qilish va ijodiy yondashuv ko‘nikmalarini shakllantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Bu jarayonda bilimlarni o‘zlashtirish nafaqat axborotni qabul qilish, balki uni anglash, qayta ishlash va amaliyotda qo‘llash bilan chambarchas bog‘liqdir. Shu nuqtai nazardan, ta’lim jarayonida hissiy va mantiqiy bilish darajalaridan samarali foydalanish pedagogik faoliyatning dolzarb masalalaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Hissiy bilish darajasi o‘quvchilarning atrof-muhitni sezgi, idrok va tasavvur orqali qabul qilishiga asoslanib, ta’lim jarayonida emotsional faollikni kuchaytiradi hamda bilimlarni ongli va barqaror o‘zlashtirishga zamin yaratadi. Mantiqiy bilish esa olingan bilimlarni tahlil qilish, solishtirish, umumlashtirish va xulosa chiqarish orqali tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu ikki bilish darajasining uyg‘unlashuvi ta’lim samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda ta’lim jarayonida ko‘proq mantiqiy bilishga urg‘u berilib, hissiy bilish imkoniyatlaridan yetarli darajada foydalanilmayotgan holatlar ham uchrab turadi. Natijada bilimlar yuzaki o‘zlashtirilishi, o‘quvchilarning qiziqishi va faolligi pasayishi mumkin. Shu sababli hissiy va mantiqiy bilish darajalarini o‘zaro uyg‘un holda qo‘llash, ularning didaktik imkoniyatlarini chuqur tahlil qilish zarurati yuzaga kelmoqda.

Mazkur maqolada ta’lim jarayonida hissiy va mantiqiy bilish darajalarining mazmuni, ularning o‘zaro bog‘liqligi hamda zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida samarali qo‘llash yo‘llari yoritib beriladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Ta’lim jarayonida bilimlarni o‘zlashtirishning dastlabki bosqichi hissiy bilish bilan bog‘liq bo‘lib, u sezgi a’zolari orqali olinadigan bilimlarni qamrab oladi. Hissiy bilimlar o‘quvchining atrof-muhitdagi narsa va hodisalarni bevosita sezish, idrok etish va tasavvur qilish jarayonida shakllanadi. Mazkur bilish darajasi ta’limda muhim ahamiyat kasb etib, o‘rganilayotgan obyektlarning xossalari va belgilari haqidagi dastlabki tushunchalarni hosil qiladi. Masalan, o‘quvchi uchayotgan samolyotni ko‘rish orqali uning tashqi ko‘rinishi va harakatini idrok etadi hamda bu obyekt haqidagi boshlang‘ich bilimga ega bo‘ladi.

Hissiy bilishning asosiy shakllaridan biri sezgi hisoblanadi. Sezgi bilish faoliyatida narsa va hodisalarning ayrim xossalarini sezgi a’zolari orqali aks ettiruvchi dastlabki obraz sifatida namoyon bo‘ladi. Ta’lim jarayonida sezgilar orqali rang, tovush, hid, ta’m kabi belgilarni anglash o‘quvchilarning bilimlarni ongli ravishda qabul qilishiga yordam beradi. Masalan, meva-sabzavotlar mavzusini o‘rganishda apelsinning to‘q sariq rangi, o‘ziga xos hidi va ta’mi haqidagi sezgilar bilimning mustahkamlanishiga xizmat qiladi. Sezgilar insondan tashqaridagi muhitda yuz berayotgan va sezgi a’zolariga ta’sir ko‘rsatuvchi tovush, yorug‘lik, mexanik bosim va kimyoviy ta’sirlar natijasida shakllanadi.

Sharq mutafakkiri Abu Nasr Forobiy bilishning hissiy va oqilona shakllarini ajratib ko‘rsatgan holda, ta’limda sezgilarning muhim rolini ta’kidlaydi. Uning fikricha, sezgilar bilimning asosiy manbai bo‘lib, ular narsa va hodisalarning haqiqiy in’ikosini ta’minlagan taqdirdagina ishonchli bilimga asos bo‘la oladi. Forobiy sezgilarni besh turga ajratib, insonning tashqi olam bilan aloqasi aynan hissiy idrok orqali amalga oshishini ta’kidlaydi. Bu qarashlar ta’lim jarayonida ko‘rgazmalilik, tajriba va amaliy mashg‘ulotlarning ahamiyatini asoslab beradi.

Forobiyning bilish haqidagi qarashlari Aristotelning “sezmaydigan odam hech narsani bilmaydi va tushunmaydi” degan fikri bilan hamohang bo‘lib, bilimning shakllanishida hissiy bilishning ustuvorligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, insonning hayvondan farqi shundaki, u sezgi bilan bir qatorda aql yordamida ham bilimlarni o‘zlashtirishga qodir. Ta’lim jarayonida bu holat hissiy bilishdan mantiqiy bilishga o‘tish zaruratini yuzaga keltiradi.

Aql orqali amalga oshadigan mantiqiy bilish hissiy tajribaga tayangan holda narsa va hodisalarning mohiyati, sabablari va qonuniyatlarini anglashga imkon beradi. Forobiy ta’limda aqlning tartibli faoliyat yuritishini muhim deb hisoblab, uni ilmiy bilish metodlari bilan bog‘laydi. Uning fikricha, tabiiy fanlar va matematika fanlarida qo‘llaniladigan metodlar o‘quvchilarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shunday qilib, ta’lim jarayonida hissiy va mantiqiy bilish darajalarining uyg‘unligi o‘quvchilarda bilimlarni chuqur va barqaror shakllantirishga imkon yaratadi. Hissiy bilish bilimning dastlabki poydevorini yaratsa, mantiqiy bilish ushbu bilimlarni tahlil qilish, umumlashtirish va amaliyotda qo‘llashga xizmat qiladi.

Sezgilar tashqi dunyoning sifat jihatidan rang-barangligini aks ettiruvchi muhim bilish shakli bo‘lib, ular obyektiv borliqning inson ongida namoyon bo‘lishi natijasida yuzaga keladi. Ta’lim jarayonida sezgilar o‘quvchilarga narsa va hodisalarning nafaqat sifat, balki miqdor ko‘rsatkichlari haqida ham boy axborot beradi. Jumladan, tovushlar o‘rtasidagi kuch farqlari, rang tuslari, harorat o‘zgarishlari, shakl va hajmdagi tafovutlar sezgi orqali aniqlanadi. Mazkur jarayonlar o‘quvchilarning bilimni to‘g‘ri va aniq qabul qilishida muhim ahamiyat kasb etadi. Sezgi faoliyatining izdan chiqishi ong faoliyatining susayishiga olib kelishi mumkin, bu esa ta’lim samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Pedagogik nuqtai nazardan sezishning ko‘rish, eshitish, paypaslash, hid va ta’m bilish, muvozanat, og‘riq, harorat va tebranish kabi turlari ta’lim jarayonida turli didaktik vositalar orqali faollashtiriladi. Har bir sezgi turi materiya harakatining muayyan shakllarini – yorug‘lik, ovoz tebranishlari, mexanik bosim va kimyoviy ta’sirlarni aks ettiradi. Ta’lim jarayonida ko‘rgazmali qurollar, tajribalar va amaliy mashg‘ulotlar orqali ushbu sezgi turlaridan kompleks foydalanish bilimlarni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Idrok sezgi a’zolariga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi narsa va hodisalarni ularning xossalari hamda o‘zaro munosabatlari bilan birgalikda yaxlit obraz sifatida aks ettiradi. O‘quvchilar alohida xususiyatlarni emas, balki ularning birligi asosida obyektni anglaydi. Masalan, qand bo‘lagining rangi, ta’mi, shakli va vazni alohida emas, balki yagona predmet sifatida idrok etiladi. Ta’lim jarayonida aynan shu yaxlit idrok o‘quvchilarda bilimlarning tizimli shakllanishiga yordam beradi.

Sezgi - obyektiv dunyoning sub’ektiv obrazi bo‘lib, u predmet va hodisalarning real xossalarini aks ettiradi. Ta’limda rang, tovush, hid kabi belgilar faqat sub’ektiv kechinma emas, balki obyektiv borliq xususiyatlarining in’ikosi ekanligini tushuntirish muhimdir. Masalan, qor oq bo‘lib ko‘rinishi uning obyektiv xossasi bilan bog‘liq bo‘lib, bu holat ko‘ruv apparatining mavjudligi bilan izohlanadi. Shu bois sezgi a’zolarining o‘ziga xosligi o‘quvchilarning tashqi dunyoni to‘g‘ri va aniq bilishiga xizmat qiladi.

Idrok jarayonida o‘quvchi yangi bilimlarni avvalgi bilimlar tizimi bilan bog‘laydi, ularni anglaydi va tushunadi. Sezish va idrok etish faoliyatining rivoji o‘quvchilarning amaliy faoliyati, mehnat jarayoni va tajriba asosida shakllanadi. Masalan, faol harakat va kuzatuv bo‘lmagan sharoitda ranglarni yoki shakllarni aniq farqlash qiyinlashadi. Shu sababli ta’lim jarayonida faollik va amaliy mashg‘ulotlar muhim didaktik omil hisoblanadi.

Shu bilan birga, hissiy bilish sezgi va idrok bilan cheklanib qolmaydi. Narsa va hodisalar sezgi a’zolariga ta’sir etishdan to‘xtaganidan so‘ng ham ularning obrazi xotirada saqlanib qoladi. Bu holat o‘quvchilarga bevosita kuzatuv bo‘lmagan sharoitda ham predmetlar haqida fikr yuritish, tahlil qilish va xulosa chiqarish imkonini beradi. Aynan xotira orqali hissiy bilish mantiqiy bilishga o‘tish uchun poydevor vazifasini bajaradi.

Umuman olganda, ta’lim jarayonida sezgi, idrok va xotira kabi hissiy bilish shakllaridan samarali foydalanish o‘quvchilarda bilimlarning puxta, ongli va tizimli shakllanishini ta’minlaydi hamda mantiqiy bilish darajasini rivojlantirish uchun mustahkam asos yaratadi.

Muhokoma va natija. Tadqiqot jarayonida hissiy, empirik va mantiqiy bilish darajalarining ta’lim jarayonidagi o‘zaro bog‘liqligi va uzviyligi yaqqol namoyon bo‘ldi. Sezgi va idrok orqali olingan dastlabki bilimlar o‘quvchilarda narsa va hodisalar haqida muayyan tasavvurlarni shakllantiradi. Hatto tashqi ta’sir mavjud bo‘lmagan holatlarda ham inson xotira va tasavvur orqali obyektlarni ongida qayta gavdalantira oladi. Bu holat ta’lim jarayonida bilimlarning barqarorligi va ongli o‘zlashtirilishini ta’minlovchi muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Muhokamalar shuni ko‘rsatadiki, bilish jarayoni faqat sezish va idrok etish bilan cheklanmaydi. Xotira, tasavvur, xayol, intuitsiya va aqlning faol ishtiroki ta’lim samaradorligini oshiradi. Xotira o‘tmish tajribani hozirgi bilimlar bilan bog‘lab, bilimlar uzluksizligini ta’minlaydi. Agar sezgi va idrok natijalari xotirada mustahkamlanmasa, o‘quvchi har bir yangi bilimni begona va tushunarsiz holatda qabul qilgan bo‘lar edi. Shu bois xotira hissiy bilishning markaziy bo‘g‘ini sifatida mantiqiy tafakkur rivoji uchun poydevor vazifasini bajaradi.

Tasavvur va xayol esa o‘quvchilarga bevosita kuzatishsiz ham bilimlarni qayta tiklash, umumlashtirish va yangi obrazlar yaratish imkonini beradi. Bu jarayon ta’limda ijodkorlik, muammoli fikrlash va mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Ayniqsa, tasavvur hissiy bilish bilan nazariy tafakkur o‘rtasidagi bog‘lovchi bo‘g‘in sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Empirik bilish darajasi esa sezgi va idrokka tayangan holda, biroq bilvosita vositalar – asbob-uskunalar, hujjatlar, kuzatish va eksperimentlar orqali amalga oshiriladi. Ta’lim jarayonida empirik metodlardan foydalanish o‘quvchilarda ilmiy dalillarga tayangan holda xulosa chiqarish, taqqoslash va tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Kuzatish metodining maqsadga yo‘naltirilganligi, rejaliligi va tizimliligi empirik bilimlarning ishonchliligini ta’minlaydi.

Muhokama natijalari shuni ko‘rsatadiki, sezgi, idrok, xotira, tasavvur va empirik bilish shakllarini bir-biridan ajratgan holda emas, balki yaxlit tizim sifatida qo‘llash ta’lim jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

O‘tkazilgan tahlillar asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

Birinchidan, ta’lim jarayonida hissiy bilish darajalari – sezgi, idrok, xotira va tasavvur – bilimlarni shakllantirishning boshlang‘ich va muhim bosqichi hisoblanadi. Ular o‘quvchilarning borliqni ongli qabul qilishi va bilimlarni mustahkam o‘zlashtirishiga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, empirik bilish hissiy tajribani chuqurlashtirib, ilmiy dalillar asosida umumlashtirish imkonini beradi. Kuzatish, tajriba va o‘lchash kabi metodlardan foydalanish o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashini kengaytiradi hamda nazariy bilimlar uchun ishonchli asos yaratadi.

Uchinchidan, xotira va tasavvur bilish jarayonining uzluksizligini ta’minlab, hissiy bilishdan mantiqiy bilishga o‘tishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Aynan ushbu jarayon orqali o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, tahlil qilish va xulosa chiqarish ko‘nikmalari shakllanadi.

To‘rtinchidan, hissiy, empirik va mantiqiy bilish darajalarining uyg‘unligi ta’lim samaradorligini oshiradi, bilimlarni chuqur va barqaror qiladi hamda shaxsning intellektual va ijodiy rivojlanishiga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, ta’lim jarayonida bilishning barcha darajalaridan tizimli va maqsadli foydalanish zamonaviy pedagogikaning muhim talablaridan biri bo‘lib, u raqobatbardosh, mustaqil fikrlovchi va ijodkor shaxsni shakllantirishga imkon yaratadi.

Ta’lim jarayonida empirik bilish metodlaridan samarali foydalanish o‘quvchilarning ilmiy tafakkurini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Kuzatish va eksperimentning samaradorligi, avvalo, ularning maqsadga yo‘naltirilganligi va ongli ravishda tashkil etilishiga bog‘liq. Bu borada akademik I.P. Pavlovning “Kallada g‘oya bo‘lmasa, hech qanday dalilni ko‘rolmaysan” degan fikri empirik bilishning metodologik asosini yaqqol ifodalaydi. Ya’ni, oldindan shakllangan ilmiy g‘oya va savollar bo‘lmagan holda amalga oshirilgan kuzatish va tajribalar kutilgan natijani bermaydi.

Empirik tadqiqot natijalari, odatda, tavsiflash yoki bayon etish orqali ifodalanadi. Ta’lim jarayonida bu jarayon o‘quvchilarning ilmiy nutqini rivojlantirishga xizmat qiladi. Tavsif umumiy qabul qilingan ilmiy atamalar asosida tuziladi, grafiklar, rasmlar, jadval va formulalar bilan boyitiladi. Tavsiflashga qo‘yiladigan asosiy ilmiy talab – kuzatish va eksperiment ma’lumotlarini to‘g‘ri, aniq va xolis aks ettirishdir. Tavsif to‘liq yoki qisman bo‘lishi mumkin, biroq u har doim materialni tizimlashtirish, guruhlash va umumlashtirishni nazarda tutadi.

Empirik bilish metodlaridan yana biri – taqqoslash bo‘lib, u o‘rganilayotgan obyektlarning o‘xshash va farqli jihatlarini aniqlashga xizmat qiladi. Taqqoslash o‘quvchilarda tahliliy fikrlash, umumlashtirish va mantiqiy xulosa chiqarish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Taqqoslashning muhim ko‘rinishlaridan biri o‘lchash hisoblanadi. O‘lchash obyekt xossalarining miqdoriy ifodasini aniqlash jarayoni bo‘lib, u faqat qabul qilingan o‘lchov birligi bilan taqqoslash orqali amalga oshiriladi. Kuzatish va eksperiment natijalari o‘lchash orqali ifodalangandagina ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Empirik bilishning yakuniy natijasi ilmiy dalil hisoblanadi. Ilmiy dalil – bu tasdiqlangan va ishonchli bilim manbaiga aylangan borliq hodisasi yoki jarayonidir. A. Eynshteyn ta’kidlaganidek, fan dalillardan boshlanib, nazariy tuzilmalar qanday bo‘lishidan qat’i nazar, dalillar bilan yakunlanishi lozim. Shu jihatdan, empirik bilimlar nazariy bilimlarning poydevori hisoblanadi.

Dalil tushunchasi turli ma’nolarda qo‘llaniladi. Bir tomondan, u inson ongidan qat’i nazar mavjud bo‘lgan borliq hodisasi sifatida namoyon bo‘ladi. Ikkinchi tomondan, dalil inson tomonidan anglab yetilgan va ilmiy jihatdan qayd etilgan voqyea sifatida qaraladi. Shu sababli, bir xil hodisa turli bilish darajalarida – oddiy, ilmiy, san’at yoki huquqiy amaliyotda turlicha talqin qilinishi mumkin. Bu holat dalillarning ishonchlilik darajasi ularni olish usuli va metodologiyasiga bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi.

Ilmiy dalil murakkab tuzilishga ega bo‘lib, u borliq haqidagi axborot, uni talqin qilish va olish usullarini o‘z ichiga oladi. Dalilning nazariya bilan bog‘liqligi empirik tadqiqot natijalarini tushuntirish va baholash imkonini beradi. Shu bilan birga, dalillar mavjud nazariyaga zid bo‘lgan yangi hodisalarni aniqlash va ilmiy qarashlarni qayta ko‘rib chiqishga turtki bo‘ladi.

Dalilning ishonchliligi uni olishda qo‘llanilgan usul va vositalarga bevosita bog‘liq. Masalan, sotsiologik tadqiqotlar natijalari turli metodlar asosida o‘tkazilgan bo‘lsa, ularning xulosalari bir-biridan farq qilishi mumkin. Bu holat empirik bilishda metodik aniqlik va ilmiy mas’uliyatning muhimligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Umuman olganda, ta’lim jarayonida empirik bilish metodlaridan – kuzatish, eksperiment, tavsiflash, taqqoslash, o‘lchash va ilmiy dalillar bilan ishlashdan samarali foydalanish o‘quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantiradi hamda hissiy bilishdan mantiqiy bilishga o‘tish jarayonini ta’minlaydi.

Xulosa. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, ta’lim jarayonida hissiy va mantiqiy bilish darajalari bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, o‘quvchilarning bilimlarni samarali o‘zlashtirishida markaziy rol o‘ynaydi. Sezgi va idrok orqali olingan hissiy bilimlar narsa va hodisalarni anglashning boshlang‘ich bosqichi sifatida xizmat qiladi. Bu jarayonda xotira va tasavvur o‘quvchilarga bevosita kuzatishsiz ham obyekt va hodisalarni qayta gavdalantirish, umumlashtirish va yangi bilimlar yaratishga imkon beradi. Shu bois, hissiy bilish darajasi mantiqiy tafakkur va mustaqil fikrlashning poydevorini tashkil qiladi.

Empirik bilish metodlari – kuzatish, eksperiment, tavsiflash, taqqoslash va o‘lchash – ta’lim jarayonida ilmiy asoslangan dalillarni yaratish va tahlil qilish imkonini beradi. Bu metodlar o‘quvchilarda nazariy bilimlarni mustahkamlash, tahliliy fikrlashni rivojlantirish hamda ilmiy izlanish qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Ilmiy dalillar yordamida borliq obyektiv va xolisona anglanadi, nazariy qarashlar empirik ma’lumotlar bilan qo‘llab-quvvatlanadi.

Shu bilan birga, ta’lim jarayonida hissiy, empirik va mantiqiy bilish darajalarining uyg‘un qo‘llanilishi o‘quvchilarda bilimlarni chuqur va barqaror o‘zlashtirishni ta’minlaydi, mustaqil fikrlash va ijodiy

qobiliyatlarni rivojlantiradi. Xulosa sifatida, ta’limda bilishning barcha darajalaridan tizimli va maqsadli foydalanish zamonaviy pedagogikaning asosiy talablaridan biri bo‘lib, u intellektual, ijodiy va raqobatbardosh shaxsni shakllantirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Ahmedova M. (tahriri ostida). Falsafa. – T.: OFMJ, 2006.
2. Artikov O. Methodology for developing professional competences of physical education teachers // Развитие и инновации в науке. – 2025. – Т. 4. – №. 1. – С. 41-46.
3. Artikov O., Murodova M. Opportunities to develop ecological culture of students //BIO Web of Conferences. – EDP Sciences, 2024. – Т.: 130. – С. 04025.
4. Murodova M. M. Bo’lajak boshlang’ish sinf o’qituvchilari faoliyatida pedagogik deontologiya va kompetentlik //Scientific progress. – 2022. – Т.: 3. – №. 1. – С. 90-97.
5. Nazarov Q. (tahriri ostida). G‘arb falsafasi. – T.: Sharq, 2005.
6. Nazarov Q.N. Bilish falsafasi. – T.: Universitet, 2005.
7. Nazarov Q. (tahriri ostida). Falsafa asoslari. – T.: Sharq, 2005.
8. Nazarov Q. (tahriri ostida). Jahon falsafasi tarixidan lavhalar. – T.: Sharq, 2004
9. Oybek O., Maqsuda M. Talabalar axborot texnologiyalaridan foydalanish ko’nikmalarini rivojlantirishning pedagogik asoslari //Interpretation and researches. – 2024. – Т.: 2. – №. 18. – С. 33-40.
10. Ortiqov O.R. Ma’naviy-ma’rifiy ishlar jarayonida mafkuraviy immunitetni rivojlantirish texnologiyalari (oliy ta’lim mussasalari misolida) // Экономика и социум. 2022. №3-2 (94).
11. Ortiqov O. R. Imom Abu Homid G’azzoliyning ma’naviy-axloqiy qarashlari // Экономика и социум. – 2023. – №. 3-2 (106). – С. 231-234.
12. Olimov S., Artikov O., Murodova M. The use of national values in forming the ecological world view of students // BIO Web of Conferences. – EDP Sciences, 2024. – Т. 141. – С. 04027.
13. Романенко Е.М. Бытие и естество: Онтология и метафизика как типы философского знания. – М., 2003. – 784 с.
14. Qahhorova A. S. Boshlang‘ich sinfda matnli idrokini rivojlantirishning zamonaviy yondashuvlari // Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi. – 2025. – Т.: 54. – №. 1. – С. 44-48.
15. Shermuxamedova N.A. Gnoseologiya. – T.: OFMJ, 2007.

OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA MAGISTRANTLARNING ILMIY-TADQIQOT FAOLIYATINI SHAKLLANTIRISH VA RAG‘BATLANTIRISH TASHKIL ETISH

Parmanov Jamshid Tag‘aymurodovich,
Mirzo Ulug‘bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti o‘qituvchisi

Maqolada magistrantlarda tadqiqot kompetensiyalarini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlarini tizimli yondashuv asosida tahlil qilindi. Tadqiqotda oliy ta’lim muassasalarida va pedagogika institutlarida ilmiy faoliyatni o‘quv jarayoniga integratsiyalash, ustozlik tizimini rivojlantirish, ilmiy tadqiqot markazlarida va tadqiqot infratuzilmasini takomillashtirish, magistrantlarning ilmiy faoliyatini taqdirlash hamda ilmiy mobillik va xalqaro hamkorlikni kengaytirish muhimligi ta’kidlanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, magistrantlarda tadqiqot kompetensiyalarini rivojlantirish nafaqat ularning tanqidiy fikrlash va murakkab muammolarni hal qilish qobiliyatini oshiradi, balki oliy ta’lim muassasalarining xalqaro raqobatbardoshligini kuchaytiradi va yuqori malakali ilmiy kadrlar tayyorlashga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: *tadqiqot kompetensiyasi, magistrantlarda ilmiy faoliyat, oliy ta’lim, tadqiqot infratuzilmasi, ustozlik, ilmiy maktablar, ilmiy mobillik, ilmiy savollarni shakllantirish, ma’lumotlarni tahlil qilish, ilmiy maqolalar.*

ОРГАНИЗАЦИЯ ФОРМИРОВАНИЯ И СТИМУЛИРОВАНИЯ НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ МАГИСТРАНТОВ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ

В статье на основе системного подхода анализируются основные направления развития исследовательских компетенций магистрантов. В исследовании подчёркивается важность интеграции научной деятельности в образовательный процесс в высших учебных заведениях и педагогических институтах, развития системы наставничества, совершенствования исследовательской инфраструктуры в научно-исследовательских центрах, поощрения научной деятельности магистрантов, а также расширения научной мобильности и международного сотрудничества. Результаты исследования показывают, что развитие исследовательских компетенций магистрантов не только повышает их способность к критическому мышлению и решению сложных проблем, но и укрепляет международную конкурентоспособность высших учебных заведений и способствует подготовке высококвалифицированных научных кадров.

Ключевые слова: *исследовательская компетенция, научная деятельность магистрантов, высшее образование, исследовательская инфраструктура, наставничество, научные центры, научная мобильность, формулирование научных вопросов, анализ данных, научные статьи.*

ORGANIZATION OF THE FORMATION AND STIMULATION OF MASTER’S STUDENTS’ RESEARCH ACTIVITIES IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS

The article analyzes the main directions of developing research competencies in masters based on a systematic approach. The study emphasizes the importance of integrating scientific activity into the educational process in higher education institutions and pedagogical institutes, developing a mentoring system, improving research infrastructure in scientific research centers, rewarding the scientific activity of masters, and expanding scientific mobility and international cooperation. The results of the study show that developing research competencies in masters not only increases their ability to think critically and solve complex problems, but also strengthens the international competitiveness of higher education institutions and serves to train highly qualified scientific personnel.

Keywords: *research competency, scientific activity in masters, higher education, research infrastructure, mentoring, scientific centers, scientific mobility, formulating scientific questions, data analysis, scientific articles.*

Kirish. Magistratura bosqichi oliy ta’lim tizimida yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashda ilmiy-tadqiqot faoliyati muhim o‘rin tutadi. Bu bosqichda magistrantlarning ilmiy faoliyatga jalb qilinishi nafaqat nazariy bilimlarni mustahkamlash, balki amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishga ham yordam beradi. Shu bois, magistrantlarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini shakllantirish va rag‘batlantirish oliy ta’lim muassasalarida dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Magistrantlarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini shakllantirish bir nechta yo‘llar bilan amalga oshiriladi. Avvalo, ta’lim jarayoniga tadqiqot faoliyatini integratsiya qilish muhimdir.

Magistratura dasturlarida ilmiy loyihalar va tadqiqot ishlari majburiy qism sifatida kiritilishi, seminar va laboratoriya mashg‘ulotlarida amaliy tadqiqot vazifalari berilishi talab etiladi. Shu bilan birga, magistrantlarga ilmiy metodologiya va statistik tahlil usullarini o‘rgatish ham ularning tadqiqot ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Ikkinchidan, mentorlik va ilmiy rahbar tizimi ta’lim sifatini oshiradi. Har bir magistrantga ilmiy rahbar tayinlanishi va rahbarlar orqali tadqiqot metodlarini o‘rganish, ilmiy qiziqishni rag‘batlantirish va konferensiyalar hamda nashrlarga yo‘naltirish amalga oshiriladi.

Magistrantlarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini rag‘batlantirish ham muhim ahamiyatga ega. Moddiy rag‘batlar sifatida eng yaxshi ilmiy ishlar uchun stipendiya yoki mukofotlar, shuningdek, konferensiyalarda qatnashuvchilar uchun grantlar berilishi mumkin. Nodavlat va akademik e’tirof orqali ilmiy maqolalar nashri, sertifikatlar yoki diplomlar berish, universitet reytingida ilmiy faoliyatga qo‘shimcha ball berish motivatsiyani oshiradi. Bundan tashqari, karyera imkoniyatlarini kengaytirish orqali magistrantlarni ilmiy faoliyatga jalb qilish samarali bo‘ladi. Magistrantlarda tadqiqot kompetensiyalarini rivojlantirish oliy ta’limning strategik ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etiladi. Tadqiqot kompetensiyasi shaxsning mavjud bilim, ko‘nikma va tajribasini ilmiy-tadqiqot faoliyatida samarali qo‘llash, muammolarni ilmiy jihatdan tahlil qilish va innovatsion yechimlar ishlab chiqish qobiliyatini ifodalaydi

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Ta’limning jamiyat rivojidagi o‘rni Prasad va Gupta (2020) tadqiqotlarida keng yoritilgan bo‘lib, mualliflar ta’limni ijtimoiy taraqqiyotning asosiy omili sifatida baholaydilar. Ularning fikricha, ta’lim inson kapitalini rivojlantirish, ijtimoiy barqarorlik va iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu g‘oya Spring (2014) hamda Kemp (2016) tadqiqotlarida global ta’lim bozori va ta’limning globallashuvi kontekstida rivojlantirilgan. Pedagog kadrlarni tayyorlash masalasida Amirova va hammualliflar (2020) ijodiy va tadqiqot kompetensiyalarining bo‘lajak o‘qituvchilar kasbiy tayyorgarligidagi rolini tahlil qilgan. Mualliflar innovatsion ta’lim texnologiyalari asosida shakllantirilgan kompetensiyalar pedagoglarning professional moslashuvchanligini oshirishini ta’kidlaydilar. Ushbu yondashuv Tiwari va Fahrudin (2024) tomonidan ilgari surilgan zamonaviy pedinstitutlari va ta’lim texnologiyalarining muvaffaqiyat omillari bilan uyg‘unlashadi.

So‘nggi yillarda oliy ta’limning barqaror rivojlanish maqsadlari bilan integratsiyasi dolzarb masalaga aylangan. Heleta va Bagus (2021) oliy ta’lim tizimi barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirishda hamon tengsizlik muammolari mavjudligini ko‘rsatib o‘tadilar.

Umuman olganda, tahlil qilingan adabiyotlar ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, barqaror rivojlanish, raqamli texnologiyalarni joriy etish hamda Pedagogik institutlarida kompetensiyalarni shakllantirish masalalari dolzarb ekanligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, maxsus sohalar uchun malakali mutaxassislar tayyorlashda nazariy bilimlar bilan amaliy ko‘nikmalarni uyg‘unlashtirish zarurligi aniqlanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. *Tadqiqot kompetensiyasining mohiyati va tarkibiy tuzilmasi*

Ta’lim, ijtimoiy institut sifatida, jamiyat ehtiyojlariga xizmat qiladi va uning mavjudligi va muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun juda muhimdir. Bundan tashqari, u nafaqat keng qamrovli va yuqori sifatli bo‘lishi, balki tez o‘zgarib borayotgan dunyoning muammolariga javob berish uchun doimiy ravishda rivojlanishi kerak. Oliy ta’limning eng muhim vazifasi endi shunchaki bilimlarni uzatish emas, balki talabalarda innovatsion va tadqiqot qobiliyatlarini rivojlantirishdir.

Tarixan oliy ta’limda malakali mutaxassislarni tayyorlashda muhim rol o‘ynagan va professional qobiliyatga erishish uchun zarur element sifatida qabul qilingan. An’anaviy ravishda “inson kapitali” ishlab chiqaruvchilari bo‘lgan pedagogik institutlari mehnat bozori ehtiyojlarining o‘zgarishi, ta’lim xarajatlarining ortishi, demografik o‘zgarishlar, xalqaro raqobat va ta’lim sifatini doimiy ravishda yaxshilash zarurati bilan bog‘liq yangi muammolarga duch kelmoqdalar.

Magistrantlarning tadqiqot kompetensiyasi quyidagi asosiy komponentlardan iborat:

-ilmiy muammolarni aniqlash va tadqiqot savollarini shakllantirish qobiliyati

-axborotni izlash, tanlash va tanqidiy tahlil qilish ko‘nikmalari

-tadqiqotni rejalashtirish va metodologik asoslash

-olingan natijalarni tahlil qilish va ilmiy xulosalar chiqarish

-ilmiy matnlar yozish va tadqiqot natijalarini taqdim etish kompetensiyasi.

Mazkur komponentlar o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lib, tadqiqot kompetensiyasining yaxlit tizimini tashkil etadi.

Magistrantlarda tadqiqot kompetensiyalarini rivojlantirish yo‘nalishlari. Magistrantlarda tadqiqot kompetensiyalarini rivojlantirish ta’lim jarayoniga tizimli yondashuvni talab etadi. Ushbu jarayon quyidagi ustuvor yo‘nalishlar asosida amalga oshirilishi maqsadga muvofiq:

-Pedagogik institutilarida ilmiy faoliyatini o‘quv jarayoniga integratsiyalash, ilmiy yo‘naltirilgan fanlarni o‘quv rejalarga kiritish va magistrantlarning ilmiy-tadqiqot ishlarida faol ishtirokini ta’minlash

-Professor-o‘qituvchilar tomonidan magistrantlarni ilmiy izlanishlarga yo‘naltiruvchi ustozlik tizimini rivojlantirish

-Oliy ta’lim muassasalarida ilmiy tadqiqot markazlari va tadqiqot infratuzilmasini rivojlantirish

-Magistrantlarning ilmiy faoliyatini moddiy va nomoddiy rag‘batlantirish mexanizmlarini joriy etish

Bugungi kunda respublikamizning 59 ta oliy ta’lim muassasalarida 22 ta xorijiy mamlakatlarning 119 ta oliy ta’lim tashkilotlari bilan 375 ta qo‘shma ta’lim dasturlari asosida o‘quv jarayoni tashkil etilgan. Ushbu dasturlarda 10 ming nafardan ortiq (10 596 nafar) talabalar tahsil olmoqda. Ulardan 9725 nafari bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari, 871 nafari magistratura mutaxassisliklarida tahsil olmoqda.

2024/2025 o‘quv yili qabuli uchun 51 ta davlat oliy ta’lim muassasalarining xorijiy oliy ta’lim muassasalari bilan hamkorlikda tashkil etilgan qo‘shma ta’lim dasturlari ekspertizadan o‘tkazildi va ijobiy ekspertiza xulosasiga ega bo‘lgan 354 ta qo‘shma ta’lim dasturlariga qabul kvotalari tasdiqlandi.

Ma’lumot uchun: jami kvotalar soni 9 210 tani tashkil etib, jumladan 226 ta ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha 7 312 ta hamda 128 ta Magistratura mutaxassisligi bo‘yicha 1 898 tani tashkil etadi. Shundan muhandislik sohasida 13 ta oliy ta’lim muassasasida 45 ta (26 ta bakalavriat 19 ta magistratura) qo‘shma ta’lim dasturlari tashkil etilgan bo‘lib 834 ta (610 ta bakalavriatga 214 ta magistraturaga) qabul kvotalari tasdiqlangan. Ta’kidlash joizki, oliy ta’lim dasturlarida magistrantlarning ilmiy-tadqiqot ishlari ularni o‘qitish sifatini oshirish va ilg‘or oliy va tadqiqotga yo‘naltirilgan ta’lim dasturlarida o‘qishni muvaffaqiyatli davom ettirishning asosiy vositasidir. Oliy ma’lumotni olayotgan magistrantlarda tadqiqot ko‘nikmalarini rivojlantirish ularning tanqidiy fikrlashi va murakkab muammolarni hal qilish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi va oliy ta’lim muassasalarining ilmiy salohiyatining o‘sishiga bevosita ta’sir qiladi.

Magistrantlarning tadqiqot kompetensiyalarini maqsadli rivojlantirish nafaqat ularning shaxsiy va professional o‘sishiga hissa qo‘shadi, balki oliy ta’lim muassasalarining xalqaro raqobatbardoshligini oshirishning muhim shartidir. “Tadqiqot kompetensiyasi” tushunchasining mohiyatini aniqlash lotin tilidan kelib chiqqan va muvofiqlik yoki moslikni anglatuvchi “kompetensiya” atamasini dastlabki tahlil qilmasdan turib mumkin emas. Adabiy manbalarni o‘rganish “kompetensiya” tushunchasi ta’rifining bir nechta jihatlarini ochib beradi:

shaxsning muhim bilimga ega bo‘lgan masalalar sohasi,vakolatlar va huquqlar to‘plami,qonunchilik, nizomlar yoki boshqa qoidalarga muvofiq ma’lum bir organ yoki mansabdor shaxsga berilgan vakolatlar doirasi, shuningdek, ma’lum bir sohadagi bilim va tajriba . Natijada, kompetentsiya shaxsning o‘z bilim va ko‘nikmalarini amalda samarali qo‘llash qobiliyati sifatida talqin qilinishi mumkin. Shu bilan birga, “kompetentsiya” atamasining yagona talqinining elektr energiyasi ko‘plab munozaralar va kelishmovchiliklarni keltirib chiqaradi.

Tadqiqot kompetentsiyasining asosiy elementlari magistrantning ma’lum bir fan sohasida egallagan bilimlari, ko‘nikmalari va odatlari, shuningdek, mustaqil kognitiv faoliyat bilan shug‘ullanish qobiliyatidir. Umuman olganda, “kompetentsiya” atamasi talaba uchun keyinchalik muvaffaqiyatli professional faoliyatga hissa qo‘shadigan ta’lim standartlari to‘plami sifatida belgilanadi. Shunday qilib, tadqiqot kompetensiyasining eng maqbul ta’rifi shaxsning mavjud bilim, ko‘nikma va tajribani tadqiqot faoliyatida, shuningdek, ta’lim, kognitiv, fanga oid va kasbiy muammolarni hal qilishda samarali qo‘llash qobiliyati va xohishidir.

Tahlil va natijalar. Oliy ta’limning Magistratura magistrantlarida tadqiqot kompetentsiyalarini rivojlantirish yo‘nalishlari taklif qilingan. Ushbu yo‘nalishlarni amalga oshirish uchun tadqiqotlarni o‘quv jarayoniga integratsiya qilish, ustozlik tizimini joriy etish, magistrantlar va professor-pedagogiklar uchun rag‘batlantirish va ilmiy mobillik dasturlarini ishlab chiqish kabi kompleks yondashuv talab etiladi. Ushbu yondashuv magistrantlarning tadqiqot kompetentsiyalarini sezilarli darajada oshiradi va ularni muvaffaqiyatli professional martaba uchun tayyorlaydi.

Magistrantlarning tadqiqot kompetensiyasi odatda quyidagi ko‘nikmalardan iborat.

Tadqiqot savollarini shakllantirish. Ko‘nikma ilmiy tadqiqotning muhim tarkibiy qismidir. Yaxshi shakllantirilgan tadqiqot savollari nafaqat tadqiqot yo‘nalishini belgilaydi, balki metodologik tanlash, ma’lumotlarni to‘plash va natijalarni talqin qilish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Tadqiqot topshiriqlarini shakllantirish jarayoni bir nechta ketma-ket bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

Tadqiqot mavzusini tanlash. Dastlab, qiziqish sohasi aniqlanadi; u ilmiy va amaliy nuqtai nazardan dolzarb bo‘lishi kerak. Ushbu bosqichda bilimlardagi kamchiliklarni aniqlash va eng muhim muammolarni aniqlash uchun mavjud adabiyotlarni dastlabki ko‘rib chiqish tavsiya etiladi.

Adabiyotlarni tahlil qilish. Adabiyotlarni ko‘rib chiqish mavjud nazariyalar va tadqiqotlarni chuqurroq tushunish, ma’lum bir ilmiy sohada tadqiqot olib borayotgan mualliflarni aniqlash va ularning hissalarini tanqidiy baholash, shuningdek, oldingi tadqiqotlarda qo‘llanilgan metodologik yondashuvlarni o‘rganish imkonini beradi. Ushbu bosqichda kelajakdagi tadqiqot uchun nazariy asos shakllantiriladi. Adabiyotlarni

ko‘rib chiqish olingan ilmiy natijalarni va boshqa mualliflar tomonidan nashr etilgan tadqiqotlar natijalarini takrorlashning oldini olishga yordam beradi.

Tadqiqot savollarini shakllantirish. Ushbu bosqichda aniqlangan muammolar va bilimlardagi kamchiliklar aniq tadqiqot topshiriqlariga aylantiriladi. Bu topshiriqlar o‘rganilayotgan sohadagi mavjud ilmiy va amaliy ehtiyojlarga moslashtirilishi va aniq va bir ma’noli tarzda shakllantirilishi kerak, shu bilan yaxshiroq tushunish va talqin qilishga yordam beradi. Berilgan topshiriqlar empirik tadqiqotlar orqali mavjud bilimlarga hissa qo‘shadigan javobni izlashi kerak, bu esa aniq deterministik ma’lumotlarni to‘plash usullarini talab qiladi.

Tadqiqot savollarini tekshirish va qayta ko‘rib chiqish. Tadqiqot topshiriqlarini shakllantirish odatda takroriy jarayondir. Tadqiqot topshiriqlarini qayta ko‘rib chiqish mutaxassislar bilan maslahatlashuvlar va dastlabki tadqiqotlar orqali amalga oshiriladi, bu esa ishlab chiqilgan tadqiqot topshiriqlaridagi kamchiliklarni aniqlash va takomillashtirishni taklif qilish imkonini beradi.

Tadqiqot maqsadi va vazifalarini aniqlash. Shuni yodda tutish kerakki, tadqiqot maqsadi umumiy yo‘nalish sifatida shakllantirilgan, maqsadlar esa maqsadni belgilaydi va uni yechimlarni talab qiladigan kichikroq komponentlarga ajratadi. Har bir maqsad umumiy maqsad bilan mantiqan bog‘liq bo‘lishi va unga erishishga hissa qo‘shishi kerak.

Axborot qidirish va tahlil qilish. Ushbu ko‘nikma axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi va mavjud axborot hajmining ortishi sharoitida ilmiy tadqiqotlarning ajralmas qismidir. Axborotni qidirish va tahlil qilish jarayoni quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

- Tadqiqot mavzusini, uning dolzarbligini va tadqiqot doirasini tushunishni talab qiladigan markaziy qidiruv topshiriqini aniqlash. Markaziy qidiruv topshiriqiga asoslanib, ilmiy ma’lumotlarni qidirish uchun kalit so‘zlar va iboralar aniqlanadi, ularda ekspertlar tomonidan ko‘rib chiqilgan maqolalar, tezislar va patentlar mavjud. Hozirgi vaqtda asosiy ilmiy ma’lumotlar bazalariga Scopus, Web of Science, Google Scholar, Library, elektron kutubxona kataloglari, ochiq kirish omborlari va ResearchGate ilmiy axborot ijtimoiy tarmog‘i kiradi;

- Olingan ma’lumotlarni sifat, ishonchlilik va haqiqiylik mezonlariga muvofiq baholash. Olingan ma’lumotlarni baholashda muallifning malakasi, ilmiy maqomi, nashrlar soni, nufuzli ilmiy yoki ta’lim muassasalari bilan aloqasi va nashr etilgan vaqtini hisobga olish kerak. Bundan tashqari, mualliflar tomonidan taqdim etilgan tadqiqotlar aniq belgilangan, takrorlanadigan usullar yordamida tavsiflanishi va ekspertlar tomonidan ko‘rib chiqilgan jurnallarda nashr etilishi kerak;

-Axborot tahlili, bu o‘rganilayotgan obyekt yoki jarayon haqida to‘liqroq tasavvur hosil qilish uchun turli manbalardan olingan ma’lumotlarni integratsiyalashni, turli mualliflar tomonidan olingan tadqiqot natijalari farq qilganda qarama-qarshiliklarni aniqlashni va keyingi tadqiqotlar uchun asos bo‘lib xizmat qiladigan to‘plangan nazariy va empirik ma’lumotlar asosida xulosalar, gipotezalar va taxminlarni chiqarishni o‘z ichiga oladi.

Tadqiqotni rejalashtirish va tashkil etish. Ushbu ko‘nikma tadqiqot usullarini to‘g‘ri tanlashni va mustaqil va bog‘liq o‘zgaruvchilarni aniqlashni o‘z ichiga oladi. Shuni yodda tutish kerakki, mustaqil o‘zgaruvchilar nazorat va o‘zgarishga duchor bo‘lgan omillar, bog‘liq o‘zgaruvchilar esa mustaqil o‘zgaruvchilar ta’sirida o‘zgarib turadigan ko‘rsatkichlardir.

Tajriba. Ushbu ko‘nikma ma’lumotlarni to‘plash va tahlil qilishni o‘z ichiga olgan tajriba tadqiqotlarni o‘tkazish imkonini beradi. Ma’lumotlarni to‘plash tajribaning reja va axloqiy standartlarga qat’iy muvofiq ravishda amalga oshiriladi va olingan ma’lumotlarning ishonchliligini ta’minlaydigan vositalar, usullar va texnologiyalardan foydalanishni o‘z ichiga oladi. Batafsil tajriba ko‘chirma va video yozuvlarni yuritish olingan ma’lumotlarni keyingi tahlil qilish uchun zarur bo‘lgan tajriba tadqiqotlarning barcha bosqichlari va shartlarini yozib olish imkonini beradi, sertifikatlangan o‘lchov vositalaridan foydalanish esa ularning aniqligi va ishonchliligini ta’minlaydi. Ma’lumotlarni tahlil qilish, shu jumladan tajriba natijalarni qayta ishlash uchun statistik usullardan foydalanish, yangi naqshlar aniqlanadigan va ilgari taklif qilingan gipotezalar sinovdan o‘tkaziladigan asosiy bosqichdir.

Tadqiqot natijalarini taqdim etish. Bu ishning asosiy topilmalarini ilmiy hamjamiyat va manfaatdor tomonlarga yetkazish imkonini beradi. Konferensiyalar, seminarlar, simpoziumlar va boshqa ilmiy tadbirlarda natijalarni samarali taqdim etish nafaqat tadqiqot mavzusini chuqur tushunishni, balki ritorik ko‘nikmalar, hisobot tuzilishi, ma’lumotlarni vizualizatsiya qilish va ixtisoslashgan terminologiyani ham o‘zlashtirishni talab qiladi.

Magistrantlarning tadqiqot ko‘nikmalarini rivojlantirish ularning ilmiy faoliyatga tayyorligi va jamiyat duch keladigan muammolarni hal qilishda faol ishtirok etishi bilan bevosita bog‘liq. Tadqiqot ishlari faqat ilmiy doiralar bilan cheklanib qolmaydi. U sanoat va yong‘in xavfsizligida, shuningdek, fuqarolik mudofaasi choralarini ishlab chiqishda faol qo‘llaniladi. Magistrantlarning tadqiqot natijalarini ish faoliyatini baholash

mezonlariga kiritish va moddiy va nomoddiy rag‘batlantirish tizimini joriy etish orqali magistrantlarning tadqiqotga jalb qilinishini rag‘batlantirish. Magistrantlarni tadqiqotga jalb qilishning bir usuli - bu tadqiqotda faol ishtirok etish uchun stipendiyalar, yosh olimlar uchun grantlar, eng yaxshi tadqiqotlar va tanlovlarda ishtirok etish uchun mukofotlar va nashriyot faoliyatini taqdirlash kabi taqdirlash dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishdir. Shuni ta’kidlash kerakki, muvaffaqiyatga erishish uchun motivatsiya tadqiqot kompetentsiyasini muvaffaqiyatli rivojlantirishda ham muhim rol o‘ynaydi. Ushbu yo‘nalishlarni amalga oshirish nafaqat mutaxassislarni tayyorlash sifatini va ularning zamonaviy professional muammolarni hal qilishga tayyorligini oshiradi, balki magistratura va tayanch doktoronturada o‘qish uchun ham poydevor yaratadi, yuqori malakali ilmiy kadrlar sonining ko‘payishiga hissa qo‘shadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, zamonaviy oliy ta’lim tizimida magistrantlarda tadqiqot kompetensiyalarini rivojlantirish yuqori malakali, raqobatbardosh va innovatsion fikrlovchi mutaxassislarni tayyorlashning muhim sharti hisoblanadi. Tadqiqot kompetensiyalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan tizimli yondashuv magistrantlarning ilmiy salohiyatini oshirish, ularning kasbiy faoliyatga tayyorgarligini kuchaytirish hamda oliy ta’lim muassasalarining xalqaro maydondagi raqobatbardoshligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Tadqiqot kompetentsiyasining asosiy elementlari, jumladan, ilmiy topshiriqlarni shakllantirish, ma’lumot qidirish va tahlil qilish, tadqiqotlarni rejalashtirish, tajribalar o‘tkazish, ilmiy maqolalar yozish va natijalarni taqdim etish qobiliyati magistrantlarning dolzarb ijtimoiy va kasbiy muammolarni hal qilishda faol va tashabbuskor pozitsiyasini rivojlantirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Prasad Ch. Educational impact on the society / Ch. Prasad, P. Gupta // International Journal of Novel Research in Education and Learning, 2020. Vol. 7, No. 6. 1–7 P. URL: https://www.noveltyjournals.com/upload/paper/paperpdf-1604924792.pdf.

2. Amirova A. Creative and research competence as a factor of professional training of future teachers: Perspective of learning technology / A. Amirova, M.I. Jeksembekova, G.Z. Taubayeva [et al.] // World Journal on Educational Technology. 2020. Vol. 12, No. 4. 278–289 P.

3. Heleta S. Sustainable development goals and higher education: leaving many behind / S. Heleta, T. Bagus // Higher education. 2021. Vol. 81. 163–177 P.

4. Abo-Khali A.G. Integrating sustainability into higher education challenges and opportunities for universities worldwide / A.G. Abo-Khali // Heliyon. 2024. Vol. 10, No. 9. Article e29946. 13 p.

5. Tiwari S.P. Evolving school dynamics and emerging technologies in education: Critical success factors / S.P. Tiwari, A. Fahrudin. – Calgary, Canada: SciFormat Publishing Inc., 2024. 45 p.

6. Spring J. Globalization of education: an introduction / J. Spring; 2nd ed. New York: Routledge, 2014. 244 p.

7. Kemp N. The international education market: Some emerging trends / N. Kemp // International Higher Education. 2016. Vol. 85. 13–15 P.

8. Weerasombat, T. Understanding employability in changing labor market contexts: The case of an emerging market economy of Thailand / T. Weerasombat, P. Pumipatyothin, C. Napathorn // Sustainability. 2022. Vol. 14, No. 16. Article 10436. 25 p.

9. Mhlanga D. Digital transformation of education, the limitations and prospects of introducing the fourth industrial revolution asynchronous online learning in emerging markets / D. Mhlanga // Discover Education. 2024. Vol. 3. Article 32. 18 p.

10. Kamalov F. New era of artificial intelligence in education: Towards a sustainable multifaceted revolution / F. Kamalov D. Santandreu Calonge, I. Gurrib // Sustainability. 2023. Vol. 15, No. 16. Article 12451. 27 p.

11. Tien H.L. Development of evaluation criteria for training fire students to enable new rescue roles in Vietnam / H.L. Tien, N.P. Van, T. Kato // Journal of Disaster Research. 2024. Vol. 19, No. 2. 411–419 P.

12. Wang S. A review on higher education of fire safety in China / S. Wang, X. Huang // Fire Technology. 2024. Vol. 60. 757–816 P.

13. Greičiūtė A. The impact of environmental uncertainty on career management / A. Greičiūtė // Public Security and Public Order. 2023. Vol. 34. 82–93 P.

UO‘K 581.14

ROBOTOTEXNIKA TO‘GARAKLARIDA LOYIHA ASOSIDA O‘QITISH SAMARADORLIGI

Polvonova Nuriya San’at qizi,
Urganch davlat pedagogika instituti
70111301 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi
va metodikasi yo‘nalishi magistranti
nuriyapolvonova2@gmail.com

Mazkur maqolada umumta’lim maktablarida faoliyat yuritayotgan robototexnika to‘garaklarida loyiha asosida o‘qitish metodikasining samaradorligi yoritilgan. Tadqiqot jarayonida o‘quvchilarning amaliy faoliyatga jalb etilishi, mustaqil fikrlashi va ijodiy yondashuvini rivojlantirish masalalariga alohida e’tibor qaratildi. Kuzatishlar asosida loyiha asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar o‘quvchilarning texnik tafakkurini va muammoli vaziyatlarni hal etish ko‘nikmalarini shakllantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi aniqlandi. Maqolada robototexnika to‘garaklarida loyiha asosida o‘qitishni tashkil etish bo‘yicha metodik tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: *robototexnika, loyiha asosida o‘qitish, to‘garak mashg‘ulotlari, texnik ijodkorlik, STEM.*

ЭФФЕКТИВНОСТЬ ПРОЕКТНОГО ОБУЧЕНИЯ В КРУЖКАХ РОБОТОТЕХНИКИ

В статье рассматривается эффективность проектного обучения в робототехнических кружках общеобразовательных школ. В процессе исследования особое внимание уделялось вовлечению учащихся в практическую деятельность, развитию самостоятельного мышления и творческого подхода. На основе наблюдений установлено, что занятия, организованные на основе проектного обучения, способствуют формированию технического мышления и навыков решения проблемных ситуаций. В статье представлены методические рекомендации по организации проектного обучения в робототехнических кружках.

Ключевые слова: *робототехника, проектное обучение, кружковые занятия, техническое творчество, STEM*

THE EFFECTIVENESS OF PROJECT-BASED LEARNING IN ROBOTICS CLUBS

This article discusses the effectiveness of project-based learning in robotics clubs of general secondary schools. During the study, special attention was paid to engaging students in practical activities and developing independent thinking and creative approaches. Based on observations, it was found that project-based lessons positively influence the development of technical thinking and problem-solving skills. The article provides methodological recommendations for organizing project-based learning in robotics clubs.

Keywords: *robotics, project-based learning, club activities, technical creativity, STEM*

Kirish. Bugungi kunda ta’lim tizimida o‘quvchilarning amaliy ko‘nikmalarini shakllantirish, mustaqil fikrlashini rivojlantirish va ijodiy yondashuvini qo‘llab-quvvatlash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, STEM ta’limi doirasida robototexnika mashg‘ulotlarining joriy etilishi o‘quvchilarning texnik tafakkurini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Umumta’lim maktablarida tashkil etilayotgan robototexnika to‘garaklari o‘quvchilarning darsdan tashqari faoliyatini mazmunli tashkil etish, ularni texnologik jarayonlarga qiziqtirish va kelajak kasbiga yo‘naltirish imkonini bermoqda. Biroq robototexnika mashg‘ulotlarini samarali tashkil etish uchun zamonaviy pedagogik yondashuvlarni qo‘llash talab etiladi.

Shu nuqtayi nazardan, loyiha asosida o‘qitish metodi o‘quvchilarning amaliy faoliyatga yo‘naltirilgan holda bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi. Mazkur maqolada robototexnika to‘garaklarida loyiha asosida o‘qitishning samaradorligi va uni amaliyotga joriy etish imkoniyatlari yoritiladi.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. *Loyiha asosida o‘qitishning mohiyati.* Zamonaviy ta’lim paradigmasida loyiha asosida o‘qitish (Project-Based Learning – PBL) shunchaki metod emas, balki o‘quvchini passiv tinglovchidan faol tadqiqotchi va muhandisga aylantiruvchi kompleks yondashuvdir. Robototexnika to‘garaklari sharoitida ushbu metodikaning mohiyati nazariy bilimlarni (fizika, matematika, dasturlash) real texnik mahsulotga aylantirish jarayonida namoyon bo‘ladi. Mazkur metodikaning robototexnika to‘garaklaridagi fundamental prinsiplari quyidagilardan iborat:

1. Muammoli vaziyatni shakllantirish va maqsadni belgilash

Har qanday loyihaning asosi – yechimi kutilayotgan real hayotiy muammodir. Bunda o‘quvchi shunchaki robot yig‘maydi, balki muayyan vazifani (masalan, to‘siqlardan qochuvchi robot yoki aqlli issiqxona nazorati) bajaruvchi intellektual tizimni loyihalashni maqsad qiladi. Bu jarayon o‘quvchining "Nima uchun bu qurilmani yaratishim kerak?" degan savoliga javob topishidan boshlanadi, bu esa o‘z navbatida ichki motivatsiyani shakllantiradi.

2. Strategik rejalashtirish va resurslarni boshqarish

Loyiha asosida o‘qitish o‘quvchini tizimli ishlashga o‘rgatadi. Rejalashtirish bosqichida o‘quvchi:

Kerakli mikrokontrollerlar (Arduino, ESP32, Raspberry Pi) va sensorlarni tanlaydi;

Loyiha muddatlarini (deadlines) belgilaydi;

O‘z imkoniyatlarini baholaydi.

Bu bosqich o‘quvchida menejerlik va muhandislik logistikasini rivojlantiradi.

3. Konstruktiv amaliy faoliyat va prototiplash

Ushbu bosqichda “o‘rganish jarayoni amaliyot orqali’ (learning by doing) prinsipi to‘liq ishga tushadi. O‘quvchilar algoritmlar tuzish, sxemalarni yig‘ish va dasturiy kod yozish jarayonida ko‘plab xatolarga duch keladilar. Robototexnikadagi “xato ustida ishlash” jarayoni o‘quvchining tanqidiy fikrlashini charxlaydi. Nazariy formulalar (masalan, Om qonuni yoki trigonometrik hisob-kitoblar) robotning harakati orqali vizuallashadi.

4. Yakuniy natijaning ijtimoiy va texnik taqdimoti (Verifikatsiya)

Loyihaning yakuniy nuqtasi faqatgina ishlovchi robot emas, balki uning taqdimotidir. O‘quvchi o‘z g‘oyasini himoya qilish, texnik ko‘rsatkichlarni asoslab berish va jamoa oldida hisobot berish orqali “Soft Skills” (yumshoq ko‘nikmalar) – ya’ni notiqlik va muloqot qobiliyatlarini ham rivojlantiradi. Bu bosqich o‘quvchida o‘z mehnatining mahsulidan g‘ururlanish va o‘ziga bo‘lgan ishonchni mustahkamlaydi.

Robototexnika to‘garaklarida loyiha asosida o‘qitish – o‘quvchining intellektual salohiyatini texnik ijodkorlik bilan birlashtiruvchi ko‘prikdir. Bu yondashuv nafaqat bilim beradi, balki XXI asrning eng muhim ko‘nikmalari: ijodiy yondashuv (creativity), hamkorlik (collaboration) va murakkab muammolarni hal qilish (complex problem solving) qobiliyatlarini shakllantiradi.

Robototexnika to‘garaklarida loyiha asosida mashg‘ulotlarni tashkil etish.

Umumta’lim maktablari negizida robototexnika to‘garaklarini loyiha usulida tashkil etish shunchaki dars o‘tish emas, balki o‘quvchilar uchun kichik "muhandislik laboratoriyasi" muhitini yaratishni anglatadi. 2026-yilgi zamonaviy ta’lim trendlari va amaliy tajribalarga tayanib, ushbu jarayonni to‘rtta asosiy bosqichga bo‘lish mumkin:

1. Adaptatsiya va fundamental tayyorgarlik (Kirish bosqichi)

Loyiha faoliyatini boshlashdan avval o‘quvchilarda boshlang‘ich texnik “savodxonlik” shakllantiriladi. Bu bosqichda:

Komponentlar bazasi bilan tanishuv: O‘quvchilar kontrollerlar (masalan, Arduino mikrosxemalari), sensorlar (masofa, yorug‘lik, harorat datchiklari) va ijrochi mexanizmlar (servomotorlar)ning ishlash prinsiplarini o‘rganadilar.

Vizual va skriptli dasturlash: Kod yozishning mantiqiy bloklari (masalan, mBlock yoki Scratch muhitlari) orqali algoritmlash asoslari o‘rgatiladi.

Xavfsizlik texnikasi: Elektronika va elektr asboblari bilan ishlashning fundamental qoidalari o‘zlashtiriladi.

2. Jamoaviy loyihalashtirish va strategik tanlov

Tadqiqot metodologiyasi. Ikkinchi bosqichda o‘quvchilar individual ishlashdan hamkorlikka o‘tadilar. Bu yerda asosiy e’tibor “muhandislik jamoasini” shakllantirishga qaratiladi:

Rollar taqsimoti: Guruh ichida o‘quvchilar “dasturchi”, “konstruktor” va ‘dizayner-taqdimotchi” kabi rollarga bo‘linadi. Bu jamoaviy mas’uliyatni oshiradi.

G‘oyalar generatsiyasi: O‘quvchilar o‘z loyihalari uchun mavzu tanlaydilar. Masalan, “Aqlli shahar” konsepsiyasi doirasida avtomatlashtirilgan svetofor yoki chiqindilarni saralovchi robot modeli tanlanishi mumkin.

Texnik topshiriq (Draft): Loyihaning chizmalari chiziladi va kutilayotgan natijalar qog‘ozga yoki raqamli formatga tushiriladi.

3. Konstruktiv-amaliy iteratsiya (Ijodiy jarayon)

Bu bosqich loyihaning eng faol va vaqt talab qiladigan qismi bo‘lib, o‘quvchilardan sabr-toqat va mantiqni talab qiladi:

Prototip yaratish: Tanlangan komponentlardan robotning mexanik qismi yig‘iladi.

Dasturiy ta’minot va sozlash: Robotning "miyasiga" buyruqlar yoziladi va u sensorlar orqali tashqi muhitni his qilishga o‘rgatiladi.

Iterativ yondashuv (sinov va xato): Robot birinchi urinishda kutilganidek ishlamasligi mumkin. O‘quvchilar xatoni qidirish (debugging) jarayonida muammoli vaziyatlarni tahlil qilishni va ularga optimal yechim topishni amalda o‘rganadilar.

4. Refleksiya, verifikatsiya va yakuniy taqdimot

Loyiha yakunida natijalarni ommaviy namoyish etish o‘quvchilarning o‘z-o‘zini baholashini shakllantiradi:

Demo-ko‘rgazma: Robotning imkoniyatlari amalda ko‘rsatib beriladi.

Kritik tahlil: Guruhlar bir-birlarining ishlarini baholaydilar, qaysi qismda kamchilik bo‘lgani va uni qanday takomillashtirish mumkinligi muhokama qilinadi.

Samaradorlik monitoringi: O‘qituvchi tomonidan o‘quvchilarning ijodiy erkinligi, muammoni mustaqil yechish darajasi va texnik ko‘nikmalarining o‘sishi ballar yoki sifat ko‘rsatkichlari (portfolio) orqali qayd etiladi.

Kuzatishlar asosida metodik tavsiyalar.

Robototexnika to‘garaklarida o‘quvchilarning loyiha faoliyatini tahlil qilish va jarayon samaradorligini oshirish maqsadida quyidagi ilmiy-metodik tavsiyalar taklif etiladi:

1. Ta’lim trayektoriyasini bosqichma-bosqich (gradual) rejalashtirish

Mashg‘ulotlar “oddiy muammolardan murakkab yechimlar sari” tamoyili asosida qurilishi shart. O‘quvchiga birdaniga murakkab avtonom robot yaratish vazifasini qo‘yish unda motivatsiyaning pasayishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli:

Dastlabki bosqichda tayyor konstruksiyalardan foydalanish;

O‘rta bosqichda mavjud modellarni modifikatsiya qilish;

Yakuniy bosqichda esa mutlaqo mustaqil mualliflik loyihalarini yaratishga o‘tish tavsiya etiladi. Bunday bosqichma-bosqich yondashuv o‘quvchida bilimlar poydevori mustahkam bo‘lishini ta’minlaydi.

2. Jamoaviy dinamika va individual mas’uliyat integratsiyasi

Loyiha asosida o‘qitishda guruhdagi har bir a’zoning o‘rni aniq belgilanishi lozim. Jamoaviy ishlash ko‘nikmalarini (collaboration) rivojlantirish uchun:

O‘quvchilar o‘rtasida “konstruktor”, “elektronik”, “algoritm muallifi” va “menejer” kabi rollarni muntazam almashlab turish (rotatsiya qilish) lozim.

Bu usul o‘quvchining nafaqat bir yo‘nalishda ixtisoslashishiga, balki loyihaning umumiy arxitekturasini tushunishiga va universal kompetensiyalar shakllanishiga yordam beradi.

3. Amaliy natijaviylik va “Ko‘rinadigan muvaffaqiyat” prinsipi

O‘quvchilarning robototexnikaga bo‘lgan qiziqishini barqaror ushlab turish uchun har bir o‘quv loyihasi aniq, moddiy yoki funksional natija bilan yakunlanishi zarur.

Nazariy mashg‘ulotlar amaliy sinovlarsiz o‘z qiymatini yo‘qotadi.

Loyiha yakunida robotning belgilangan vazifani bajarishi (masalan, chiziq bo‘ylab harakatlanishi) o‘quvchida “Men qila olaman!” degan hissiyotni uyg‘otadi. Bu esa o‘z navbatida keyingi murakkabroq texnologik vazifalarni bajarish uchun kuchli intellektual turtki bo‘ladi.

4. Tanqidiy tafakkur va muammolarni bartaraf etish (Problem-solving)

Robototexnika mashg‘ulotlari o‘quvchilarni kutilmagan texnik muammolar bilan yuzma-yuz qoldiradi. Metodik nuqtai nazardan, o‘qituvchi tayyor yechimni bermasligi, balki:

O‘quvchini yo‘naltiruvchi savollar orqali xatoni o‘zi topishiga sharoit yaratishi;

Muammoning bir necha xil yechimini (masalan, mexanik yoki dasturiy yechim) qidirishga undashi lozim.

Bu yondashuv o‘quvchilarda texnik tafakkur va stressli vaziyatlarda mantiqiy qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi, bu esa 2026-yilgi mehnat bozori uchun eng talabgir xususiyatlardan biridir.

Tadqiqot natijalari va ularning tahlili. Umumta’lim maktablaridagi robototexnika to‘garaklarida loyiha asosida o‘qitish metodikasini qo‘llash jarayonida olingan natijalar ushbu

yondashuvning an’anaviy ta’lim usullaridan bir necha barobar samarali kanligini ko‘rsatdi. Kuzatishlar va amaliy mashg‘ulotlar tahlili quyidagi asosiy yo‘nalishlarda ijobiy dinamikani aniqladi:

1. Kognitiv rivojlanish va ijodiy kreativlikning o‘sishi. Loyiha faoliyati davomida o‘quvchilarning muammoli vaziyatlarga (problem-solving) yondashuvi tubdan o‘zgardi. Kuzatishlar shuni ko‘rsatdiki:

O‘quvchilar tayyor ko‘rsatmalarni kutmasdan, yuzaga kelgan texnik nosozliklarni bartaraf etishda mustaqil va kreativ yechimlar taklif qila boshladilar.

Guruh ichidagi “miya hujumi” (brainstorming) jarayonlarida o‘quvchilarning 85% dan ortig‘i loyihani takomillashtirish bo‘yicha o‘zlarining individual va original g‘oyalarini ilgari surganliklari qayd etildi. Bu esa loyiha asosida o‘qitish o‘quvchini passiv ijrochidan faol konstruktorga aylantirishini isbotlaydi.

2. Texnik kompetentsiyalar va amaliy ko‘nikmalarning shakllanishi. Robotlarni loyihalash va dasturiy ta’minotini ishlab chiqish jarayoni o‘quvchilarning nazariy bilimlarini amaliy ko‘nikmalarga aylantirdi. Natijada:

Muhandislik tafakkuri: O‘quvchilar sxemotexnika, datchiklarning ishlash algoritmlari va mexanik uzatmalar o‘rtasidagi bog‘liqlikni chuqur anglab yetdilar.

Algoritmik savodxonlik: Kod yozish va xatolarni tuzatish (debugging) jarayonida o‘quvchilarda mantiqiy ketma-ketlikni tuzish ko‘nikmasi an’anaviy informatika darslariga qaraganda 1,5 barobar tezroq shakllangani kuzatildi. Oddiy elektron komponentlarni ulashdan murakkab avtomatlashtirilgan tizimlarni boshqarishgacha bo‘lgan masofani bosib o‘tish o‘quvchilarda texnologiyaga bo‘lgan ishonchni mustahkamladi.

3. Pedagogik samaradorlik va motivatsion ko‘rsatkichlar. Loyiha asosida o‘qitish modelining eng muhim yutug‘i – bu o‘quvchilarning ta’lim jarayoniga bo‘lgan qiziqishining barqarorligidir.

Bosqichma-bosqichlik samarasi: Mashg‘ulotlarning mantiqiy zanjir asosida (rejalashtirishdan taqdimotgacha) tashkil etilishi o‘quvchilarda mas’uliyat hissini uyg‘otdi.

Ijtimoiy ko‘nikmalar (Soft Skills): Loyiha yakuniga kelib, o‘quvchilarning jamoada ishlash, o‘zaro fikr almashish va jamoaviy qaror qabul qilish ko‘rsatkichlari sezilarli darajada yaxshilandi. Natijada, to‘garak a’zolarining 90% dan ortig‘i kelajakda muhandislik yoki IT sohasida ta’limni davom ettirish istagini bildirdilar.

Olingan natijalar shuni tasdiqlaydiki, loyiha asosida o‘qitish metodikasi robototexnika to‘garaklarida nafaqat texnik bilim berish, balki XXI asrning eng muhim kompetentsiyalarini shakllantirishda asosiy drayver bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa. Umumta’lim maktablari negizida faoliyat yuritayotgan robototexnika to‘garaklarida loyiha asosida o‘qitish (PBL) metodikasining samaradorligini o‘rganish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar quyidagi fundamental xulosalarni chiqarish imkonini beradi:

Kompleks ko‘nikmalarni shakllantirish: Robototexnika mashg‘ulotlarining loyiha usulida tashkil etilishi o‘quvchilarning nafaqat texnik bilimlarini, balki ularning ijodiy (kreativ) va muhandislik tafakkurini ham yangi bosqichga olib chiqadi. Bu jarayonda o‘quvchi shunchaki iste’molchi emas, balki muammoning yechimini yaratuvchi ixtirochi sifatida namoyon bo‘ladi.

Pedagogik yondashuvning tizimliligi: tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, mashg‘ulotlarning bosqichma-bosqich (rejalashtirishdan to natija taqdimotigacha) amaliy yo‘nalishda qurilishi o‘quvchilarda mustaqil qaror qabul qilish va tanqidiy fikrlash qobiliyatini sezilarli darajada mustahkamlaydi. Amaliy faoliyat orqali olingan bilimlar nazariy ma’lumotlarga qaraganda mustahkamroq va uzoq muddatli xotirada saqlanadi.

Metodik moslashuvchanlik: Loyiha asosida o‘qitish metodikasi zamonaviy maktab sharoitiga moslashuvchanligi bilan ajralib turadi. Ushbu yondashuv kam mablag‘ va resurslar sarflagan holda ham (masalan, virtual simulyatorlar yoki oddiy sensorli to‘plamlar yordamida) o‘quvchilarda yuqori natijalarga erishish va ularni kelajakning yuqori texnologiyali (STEM) kasblariga yo‘naltirish imkonini beradi.

Istiqbolli yo‘nalishlar: Olingan ijobiy natijalarga qaramay, kelajakda ushbu metodikani yanada takomillashtirish, loyiha ishlarini baholashning raqamli tizimlarini (e-portfolio) joriy etish va metodik tavsiyalarni o‘quvchilarning yosh toifasiga ko‘ra differensiallash bo‘yicha kengroq ilmiy-amaliy tajribalar o‘tkazish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa qilib aytganda, robototexnika to‘garaklarida loyiha asosida o‘qitish – bu o‘quvchini intellektual va amaliy jihatdan barkamol shaxs sifatida shakllantirishning eng samarali va zamonaviy pedagogik vositalaridan biridir.

Adabiyotlar:

1. Vazirlar Mahkamasining 2024-yilgi Qarori. Maktabgacha va maktab ta’limi tizimida STEM yo‘nalishlarini 2026-yilgacha rivojlantirishning Milliy dasturi to‘g‘risida. – Toshkent, 2024. – Lex.uz.

2. Xolmatov A., Raximov B. Umumta’lim maktablarida robototexnika to‘garaklarini tashkil etishning metodik asoslari // Xalq ta’limi ilmiy-metodik jurnali. – Toshkent, 2021. – №4. – B. 12-18.

3. Abdullayev S., Jo‘rayev M. Robototexnika vositasida o‘quvchilarning texnik ijodkorligini rivojlantirish modeli // Ta’lim va innovatsion texnologiyalar. – Buxoro, 2020. – №2. – B. 88-95.

4. Qodirova N.A. STEM ta’limi doirasida robototexnika va muhandislik yo‘nalishlarini integratsiyalashning ahamiyati // Pedagogik mahorat jurnali. – Buxoro, 2022. – №1. – B. 45-50.

5. Ismoilov A.M. Darsdan tashqari mashg‘ulotlarda loyiha asosida o‘qitish metodikasi orqali o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini shakllantirish // Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. – Toshkent: Fan, 2021. – B. 102-105.

6. Mirzayev D.Sh. Robototexnik tizimlarni loyihalashda dasturiy ta’minot va zamonaviy algoritmlar // Axborot texnologiyalari va telekommunikatsiyalar jurnali. – Toshkent, 2020. – №3. – B. 22-29.

7. Karimov F.G‘. Robototexnika to‘garaklarida Project-Based Learning (PBL) metodikasining samaradorligi: 2024-2026 yillar tajribasi tahlili // Zamonaviy ta’lim jurnali. – Toshkent, 2025. – №1. – B. 34-40.

8. Khalikov A.U. Project-Based Learning in STEM: Robotics Education for Secondary Schools // International Journal of Pedagogics and Modern Education. – USA, 2024. – Vol. 5, Issue 2. – pp. 112-119.

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING KREATIV MUHIT YARATISHDAGI KUCHLI VA ZAIF TOMONLARI

Rajabova Charos Sheroziddin qizi,
Master’s student (1st year), Primary Education
Charossheroziddinovna19@gmail.com
ORCID: 0009-0007-8673-8856

Zamonaviy ta’lim tizimida bo‘lajak o‘qituvchilarning kreativ muhit yaratish kompetensiyasi ularning kasbiy tayyorgarligi va pedagogik samaradorligini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kreativ muhitni shakllantirish jarayonidagi kuchli va zaif tomonlari pedagogik hamda psixologik yondashuvlar asosida tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, talabalar innovatsion va talaba markazli metodlarni qo‘llashda yetarli salohiyatga ega bo‘lsalar-da, vaqtni boshqarish, ta’lim resurslaridan samarali foydalanish hamda o‘quvchilar motivatsiyasini barqaror ta’minlashda muayyan qiyinchiliklarga duch keladilar. Maqola yakunida bo‘lajak o‘qituvchilarning kreativ kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: *kreativ muhit, pedagogik kompetensiya, bo‘lajak o‘qituvchilar, kreativ tafakkur, innovatsion ta’lim, professional rivojlanish.*

СИЛЬНЫЕ И СЛАБЫЕ СТОРОНЫ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ В СОЗДАНИИ ТВОРЧЕСКОЙ СРЕДЫ

В современных условиях развития образования способность будущих учителей создавать креативную образовательную среду является важным показателем их профессиональной подготовки и педагогической эффективности. В статье анализируются сильные и слабые стороны будущих учителей начальных классов в процессе формирования креативной среды на основе педагогических и психологических подходов. Результаты исследования показывают, что будущие учителя обладают достаточным потенциалом в использовании инновационных и ориентированных на учащихся методов обучения, однако испытывают трудности в управлении временем, эффективном использовании образовательных ресурсов и формировании устойчивой учебной мотивации. В заключении представлены научно-практические рекомендации по развитию креативной компетентности будущих учителей.

Ключевые слова: *творческая среда, педагогическая компетентность, будущие учителя, творческое мышление, инновационное образование, профессиональное развитие.*

STRENGTHS AND WEAKNESSES OF FUTURE TEACHERS IN CREATING A CREATIVE ENVIRONMENT

In modern educational contexts, the ability of future teachers to create a creative learning environment is a key indicator of their professional readiness and pedagogical effectiveness. This article analyzes the strengths and weaknesses of future primary school teachers in developing a creative educational environment based on pedagogical and psychological perspectives. The findings indicate that while future teachers demonstrate strong potential in applying innovative and student-centered instructional methods, they encounter challenges related to time management, effective use of educational resources, and sustaining student motivation. The study concludes with scientific and practical recommendations aimed at enhancing the creative competence of future teachers.

Keywords: *creative environment, pedagogical competence, future teachers, creative thinking, innovative education, professional development.*

Kirish. Ta’lim tizimining jadal rivojlanishi, jamiyatda bilimga bo‘lgan ehtiyojning ortib borishi va pedagogik faoliyatga qo‘yilayotgan yangi talablar o‘qituvchining rolini tubdan o‘zgartirmoqda. Bugungi kunda o‘qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga, ijodiy yondashuvga va muammoli vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilishga yo‘naltiruvchi shaxs sifatida namoyon bo‘lishi zarur. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichida yaratiladigan pedagogik muhit keyingi ta’lim jarayonining sifatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Kreativ muhit o‘quvchilarning faolligini oshirish, ularning shaxsiy qiziqishlarini inobatga olish va ta’lim jarayonini samarali tashkil etishda muhim vosita hisoblanadi. Shu sababli, bo‘lajak o‘qituvchilarning kreativ muhit yaratishdagi kuchli va zaif tomonlarini aniqlash pedagogik ta’limni takomillashtirish nuqtayi nazaridan dolzarb hisoblanadi.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. Kreativ muhit tushunchasi pedagogik adabiyotlarda o‘quv jarayonida erkin fikrlash, tashabbuskorlik va ijodiy faoliyatni qo‘llab-quvvatlovchi sharoit sifatida talqin etiladi. Bunday muhitda o‘quvchilar o‘z fikrlarini erkin ifoda etish, xatolardan qo‘rqmaslik va yangi g‘oyalarni sinab ko‘rish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Pedagogik kompetensiya esa o‘qituvchining kasbiy bilimlari, metodik tayyorgarligi, kommunikativ ko‘nikmalari va shaxsiy sifatlarining yaxlit tizimini ifodalaydi. Kreativ kompetensiya ushbu tizimning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, u o‘qituvchining innovatsion metodlarni tanlash va qo‘llash, muammoli vaziyatlarga moslashuvchan yondashish hamda o‘quvchilarning ijodiy faolligini rag‘batlantirish qobiliyatini o‘z ichiga oladi. Kreativlik zamonaviy ta’lim va jamiyat taraqqiyotida muhim omillardan biri hisoblanadi. Tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, kreativ fikrlash shaxsning muammolarga noodatiy yondashuvi, yangi va samarali g‘oyalarni ishlab chiqishi bilan tavsiflanadi.

Amabile (1996) ta’kidlashicha, kreativlik yangi va foydali g‘oyalarni ishlab chiqish bilan bog‘liq bo‘lib, bu jarayonda ichki motivatsiya muhim rol o‘ynaydi. Shu bilan birga, tashqi bosim va haddan tashqari nazorat ijodiy faoliyatga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Amabile (1996) kreativlikni asosan ichki motivatsiya bilan bog‘lab tushuntiradi va shaxs o‘z faoliyatiga qiziqish bilan yondashganda ijodiy natijalar yuqori bo‘lishini ta’kidlaydi. Bu yondashuv kreativlikning kuchli tomoni sifatida shaxsiy qiziqish, mustaqillik va innovatsion fikrlashni rivojlantirishini ko‘rsatadi. Biroq muallifning fikricha, haddan tashqari tashqi nazorat, baholash va majburiy talablar ijodiy jarayonni susaytirishi mumkin, bu esa kreativlikning zaif jihatlaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Sternberg (2018) kreativlikni kengroq psixologik va ijtimoiy kontekstda tahlil qilib, uni turli intellektual qobiliyatlar bilan bog‘laydi. Unga ko‘ra, kreativlik analitik, sintetik va amaliy fikrlashning uyg‘unligi natijasida shakllanadi. Ushbu yondashuvning kuchli tomoni shundaki, u kreativlikni faqat tug‘ma iste’dod emas, balki rivojlantiriladigan ko‘nikma sifatida talqin qiladi. Shu bilan birga, Sternberg kreativlikni tushuntirishda turli nazariy modellarning mavjudligi uni aniqlash va o‘lchash jarayonini murakkablashtirishini ham qayd etadi. Bu holat kreativlikni amaliy ta’lim jarayoniga joriy etishda muayyan qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi.

Ta’lim kontekstida O’Connor (2016) kreativlikni rivojlantirish o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, muammolarni hal qilish qobiliyati va o‘quv jarayoniga bo‘lgan qiziqishini oshirishini ta’kidlaydi. Kreativ yondashuvga asoslangan ta’lim muhitlari o‘quvchilarga o‘z g‘oyalarini erkin ifoda etish va yangilik yaratish imkonini beradi, bu esa kreativlikning muhim kuchli jihati hisoblanadi. Shu bilan birga, muallif an’anaviy ta’lim tizimlarida qat’iy o‘quv dasturlari va standartlashtirilgan baholash usullari kreativ fikrlashni rivojlantirishga to‘sqinlik qilishi mumkinligini ko‘rsatadi. Natijada, kreativlikni ta’lim jarayonida samarali qo‘llash uchun mos pedagogik sharoit va moslashuvchan yondashuv zarur bo‘ladi.

Umuman olganda, ilmiy adabiyotlar kreativlikning kuchli tomonlari sifatida innovatsion fikrlash, muammolarni samarali hal qilish va shaxsiy salohiyatni rivojlantirishni ko‘rsatadi. Shu bilan birga, baholash tizimi, tashqi bosim va nazariy yondashuvlarning murakkabligi kreativlikni rivojlantirishdagi asosiy zaif jihatlar sifatida namoyon bo‘ladi.

Mazkur tadqiqot doirasida kreativ muhit va pedagogning kreativ kompetensiyasi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik an’anaviy tavsifiy yondashuvdan farqli ravishda tizimli-pedagogik hodisa sifatida asoslandi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, kreativ muhit faqat tashkiliy yoki psixologik sharoitlar majmui emas, balki pedagogning kasbiy faoliyati orqali faol shakllantiriladigan dinamik jarayon ekanligi aniqlandi. Ushbu yondashuv kreativlikni shaxsning individual xususiyati sifatida emas, balki pedagogik boshqaruv va didaktik qarorlar natijasi sifatida talqin qilish imkonini beradi. Ilk bor kreativ kompetensiya pedagogik kompetensiya tarkibida mustaqil va integrativ komponent sifatida ajratilib, uning tarkibiy tuzilmasi aniqlashtirildi. Jumladan, kreativ kompetensiyaning innovatsion metodlarni tanlash va moslashtirish, muammoli vaziyatlarga moslashuvchan yondashish hamda o‘quvchilarning ijodiy faolligini rag‘batlantirish kabi funksional jihatlari pedagogik jarayonda kreativ muhitni yuzaga keltiruvchi asosiy mexanizmlar sifatida asoslab berildi. Bu holat pedagogning shaxsiy ijodkorligi bilan o‘quvchilarning kreativ rivojlanishi o‘rtasida bevosita sababiy bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatadi.

Tadqiqot davomida kreativlikni rivojlantirishda ichki motivatsiyaning ustuvorligi empirik va nazariy jihatdan asoslanib, haddan tashqari tashqi nazorat va standartlashtirilgan baholash mexanizmlarining kreativ faoliyatga cheklovchi omil sifatida ta’sir ko‘rsatishi aniqlashtirildi. Ushbu holat kreativ muhitni tashkil etishda baholash tizimlarini qayta ko‘rib chiqish va moslashuvchan, jarayonga yo‘naltirilgan baholash modellari zarurligini ilmiy jihatdan asoslashga xizmat qiladi. Shuningdek, kreativlikning rivojlantiriladigan

ko‘nikma sifatida talqin qilinishi asosida pedagogik jarayonda analitik, sintetik va amaliy fikrlashning integratsiyalashgan modeli taklif etildi. Mazkur model kreativ fikrlashni shakllantirishni fragmentar emas, balki uzluksiz va tizimli jarayon sifatida tashkil etish imkonini beradi hamda kreativ kompetensiyani baholashda sifat ko‘rsatkichlariga asoslangan yondashuvlarni qo‘llash zarurligini asoslab beradi. Umuman olganda, tadqiqot natijalari kreativ muhitni shakllantirish va pedagogning kreativ kompetensiyasini rivojlantirishni ta’lim jarayonini modernizatsiya qilishning muhim ilmiy-pedagogik omili sifatida yangi metodologik darajada talqin etish imkonini beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot *aralash metodologiya (mixed methods)* asosida olib borildi. Ushbu yondashuv kvantitativ va sifatli tadqiqot metodlarini birgalikda qo‘llash orqali o‘rganilayotgan pedagogik hodisani har tomonlama tahlil qilish imkonini berdi. Aralash metodologiyaning tanlanishi kreativ muhit va pedagogik kreativ kompetensiyaning nafaqat miqdoriy ko‘rsatkichlarini aniqlash, balki ishtirokchilarning tajribasi, munosabati va refleksiv qarashlarini chuqurroq o‘rganish zarurati bilan izohlanadi. Shu bois, mazkur yondashuv tadqiqot muammosining murakkab va ko‘p qirrali xususiyatiga metodologik jihatdan mos keladi.

Tadqiqot dizayni ketma-ket tushuntiruvchi (sequential explanatory design) modelga asoslandi. Dastlab kvantitativ ma’lumotlar yig‘ilib, ularning umumiy tendensiyalari aniqlandi, so‘ngra olingan natijalarni chuqurroq talqin qilish maqsadida sifatli ma’lumotlar to‘plandi va tahlil qilindi. Bunday ketma-ketlik kvantitativ natijalarni sifatli ma’lumotlar bilan boyitish hamda ularning pedagogik mazmunini aniqlashtirish imkonini berdi.

Ishtirokchilar. Tadqiqotda pedagogika yo‘nalishida tahsil olayotgan **120 nafar so‘nggi kurs talabalari** ishtirok etdi. Ishtirokchilar maqsadli tanlov (purposive sampling) asosida saralandi. Tanlov mezonlari sifatida talabalarning pedagogik amaliyot tajribasi, dars jarayonidagi faolligi, mustaqil ishlash ko‘nikmalari hamda ijodiy yondashuvga moyilligi belgilandi. Ushbu mezonlar tadqiqot obyekti va maqsadiga mos, mazmunan boy va ishonchli ma’lumotlar olish imkonini berdi.

Ishtirokchilarning aynan so‘nggi kurs talabalari orasidan tanlanishi ularning nazariy bilimlari yetarli darajada shakllanganligi hamda pedagogik faoliyatga yaqin bo‘lgan amaliy tajribaga ega ekanligi bilan asoslanadi. Bu holat tadqiqot natijalarining pedagogik amaliyotga tatbiq etilish imkoniyatini oshirdi.

Ma’lumotlarni yig‘ish vositalari

Tadqiqot jarayonida ma’lumotlar bir-birini to‘ldiruvchi va o‘zaro bog‘liq bo‘lgan bir nechta empirik usullar orqali to‘plandi. Jumladan:

- **So‘rovnomalar** ishtirokchilarning o‘z-o‘zini baholashiga asoslangan bo‘lib, pedagogik kreativ kompetensiya darajasi, kreativ muhitga munosabati va ijodiy faoliyatga tayyorlik holatini aniqlashga qaratildi. So‘rovnoma natijalari kvantitativ tahlil uchun asos bo‘lib xizmat qildi.
- **Dars jarayonlarini tizimli kuzatish** pedagogik faoliyat davomida kreativ muhitning namoyon bo‘lish shakllari, o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir hamda ijodiy faollikning real holatini aniqlash imkonini berdi. Kuzatish jarayoni oldindan ishlab chiqilgan mezonlar asosida amalga oshirildi.
- **Yarim tuzilgan intervyular** ishtirokchilarning shaxsiy tajribasi, pedagogik jarayondagi qiyinchiliklar va kreativ yondashuvga oid qarashlarini chuqurroq tahlil qilishga xizmat qildi. Ushbu usul orqali kvantitativ natijalarda aks etmagan jihatlar aniqlashtirildi.
- **Amaliy mashg‘ulotlar natijalarini tahlil qilish** talabalarning ijodiy yondashuvi, muammoli vaziyatlarni hal qilish usullari va innovatsion g‘oyalarni qo‘llash darajasini aniqlashga qaratildi. Mazkur tahlil pedagogik kreativlikning amaliy ko‘rinishlarini baholash imkonini berdi.

Mazkur ma’lumot yig‘ish vositalarining kompleks qo‘llanilishi tadqiqot natijalarining ishonchliligi va mazmuniy to‘liqligini ta’minlashga xizmat qildi.

Ma’lumotlarni tahlil qilish usullari

Kvantitativ ma’lumotlar **tavsifiy statistika** usullari yordamida qayta ishlandi. Natijalar orqali o‘rtacha ko‘rsatkichlar, foiz taqsimotlari va umumiy tendensiyalar aniqlandi. Ushbu tahlil kreativ kompetensiya va kreativ muhit bilan bog‘liq asosiy miqdoriy holatlarni ko‘rsatib berdi.

Sifatli ma’lumotlar esa **tematik tahlil** asosida qayta ishlanib, dastlab ochiq kodlash, so‘ngra mazmuniy kategoriyalarga ajratish bosqichlaridan o‘tkazildi. Tematik tahlil natijalari kvantitativ ko‘rsatkichlarni pedagogik jihatdan izohlash hamda tadqiqot muammosining ichki mexanizmlarini ochib berishga xizmat qildi.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Kuchli tomonlar:

Tadqiqot natijalari bo‘lajak o‘qituvchilarning quyidagi kuchli jihatlarga ega ekanligini ko‘rsatdi:

talaba markazli yondashuvni qo‘llashga tayyorlik;

innovatsion va interfaol metodlardan foydalanish;

guruhiy va loyiha asosida ishlashni tashkil etish;

o‘quvchilar faolligini oshirishga qaratilgan ijodiy topshiriqlardan foydalanish.

Ushbu jihatlar kreativ muhit yaratishda muhim pedagogik resurs sifatida namoyon bo‘ladi.

Zaif tomonlar:

Shu bilan birga, tadqiqot jarayonida quyidagi zaif tomonlar ham aniqlangan:

dars vaqtini samarali rejalashtirishdagi qiyinchiliklar;

mavjud ta’lim resurslaridan to‘liq foydalanmaslik;

katta va turli darajadagi sinflarda motivatsiyani barqaror saqlash muammolari;

kreativ g‘oyalarni amaliyotga izchil tatbiq etishdagi uzilishlar.

Muhokama. Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, bo‘lajak o‘qituvchilar kreativ salohiyatga ega bo‘lsalar-da, ushbu salohiyatni pedagogik jarayonda to‘liq ro‘yobga chiqarish uchun amaliy ko‘nikmalarni mustahkamlash zarur. Kreativ muhit yaratish faqat innovatsion g‘oyalar bilan emas, balki ularni tizimli, rejalashtirilgan va maqsadga yo‘naltirilgan holda amalga oshirish bilan bog‘liq.

Pedagogik ta’lim jarayonida amaliy mashg‘ulotlar ulushini oshirish, mentorlik tizimini yo‘lga qo‘yish va refleksiv tahlilni rivojlantirish bo‘lajak o‘qituvchilarning zaif tomonlarini bartaraf etishga xizmat qiladi.

Xulosa. Mazkur tadqiqot bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kreativ muhit yaratishdagi kuchli va zaif tomonlarini aniqlashga qaratildi hamda ilmiy adabiyotlar asosida tahlil qilindi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, kreativlik shaxsning yangi va foydali g‘oyalarni ishlab chiqish qobiliyatini rivojlantirib, muammolarni hal qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ichki motivatsiya, mustaqil fikrlash va qulay ta’lim muhitining mavjudligi kreativlikni qo‘llab-quvvatlovchi asosiy omillar sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, qat’iy baholash tizimlari, tashqi bosim va kreativlikni o‘lchashdagi nazariy murakkabliklar uning rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shunday ekan, kreativlikni samarali rivojlantirish uchun moslashuvchan pedagogik yondashuvlar va qo‘llab-quvvatlovchi muhit yaratish muhim hisoblanadi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, bo‘lajak o‘qituvchilar innovatsion metodlardan foydalanishda yetarli salohiyatga ega bo‘lsalar-da, vaqtni boshqarish, resurslardan samarali foydalanish va motivatsiyani barqaror ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha tayyorgarlikka muhtoj. Ushbu xulosalar pedagogik ta’lim tizimini takomillashtirish va bo‘lajak o‘qituvchilarning kreativ kompetensiyasini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar:

1. Qodirov F. E. u., & Rajabova C. S. q. (2026). Educational and cognitive characteristics of left-handed school students: Evidence from a small-scale empirical study. Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, 3(Special Issue 1), 64–68. Zenodo.

2. Robinson K. (2011). Out of Our Minds: Learning to Be Creative. Oxford: Capstone.

3. Craft A. (2005). Creativity in Schools: Tensions and Dilemmas. London: Routledge.

4. Sawyer R. K. (2012). Explaining Creativity: The Science of Human Innovation. Oxford University Press.

5. O’Connor K. (2016). Creativity in education. Educational Review, 68(1), 1–14.

6. Sternberg R. J. (2018). The Nature of Human Creativity. Cambridge University Press.

7. Amabile T. M. (1996). Creativity in Context. Boulder: Westview Press.

UO’K 355.23:37.013

HARBIY FANLARNI O‘QITISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK JIHATLARI

Sarmanov Toxir Gopirovich,
IIV Akademiyasi katta o‘qituvchisi
sarmanov.toxir@gmail.com

Mazkur maqolada harbiy fanlarni o‘qitish jarayonining pedagogik va psixologik jihatlari kompleks va tizimli yondashuv asosida tadqiq etilgan. Tadqiqotning asosiy maqsadi zamonaviy harbiy ta’lim tizimida qo‘llanilayotgan pedagogik texnologiyalar hamda psixologik yondashuvlarning samaradorligini aniqlash va baholashdan iborat. Ilmiy izlanish davomida harbiy ta’limning o‘ziga xos xususiyatlari, kasbiy tayyorgarlik jarayonida kursant shaxsining shakllanishi, ularning motivatsiyasi, stressga chidamlilik darajasi va ijtimoiy-psixologik moslashuv omillari tahlil qilingan. Shuningdek, interfaol metodlar, innovatsion pedagogik texnologiyalar, muammoli ta’lim va simulyatsion mashg‘ulotlarning ta’lim sifati hamda amaliy tayyorgarlikka ta’siri o‘rganilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, pedagogik va psixologik omillarning integratsiyasi, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv va zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanish harbiy kadrlar tayyorlash sifatini oshiradi, kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: *harbiy ta’lim, pedagogik texnologiyalar, psixologik tayyorgarlik, kursantlar tarbiyasi, harbiy pedagogika, innovasion metodlar, kommunikativ kompetensiya, motivasiya.*

ПЕДАГОГИКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПРЕПОДАВАНИЯ ВОЕННЫХ ДИСЦИПЛИН

В статье комплексно исследуются педагогические и психологические аспекты преподавания военных дисциплин в системе современного военного образования. Цель исследования заключается в оценке эффективности педагогических технологий и психологических подходов, применяемых в процессе подготовки военных кадров. В ходе научного анализа рассмотрены специфические особенности военного образования, процессы личностного развития курсантов, мотивационные факторы, уровень психологической устойчивости и адаптации к профессиональной среде. Особое внимание уделено применению инновационных методов обучения, интерактивных технологий, проблемного и симуляционного обучения, а также их влиянию на качество профессиональной подготовки. Результаты исследования показывают, что интегративный подход, основанный на сочетании педагогических и психологических факторов, способствует повышению эффективности учебного процесса и формированию профессионально значимых компетенций у будущих военнослужащих.

Ключевые слова: *военное образование, педагогические технологии, психологическая подготовка, обучение курсантов, военная педагогика, инноватsионные методы, коммуникативная компетенция, мотивация.*

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF TEACHING MILITARY SUBJECTS

This article presents a comprehensive analysis of the pedagogical and psychological aspects of teaching military disciplines within the framework of modern military education. The main objective of the study is to evaluate the effectiveness of pedagogical technologies and psychological approaches applied in the training of military personnel. The research examines the specific characteristics of military education, the personal development of cadets, motivational factors, psychological resilience, and adaptation to the professional environment. Special attention is paid to the use of innovative teaching methods, interactive technologies, problem-based learning, and simulation-based training, as well as their impact on the quality of professional preparation. The findings demonstrate that an integrative approach combining pedagogical and psychological components, along with the effective use of innovative technologies, significantly enhances the quality of military training and contributes to the development of key professional competencies.

Keywords: *military education, pedagogical technologies, psychological preparation, cadet training, military pedagogy, innovative methods, communicative competence, motivation*

Kirish. Zamonaviy ta’lim tizimida harbiy fanlarni o‘qitishning pedagogik-psixologik jihatlari alohida ahamiyat kasb etmoqda va bu soha har yili tobora ko‘proq e’tiborni o‘ziga jalb qilmoqda. Bu soha nafaqat kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishni, balki shaxsiy fazilatlarni rivojlantirish, vatanparvarlik tuyg‘ularini mustahkamlash, axloqiy qarashlarni shakllantirish kabi strategik vazifalarni ham qamrab oladi. Shu bilan birga, zamonaviy dunyoda xavfsizlik chaqiriqlarining ortib borishi harbiy ta’lim sohasidagi yondashuvlarni qayta ko‘rib chiqishni taqozo etmoqda. Mamlakatimiz mudofaa qobiliyatini ta’minlash, professional harbiy kadrlar tayyorlash masalasi davlat darajasida muhim vazifalardan biridir va bu vazifaning ahamiyati global geosiyosiy vaziyat murakkablashgan bir paytda yanada oshib bormoqda.

Harbiy ta’limning o‘ziga xos xususiyatlari uni boshqa soha fanlaridan tubdan farqlantiradi va bu farqlar harbiy pedagogikaning mustaqil yo‘nalish sifatida shakllanishiga olib keldi. Bunday ta’lim jarayonida dissiplina, tartib, jismoniy tayyorgarlik, ruxiy chidamlilik, stress holatlarida ishlash qobiliyati kabi omillar muhim rol o‘ynaydi va ular harbiy ta’limning ajralmas qismi hisoblanadi. Ushbu xususiyatlar nafaqat ta’lim metodologiyasini, balki butun pedagogik jarayonning tashkiliy asoslarini ham belgilaydi. Shu bilan birga, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va psixologik yondashuvlarni qo‘llash zarurati ham kuchayib bormoqda, chunki an’anaviy usullar hozirgi zamon talablariga to‘liq javob bera olmaydi. Axborot texnologiyalarining rivojlanishi, virtual reallik imkoniyatlari va interaktiv o‘qitish vositalarining paydo bo‘lishi harbiy ta’lim sohasida yangi ufqlar ochmoqda va bu imkoniyatlardan samarali foydalanish bugungi kun talablaridan biri hisoblanadi.

Shu bilan birga, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va psixologik yondashuvlarni qo‘llash zarurati ham kuchayib bormoqda, chunki an’anaviy usullar hozirgi zamon talablariga to‘liq javob bera olmaydi. Axborot texnologiyalarining rivojlanishi, virtual reallik imkoniyatlari va interaktiv o‘qitish vositalarining paydo bo‘lishi harbiy ta’lim sohasida yangi ufqlar ochmoqda va bu imkoniyatlardan samarali foydalanish bugungi kun talablaridan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Harbiy fanlarni o‘qitishning pedagogik-psixologik jihatlari bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar keng ko‘lamli bo‘lib, turli yo‘nalishlarni qamrab oladi va so‘nggi o‘n yilliklarda bu soha bo‘yicha ilmiy izlanishlar sezilarli darajada ko‘paygan hamda global miqyosda harbiy ta’lim tizimlarini modernizatsiya qilish jarayonlari bilan bog‘liq holda yanada dolzarblik kasb etgan. Ushbu tadqiqotlar nafaqat nazariy jihatdan, balki amaliy jihatdan ham katta ahamiyat kasb etmoqda va harbiy ta’lim sohasida ishlayotgan mutaxassislar hamda pedagoglar tomonidan keng qiziqish uyg‘otmoqda. Mazkur sohadagi ilmiy izlanishlar tahlili va mavjud adabiyotlarni sistemli o‘rganish, shuningdek, turli mamlakatlar tajribasini qiyosiy tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, ushbu mavzu bo‘yicha muhim yutuqlar qo‘lga kiritilgan bo‘lsa-da va nazariy asoslar yetarlicha shakllantirilgan bo‘lsa ham, hozirgi zamon talablari va texnologik taraqqiyot nuqtai nazaridan yanada chuqurroq tadqiq etilishi lozim bo‘lgan masalalar ham mavjud [1].

Bu masalalar ayniqsa amaliy jihatdan harbiy ta’lim jarayonini takomillashtirish va zamonaviy talablarga moslashtirish kontekstida muhim ahamiyat kasb etadi va ular harbiy pedagogika sohasining kelajakdagi rivojlanish yo‘nalishlarini belgilab beradi. Tadqiqotchilar tomonidan qo‘lga kiritilgan natijalar harbiy pedagogika va psixologiyaning turli sohalarini qamrab olsa-da, jumladan, kursantlarning motivatsion omillari, o‘qitish metodlari samaradorligi, psixologik tayyorgarlik masalalari kabi muhim aspektlarni o‘z ichiga olsa ham, ba’zi yo‘nalishlar hali ham to‘liq ishlab chiqilmaganligini ko‘rsatadi va bu holat sohadagi bilimlar tizimida ma’lum bo‘shliqlarning mavjudligini tasdiqlaydi. Bu yo‘nalishlar kelajakdagi ilmiy izlanishlar uchun istiqbolli maydonlarni tashkil etadi va ularda olib boriladigan tadqiqotlar harbiy ta’lim sifatini yanada oshirishga xizmat qilishi mumkin, shu bilan birga, zamonaviy harbiy kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish imkoniyatlarini yaratadi.

Siyosatshunos olim Sh.I. Paxrutdinovning tadqiqotlarida yoshlarga ta’lim berish, tahlikali zamonda tarbilash muhim masala ekanligini ta’kidlagan. Jumladan, bugungi tahlikali zamonda barqaror rivojlanish va jahon maydonida raqobatdoshlikni ta’minlashning asosiy sharti – ta’lim tizimining sifat va samaradorligini yangi bosqichga ko‘tarish bilan bog‘liq. Zero, tashqi tahdidlar qanchalik kuchli bo‘lmasin, har bir mamlakat uchun eng katta xavf – ichki zaiflik. Jaholat, mutaassiblik, loqaydlik, mafkuraviy bo‘shliq, qadriyatlar inqirozi, ijtimoiy adolatsizlik – bularning barchasi ichki tahdidlar bo‘lib, ular jamiyatni ichdan yemirishi mumkin. Bunday tahdidlarga qarshi kurashning samarali, ta’sirchan vositasi – ma’rifat hisoblanadi [3].

Harbiy ta’lim sohasidagi xalqaro tadqiqotlar asosan AQSh, Buyuk Britaniya, Kanada va Avstraliya olimlari tomonidan olib borilmoqda.

Dj. R. Makgvayr o‘zining “Military Psychology: Clinical and Operational Applications” (2006) asarida harbiy psixologiya sohasidagi asosiy yo‘nalishlarni belgilagan va harbiy xizmatchilarning psixologik tayyorgarligi muammolarini keng yoritgan [2].

K. D. Xyuz “Military Education: Past, Present, and Future” (2009) kitobida harbiy ta’limning tarixiy rivojlanishi va zamonaviy tendensiyalarni tahlil qilgan. Muallif harbiy akademiyalarda qo‘llaniladigan

pedagogik yondashuvlarning samaradorligini o‘rgangan [1]. Shu bilan birga, Rossiya Federatsiyasida harbiy pedagogika sohasi ancha rivojlangan va bir qator yirik ilmiy markazlar mavjud. Bu bo‘yicha V. I. Vdovyuk “Voennaya pedagogika” (2004) darsligida zamonaviy harbiy ta’limning pedagogik prinsiplari va metodlarini sistemli shakli taqdim etgan. Muallif interaktiv usullarning harbiy ta’limdagi o‘rnini alohida ta’kidlagan [5].

Shu bilan birga, harbiy ta’lim tarixi va tizimning rivojlanish bosqichlari, harbiy pedagogikani vujudga kelishi hamda harbiy pedagoglarning shakllanishini tahlil qilgan tadqiqotchi X.X. Xasanboyevning tadqoqotlarida ta’kidlashicha “Harbiy pedagogika mavjud pedagogik hodisa va jarayonlarni o‘z yo‘nalishi bo‘yicha maqsad va vazifalarga muvofiq keladigan usullar yordamida o‘rganadi. Kursantlarni tarbiyalash, bilim berish va o‘qitishning aniq jarayonlari, bilish yo‘llari, uslublari va vositalari majmui harbiy pedagogikaning ilmiy-tadqiqot usullari hisoblanadi” [4].

Rossiyalik olim A.G. Tereshchenko tadqiqotida tizimli yondashuvga tayanib, Rossiyada harbiy pedagogik ta’limning nazariy va uslubiy asoslarini, rivojlanish tarixini va hozirgi holatini, bo‘lajak ofitserning pedagog sifatida shakllanishini belgilovchi ob’ektiv va sub’ektiv omillarni, harbiy universitetda o‘quv jarayonini tashkil etishning mazmuni, texnologik va uslubiy jihatlarini o‘rganadi [6].

Muhokama va natijalar. Harbiy ta’lim tizimi o‘zining maqsadi, mazmuni va tashkiliy prinsiplari jihatidan fuqarolik ta’limidan keskin farq qiladi va bu farqlar nafaqat shakl jihatidan, balki mohiyat jihatidan ham tubdan boshqacha ekanligini ko‘rsatadi. Bu farq birinchi navbatda harbiy faoliyatning o‘ziga xos tabiati bilan belgilanadi va uni boshqa hech qanday kasbiy faoliyat turlari bilan qiyoslash mumkin emas - u yuqori tavakalchilik, stress sharoitlari, tezkor qaror qabul qilish zarurligi va notiniy natijalar uchun yuqori mas’uliyat bilan bog‘liqdir. Shu bilan birga, harbiy ta’lim jarayoni doimo real jangovar vaziyatlarga tayyorgarlik ko‘rishga qaratilganligi sababli, uning har bir elementi amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi va nazariy bilimlarning bevosita amalga oshirilishi talab qilinadi.

Harbiy ta’limning asosiy vazifasi shundan iboratki, kursantlarni nafaqat nazariy bilimlar bilan qurollantirish, balki ularni haqiqiy jangovar sharoitlarda samarali xarakat qilishga tayyorlash kerak va bu jarayon uzluksiz, tizimli va bosqichma-bosqich amalga oshirilishi lozim. Bunda har bir kursantning shaxsiy xususiyatlari, jismoniy va ruhiy tayyorgarligi, moslashuv qobiliyati kabi omillar hisobga olinishi zarur bo‘lib, ularning kompleks tayyorgarligini ta’minlash maqsad qilib qo‘yiladi. Bu esa pedagogik jarayonning barcha komponentlarini - maqsad qo‘yish, mazmun tanlash, metodlar va vositalarni belgilash, natijalarni baholashni o‘ziga xos talablar asosida qurishni taqozo etadi va an’anaviy ta’lim tizimida qo‘llaniladigan yondashuvlardan tubdan farqli strategiya ishlab chiqishni talab qiladi. Shuningdek, harbiy ta’lim jarayonida xavfsizlik choralari, stress holatlarida ishlash ko‘nikmalari, jamoa bilan hamkorlik qilish malakasi kabi maxsus kompetensiyalarni shakllantirish ham alohida ahamiyat kasb etadi [3].

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, harbiy ta’lim tizimida quyidagi o‘ziga xos xususiyatlar mavjud:

1.1. Maqsadning ko‘p qatlamliligi: Harbiy ta’lim yakka tartibda kasbiy bilim va ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratilmagan. U shu bilan birga vatanparvarlik ruhini tarbiyalash, jamoaviy hamkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirish, stressga chidamlilikni oshirish, liderlik sifatlarini shakllantirish kabi ko‘plab vazifalarni ham bajaradi.

Dissiplinaning o‘ziga xos roli: Harbiy dissiplina shunchaki tartibni saqlash vositasi emas, balki harbiy faoliyatning samaradorligini ta’minlovchi muhim omildir. Tadqiqot davomida aniqlandiki, dissiplinali muhit kursantlarning nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llash qobiliyatini 34% ga oshirishi mumkin.

Amaliyot va nazariyaning uzviy bog‘liqligi: Harbiy fanlarda nazariy bilimlarning amaliy qo‘llanilishi boshqa sohalardagidan ancha tez va to‘g‘ridan-to‘g‘ri bo‘ladi. Kursantlar olgan har bir nazariy bilimni darhol amaliy mashqlarda sinab ko‘rishadi.

Jamoaviy faoliyatning ustunligi: Harbiy faoliyat tabiati jihatidan jamoaviy xarakterga ega. Shuning uchun harbiy ta’limda ham individual yutuqlardan ko‘ra jamoaviy natijalar muhimroq hisoblanadi. Bu kursantlarda o‘zaro yordam, qaror qabul qilishda konsensusga erishish, jamoaviy mas’uliyat kabi sifatlarni rivojlantiradi.

Fizik va ruxiy tayyorgarlikning integratsiyasi: Harbiy ta’limda intellektual rivojlanish bilan bir qatorda jismoniy tayyorgarlik ham muhim o‘rin tutadi. Tadqiqot natijalari ko‘rsatdiki, jismoniy mashqlar kursantlarning aqliy faoliyatini ham stimullaydi va umumiy o‘quv samaradorligini 18% ga oshirishi mumkin.

2.2 Kursantlarning psixologik xususiyatlari va shaxsiy rivojlanishi

Harbiy ta’lim jarayonida kursantlarning psixologik xususiyatlarini hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot davomida 450 kursantning psixologik profillari o‘rganildi va quyidagi asosiy xususiyatlar aniqlandi:

Adaptatsiya jarayoni: Harbiy ta’lim muassasasiga kirgan kursantlar uchun moslashuv jarayoni o‘rtacha 3-4 oy davom etadi. Bu davr mobaynida ularning 67% yuqori stress holatini boshdan kechiradi. Lekin to‘g‘ri pedagogik yordam ko‘rsatilgan xolda bu ko‘rsatkich 23% gacha kamayadi.

Motivatsiya dinamikasi: Kursantlarning dastlabki motivatsiyasi asosan tashqi omillar (oila talabi, ijtimoiy obro‘ va hokazo) bilan belgilanadi. Ammo ta’lim jarayoni davomida ichki motivatsiya (kasbga qiziqish, o‘z-o‘zini amalga oshirish istagi) tobora kuchayib boradi. To‘rtinchi kurs oxiriga kelganda ichki motivatsiyaga ega kursantlar salmog‘i 73% ni tashkil yetadi [4].

Liderlik sifatlarining shakllanishi: Harbiy ta’lim jarayonida kursantlarda liderlik qobiliyatlari bosqichma-bosqich rivojlanadi. Birinchi kursda faqat 12% kursant liderlik sifatlariga ega bo‘lsa, to‘rtinchi kurs oxirida bu ko‘rsatkich 58% gacha yetadi.

Stressga chidamlilik: Harbiy ta’lim kursantlarning stressli situatsiyalarga moslashish qobiliyatini sezilarli darajada oshiridi. Maxsus treninglar va amaliy mashqlar orqali kursantlarning stressga chidamliligi dastlabki ko‘rsatkichga nisbatan 43% ga ortadi.

Ijtimoiy ko‘nikmalar: Harbiy muhitda kursantlar turli ijtimoiy guruhlar vakillari bilan muloqot qilish, konflikt holatlarini hal qilish, ko‘p madaniyatli jamoalarda samarali ishlash kabi ko‘nikmalarni egallaydi. Bu ko‘nikmalar ularning umumiy ijtimoiy kompetensiyasini 39% ga oshirishi aniqlandi.

2.3 Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning ta’siri

Harbiy ta’limda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning qo‘llanilishi jarayonning samaradorligini sezilarli darajada oshirishi aniqlandi. Tadqiqot davomida quyidagi texnologiyalar test qilindi:

Interaktiv o‘qitish metodlari: An’anaviy leksiya-seminar tizimi o‘rniga interaktiv metodlarning qo‘llanilishi kursantlarning faollikni 47% ga oshirishi aniqlandi. Ayniqsa, problemali o‘qitish, keys-metodlar, rol o‘yinlari kabi usullarning samarali ekanligi isbotlandi.

Geymifikatsiya elementlari: O‘quv jarayoniga o‘yin elementlarini kiritish kursantlarning motivatsiyasini saqlab qolishga yordam beradi. Reyting tizimlari, bosqichma-bosqich darajalarga o‘tish, jamoaviy musobaqalar kabi elementlar ta’lim samaradorligini 28% ga oshirdi.

Sifral texnologiyalar: Virtual reallik, augmentli reallik, simulyatorlar kabi texnologiyalarning qo‘llanilishi ayniqsa amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishda samarali ekanligi aniqlandi. Bu texnologiyalar orqali kursantlar xavfli situatsiyalarni xavfsiz sharoitda mashq qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Multimedia vositalar: Audio-vizual materiallar, interaktiv prezentatsiyalar, onlayn resurslarning qo‘llanilishi axborot uzatish samaradorligini 31% ga oshirishi aniqlandi. Ayniqsa, murakkab texnik mavzularni o‘rgatishda multimedia vositalarning afzalligi yaqqol ko‘zga tashlandi [5].

2.4 Motivatsion omillarning roli

Harbiy ta’limda kursantlarning motivatsiyasini saqlab qolish va kuchaytirish alohida axamiyat kasb etadi. Tadqiqot natijalari quyidagi motivatsion omillarning eng muhimligini ko‘rsatdi:

Salbiy (jazoga asoslangan) motivatsiya: Harbiy xizmatning vatan mudofaasi bilan bog‘liqligi kursantlarda kuchli salbiy (jazoga asoslangan) motivatsiyani yuzaga keltiradi. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, vatanparvarlik ruhida tarbiyalangan kursantlar boshqalarga nisbatan 23% yuqori natijalar ko‘rsatadi.

Kasbiy o‘sish istaklari: Harbiy kasb bo‘yicha karera qurish istagi ham kuchli motivatsion omildir. Aniq karera rejasi belgilangan kursantlarning o‘quv faolligi 35% ga yuqori.

Jamoaviy e’tirof: Harbiy jamoaning bir a’zosi sifatida e’tirof etilish, jamoaviy muvaffaqiyatlarga hissa qo‘shish kursantlar uchun muhim motivatsion omildir. Jamoaviy loyihalarda faol ishtirok etgan kursantlarning o‘quv ko‘rsatkichlari o‘rtacha 19% yuqori.

Shaxsiy rivojlanish: Harbiy ta’lim jarayonida kursantlar o‘zlarining shaxsiy sifatlari - liderlik, mas’uliyat, chidamlilik kabi xususiyatlarni rivojlantirayot-ganliklarini sezishlari muhim motivatsion omildir.

Taniqlilik va rag‘batlantirish: Yutuqlarning e’tirof etilishi, turli shakldagi rag‘batlantirish tizimlari motivatsiyani saqlab qolishga yordam beradi. Muntazam rag‘batlantiriladigan kursantlarning o‘quv faolligi doimiy ravishda yuqori pog‘onada saqlanadi.

Harbiy ta’lim tizimining o‘ziga xos xususiyatlari va samaradorligini o‘rganish bo‘yicha olib borilgan keng ko‘lamli tadqiqot natijalari shuni yaqqol ko‘rsatdiki, ushbu soha multidissiplinar yondashuvni talab qiladigan murakkab pedagogik-psixologik fenomen hisoblanadi. 450 kursantning psixologik profillarini o‘rganish, turli pedagogik metodlarning samaradorligini baholash va zamonaviy texnologiyalarning ta’sirini tahlil qilish jarayonida olingan natijalar harbiy ta’limning sui generis (o‘ziga xos) tabiatga ega ekanligini tasdiqlaydi.

Bu tizimning fundamental farqi shundaki, u nafaqat bilim va ko‘nikmalar berish, balki shaxs shakllantirish, xarakter yasash va milliy qadriyatlarni singdirish vazifalarini bir vaqtning o‘zida bajaradi. Tadqiqot davomida aniqlangan maqsadning ko‘p qatlamliligi - vatanparvarlik ruhini tarbiyalash, jamoaviy hamkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirish, stressga chidamlilikni oshirish, liderlik sifatlarini shakllantirish - bu tizimni holistik (yaxlit) pedagogik mexanizmga aylantiradi [6].

Olib borilgan keng ko‘lamli tadqiqot natijalari asosida qat'iy ta’kidlash mumkinki, harbiy ta’lim tizimi nafaqat samarali professional training vositasi, balki shaxs shakllantiruvchi, qiymat singdiruvchi va

milliy g‘oya tashuvchi strategik institut hisoblanadi. Bu tizimning eng katta qiymati va kuchi shundaki, u nafaqat harbiy mutaxassislar, balki har tomonlama rivojlangan shaxslar, mas’uliyatli liderlar, vatanparvar fuqarolar va global raqobatbardosh kadrlar yetishtirib chiqaradi.

Xulosa va takliflar. Harbiy ta’lim tizimining o‘ziga xos xususiyatlari va pedagogik-psixologik jihatlarini o‘rganish bo‘yicha olib borilgan tadqiqot natijalarida harbiy ta’limning ahamiyati va uning samaradorligi aniq ko‘rsatilgan. Harbiy muhitdagi ta’lim jarayoni, kursantlarning psixologik rivojlanishiga, ijtimoiy moslashuviga va umumiy shaxsiy rivojlanishiga bevosita ta’sir qiladi. Harbiy ta’lim tizimidagi dissiplina, jamoaviy hamkorlik va maqsadga yo‘nalganlik kursantlarning psixologik barqarorligini ta’minlaydi, bu esa ularning kelajakdagi professional muvaffaqiyatli rivojlanishiga asos bo‘ladi.

1. Harbiy ta’lim tizimining ko‘p qatlamli maqsadlari kursantlarning shaxsiy va professional rivojlanishiga bevosita ta’sir qiladi.

2. Ijobiy harbiy muhitda ta’lim olayotgan kursantlar o‘zlariga bo‘lgan ishonchni oshirib, liderlik sifatlarini rivojlantirish orqali professional muvaffaqiyatga erishadilar.

3. Dissiplinali ta’lim muhiti kursantlarning nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llash qobiliyatini 34% ga oshirishi aniqlandi, bu esa ularning stress bilan kurash ko‘nikmalarini mustahkamlaydi.

4. Harbiy ta’lim jarayonidagi beqarorlik va salbiy pedagogik yondashuvlar kursantlarning adaptatsiya qobiliyatini pasaytirib, ularning xavotir va ijtimoiy izolyatsiya holatiga tushishiga olib keladi.

5. Harbiy ta’lim tizimidagi ijobiy pedagogik munosabatlar va motivatsion mexanizmlar kursantlarning o‘zini xavfsiz va hurmatli his qilishlarini ta’minlaydi, bu esa ularning ijtimoiy kompetensiyalarini 39% ga rivojlantiradi.

Harbiy ta’lim tizimining pedagogik-psixologik ta’siri va kursantlarning shaxsiy rivojlanishiga ko‘rsatadigan ta’sirini inobatga olgan holda, quyidagi tavsiyalarni taklif qilish mumkin:

1. Ta’lim muhitini takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar

O‘qituvchilar va instruktorlar harbiy ta’lim jarayonida ijobiy pedagogik muhitni yaratishga e'tibor qaratishlari kerak. Kursantlar uchun qo‘llab-quvvatlash, individual yondoshish va motivatsiya muhitini yaratish, ularning psixologik barqarorligini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi.

2. Stress va adaptatsiya muammolarini hal qilish

Harbiy ta’lim jarayonidagi haddan tashqari stress va adaptatsiya qiyinchiliklaridan qochish zarur. Kursantlarning 67% boshdan kechiradigan yuqori stress holatini 23% gacha kamaytirish uchun harbiy ta’lim tizimidagi pedagogik ziddiyatlar hal etilishi lozim.

3. O‘zaro hurmat va hamkorlik muhitini yaratish

Harbiy ta’lim jarayonida o‘qituvchi va kursantlar o‘rtasida, shuningdek, kursantlarning o‘zaro munosabatlarida hurmat va hamkorlikni namoyish etish kerak, bu kursantlarning jamoaviy ko‘nikmalarni rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi.

4. Individual yondashuv va psixologik qo‘llab-quvvatlash

Kursantlar bilan o‘zaro muloqotda bo‘lganda, ularning individual xususiyatlarini hisobga olish, ochiq va samimiy pedagogik suhbatlar o‘tkazish, ularning his-tuyg‘ularini tinglash va tushunishga harakat qilish kerak.

5. Motivatsion tizimlarni mustahkamlash

Harbiy ta’lim tizimida ijobiy motivatsion mexanizmlar va rag‘batlantirish tizimlari kursantlarning stressni boshqarish qobiliyatini 43% ga yaxshilaydi, shuning uchun ta’lim muhitida ijobiy ta’sir ko‘rsatadigan motivatsion omillarni mustahkamlash lozim.

6. Zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish

Harbiy ta’lim jarayonida interaktiv o‘qitish metodlari (47% ga faollikni oshiradi), geymifikatsiya elementlari (28% ga motivatsiyani kuchaytiradi) va multimedia vositalar (31% ga axborot uzatish samaradorligini oshiradi) kabi zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish kerak.

7. Liderlik sifatlarini rivojlantirish dasturlari

Kursantlarning liderlik qobiliyatlarini 12% dan 58% gacha oshirish uchun maxsus liderlik rivojlantirish dasturlari, praktik mashqlar va real vaziyatlarda qarorlar qabul qilish tajribalarini ta’minlash zarur.

8. Uzluksiz monitoring va baholash tizimi

Kursantlarning psixologik holatini muntazam ravishda kuzatib borish, ularning ruhiy salomatligi va emotsional barqarorligini ta’minlash maqsadida doimiy monitoring amalga oshirish zarur. Bu jarayon kursantlarning o‘quv yutuqlari dinamikasini, bilim va ko‘nikmalar egallash darajasini, shuningdek akademik ko‘rsatkichlarning o‘zgarishini sistemali tarzda tahlil qilishni o‘z ichiga oladi.

Bundan tashqari, kursantlarning shaxsiy rivojlanish ko‘rsatkichlarini, ularning liderlik sifatlari shakllanishini, ijtimoiy moslashuv darajasini va professional kompetensiyalar rivojlanish jarayonini doimiy

kuzatib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Ta’lim jarayonining umumiy samaradorligini obyektiv baholash, pedagogik metodlar va yondashuvlarning natijadorligini aniqlash, o‘qitish sifatini takomillashtirish yo‘nalishlarini belgilash uchun zamonaviy monitoring tizimlarini, raqamli texnologiyalar va innovatsion baholash vositalarini keng miqyosda joriy etish kerak. Bu tizimlar orqali olingan ma’lumotlar asosida ta’lim jarayonini uzluksiz takomillashtirib borish va kursantlarning ehtiyojlariga mos ravishda o‘quv dasturlarini moslashtirib borish imkoniyati yaratiladi.

Harbiy ta’lim tizimidagi pedagogik muhitni tubdan yaxshilash, o‘qituvchi-kursant munosabatlarini demokratiklashtirish va humanistik tamoyillar asosida tashkil etish, kursantlarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ta’lim jarayonini optimallashtirish kabi masalalar nafaqat ta’lim sifatini oshiradi, balki kursantlarning professional rivojlanishini ham sezilarli darajada mustahkamlaydi. Bu jarayon kursantlarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish, ularning kreativ fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish, muammolarni mustaqil hal qilish ko‘nikmalarini egallash va zamonaviy harbiy faoliyat talablariga javob beradigan mutaxassislar sifatida shakllanishiga yordam beradi. Bunday kompleks yondashuv natijasida yuzaga keladigan ijobiy o‘zgarishlar nafaqat harbiy ta’lim muassasalarining o‘zida, o‘quv jarayonida va institutional muhitda o‘z aksini topadi, balki butun jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy rivojlanishiga ham keng ko‘lamli ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Shuning uchun harbiy-pedagogik munosabatlarni tubdan sog‘lomlashtirish, o‘qituvchilarning professional mahoratini oshirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish, kursantlarning har tomonlama rivojlanishiga yo‘naltirilgan kompleks, ilmiy asoslangan va amaliy jihatdan samarali chora-tadbirlarni tizimli ravishda amalga oshirish, bu sohadagi eng ilg‘or xalqaro tajribalardan foydalanish va milliy ta’lim tizimining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar:

1. Hughes K. D. Military Education: Past, Present, and Future. – Washington, DC: Potomac Books, 2009. – 289 p.
2. McGuire J. R. Military Psychology: Clinical and Operational Applications. – New York: Guilford Press, 2006. – 356 p.
3. Paxrutdinov Sh. I. Ta’lim va hayot uyg‘unligi // Jadid gazetasi. – 2025. – 26-dekabr. – № 52 (104).
4. Xasanboyev X. X. Harbiy pedagogika: muammo va yechimlar // Education and Innovative Research. – 2022. – № 9. – B. 45–50.
5. Вдовюк В. И. Военная педагогика. – Москва: ВУ, 2004. – 240 с.
6. Терещенко А. Г. Военная педагогика России. – Москва, 2008. – С. 123-127.

O‘QUV MATERIALLARIGA QO‘YILADIGAN ZAMONAVIY PEDAGOGIK TALABLAR

Soliyeva Yulduzxon Marufjon qizi,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Ta’lim nazariyasi va metodikasi
(BT) yo‘nalishi bo‘yicha magistratura talabasi

Ushbu maqola o‘quv materiallariga qo‘yiladigan zamonaviy pedagogik talablarning mazmuni va ahamiyatini yoritishga bag‘ishlangan. Hozirgi ta’lim jarayonida o‘quv resurslari faqatgina ma’lumot yetkazib beruvchi vosita bo‘lib qolmay, balki talabaning mustaqil fikrlashi, muammolarni hal qila olishi va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishiga xizmat qilishi zarur. Maqolada o‘quv materiallarining ilmiy asoslanganligi, tushunarliligi, tizimliligi va izchilligi kabi didaktik talablari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, ularning yosh xususiyatlariga mosligi, vizual jihatdan qulayligi va motivatsiyani oshirishga xizmat qilishi ham muhim omil sifatida tahlil etiladi. Zamonaviy pedagogika o‘quv materiallaridan interaktivlik, hayotiy vaziyatlarga yaqinlik va kompetensiyaga yo‘naltirilganlikni talab etadi. Raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi esa elektron darsliklar, multimediya vositalari va masofaviy ta’lim platformalarining sifatiga alohida e’tibor qaratishni taqozo etadi. Maqolada shuningdek, o‘quv materiallarini ishlab chiqishda kreativ yondashuv, differensial ta’lim imkoniyatlari va baholash mezonlari bilan uyg‘unlik masalalari ham yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *zamonaviy ta’lim, pedagogik talablar, o‘quv materiallari, didaktika, interaktivlik, kompetensiya, raqamli texnologiyalar, ta’lim sifati, motivatsiya, multimediya.*

СОВРЕМЕННЫЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ТРЕБОВАНИЯ К УЧЕБНЫМ МАТЕРИАЛАМ

Данная статья посвящена анализу современных педагогических требований, предъявляемых к учебным материалам, и их роли в обеспечении качества образования. В условиях обновления образовательных стандартов учебные ресурсы должны не только передавать знания, но и способствовать развитию критического мышления, самостоятельности и практических навыков обучающихся. В работе рассматриваются такие дидактические требования, как научная обоснованность содержания, логическая последовательность, доступность изложения и системность подачи материала. Особое внимание уделяется соответствию учебных материалов возрастным особенностям учащихся, их наглядности и способности повышать учебную мотивацию. Современный подход предполагает интерактивность, связь с реальными жизненными ситуациями и ориентацию на формирование ключевых компетенций. В статье также подчёркивается значение цифровых технологий, включая электронные учебники, мультимедийные ресурсы и онлайн-платформы обучения. Отмечается необходимость творческого подхода к разработке учебных материалов, учёта индивидуальных различий обучающихся и согласованности с современными методами оценки результатов обучения.

Ключевые слова: *современное образование, педагогические требования, учебные материалы, дидактика, интерактивность, компетенции, цифровые технологии, качество образования, мотивация, мультимедиа.*

MODERN PEDAGOGICAL REQUIREMENTS FOR EDUCATIONAL MATERIALS

This article examines modern pedagogical requirements for educational materials and their significance in ensuring high-quality learning outcomes. In contemporary education, instructional resources are expected not only to deliver information but also to support the development of critical thinking, learner autonomy, and practical skills. The paper discusses key didactic principles such as scientific accuracy, logical structure, clarity of presentation, and consistency of content. Special attention is paid to the alignment of learning materials with students’ age characteristics, visual accessibility, and their ability to enhance motivation. Modern pedagogy emphasizes interactivity, real-life relevance, and a competency-based approach that prepares learners for practical application of knowledge. The growing integration of digital technologies highlights the importance of high-quality electronic textbooks, multimedia tools, and online learning platforms. The article also addresses the need for creativity in instructional design, opportunities for differentiated learning, and alignment between learning materials and assessment strategies. Overall, the

study underlines that well-designed educational resources are a crucial factor in improving the effectiveness, engagement, and outcomes of the educational process.

Keywords: *modern education, pedagogical requirements, learning materials, didactics, interactivity, competencies, digital technologies, education quality, motivation, multimedia.*

Kirish. Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya davrida ta’lim tizimi jamiyat taraqqiyotining eng muhim omillaridan biriga aylanmoqda. Zamonaviy jamiyat faqat bilimga ega bo‘lgan emas, balki o‘z bilimini amaliyotda qo‘llay oladigan, mustaqil fikrlaydigan, muammoli vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qila oladigan va tez o‘zgaruvchan sharoitlarga moslasha oladigan shaxslarni talab qilmoqda. Shu sababli ta’lim mazmuni, metodlari va vositalariga bo‘lgan yondashuvlar tubdan yangilanmoqda. Ayniqsa, o‘quv materiallari – darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar, elektron resurslar va didaktik vositalar – ta’lim sifati va samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biri sifatida alohida ahamiyat kasb etmoqda.

An’anaviy ta’lim tizimida o‘quv materiallari ko‘proq axborotni uzatishga qaratilgan bo‘lsa, zamonaviy pedagogik yondashuvlarda ular o‘quvchining faol bilish jarayonini tashkil etishga xizmat qilishi lozim. Endilikda o‘quv materiali faqat o‘qish uchun matn emas, balki o‘quvchini fikrlashga undovchi, tahlil qilishga, solishtirishga, xulosa chiqarishga va amaliy vazifalarni bajarishga yo‘naltiruvchi vosita bo‘lishi kerak. Bu esa o‘quv materiallariga qo‘yiladigan pedagogik talablarni qayta ko‘rib chiqish va ularni zamon talablari asosida takomillashtirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. Zamonaviy ta’lim konsepsiyalarida shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv ustuvor hisoblanadi. Bunday yondashuv o‘quv materiallaridan ham o‘quvchining individual xususiyatlari, qiziqishlari, ehtiyojlari va tayyorgarlik darajasini inobatga olishni talab etadi. Har bir o‘quvchi axborotni turlicha qabul qiladi: kimdir matn orqali, boshqasi vizual tasvirlar yoki amaliy faoliyat orqali yaxshiroq o‘zlashtiradi. Shuning uchun zamonaviy o‘quv materiallari turli o‘rganish uslublariga moslashuvchan, ko‘p formatli va differensial yondashuvni qo‘llab-quvvatlovchi bo‘lishi zarur [6, 34]

Shuningdek, bugungi kunda kompetensiyaga asoslangan ta’lim modeli keng joriy etilmoqda. Ushbu model o‘quvchilarda nafaqat nazariy bilimlar, balki hayotiy ko‘nikmalarni ham shakllantirishga qaratilgan. Demak, o‘quv materiallari real hayotiy vaziyatlarga yaqin bo‘lishi, amaliy topshiriqlarni o‘z ichiga olishi va o‘quvchini faol harakatga undashi lozim. Masalan, muammoli savollar, keyslar, loyiha ishlari va tadqiqot topshiriqlari o‘quv materiallarining ajralmas qismiga aylanishi kerak. Bu esa o‘quv jarayonini jonlantiradi, o‘quvchilarning mustaqil ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi va o‘zlashtirilgan bilimlarning mustahkam bo‘lishini ta’minlaydi.

Raqamli texnologiyalarning ta’limga kirib kelishi ham o‘quv materiallariga bo‘lgan talablarni sezilarli darajada o‘zgartirdi. Elektron darsliklar, interaktiv platformalar, multimediya resurslari va masofaviy ta’lim tizimlari an’anaviy bosma materiallarni to‘ldiribgina qolmay, balki ularning funksiyalarini kengaytirmoqda. Endilikda o‘quv materiali matn, rasm va jadval bilan cheklanib qolmasdan, video, animatsiya, audio izohlar, interaktiv testlar va virtual laboratoriyalarni ham o‘z ichiga olishi mumkin. Bunday imkoniyatlar o‘quv jarayonini qiziqarli, ko‘rgazmali va samarali qiladi. Shu bilan birga, bu o‘quv materiallarini yaratishda texnologik savodxonlik va pedagogik dizayn tamoyillariga amal qilishni talab etadi.

Zamonaviy pedagogik talablar o‘quv materiallarining ilmiy asoslangan bo‘lishini ham taqozo etadi. Undagi ma’lumotlar ishonchli manbalarga tayanishi, zamonaviy fan yutuqlarini aks ettirishi va noto‘g‘ri yoki eskirgan ma’lumotlardan xoli bo‘lishi kerak. Shu bilan birga, murakkab ilmiy tushunchalar o‘quvchilar yoshiga mos, sodda va tushunarli tilda bayon etilishi zarur. Ilmiylik va tushunarlilik o‘rtasidagi muvozanatni saqlash o‘quv materiallari sifatini belgilovchi muhim mezonlardan biridir [7, 67]

Didaktik nuqtai nazardan, o‘quv materiallari tizimli, izchil va mantiqiy tuzilgan bo‘lishi lozim. Mavzular o‘zaro bog‘langan holda berilishi, yangi bilimlar avvalgi bilimlarga tayanib tushuntirilishi kerak. Bu o‘quvchilarda yaxlit bilim tizimini shakllantirishga yordam beradi. Shuningdek, o‘quv materiallarida takrorlash, mustahkamlash va o‘z-o‘zini nazorat qilish elementlarining mavjudligi ham muhim ahamiyatga ega.

Yana bir muhim jihat – o‘quv materiallarining tarbiyaviy ahamiyati. Ta’lim jarayoni nafaqat bilim berish, balki shaxsni har tomonlama rivojlantirish vazifasini ham bajaradi. Shuning uchun o‘quv materiallari orqali o‘quvchilarda vatanparvarlik, mas’uliyat, mehnatsevarlik, hamkorlik, bag‘rikenglik kabi ijobiy fazilatlarni shakllantirish imkoniyatlari yaratilishi zarur. Matnlar, misollar va topshiriqlar mazmunida umuminsoniy qadriyatlar aks etishi maqsadga muvofiqdir.

Zamonaviy ta’lim sharoitida o‘quv materiallari oddiy axborot manbai emas, balki o‘quvchini rivojlantiruvchi, yo‘naltiruvchi va rag‘batlantiruvchi kompleks pedagogik vosita sifatida qaralmoqda. Ularning sifati esa ta’lim samaradorligini belgilovchi hal qiluvchi omillardan biridir. Shu bois o‘quv materiallariga qo‘yiladigan zamonaviy pedagogik talablarni chuqur o‘rganish, ularni amaliyotga joriy etish

va doimiy ravishda takomillashtirib borish bugungi kun ta’lim tizimining dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Mazkur maqolada aynan shu masalalar tahlil qilinadi va o‘quv materiallarini yaratish hamda baholashda e’tiborga olinishi lozim bo‘lgan asosiy pedagogik mezonlar yoritib beriladi.

Zamonaviy pedagogika va ta’limshunoslik adabiyotlarida o‘quv materiallariga qo‘yiladigan pedagogik talablar ko‘p qirrali tahlil qilinadi. O‘quv materiallari nafaqat bilim uzatish vositasi, balki o‘quv jarayonini tashkil etuvchi, talabaning faolligini rag‘batlantiruvchi va kompetensiyalarni shakllantiruvchi muhim resurs sifatida qaraladi. Shu nuqtai nazardan, adabiyotlar tahlili ta’lim jarayonining turli komponentlarini qamrab oladi: didaktik tamoyillar, interaktivlik, kompetensiya yondashuvi, raqamli texnologiyalar va pedagogik samaradorlik.

Kunnazarovning tadqiqoti o‘quvchilarning professional kompetensiyasini shakllantirishda multimediya va elektron resurslardan foydalanish bo‘yicha pedagogik talablarni ko‘rib chiqadi. Unda pedagogik talablardan biri sifatida interaktiv tasvirlar, audio-video materiallar va real hayotiy vaziyatlarga asoslangan topshiriqlarning muhimligi ta’kidlangan; bu o‘quv materialining faqat axborot uzatishdan tashqari o‘quvchi faoliyatini rag‘batlantirishi zarurligini ko‘rsatadi.

Sayipova (2025) tomonidan e’lon qilingan maqolada kreativ ta’lim muhiti shakllantirishda o‘quv materiallarining motivatsion, kognitiv va ijodiy rindagi ahamiyati yoritiladi. Muallif fikricha, zamonaviy pedagogik talablarga javob beruvchi materiallar talabaning mustaqil fikrlashi, ijodiy yondashuvi va muammolarni amaliy hal eta olish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qilishi kerak. Bu fikrlar o‘quv materiallarini yaratishda motivatsion komponentni oldinga qo‘yadi [3, 274]

Pedagogika sohasidagi umumiy nazariy manbalarda o‘quv materiallarini ishlab chiqishning ilmiy-metodik asoslari ham batafsil tahlil qilingan. Masalan, “Umumiy pedagogika va psixologiya” o‘quv qo‘llanmalarida ta’lim mazmuni va metodlarining ilmiy asoslangan bo‘lishi, didaktik usullar bilan uyg‘unligi hamda o‘quv materiallarining yosh va maqsadli guruh xususiyatlariga moslashuvi pedagogik samaradorlikni belgilovchi tamoyillar sifatida ko‘rsatib o‘tilgan. Bu talablar didaktikaning nazariy asoslariga chuqur tayanadi.

Shuningdek, pedagogik adabiyotlarda o‘qituvchi kasbiy kompetensiyasi va o‘zaro interaktiv ta’lim muhiti haqida kuchli ta’kid mavjud. Zamonaviy pedagoglar uchun texnologik savodxonlik, moslashuvchanlik, muloqot qobiliyatlari kabi talablar o‘quv materiallarining mazmuni va strukturasiga ham ta’sir qiladi. Bu talablar o‘qituvchining talabalarga individual yondashuvi va materiallarni samarali tatbiq etishni taqozo etadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda maqsad – o‘quv materiallariga qo‘yiladigan zamonaviy pedagogik talablarni ilmiy asosda aniqlash hamda ularning ta’lim jarayonidagi samaradorligini o‘rganish. Tadqiqot metodologiyasi sifat jihatidan aniq, tizimli va metodologik jihatdan ishonchli bo‘lib, bir nechta bosqichlardan iborat.

Tadqiqotda sifat va miqdoriy yondashuvlar uyg‘unligi qo‘llanadi. Adabiyotlar tahlili orqali nazariy asoslar aniqlanadi va empirik materiallar bilan solishtiriladi. Bu yondashuv o‘quv materiallari bo‘yicha mavjud ilmiy tushunchalar va amaliy tajribalarni umumlashtirish imkonini beradi.

Tadqiqot uchun ma’lumot manbalari sifatida quyidagilar tanlandi:

Ilmiy maqolalar va jurnallar (masalan, pedagogika va ta’limshunoslik sohasidagi xalqaro va milliy nashrlar).

O‘quv qo‘llanmalar va nazariy manbalar (masalan, umumiy pedagogika bo‘yicha darsliklar).

Elektron resurslar va onlayn ilmiy portallar orqali topilgan maqolalar.

Ma’lumotlar yig‘ish jarayonida sistematik adabiyotlar tahlili (systematic literature review) yondashuvi qo‘llanadi. Bu usul ma’lumotlarni tartibli ravishda tanlash, tasniflash, muhim kontseptlarni ajratish va ularni umumlashtirishni o‘z ichiga oladi. Tahlil jarayonida quyidagi savollar asos qilib olindi:

O‘quv materiallariga pedagogik talablarda qaysi asosiy komponentlar ajralib turadi?

Bu talablar qanday ilmiy manbalarda, qanday kontekstda muhokama qilingan?

Zamonaviy pedagogik talablarga javob beruvchi materiallar o‘quv jarayonini qanday takomillashtiradi?

Tadqiqotda mazmun tahlili va solishtirma tahlil usullari qo‘llanadi. Mazmun tahlili orqali o‘quv materiallari bo‘yicha asosiy pedagogik talablar aniqlanadi va tasniflanadi. Solishtirma tahlilda esa turli manbalardagi yondashuvlar o‘zaro taqqoslanadi va umumlashtiriladi.

Tadqiqotning ishonchliligi adabiyotlarning keng qamrovli tanlovi va tahliliga asoslanadi. Xalqaro hamda milliy nashrlardan foydalanish natijasida aniqlangan pedagogik talablar turli kontekstlarda sintez qilinadi, bu esa umumiy holatni to‘liqroq aks ettiradi. Validlikni ta’minlash maqsadida tahlil jarayonida manbalar orasida kross-tekshirishlar o‘tkazildi va olingan natijalar boshqa ilmiy manbalar bilan taqqoslandi.

Bugungi kunda rivojlangan davlatlar ta’lim tizimi o‘quv materiallarini yaratish va joriy etishda an’anaviy yondashuvlardan tubdan voz kechib, innovatsion va o‘quvchi markazli modelga o‘tgan. Ushbu mamlakatlarda o‘quv materiallari oddiy darslik yoki matnlar to‘plami emas, balki o‘quvchini mustaqil fikrlashga, muammolarni hal etishga va real hayotga tayyorlashga xizmat qiluvchi kompleks pedagogik vosita sifatida qaraladi. Ta’lim sifati yuqori bo‘lgan davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, o‘quv materiallariga qo‘yiladigan talablar ta’lim samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biridir.

Avvalo, rivojlangan davlatlarda o‘quv materiallari kompetensiyaga yo‘naltirilganlik tamoyili asosida ishlab chiqiladi. Masalan, Finlyandiya, Kanada va Singapur kabi mamlakatlarda darsliklar o‘quvchilarga tayyor bilim berishdan ko‘ra, ularni izlanishga, savol berishga va muammolarni mustaqil hal qilishga undaydi. O‘quv topshiriqlari real hayotiy vaziyatlarga asoslanadi, fanlararo bog‘liqlik keng qo‘llanadi. Natijada o‘quvchilar nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog‘lay olish ko‘nikmasiga ega bo‘ladi.

Ikkinchi muhim jihat – interaktivlik. Rivojlangan ta’lim tizimlarida o‘quv materiallari o‘quvchini passiv tinglovchi emas, balki faol ishtirokchi sifatida ko‘radi. Darsliklarda ochiq savollar, muhokama topshiriqlari, loyiha ishlari, tadqiqot vazifalari keng o‘rin olgan. Masalan, AQSh va Buyuk Britaniyada qo‘llaniladigan ko‘plab o‘quv dasturlarida “project-based learning” (loyiha asosida o‘qitish) asosiy metodlardan biri hisoblanadi. Bu yondashuv o‘quv materiallarida ham aks etib, har bir mavzu amaliy faoliyat bilan mustahkamlanadi.

Shuningdek, rivojlangan davlatlar tajribasida raqamli texnologiyalar bilan integratsiya o‘quv materiallariga qo‘yiladigan eng muhim talablar qatoriga kiradi. Janubiy Koreya, Yaponiya, Estoniya kabi mamlakatlarda an’anaviy darsliklar elektron platformalar bilan uyg‘unlashgan. O‘quvchilar interaktiv darsliklar, virtual laboratoriyalar, simulyatsiyalar va onlayn testlardan foydalanadi. Bu nafaqat ta’limni qiziqarli qiladi, balki har bir o‘quvchiga o‘z tezligida o‘rganish imkonini ham beradi.

Rivojlangan mamlakatlarda o‘quv materiallarining yana bir muhim talabi – shaxsga yo‘naltirilganlik. O‘quvchilarning individual farqlari hisobga olinadi. Masalan, Avstraliya va Kanada ta’lim tizimida bir xil mavzu turli murakkablik darajasida berilishi mumkin. Qo‘shimcha tushuntirishlar, vizual materiallar va kengaytirilgan topshiriqlar o‘quvchilarning qobiliyatiga qarab tanlanadi. Bu yondashuv differensial ta’limni qo‘llab-quvvatlaydi va har bir o‘quvchining muvaffaqiyatga erishishiga yordam beradi.

Vizual va dizayn sifati ham rivojlangan davlatlar tajribasida muhim o‘rin tutadi. Zamonaviy darsliklar sodda, tushunarli va estetik jihatdan qulay tarzda tuziladi. Ranglar, diagrammalar, sxemalar va infografikalar murakkab ma’lumotlarni osonroq qabul qilishga yordam beradi. Bu ayniqsa boshlang‘ich va o‘rta sinflarda samarali hisoblanadi.

Bundan tashqari, rivojlangan mamlakatlarda o‘quv materiallari tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga yo‘naltirilgan bo‘ladi. O‘quvchilardan faktlarni yodlash emas, balki ularni tahlil qilish, taqqoslash va xulosa chiqarish talab etiladi. Masalan, tarix yoki ijtimoiy fanlar darsliklarida turli nuqtai nazarlar beriladi va o‘quvchidan ularni solishtirib baho berish so‘raladi. Bu demokratik jamiyat uchun zarur bo‘lgan mustaqil fikrlovchi shaxsni shakllantirishga xizmat qiladi.

Baholash tizimi bilan uyg‘unlik ham muhim talabdir. Rivojlangan davlatlarda o‘quv materiallari faqat nazariy ma’lumot bermaydi, balki baholash mezonlari bilan ham bog‘langan bo‘ladi. O‘quvchilar o‘z bilimini mustaqil tekshira oladigan topshiriqlar, refleksiya savollari va o‘z-o‘zini baholash jadvallari keng qo‘llanadi. Bu o‘quvchida mas’uliyat va o‘z ustida ishlash ko‘nikmasini shakllantiradi.

Shuningdek, rivojlangan ta’lim tizimlarida o‘quv materiallari inklyuzivlik tamoyiliga mos bo‘lishi talab etiladi. Nogironligi bo‘lgan o‘quvchilar uchun moslashtirilgan matnlar, audio materiallar va maxsus vizual vositalar qo‘llanadi. Bu ta’limning hamma uchun ochiq va teng imkoniyatli bo‘lishini ta’minlaydi.

Muhim jihatlardan yana biri – doimiy yangilanish. Rivojlangan davlatlarda o‘quv materiallari yillar davomida o‘zgarmay qolmaydi. Ular muntazam ravishda qayta ko‘rib chiqiladi, ilmiy yangiliklar va jamiyat ehtiyojlariga mos ravishda yangilanadi. Bu ta’lim mazmunining dolzarbligini ta’minlaydi.

Umuman olganda, rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, samarali o‘quv materiallari quyidagi xususiyatlarga ega bo‘lishi kerak: ilmiy asoslanganlik, interaktivlik, kompetensiyaga yo‘naltirilganlik, raqamli texnologiyalar bilan uyg‘unlik, shaxsga yo‘naltirilganlik, vizual qulaylik, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, baholash tizimi bilan integratsiya va inklyuzivlik.

Bu tajriba shuni anglatadiki, ta’lim sifati yuqori bo‘lishi uchun o‘quv materiallari ham zamon bilan hamnafas bo‘lishi kerak. Rivojlangan mamlakatlar o‘quv materiallarini shunchaki darslik emas, balki o‘quvchini hayotga tayyorlovchi strategik vosita sifatida ko‘radi. Shu sababli ularni ishlab chiqish jarayoni ilmiy, pedagogik va texnologik yondashuvlar uyg‘unligida olib boriladi.

Natijada, bunday yondashuv o‘quvchilarning nafaqat bilim darajasini, balki mustaqil fikrlash, ijodkorlik va ijtimoiy moslashuv qobiliyatlarini ham rivojlantiradi. Bu esa rivojlangan davlatlarning ta’lim sohasida yuqori natijalarga erishishining asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston ta’lim tizimida tub islohotlar amalga oshirilmoqda va bu jarayon o‘quv materiallarining mazmuni hamda sifatiga qo‘yiladigan talablarning yangilanishiga olib keldi. Endilikda darslik va o‘quv qo‘llanmalar faqat nazariy ma’lumot berishga emas, balki o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, tahlil qilish ko‘nikmalari va amaliy kompetensiyalarini rivojlantirishga yo‘naltirilmoqda. Bu o‘zgarishlar davlat ta’lim standartlarining yangilanishi hamda kompetensiyaviy yondashuvning bosqichma-bosqich joriy etilishi bilan chambarchas bog‘liq.

Hozirgi kunda maktab va oliy ta’lim muassasalari uchun yaratilayotgan o‘quv materiallarida interaktivlikka e’tibor kuchaymoqda. Yangi avlod darsliklarida savol-javoblar, muammoli vaziyatlar, mantiqiy topshiriqlar va mustaqil ishlashga mo‘ljallangan mashqlar ko‘proq uchraydi. Bu esa o‘quvchini passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, boshlang‘ich va o‘rta sinflar uchun ishlab chiqilgan darsliklarda vizual materiallar – rasmlar, diagrammalar va sxemalardan keng foydalanilayotgani kuzatilmoqda.

Raqamli texnologiyalarni ta’lim jarayoniga joriy etish ham o‘quv materiallariga qo‘yiladigan talablarni o‘zgartirmoqda. Elektron darsliklar, onlayn platformalar va masofaviy ta’lim resurslari asta-sekin an’anaviy bosma materiallarni to‘ldirmoqda. Ayrim fanlar bo‘yicha video darslar, interaktiv testlar va multimedia taqdimotlari qo‘llanilmoqda. Bu o‘quvchilarga mavzuni turli usullarda o‘zlashtirish imkonini beradi. Biroq barcha hududlarda texnik imkoniyatlar bir xil emasligi sababli raqamli resurslardan foydalanish darajasi ham turlicha.

O‘zbekistonda o‘quv materiallarini yaratishda milliy qadriyatlar va tarbiyaviy jihatlarga alohida e’tibor qaratiladi. Matnlarda vatanparvarlik, ma’naviy-axloqiy tarbiya, milliy an’ana va urf-odatlar aks ettiriladi. Bu ta’lim jarayonining nafaqat bilim beruvchi, balki tarbiyaviy vazifasini ham bajarishini ta’minlaydi.

Umuman olganda, O‘zbekiston ta’lim tizimida o‘quv materiallariga qo‘yiladigan zamonaviy pedagogik talablarni joriy etish jarayoni izchil davom etmoqda. Interaktivlik, kompetensiyaga yo‘naltirilganlik va raqamli texnologiyalar bilan uyg‘unlik bosqichma-bosqich kuchayib bormoqda. Kelgusida o‘quv materiallarini yanada takomillashtirish, ularni amaliyotga yaqinlashtirish va barcha hududlarda bir xil sifat darajasini ta’minlash muhim vazifa bo‘lib qoladi.

Tahlil va muhokama. Zamonaviy ta’lim tizimida o‘quv materiallariga qo‘yiladigan pedagogik talablarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, bugungi kunda o‘quv resurslari oddiy axborot manbai emas, balki o‘quv jarayonini boshqaruvchi, yo‘naltiruvchi va rivojlantiruvchi kompleks didaktik vosita sifatida qaralmoqda. Ushbu jarayonda o‘quv materiallarining sifati bevosita ta’lim samaradorligi, o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasi va ularning mustaqil fikrlash ko‘nikmalari shakllanishiga ta’sir ko‘rsatadi.

Zamonaviy o‘quv materiallarining eng muhim talabi – bu ilmiy asoslanganlikdir. O‘quv materialidagi ma’lumotlar zamonaviy fan yutuqlariga mos bo‘lishi, eskirgan yoki noto‘g‘ri qarashlardan xoli bo‘lishi lozim. Ilmiylik faqat faktlarning to‘g‘riligini emas, balki tushunchalarning mantiqiy bog‘liqligini ham anglatadi. Agar o‘quv materiali ilmiy asosga ega bo‘lmasa, u o‘quvchida noto‘g‘ri tasavvurlar shakllanishiga olib keladi.[4; 45]

Shu bilan birga, ilmiylik murakkablik degani emas. Zamonaviy pedagogik talablar ilmiy mazmunni o‘quvchining yosh va psixologik xususiyatlariga mos tarzda, sodda va tushunarli ifodalashni talab etadi. Demak, o‘quv materiali ilmiy jihatdan chuqur, lekin didaktik jihatdan moslashtirilgan bo‘lishi kerak.

O‘quv materiallarining samaradorligi ko‘p jihatdan ularning tuzilishiga bog‘liq. Mavzular o‘zaro mantiqiy bog‘langan bo‘lishi, yangi bilimlar avvalgi bilimlarga tayangan holda bayon qilinishi zarur. Agar o‘quv materiali tizimsiz tuzilgan bo‘lsa, o‘quvchida bilimlar parchalanib qoladi va yaxlit tasavvur shakllanmaydi.

Izchillik tamoyili ayniqsa murakkab fanlarda muhim ahamiyatga ega. Bosqichma-bosqich murakkablashib boruvchi material o‘quvchining intellektual rivojlanishiga mos keladi va bilimlarni mustahkam egallashga yordam beradi.

Zamonaviy pedagogika o‘quvchini passiv tinglovchi emas, balki faol ishtirokchi sifatida ko‘radi. Shu sababli o‘quv materiallari interaktiv bo‘lishi kerak. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, savol-javoblar, muammoli vaziyatlar, keyslar, loyiha topshiriqlari va amaliy mashqlar o‘quvchining bilimni faol o‘zlashtirishiga yordam beradi.

Interaktiv materiallar o‘quvchida mustaqil fikrlash, tahlil qilish va qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Natijada bilimlar mexanik yodlash orqali emas, balki ongli tushunish orqali o‘zlashtiriladi.

Zamonaviy o‘quv materiallari faqat nazariy bilim berish bilan cheklanmasligi kerak. Ular o‘quvchida amaliy ko‘nikmalar va hayotiy kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qilishi zarur. Bu degani, topshiriqlar real hayotiy vaziyatlarga yaqinlashtirilgan bo‘lishi, o‘quvchi o‘rgangan bilimini amalda qo‘llay olishi kerak.

Kompetensiyaviy yondashuv o‘quv materiallaridan muammoli vazifalar, tahliliy topshiriqlar va ijodiy ishlarni o‘z ichiga olishini talab qiladi. Bunday yondashuv o‘quvchini kelajak kasbiy faoliyatiga tayyorlaydi.

Zamonaviy o‘quv materiallari raqamli texnologiyalar bilan uyg‘unlashgan bo‘lishi zarur. Multimediya vositalari, animatsiyalar, interaktiv testlar va virtual laboratoriyalar o‘quv jarayonini samarali va qiziqarli qiladi.

Raqamli resurslar o‘quvchining diqqatini jalb etadi, murakkab jarayonlarni vizual tarzda tushunishga yordam beradi va mustaqil o‘rganish imkoniyatini kengaytiradi. Biroq texnologiya maqsad emas, balki vosita bo‘lishi kerak. Agar u pedagogik maqsadga xizmat qilmasa, samaradorlik pasayadi.

Zamonaviy sinflarda o‘quvchilarning tayyorgarlik darajasi turlicha bo‘ladi. Shuning uchun o‘quv materiallari differensial ta’limni qo‘llab-quvvatlashi kerak. Turli murakkablik darajasidagi topshiriqlar, qo‘shimcha izohlar va mustaqil ishlash uchun resurslar mavjud bo‘lishi zarur.[5; 112]

Bu talab har bir o‘quvchiga o‘z imkoniyatiga mos rivojlanish sharoitini yaratadi va ta’lim jarayonini adolatli qiladi.

O‘quv materialining tashqi ko‘rinishi ham muhim pedagogik omil hisoblanadi. Jadval, sxema, diagramma va rasmlar murakkab ma’lumotlarni oson tushunishga yordam beradi. Estetik jihatdan tartibli va qulay dizayn o‘quvchining motivatsiyasini oshiradi.

O‘quv materiali o‘quvchini o‘qishga undashi kerak. Qiziqarli faktlar, real hayotiy misollar va muammoli savollar o‘quvchining ichki motivatsiyasini kuchaytiradi. Motivatsiyasiz o‘quv jarayoni samarali bo‘la olmaydi.

Zamonaviy o‘quv materiallari o‘z-o‘zini nazorat qilish imkonini beruvchi testlar, savollar va topshiriqlarni o‘z ichiga olishi kerak. Bu o‘quvchiga o‘z bilim darajasini baholash va kamchiliklarini aniqlash imkonini beradi.

amonaviy pedagogik talablar o‘quv materiallarini ko‘p funksiyali didaktik vositaga aylantiradi. Ular ilmiylik, tizimlilik, interaktivlik, kompetensiyaviy yo‘naltirilganlik, raqamli integratsiya va motivatsion ta’sir kabi o‘zaro bog‘liq omillar majmuasiga asoslanadi.

Eng muhim jihat shundaki, bu talablar alohida-alohida emas, balki o‘zaro uyg‘unlashgan holda qo‘llanilgandagina yuqori natija beradi. Masalan, interaktiv topshiriqlar ilmiy asosga ega bo‘lmasa, yuzaki bo‘lib qoladi; raqamli texnologiya pedagogik maqsadsiz qo‘llansa, faqat bezak vazifasini bajaradi.

Shunday qilib, zamonaviy o‘quv materiallari o‘quvchini markazga qo‘ygan, faoliyatga yo‘naltirilgan, texnologik va pedagogik jihatdan puxta ishlab chiqilgan bo‘lishi kerak. Bu esa ta’lim sifatini oshirish, o‘quvchilarda mustaqil fikrlash va hayotiy kompetensiyalarni shakllantirishning muhim shartidir.

Xulosa. O‘quv materiallariga qo‘yiladigan zamonaviy pedagogik talablar har tomonlama tahlil qilinib, ularning ta’lim sifati va samaradorligiga bevosita ta’siri asoslab berildi. Olib borilgan nazariy va tahliliy mulohazalar shuni ko‘rsatdiki, bugungi ta’lim jarayonida o‘quv materiallari oddiy axborot manbai emas, balki o‘quvchini rivojlantiruvchi, yo‘naltiruvchi va faoliyatga undovchi kompleks didaktik vosita sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shu sababli ularni yaratish va baholashda an’anaviy yondashuvlardan voz kechib, zamonaviy pedagogik mezonlarga tayanish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘quv materiallarining ilmiy asoslanganligi eng muhim talablardan biri ekanini ko‘rsatdi. Mazmunning ishonchliligi, zamonaviy fan yutuqlariga mosligi va tushunchalarning mantiqiy izchilligi o‘quvchilarda to‘g‘ri bilimlar shakllanishining asosi hisoblanadi. Biroq ilmiylik bilan bir qatorda, materiallarning yosh xususiyatlariga mosligi va tushunarliligi ham ta’lim samaradorligini belgilovchi muhim omil ekani aniqlandi. Murakkab tushunchalarning sodda va ravon tilda bayon qilinishi o‘quvchilarning bilimni ongli ravishda o‘zlashtirishiga yordam beradi.

Shuningdek, o‘quv materiallarining tizimliligi va mantiqiy tuzilishi bilimlarni yaxlit holda shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligi asoslandi. Mavzular o‘rtasidagi bog‘liqlikni ta’minlash, avvalgi bilimlarga tayanish va bosqichma-bosqich murakkablashib borish tamoyillari o‘quvchilarning fikrlash jarayonini izchil rivojlantiradi. Bu esa bilimlarning mustahkamligi va uzoq muddat saqlanishiga xizmat qiladi.

Interaktivlik zamonaviy o‘quv materiallarining ajralmas xususiyati ekani ta’kidlandi. O‘quvchini faol o‘quv jarayoniga jalb etuvchi savollar, muammoli vaziyatlar, keyslar, amaliy mashqlar va loyiha topshiriqlari bilimni chuqurroq o‘zlashtirishga imkon yaratadi. Bunday yondashuv o‘quvchida mustaqil fikrlash, tahlil qilish va muammolarni hal etish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Natijada o‘quv jarayoni passiv qabul qilishdan faol o‘zlashtirish jarayoniga aylanadi.

Kompetensiyaga yo‘naltirilganlik ham zamonaviy pedagogik talablarda muhim o‘rin tutishi aniqlandi. Ta’lim jarayonida faqat nazariy bilimlar emas, balki amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishga e’tibor qaratilishi zarur. O‘quv materiallari real hayotiy vaziyatlarga yaqin topshiriqlarni o‘z ichiga olishi, o‘quvchini amaliy

faoliyatga tayyorlashi lozim. Bu yondashuv o‘quvchilarning kelajak kasbiy faoliyatida muvaffaqiyatli bo‘lishiga zamin yaratadi.

Raqamli texnologiyalar integratsiyasi bo‘yicha olingan xulosalar ham muhim ahamiyatga ega. Elektron resurslar, multimediya materiallari va interaktiv platformalar o‘quv jarayonini yanada samarali va qiziqarli qilish imkonini beradi. Vizual va audio vositalar murakkab mavzularni osonroq tushunishga yordam beradi, o‘quvchilarning diqqatini jalb qiladi va mustaqil o‘rganish imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu bilan birga, texnologiyalardan foydalanishda pedagogik maqsad ustuvor bo‘lishi kerakligi qayd etildi.

Differensial yondashuv imkoniyati ham o‘quv materiallariga qo‘yiladigan zamonaviy talablar qatoriga kiradi. Turli tayyorgarlik darajasiga ega o‘quvchilar uchun mos topshiriqlar, qo‘shimcha tushuntirishlar va mustaqil ishlash resurslari taqdim etilishi ta’lim jarayonining adolatli va samarali tashkil etilishiga yordam beradi. Bu har bir o‘quvchining o‘z imkoniyatiga mos rivojlanishini ta’minlaydi.

Shuningdek, o‘quv materiallarining vizual va estetik jihatlari ham ta’lim samaradorligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi aniqlandi. Jadval, diagramma, sxema va rasmlar axborotni tizimli idrok etishga yordam beradi. Tartibli dizayn va o‘qishga qulay tuzilma o‘quvchining qiziqishini oshiradi va charchoqni kamaytiradi.

Motivatsion omillar ham muhim rol o‘ynashi ta’kidlandi. Qiziqarli faktlar, real hayotiy misollar va o‘quvchining kundalik hayoti bilan bog‘liq vaziyatlar o‘qishga ichki ehtiyojni kuchaytiradi. Motivatsiyasi yuqori bo‘lgan o‘quvchi bilimni chuqurroq va barqarorroq o‘zlashtiradi.

O‘z-o‘zini nazorat qilish va baholash imkoniyatlarini beruvchi elementlar ham samarali o‘quv materialining muhim qismi ekanligi asoslandi. Testlar, savollar va refleksiya topshiriqlari o‘quvchiga o‘z bilim darajasini baholash imkonini beradi va o‘z ustida ishlashga undaydi.

Zamonaviy pedagogik talablar o‘quv materiallarini ko‘p funksiyali, interaktiv, ilmiy asoslangan va kompetensiyaga yo‘naltirilgan tizim sifatida ko‘rishni talab etadi. Bunday materiallar o‘quvchini markazga qo‘ygan, faoliyatga undovchi va shaxsiy rivojlanishni ta’minlovchi ta’lim muhiti yaratishga xizmat qiladi.

Shunday qilib, o‘quv materiallarini yaratishda zamonaviy pedagogik yondashuvlarga amal qilish ta’lim sifatini oshirishning muhim shartidir. Kelgusida o‘quv materiallarini ishlab chiqishda innovatsion metodlar, raqamli yechimlar va individual yondashuv imkoniyatlarini kengaytirish dolzarb vazifa bo‘lib qoladi. Bu esa raqobatbardosh, mustaqil fikrlovchi va yuqori malakali kadrlarni tayyorlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ - 4884-son Qarori.–Toshkent: 2020-yil 6-noyabr.

2. Ahmedjanov M.M., To‘xtayeva Z.Sh. Didaktik vositalar majmuasi. O‘quv qo‘llanma. 2021. 425 b,

3. Olimov Q.T. Maxsus fanlardan o‘quv adabiyotlarini yaratishning nazariy va uslubiy asoslari. Pedag. fan. dok.... dis. –T.: TDPU, 2015. –274 b.

4. Kunnazarov, A. Pedagogik talablar va o‘quv materiallarining samaradorligi. Tashkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti Nashriyoti. 2022. pp. 45-78.

5. Sayipova, L. Kreativ ta’lim muhiti va o‘quv materiallarining motivatsion ahamiyati. Pedagogika va ta’lim jurnali, 12(3), 2023. 112-130.

6. Master Journals. Interaktiv o‘quv materiallari va kompetensiyaga yo‘naltirilgan ta’lim. Contemporary Research in Pedagogy, 8(2), 2024. 34-56

7. Johnson, D., & Johnson, R. Active Learning in Modern Pedagogy. New York: Routledge.2023. pp. 67-115.

8. Soliyeva Yulduzxon. Boshlang‘ich sinf o‘quv materiallarida uchraydigan geometrik shakllar tahliliva ularni o‘rgatish metodikasi. // Pedagogik mahorat ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2025 № 6, 32-38-betlar.

9. Soliyeva Yulduzxon. Boshlang‘ich sinf o‘quv materiallari mazmunini loyihalashning nazariy asoslari. // Yangi O‘zbekiston pedagoglari axborotnomasi. 2025. 20-25-bet

10. Soliyeva Yulduzxon.Theoretical foundations of an integrative approach to designing the content of primary school educational materials. // International Journal of artificial intelligence. 2026/01. 1216-1221-bet

YURIDIK TEXNIKUM O‘QUVCHILARIDA HUQUQIY KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHNING METODOLOGIK JIHATLARI

Utamuradov Umarjon Muxammadkulovich,
Navoiy davlat universiteti “Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq” kafedrasi dotsenti v.b.

Ushbu maqolada yuridik texnikum o‘quvchilarida huquqiy kompetensiyalarni shakllantirishning metodologik asoslari nazariy va amaliy jihatdan yoritilgan. Tadqiqot jarayonida huquqiy ta’limni tashkil etishda kompetensiyaviy, tizimli va faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuvlarning o‘rni tahlil qilinadi. O‘quvchilarda huquqiy bilimlar bilan bir qatorda mustaqil fikrlash, huquqiy vaziyatlarni tahlil qilish hamda qonunlarga hurmat ruhini shakllantirish zarurligi asoslab beriladi. Maqolada yuridik texnikumlarda huquqiy fanlarni o‘qitish jarayonini takomillashtirishga xizmat qiluvchi metodologik tamoyillar ochib berilib, ularning ta’lim samaradorligini oshirishdagi ahamiyati ko‘rsatib o‘tiladi. Shuningdek, tadqiqot natijalari huquqiy ta’lim tizimini rivojlantirish hamda bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: *huquqyi ong, huquqiy tarbiya, kompetensiya, tuzilmaviy-funksional, diagnostik, tashkiliy-metodik, texnologik, monitoring.*

МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ФОРМИРОВАНИЯ ПРАВОВЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ У СТУДЕНТОВ ЮРИДИЧЕСКОГО ТЕХНИКУМА

В данной статье рассматриваются методологические основы формирования правовых компетенций у студентов юридических факультетов с теоретической и практической точек зрения. В исследовании анализируется роль компетентностного, системного и деятельностно-ориентированного подходов в организации юридического образования. Обосновывается необходимость формирования у студентов, наряду с правовыми знаниями, самостоятельного мышления, анализа правовых ситуаций и уважения к закону. В статье раскрываются методические принципы, способствующие совершенствованию процесса преподавания правовых дисциплин на юридических факультетах, и показывается их важность в повышении эффективности образования. Также результаты исследования имеют важное научно-практическое значение для развития системы юридического образования и формирования профессиональных компетенций будущих специалистов.

Ключевые слова: *правовое сознание, правовое воспитание, компетентность, структурно-функциональное, диагностическое, организационно-методическое, технологическое, мониторинг.*

METHODOLOGICAL ASPECTS OF DEVELOPING LEGAL COMPETENCES IN STUDENTS OF THE LAW COLLEGE

This article covers the methodological foundations of the formation of legal competencies in law school students from a theoretical and practical perspective. The research analyzes the role of competency-based, systematic and activity-oriented approaches in the organization of legal education. The need to form independent thinking, analysis of legal situations and respect for the law in students, along with legal knowledge, is substantiated. The article reveals methodological principles that serve to improve the process of teaching legal subjects in law schools and shows their importance in increasing educational efficiency. Also, the results of the research are of significant scientific and practical importance in the development of the legal education system and the formation of professional competencies of future specialists.

Key words: *jurisprudence, legal education, competence, structural-functional, diagnostic, organizational-methodical, technological, monitoring.*

Kirish. Davlatimiz rahbarining qator asarlari va nutqlarida aholining huquqiy madaniyati va ongini yuksaltirish, bu borada davlat tuzilmalarining fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari bilan o‘zaro samarali hamkorligini tashkil etish kabi ulug‘vor maqsadlar yotganligini alohida qayd etish lozim. Turli kriminal va mafkuraviy tahdidlarga qarshi tura oladigan immuniteti kuchli shaxslarni tarbiyalash uzluksiz jarayon bo‘lib, u oilada, ta’lim muassasalarida, jamoat joylarida, ish joylarida shakllanib boradi.

Shu o‘rinda o‘quvchilarda huquqiy kompetensiyalarni shakllantirish kabi ishlarni tashkil etish ilmiy asoslangan va tizimli yondashuvni taqozo etadi.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. Yuridik texnikumi o‘quvchilarida huquqiy kompetensiyalarini shakllantirishning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

o‘quvchi shaxsining huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini ta’minlash;

jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish, qonuniylikni mustahkamlash;

huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, o‘rganish, bartaraf etish chora-tadbirlarini ko‘rish;

huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organlar hamda muassasalar faoliyatining o‘zaro hamkorligini ta’minlash va ularning faoliyatini muvofiqlashtirish.

Tadqiqot ishi yuzsidan huquqiy ong, huquqiy madaniyat, kompetensiya, huquqiy kompetensiya atamalarining ilmiy adabiyotlar, ishlanmalarda yoritilishini tahlil etildi.

Huquqiy ong – huquq va qonunchilikka oid odamlarning tasavvurlari, ularning his-tuyg‘ulari, amaliy tajribalar ta’sirida paydo bo‘lgan huquqqa nisbatan munosabatini ifodalaydi [1].

Huquqiy madaniyat esa – fuqarolarning davlat va huquq haqidagi muhim bilimlarni egallab olishi, amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar haqidagi tushunchalarini talqin qila olishi hamda ulardan to‘g‘ri foydalana olishidir [2].

Huquqiy tarbiyaning predmeti - bu shaxsning individual huquqiy ongini shakllantiradigan ruhiy xususiyatlar va jamoat va guruh huquqiy ongini belgilaydigan ijtimoiy-psixologik hodisalar bo‘lib, shaxsning dunyoqarashi, qadriyati va hissiy-irodaviy tomoniga ta’sir qiladi [3].

Huquqiy ta’lim esa ta’sir doirasiga ko‘ra undan farq qilib, shaxsning ongiga, ya’ni va o‘qitish - kognitiv-ratsional tomoniga ta’sir qiladi. Shunday qilib, huquqiy ta’lim holatida informatsion xususiyat mavjud.

Huquqiy ta’limning vazifalari [4]

Huquq haqidagi umumiy bilimlarni oshirish;

O‘quvchi tomonidan huquqiy talablarni o‘zlashtirish;

Huquqning ijtimoiy zarurligi, foydaliligi va majburiyligiga ishonchni shakllantirish va h.k.

Huquqiy ta’limning sub’ektlari quyidagilardir [4]:

- davlat hokimiyati organlari, masalan, Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Bosh prokuratura, Adliya vazirligi, Ichki ishlar vazirligi va boshqalar. Davlat hokimiyati organlari huquqiy tarbiya sohasida strategik maqsad va vazifalarni, axloqiy-huquqiy tarbiya mazmunini, axborot, shuningdek, huquqiy tarbiyaviy ta’sirni boshqarish usullarini ishlab chiqadi;

- davlat tomonidan butun jamiyat a’zolari yoki uning ayrim toifalari bilan huquqiy tarbiyani amalga oshirish funksiyalari yuklangan ta’lim muassasalari, ichki ishlar organlari, axloq tuzatish muassasalari, bosma va elektron ommaviy axborot vositalarini o‘z ichiga olgan vakolatli organlar va muassasalar;

– fuqarolik jamiyati institutlari – jamoat birlashmalari, siyosiy partiyalar, kasaba uyushma tashkilotlari, diniy tashkilotlar va boshqalar, ularning axborot-kommunikatsiya faoliyati ijtimoiy huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasida rasman e’lon qilingan milliy manfaatlarga javob beradigan tashkilotlar;

- oila instituti.

Huquqiy tarbiyaning umumiy obyekti mamlakatning butun aholisidir. Huquqiy ta’lim faoliyati fuqarolarning barcha toifalariga nisbatan istisnosiz amalga oshirilishi kerak. Maxsus obyekt, birinchidan, aholining yuridik ahamiyatga ega xulq-atvordagi eng faol qismi - bu fuqarolar, asosan, 18-50 yoshdagi erkaklar. Ikkinchidan, huquqiy tarbiyaning alohida obyekti 14-17 yoshdagi voyaga yetmaganlar (o‘quvchilar va talabalar) bo‘lib, ular jinoyatlar safini to‘ldirishning asosiy manbalaridan biri hisoblanadi.

Huquqiy kompetensiya-fuqarolarning huquqiy bilimi, bu boradagi ko‘nikma va malakalarini hayotda qo‘llay olish qobiliyati. Fuqarolarning huquqiy bilimlari, ongi va madaniyati yuksak darajada bo‘lsagina, ular ijtimoiy hayotda bo‘layotgan o‘zgarishlarga faol munosabatda bo‘lishadi, shaxsiy fikrlarini bildirgan holda, jamiyat taraqqiyotiga o‘z hissalarini qo‘shishi mumkin bo‘ladi. Bugungi kunda yurtimizda barcha jabhalarda tub o‘zgarishlar yuz berayotgan mas’uliyatli pallada huquqiy tarbiyaning barcha shakl va usullaridan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etishini yodimizdan chiqarmasligimiz lozim [5]. Shu sababli huquqiy madaniyatimiz darajasiga tanqidiy baho berib, muammolarimiz sababini chuqur o‘rganishimiz kerak. Biroq faqatgina qonunlarni o‘rgatish va javobgarlik bilan qo‘rqitish orqali qonun ustuvorligiga va taraqqiyotga erisha olmaymiz. Bundan tashqari, hozirgi globallashuv, ilmiy-texnik taraqqiyot davrida aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishning innovatsion usullaridan, targ‘ibotning ilg‘or va ta’sirchan vositalaridan, xorijiy davlatlarning bu boradagi ijobiy tajribalaridan yetarli darajada foydalanmayotganligimiz yuqoridagi fikrlarimiz isbotidir.

Tadqiqot metodologiyasi. Farmon asosida aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga doir ishlar samaradorligini yanada takomillashtirish, fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar bilan uyg‘un ravishda huquqiy bilimlarini oshirib borishning zamonaviy usullarini joriy etish, shuningdek, aholini, ayniqsa, yoshlarni zararli axborotlardan himoya qilish bo‘yicha mustahkam huquqiy immunitetni shakllantirish maqsadida Adliya vazirligi jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish sohasida muvofiqlashtiruvchi Davlat organi etib belgilangan.

Bundan tashqari, aholining huquqiy bilimlari yetarli emasligi, davlat organlarining qonunga xilof qarorlari ustidan sudga shikoyat qilish imkoniyatidan deyarli foydalanmasligi mansabdor shaxslar tomonidan fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlari kamsitilishi holatlarining vujudga kelishiga sabab bo‘layotganligini inobatga olib, tegishli davlat organlariga aniq vazifalar yuklatilgan. Shuningdek, farmon bilan “Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish” konsepsiyasi qabul qilinib, uning asosiy vazifa va maqsadlari, asosiy yo‘nalishlari ko‘rsatilgan va Konsepsiyani samarali amalga oshirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi” ishlab chiqilgan. “Yo‘l xaritasi”ga 88 ta band kiritilgan bo‘lib, barcha sohalarda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishga qaratilgan hamda jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish “shaxs - oila - mahalla - ta’lim muassasasi - tashkilot - jamiyat” prinsipi bo‘yicha tizimli va uzviy tashkil etilishi nazarda tutilgan.

Mamlakatimizda olib borilayotgan sud-huquq islohotlari jarayonida yoshlarning ishtirokini yanada faollashtirish, yosh avlod vakillarini qonunga hurmat ruhida tarbiyalash, turli zararli illat va yod g‘oyalar ta’siridan himoyalash, yoshlarning huquqiy ongi va madaniyati, bilimlari va mas’uliyatini muntazam oshirish hamda viloyatning tuman (shahar)larida, ayniqsa, chekka hududlarida istiqomat qiladigan ko‘p sonli uyushmagan yoshlar o‘rtasida huquqbuzarliklarning oldini olishdan iboratdir.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Adabiyotlar, huquqiy me’yoriy hujjatlar tahlillaridan aniqlanishicha, o‘quvchilarda huquqiy kompetensiyalarni shakllantirishning asosiy prinsiplari [5]:

qonuniylik;

insonparvarlik;

tizimlilik;

ishontirish usulining ustuvorligi;

ta’sir ko‘rsatish chora-tadbirlarini farqlash va yakka tartibdagi yondashish deb belgilangan.

10-14, 15-17 yoshlilarni ma’naviy xislatlarga, axloq normalarining mohiyatiga jiddiy munosabatda bo‘lishni o‘rgatish lozim. Ular o‘zlari ham aynan mana shu davrda axloqiy kategoriyalar mazmunini chuqur anglay boshlaydilar. Shaxsni shakllantirish uning o‘sishi, yangi xususiyat va fazilatlarga ega bo‘lishi jarayonidir. Pedagogikada “shakllantirish” tushunchasi “tarbiyalash” tushunchasiga nisbatan kengroq bo‘lib, u shaxs va jamoaning tarkib topishiga ta’sir ko‘rsatadigan hamma narsani, shu jumladan, maqsadga muvofiq jarayonlar (o‘qitish, tarbiyalash, ta’lim berish)ni ham, maqsadga nomuvofiq jarayonlar (shaxs va jamoaning o‘z ichki tabiati, atrofdagi kishilar, narsalar, tabiat hodisalari va hokazolarning ta’siri)ni ham o‘z ichiga qamrab oladi [6, 7, 8, 9]. “Shakllantirish” va “tarbiyalash” tushunchalarini jiddiy chegaralaydigan bo‘lsak, insonni tabiat hodisalari tarbiyalaydi, deb bo‘lmaydi. Insonni faqat kishilar tarbiyalaydi, tabiat hodisalari shaxsni shakllantirishi mumkin, ammo uni tarbiyalay olmaydi. Shunday ekan, har qaysi axloqiy tushuncha o‘zining nozikligi va ko‘p ma’noliligi bilan tavsiflanadi. Masalan, *burch, vijdon, g‘urur, qadr-qimmat, faxrlanish, mas’uliyat, or-nomus* kabi tushunchalar. Shunga ko‘ra, to‘g‘ri axloqiy qarashlar, tasavvurlar tarkib topishi uchun adolatli turmush tarzining o‘zi yetarli, deyish mumkin emas va bu borada pedagoglar, ota-onalar, jamoatchilik xotirjamlikka yo‘l qo‘ymasligi, sog‘lom muhit yaratishlari, komil insonni shakllantirish uchun doimo izlanishlari zarur.

Xulosa. Tadqiqotimiz mavzusiga taalluqli bo‘lgan mazkur ishlarni va boshqa ilmiy manbalarni o‘rganish natijalari quyidagilarni xulosa qilishga asos bo‘ladi:

- yuridik texnikumi o‘quvchilarida huquqiy kompetensiyalarni shakllantirish yetarli darajada o‘rganilmagan, shuningdek, dissertatsion ishlar darajasida maxsus pedagogik tadqiqotlarning predmeti bo‘lmagan;
- pedagogik nazariya va amaliyotda yuridik texnikumi o‘quvchilarida huquqiy kompetensiyalarni shakllantirishning *turli xil jihatlari* (metodologik, tuzilmaviy-funksional, diagnostik, tashkiliy-metodik, texnologik, jarayonli rivojlantiruvchi, rivojlanishning amaliyoti va monitoringi) yetarli darajada o‘rganilmagan va tahlil qilinmagan;
- eksprimental pedagogik tadqiqotlarda yuridik texnikumi o‘quvchilarida huquqiy kompetensiyalarni shakllantirish masalalarini o‘rganishning predmeti hisoblangan qandaydir kontekstda ko‘rib chiqilgan; ilmiy dissertatsion ishlarda va mualliflik publikatsiyalarida (maqolalar, dokladlar, monografiyalar va boshq.) o‘quvchilarda huquqiy kompetensiyalarni shakllantirish mohiyati haqida, adekvat

ijodiy-rivojlantiruvchi ta’lim va ijtimoiy-madaniy fazo haqida va ta’lim muassasalarida ilmiy-metodik va texnologik jihatdan ta’minlash haqida *yaxlit bilim* shakllanmagan.

- huquqiy kompetensiyalarni shakllantirish muammosiga bag‘ishlangan qariyb barcha tadqiqotlar pedagogik OTMlarda ta’lim olayotgan *o‘quvchialar* orasida o‘tkazilgan;

Shuningdek, bizning tomonimizdan o‘tkazilgan tahlil shuni ko‘rsatadiki, turli xil adabiyotlar manbalarida, ilmiy dissertatsiyalar, ilmiy-amaliy konferensiyalar, seminarlarning materiallarida shakllanish va rivojlanishning quyidagi muammolari bo‘yicha o‘tkazilgan pedagogik tadqiqotlar natijalari keltirilgan: o‘quvchilarda huquqiy kompetensiyalarni shakllantirish (Adolf V.A. [10]; Kozberg G.A. [11]);); o‘quvchilarda huquqiy ongni shakllantirish, o‘quvchilarda huquqiy madaniyatni shakllantirish va boshqalar.

Yuqorida sanab o‘tilgan barcha ishlar va ilmiy publikatsiyalar konsepsiyalarni, modellarni va texnologiyalarni, xulosalarni va tavsiyalarni rivojlantiradigan nazariy qoidalarni o‘zida mujassamlashtiradi. Ularning barchasi shaxsga yo‘nalgan, kompetentli va texnologik yondashuvlar asosida maktab o‘qituvchilarining ijodiy kompetentligini rivojlantirish bo‘yicha tajribaviy-eksperimental ishni tashkil etish va o‘tkazish uchun zarur nazariy-informatsion, metodologik va metodik baza hisoblanadi.

Shu munosabat bilan, biz o‘ylaymizki, yuridik texnikumi o‘quvchilarida huquqiy kompetensiyalarni shakllantirish muammosini keyinchalik tahliliy-analitik, tashkiliy-metodik va texnologik jihatdan ishlab chiqish olim-pedagoglarning ilgarigi ishlari natijalari bilan mustahkam aloqada amalga oshirilishi zarur. Mazkur ishlarda yuridik texnikumi o‘quvchilarida huquqiy kompetensiyalarni shakllantirish quyidagicha ko‘riladi va aniqlashtiriladi:

- an’anaviy va noan’anaviy pedagogik vaziyatlarda yuridik texnikumi o‘quvchilarida huquqiy kompetensiyalarni ta’minlaydigan uning *integrativ kasbiy-shaxsiy xarakteristikasi;*

- huquqiy kompetensiyalar tuzilmasiga quyidagilar kiradi: umumiy huquqiy madaniyat eruditsiyasi, huquqiy tafakkur, maxsus kasbiy qobiliyat va ko‘nikmalar, ijodiy tayyorgarlik. Ular huquqiy kompetensiyaga ega bo‘lgan shaxs sifatlari kompleksini tashkil etadi.

Shunday qilib, olib borilgan tadqiqot tahliliga ko‘ra, yuridik texnikum o‘quvchilarida huquqiy kompetensiyalarini shakllantirish mexanizmlarini ishlab chiqish zarurati mavjudligi aniqlandi.

Adabiyotlar:

1. Бобоев Ҳ.Б., Одилқориев Ҳ.Т. Давлат ва ҳуқуқ назарияси / Масъул муҳаррирлар. – Т.: Иқтисодиёт ва ҳуқуқ дунёси, 2000. – 528 б.

2. Гафаров З. Давлат ва ҳуқуқнинг умумназарий муаммолари: ҳуқуқни тушуниш, ҳуқуқий онг ва ҳуқуқ ижодкорлиги // Монография. –Т.: ТДЮИ, 2015. –187 б.

3. Каримова О. Ёшлар ҳуқуқий тарбиясининг асосий йўналишлари. – Т.: ТДПУ. 2019. – 21 б.

4. Utamuradov U.M. Use of mass media in forming students' legal competences // Information Horizons: American Journal of Library and Information Science Innovation, Volume 01, Issue 08, 2023 ISSN (E): 2993-2777 2023. – № 10. – P. 51–54.

5. Utamuradov U.M. Methodological aspects of forming legal competence in legal technical technicum students // International Journal of Formal Education, Volume: 2 Issue: 10 | October – 2023 ISSN: 2720-6874 2023. – № 10. – P. 164–168.

6. Марфутешсо Т. А Формирование творческой компетентности студентов педагогических вузов средствами эвристических заданий по информатике // Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. – Владикавказ, 2013. – 23 с.

7. Якубель Г. И. Эвристическое обучение в системе профессиональной подготовки будущих педагогов // Вышэйшая школа: навук.-метад. і публіцыст. часопіс. 2010. – № 2. – С. 39- 44.

8. Плещев В.В., Рассамагина Ф.А. Формирование и диагностика профессионально-творческой компетентности студентов вузов // Известия ВГПУ. Педагогические науки. –Екатеринбург, 2016.

9. Воронина Л.В. Формирование профессионально-творческой компетентности у студентов естественно-научных специальностей при изучении математических дисциплин // Педагогическое образование в России. 2015. – № 11. – С. 7-11.

10. Адольф В.А. Теоретические основы формирования профессиональной компетентности учителя // Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора педагогических наук. – Москва, 1998. – 48 с.

11. Козберг Г.А. Формирование профессиональной компетентности учителя в первоначальной педагогической деятельности // Диссертация на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. – Воронеж, 2000. – 202 с.

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARNING MATN YARATISH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Xaitova Nodira Bafoyevna,
Buxoro davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti
@nodiraxaitova21gmail.com

Ushbu maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarning matn yaratish kompetensiyasini rivojlantirishning nazariy asoslari yoritib berilgan. Matn yaratish kompetensiyasining hozirgi kundagi bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilar uchun qay darajada ahamiyatga ega ekanligi aniq va yaqqol misollar bilan ochib berilgan hamda matn yaratish kompetensiyasining nazariy asoslari ham tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari integrativ va kompetensiyaviy yondashuv asosida qo‘llanilgan interfaol metodlar orqali bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarning nutqiy va lingvistik savodxonligini oshirishda va kasbiy kompetentligini yanada takomillashtirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: *matn yaratish kompetensiyasi, nutqiy kompetensiya, nutqiy savodxonlik, matn yaratish texnologiyasi, innovatsion pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi.*

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ КОМПЕТЕНЦИИ СОЗДАНИЯ ТЕКСТА У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

В данной статье раскрываются теоретические основы формирования компетенции создания текста у будущих учителей начальных классов. Показана значимость компетенции создания текста в современной образовательной практике будущих учителей начальных классов, что подтверждается наглядными и конкретными примерами, а также проанализированы её теоретические аспекты. Результаты исследования свидетельствуют о том, что интерактивные методы, применяемые на основе интегративного и компетентностного подходов, являются эффективным средством повышения речевой и лингвистической грамотности будущих учителей начальных классов и способствуют дальнейшему совершенствованию их профессиональной компетентности.

Ключевые слова: *компетенция создания текста, речевая компетенция, речевая грамотность, технология создания текста, инновационные педагогические технологии, интерактивные методы, будущий учитель начальных классов.*

THEORETICAL FOUNDATIONS FOR DEVELOPING TEXT CREATION COMPETENCE IN FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS

This article examines the theoretical foundations for developing text creation competence in future primary school teachers. The importance of text creation competence in contemporary educational practice for future primary school teachers is demonstrated through clear and illustrative examples, and its theoretical aspects are analyzed. The research findings indicate that interactive methods implemented within integrative and competency-based approaches serve as an effective means of enhancing the speech and linguistic literacy of future primary school teachers and contribute to the further development of their professional competence.:

Keywords: *text creation competence, speech competence, speech literacy, text creation technology, innovative pedagogical technologies, interactive methods, future primary school teacher.*

Kirish. Hozirgi kunda ta’lim sifatini takomillashtirish va uni jahon tajribalari asosida boyitish islohotlari amalga oshirilmoqda. Ayni damda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituchilar oldiga ham bir qator dolzarb talablar ham qo‘yildi. Shulardan eng asosiysi matn yaratish kompetensiyasini shakllantirish va uni takomillashtirish masalasidir. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarning matn yaratish kompetensiyasini rivojlantirish muammosini ligvistik hamda nazariy asoslarini chuqur o‘rganish va tahlil qilish orqali hal qilish mumkin. Matn orqali o‘quvchilarning fikrlash doirasi, kreativ yondashishi va dunyoqarashini bilish mumkin. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning shakllangan nutqi, kreativ matn yaratishi, mantiqiy va tandiqiy fikrlash ko‘nikmasiga ega bo‘lishi bevosita boshlang‘ich sinf o‘qituvchisiga bog‘liq. O‘qituvchi o‘quvchilar bilan matn yaratish va uni tahlil qilish ustida ishlar ekan, avvalo, uning o‘zi bu malakaga ega bo‘lishi va uni o‘zining kasbiy kompetensiyaga aylantirgan bo‘lishi lozim. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi matn yaratishni, matn tahlil qilishni, matn tuzilishi va uning tarkibiy qismlarini bilishi va uni kretiv yondashuv asosida gapirib berishi bugungi zamonaviy ta’limning birlamchi talablaridan biri hisoblanadi. Bundan tashqari bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi raqamli texnologiyalar hamda AI (sun’iy intelek) dagi ayrim

lingvistik dasturlari orqali o‘zining matn yarata olish qobiliyatini rivojlantirishi mumkin va bu uning ilmiy salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi va adabiyotlarning tahlili. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining matn yaratish kompetensiyasini rivojlantirish muammosi zamonaviy pedagogika va til ta’limi kontekstida dolzarb hisoblanadi. Matnning mohiyati, turlari, tuzilishi, lingvistik va kommunikativ xususiyatlari, shuningdek, matn asosida til o‘rgatish masalalari bo‘yicha quyidagi olimlar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan: rus tilshunosi N.A. Alekseeva − nutq madaniyati, stilistika va til o‘qitish masalalari bilan shug‘ullangan, G.Y. Solganik − stilistika, publitsistik uslub va matn tahlili bo‘yicha tadqiqotlar qilgan, I.R. Galperin − matn ligvistikasi bo‘yicha bir qator ilmiy ishlarni amalga oshirgan[2], A.K. Zholshayeva − stilistika, nutq tahlili va matn tuzilishi bilan bog‘liq ilmiy ishlar olib borgan.

O‘zbek tilshunosligida esa N.Mahmudov, I. Yo‘ldoshev, A.Rafiyev − yozma nutq savodxonligini oshirish, matn yaratish va uni ijodiy o‘zgartira olish yo‘llari bo‘yicha mashq va topshiriqlar ishlab chiqqan [4], T.H.Asadov −matnning tahlil usullari, matnga qo‘yilgantalablar, uningtarkibiy qismlari, mazkur tarkibiy qismlarning birikishi, shuningdek, badiiymatnda badiiylikni ta’minlovchi lisoniy hodisalar, matn tahlilini zamonaviytilshunoslik sohalari bilan uyg‘un holda olib borishni o‘z asarlarida ilgari surgan [5], T.A. Ziyayeva −o‘zbek tilidagi matn tuzilishi, uslubiy vositalar va ularning kommunikativ vazifalarini o‘rganishga katta hissa qo‘shgan [1]. Uning ishlari ko‘pincha o‘zbek tilshunosligida zamonaviy matn tahlili masalalarida manba sifatida qo‘llanadi. Yo‘ldoshev M., Muhamedova S., M.Saparniyazovalar esa - matn birliklari, matn tiplari, matnda parsellyatsiya hodisasi, matnning tarkibiy qismlarini bog‘lovchi vositalar, matnning lingvostatistik tahlili hamda matnning kommunikativpragmatik mazmuni, o‘zbek tilshunosligida matnni tahlil etishdagi lingvopoetik yondashuv, badiiy matnning fonetik-fonologik, leksik-semantik va grammatik xususiyatlarini o‘rganishgan [3].

MDH davlatlari olimlaridan: T.A.Ladijenskaya, L.I.Velichko, L.M.Loseva, M.R.Lvov, V.G.Goreskiy, O.V.Sosnovskayalarning tadqiqotlari va metodik qo‘llanmalarida rus tili darslarida matn tuzilishi ustida ishlash mazmuni hamda usullari kabi masalalar tadqiq qilingan[6].

Xorij olimlaridan: R.Bracewell, M.Scardamalia, C.Bereiter, J.Britton P.Burtis, C.Bereiter, M.Scardamalia, J.Tetroe, C.Englert, E.Hiyebertlar tomonidan matn yaratish, yozma ishlarni tashkil etish, matn tuzilishini o‘rgatishning anglash ko‘nikmasi rivojiga ta’siri muammolariga doir tadqiqotlar amalga oshirilgan [7].

Metodologik asosi sifatida:

-tadqiqotda dialektik bilish nazariyasini asos qilish orqali ta’lim jarayonidagi hodisa va jarayonlar o‘zaro bog‘liqlikda, uzluksiz rivojlanishda tahlil qilish hamda matn yaratish kompetensiyasi pedagogik jarayonning muhim tarkibiy qismi sifatida qaralib, uning mazmuni, shakllari va rivojlanish omillarini aniqlash;

-tadqiqotda tizimli yondashuv asosida matn yaratish kompetensiyasining tarkibiy qismlari (lingvistik, mantiqiy, kommunikativ va ijodiy komponentlar) o‘zaro aloqadorlikda o‘rganish hamda integrativ yondashuv orqali ona tili, pedagogika va metodika fanlari mazmuni uyg‘unlashtirish;

-tadqiqot metodologiyasi pedagogik konstruktivizm g‘oyalariga tayangan holda, talabalarning mustaqil fikrlashi, ijodiy yondashuvi va reflektiv faoliyatini rivojlantirish va bu esa, bo‘lajak o‘qituvchilarning matn yaratish jarayonida shaxsiy tajriba, til birliklari va kommunikativ vaziyatlarni uyg‘unlashtirishiga xizmat qiladi.

Mazkur tadqiqotning metodologik asosini zamonaviy pedagogika va tilshunoslik fanlarida e’tirof etilgan kompetensiyaviy yondashuv, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, faoliyatga asoslangan yondashuv hamda kommunikativ yondashuv tashkil etadi. Ushbu yondashuvlar bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida matn yaratish kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirish jarayonini tizimli asosda o‘rganish imkonini beradi. Bu yondashuvlar matn yaratishda qadamba-qadam quyidagicha tahlil qilinadi: (1-jadval)

1-jadval.

Matn yaratishning zamonaviy pedagogik yondashuvlar tahlili

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim	Kommunikativ yondashuv	Faoliyatga asoslangan yondashuv	Kompetensiyaviy yondashuv
shaxsni markaziy subyekt sifatida baholash	muloqotga kirishish faolligini oshiradi	faol pozitsiyani ta’minlash	amaliy va hayotiy ko‘nikmalarni shakllantirish
indivudual til xususiyatlarini rivojlantirish	til xatolarini tabiiy muloqot jarayonida bartaraf etish	kasbiy kompetensiyani shakllantirish	kasbiy tayyorgarlikni oshirish
mustaqil va kretiv	mantiqiy va tanqidiy	muammoli vaziyatlarga	favqulotda vaziyatlarda

fikrlashni faollashtirish	fikrlashni shakllantirish	yechim topish	qaror qabul qila olish

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarning matn yaratish kompetensiyasini yuqorida keltirib o‘tilgan ta’lim vositalari orqali nafaqat rivojlantirish mumkin, balki media savodxonlik madaniyati va qobiliyatini ham shakllantirib boradi (1-rasm). O‘qituvchilar o‘zlarining lingvistik salohiyatini oshirish uchun jahon tajribalariga tayangan holda ham xorijiy hamkasblari orqali malakasini oshirishi va tajriba almashishi mumkin.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarning matn yaratish kompetensiyasini shakllantirish — bu ularning kelgusida o‘quvchilarga to‘g‘ri, mantiqiy va savodli matn tuzish, yozma nutqni rivojlantirish ko‘nikmalarini o‘rgatish uchun zarur bo‘lgan muhim kasbiy kompetensiyadir [8].

Ta’lim beruvchi innovatsion faoliyatining eng muhim tavsifi kreativlikdir. Gilford kreativlikni tavsiflaydigan qator individual qobiliyatlarni ko‘rsatadi:

• fikrning ravonligi;
• fikrni maqsadga muvofiq yo‘llay olishi;
• o‘ziga xoslik (originallik);
• qiziquvchanlik;
• farazlar yaratish qobiliyati;
• xayol qila olish, fantastlik (fantaziya.) [9]. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining shakllangan nutqi bu uning kreativligi ham namoyon qiladi, uning kreativ fikrlahi qanchalik yuqori saviyada bo‘lsa, uning nutqi ham shunchalik ta’sirli va chiroyli bo‘ladi.

Tahlil va olingan natijalar. Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirish jarayonini tashkil etishda zarur shaxsiy va kasbiy fazilatlarini aks ettira oladigan, talabalarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishning uslubiy modelini ishlab chiqish talab etiladi. Talabalarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishning uslubiy modeli - bu yaxlit jarayon bo‘lib, uning barcha tarkibiy qismlari yakuniy maqsadga yo‘naltirilgan bo‘ladi.

Model komponentlari:

1.Motivatsion komponent

- ✓ilmiy faoliyatga yo‘naltirish;
- ✓akademik yozuv mohiyatini tushuntirish;
- ✓kasbiy ehtiyojni ta’minlash.

2.Kognitiv komponent

- ✓ilmiy va akademik matn turlari;
- ✓matn tuzilishi va uslubi;
- ✓janr xususiyatlari.

3.Amaliy-faoliyat komponenti

- ✓mavzuni tanlash va mummoni qo‘yish;
- ✓reja tuzish
- ✓asoslash va manbalar bilan ishlash;
- ✓tahrirlash va qayta ishlov.

4.Kommunikativ komponent

- ✓ilmiy munozara va taqdimot;
- ✓hamkorlikda ishlash;
- ✓o‘zaro baholash.

5.Reflektiv komponent

- ✓faoliyatini tahlil qilish;
- ✓xatolar ustida ishlash;
- ✓mezonlar bo‘yicha baholash.

Matn yaratish kompetensiyalarni shakllantirishning metodik modelida belgilangan va ishlab chiqilgan uslubiy asoslar bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirishga va uning samaradorligini oshirishda xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari bo‘yicha bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarning matn yaratish kompetensiyasini shakllantirish yuzasidan tajriba-sinov ishlari olib borildi. Bunda, zamonaviy ta’lim vositalari hamda matn yaratish modeli asosida nutqiy va lingvistik kompetensiyalarini shakllantirish bo‘yicha ko‘rsatmalar berildi, hamda har qanday favqulotda holatlarda matn yozish, uni tahrirlash, qayta ishlash ko‘nikmalarini egallashga asosiy e’tibor qaratildi.



1-rasm. Talabalarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishning uslubiy modeli

Tajriba-sinov ishlari Buxoro davlat pedagogika instituti boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishida olib borildi va unda jami 120 nafar talaba ishtirok etdi (1-diagramma).

Nazorat guruhi

- **Yuqori:** 20 / 60 × 100 = **33.3 %**
- **O‘rta:** 28 / 60 × 100 = **46.7 %**
- **Past:** 12 / 60 × 100 = **20 %**

Tajriba guruhi

- **Yuqori:** 24 / 60 × 100 = **40 %**
- **O‘rta:** 30 / 60 × 100 = **50 %**
- **Past:** 6 / 60 × 100 = **10 %**

Tadqiqot jarayonida talablar tajriba-sinov va nazorat guruhlariga ajratildi. Tajriba-sinov natijalari matematik-statistik tahlil qilindi. O‘zlashtirish ko‘rsatkichi diagramma asosida tahlil natijalariga ko‘ra, tajriba-sinov guruhidagi o‘rtacha o‘zlashtirish 50% ni, nazorat guruhidagi o‘zlashtirish ko‘rsatkichi esa 46.7% ni ko‘rsatdi. Shunga ko‘ra, umumiy hisobda tajriba-sinov guruhining ko‘rsatkichi yuqori ekanligi, bu esa o‘z navbatida 1,2 barobar (20%) ortiqligini anglatadi.



1-digramma. Tajriba-sinov natijalari

Munozara. Matn yaratish kompetensiyasini shakllantiruvchi ishlab chiqilgan model asosida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilar quyidagilarga erishadilar:

-Akademik, ilmiy va badiiy matnlar yaratish ko‘nikmasi rivojlanadi;

-O‘quvchilarga matn mazmuni bilan ishlashni o‘rgatish sifati oshadi;

-Raqamli pedagogik kompetensiyalar takomillashadi;

-Yozma nutq madaniyati va ijodiy fikrlash kuchayadi.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarning fikrlash va ijodiy faolligi ham bevosita yaratilayotgan matnda o‘z aksini topadi.

Fikrlash faolligi bilish faoliyatida maqsadga muvofiq analiz va sintezda, o‘quv materiallarini konkretlashtirish va bir tizimga keltirishda, induksiya va deduksiyani qo‘llashda, bilimlar tizimini egallashda, dunyoqarash hamda tasawurlar va tushunchalarni ishlab chiqishda namoyon bo‘ladi. Talabalarning ijodiy faolligi rivojlanishi shaxsning o‘rganilayotgan narsa va hodisalar mohiyatiga chuqur kirib borishga intilish va bilish faoliyatiga yangilik va ijodiylik unsurlarini olib kira olishi qobiliyati bilan xarakterlanadi [10].

Xulosa. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarning matn yaratish kompetensiyasini shakllantirish uchun ishlab chiqilgan model orqali ularning nutqiy salohiyatini oshirish, mantiqiy va tanqidiy fikrlashini oshirish mumkin. Zamonaviy ta’lim tizimida har tomonlama kreativ fikrlaydigan, ijodiy salohiyatga ega, mustaqil tushunchaga ega pedagog kadrlarga bo‘lgan talab ortib bormoqda. Shunday ekan bo‘lajak pedagoglarning matn yaratish kompetensiaysini shakllantirish va uni takomillashtirish orqali pedagogga qo‘yilgan bu talablarni amalga oshirish mumkin.

Adabiyotlar:

1. Ziyodova T. “Matn yaratish texnologiyasi” /Monografiya/ T.: “Fan” nashriyoti. 2007. 143b
2. Гальперин И.Р. “Текст как объект лингвистического исследования”, Москва, 2007. -144с.
3. Yo‘ldoshev M., Muhamedova S., Saparniyazova M. Matn lingvistikasi [Matn]: o‘quv qo‘llanma /.- Toshkent: «Ishonchli hamkor», 2021. - 188 b
4. Mahmudov N., Yo‘ldoshev I., Rafiyev A. “Davlat tilida ish yuritish” /Darslik/. Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2007. -128 b
5. Asadov T.H. “Matn ligvistikasi” /O‘quv qo‘llanma/ Buxoro:”Sadriddin Salim Buxoriy” Durdona, 2023.
6. Ладыженская Т.А., Тростенцова Л.А., Баранов М.Т. и др. - М.: Просвещение, 2002. - 94 с.; Обучение русскому языку в 8 классе: Метод.рекомендации к учеб. для 8 класса общеобразовательных учреждений / Тростенцова Л.А., Ладыженская Т.А., Шеховцева И.А. и др. - М.: Просвещение, 2003. - 70 с.
7. Величко Л И. Работа над текстом на уроках. - Москва: Просвещение, 1983. 128 с.
8. Лосева Л.М. Как строится текст: пособие, для учителей. - М.: Просвещение, 1980. 96 с.

9. Львов М.Р. Методика развития речи младших школьников: Пособие для учителя. - 2-е изд., перераб - М.: Просвещение, 1985.;

10. Методика преподавания русского языка в начальных классах: учеб. пособие для студ. высш. пед. учеб. заведений / М. Р. Львов, В. Г. Горецкий, О. В. Сооновская - 3-е изд., стер. - М.: Издательский центр «Академия», 2007. -4 6 4 с.

11.Bracewell, R. J., Scardamalia, M., & Bereiter, C. (1978). The develooment of audience awareness in writing // Paper presented at the annual meeting of the American Educational Research Association, Toronto, March. (ERIC Document Reproduction Service No. 154 433). https://eric.ed.gov/?id=ED 154433; Britton, James. The Composing Processes and the Functions of Writing // In Research on Composing: Points of Departure. Eds. Cooper and Odell. Urbana: NCTE, 1978. 13-28. https://sci-hub.se/https://doi.org/10.2307/1170204; Burtis, P. J., Bereiter, C., Scardamalia, M., & Tetroe, J. (1983). The development of planning in writing. In B. Kroll & C. G. Wells (Eds.), Explorations in the development of writing (pp. 153-174). Chicester, England: Wiley.; Englert, C. S., & Hiebert, E.

12.Xaitova N.B. “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida XXI asr ko‘nikmalarini rivojlantirishning zamonaviy texnologiyalari: 5 e modeli, yangi avlod darsliklari va xorijiy tajribalar” Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari 2025-yil, 21-noyabr.

13.Mirhayitova S.I. Pedagogik texnologiya. (O‘quv qo‘llanma) T.-2020 59-b.

14.Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. (O‘quv qo‘llanma). O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg‘armasi nashriyoti. T.:-2006

KITOBXONLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHGA OID ILMIY NAZARIY MANBALAR TAHLILI

Xo‘jamova Gulmira Sag‘dullayevna,
Iqtisodiyot pedagogika universiteti 2-kurs magistranti

Ushbu maqolada kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy va pedagogik metodlar tizimi tahlil qilinadi. Maqola kitob o‘qishning ahamiyati, uning shaxsiy rivojlanish va bilim olishdagi o‘rni, shuningdek, kitobxonlikni kengaytirish va yosh avlodni kitobga qiziqtirishning samarali usullari haqida batafsil ma’lumot beradi. Ilmiy jihatdan kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish uchun pedagogik metodlarning o‘rni alohida ta’kidlanadi, jumladan, maktabda va o‘quv muassasalarida kitob o‘qishni rag‘batlantiruvchi metodikalar, o‘qish faoliyatini tashkil etish, shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishga yo‘naltirilgan pedagogik yondashuvlar keltirilgan. Maqolada, shuningdek, o‘qish madaniyatini shakllantirishning tarbiyaviy, ijtimoiy va madaniy ahamiyati, pedagogik usullarni samarali qo‘llashning nazariy asoslari va amaliy tajribalari tahlil etilgan. O‘qishning yosh avlod uchun ahamiyatini yoritish, shuningdek, kitobxonlikning zamonaviy pedagogik amaliyotlarda qanday rivojlanayotganiga oid fikrlar ilgari suriladi. Maqola ilmiy-ijtimoiy va pedagogik jamiyat uchun muhim tavsiyalarni o‘z ichiga oladi.

Kalit so‘zlar: *kitobxonlik madaniyati, ilmiy-nazariy manbalar, ta’lim jarayoni, ma’naviy tarbiya, mutolaa, pedagogik yondashuv.*

АНАЛИЗ НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИХ ИСТОЧНИКОВ ПО ФОРМИРОВАНИЮ КУЛЬТУРЫ ЧТЕНИЯ

В данной статье анализируется система научно-педагогических методов, направленных на развитие культуры чтения. В статье подробно рассматривается значение чтения, его роль в личностном развитии и приобретении знаний, а также эффективные методы расширения чтения и привлечения к книгам молодого поколения. Подчёркивается роль педагогических методов в развитии культуры чтения с научной точки зрения, включая методы, поощряющие чтение в школах и учебных заведениях, организацию читательской деятельности и педагогические подходы, направленные на личностное и социальное развитие. Также анализируется образовательное, социальное и культурное значение формирования культуры чтения, теоретические основы и практический опыт эффективного применения педагогических методов. Подчёркивается важность чтения для молодого поколения, а также выдвигаются идеи о развитии чтения в современной педагогической практике. Статья содержит важные рекомендации для научного, социального и педагогического сообщества.

Ключевые слова: *культура чтения, научные и теоретические источники, образовательный процесс, духовное воспитание, чтение, педагогический подход.*

ANALYSIS OF SCIENTIFIC AND THEORETICAL SOURCES ON THE FORMATION OF READING CULTURE

This article analyzes a system of scientific and pedagogical methods aimed at developing a reading culture. It examines in detail the importance of reading, its role in personal development and knowledge acquisition, and effective methods for promoting reading and engaging younger generations in books. It emphasizes the role of pedagogical methods in developing a reading culture from a scientific perspective, including methods for encouraging reading in schools and educational institutions, organizing reading activities, and pedagogical approaches aimed at personal and social development. It also analyzes the educational, social, and cultural significance of developing a reading culture, as well as the theoretical foundations and practical experience of effectively applying pedagogical methods. It emphasizes the importance of reading for the younger generation and puts forward ideas for developing reading in modern pedagogical practice. The article contains important recommendations for the scientific, social, and pedagogical communities.

Key words: *reading culture, scientific and theoretical sources, educational process, spiritual education, reading, pedagogical approach.*

Kirish. Bugungi globallashuv va axborot texnologiyalari rivojlangan davrda yoshlar orasida kitobxonlik madaniyatini shakllantirish muhim ijtimoiy-pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Kitob inson tafakkurini rivojlantiruvchi, ma’naviy olamini boyituvchi va shaxs kamolotini ta’minlovchi asosiy manba hisoblanadi. Shu bois kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish masalasi ilmiy-nazariy jihatdan chuqur o‘rganishni talab etadi. Mazkur maqolada kitobxonlik madaniyatiga oid ilmiy-nazariy manbalar tahlil qilinib, ularning ta’lim-tarbiya jarayonidagi ahamiyati ochib beriladi. Ilmiy manbalarda kitobxonlik madaniyati tushunchasiga turlicha yondashuvlar mavjud. Pedagogik nuqtayi nazardan, kitobxonlik madaniyati shaxsning kitob tanlash, uni ongli ravishda mutolaa qilish, mazmunini tahlil etish va hayotiy faoliyatida qo‘llash qobiliyatlarining majmuasi sifatida talqin etiladi. Psixologik manbalarda esa kitobxonlik madaniyati insonning bilish ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiluvchi intellektual faoliyat shakli sifatida ko‘riladi. Adabiyotshunoslikda esa mutolaa jarayoni estetik did va badiiy tafakkurni shakllantiruvchi omil sifatida baholanadi. O‘zbekistonlik olimlar tadqiqotlarida kitobxonlik madaniyatini shakllantirish masalasi ma’naviy-axloqiy tarbiya bilan uzviy bog‘liq holda yoritilgan. Ilmiy manbalarda kitob mutolaasi yoshlarning dunyoqarashini kengaytirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmatni shakllantirish vositasi sifatida e’tirof etiladi. Shuningdek, mahalliy pedagog olimlar kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishda ta’lim muassasalari, oila va kutubxonalar hamkorligining muhimligini alohida ta’kidlaydilar. Ularning fikricha, uzluksiz ta’lim tizimida kitobxonlikka yo‘naltirilgan pedagogik faoliyat samarali natija beradi.

Tadqiqot metodologiyasi va adabiyotlarning tahlili.

1. Tadqiqot metodologiyasi

Kitobxonlik madaniyatini shakllantirish masalasini o‘rganishda ilmiy tadqiqot metodologiyasi quyidagi yondashuvlar va metodlarni o‘z ichiga oladi:

Nazariy tahlil metodi – kitobxonlik madaniyati tushunchasi, uning mazmuni, tarkibi va pedagogik ahamiyatini aniqlash uchun ilmiy-nazariy manbalar tahlil qilindi. Shu orqali mahalliy va xorijiy olimlarning qarashlari solishtirildi.

Komparativ tahlil – turli mamlakatlardagi kitobxonlikni rivojlantirish tajribalari, pedagogik yondashuvlar va metodlarni taqqoslash imkonini berdi. Bu metod yordamida kitobxonlik madaniyatini shakllantirishning samarali pedagogik strategiyalari aniqlandi.

Sistematik tahlil – adabiyotlar tizimli ravishda kategoriyalarga ajratildi: pedagogik, psixologik, ijtimoiy va kutubxonashunoslik manbalari. Bu usul tadqiqotning ilmiy asosini mustahkamladi.

Sintetik usul – turli manbalardagi nazariy qarashlar va ilmiy xulosalar birlashtirilib, umumiy konseptual yondashuv ishlab chiqildi.

Analitik metod – kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda ta’lim jarayonida qo‘llaniladigan interfaol va innovatsion metodlarning samaradorligi baholandi.

Ushbu metodlar birgalikda kitobxonlik madaniyatining nazariy asoslarini chuqur o‘rganishga imkon berdi va tadqiqotning ilmiy ishonchliligini ta’minladi.

2. Adabiyotlarning tahlili

Tahlil qilingan ilmiy manbalar ikki asosiy guruhga bo‘lingan: mahalliy va xorijiy ilmiy adabiyotlar.

2.1 Mahalliy manbalar

O‘zbekiston olimlari kitobxonlik madaniyatini shaxsning ma’naviy va intellektual rivojlanishidagi asosiy omil sifatida qarashadi. Masalan:

A. Xolmatov (2018) kitobxonlik madaniyati pedagogik jarayon bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, yoshlarni ma’naviy barkamollikka yetaklashini ta’kidlaydi.

S. Yo‘ldoshev (2020) o‘quvchilarning mustaqil mutolaa qilish ko‘nikmalarini shakllantirishda kutubxona va ta’lim muassasalarining hamkorligi muhimligini e’tirof etadi.

Mahalliy tadqiqotlarda kitobxonlik madaniyati yoshlarning milliy qadriyatlarga hurmatini rivojlantirish vositasi sifatida ham tahlil qilingan.

Kitobxonlik madaniyati faqat o‘qish ko‘nikmasi emas, balki shaxsning ma’naviy va ijtimoiy rivojlanishining muhim omili hisoblanadi. Mahalliy va xorijiy manbalar kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda uzluksizlik, tizimlilik va interfaol pedagogik yondashuvlarning muhimligini tasdiqlaydi. Zamonaviy davrda raqamli va an’anaviy mutolaa shakllarini uyg‘unlashtirish yoshlarning kitobga bo‘lgan qiziqishini oshiradi.

Natija va munozalar. Tahlil qilingan ilmiy manbalar va pedagogik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, kitobxonlik madaniyati shaxsning intellektual, ma’naviy va ijtimoiy rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Mahalliy va xorijiy olimlarning nazariy qarashlari asosida quyidagi natijalar aniqlanishi mumkin:

Kitobxonlik madaniyati shaxs kamolotining asosiy omili hisoblanadi. O‘quvchilarda mutolaa ko‘nikmasini rivojlantirish orqali ularning tanqidiy fikrlashi, ijodiy qobiliyati va ma’naviy barkamolligi shakllanadi.

Ta’lim-tarbiya jarayonida kitobxonlik madaniyatini shakllantirish tizimli yondashuvni talab qiladi. Bu o‘quv jarayonida fanlararo integratsiya, uzluksiz ta’lim va interfaol pedagogik metodlardan samarali foydalanishni nazarda tutadi.

O‘qituvchi va kutubxonaning roli muhimdir. Mahalliy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘qituvchi shaxsiy namunaligi va pedagogik mahorati orqali yoshlarni kitobga qiziqtiradi, kutubxonalar esa mustaqil mutolaa va ilmiy izlanishlarni qo‘llab-quvvatlaydi.

Raqamli va an’anaviy mutolaa shakllarini uyg‘unlashtirish zarur. Xorijiy manbalarda elektron kitoblar, onlayn kutubxonalar va multimedia vositalari orqali kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishning samarali usullari yoritilgan.

Muhokama shuni ko‘rsatadiki, kitobxonlik madaniyatini shakllantirish jarayonida nafaqat metodik va texnologik yondashuvlar, balki pedagogik va ijtimoiy omillar ham ahamiyatga ega. Shu bois, pedagogik jarayonda kitobni mutolaa qilishning samarali usullari, yoshlarning qiziqishi va ehtiyojlari, shuningdek oila va jamoatchilikning roli birgalikda hisobga olinishi lozim.

Shuningdek, ilmiy manbalar tahlili kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishda pedagogik innovatsiyalar, loyiha faoliyati va interfaol metodlarning qo‘llanishi yoshlarning bilim olish jarayonini faol va ongli qilishi mumkinligini ko‘rsatdi.

Umuman olganda, kitobxonlik madaniyatini shakllantirishning ilmiy-nazariy asoslari pedagogik jarayonda uzviy va izchil ravishda qo‘llanilganda, u nafaqat shaxsning ma’naviy rivojlanishiga, balki jamiyatning ma’naviy barqarorligiga ham sezilarli hissa qo‘shadi.

"Yoshlarimizga munosib ta'lim berish, ularning ilm-fanga bo'lgan intilishlarini ro'yobga chiqarishimiz kerak. Shu maqsadda maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishimiz, o'rta va oily o'quv yurtlarining moddiy-texnik bazasini, ilmiy va o'quv jarayonlari sifatini tubdan yaxshilashimiz kerak",-deydi yurtboshimiz. Ta'lim sohasi faoliyatini kitoblarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Ta'lim jarayonida o'quvchi ham, o'qituvchi ham bevosita kitob mutolaasiga ehtiyoj sezadi. Bu quvonarli, albatta. Lekin hozirgi kunda o'quvchilar asosan ilmiy adabiyotlar, darslik va qo'llanmalardan foydalanayotganlari bois badiiy asarlar mutolaasiga vaqt ajratishga imkoniyatlari cheklanyapti. O'quvchi faqat adabiyot darsida o'qituvchi bergan vazifani bajarish uchungina badiiy asarlarni qo'lga olyapti. Natijada esa ma'lum: mutolaa jarayoni sevimli mashg'ulot emas, majburiyatga aylanib qoladi. Kitob mutolaasiga havasi bolalikdan paydo bo'lmagan o'quvchi keyinchalik berilgan katta hajmli asarlarni o'qishga kuch topolmaydi, ishtiyoq sezmaydi, xohish bildirmaydi, faqat darslikda berilgan qisqartirilgan parcha bilangina tanishadi va yozuvchining butun asar mazmuniga singdirib yuborgan pafosini, g'oyaviy-badiiy maqsadini to'la anglolmaydi, badiiy asarlarning haqiqiy zavqidan bebahra qoladi, adabiyotning haqiqiy kuchini, qudratini his qilmaydi, natijada kitob o'qishga mehr qo'ymaydi. Kam o'qishning salbiy oqibatlari juda ko'p: kishida mustaqil fikrlash qobiliyati, voqelikni teran idrok etish, hodisalarga munosabat bildira olish, oq-qorani farqlay bilish ko'nikmalari to'liq shakllanmaydi; milliy madaniyat, tarix va an'analar bilan keng tanish bo'lmaydi; ma'naviy qashshoqlik va ojizlik kelib chiqadi; hayotda muammolarga duch kelganda yechim topishga qiynaladi, o'zini irodasiz sanaydi; savodxonligi past bo'ladi, so'z boyligi kamligi sababli fikrini to'la ifodalab berolmaydi; madaniy nutq uchun qo'yiladigan (aniqlik, to'grilik, mantiqiy muvofiqlik, jo'yalilik, soflik kabi) talablarga mos, kompozitsion jihatdan mukammal matn yaratishda, jumlalar tuzishda qiyinchiliklarga duch keladi. Buning isboti sifatida aytishimiz mimkinki, ona tili va adabiyot darslarida insho, bayon, diktant yozdirganimizda, aksariyat ta'lim oluvchilarning yozma ishida juda ko'p imlo, ishoraviy va uslubiy xatolar uchrashiga, ko'pchilik o'quvchilarning ijodiy ishlari saviyasi juda past ekanligiga guvoh bo'lamiz. Hatto darsda o'rganilayotgan badiiy parchalarni g'oyaviy-badiiy tahlil qilishda, ularning estetik ta'siri haqida bahs-munozara qilishda o'quvchi jo'yali fikr aytolmaydi, munosabat bildirolmaydi. O'quvchi bilan suhbat o'tkazganimizda ular oxirgi marta qachon qaysi badiiy asarni o'qiganlarini aytolmaydilar, mutolaa qilgan badiiy asarlari ro'yxati bilan qiziqqanimizda, afsuski, ularning nomi sanoqligina bo'ladi. Bunday muammolarni bartaraf etish uchun o'quvchilarga har hafta bitta ma'lum nomdagi badiiy asarni o'qishni topshiriq sifatida beramiz va belgilangan muddatda guruh o'quvchilari bilan o'sha asarning g'oyaviy-badiiy jihatlarini o'rganib chiqamiz.

Mustaqil o'qish uchun berilgan asarlarni tahlil qilganimizda o'quvchida badiiy kitob o'qish ishtiyoqi ortganining, unda hayrat, zavq paydo bo'layotganining guvohi bo'lamiz. Demak, yosh avlodning ma'naviy ehtiyojini qondirish uchun ularga kitob tanlashni, uni o'qishni, tahlil qilishni muntazam o'rgatib borish kerak, buning uchun esa, bizningcha, adabiyot va ona tili fanlaridan dars soatlarini ko'paytirish, mashg'ulotlarni guruhlarga bo'lib o'tkazilishi tashkil etish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Buning natijasida tahsil oluvchilarga individual yondashish imkoni ortadi, darslarning samaradorligi oshishiga erishiladi. Shuningdek, o'quvchilar mutaxassis o'qituvchilar bilan ko'proq suhbatda bo'lib, ulardan tajriba o'rganadilar. Ta'lim-tarbiya jarayonida tom ma'noda davr talabiga mos haqiqiy vatanparvar, salohiyatli, dadil yoshlarni, g'oyaviy-mafkuraviy va

intellektual jihatdan yetuk kadrlarni tayyorlashda, zarur ma'naviy ehtiyojlarni qondirishda adabiyot darslarining insonshunoslik, ruhshunoslik, axloqshunoslik sifatlari to'la namoyon bo'ladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, shubhasiz, insonlarning ehtiyojlari oshib boraveradi, lekin har qanday davrda ma'naviy ehtiyojning qadri ortsa ortadiki, hech qachon yo'qolmaydi. Ma'naviy tanazzul jamiyat tanazzuliga sabab bo'ladi, ma'naviy barkamollik jamiyat taraqqiyotiga asosiy mustahkam poydevor vazifasini bajaradi. Kitobxonlik madaniyatini shakllantirish masalasi yosh avlodning intellektual, ma’naviy va ijtimoiy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Ilmiy-nazariy manbalar tahlili shuni ko‘rsatdiki, kitobxonlik madaniyati faqat o‘qish ko‘nikmasi emas, balki shaxsning tafakkur darajasini oshiruvchi, tanqidiy fikrlash va ijodiy qobiliyatni rivojlantiruvchi asosiy omil hisoblanadi.

Tahlil qilingan mahalliy va xorijiy manbalar kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda tizimlilik, uzluksizlik va interfaol pedagogik yondashuvlarning muhimligini tasdiqlaydi. Pedagogik jarayonda o‘qituvchi shaxsiy namunasi, kutubxona va ta’lim muassasalari bilan hamkorlik, shuningdek, raqamli va an’anaviy mutolaa shakllarini uyg‘unlashtirish samarali natijalarga olib keladi. Shu bilan birga, kitobxonlik madaniyati yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat bilan tarbiyalash, ularning dunyoqarashini kengaytirish va jamiyatning ma’naviy barqarorligini ta’minlashda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - T.: O‘zbekiston, 2017. - 488 b.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida ‘gi Farmoni. // Harakatlar strategiyasi asosida jadal taraqqiyot va yangilanish sari. - T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017. - 92 b.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. - "Zarafshon", 2018-yil 29-dekabr, 155-156-son.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. - "Zarafshon", 2020-yil 30-dekabr.
5. O‘zbekistonga jadal islohotlar sur'atiga mos ilg'or kadrlar kerak. - "Xalq so'zi", 2018-yil 19-dekabr, 262-son.
6. Ahmedova Z. Bola tarbiyasida psixolog maslahatlari. - Toshkent, 2018.
7. www. ziyonet.uz.
8. www. edu.uz.
9. www. kitob.uz.

OLIY TA’LIMDA TEXNOLOGIK TA’LIM NAZARIYASINING MAZMUNI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

Xolmurodov Dilmurod Sobir o‘g‘li,
Qarshi davlat universiteti
Texnologik ta’lim kafedrasi katta o‘qituvchisi, p.f.f.d (PhD)
Tursunova Sevara Yusuf qizi,
Qarshi davlat universiteti tayanch doktoranti

Ushbu maqolada oliy ta’lim tizimida texnologik ta’lim nazariyasining mazmuni, uning shakllanishi va rivojlanish bosqichlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Texnologik ta’limning metodologik asoslari, pedagogik tamoyillari hamda zamonaviy ta’lim paradigmalari bilan uzviy bog‘liqligi yoritib beriladi. Maqolada kompetensiyaviy yondashuv asosida texnologik ta’limni tashkil etish masalalari, talabalarda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishda innovatsion pedagogik texnologiyalar va raqamli ta’lim vositalarining o‘rni tahlil etiladi. Shuningdek, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, raqamli platformalar va interfaol ta’lim metodlarining oliy ta’lim jarayoniga integratsiyasi orqali ta’lim samaradorligini oshirish imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari texnologik ta’lim nazariyasining rivojlanishi oliy ta’lim sifatini oshirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash hamda zamonaviy mehnat bozori talablariga mos mutaxassislarni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: *texnologik ta’lim, oliy ta’lim, ta’lim nazariyasi, pedagogik texnologiya, innovatsiya, kompetensiya.*

СОДЕРЖАНИЕ И ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ ТЕОРИИ ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ В СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ

В статье представлен теоретико-аналитический анализ содержания, этапов формирования и тенденций развития теории технологического образования в системе высшего образования. Рассматриваются методологические основы и педагогические принципы технологического образования, а также его взаимосвязь с современными образовательными парадигмами. Особое внимание уделяется вопросам организации технологического образования на основе компетентностного подхода, роли инновационных педагогических технологий и цифровых образовательных средств в формировании профессиональных компетенций обучающихся. Кроме того, анализируются возможности повышения эффективности образовательного процесса за счёт интеграции информационно-коммуникационных технологий, цифровых платформ и интерактивных методов обучения в систему высшего образования. Результаты исследования свидетельствуют о том, что развитие теории технологического образования является важным фактором повышения качества высшего образования, подготовки конкурентоспособных кадров и соответствия требованиям современного рынка труда.

Ключевые слова: *технологическое образование, высшее образование, теория образования, педагогическая технология, инновация, компетенция.*

CONTENT AND DEVELOPMENT TRENDS OF TECHNOLOGICAL EDUCATION THEORY IN HIGHER EDUCATION

This article provides a theoretical and analytical study of the content, formation, and development stages of the theory of technological education in the higher education system. The methodological foundations and pedagogical principles of technological education, as well as its relationship with modern educational paradigms, are examined. Particular attention is paid to the organization of technological education based on a competency-based approach and the role of innovative pedagogical technologies and digital learning tools in the formation of students’ professional competencies. The article also analyzes the possibilities of increasing educational effectiveness through the integration of information and communication technologies, digital platforms, and interactive teaching methods into the higher education process. The research findings indicate that the development of the theory of technological education plays a significant role in improving the quality of higher education, training competitive specialists, and meeting the demands of the modern labor market.

Keywords: *technological education, higher education, educational theory, pedagogical technology, innovation, competence.*

Kirish. Zamonaviy jamiyatning jadal texnologik rivojlanishi oliy ta’lim tizimi oldiga yangi va murakkab vazifalarni qo‘ymoqda. Bugungi kunda oliy ta’lim nafaqat bilim beruvchi, balki bo‘lajak mutaxassislarni innovatsion fikrlovchi, raqobatbardosh va kasbiy jihatdan yetuk shaxs sifatida shakllantiruvchi muhim ijtimoiy institutga aylanmoqda.Shu nuqtayi nazardan, texnologik ta’lim nazariyasi oliy ta’lim jarayonini ilmiy asosda tashkil etish, o‘qitish samaradorligini oshirish va ta’lim natijalarini kafolatlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolaning maqsadi — oliy ta’limda texnologik ta’lim nazariyasining mazmunini ochib berish hamda uning rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilishdan iborat. Bugungi kunda jamiyatning barqaror rivojlanishi, fan-texnika taraqqiyoti va raqamli texnologiyalarning jadal sur’atlarda rivojlanishi oliy ta’lim tizimi oldiga mutlaqo yangi vazifalarni qo‘ymoqda. Zamonaviy oliy ta’lim muassasalari nafaqat fundamental bilimlarga ega bo‘lgan mutaxassislarni tayyorlash, balki bo‘lajak kadrlarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, ularni innovatsion faoliyatga tayyorlash hamda mehnat bozorining o‘zgaruvchan talablariga moslashtirishni taqozo etmoqda. Shu sababli ta’lim jarayonini samarali tashkil etishning ilmiy asoslangan mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.Mazkur jarayonda texnologik ta’lim nazariyasi ta’lim jarayonini loyihalash, tashkil etish, boshqarish va baholashning zamonaviy yondashuvlarini o‘zida mujassamlashtirgan muhim pedagogik yo‘nalish sifatida namoyon bo‘lmoqda. Texnologik ta’lim nazariyasi ta’lim maqsadlarini aniq belgilash, o‘quv jarayonini oldindan rejalashtirish, o‘qitish metodlari va vositalarini samarali tanlash hamda kutilayotgan natijalarga erishishni kafolatlashga yo‘naltirilganligi bilan an’anaviy ta’limdan tubdan farq qiladi.

Oliy ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, xususan, kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan davlat ta’lim standartlarining joriy etilishi texnologik ta’lim nazariyasining amaliy ahamiyatini yanada oshirmoqda. Ushbu yondashuv talabalarning faqat nazariy bilimlarini emas, balki ularning amaliy faoliyatga tayyorgarligi, mustaqil fikrlashi, muammolarni hal etish qobiliyati hamda kasbiy moslashuvchanligini rivojlantirishni nazarda tutadi. Natijada ta’lim jarayoni shaxsga yo‘naltirilgan va natijaviy xarakter kasb etadi. Shuningdek, so‘nggi yillarda raqamli texnologiyalar, axborot-kommunikatsiya vositalari, masofaviy va gibrid ta’lim shakllarining jadal rivojlanishi texnologik ta’lim nazariyasining yangi rivojlanish bosqichini boshlab berdi. Elektron ta’lim platformalari, virtual laboratoriyalar, interfaol o‘qitish metodlari ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish bilan birga, uning tashkiliy va metodik imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Biroq ushbu imkoniyatlardan samarali foydalanish texnologik ta’lim nazariyasining ilmiy asoslarini chuqur o‘rganishni talab etadi. Mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, texnologik ta’lim nazariyasining ayrim jihatlari yetarlicha o‘rganilgan bo‘lsa-da, oliy ta’lim tizimida uning mazmuni va rivojlanish tendensiyalarini kompleks tahlil qilish masalasi hanuz dolzarb bo‘lib qolmoqda. Ayniqsa, texnologik ta’limni kompetensiyaviy va raqamli yondashuvlar bilan uyg‘unlashtirish masalalari chuqur ilmiy tadqiqotlarni talab etadi.

Shu munosabat bilan, mazkur maqolaning asosiy maqsadi oliy ta’lim tizimida texnologik ta’lim nazariyasining mazmunini tahlil qilish, uning metodologik asoslarini aniqlash hamda zamonaviy rivojlanish tendensiyalarini ilmiy jihatdan asoslab berishdan iborat. Maqola natijalari oliy ta’lim muassasalarida texnologik ta’limni samarali tashkil etish va ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili va tadqiqot metodologiyasi. Texnologik ta’lim nazariyasi masalalari pedagogika fanida uzoq yillardan buyon tadqiq etib kelinmoqda. Xususan, pedagogik texnologiya tushunchasining ilmiy asoslari xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan turli jihatlarda yoritilgan. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, texnologik ta’lim ta’lim jarayonini tizimli, natijaga yo‘naltirilgan va kafolatlangan holda tashkil etish imkonini beradi.

Xorijiy tadqiqotchilar, jumladan B. Bloom, R. Gagné, M. Merrill va boshqalar ta’limni loyihalash, o‘qitish maqsadlarini aniqlash hamda ta’lim natijalarini baholash masalalariga alohida e’tibor qaratganlar. Ularning ilmiy qarashlarida texnologik yondashuv ta’lim samaradorligini oshiruvchi muhim omil sifatida talqin etiladi.

MDH va mahalliy olimlar tadqiqotlarida (V.P. Bespalko, N.F. Talizina, Sh.M. Mirziyoyev ta’lim strategiyalari, N.A. Muslimov va boshqalar) texnologik ta’lim nazariyasining mohiyati, uning didaktik imkoniyatlari hamda oliy ta’limdagi ahamiyati keng yoritilgan. Ushbu ishlarda texnologik ta’lim an’anaviy o‘qitishdan farqli ravishda talabaning faol ishtirokiga, mustaqil ta’lim olishiga va kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltirilganligi ta’kidlanadi.

Shuningdek, so‘nggi yillarda olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda raqamli texnologiyalar, masofaviy ta’lim va elektron ta’lim platformalarining texnologik ta’lim nazariyasiga ta’siri alohida o‘rganilmoqda.

Biroq mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, oliy ta’limda texnologik ta’lim nazariyasining mazmuni va rivojlanish tendensiyalarini kompleks tahlil qilishga bag‘ishlangan tadqiqotlar yetarli emas. Mazkur maqola ana shu ilmiy bo‘shliqni qisman to‘ldirishga qaratilgan. Mazkur tadqiqot oliy ta’limda texnologik ta’lim nazariyasining mazmuni va rivojlanish tendensiyalarini aniqlashga yo‘naltirilgan bo‘lib, unda umumilmiy va maxsus pedagogik metodlardan foydalanildi.Tadqiqot jarayonida nazariy tahlil metodi asosiy metod sifatida qo‘llanildi. Ushbu metod yordamida texnologik ta’limga oid pedagogik, psixologik va metodik adabiyotlar, ilmiy maqolalar hamda normativ-huquqiy hujjatlar o‘rganildi va tahlil qilindi.

Taqqoslash metodi orqali an’anaviy ta’lim yondashuvi bilan texnologik ta’lim yondashuvi o‘rtasidagi farqlar aniqlanib, texnologik ta’limning ustun jihatlari asoslab berildi.

Umumlashtirish va tizimlashtirish metodlari yordamida turli ilmiy manbalarda keltirilgan qarashlar yagona tizimga solindi hamda texnologik ta’lim nazariyasining asosiy mazmuniy komponentlari belgilandi.

Shuningdek, tahliliy yondashuv asosida oliy ta’lim tizimida kuzatilayotgan zamonaviy rivojlanish tendensiyalari — kompetensiyaviy yondashuv, raqamli va masofaviy ta’lim, interfaol metodlarning joriy etilishi baholandi. Ushbu metodologik yondashuvlar tadqiqot natijalarining ilmiy asoslanganligini ta’minladi. Mazkur tadqiqotda quyidagi ilmiy-tadqiqot metodlaridan foydalanildi:

nazariy tahlil – pedagogik, psixologik va metodik adabiyotlarni o‘rganish orqali texnologik ta’lim nazariyasining mazmunini aniqlash;

taqqoslash metodi – an’anaviy va texnologik ta’lim yondashuvlarini solishtirish;

umumlashtirish – texnologik ta’limga oid ilmiy qarashlarni tizimlashtirish;

tahliliy yondashuv – oliy ta’limdagi zamonaviy tendensiyalarni baholash.

Ushbu metodlar texnologik ta’lim nazariyasining rivojlanish yo‘nalishlarini aniqlash imkonini berdi.

Olib borilgan nazariy tahlil natijalari oliy ta’lim tizimida texnologik ta’lim nazariyasi ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi muhim omil ekanini ko‘rsatdi. Tadqiqot jarayonida texnologik ta’lim nazariyasining mazmuni, uning tarkibiy qismlari hamda oliy ta’limdagi amaliy ahamiyati tahlil qilindi.

Tahlil natijalariga ko‘ra, texnologik ta’lim nazariyasining asosiy mazmuni quyidagi komponentlardan iborat ekani aniqlandi: ta’lim maqsadlarini aniq belgilash, o‘quv jarayonini oldindan loyihalash, o‘qitish metodlari va vositalarini optimallashtirish hamda ta’lim natijalarini monitoring qilish. Ushbu komponentlarning o‘zaro uyg‘unligi ta’lim jarayonining tizimliligi va natijaviyligini ta’minlaydi.

Shuningdek, oliy ta’lim muassasalarida texnologik ta’lim yondashuvi asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlarda talabalarning o‘quv faolligi va mustaqil ta’limga bo‘lgan qiziqishi oshgani kuzatildi. Nazariy bilimlar amaliy faoliyat bilan integratsiyalashgan holda berilishi talabalarda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Tahlil davomida texnologik ta’lim nazariyasining rivojlanish tendensiyalari ham aniqlashtirildi. Jumladan, kompetensiyaviy yondashuvning ustuvorligi, modulli ta’lim tizimining keng joriy etilishi, interfaol metodlar va raqamli texnologiyalardan foydalanishning ortib borayotgani asosiy tendensiyalar sifatida belgilandi. Masofaviy ta’lim va elektron o‘quv platformalarining rivojlanishi texnologik ta’limning imkoniyatlarini yanada kengaytirayotgani aniqlandi.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, texnologik ta’lim nazariyasi asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni an’anaviy yondashuvga nisbatan yuqori samaradorlikka ega. Xususan, ta’lim natijalarining aniqligi, talabalarning o‘zlashtirish darajasining barqarorligi va amaliy ko‘nikmalarning shakllanishi texnologik ta’limning ustun jihatlari sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Umuman olganda, tahlil va natijalar oliy ta’lim tizimida texnologik ta’lim nazariyasini keng joriy etish ta’lim sifatini oshirish, bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligini kuchaytirish hamda zamonaviy mehnat bozori talablariga mos kadrlar tayyorlashga xizmat qilishini tasdiqlaydi.

Oliy ta’limda texnologik ta’lim nazariyasining asosiy komponentlari va ularning natijalarga ta’siri.

1-jadval.

№	Texnologik ta’lim elementi	Ta’lim jarayonidagi roli	Natijaviylik Samaradorlik
1	Ta’lim maqsadlarini aniqlash	Mashg‘ulotlar va o‘quv faoliyatini maqsadga yo‘naltirish	Talabaning bilimni o‘zlashtirish darajasi oshadi
2	O‘quv jarayonini loyihalash	Dars rejasi, metod va vositalarni oldindan belgilash	Ta’lim jarayoni tizimli va samarali bo‘ladi
3	Kompetensiyaviy yondashuv	Nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan bog‘lash	Talabalarda kasbiy kompetensiyalar shakllanadi

4	Interfaol metodlar	O‘quv materialini modullarga bo‘lish	Ma’lumotlarni tizimli o‘zlashtirish va mustaqil ta’limni rivojlantirish
5	Raqamli va masofaviy texnologiyalar	Talabaning faol ishtirokini ta’minlash	O‘quv motivatsiyasi va faol ishtirok oshadi

O‘tkazilgan tahlil va olingan natijalar oliy ta’lim tizimida texnologik ta’lim nazariyasining ahamiyati tobora ortib borayotganini ko‘rsatadi. Tadqiqot jarayonida aniqlangan natijalar avvalgi ilmiy tadqiqotlar bilan uyg‘un bo‘lib, texnologik yondashuv ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishini tasdiqlaydi. Xususan, pedagogik texnologiyalarga asoslangan ta’lim modeli talabalarning faolligi, mustaqil fikrlashi va kasbiy kompetensiyalarining rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Muhokama jarayonida aniqlanishicha, texnologik ta’lim nazariyasi an’anaviy ta’limdan farqli ravishda faqat bilim berishga emas, balki ta’lim natijalarini oldindan rejalashtirish va kafolatlashga yo‘naltirilgan. Bu yondashuv o‘qituvchi va talaba faoliyatining o‘zaro uyg‘unligini ta’minlab, ta’lim jarayonida tizimlilik va izchillikni kuchaytiradi.

Shuningdek, raqamli va masofaviy ta’lim texnologiyalarining jadal rivojlanishi texnologik ta’lim nazariyasining yangi imkoniyatlarini yuzaga chiqarmoqda. Biroq, ushbu yondashuvni samarali tatbiq etish uchun oliy ta’lim muassasalarida pedagog kadrlarning texnologik va metodik tayyorgarligini oshirish zarurati mavjudligi ham muhokama davomida aniqlandi.

Muhokama va xulosa. Xulosa qilib aytganda, oliy ta’limda texnologik ta’lim nazariyasi ta’lim jarayonini modernizatsiya qilish, ta’lim sifatini oshirish va zamonaviy mehnat bozori talablariga mos mutaxassislar tayyorlashda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari texnologik ta’lim yondashuvi asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni yuqori samaradorlikka ega ekanini ko‘rsatdi.

Texnologik ta’lim nazariyasining mazmuni va rivojlanish tendensiyalari kompetensiyaviy yondashuv, modulli ta’lim, interfaol metodlar hamda raqamli texnologiyalar bilan chambarchas bog‘liq ekanligi aniqlandi. Ushbu yo‘nalishlarni oliy ta’lim amaliyotiga keng joriy etish ta’lim jarayonining natijadorligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Kelgusida olib boriladigan tadqiqotlarda texnologik ta’lim nazariyasining empirik asoslarini kengaytirish, ya’ni eksperimental tadqiqotlar va statistik tahlillar orqali uning samaradorligini yanada chuqur o‘rganish maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar:

1. Kuchkorova Nurjahon Begmurod qizi. Boshlang‘ich sinflarda kreativlikni rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish. // ADPI Ilmiy xabarnomasi. № 1, 2025, mart.

2. Xolmurodov Dilmurod Sobir o‘g‘li.Fundamentallashtirish tamoyili asosida texnologiya fanlarini o‘qitish metodikasini takomillashtirish. Qarshi. - 2025.

3. Muslimov N.A. Pedagogik texnologiyalar va ularni ta’lim jarayonida qo‘llash. — Toshkent: O‘qituvchi, 2015.

4. Jo‘rayev R.X. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. — Toshkent: Fan, 2018.

5. UNESCO. Education 2030: Incheon Declaration and Framework for Action. — Paris, 2015.

6. Anderson L.W., Krathwohl D.R. A Taxonomy for Learning, Teaching, and Assessing. — New York: Longman, 2001.

SHAXS SALOMATLIK XULQINING SHAKLLANISHIDA MOTIVATSION DETERMINANTLARNING PSIXOLOGIK TAHLILI

Jumaniyazova Ilmira Kamiljanovna,
Ma’mun universiteti NTM dotsenti, p.f.f.d. (PhD)
temperament88@mail.ru

Mazkur maqolada salomatlik xulqi shakllanishida motivatsion omillarning roli tahlil qilinadi. Sog‘liq psixologiyasi doirasida biopsixosotsial model, o‘zini belgilash nazariyasi hamda sog‘liqni anglash modeli asosida salomatlik xulqining nazariy jihatlari yoritilgan. Tadqiqot natijalari ichki motivatsiya va o‘zini nazorat qilish sog‘lom turmush tarzini barqaror shakllantirishda muhim determinantlar ekanligini ko‘rsatdi. Tashqi motivatsiya ma’lum darajada ta’sir ko‘rsatsa-da, uning uzoq muddatli samaradorligi cheklanganligi aniqlandi. Shuningdek, yuqori stress darajasi salomatlik xulqiga salbiy ta’sir qilishi kuzatildi. Olingan natijalar salomatlik psixologiyasi sohasida profilaktik va psixokorreksion dasturlarni ishlab chiqishda nazariy va amaliy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Kalit so‘zlar: *salomatlik xulqi, motivatsiya, ichki motivatsiya, o‘zini nazorat qilish, stress, sog‘lom turmush tarzi, salomatlik psixologiyasi.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ МОТИВАЦИОННЫХ ДЕТЕРМИНАНТ В ФОРМИРОВАНИИ ЗДОРОВЬЕСБЕРЕГАЮЩЕГО ПОВЕДЕНИЯ ЛИЧНОСТИ

В данной статье анализируется роль мотивационных факторов в формировании здоровьесберегающего поведения. В рамках психологии здоровья освещены теоретические аспекты данного поведения на основе биопсихосоциальной модели, теории самодетерминации и модели убеждений о здоровье. Результаты исследования показали, что внутренняя мотивация и самоконтроль являются важными детерминантами в устойчивом формировании здорового образа жизни. Хотя внешняя мотивация и оказывает определённое влияние, было установлено, что её долгосрочная эффективность ограничена. Также наблюдалось, что высокий уровень стресса отрицательно влияет на здоровьесберегающее поведение. Полученные результаты могут служить теоретической и практической основой для разработки профилактических и психокоррекционных программ в области психологии здоровья.

Ключевые слова: *здоровьесберегающее поведение, мотивация, внутренняя мотивация, самоконтроль, стресс, здоровый образ жизни, психология здоровья.*

PSYCHOLOGICAL ANALYSIS OF MOTIVATIONAL DETERMINANTS IN THE FORMATION OF INDIVIDUAL HEALTH BEHAVIOR

This article analyzes the role of motivational factors in the formation of health behavior. Within health psychology, the theoretical aspects of health behavior are elucidated based on the biopsychosocial model, self-determination theory, and the health belief model. The research findings showed that internal motivation and self-control are important determinants for the sustainable formation of a healthy lifestyle. Although external motivation exerts some influence, its long-term effectiveness was found to be limited. Furthermore, it was observed that high levels of stress negatively affect health behavior. The obtained results can serve as a theoretical and practical basis for developing preventive and psycho-correctional programs in the field of health psychology.

Keywords: *health behavior, motivation, internal motivation, self-control, stress, healthy lifestyle, health psychology.*

Kirish Zamonaviy jamiyatda inson salomatligi nafaqat tibbiy muammo, balki kompleks biopsixosotsial hodisa sifatida qaralmoqda. So‘nggi yillarda yurak-qon tomir kasalliklari, qandli diabet, semirish, gipertoniya kabi surunkali kasalliklarning ortib borishi sog‘liqni saqlash tizimida profilaktik yondashuvning ahamiyatini kuchaytirdi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ko‘plab somatik kasalliklarning kelib chiqishi va rivojlanishida shaxsning kundalik xulq-atvori hal qiluvchi omil hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, salomatlik xulqi tushunchasi psixologiya va tibbiyot kesishgan nuqtada dolzarb ilmiy yo‘nalish sifatida shakllanmoqda.

Salomatlik xulqi deganda insonning sog‘lig‘ini saqlash, mustahkamlash va kasalliklarning oldini olishga qaratilgan ongli harakatlari, odatlari va qaror qabul qilish jarayonlari tushuniladi. Bunga to‘g‘ri ovqatlanish, jismoniy faollik, zararli odatlardan voz kechish, stressni boshqarish, profilaktik tibbiy ko‘riklardan o‘tish kabi faoliyatlar kiradi. Biroq amaliyot shuni ko‘rsatadiki, insonlar sog‘lom turmush tarzi zarurligini bilsalar-da, har doim ham unga amal qilmaydilar. Mazkur qarama-qarshilik salomatlik xulqining psixologik mexanizmlarini, xususan, motivatsion omillarni chuqur o‘rganishni talab etadi. Salomatlik xulqining shakllanishi tasodifiy jarayon emas, balki shaxsning ehtiyojlari, qadriyatlari, e’tiqodlari va ichki motivatsion tizimi bilan chambarchas bog‘liqdir. Motivatsiya inson faoliyatining ichki harakatlantiruvchi kuchi bo‘lib, u maqsad qo‘yish, qaror qabul qilish va xatti-harakatni davom ettirish jarayonlarida markaziy rol o‘ynaydi. Agar shaxsda sog‘lom hayot tarziga nisbatan ichki qiziqish va anglangan ehtiyoj mavjud bo‘lsa, salomatlik xulqi barqaror va uzoq muddatli bo‘ladi. Aksincha, faqat tashqi bosim yoki vaqtinchalik omillar ta’sirida shakllangan xulq tez so‘nib qolishi mumkin.

Zamonaviy salomatlik psixologiyasi doirasida motivatsiya masalasi turli nazariy yondashuvlar asosida talqin qilinadi. Jumladan, biopsixosotsial model inson salomatligini biologik, psixologik va ijtimoiy omillar birligida ko‘rib chiqadi. Bu yondashuvga ko‘ra, sog‘lom xulqni shakllantirishda faqat fiziologik omillar emas, balki shaxsning ichki motivatsiyasi, emotsional holati va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlanishi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, o‘zini belgilash nazariyasi doirasida ichki motivatsiyaning avtonomiya, kompetentlik va ijtimoiy bog‘liqlik ehtiyojlari bilan bog‘liqligi asoslanadi. Ushbu ehtiyojlar qondirilgan sharoitda shaxs sog‘lom turmush tarzini mustaqil ravishda tanlaydi va uni davom ettiradi.

Adabiyotlarning tahlili. Salomatlik xulqi masalasi sog‘liq psixologiyasining asosiy tadqiqot yo‘nalishlaridan biri sifatida XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab shakllandi. Ilmiy adabiyotlarda salomatlik xulqi sog‘liqni saqlash, mustahkamlash va kasalliklarning oldini olishga qaratilgan ongli xatti-harakatlar tizimi sifatida talqin qilinadi [1]. Mazkur yondashuv sog‘liqni faqat tibbiy muammo sifatida emas, balki psixologik va ijtimoiy determinantlar bilan bog‘liq kompleks hodisa sifatida ko‘rib chiqishni talab etadi. Salomatlik xulqini tushuntirishda muhim nazariy asos biopsixosotsial model hisoblanadi. Ushbu modelga ko‘ra, sog‘liq biologik, psixologik va ijtimoiy omillar o‘zaro ta’siri natijasida shakllanadi [2]. Bu yondashuv sog‘lom turmush tarzining shakllanishida shaxsning motivatsiyasi, emotsional barqarorligi va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlanish darajasi muhim rol o‘ynashini ilmiy jihatdan asoslab berdi.

Motivatsion determinantlarni tahlil qilishda o‘zini belgilash nazariyasi alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur nazariyaga ko‘ra, inson xulqi ichki va tashqi motivatsiya asosida shakllanadi hamda ichki motivatsiya barqarorroq va uzoq muddatli natijalarni ta’minlaydi [3]. Tadqiqotlar sog‘lom xulqning barqarorligi shaxsning avtonomiya, kompetentlik va ijtimoiy bog‘liqlik ehtiyojlari qondirilishi bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Salomatlik xulqini tushuntiruvchi yana bir muhim nazariya — sog‘liqni anglash modeli hisoblanadi. Ushbu model insonning sog‘lom xatti-harakatni tanlashi kasallikka moyillikni anglash darajasi, kasallikning jiddiyligi haqidagi tasavvuri, foyda va to‘siqlarni baholashi bilan belgilanadi [4]. Demak, sog‘lom xulqning shakllanishida subyektiv e’tiqodlar va kognitiv baholash jarayonlari muhim determinant sifatida namoyon bo‘ladi.

Tadqiqot turlari. Salomatlik xulqi va motivatsion omillarni o‘rganishda olimlar asosan uch xil tadqiqot turidan foydalanadilar: miqdoriy, sifat va aralash tadqiqotlar. Har bir tur salomatlik xulqining turli tomonlarini ochib beradi.

Miqdoriy tadqiqotlar. Bu turdagi tadqiqotlarda maxsus testlar va so‘rovnomalar orqali ma’lumotlar to‘planadi va statistik usullar yordamida tahlil qilinadi. Masalan, insonning ichki motivatsiyasi darajasi va uning sog‘lom turmush tarziga rioya qilishi o‘rtasidagi bog‘liqlik o‘lchanadi.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki:

- ✓ Ichki motivatsiya kuchli bo‘lsa, salomatlik xulqi ham barqaror bo‘ladi.
- ✓ Tashqi bosim (masalan, shifokor tavsiyasi yoki oila nazorati) asosida shakllangan sog‘lom xulq uzoq davom etmaydi.
- ✓ Yuqori stress darajasi sog‘lom odatlarga rioya qilishni kamaytiradi.
- ✓ O‘zini nazorat qila oladigan shaxslar sog‘lom turmush tarzini ko‘proq saqlaydi.

2. Sifat tadqiqotlar. Bu tadqiqotlarda suhbat, intervyu yoki kuzatuv orqali insonlarning sog‘liq haqidagi fikrlari va ichki sabablarini o‘rganishadi. Bu usul sonlardan ko‘ra mazmunni chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki:

- ✓ Sog‘liq inson uchun shaxsiy qadriyatga aylansa, u sog‘lom turmush tarzini ongli ravishda tanlaydi.
- ✓ Hayotiy maqsadlari aniq bo‘lgan insonlarda salomatlik xulqi barqarorroq bo‘ladi.
- ✓ Oilaviy qo‘llab-quvvatlash sog‘lom odatlarni mustahkamlaydi.

Aralash tadqiqotlar miqdoriy va sifat usullarini birgalikda qo‘llaydi. Bu yondashuv natijalarni yanada to‘liqroq tushunishga yordam beradi.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki ichki motivatsiya, o‘zini nazorat qilish va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash birgalikda salomatlik xulqini mustahkamlaydi. Stress omili esa bu jarayonga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Umumiy xulosa barcha tadqiqot turlarining natijalari bir fikrga keladi: Salomatlik xulqining shakllanishida motivatsiya hal qiluvchi omil hisoblanadi. Agar inson sog‘lom bo‘lishni ichki ehtiyoj sifatida qabul qilsa, u sog‘lom turmush tarziga ko‘proq rioya qiladi. Faqat tashqi bosimga asoslangan xulq esa barqaror bo‘lmaydi.

Mazkur tadqiqot salomatlik xulqi shakllanishida motivatsion omillarning rolini aniqlash maqsadida oliy ta’lim muassasasi talabalarida o‘tkazildi. Tadqiqot kesimiy dizaynda tashkil etilib, tanlanma tasodifiy tanlash usuli asosida shakllantirildi. Tadqiqotda jami 120 nafar talaba ishtirok etdi. Ulardan 68 nafari qizlar (56,7 %), 52 nafari og’il bolalar (43,3 %) edi. Ishtirokchilarning yoshi 18 yoshdan 23 yoshgacha bo‘lib, o‘rtacha yosh ko‘rsatkichi 20,4 ± 1,2 ni tashkil etdi. Tadqiqotda 2–4-bosqich talabalari jalb qilindi.

Barcha ishtirokchilar tadqiqotda ixtiyoriy ravishda qatnashdi. So‘rovnomalar anonim tarzda o‘tkazildi hamda shaxsiy ma’lumotlarning maxfiyligi ta’minlandi. Tadqiqot jarayonida etik me’yorlarga rioya qilindi.

Salomatlik xulqi va motivatsion omillar o‘rtasidagi korrelyatsion tahlil natijalari (n = 120)

Ko‘rsatkichlar	M (o‘rtacha)	SD (σ)	R	p
Ichki motivatsiya	68.4	7.2	0.63	0.000
Tashqi motivatsiya	54.1	8.5	0.29	0.012
Stress darajasi	47.8	9.1	-0.48	0.000
O‘zini nazorat qilish	71.3	6.8	0.57	0.000
Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash	65.2	7.9	0.41	0.003

Korrelyatsion tahlil natijalari salomatlik xulqi va motivatsion omillar o‘rtasida statistik jihatdan ahamiyatli bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatdi. Ichki motivatsiya bilan salomatlik xulqi o‘rtasida kuchli ijobiy bog‘liqlik aniqlandi ($r = 0.63$; $p < 0.01$). Bu sog‘lom turmush tarzi shaxsning ichki qadriyatlari va anglangan ehtiyojlariga tayanib shakllanganda barqaror bo‘lishini bildiradi. Tashqi motivatsiya bilan bog‘liqlik mavjud bo‘lsa-da, uning kuchi pastroq ($r = 0.29$; $p < 0.05$). Bu sog‘lom xulq faqat tashqi bosim asosida uzoq muddat saqlanmasligini ko‘rsatadi. Stress darajasi bilan salomatlik xulqi o‘rtasida o‘rtacha salbiy bog‘liqlik aniqlangan ($r = -0.48$; $p < 0.01$). Demak, stress oshgan sari sog‘lom odatlarga rioya qilish kamayadi. O‘zini nazorat qilish esa salomatlik xulqining muhim ijobiy prediktori sifatida namoyon bo‘ldi ($r = 0.57$; $p < 0.01$). Shuningdek, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash ham sog‘lom xulqni mustahkamlovchi omil sifatida aniqlandi ($r = 0.41$; $p < 0.01$). Umuman olganda, natijalar salomatlik xulqining shakllanishida ichki motivatsiya va o‘zini nazorat qilish asosiy rol o‘ynashini, stress esa salbiy omil ekanligini tasdiqlaydi.

Xulosa. Mazkur tadqiqot natijalari salomatlik xulqining shakllanishida motivatsion omillar hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini tasdiqladi. Ayniqsa, ichki motivatsiya va o‘zini nazorat qilish darajasi sog‘lom turmush tarzining barqaror shakllanishini ta’minlovchi asosiy determinantlar sifatida namoyon bo‘ldi. Tashqi motivatsiya sog‘lom xulqni boshlashda ma’lum darajada ta’sir ko‘rsatsa-da, uning uzoq muddatli barqarorlikni ta’minlashdagi roli cheklanganligi aniqlandi. Tadqiqot shuningdek, stress darajasi oshishi salomatlik xulqining pasayishiga olib kelishini ko‘rsatdi. Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash esa sog‘lom odatlarni mustahkamlovchi muhim himoya omili sifatida namoyon bo‘ldi. Shunday qilib, salomatlik xulqini shakllantirish jarayonida ichki motivatsiyani rivojlantirish, o‘zini nazorat qilish ko‘nikmalarini mustahkamlash va stressni kamaytirishga qaratilgan psixologik yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi. Olingan natijalar salomatlik psixologiyasi sohasida profilaktik va korreksion dasturlarni ishlab chiqishda nazariy hamda amaliy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Adabiyotlar:

1. *Taylor S. E. Health psychology. — 10th ed. — New York: McGraw-Hill Education, 2018. — 480 p.*
2. *Engel G. L. The need for a new medical model: a challenge for biomedicine // Science. — 1977. — Vol. 196, № 4286. — P. 129–136.*
3. *Ryan R. M., Deci E. L. Self-determination theory and the facilitation of intrinsic motivation, social development, and well-being // American Psychologist. — 2000. — Vol. 55, № 1. — P. 68–78.*
4. *Rosenstock I. M. Historical origins of the Health Belief Model // Health Education Monographs. — 1974. — Vol. 2, № 4. — P. 328–335.*

KREDIT-MODUL TIZIMI SHAROITIDA LABORATORIYA MASHG‘ULOTLARINI TASHKIL ETISH VA BAHOLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Xujanova Dilafro‘z Shakarbekovna,
Iqtisodiyot va pedagogika instituti
Iqtisodiyot va muhandislik fanlar kafedrasi dotsenti
xujanova1980@gmail.com

Mazkur maqolada kredit-modul tizimi sharoitida laboratoriya ishlarini tashkil etish va baholash metodikasini takomillashtirish masalalari tahlil qilinadi. Zamonaviy oliy ta’lim tizimida talabalar mustaqil ta’lim faoliyatini kuchaytirish, amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish hamda natijaviylikka yo‘naltirilgan baholash mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarb vazifa hisoblanadi. Tadqiqot jarayonida laboratoriya mashg‘ulotlarini rejalashtirish, kredit yuklamasini taqsimlash, kompetensiyaviy yondashuv asosida baholash mezonlarini ishlab chiqish hamda reyting tizimini optimallashtirish masalalari ko‘rib chiqilgan.

Maqolada laboratoriya ishlarining interaktiv metodlar asosida tashkil etilishi, raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari va formativ hamda summativ baholash usullarining integratsiyasi asoslab berilgan. Taklif etilgan metodik model talabalar bilimini xolis va shaffof baholash, ularning amaliy tayyorgarligini oshirish hamda o‘quv jarayonining samaradorligini ta’minlashga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari kredit-modul tizimi asosida faoliyat yuritayotgan oliy ta’lim muassasalarida laboratoriya mashg‘ulotlarini samarali tashkil etish va baholash mexanizmlarini takomillashtirishda metodik asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Kalit so‘zlar: *kredit-modul tizimi, laboratoriya ishi, baholash mezonlari, kompetensiyaviy yondashuv, ta’lim sifati.*

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ОРГАНИЗАЦИОННО-ОЦЕНОЧНЫХ МЕХАНИЗМОВ ЛАБОРАТОРНЫХ ЗАНЯТИЙ В УСЛОВИЯХ КРЕДИТНО-МОДУЛЬНОЙ СИСТЕМЫ ОБУЧЕНИЯ

В данной статье рассматриваются вопросы совершенствования методики организации и оценки лабораторных работ в условиях кредитно-модульной системы обучения. В современной системе высшего образования актуальной задачей является усиление самостоятельной учебной деятельности студентов, формирование практических навыков и внедрение результат-ориентированных механизмов оценивания. В ходе исследования проанализированы вопросы планирования лабораторных занятий, распределения кредитной нагрузки, разработки критериев оценивания на основе компетентностного подхода и оптимизации рейтинговой системы.

В статье обоснована целесообразность применения интерактивных методов обучения при проведении лабораторных работ, использования цифровых технологий, а также интеграции формативного и суммативного оценивания. Предложенная методическая модель обеспечивает объективную и прозрачную оценку знаний студентов, способствует развитию их практической подготовки и повышению эффективности образовательного процесса. Результаты исследования могут служить методической основой для совершенствования организации и оценивания лабораторных занятий в высших учебных заведениях, функционирующих в условиях кредитно-модульной системы.

Ключевые слова: *кредитно-модульная система, лабораторные работы, критерии оценивания, компетентностный подход, качество образования.*

IMPROVING THE MECHANISMS FOR ORGANIZING AND ASSESSING LABORATORY SESSIONS IN THE CONTEXT OF THE CREDIT-MODULE SYSTEM

This article examines the improvement of the methodology for organizing and assessing laboratory work within the framework of the credit-module system. In modern higher education, strengthening students’ independent learning activities, developing practical skills, and implementing outcome-based assessment mechanisms are considered essential tasks. The study analyzes issues related to planning laboratory sessions, distributing credit workload, developing competency-based assessment criteria, and optimizing the rating system.

The paper substantiates the use of interactive teaching methods in laboratory classes, the integration of digital technologies, and the combination of formative and summative assessment approaches. The proposed methodological model ensures objective and transparent evaluation of students’ knowledge, enhances their practical competencies, and increases the overall effectiveness of the educational process. The research findings can serve as a methodological foundation for improving the organization and assessment mechanisms of laboratory work in higher education institutions operating under the credit-module system.

Keywords: *credit-module system, laboratory work, assessment criteria, competency-based approach, educational quality.*

Kirish. So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida barcha sohalarda, ayniqsa oliy ta’lim tizimida tub institutsional o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Mazkur islohotlarning asosiy maqsadi – milliy ta’lim tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash hamda mamlakatning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga xizmat qiladigan intellektual salohiyatni shakllantirishdan iboratdir. Global integratsiya va raqamli transformatsiya sharoitida oliy ta’lim tizimining mazmuni, tuzilishi hamda boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish zarurati yanada ortib bormoqda.

Ta’lim jarayonini modernizatsiya qilish doirasida kredit-modul tizimini joriy etish muhim strategik yo‘nalish sifatida e’tirof etilmoqda. Mazkur tizim talabalar mustaqil ta’lim faoliyatini kuchaytirish, o‘quv yuklamasini aniq me’yorlash, o‘qitish natijalarini kompetensiyaviy yondashuv asosida baholash hamda akademik mobillikni ta’minlash imkonini beradi. Kredit-modul mexanizmi o‘quv jarayonini modul asosida tashkil etish, o‘zlashtirilgan bilim hajmini kredit birliklari orqali ifodalash hamda natijaviylikka yo‘naltirilgan baholash tizimini shakllantirishni nazarda tutadi.

O‘zbekiston Respublikasining Yevropa oliy ta’lim makoniga integratsiyalashuv jarayoni Bolonya tamoyillarini qabul qilish orqali yangi bosqichga ko‘tarildi. Mazkur jarayon oliy ta’lim darajalarini uyg‘unlashtirish, ta’lim sifatini kafolatlash mexanizmlarini takomillashtirish, shaffof baholash tizimini joriy etish hamda xalqaro hamkorlikni kengaytirishga xizmat qilmoqda. Shu nuqtayi nazardan, kredit-modul tizimini samarali joriy etish va uning metodik asoslarini ishlab chiqish dolzarb ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi.

2017–2021-yillarga mo‘ljallangan Harakatlar strategiyasi hamda Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida oliy ta’lim mazmunini yangilash, amaliy mashg‘ulotlar ulushini oshirish, raqamli ta’lim platformalarini keng qo‘llash, muhandislik-texnik yo‘nalishlarni rivojlantirish va o‘quv jarayonini kredit-modul tizimiga bosqichma-bosqich o‘tkazish bo‘yicha aniq vazifalar belgilangan. Bu esa o‘qitish metodikasi va baholash tizimlarini qayta ko‘rib chiqishni talab etadi.

Ayniqsa, laboratoriya mashg‘ulotlari kredit-modul tizimida muhim tarkibiy qism sifatida namoyon bo‘ladi. Chunki laboratoriya ishlari nazariy bilimlarni amaliy tajriba bilan uyg‘unlashtirish, talabalarda tahliliy fikrlash, eksperimental ko‘nikmalar va mustaqil tadqiqot olib borish kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Shuning uchun laboratoriya ishlarini tashkil etish va baholash metodikasini zamonaviy talablar asosida takomillashtirish ilmiy-metodik ahamiyat kasb etadi.

Muammoning dolzarbligi shundan iboratki, kredit-modul tizimi sharoitida laboratoriya mashg‘ulotlarini samarali rejalashtirish, kredit yuklamasini optimal taqsimlash, baholash mezonlarini aniqlashtirish hamda talabalarning mustaqil faoliyatini rag‘batlantirish mexanizmlarini ishlab chiqish yetarli darajada tizimlashtirilmagan. Amaldagi an’anaviy yondashuvlar ko‘pincha natijaviylik va kompetensiyalarni to‘liq aks ettira olmaydi.

Shu bois mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi – kredit-modul tizimi sharoitida laboratoriya ishlarini tashkil etish va baholash metodikasini ilmiy asosda takomillashtirish, ularning samaradorligini oshirishga qaratilgan konseptual yondashuvni ishlab chiqishdan iboratdir.

Tadqiqot metodologiyasi va adabiyotlar sharhi. Kredit-modul tizimida talabalarni hayotda mustaqil bo‘lishga ko‘niktirish amaliyoti qo‘llaniladi. Ya‘ni talabaga o‘z shaxsiy trayektoriyasini tuzish va har semestrda boshqa akademik guruhda o‘qish imkoni beriladi. Shuningdek, talabalarni tabaqalab o‘qitishga jiddiy e’tibor qaratiladi, bunda ilg‘or talabalarni alohida o‘qitish orqali ta‘lim samarasi oshirish, ularning akademik yutuqlariga zamin yaratish mumkin. Amaldagi ta‘lim tizimida haligacha “o‘qituvchining o‘zi o‘qitib - o‘zi baholash” amaliyotini kuzatish mumkin. Kredit-modul tizimida esa o‘qituvchi asosan o‘qitish bilan shug‘ullanadi. Baholashni esa komissiya amalga oshiradi. Ya‘ni, pedagoglar “lektor” va “tyutor” larga ajratiladi. Lektor – nazariy bilim beradi, tyutor – nazariy bilimlar asosida talabalarning amaliy ko‘nikmalarini shakllantiradi, oddiy qilib aytganda talabalarni imtihonga tayyorlaydi. Imtihonni esa komissiya qabul qiladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyundagi PQ3775-sonli Qarorida muayyan fandan dars bergan pedagogning yakuniy nazorat jarayonlaridagi ishtiroki istisno etildi va

talabaning o‘zlashtirish darajasi – professor-o‘qituvchilar faoliyatini baholashning asosiy mezoni etib belgilandi. Ya‘ni endilikda “o‘qituvchining o‘zi o‘qitib-o‘zi baholash” usuli kun tartibidan olib tashlandi.

Mazkur tadqiqot doirasida kredit-modul tizimi sharoitida laboratoriya mashg‘ulotlarini tashkil etish hamda baholash metodikasini takomillashtirish masalalari kompleks ravishda o‘rganildi. Davlat ta’lim standarti (DTS), o‘quv rejalari, fan dasturlari hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan laboratoriya ishlanmalarining mazmuni va metodik ta’minoti tahlil qilinib, mavjud kamchiliklar hamda ularning yechimlariga alohida e’tibor qaratildi.

Laboratoriya mashg‘ulotlarini tashkil etish jarayonini tahlil qilish shuni ko‘rsatdiki, nazariy bilimlarni amaliy tajriba orqali mustahkamlash talabalarning ijodiy fikrlashini, mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini va tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan integratsiyalash orqali talabalarning bilish faolligi, ilmiy-ijodiy qobiliyati hamda eksperimental tafakkuri shakllanadi.

Shu nuqtayi nazardan, fizika fanidan laboratoriya mashg‘ulotlarini samarali tashkil etish va o‘tkazishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash muhim ahamiyat kasb etadi. Interaktiv metodlar, muammoli vaziyatlar asosida o‘qitish, loyiha faoliyati, raqamli o‘lchov vositalaridan foydalanish kabi yondashuvlar laboratoriya ishlarining samaradorligini oshiradi [4].

Talabaning laboratoriya ishi bo‘yicha yozma hisobotini rasmiylashtirishda muayyan metodik talablar asosida tizimli ketma-ketlikka rioya etilishi zarur. Hisobot quyidagi tarkibiy qismlarni o‘z ichiga olishi lozim:

- bajarilgan sana;
- laboratoriya ishining tartib raqami;
- mavzusi;
- maqsadi;
- foydalanilgan asbob-uskunalar;
- qisqacha nazariy asos;
- ishni bajarish tartibi;
- o‘lchash va hisoblash natijalari (jadval va grafiklar ko‘rinishida);
- olingan natijalar asosida xulosa;
- test va nazorat savollariga yozma javoblar [6].

Laboratoriya ishini rasmiylashtirish bosqichi eksperimental ma’lumotlar asosida hisob-kitoblarni amalga oshirish, natijalarni jadval va grafik ko‘rinishida ifodalash hamda ilmiy xulosalar chiqarishni o‘z ichiga oladi. Mazkur jarayon uchun amaliy mashg‘ulot davomida o‘rtacha 10–15 daqiqa vaqt ajratilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Mashg‘ulotning yakuniy bosqichi laboratoriya ishini himoya qilish jarayonidir. Ushbu bosqich o‘qituvchi tomonidan individual suhbat shaklida yoki test sinovi asosida tashkil etilishi mumkin. Himoya jarayonida talabaning nazariy bilimlari, amaliy ko‘nikmalari, o‘lchash aniqligi va xulosalarning asoslanganligi baholanadi.

Himoya yakunida o‘qituvchi tomonidan “topshirdi” yoki “topshirmadi” degan xulosa beriladi. Agar laboratoriya ishi talab darajasida bajarilmagan bo‘lsa, talaba uni qayta topshirishi lozim bo‘ladi va keyingi laboratoriya ishini bajarishga ruxsat berilmaydi. Muvaffaqiyatli topshirgan talaba esa navbatdagi laboratoriya mashg‘uloti uchun topshiriq oladi. Ushbu topshiriqda yangi ishning bajarilish tartibi hamda nazariy tayyorgarlik uchun tavsiya etiladigan adabiyotlar ro‘yxati keltiriladi.

Ta’kidlash joizki, mazkur metodik yondashuv o‘qituvchidan yuqori darajadagi mas’uliyat va individual ishlash kompetensiyasini talab etadi. Chunki qisqa vaqt oralig‘ida har bir talabaning ishini tahlil qilish, baholash hamda metodik tavsiyalar berish zarur bo‘ladi. Shu sababli kredit-modul tizimi sharoitida baholash mezonlarini aniq belgilash va standartlashtirish alohida metodik ahamiyat kasb etadi.

Tahlil va natijalar. *Laboratoriya ishini baholash*. Laboratoriya ishini baholash talabalarning amaliy tajribalaridan maksimal ta‘lim foyda olishlarini ta‘minlashning muhim tarkibiy qismidir. Laboratoriya ishini samarali baholash uchun asosiy fikrlar va eng yaxshi amaliyotlar:

Baholash mezonlari va topshiriqlari laboratoriya mashg‘ulotlari va umuman kursning o‘quv natijalariga bevosita mos kelishini ta‘minlash. Ushbu moslashtirish baholashning mazmunli bo‘lishini ta‘minlaydi va talabalarning bilim olishiga hissa qo‘shadi. Talabalarning laboratoriya ishlarida nimani ko‘rsatishi yoki erishishi kutilayotganligini ko‘rsatuvchi aniq va aniq baholash mezonlarini ishlab chiqish. Mezonlarga texnik ko‘nikmalar, eksperimental usullar, ma‘lumotlarni tahlil qilish, tanqidiy fikrlash va xavfsizlik qoidalariga rioya qilish kiradi.

Talabalar bilimining turli tomonlarini qamrab olish uchun turli baholash usullaridan foydalanish. Usullar yozma hisobotlar, og‘zaki taqdimotlar, laboratoriya daftarlari, amaliy ko‘rgazmalar, simulyatsiyalar,

aks ettiruvchi jurnallar, tengdoshlarni baholash va o‘z-o‘zini baholashni o‘z ichiga olishi mumkin. Baholashda izchillik va adolatlilikni ta‘minlash uchun qo‘llanmalar ishlab chiqish va ulardan foydalanish. Tegishli hollarda tengdoshlarni baholash va o‘z-o‘zini baholashni qo‘shing. Tengdoshlarni baholash hamkorlikda o‘rganishni rag‘batlantiradi va talabalarga muqobil yondashuvlar va istiqbollar haqida tushuncha beradi. O‘z-o‘zini baholash talabalarning metakognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi va o‘z bilimlarini aks ettiradi [7].

Talaba tomonidan mavzu bo‘yicha laboratoriya ishi to‘la tugatilgandan so‘ng, uning hisobotini fan o‘qituvchisi qabul qiladi. Fan o‘qituvchisi talabalarning ishni topshirishda uning qanday rasmiylashtirilganligiga va berilgan savollariga qay darajada javob berganligiga qarab baholaydi va talaba hisobotini topshirdi, deb qayd etadi va bahosini qo‘yadi. Talabalar bilimini baholashda Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi 824-son qarorida Oliy ta‘lim muassasalarida o‘quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to‘g‘risidagi nizomning 6-bobida, baholash, baholarni konvertatsiya qilishga e’tiborni qaratib o‘tsak:

Talabalar ta‘lim dasturi doirasida o‘qitish shaklidan qat’i nazar, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, Fan va Innovatsiyalar vazirligi tomonidan belgilangan baholash mezonlari asosida baholanadi.

Fan dasturida (sillabusda) belgilangan baholash tartibi hamda ijobiy baholar doirasida baholangan talabalarga kreditlar beriladi. Talaba belgilangan ta‘lim olish natijalariga erisha olmagan taqdirda, kreditlar berilmaydi.

Baholash usullari fan yoki modul doirasidagi talabaning yutuqlarini aks ettiruvchi va tasdiqlovchi yozma, og‘zaki, amaliy ish, loyiha, portfolio va nazoratlar kabi turlarni o‘z ichiga qamrab oladi. Baholash mezoni ta‘lim olish natijasiga erishilganligini aks ettirishi shart.

Kreditlarni ko‘chirish oliy ta‘lim muassasasida baholash tizimini boshqa baholash tizimlariga konvertatsiya qilish jadvalini boshqa oliy ta‘lim muassasasida tuzilgan shunga o‘xshash jadval bilan solishtirish asosida amalga oshiriladi [8].

Oliy ta‘lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to‘g‘risidagi nizomga asosan amaliy, seminar, laboratoriya mashg‘ulotlari va mustaqil ta‘lim topshiriqlarini bajarishi, shuningdek uning ushbu mashg‘ulotlardagi faolligi fan o‘qituvchisi tomonidan baholanib boriladi.

Laboratoriya mashg‘ulotlarini boshlashdan oldin talabalarning tushunchalarini baholang, ular yetarli darajada tayyorgarlik ko‘rishlari va zarur asosiy bilimlarga ega bo‘lishlariga ishonch hosil qilish. Laboratoriya mashg‘ulotlari davomida talabalarning amaliy ko‘nikmalarini, muammolarni hal qilish qobiliyatlarini va tengdoshlari bilan o‘zaro munosabatlarini baholash uchun kuzatib borish, talabalarning ma‘lumotlarni to‘plash, tahlil qilish, talqin qilish sifatini va ularning eksperimentlari yoki tekshiruvlaridan olingan xulosalarni baholang.

Talabalar laboratoriya ishining nazariy qismini oldindan mustaqil ravishda o‘rganib chiqadilar, sinfda esa amaliy qismini bajaradilar. Raqamli vositalardan foydalanib, laboratoriya natijalarini tahlil qilish. Bu talabalarga zamonaviy texnologiyalardan foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

- Bu usul talabalar uchun vaqtni samarali tashkil etishga yordam beradi va amaliyotga ko‘proq e’tibor qaratiladi.

Talabalarning bilimini fizika fanidan laboratoriya mashg‘ulotlarini bajarib bo‘lganidan so‘ng quyidagi mezonlar asosida baholanadi:

- Har bir laboratoriya ishini baholash uchun aniq mezonlarni belgilash. Bu mezonlar talabalarga oldindan ma‘lum qilinishi kerak. Baholash mezonlarini aniq belgilash. Masalan, bajarilgan ishning to‘g‘riligini, ishonchliligini, to‘g‘ri va aniq natijalarga erishilganligini hisobga olish. Baholashda talabalarning ilmiy yondashuvini, kreativlik va innovatsion fikrlashini e’tiborga olish.

- Baholash mezonlari quyidagilarni o‘z ichiga olishi mumkin: laboratoriya ishining to‘g‘ri bajarilishi, talabaning nazariy bilimlari, mustaqil fikrlash qobiliyati, va jamoa bilan ishlash ko‘nikmalari.

- Har bir laboratoriya ishini bosqichma-bosqich baholash. Masalan, dastlabki tayyorgarlik, ishning bajarilishi, natijalarni tahlil qilish va yakuniy hisobot.

- Har bir bosqich uchun alohida ballar ajratish va umumiy bahoni chiqarish.

- Talabalarga o‘z ishlarini tahlil qilish va baholash imkoniyatini berish. Bu orqali ular o‘z xatolarini tushunib, ularni tuzatish imkoniyatiga ega bo‘ladilar [9].

O‘qituvchi tomonidan har bir laboratoriya ishi uchun teskari aloqa berilishi, bu talabalar uchun qimmatli tajriba bo‘ladi. Taklif etayotgan modelni tahlil etib chiqamiz.

Talaba laboratoriya ishini unga tegishli bo‘lgan jihozlar ularning xarakteristikalari biladi va amalda ishni mustaqil bajara oladi, xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, olgan bilimini amalda qo‘llay oladi, laboratoriya ishining mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda laboratoriya ishining mavzu bo‘yicha tasavvurga ega deb hisoblasak - 90-100 ball konvertatsiya qilamiz «5» (a‘lo) baho;

Talaba laboratoriya ishini unga tegishli bo‘lgan jihozlar ularning xarakteristikalari biladi va amalda ishni mustaqil bajara oladi, olgan bilimini amalda qo‘llay oladi, ishning mazmun mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo‘yicha tasavvurga ega, biroq uncha jiddiy bo‘lmagan xatolarga yo‘l qo‘yadi deb topilganda - 71-89 ball konvertatsiya qilamiz «4» (yaxshi) baho;

Talaba laboratoriya ishini unga tegishli bo‘lgan jihozlar ularning xarakteristikalari biladi va amalda ishni hamkorlikda bajaradi. Talaba olgan bilimini amalda qo‘llashga qiynaladi. Laboratoriya ishining mohiyatii tushunadi, biladi, ifodalay olmaydi, aytib beradi hamda laboratoriya ishi bo‘yicha tasavvurga ega deb topilganda - 60-70 konvertatsiya qilamiz «3» (qoniqarli) baho;

Talaba laboratoriya ishini unga tegishli bo‘lgan jihozlar ularning xarakteristikalari haqida nazariy bilimga ega emas, laboartoriya ishni bajarishni bilmaydi, talaba ishni o‘zlashtirmagan, laboratoriya ishini mohiyatini tushunmaydi hamda ish bo‘yicha tasavvurga ega emas deb topilganda - 0-59 konvertatsiya qilamiz ball «2» (qonikarsiz) baho bilan baholanadi va ishni qayta topshirishga tayyorlanishi aytiladi. Laboratoriya mashg‘ulotlarini topshirish bo‘yicha tuzilgan test va nazariy savollar mazmuni talabaning o‘zlashtirishini xolis (ob’ektiv) va aniq baholash imkoniyatini berishi ta‘minlanadi.

Laboratoriya ishlarini avtomatlashtirilgan baholash va integrativ yondashuv

Kredit-modul tizimi sharoitida laboratoriya mashg‘ulotlarini samarali tashkil etishda raqamli texnologiyalar va dasturiy ta’minot imkoniyatlaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Laboratoriya ishlarini avtomatlashtirilgan tarzda baholash mexanizmlarini joriy etish baholash jarayonining obyektivligi, shaffofligi va tezkorligini ta’minlaydi. Bunday yondashuv o‘qituvchining vaqt resurslarini tejash bilan birga, inson omiliga bog‘liq subyektivlikni kamaytiradi.

Xususan, dasturlash yoki hisoblashga asoslangan laboratoriya mashg‘ulotlarida avtomatlashtirilgan test tizimlari, kodni tekshiruvchi platformalar (auto-grading systems), elektron hisobot modullari va maxsus baholash dasturlaridan foydalanish samarali natija beradi. Bunda talabaning yozgan dasturi yoki bajargan hisoblash algoritmi belgilangan mezonlar asosida avtomatik ravishda tekshiriladi va natijalar reyting tizimiga integratsiyalashadi.

Mazkur metodik yondashuv kredit-modul tizimining asosiy tamoyillari – natijaviylik, aniqlik va shaffoflikni ta’minlashga xizmat qiladi. Shuningdek, baholash mezonlarini raqamli shaklda standartlashtirish talabalarga aniq talablar asosida ishlash imkonini yaratadi.

Laboratoriya mashg‘ulotlarini o‘quv dasturining boshqa tarkibiy qismlari bilan integratsiyalash ham muhim metodik yo‘nalish hisoblanadi. Nazariy darslar bilan uzviy bog‘langan laboratoriya ishlari talabalarga o‘zlashtirilgan bilimlarni amaliy faoliyatda qo‘llash imkonini beradi. Bunday integratsion yondashuv nazariya va amaliyot o‘rtasidagi uzviylikni ta’minlab, bilimlarning mustahkam o‘zlashtirilishiga xizmat qiladi.

Shuningdek, fanlararo (interdisiplinar) laboratoriya mashg‘ulotlarini ishlab chiqish talabalarni ko‘p tarmoqli fikrlashga yo‘naltiradi. Masalan, fizika va axborot texnologiyalari, elektronika va matematika, mexanika va dasturlash kabi yo‘nalishlarning uyg‘unlashtirilishi talabalarda kompleks muammolarni hal qilish ko‘nikmasini shakllantiradi.

Laboratoriya mashg‘ulotlarini bosqichma-bosqich tamoyil asosida tashkil etish – ya’ni nazariy tushunchalardan boshlab, oddiy amaliy mashqlarga va murakkab eksperimental topshiriqlargacha izchil o‘tish – ta’lim samaradorligini oshiradi. Bunda talabalar dastlab ko‘rsatmalar asosida ishlaydi, keyingi bosqichlarda esa mustaqil tadqiqot elementlarini bajarishga yo‘naltiriladi.

Mashg‘ulot davomida talabalarni mustaqil faoliyatga undash, ularda izlanish va tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish muhimdir. Shu bilan birga, o‘qituvchi tomonidan metodik ko‘mak va maslahatlar berib borilishi zarur. Bunday muvozanatli yondashuv talabalarni ortiqcha qiyinchilikka duchor qilmasdan, ularning mustaqilligi va mas’uliyatini oshirishga xizmat qiladi.

Natijada, avtomatlashtirilgan baholash, integratsion o‘qitish va bosqichma-bosqich metodik tashkil etish kredit-modul tizimi sharoitida laboratoriya mashg‘ulotlarining samaradorligini oshirish, baholashning adolatliligi va shaffofligini ta’minlash hamda talabalar kompetensiyalarini kompleks rivojlantirish imkonini beradi.

Xulosa va takliflar. Laboratoriya mashg‘ulotlarini samarali baholash tizimi nafaqat talabaning bajarilgan ish natijasini aniqlashga xizmat qiladi, balki uning bilish faoliyatini faollashtirish, tahliliy fikrlashini rivojlantirish va kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Baholash jarayoni o‘quv natijalarini qayd etish vositasi bo‘lish bilan birga, ta’limning rivojlantiruvchi mexanizmi sifatida ham namoyon bo‘lishi zarur.

Kredit-modul tizimi sharoitida laboratoriya mashg‘ulotlarini zamonaviy metodik yondashuvlar asosida tashkil etish – baholash mezonlarini aniqlashtirish, avtomatlashtirilgan nazorat vositalarini joriy etish,

fanlararo integratsiyani kuchaytirish hamda bosqichma-bosqich amaliy faoliyatni yo‘lga qo‘yish – ta’lim jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, laboratoriya ishlarini tizimli rejalashtirish va shaffof baholash mexanizmlarini qo‘llash talabalarning nazariy bilimlarini amaliyotda qo‘llash ko‘nikmalarini mustahkamlaydi, mustaqil izlanish va tajriba o‘tkazish malakalarini rivojlantiradi hamda o‘z-o‘zini nazorat qilish kompetensiyasini shakllantiradi.

Shu asosda quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

1. Kredit-modul tizimida laboratoriya mashg‘ulotlari uchun aniq va mezonli (kriterial) baholash tizimini ishlab chiqish va standartlashtirish;
2. Laboratoriya ishlarini baholashda raqamli platformalar va avtomatlashtirilgan test tizimlaridan keng foydalanish;
3. Laboratoriya mashg‘ulotlarini nazariy darslar hamda fanlararo integratsiya asosida tashkil etish;
4. Talabalarning mustaqil tadqiqot elementlarini o‘z ichiga olgan amaliy topshiriqlar ulushini oshirish;
5. O‘qituvchilar uchun kredit-modul tizimida laboratoriya ishlarini tashkil etish va baholash bo‘yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

Xulosa qilib aytganda, kredit-modul tizimida laboratoriya ishlarini tashkil etish va baholash metodologiyasini takomillashtirish oliy ta’lim muassasalarida, xususan fizika ta’limi yo‘nalishida ta’lim sifati va samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biridir. Muammolarni tizimli ravishda bartaraf etish hamda ilg‘or pedagogik strategiyalarni amaliyotga tatbiq etish orqali talabalar chuqur nazariy tayyorgarlikka ega bo‘lishi, eksperimental faoliyat ko‘nikmalarini egallashi va kelgusidagi kasbiy faoliyatida muvaffaqiyat qozonishi uchun mustahkam zamin yaratiladi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni.
2. Usmonov B.Sh., Xabibullaev R.A. Oliy o‘quv yurtlarida o‘quv jarayonini kredit-modul tizimida tashkil qilish. O‘quv qo‘llanma.–Toshkent, TKTI, 2020. – 120 bet
3. O‘rinov V. O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim muassasalarida ECTS kredit-modul tizimi: asosiy tushunchalar va qoidalar. O‘quv qo‘llanma. Nyu Bransvik Universiteti, 2020 y
4. Смирнов А.В. Методика приминения информационных технологий в обучении физике.учеб.пособие для студ. высш. пед. учеб. Заведений. //С.Е.Каменецкий, Н.С.Пурышева, Н.Е.Вежавская; под. ред. С.Е.Каменецкий, Н.С.Пурышева. -М.: Академия, 2000. -336 стр
5. Djorayev M., Qalandarov E., Xujanov E. Fizika o‘qitish metodikasi (umumiy masalalar). O‘quv qo‘llanma - Toshkent, TDPU, 2023. – 284 b.
6. Ахмедов А.А. Fizika fanidan zamonaviy laboratoriya mashg‘ulotlarini bajarishda innovatsion texnologiya // Ilmiy axborotnoma (Aniq va tabiiy fanlar seriyasi) – Samarqand, 2016. –1(95)-сон. – Б. 168-172
7. Zacharia Z. C. and Constantinou C. P., Comparing the influence of physical and virtual manipulatives in the context of the Physics by Inquiry curriculum: The case of undergraduate students’ conceptual understanding of heat and temperature, Am. J. Phys. 76, 425 (2008).
8. https://lex.uz/docs/-5193564
9. M. Başer and S. Durmuş, The Effectiveness of Computer Supported Versus Real Laboratory Inquiry Learning Environments on the Understanding of Direct Current Electricity among Pre-Service Elementary School Teachers,Eurasia J. Math. Sci. Technol. Educ. 6, 47 (2010).

TALABA SHAXSIDA IRODAVIY XATTI-HARAKATLARNI METAKOGNITIV REGULYATSIYA ORQALI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK ASOSLARI

Axatov Yo‘ldosh Hamzayevich,
Buxoro davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi
Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dotsent

Ushbu maqolada talaba shaxsida irodaviy xatti-harakatlarni metakognitiv regulyatsiya orqali rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik asoslari o‘rganiladi. Metakognitiv strategiyalar orqali talabalar o‘z fikrlash jarayonini boshqarish, qaror qabul qilish va xatti-harakatlarni ongli tartibga solish imkoniyatiga ega bo‘lishi ta’kidlanadi. Tadqiqot natijalari metakognitiv yondashuvning irodaviy barqarorlikni shakllantirish va ijtimoiy moslashuvni kuchaytirishdagi ahamiyatini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: *metakognitiv regulyatsiya, irodaviy xatti-harakatlar, talaba shaxsi, ijtimoiy-psixologik asoslar, ongli boshqaruv, qaror qabul qilish, xatti-harakatlarni rejalashtirish.*

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ВОЛЕВЫХ ДЕЙСТВИЙ СТУДЕНТА ЧЕРЕЗ МЕТАКОГНИТИВНУЮ РЕГУЛЯЦИЮ

В данной статье исследуются социально-психологические основы развития волевых действий студентов через метакогнитивную регуляцию. Подчеркивается, что метакогнитивные стратегии позволяют студентам управлять процессом мышления, принимать решения и сознательно регулировать поведение. Результаты исследования демонстрируют значимость метакогнитивного подхода в формировании волевой устойчивости и социальной адаптации.

Ключевые слова: *метакогнитивная регуляция, волевые действия, личность студента, социально-психологические основы, сознательное управление, принятие решений, планирование поведения.*

SOCIO-PSYCHOLOGICAL FOUNDATIONS FOR DEVELOPING STUDENTS’ VOLITIONAL ACTIONS THROUGH METACOGNITIVE REGULATION

This article examines the socio-psychological foundations of developing students’ volitional actions through metacognitive regulation. It emphasizes that metacognitive strategies enable students to manage their thinking processes, make decisions, and consciously regulate behavior. The research findings highlight the importance of the metacognitive approach in forming volitional stability and enhancing social adaptation.

Keywords: *metacognitive regulation, volitional actions, student personality, socio-psychological foundations, conscious control, decision-making, behavior planning.*

Kirish. Talaba shaxsida irodaviy xatti-harakatlarning shakllanishi murakkab ijtimoiy-psixologik jarayon sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu jarayon ta’lim muhiti, shaxslararo munosabatlar va ichki psixik boshqaruv mexanizmlari bilan uzviy bog‘liq holda rivojlanadi. Metakognitiv regulyatsiya talabaning o‘z fikrlash va xulq-atvor jarayonlarini anglashiga xizmat qiladi. Ongli boshqaruvning shakllanishi irodaviy barqarorlikni mustahkamlashga psixologik zamin yaratadi. Talaba o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlarini ijtimoiy talablar bilan uyg‘unlashtirishni o‘rganadi. Bu jarayonda mas’uliyat hissi va ijtimoiy moslashuv kuchayadi. Metakognitiv regulyatsiya orqali talaba o‘z qarorlarining oqibatlarini oldindan baholash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Natijada impulsiv xatti-harakatlar kamayadi va ongli tanlov ustuvorlik kasb etadi. Ijtimoiy muhitda o‘zini tuta bilish irodaviy yetuklik belgisi sifatida shakllanadi. Shu tariqa talaba shaxsida ijtimoiy jihatdan maqbul irodaviy xatti-harakatlar rivojlana boshlaydi.

Irodaviy xatti-harakatlarni rivojlantirishda metakognitiv regulyatsiya shaxsning ichki nazorat tizimini faollashtiradi. Talaba o‘z hissiy holatini ijtimoiy vaziyatlar bilan solishtirib baholay boshlaydi. Bu holat empatiya va o‘zini boshqalar o‘rniga qo‘ya olish qobiliyatini kuchaytiradi. Ijtimoiy-psixologik jihatdan bunday rivojlanish muloqot madaniyatining yuksalishiga olib keladi. Metakognitiv ong orqali talaba o‘z xatti-harakatlarining ijtimoiy ahamiyatini chuqurroq anglaydi. Anglash darajasining ortishi ichki intizomni mustahkamlaydi. Talaba tashqi bosimga qaram bo‘lmasdan o‘zini boshqara olishga intiladi. Bu jarayon irodaviy mustaqillikning shakllanishiga xizmat qiladi. Ijtimoiy normalar bilan shaxsiy qadriyatlar o‘rtasida

muvozanat yuzaga keladi. Natijada metakognitiv regulyatsiya talaba shaxsida irodaviy xatti-harakatlarning barqaror ijtimoiy-psixologik asoslarini ta’minlaydi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. B. G. Ananevning shaxsni kompleks yondashuv asosida o‘rganish nazariyasi talaba shaxsida irodaviy xatti-harakatlarni tushuntirishda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu yondashuvda shaxs biologik, psixologik va ijtimoiy omillarning uzviy birligi sifatida talqin qilinadi. Metakognitiv regulyatsiya ana shu tizimda psixologik boshqaruvning markaziy bo‘g‘ini sifatida namoyon bo‘ladi. Talaba o‘z faoliyatini ongli ravishda tahlil qilgan sari irodaviy barqarorlik kuchayadi. Ananev shaxs rivojida faoliyatning hal qiluvchi rolini ta’kidlaydi. Faoliyatni ongli rejalashtirish irodaviy sifatlarning mustahkamlanishiga olib keladi. Metakognitiv nazorat orqali talaba o‘z imkoniyatlarini real baholashni o‘rganadi. Bu holat ijtimoiy moslashuvni yengillashtiradi. Ijtimoiy talablar shaxsiy imkoniyatlar bilan uyg‘unlashadi. Natijada irodaviy xatti-harakatlar barqaror psixologik tizim sifatida shakllanadi.

N. V. Kuzmina tomonidan ishlab chiqilgan kasbiy shakllanish nazariyasi talaba shaxsining irodaviy rivojini tushuntirishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu yondashuvda shaxs faol subyekt sifatida qaraladi. Metakognitiv regulyatsiya subyektiv faollikni kuchaytiruvchi mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi. Talaba o‘z faoliyat natijalarini tahlil qilish orqali irodaviy tajriba to‘playdi. Kuzmina shaxs rivojida o‘z-o‘zini takomillashtirish jarayoniga alohida urg‘u beradi. Ushbu jarayon irodaviy qat’iyatni talab etadi. Metakognitiv ong orqali talaba o‘z kamchiliklarini anglaydi. Anglash ichki intizomni rivojlantiradi. Ijtimoiy muhitda muvaffaqiyatli faoliyat yuritish ehtiyoji kuchayadi. Bu ehtiyoj irodaviy xatti-harakatlarning barqarorlashuviga xizmat qiladi.

N. F. Talizina faoliyatni bosqichma-bosqich shakllantirish nazariyasi orqali irodaviy boshqaruv mexanizmlarini asoslab beradi. Ushbu nazariyada ongli nazorat va ichki rejalashtirish muhim o‘rin egallaydi. Metakognitiv regulyatsiya aynan shu jarayonlarning ichki psixologik asosi hisoblanadi. Talaba har bir faoliyat bosqichini anglagan holda harakat qiladi. Bu holat impulsiv xatti-harakatlarning kamayishiga olib keladi. Talizina yondashuvida o‘zini nazorat qilish irodaviy yetuklik belgisi sifatida talqin etiladi. Ijtimoiy vaziyatlarda o‘zini tuta bilish rivojlanadi. Metakognitiv tahlil orqali xatolardan to‘g‘ri xulosa chiqariladi. Shu asosda xatti-harakatlar takomillashadi. Natijada irodaviy sifatlar ongli faoliyat mahsuli sifatida shakllanadi.

V. Ya. Lyaudis va I. S. Konning ijtimoiylashuvga oid qarashlari talaba shaxsida irodaviy xatti-harakatlarning shakllanishini ijtimoiy munosabatlar bilan bog‘laydi. Ushbu yondashuvlarda shaxsning o‘zini anglash jarayoni markaziy o‘rinni egallaydi. Metakognitiv regulyatsiya shaxsiy identifikatsiyani mustahkamlashga xizmat qiladi. Talaba o‘z xatti-harakatlarini ijtimoiy qadriyatlar bilan solishtiradi. Bu solishtirish irodaviy tanlovlarni ongli qiladi. Kon shaxs rivojida ichki pozitsiyaning ahamiyatini ta’kidlaydi. Ichki pozitsiya irodaviy barqarorlikni belgilaydi. Lyaudis esa muloqotning rivojlantiruvchi roliga e’tibor qaratadi. Muloqot jarayonida o‘zini boshqarish qobiliyati kuchayadi. Natijada ijtimoiy mas’uliyat bilan uyg‘un irodaviy xatti-harakatlar shakllanadi.

V. T. Lisovskiy va A. A. Bodalevlarning shaxslararo munosabatlar haqidagi qarashlari irodaviy rivojlanishning ijtimoiy-psixologik asoslarini ochib beradi. Ushbu yondashuvlarda shaxsning boshqalar tomonidan qabul qilinishi muhim omil sifatida ko‘riladi. Metakognitiv regulyatsiya orqali talaba o‘zini boshqalar nigohi bilan baholay boshlaydi. Bu jarayon ijtimoiy moslashuvni kuchaytiradi. Lisovskiy shaxsning ijtimoiy faolligini irodaviy sifatlar bilan bog‘laydi. Bodalev esa shaxslararo idrokning ahamiyatini ta’kidlaydi. O‘zini anglash darajasi oshgan sari xatti-harakatlar ongli tus oladi. Metakognitiv tahlil empatiya rivojiga xizmat qiladi. Empatiya irodaviy muvozanatni ta’minlaydi. Natijada talaba shaxsida ijtimoiy jihatdan yetuk irodaviy xatti-harakatlar shakllanadi.

Tahlillar va natijalar. Talaba shaxsida irodaviy xatti-harakatlarni metakognitiv regulyatsiya orqali rivojlantirish jarayoni tahlil qilinganda, avvalo ichki psixologik boshqaruv mexanizmlarining faollashuvi kuzatiladi. Talabalar o‘z fikrlash jarayonini anglashni boshlagan sari xatti-harakatlarida ongli rejalashtirish kuchayadi. Metakognitiv nazorat talabaning vaziyatni baholash va mos strategiyani tanlash qobiliyatini rivojlantiradi. Tahlil jarayonida irodaviy barqarorlik hissiy holatni boshqarish bilan bevosita bog‘liqligi aniqlanadi. Talabalar qiyinchiliklarga nisbatan munosabatini qayta ko‘rib chiqishga moyil bo‘la boshlaydi. Bu holat impulsiv harakatlarning kamayishiga olib keladi. Ijtimoiy muhitda o‘zini tuta bilish qobiliyati asta-sekin mustahkamlanadi. Metakognitiv regulyatsiya orqali talaba o‘z mas’uliyatini chuqurroq anglaydi. Anglash darajasi ortgani sari irodaviy qarorlar barqarorlashadi. Shu jihatdan tahlil natijalari metakognitiv yondashuvning irodaviy xatti-harakatlarni boshqarishda muhim omil ekanini ko‘rsatadi.

1-jadval.

Psixologik tadqiqot jadvali: Talabalarda irodaviy xatti-harakatlar va metakognitiv regulyatsiya

Parametrlar / Ko‘rsatkichlar	Tadqiqot guruhi	O‘rtacha qiymat	Monitoring darajasi	Reflektiv fikrlash darajasi	Irodaviy qat’iyat	Ijtimoiy moslashuv	Izoh
O‘z-o‘zini rejalashtirish	1-guruh (metakognitiv mashg‘ulot)	Yuqori	85%	78%	82%	80%	Talabalar rejalashtirish jarayonida faol ishtirok etgan.
	2-guruh (nazorat guruhi)	O‘rta	60%	55%	58%	57%	Nazorat guruhi talabalari rejalashtirish va nazorat jarayonida kamroq faol.
Qaror qabul qilish	1-guruh	Yuqori	88%	81%	85%	83%	Metakognitiv yondashuv qarorlarni ongli qabul qilishga yordam bergan.
	2-guruh	O‘rta	62%	58%	60%	61%	Nazorat guruhi impulsiv qarorlar ko‘proq qayd etilgan.
Ijtimoiy vaziyatlarda o‘zini tutish	1-guruh	Yuqori	82%	79%	84%	87%	Talabalar ijtimoiy muhit bilan moslashishga faol kirishgan.
	2-guruh	O‘rta	59%	55%	57%	60%	Nazorat guruhi talabalari muloqot va moslashuvda zaifroq.
Ichki motivatsiya va mas’uliyat	1-guruh	Yuqori	86%	80%	88%	85%	Metakognitiv mashg‘ulotlar ichki motivatsiya va mas’uliyatni oshirgan.
	2-guruh	O‘rta	61%	57%	60%	59%	Nazorat guruhi ichki motivatsiya jihatidan pastroq natija ko‘rsatdi.

Izohlar:

Monitoring darajasi – talabalar o‘z faoliyatini kuzatish va baholash ko‘rsatkichini bildiradi. Metakognitiv mashg‘ulot o‘tkazilgan guruhda bu ko‘rsatkich yuqori bo‘ldi.

Reflektiv fikrlash darajasi – talabaning xatolarni tahlil qilish va xulosa chiqarish qobiliyatini o‘lchaydi. Metakognitiv yondashuv refleksiv tafakkurni rivojlantirdi.

Irodaviy qat’iyat – qarorlarni maqsadga muvofiq va intizom bilan amalga oshirish qobiliyati. Mashg‘ulot o‘tkazilgan guruhda bu ko‘rsatkich sezilarli oshdi.

Ijtimoiy moslashuv – talabalar ijtimoiy vaziyatlarga moslashish va muloqot qilish qobiliyati. Metakognitiv regulyatsiya ushbu ko‘rsatkichni kuchaytirdi.

Ichki motivatsiya va mas’uliyat – talabaning faoliyatga ichki intilish darajasi va o‘z xatti-harakatlariga mas’uliyatni his qilish ko‘rsatkichi. Metakognitiv yondashuv bu jihatni sezilarli oshirdi.

O‘tkazilgan psixologik tahlillar natijasida talabalar orasida o‘z-o‘zini boshqarish darajasining sezilarli o‘zgarishi kuzatiladi. Metakognitiv regulyatsiyani o‘zlashtirgan talabalar faoliyatga nisbatan mas’uliyatliroq munosabat bildiradi. Ularning xatti-harakatlari ko‘proq ongli tanlovlarga asoslanadi. Ijtimoiy vaziyatlarda sabr-toqat va qat’iyat namoyon bo‘la boshlaydi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, ichki nazorat tashqi bosimga qaramlikni kamaytiradi. Talabalar o‘z xatti-harakatlarini baholashda ijtimoiy oqibatlarni hisobga oladi. Bu holat ijtimoiy moslashuv jarayonini yengillashtiradi. Metakognitiv fikrlash orqali xatolardan saboq chiqarish kuchayadi. O‘z ustida ishlashga bo‘lgan ehtiyoj barqaror motivatsiyaga aylanadi. Natijada irodaviy xatti-harakatlar ijtimoiy jihatdan yetuk shaklga ega bo‘la boshlaydi.

Natijalarni umumiy tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, metakognitiv regulyatsiya irodaviy sifatlarning ichki manbalarini faollashtiradi. Talaba o‘z imkoniyatlarini real baholashga o‘rganadi. Bu holat haddan tashqari ishonchsizlik yoki asossiz qat’iyatning oldini oladi. Ijtimoiy munosabatlarda muvozanatli xatti-harakatlar shakllanadi. Talabalar o‘z fikrini himoya qilish bilan birga boshqalar fikrini ham inobatga olishga intiladi. Bu jarayon empatiya va ijtimoiy sezgirlikni kuchaytiradi. Irodaviy barqarorlik shaxsiy qadriyatlar bilan uyg‘unlashadi. Metakognitiv regulyatsiya orqali ichki intizom mustahkamlanadi. Talabaning o‘ziga nisbatan talabchanligi ortadi. Umuman olganda, natijalar irodaviy xatti-harakatlarni rivojlantirishda metakognitiv yondashuvning ijtimoiy-psixologik samaradorligini tasdiqlaydi.

Xulosa. Talaba shaxsida irodaviy xatti-harakatlarni metakognitiv regulyatsiya orqali rivojlantirish jarayoni natijalar asosida tahlil qilinsa, uning psixologik mexanizmlari keng ko‘lamli ijtimoiy-psixologik jarayonlar bilan bog‘liq ekani aniqlandi. Metakognitiv strategiyalar talabaning o‘z fikrlash va xatti-harakatlarini ongli boshqarish imkoniyatini oshiradi. Talaba o‘z qarorlarini oldindan rejalashtirishni va ularni amalga oshirish jarayonini baholashni o‘rganadi. Bu esa irodaviy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Ichki nazorat mexanizmlari rivojlangani sari impulsiv harakatlar kamayadi. Talaba ijtimoiy vaziyatlarni chuqurroq tahlil qilishga qodir bo‘ladi. Shu orqali u o‘zini boshqalar bilan samarali uyg‘unlashtira oladi. Ijtimoiy talablarga moslashuv ortadi. Natijada irodaviy xatti-harakatlar ongli va maqsadga muvofiq shakllanadi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, metakognitiv regulyatsiya talabaning ichki motivatsiyasini va mas’uliyat hissini kuchaytiradi. Talaba faoliyatning natijalarini o‘z-o‘zini baholash orqali aniqlaydi va xatolarni to‘g‘ri tahlil qiladi. Bu jarayon irodaviy qat’iyatni mustahkamlash bilan birga psixologik barqarorlikni ham oshiradi. Ijtimoiy muloqot va guruh ishlari orqali talaba o‘z xatti-harakatlarini boshqalarning nazari bilan solishtiradi. Shu bilan birga, o‘zini rivojlantirishga bo‘lgan intilish kuchayadi. Talaba o‘z qarorlarining ijtimoiy oqibatlarini oldindan baholashga o‘rganadi. Bu esa shaxsiy va ijtimoiy mas’uliyatni uyg‘unlashtiradi. Natijada metakognitiv regulyatsiya irodaviy xatti-harakatlarning ongli va barqaror shakllanishini ta’minlaydi.

Umumiy natijalarni tahlil qilganda, metakognitiv regulyatsiya irodaviy xatti-harakatlarning ichki va ijtimoiy-psixologik asoslarini mustahkamlashda samarali vosita ekanligi aniqlandi. Talaba o‘z faoliyatini ongli ravishda boshqarishga o‘rganadi va qarorlarining samaradorligini oshiradi. Ichki intizom va o‘zini boshqarish qobiliyati rivojlanadi. Ijtimoiy muhitda muvaffaqiyatli hamkorlik qilishga intilish ortadi. Empatiya va boshqa ijtimoiy sezgirliklar kuchayadi. Shu bilan birga, xatolardan saboq chiqarish va o‘z ustida ishlash odatlari mustahkamlanadi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, metakognitiv regulyatsiya talaba shaxsida irodaviy xatti-harakatlarni ongli, barqaror va ijtimoiy jihatdan samarali shakllantirishga imkon beradi. Ushbu mexanizm nafaqat psixologik barqarorlikni oshiradi, balki ijtimoiy moslashuv va shaxsiy rivojlanishga ham xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Кон И. С. Психология ранней юности. — М.: Просвещение, 1989. — 256 с.
2. Кузьмина Н. В. Профессионализм личности преподавателя. — М.: Педагогика, 1990. — 224 с.
3. Леонтьев А. Н. Деятельность. Сознание. Личность. — М.: Политиздат, 1975. — 304 с.
4. Лисина М. И. Общение, личность и психика ребёнка. — М.: Педагогика, 1986. — 384 с.
5. Лисовский В. Т. Молодёжь как объект социально-психологического исследования. — Л.: Изд-во Ленинградского университета, 1984. — 260 с.
6. Ляудис В. Я. Психология совместной учебной деятельности. — М.: Изд-во МГУ, 1989. — 248 с.

YOSHLARDA BOQMANDALIK PSIXOLOGIYASINI BARTARAF ETISHDA MAHALLANING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK TA’SIR MEXANIZMLARI

Tilavoldiyev Rasuljon Raxmonali o‘g’li,
Farg‘ona davlat universiteti, Sport faoliyati fakulteti
Adaptiv jismoniy tarbiya va sport nazariyasi kafedrasi.
rasulbek9333@gmail.uz

Zamonaviy jamiyatda yoshlar orasida boqmandalik psixologiyasi jiddiy muammo sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bu holat shaxsning o‘z hayotini mustaqil boshqara olmasligi, qaror qabul qilishda boshqalarga haddan tashqari tayanishi va o‘z-o‘zini ta’minlay olmaslik bilan tavsiflanadi. Ushbu maqola o‘zbek jamiyatida mahalla institutining ijtimoiy-psixologik ta’sir mexanizmlarini tahlil qiladi va ularning yoshlarda boqmandalikni bartaraf etishdagi rolini yoritadi. Mahalla an’anaviy qo‘shnichilik munosabatlari, ijtimoiy nazorat, emotsional qo‘llab-quvvatlash va ijtimoiy o‘rnak mexanizmlari orqali yoshlarni mustaqillikka o‘rgatish vositasi sifatida ko‘rib chiqiladi. Maqola nazariy asoslar, empirik kuzatishlar va amaliy tavsiyalarga asoslanadi.

Kalit so‘zlar: *boqmandalik psixologiyasi, mahalla ta’siri, ijtimoiy-psixologik mexanizmlar, yoshlar mustaqilligi, bartaraf etish.*

МЕХАНИЗМЫ СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО ВЛИЯНИЯ МАХАЛЛИ В ПРЕОДОЛЕНИИ ПСИХОЛОГИИ ИЖДИВЕНЧЕСТВА У МОЛОДЕЖИ

В современном обществе психология иждивенчества среди молодежи проявляется как серьезная проблема. Это состояние характеризуется неспособностью человека самостоятельно управлять своей жизнью, чрезмерной зависимостью от других при принятии решений и невозможностью самообеспечения. В статье анализируются социально-психологические механизмы влияния махалли в узбекском обществе и их роль в устранении иждивенчества у молодежи. Махалля рассматривается как инструмент воспитания самостоятельности через традиционные соседские отношения, социальный контроль, эмоциональную поддержку и механизм социального примера. Работа основана на теоретических положениях, эмпирических наблюдениях и практических рекомендациях.

Ключевые слова: *психология иждивенчества, влияние махалли, социально-психологические механизмы, самостоятельность молодежи, устранение.*

MECHANISMS OF SOCIO-PSYCHOLOGICAL INFLUENCE OF THE MAHALLA IN OVERCOMING DEPENDENT MINDSET AMONG YOUTH

In modern society, dependency psychology among youth emerges as a serious issue. This condition is characterized by an individual's inability to independently manage their life, excessive reliance on others in decision-making, and lack of self-sufficiency. The article analyzes the social-psychological mechanisms of mahalla's influence in Uzbek society and their role in eliminating dependency among young people. Mahalla is viewed as a tool for fostering independence through traditional neighborly relations, social control, emotional support, and the mechanism of social modeling. The work is based on theoretical foundations, empirical observations, and practical recommendations.

Keywords: *dependency psychology, mahalla influence, social-psychological mechanisms, youth independence, elimination.*

Kirish. Zamonaviy dunyoda yosh avlodning psixologik holati global muammolardan biriga aylandi. Ayniqsa, boqmandalik psixologiyasi – ya’ni shaxsning o‘z hayotini mustaqil ravishda boshqara olmaslik, qarorlar qabul qilishda doimiy ravishda boshqalarga tayanish, moliyaviy, emotsional va ijtimoiy jihatdan boshqalarga to‘liq bog‘liq bo‘lib qolish holati – yoshlar orasida keng tarqalmoqda. Bu holat nafaqat shaxsiy rivojlanishni to‘xtatadi, balki jamiyatdagi ijtimoiy faollik, innovatsiyalar va iqtisodiy o‘sishga ham to‘siq bo‘ladi.

O‘zbek jamiyatida boqmandalik psixologiyasi bir necha omillar ta’sirida shakllanadi:

- An’anaviy oilaviy tarbiya uslublari (haddan tashqari himoya qilish, farzandlarni “bolaligida qoldirish”);

- Iqtisodiy qiyinchiliklar va yuqori ishsizlik darajasi;
- Urbanizatsiya va migratsiya jarayonlari (qishloqdan shaharga ko‘chib kelgan yoshlar oilaviy qo‘llab-quvvatlashdan mahrum bo‘lib, yangi muhitda yangi boqmandalik shakllarini hosil qiladi);
- Raqamli texnologiyalar va ijtimoiy tarmoqlarning ta’siri (virtual “qo‘llab-quvvatlash”ga o‘rganish).

Bu omillar yoshlarda o‘z-o‘ziga ishonchsizlik, qo‘rquv, mas’uliyatdan qochish va doimiy “kimgadir muhtojlik” hissini kuchaytiradi. Psixologik adabiyotlarda bu holat ko‘pincha “dependent personality disorder” (boqmandalik shaxsiyat buzilishi) yoki “learned helplessness” (o‘rganilgan nochorlik) tushunchalari bilan bog‘lanadi (Seligman, 1975; Millon, 1996).

O‘zbekiston kabi kollektiv madaniyatga ega jamiyatlarda boqmandalik individual emas, balki ijtimoiy muhit bilan chambarchas bog‘liq. Bu yerda mahalla – ming yillik tarixga ega ijtimoiy institut – yoshlarning psixologik rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. Mahalla nafaqat qo‘shnichilik munosabatlari tizimi, balki ijtimoiy nazorat, qadriyatlar uzatish, emotsional qo‘llab-quvvatlash va mustaqillikka o‘rgatish platformasi sifatida ishlaydi.

Tarixiy jihatdan mahalla O‘rta Osiyo jamiyatlarida oila va davlat o‘rtasidagi “vositachi” bo‘lgan. Zamonaviy sharoitda esa u yoshlarning boqmandalik psixologiyasini yumshatish va bartaraf etishda noyob mexanizmlarga ega:

- Guruh identifikatsiyasi orqali shaxsiy mas’uliyatni oshirish;
- Ijtimoiy o‘rnak (modeling) mexanizmi;
- Kollektiv yordam va nazorat balansi;
- An’anaviy qadriyatlar orqali mustaqillikni rag‘batlantirish.

Ushbu maqola quyidagi savollarga javob berishga qaratilgan:

1.Yoshlarda boqmandalik psixologiyasi qanday shakllanadi?

2.Mahallaning ijtimoiy-psixologik ta’sir mexanizmlari qaysilar?

3.Bu mexanizmlarni qanday samarali qo‘llash mumkin?

Tadqiqot nazariy tahlil (ijtimoiy o‘rganish nazariyasi – Bandura, guruh dinamikasi – Lewin, ijtimoiy kapital – Putnam), O‘zbekiston mahallalaridagi kuzatishlar va amaliy misollarga asoslanadi. Maqola yoshlar psixologiyasi, ijtimoiy ish va mahalla siyosati sohasidagi mutaxassislar uchun foydali bo‘lishi mumkin.

Asosiy qism.

1. Boqmandalik psixologiyasining mohiyati va yoshlardagi o‘ziga xos ko‘rinishlari

Boqmandalik psixologiyasi – shaxsning o‘z hayotini mustaqil ravishda boshqara olmaslik holati sifatida tushuniladi. Bu nafaqat moliyaviy yoki moddiy qaramlik, balki emotsional, qaror qabul qilish va o‘z-o‘zini baholash sohasidagi chuqur qaramlikdir. Psixologik adabiyotlarda bu holat ko‘pincha “dependent personality” (boqmand shaxsiyat) yoki “learned helplessness” (o‘rganilgan nochorlik) tushunchalari bilan ifodalanadi.

Yoshlarda boqmandalik quyidagi asosiy shakllarda namoyon bo‘ladi:

- **Emotsional boqmandalik** — do‘stlar, sherik yoki ota-onaga haddan tashqari bog‘lanib qolish, yolg‘izlikdan qo‘rqish, o‘z fikrini himoya qila olmaslik.
- **Qaror qabul qilishdagi qaramlik** — hatto oddiy kundalik masalalarda ham boshqalarning roziligini kutish, o‘z xohishini chetga surish.
- **Mas’uliyatdan qochish** — o‘z xatti-harakatlarining oqibatlari uchun javobgarlikni o‘z zimmasiga olmaslik, doimiy ravishda “kimgadir aybni yuklash”ga moyillik.
- **O‘z-o‘ziga ishonchsizlikning kuchayishi** — o‘z qobiliyatlariga shubha qilish, yangi tajribalardan qo‘rqish, xavfsiz va tanish muhitdan chiqib ketishni istamaslik.

O‘zbek jamiyatida bu holatning shakllanishiga bir necha omillar ta’sir qiladi:

- An’anaviy oilaviy tarbiya uslublari — farzandlarni haddan tashqari himoya qilish, ularning har bir qadamini nazorat qilish, mustaqil harakat qilish imkoniyatini cheklash.
- Ijtimoiy-iqtisodiy sharoit — yuqori darajadagi ishsizlik va moddiy qiyinchiliklar yoshlarni oilaga uzoq muddatli tayanishga majbur qiladi.
- Urbanizatsiya va migratsiya jarayonlari — qishloqdan shaharga ko‘chib kelgan yoshlar oilaviy qo‘llab-quvvatlash tizimidan uzilib, yangi muhitda yangi boqmandlik shakllarini hosil qiladi.
- Raqamli muhitning ta’siri — ijtimoiy tarmoqlardagi “layklar”, virtual do‘stlik va doimiy tasdiqlanish ehtiyoji real hayotdagi mustaqillikni yanada zaiflashtiradi.

Boqmandalikning eng xavfli oqibati — shaxsning o‘sish potentsialini yo‘qotishi. Yosh shaxs o‘zini rivojlantirish o‘rniga, doimiy tasdiqlash va yordam izlash holatida qolib ketadi. Bu esa nafaqat individual, balki jamiyat miqyosida ham passivlik, innovatsiyalar yetishmasligi va ijtimoiy harakatchanlikning pasayishiga olib keladi.

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston yoshlari orasida boqmandalik ijtimoiy qaramlik va mustaqillik o‘rtasidagi navigatsiya bilan bog‘liq. Masalan, UNICEFning “Youth of Uzbekistan: Challenges and Prospects” hisobotida yoshlarning ota-onaga haddan tashqari ishonchi va mahalla ichidagi itoatkorlik talabi ta’kidlanadi, bu esa qaror qabul qilishda cheklovlar hosil qiladi. Bu tadqiqot yoshlarning jamiyatdagi ishtirokini cheklashi va mustaqillikni kamaytirishini ko‘rsatadi.

Shuningdek, yoshlarning ruhiy salomatligi bo‘yicha tadqiqotlarda ijtimoiy bosim, raqamli texnologiyalar va oilaviy omillar boqmandalikni kuchaytirishi qayd etilgan. Bunday omillar yoshlarda depressiya va stressni oshirib, mustaqillikka to‘sqinlik qiladi.

2. Mahallaning ijtimoiy-psixologik ta’sir mexanizmlari: chuqur tahlil

Mahalla o‘zbek jamiyatida ming yillik tarixga ega bo‘lgan noyob ijtimoiy institut sifatida yoshlarda boqmandalikni yumshatish va bartaraf etishda bir qancha samarali psixologik mexanizmlarni ishga soladi.

Birinchi mexanizm: Ijtimoiy nazorat va mas’uliyatni shakllantirish Mahalla yig‘inlari, qo‘shnichilik maslahatlari, jamoat ishlari orqali yosh “doim kuzatuv ostida” ekanini his qiladi. Bu nazorat repressiv emas, balki ijobiy mas’uliyat hosil qiluvchi xususiyatga ega. Yosh shaxs “nima deb o‘ylashadi” degan qo‘rquv o‘rniga “qanday hissa qo‘shsam bo‘ladi” degan ichki motivatsiyaga o‘tadi. Bu jarayon Lewin guruh dinamikasi nazariyasida “maydon ichidagi kuchlar” ta’siri sifatida tushuntiriladi — guruh bosimi shaxsni o‘sish tomon yo‘naltiradi.

Ilmiy tadqiqotlar mahallaning ishonch va baxtni oshirishdagi rolini tasdiqlaydi. Masalan, Uzbekistan universitet yoshlarida baxt tushunchalari bo‘yicha tadqiqotda mahalla ijtimoiy ishonch va kollektiv qadriyatlar orqali yoshlarni qo‘llab-quvvatlashi qayd etilgan. Bu mexanizm boqmandalikni kamaytirib, shaxsiy mas’uliyatni oshiradi.

Ikkinchi mexanizm: Qo‘llab-quvvatlash va talabning muvozanati Mahalla yoshga ish topishda, kasb tanlashda, oila qurishda yordam beradi, lekin shu bilan birga “o‘zing harakat qil”, “o‘z qo‘ling bilan qur” tamoyilini singdiradi. Bu “secure base” (xavfsiz tayanch) va “challenge” (qiyinchilik) muvozanati bo‘lib, Bowlby bog‘lanish nazariyasiga mos keladi. Yosh shaxs xavfsiz muhitda bo‘lib, shu bilan birga o‘sish uchun rag‘bat topadi — bu boqmandalikni emas, balki mustaqillikni rivojlantiradi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, mahalla pro-sotsial xatti-harakatlar va xayriya orqali yoshlarni mustaqillikka o‘rgatadi. Uzbekistan'da xayriya tadqiqotida mahalla qo‘shnichilik yordamni tashkillashtirishi va ishonchni oshirishi ta’kidlangan, bu boqmandalikni kamaytiradi.

Uchinchi mexanizm: Ijtimoiy o‘rganish va modellash Albert Banduraning ijtimoiy o‘rganish nazariyasiga ko‘ra, yoshlar atrofidagi muvaffaqiyatli, mustaqil hayot kechirayotgan qo‘shnilarni kuzatib, ularning xatti-harakatlarini o‘zlashtiradi. Mahallada “o‘zini o‘zi ta’minlaydigan yosh oilalar”, “tadbirkor qo‘shnilar”, “faol jamoatchi yigit-qizlar”ning namunasi mavjud. Bu modellash jarayoni passiv qaramlikni faol harakatga aylantiradi.

Yoshlarning ruhiy va psixologik shakllanishi bo‘yicha tadqiqotda ijtimoiy omillar, shu jumladan mahalla, yoshlarning identifikatsiyasini shakllantirishi qayd etilgan. Bu mexanizm boqmandalikni o‘rganilgan nochorlikdan ozod etadi.

To‘rtinchi mexanizm: Madaniy va axloqiy integratsiya orqali “Men kerakman” tuyg‘usini hosil qilish Mahalla bayramlari, marosimlari, jamoat ishlarida ishtirok etish yoshlarga “men bu jamiyatning ajralmas qismiman” degan hissiyotni beradi. Bu tuyg‘u boqmandalikning asosiy manbai — “men hech kimga kerak emasman” degan ichki ishonchsizlikni yo‘q qiladi. Frommning “ozodlikdan qochish” konsepsiyasiga zid ravishda, mahalla yoshga “ozodlik + aloqadorlik” muvozanatini taklif etadi.

Markaziy Osiyo yoshlari bo‘yicha tadqiqotlarda mahalla tinchlik qurish va ijtimoiy integratsiyada muhim rol o‘ynashi ta’kidlangan. Bu integratsiya boqmandalikni bartaraf etishga yordam beradi.

Beshinchi mexanizm: Guruh identifikatsiyasi orqali shaxsiy chegaralarni kengaytirish Mahalla ichidagi guruh (yoshlar yetakchilari, sport to‘garaklari, kitobxonlik klublari) yoshga “biz bilan birga” bo‘lish imkonini beradi, lekin shu bilan birga shaxsiy mas’uliyatni talab qiladi. Bu identifikatsiya jarayoni shaxsning o‘z chegaralarini kengaytirishga yordam beradi — boqmandalik esa aksincha, chegaralarni toraytiradi.

World Bankning “Mind, Society, and Behavior” hisobotida psixologik va ijtimoiy ta’sirlar, shu jumladan jamiyatdagi normalar, boqmandalikni shakllantirishi qayd etilgan.

3. Amaliy yondashuvlar va mahalla darajasidagi strategiyalar

Mahallada boqmandalikni bartaraf etish uchun quyidagi yo‘nalishlar samarali:

- Yoshlar yetakchilari tomonidan tashkil etiladigan muntazam uchrashuvlar va individual suhbatlar — yoshning ichki qo‘rquvlari va o‘ziga ishonchsizligini ochiq muhokama qilish.
- “Mustaqillik maktabi” turidagi doimiy mashg‘ulotlar — moliyaviy savodxonlik, qaror qabul qilish ko‘nikmalari, emotsional mustaqillikni rivojlantirish.

- Jamoat loyihalari orqali faol ishtirok — yosh o‘z qo‘li bilan biror narsa qurishi, tashkil etishi yoki yordam berishi kerak (masalan, mahalla bog‘ini obodonlashtirish, kichik tadbirlarni o‘tkazish).
- Iqtidor va qobiliyatlarni aniqlash va rivojlantirish — har bir yoshning kuchli tomonini topib, uni jamiyat oldida namoyish etish imkonini berish.
- Oilalar bilan hamkorlik — ota-onalar bilan psixologik mashg‘ulotlar o‘tkazish, ularni “haddan tashqari himoya”dan voz kechishga o‘rgatish.

Mahalla bu jarayonda nafaqat yordam beruvchi, balki talab qo‘yuvchi institut sifatida ishlaydi. Bu muvozanat — boqmandalikni bartaraf etishning eng muhim sharti.

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda mahalla ijtimoiy muhit va tarbiyaviy marosimlar orqali muhim rol o‘ynaydi. Shuningdek, o'smirlarning o'z joniga qasd qilish xavfi tadqiqotlarida ijtimoiy omillar, shu jumladan mahalla qo‘llab-quvvatlashi, boqmandalikni kamaytirishi mumkin.

Xulosa. Yoshlarda boqmandalik psixologiyasini bartaraf etishda mahallaning ijtimoiy-psixologik ta’sir mexanizmlari mavzusini chuqur yoritgan ushbu maqola natijalarini umumlashtirar ekanmiz, quyidagi asosiy xulosalarga kelish mumkin.

Boqmandalik psixologiyasi – bu zamonaviy jamiyatda, xususan, o‘tish davridagi O‘zbekiston kabi mamlakatlarda yosh avlod orasida keng tarqalgan va chuqur ildiz otgan muammo. U shaxsning mustaqil qaror qabul qila olmasligi, mas’uliyatdan qochishi, emotsional va moddiy jihatdan boshqalarga haddan tashqari tayanishi bilan namoyon bo‘lib, shaxsiy rivojlanishni sekinlashtiradi, jamiyatdagi faollik va innovatsion salohiyatni pasaytiradi. Bu holatning paydo bo‘lishida oilaviy tarbiya uslublari (haddan tashqari himoya), iqtisodiy qiyinchiliklar, urbanizatsiya jarayonlari, migratsiya va raqamli muhitning salbiy ta’sirlari muhim rol o‘ynaydi.

Shu bilan birga, O‘zbekistonning ming yillik tarixga ega bo‘lgan noyob ijtimoiy instituti – **mahalla** – bu muammoni yumshatish va bartaraf etishda samarali vosita sifatida o‘zini ko‘rsatmoqda. Mahalla nafaqat qo‘shnichilik munosabatlari tizimi, balki ijtimoiy-psixologik ta’sirning kuchli mexanizmlarini o‘z ichiga olgan murakkab tuzumdir. Ushbu mexanizmlar quyidagilardan iborat:

- Ijtimoiy nazorat va mas’uliyatni shakllantirish orqali yoshlarda “men jamiyat oldida javobgarman” degan ichki tuyg‘uni uyg‘otish;
- Qo‘llab-quvvatlash va talabning muvozanatini yaratish – yoshga xavfsiz tayanch berib, shu bilan birga o‘sish uchun rag‘bat va talab qo‘yish;
- Ijtimoiy o‘rnak va modellash (Bandura nazariyasi asosida) – mustaqil va faol qo‘shnilarning hayot tarzi orqali yoshlarga real namunalar ko‘rsatish;
- Madaniy-axloqiy integratsiya – bayramlar, marosimlar va jamoat ishlari orqali “men bu jamiyatning ajralmas qismiman” degan kuchli identifikatsiyani hosil qilish;
- Guruh dinamikasi orqali shaxsiy chegaralarni kengaytirish – yoshlarni kichik guruhlar (to‘garaklar, loyihalar) ichida faol ishtirok etishga jalb qilish.

Ilmiy adabiyotlar va O‘zbekistondagi tadqiqotlar shuni tasdiqlaydiki, mahalla yoshlar tarbiyasida oila va ta’lim muassasalari bilan birgalikda “uch birlik” tamoyilini amalga oshiradi. Mahalla nafaqat ma’naviy qadriyatlar va milliy an’analarni uzatuvchi, balki yoshlarni ijtimoiy faollikka, mustaqillikka va mas’uliyatga o‘rgatuvchi muhitdir. “Bir bolaga yetti mahalla ota-ona” degan xalq donoligida aynan shu kollektiv tarbiya va qo‘llab-quvvatlash ruhi mujassam.

Mahallaning zamonaviy sharoitdagi afzalligi shundaki, u davlat siyosati bilan uyg‘unlashgan holda ishlay oladi. Yoshlar yetakchilari, mahalla faollari, “Yoshlar daftari” kabi tashabbuslar orqali individual yondashuv va jamoaviy yordam birlashtirilmoqda. Bu esa boqmandalik psixologiyasini nafaqat yumshatadi, balki uning ildizlarini quritishga imkon beradi.

Ammo, mahallaning bu potentsialini to‘liq ishga solish uchun bir qator muhim shartlar bajarilishi lozim:

- Mahalla raislari va faollarini psixologik-pedagogik jihatdan tayyorlash, ularni yoshlar bilan samarali ishlashga o‘rgatish;
- Mahallalarda professional psixologlar va ijtimoiy xodimlar lavozimlarini joriy etish;
- Yoshlarni jalb qiluvchi doimiy loyihalar (sport, kasbiy treninglar, ijtimoiy tadbirlar, kichik biznes dasturlari) sonini ko‘paytirish;
- Oilalar bilan hamkorlikni kuchaytirish – ota-onalarni “haddan tashqari himoya”dan voz kechishga, farzandlariga mustaqillik berishga undash;
- Davlat va nodavlat tashkilotlar, xalqaro fondlar bilan mahalla darajasidagi hamkorlikni rivojlantirish;
- Ushbu sohada empirik monitoring va ilmiy tadqiqotlarni muntazam o‘tkazish – natijalarni baholash va eng samarali amaliyotlarni keng tarqatish.

Xulosa qilib aytganda, boqmandalik psixologiyasi – bu nafaqat individual shaxsiyat muammosi, balki jamiyat rivojiga to‘siq bo‘luvchi ijtimoiy hodisadir. Uni bartaraf etishda mahalla instituti O‘zbekiston uchun noyob va samarali vositadir, chunki u milliy madaniyat, an’anaviy qadriyatlar va zamonaviy ijtimoiy ehtiyojlarni muvaffaqiyatli uyg‘unlashtira oladi.

Agar mahalla o‘zining asl mohiyatini – kollektiv mas’uliyat, mehr-oqibat va rag‘batlantiruvchi talab tamoyillarini saqlab qolgan holda, zamonaviy usullar bilan boyitilsa, u yosh avlodni mustaqil, ijodkor, mas’uliyatli va jamiyatga foyda keltiruvchi shaxslarga aylantirishda hal qiluvchi rol o‘ynay oladi.

Bu nafaqat yoshlarning shaxsiy baxti va muvaffaqiyati uchun, balki butun mamlakatning barqaror rivojlanishi, ijtimoiy barqarorlik va kelajak avlodlar farovonligi uchun muhim qadam bo‘ladi. Mahalla – milliy madaniyatning yuragi bo‘lib qolgan ekan, uni to‘g‘ri va zamonaviy yo‘nalishda rivojlantirish orqali biz yoshlarni boqmandalikdan ozod qilib, ularni haqiqiy mustaqillik va o‘z-o‘ziga ishonch egalariga aylantira olamiz.

Adabiyotlar:

1.Bandura, A. (1977). *Social Learning Theory*. Prentice-Hall. (Ijtimoiy o‘rganish nazariyasi va modellash mexanizmi asosiy manba.)

2.Seligman, M. E. P. (1975). *Helplessness: On Depression, Development, and Death*. W. H. Freeman. (O‘rganilgan nochorlik nazariyasi va uning yoshlardagi ko‘rinishlari.)

3.Seligman, M. E. P., & Maier, S. F. (1967). Learned helplessness: Theory and evidence. *Journal of Experimental Psychology*, 74(1), 1–9. (O‘rganilgan nochorlikning klassik tadqiqoti.)

4.UNICEF Uzbekistan. (2020). *Youth of Uzbekistan: Challenges and Prospects*. UNICEF Report. (O‘zbekiston yoshlari orasidagi ijtimoiy muammolar, mahalla roli va mustaqillik masalalari.)

5.Dadabaev, T. (2013). Community Life, Memory and a Changing Nature of Mahalla Identity in Uzbekistan. *Europe-Asia Studies*, 65(3), 1–20. (Mahalla identifikatsiyasi va ijtimoiy roli bo‘yicha tadqiqot.)

6.Sievers, E. (2002). Uzbekistan's Mahalla: From Soviet to Absolutist Residential Community Associations. *Journal of International and Comparative Law at Chicago-Kent*, 2(1), 91–158. (Mahallaning sovetdan keyingi rivojlanishi va ijtimoiy-psixologik ta’siri.)

7.Millon, T. (1996). *Disorders of Personality: DSM-IV and Beyond*. Wiley. (Boqmandalik shaxsiyat buzilishi va uning psixologik asoslari.)

8.Bowlby, J. (1988). *A Secure Base: Parent-Child Attachment and Healthy Human Development*. Basic Books. (Bog‘lanish nazariyasi va xavfsiz tayanch mexanizmi, mahalla qo‘llab-quvvatlashi bilan bog‘liq.)

9.Fromm, E. (1941). *Escape from Freedom*. Farrar & Rinehart. (Ozodlikdan qochish va kollektiv muhitdagi bog‘liqlik psixologiyasi.)

10.Putnam, R. D. (2000). *Bowling Alone: The Collapse and Revival of American Community*. Simon & Schuster. (Ijtimoiy kapital va jamoat institutlari roli, mahalla kabi tuzumlar bilan solishtirma tahlil uchun.)

UO’K 519.1:159.9:37

KOMBINATORIKA ELEMENTLARINING PSIXOLOGIK TADQIQOT FAOLIYATIDA KASBIY LAYOQATNI SHAKLLANTIRISHDAGI O‘RNI

Abduxakimov Saidaxmat Xazratkulovich,
O‘zMU Jizzax filiali Amaliy matematika kafedrasi f.-m.f.n. (PhD)
Abduxakimova Maftuna G‘ofur qizi,
O‘zMU Jizzax filiali Amaliy matematika kafedrasi o‘qituvchilari
abduhakimova1995@gmail.com
Madiyarov Nurlibay Kokeshovich,
Muxtor Avezov nomidagi Janubiy Qozog‘iston universiteti
«Tabiiy va aniq fanlar pedagogikasi» fakulteti dekani pedagogika fanlari nomzodi, dotsent
Isroilova Dilnura Temurbek qizi,
O‘zMU Jizzax filiali Amaliy matematika yo‘nalishi talabasi

Ushbu ishda psixologik tadqiqot faoliyatida kasbiy layoqatni shakllantirish jarayonida kombinatorika elementlarining nazariy va metodik ahamiyati atroflicha tahlil qilinadi. Psixologiya yo‘nalishida ta’lim olayotgan talabalarga kombinatorik tafakkurni shakllantirish, ularning mantiqiy fikrlash, tahlil qilish variantlarni solishtirish va optimal qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi o‘rni ilmiy asosda yoritiladi. Ishda kombinatorikaning psixologik tadqiqotlardagi amaliy qo‘llanilishi, xususan respondentlarni tanlash jarayonida tanlanmalar sonini aniqlash, test va diagnostik topshiriqlarni tuzishda variantlar kombinatsiyasini shakllantirish, eksperimental dizaynni rejalashtirish, hamda olingan natijalarni statistik jihatdan qayta ishlash bosqichlaridagi ahamiyati ochib beriladi. Shuningdek, tasodifiylik va variantlilik tushunchalarining psixologik tadqiqot metodologiyasi bilan uzviy bog‘liqligi ko’rsatib o‘tiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rstadiki, kombinatorika elementlarini o‘qitish talabalarda ilmiy-tadqiqot kompetensiyasini, analitik fikrlashni va kasbiy faoliyatga tayyorgarlik darajasini oshiradi. Mazkur yondashuv psixologiya sohasida sifatli va ishonchli empirik tadqiqotlar olib boorish uchun zarur bo‘lgan matematik tayyorgarlikni mustahkamlashda tutgan o‘rni asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: *Kombinatorika, kasbiy layoqat, kasbiy yo‘naltirilganlik, matematik tafakkur, tanlanma, variatsiya, respondentlarni tanlash, tasodifiylik, tadqiqot metodologiyasi, statistik tahlil, vizual modellashtirish, kasbiy kompetensiya.*

РОЛЬ ЭЛЕМЕНТОВ КОМБИНАТОРИКИ В ФОРМИРОВАНИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ В ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

В данной работе всесторонне анализируется теоретико-методическое значение элементов комбинаторики в процессе формирования профессиональной пригодности в психологической исследовательской деятельности. Научно обосновывается роль формирования комбинаторного мышления у студентов направления психологии, а также его значение в развитии логического мышления, аналитических способностей, навыков сравнения альтернативных вариантов и принятия оптимальных решений. В работе раскрывается практическое применение комбинаторики в психологических исследованиях, в частности её значение при определении объёма выборки в процессе отбора респондентов, формировании вариантов тестовых и диагностических заданий, планировании экспериментального дизайна, а также при статистической обработке полученных результатов. Кроме того, показана взаимосвязь понятий случайности и вариативности с методологией психологического исследования. Результаты исследования свидетельствуют о том, что обучение элементам комбинаторики способствует развитию у студентов научно-исследовательской компетентности, аналитического мышления и повышению уровня их профессиональной готовности. Обосновано, что данный подход укрепляет математическую подготовку, необходимую для проведения качественных и достоверных эмпирических исследований в области психологии.

Ключевые слова: *комбинаторика, профессиональная пригодность, профессиональная направленность, математическое мышление, выборка, вариация, отбор респондентов, случайность, методология исследования, статистический анализ, визуальное моделирование, профессиональная компетенция.*

THE ROLE OF COMBINATORICS ELEMENTS IN THE FORMATION OF PROFESSIONAL COMPETENCE IN PSYCHOLOGICAL RESEARCH ACTIVITIES

This study provides a comprehensive analysis of the theoretical and methodological significance of combinatorics elements in the process of forming professional competence within psychological research activities. The scientific basis for developing combinatorial thinking among psychology students is substantiated, highlighting its role in enhancing logical reasoning, analytical skills, comparison of alternatives, and the ability to make optimal decisions. The paper examines the practical application of combinatorics in psychological research, particularly in determining sample size during respondent selection, constructing combinations of test and diagnostic tasks, planning experimental design, and statistically processing the obtained results. Furthermore, the interconnection between the concepts of randomness and variability and the methodology of psychological research is demonstrated. The research findings indicate that teaching elements of combinatorics contributes to the development of students' research competence, analytical thinking, and readiness for professional activity. This approach strengthens the mathematical foundation necessary for conducting high-quality and reliable empirical research in the field of psychology.

Keywords: *combinatorics, professional aptitude, professional orientation, mathematical thinking, sample, variation, respondent selection, randomness, research methodology, statistical analysis, visual modeling, professional competence.*

Kirish. Bugungi globallashuv va raqamlashtirish jarayonlari sharoitida ta’lim tizimida matematika fanining amaliy ahamiyati tobora ortib bormoqda. Zamonaviy ilm-fan integratsiyalashuvga asoslanib rivojlanayotgan bir paytda, matematika nafaqat aniq fanlar, balki ijtimoiy-gumanitar yo‘nalishlar, xususan psixologiya sohasida ham muhim metodologik vosita sifatida namoyon bo‘lmoqda. Psixologiya yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun matematik tafakkurni rivojlantirish, mantiqiy va analitik fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish, ma’lumotlarni tahlil qilish va ilmiy xulosa chiqarish kompetensiyalarini egallash dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Psixologik tadqiqotlar murakkab va ko‘p omilli jarayon bo‘lib, unda empirik ma’lumotlarni yig‘ish, ularni qayta ishlash va natijalarni ilmiy asosda talqin qilish zarurati mavjud. Bu jarayonda statistik tahlil, ehtimollar nazariyasi va kombinatorika elementlari asosiy metodik qo‘llanma sifatida xizmat qiladi. Masalan, respondentlarni tanlashda tanlanma hajmini aniqlash, eksperimental va nazorat guruhlarini shakllantirish, test topshiriqlarining variantlarini tuzish, natijalarni guruhlash va umumlashtirish kabi bosqichlarda kombinatorik yondashuv alohida ahamiyat kasb etadi. Ehtimollik tushunchalarini anglash esa tasodifiylik omilini hisobga olish va tadqiqot natijalarining ishonchliligini ta’minlash imkonini beradi. Shu bois, psixologiya yo‘nalishida o‘qitiladigan “Oliy matematika”, “Statistik tahlil”, “Psixometriya” kabi fanlar doirasida kombinatorika masalalarini o‘rganish talabalarning ilmiy dunyoqarashini kengaytiradi, ularning metodologik savodxonligini oshiradi hamda ilmiy-tadqiqot faoliyatiga puxta tayyorgarlik ko‘rishiga xizmat qiladi. Mazkur fanlar integratsiyasi natijasida talabalar matematik bilimlarni kasbiy faoliyat bilan bog‘lash, nazariy tushunchalarni amaliy vaziyatlarda qo‘llash va empirik ma’lumotlar asosida asoslangan xulosalar chiqarish ko‘nikmasiga ega bo‘ladilar. Matematikaning psixologiya ta’limidagi o‘rni nafaqat yordamchi fan sifatida, balki ilmiy tafakkurni shakllantiruvchi, tadqiqot madaniyatini rivojlantiruvchi va kasbiy kompetensiyani mustahkamlovchi fundamental asos sifatida namoyon bo‘ladi. ([1]-[3]).

Kombinatorika matematik tahlilning asosiy va muhim bo‘limlaridan biri hisoblanib, u elementlar to‘plamidan ma’lum bir tartibda joylashtirish, tanlash yoki guruhlash usullarini o‘rganadi. Kombinatorik yondashuvlar matematik tafakkur, tizimli fikrlash va mantiqiy tahlil ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi, shu bilan birga ilmiy-tadqiqot faoliyatida nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo‘ladi. Ushbu usullarning psixologiya bilan bog‘liqligi, bir qarashda, noaniq ko‘rinishi mumkin. Ammo, psixologik tadqiqot jarayonlarini chuqur tahlil qilganda, kombinatorika usullarining tadqiqot metodologiyasida markaziy rol o‘ynashi yaqqol namoyon bo‘ladi. Jumladan, respondentlarni tanlash jarayonida tanlanma hajmini aniqlash, eksperimental va nazorat guruhlarini shakllantirish, test va diagnostik topshiriqlarni shakllantirish, tajriba natijalarini guruhlash, variantlarni solishtirish va umumlashtirish kabi bosqichlarda kombinatorik yondashuvlar asosiy vosita sifatida qo‘llaniladi. Shu bilan birga, ehtimollik va variantlilik tushunchalarini hisobga olgan holda psixologik ma’lumotlarni ishonchli statistik tahlil qilish imkoniyati yaratiladi. Shu sababli, psixologiya yo‘nalishi talabalariga kombinatorika elementlarini o‘rgatishda an’anaviy matematik yondashuv bilan bir qatorda kasbiy yo‘naltirilgan metodik usullarni qo‘llash ilmiy jihatdan zarurdir. Bu yondashuvlar talabalarda mantiqiy, tizimli va analitik fikrlashni rivojlantirish bilan birga, ularni

ilmiy-tadqiqot kompetensiyasi va kasbiy faoliyatga tayyorgarlik darajasini oshirishga xizmat qiladi. Metodik yondashuvning mohiyati shundaki, kombinatorika masalalari nafaqat matematik bilim sifatida o‘rganiladi, balki ularning psixologik tadqiqot jarayonlarida amaliy qo‘llanilishi ham ko‘rsatib beriladi. Natijada, talabalar o‘z ilmiy-tadqiqot faoliyatlarida kombinatorik tafakkur asosida murakkab ma’lumotlarni tahlil qilish, optimal qarorlar qabul qilish va empirik natijalarni ilmiy asosda tushuntirish qobiliyatiga ega bo‘ladilar ([1]-[6]).

Kombinatorika elementlarini o‘qitishning nazariy asoslari. Kombinatorika tushunchasi matematika tarixining dastlabki davrlarida paydo bo‘lgan bo‘lib, uning elementlariga qadimgi yunon olimlari Evklid, Pifagor, hamda keyinchalik arab olimi al-Xorazmiy asarlarida duch kelish mumkin. Zamonaviy kombinatorikaning shakllanishida B. Paskal, I. Nyuton, G. Leybnits kabi olimlarning hissasi beqiyosdir. Bugungi kunda kombinatorika faqat nazariy fan sifatida emas, balki informatika, iqtisodiyot, diskret, matematika, psixologiya va biologiya kabi ko‘plab yo‘nalishlarda amaliy qo‘llaniladigan sohaga aylangan.Psixologiya yo‘nalishidagi talabalarga kombinatorika elementlarini o‘qitishda nazariy asoslarni psixologik faoliyatning o‘ziga xos jihatlari bilan uyg‘unlashtirish zarur. Psixologlar uchun kombinatorika bu mantiqiy modellashtirish, ehtimollik tahlili va statistik qarorlar qabul qilish vositasi sifatida xizmat qiladi [3].

Masalalarni psixologik misollar bilan tushuntirishi maqsadga muvofiqdir. Masalan, psixologik testda 10 ta savol mavjud bo‘lsa va ishtirokchi 5 tasini tanlashi kerak bo‘lsa, bunday tanlashning nechta usuli mavjudligini aniqlash kombinatorika masalasi bo‘ladi. Shu orqali talabalar kombinatorika mavzularining o‘z sohasi bilan uzviy bog‘liqligini amalda ko‘rishadi.Psixologiya yo‘nalishidagi talabalarga kombinatorika mavzusini o‘qitishda ularning matematik tayyorgarlik darajasini hisobga olish zarur. Chunki ko‘pchilik psixologiya yo‘nalishiga kiruvchi talabalar tabiiy fanlarga kamroq moyil bo‘lishadi, bu esa abstrakt tushunchalarni o‘zlashtirishni qiyinlashtiradi ([4]-[9]). Shu sababli o‘qituvchi mavzuni bayon etishda matematik formulalarga emas, balki hayotiy, kasbiy va amaliy misollar asosida tushuntirishga e’tibor qaratishi lozim.

Kombinatorika (yoki kombinatorik tahlil) diskret matematikaning bo‘limi bo‘lib, berilgan qoidalar asosida diskret to‘plam elementlarini tanlash, tartiblash va joylashtirish usullarini o‘rganadi. U cheklangan elementlar yordamida nechta mumkin bo‘lgan tartib yoki kombinatsiya hosil qilishni aniqlaydi.

Har xil predmetlardan (masalan, harflar, sharlar, kubiklar yoki sonlardan) tuzilgan to‘plamlar kombinatsiyalar deb ataladi, to‘plam tarkibidagi har bir alohida predmet esa element hisoblanadi.

Kombinatorika elementlarini o‘qitishda metodik yondashuvlar

Psixologiya yo‘nalishidagi talabalarga kombinatorika o‘rgatish metodikasi quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

1. Kasbiy yo‘naltirilganlik tamoyili: O‘qituvchi kombinatorika masalalarini psixologik faoliyat bilan bog‘lab tushuntiradi. Masalan, “psixologik test savollarini nechta tartibda joylashtirish mumkin?” yoki “turli temperament tiplari asosida nechta respondent juftligi tuzish mumkin?” kabi savollar orqali kombinatorikaning amaliy ahamiyati ko‘rsatiladi.

2.Vizual modellashtirish tamoyili: Talabalarga abstrakt formulalarni yodlashdan ko‘ra, ularni diagramma, jadval, daraxtsimon sxemalar orqali modellashtirish tavsiya etiladi. Bu metod psixologiya talabalari uchun o‘ta samaralidir, chunki ular obrazli fikrlashga moyil bo‘lishadi.

3. Muammoli o‘qitish tamoyili: Har bir yangi mavzu muammoli savol yoki real vaziyatdan boshlanadi. Masalan: “Agar 5 nafar psixologik maslahatchi 10 nafar mijoz bilan ishlashi kerak bo‘lsa, ularga nechta turli tarzda mijozlarni taqsimlash mumkin?” Talabalar bu savolni hal qilish jarayonida kombinatorikaning mohiyatini mustaqil kashf etadilar.

4.Interfaol metodlardan foydalanish: “Aqliy hujum”, “klaster”, “blits-savollar”, “test dizayni yaratish”, “rol o‘ynash” kabi usullar mavzuni chuqurroq o‘zlashtirishga yordam beradi. Masalan, talabalar kichik guruhlarda o‘zlari psixologik test tuzib, kombinatorik imkoniyatlarini hisoblab chiqishadi.

5.Raqamli texnologiyalarni qo‘llash: Zamonaviy o‘qitish jarayonida “GeoGebra”, “Desmos”, “Wolfram Alpha” yoki oddiy “Excel” dasturlaridan foydalanish, kombinatorik hisob-kitoblarni vizual tarzda ko‘rsatish imkonini beradi. Bunday yondashuv talabalarni mustaqil o‘rganishga rag‘batlantiradi.

Amaliy topshiriqlar tizimi va psixologik misollar

Kombinatorika mavzusini o‘rgatishda amaliy topshiriqlar tizimi muhim o‘rin tutadi. Bu topshiriqlar psixologik kontekstda berilganda, mavzu talabalarga ancha tushunarli bo‘ladi. Quyida shunday topshiriqlarning ayrim namunalarini keltiramiz.

Topshiriq.

1. Psixologik tadqiqotda 6 nafar respondent ishtirok etadi. Ulardan 3 kishilik nechta guruh tuzish mumkin?

Yechim: Bu holatda kombinatorikaning asosiy qoidalridan biri guruhlashlar soni formulasidan foydalanib yechamiz, misolda $n=6$ va $m=3$ kombinatsiyalar soni $N=C_6^3=\frac{6!}{3!(6-3)!}=4\cdot5=20$

Demak, 6 respondenti 3 kishilik 20 ta guruh tuzish mumkin.

2. Psixolog 5 xil test savolini respondentlarga turli tartibda berishni xohlaydi. Test variantlari nechta bo‘ladi?

Yechim: Bu misol kombinatorikaning o‘rin almashtirishlar formulasini qo‘llab yechamiz $n=5$ hol uchun o‘rin almashtirishlar sonini topamiz. $P_5=5!=1\cdot2\cdot3\cdot4\cdot5=120$ Demak, 120 xil test varianti tuzish mumkin.

3. Stress darajasini o‘lchovchi so‘rovnomada 7 ta savol bor. Har bir savolga “ha” yoki “yo‘q” deb javob beriladi. Nechta javob kombinatsiyasi mavjud?

Yechish. Bu misolda guruhlash formulasidan quyidagicha ko‘rinishda qo‘llab, shu kombinatsiyalarni topib chiqib qo’shish qoidasidan foydalanib yechamiz.

$$C_7^0+C_7^1+C_7^2+C_7^3+C_7^4+C_7^5+C_7^6+C_7^7=128$$

Bu masalalar psixologik tahlil jarayonida real qo‘llaniladigan vaziyatlar bilan bevosita bog‘liq.

Innovatsion texnologiyalar va interfaol metodlar

So‘nggi yillarda ta’lim tizimida innovatsion yondashuvlar keng qo‘llanilmoqda. Psixologiya yo‘nalishi talabalari uchun matematik mavzularni, xususan kombinatorikani o‘qitishda quyidagi metodlar samarali hisoblanadi:

1.“Case-study” (amaliy holat tahlili) – talabalarga real psixologik tadqiqot misoli beriladi va undagi statistik tanlash jarayonini kombinatorika orqali yechish so‘raladi.

2.“Projekt-metod” (loyiha asosida o‘qitish) – talabalar kichik guruhlar bo‘lib, “psixologik test yaratish”, “respondentlarni tanlash modeli” kabi mini-loyihalarni bajarishadi. Bu jarayonda ular kombinatsion hisoblashlarni mustaqil o‘rganadilar.

3. **Raqamli ta’lim vositalari.**“Google Sheets” yordamida kombinatorik jadvallar yaratish;

“Kahoot” yoki “Quiz” platformalarida interfaol testlar tuzish;

4. Refleksiya va baholash: Har bir mashg‘ulot yakunida talabalar o‘z o‘rganilgan materialni tahlil qiladi. “Qaysi kombinatorika usuli mening kasbiy faoliyatimda foydali bo‘ladi?” yoki “Men bugun qanday yangilik o‘rgandim?” kabi savollar orqali o‘z-o‘zini baholashni o‘rganadilar. Innovatsion texnologiyalarni qo‘llash natijasida talabalar kombinatorika mavzusini nafaqat nazariy, balki amaliy kasbiy kompetensiya sifatida ham egallaydilar.

Xulosa. Olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, psixologiya yo‘nalishida ta’lim olayotgan talabalarga kombinatorika elementlarini o‘qitish jarayoni nafaqat matematik bilimlarni shakllantirish, balki ularning ilmiy-tadqiqot faoliyatiga metodologik jihatdan tayyorgarligini ta’minlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Kombinatorik yondashuv tafakkurning mantiqiylik, izchillik va variantlilik kabi sifatlarini rivojlantiradi hamda murakkab ilmiy muammolarni ko‘p variantli tahlil asosida hal etish ko‘nikmasini shakllantiradi. Bu esa psixologik tadqiqotlarda ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilish jarayonining samaradorligini oshiradi. Tadqiqot natijalari kombinatorika elementlarining respondentlarni tanlash, tanlanma hajmini aniqlash, eksperimental va nazorat guruhlarini shakllantirish, test va diagnostik vositalarni konstruksiyalash, shuningdek empirik ma’lumotlarni statistik qayta ishlash bosqichlarida muhim metodik asos bo‘lib xizmat qilishini tasdiqlaydi. Xususan, tasodifiylik va variantlilik kategoriyalarining mazmunini anglash psixologik tadqiqot metodologiyasini chuqurroq o‘zlashtirishga hamda tadqiqot natijalarining ishonchlilik darajasini oshirishga imkon yaratadi. Shuningdek, kasbiy yo‘naltirilgan o‘qitish, vizual modellashtirish, muammoli vaziyatlar asosida ta’limni tashkil etish va innovatsion pedagogik texnologiyalarni integratsiyalash kombinatorika mavzusining mazmunan chuqur va amaliy jihatdan ahamiyatli o‘zlashtirilishini ta’minlaydi. Mazkur metodik yondashuvlar talabalarda ilmiy-tadqiqot kompetensiyasi, analitik tafakkur, ma’lumotlarni tizimlashtirish va umumlashtirish qobiliyatini rivojlantiradi. Umuman olganda, kombinatorika elementlarini psixologik ta’lim jarayoniga tizimli ravishda integratsiya qilish bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy layoqatini shakllantirish, ularning matematik va metodologik tayyorgarligini mustahkamlash hamda zamonaviy psixologik tadqiqotlarni yuqori ilmiy saviyada olib borish imkonini beruvchi muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi. Kombinatorika psixologik tadqiqotlarda statistik tahlilni to‘g‘ri olib borish, respondentlar tanlash, test tuzish, ma’lumotlarni guruhlash va natijalarni umumlashtirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Ishda ko‘rsatilgan metodik yondashuvlar kasbiy yo‘naltirilganlik, vizual modellashtirish, muammoli o‘qitish va innovatsion texnologiyalardan foydalanish psixologiya yo‘nalishi talabalari uchun kombinatorika mavzusini samarali o‘zlashtirishga imkon yaratadi.

Adabiyotlar:

1. M. Karimov, N. Qodirova. Kombinatorika va ehtimollar nazariyasi asoslari. Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti nashriyoti. 2020.

2. A. Xolmatov. Matematika o‘qitish metodikasi. Toshkent: Fan va texnologiya. 2019.

3. D. Jalilova, A.Xudoyberdiyev. Psixologiyada statistik tahlilning matematik asoslari. Psixologiya va pedagogika jurnali, 2021. 3(2), 45–53.

4. R. Shapiyev. Kombinatorika: Asosiy tushunchalar va masalalar. Toshkent: Navro‘z nashriyoti. 2018.

5. M.Abduxakimova, S. Abduxakimov , D. Abdug‘aniyeva Numerical Verification Of The Rao-Cramer Inequality And Analysis Of The Efficiency Of Statistical Estimators The American Journal of Sciences ISSN2689-0992. -39-45, 2026-yil.

6. B. Niyozov. Psixologik tadqiqotlarda tanlanma va guruhlash usullari. Oliy ta’lim muammolari, 2022. 4(1), 88–94.

7. Xoliqov Y. Raqamli ta’lim texnologiyalari va ularning o‘qitish jarayonidagi o‘rni. Toshkent: Innovatsiya ziyo nashriyoti. 2021.

8. Rasulov A.S., Raimova G.M., Sarimsakova X.K. Ehtimollar nazariyasi va matematik statistika. Toshkent. 2006.

9. Abduxakimov S., Abduxakimova M. Bir nechta sinishga ega aylana gomeomorfizmlarning ergodikligi Kompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari mavzusidagi Xalqaro ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami (2025-yil 26-27-sentabr) 1-QISM. -127-128, 2025-yil.

OLIY TA’LIMDA TALABALARNI KASBGA YO‘LLASHDA AUDITORIYADAN TASHQARI MASHG‘ULOTLARNING O‘RNI

Esanova Sarvinoz Uktamovna,
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi
sarvinozesanova@mail.ru

Maqolada oliy ta’limda auditoriyadan tashqari to‘garak mashg‘ulotlarida talabalarning xalq hunarmandchiligiga oid ijtimoiy kompetensiyalarini tashkil etish metodikasi mazmunan izchil, ketma-ketlik prinsipi asosida tahlil qilingan bo‘lib, unda kasbga yo‘naltirish paradigmasi “Ustoz-shogird” aloqasi orqali talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish yo‘llari yoritib berilgan. Ta’limning kasbga yo‘naltirish paradigmasi shaxsning qiziqishlari, mayl va qobiliyatlarining shakllanishini ifodalaydi. Ushbu paradigma asosida shaxs olamni mukammalroq tushunishga intiladi, uning xohish-istaklari yuzaga keladi va ular samarali amalga oshiriladi. Ta’lim jarayonida bularning har biri psixologik-pedagogik nuqtai nazardan identifikatsiya qilinib, ustuvorlik asosida aniqlashtirildi. Qiziqish, moyillik va qobiliyat kasb-hunar tanlashda birlamchi sifatlar hisoblanadi

Kalit so‘zlar: *talaba, oliy ta’lim, kasb, auditoriya, mashg‘ulot, to‘garak, kasbga yo‘naltirish, ustoz, shogird, ijodiy faoliyat, hunarmandchilik, variativ komponent, ijtimoiy kompetensiya.*

РОЛЬ ВНЕАУДИТОРНЫХ ЗАНЯТИЙ В ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ОРИЕНТАЦИИ СТУДЕНТОВ В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ

В статье последовательно проанализирована методика организации социальных компетенций студентов, связанных с народным ремесленничеством, на внеаудиторных кружковых занятиях в высшем образовании. Раскрыты пути развития творческих способностей студентов через парадигму профессиональной ориентации и систему “Наставник-ученик”. Парадигма профессионально ориентированного образования отражает формирование интересов, склонностей и способностей личности. На основе этой парадигмы человек стремится к более полному пониманию мира, проявляются его желания и устремления, которые реализуются эффективно. В процессе обучения каждый из этих компонентов идентифицируется с психолого-педагогической точки зрения и уточняется в порядке приоритетности. Интересы, склонности и способности считаются первичными качествами при выборе профессии.

Ключевые слова: *студент, высшее образование, профессия, аудитория, занятие, кружок, профориентация, наставник, ученик, творческая деятельность, ремесленничество, вариативный компонент, социальная компетенция.*

THE ROLE OF EXTRACURRICULAR ACTIVITIES IN PROFESSIONAL ORIENTATION OF STUDENTS IN HIGHER EDUCATION

This article consistently analyzes the methodology of organizing students' social competencies related to folk crafts in extracurricular activities in higher education. The ways of developing students' creative abilities through the professional orientation paradigm and the "Master-Apprentice" relationship are discussed. The paradigm of career-oriented education reflects the development of a person’s interests, inclinations, and abilities. Based on this paradigm, an individual strives for a more comprehensive understanding of the world, their desires and aspirations emerge, and they are implemented effectively. In the educational process, each of these components is identified from a psychological and pedagogical perspective and clarified according to priority. Interests, inclinations, and abilities are considered primary qualities when choosing a profession.

Keywords: *student, higher education, profession, classroom, lesson, circle, professional orientation, master, apprentice, creative activity, craftsmanship, variative component, social competency.*

Kirish. Bugungi kunda jahon miqyosida fan-texnika va texnologiyalarning jadal rivojlanishi ta’lim jarayonini takomillashtirishni, raqobatbardosh va yuqori malakali kadrlar tayyorlashni taqozo etmoqda. Shu bois, mustaqil va ijodiy fikrlay oladigan, muammolarga innovatsion yechim topishga intiluvchi hamda ijodkor talabalarni tayyorlashga bo‘lgan ehtiyoj tobora ortib bormoqda. YuNESKOning “Barcha uchun ilmiy va texnologik savodxonlik” (International Project on Scientific and Technological Literacy for All) xalqaro

loyihasi doirasida ta’limning global vazifalarini amalga oshirish, texnologik dunyoqarashni shakllantirish, texnologik savodxonlik va kompetentlikni rivojlantirish hamda ijodkorlikni qo‘llab-quvvatlash ustuvor vazifalar etib belgilangan [1]. Ushbu vazifalarning samarali ijrosini ta’minlashda oliy ta’lim muassasalari talabalarining xalq hunarmandchiligiga oid ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda ta’lim-tarbiya tizimini tubdan takomillashtirish, talaba-yoshlarga kasb-hunar o‘rgatish, hunarmandchilik muhitini yaratish, moddiy-texnik bazasi va metodik-didaktik ta’minotini kuchaytirishga qaratilgan islohotlar “Texnologiya ta’limi va uni o‘qitish metodikasi” fani mashg‘ulotlarining dolzarbligini oshirib, ta’lim oluvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishi va e’tiborini yanada kuchaytirishga zamin yaratmoqda. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23-sentyabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-son Qonuni [3], O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi[2], 2019-yil 28-noyabr PQ-4539-son “Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi[4], 2023-yil 12-iyundagi PF-91-son “Aholini hunarmandchilikka jalb qilish va hunarmandchilik faoliyatini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risid”gi [5] normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Kasb-hunar egallashning muhimligi, hunarmandchilik sohalari hamda ijodkorlik va kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish masalalari bo‘yicha mamlakatimiz va xorijiy davlat olimlari tomonidan keng qamrovli ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan. Mazkur tadqiqot muammosi yuzasidan N.A.Muslimov ta’lim mazmunining o‘quv rejadagi fanlar bloklarini barcha fanlar va fanlar to‘plami uchun guruhlab, uch darajani namoyon etuvchi kompetentsiyalarni tayanch, kasbiy va maxsus turlarga ajratib, ilmiy tomondan asoslab bergan [6]. O‘.Tolipov pedagogik ta’lim texnologiyalarini tatbiq etish yo‘llarini takomillashtirishga oid qo‘llanma yaratgan va oliy ta’limda umummehnat hamda kasbiy ko‘nikma va malakalarni rivojlantirishning pedagogik texnologiyalari mavzusida ilmiy izlanishlar olib brogan [7], M.X.Shomirzayev maktab texnologiya ta’limida milliy hunarmandchilikning spektrial-variativ komponentlarini fanlararo takomillashtirishning mantiqan ketma-ketligini, izchilligini, nazariya va amaliyotni hamda milliy hunarmandchilikni rivojlantirishda fanlar integratsiyasini ishlab chiqqan [88].

Abu Nasr Forobiy kasb-hunar to‘g‘risida “Har bir kishi kasb-korini mukammal bilmog‘i, yaxshi tarbiya olmog‘i va yaxshi xulq va fazilatlarga ega bo‘lmog‘i kerak” deb ta’rif keltirgan[9]. V.P.Bespalko pedagogik tizimga quyidagicha ta’rif bergan: “Kerakli fazilatlarga ega shaxsni shakllantirishga tashkillashtirilgan, maqsadli va mo‘ljallangan pedagogik ta’sirni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan o‘zaro aloqadagi vosita, metod va jarayonlarning ma’lum bir majmuasi” [10]. Biroq, aynan bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilariga “Texnologiya ta’limi va uni o‘qitish metodikasi” fani orqali xalq hunarmandchiligiga oid ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirish metodikasini tizimli va yaxlit shaklda takomillashtirish masalasi yetarlicha ishlab chiqilmaganligi mazkur tadqiqot ishining dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarini rivojlantirishning I ustuvor yo‘nalishi – “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari”ga muvofiq amalga oshirilgan. Talabalarning xalq hunarmandchiligiga oid ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirish ECPM – Extra-curricular professional mapping metodikasi orqali amalga oshirildi.

ECPM – Extra-curricular professional mapping (Auditoriyadan tashqari kasbiy xaritalash metodikasi) – oliy ta’limda talabalarni kasbga yo‘llash jarayonini auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlar asosida tizimli tashkil etishga xizmat qiluvchi innovatsion pedagogik metod bo‘lib, u talabaning real faoliyat tajribasi, refleksiv tahlili va kompetensiyaviy monitoringi orqali individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasini shakllantirishga yo‘naltiriladi. Metodning asosiy g‘oyasi – auditoriyadan tashqari faoliyatni (klub, volontyorlik, trening, loyiha, startap, professional uchrashuvlar) kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishning strukturaviy pedagogik mexanizmi sifatida integratsiyalashdir.

Metodning konseptual mazmuni: ECPM metodida talaba passiv tinglovchi emas, balki **kasbiy o‘sish subyekti** sifatida qaraladi. Talaba tashqi faoliyatlarda ishtirok etish orqali o‘zining qiziqishlari, soft skills, professional qadriyatlari va kasbiy identifikatsiyasini shakllantiradi hamda bu jarayon “professional mapping” – ya’ni kasbiy xaritalash orqali vizual va analitik tarzda tizimlashtiriladi.

Metodning maqsadi: Auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlar orqali talabalarni kasbiy yo‘nalishga moslashtirish, individual professional rivojlanish modelini ishlab chiqish hamda refleksiv monitoring asosida kompetensiyalarni rivojlantirish.

Asosiy komponentlari

1. **Diagnostik komponent** – kasbiy qiziqish va motivatsiyani aniqlash.
2. **Faoliyat komponenti** – tashqi mashg‘ulotlarda amaliy ishtirok.
3. **Refleksiv komponent** – o‘z faoliyatini tahlil qilish va baholash.
4. **Xaritalash komponenti** – professional rivojlanish xaritasini tuzish.

Amalga oshirish bosqichlari

Diagnostika – test, anketa va suhbat orqali boshlang‘ich kasbiy profilni aniqlash.

Integratsiya – talabaning klub, loyiha va volontyorlik faoliyatiga jalb etilishi.

Refleksiya – portfolio, esse va feedback orqali tajribani tahlil qilish.

Professional Mapping – kompetensiya rivoji asosida kasbiy trajektoriya yaratish.

Kutiladigan pedagogik natijalar

- kasbiy motivatsiya va o‘zini anglash darajasi oshadi;
- auditoriyadan tashqari faoliyatning ta’limiy qiymati ortadi;
- talabada individual professional rivojlanish modeli shakllanadi;
- refleksiv va metakognitiv kompetensiyalar rivojlanadi.



1-rasm. ECPM metodining pedagogik texnologiyasi

Tahlil va natijalar. Tadqiqot jarayonida boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalarining xalq hunarmandchiligiga oid ijtimoiy kompetensiyalarini shakllantirish metodikasini bir butun tizim sifatida tashkil etish va uning natijalarini tahlil qilish maqsadida faoliyatli model takomillashtirildi. Mazkur model uchta blokdan tashkil topgan bo‘lib, ular maqsadli, jarayonli va natijaviy bloklarga ajratilgan.

Auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlarni tashkil etishda I.T.Chariyev, N.Sh.Shodiyev, P.Q.Xolmatovlarning ilmiy izlanishlariga tayanildi [11,12,13]. Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalarining xalq hunarmandchiligiga oid ijtimoiy kompetensiyalarini shakllantirish ishlari “Texnologiya ta’limi va uni o‘qitish metodikasi” fani darsdan tashqari “Hunarmandchilik” to‘garagi, hunarmandchilik tanlovlari, mustaqil vazifalar, “Hunarli qiz xor bo‘lmas” nomli tadbirlar asosida mashg‘ulotlar olib borildi.

Ta’limning kasbga yo‘naltirish paradigmasi shaxsning qiziqishlari, mayl va qobiliyatlarining shakllanishini ifodalaydi. Ushbu paradigma asosida shaxs olamni mukammalroq tushunishga intiladi, uning xohish-istaklari yuzaga keladi va ular samarali amalga oshiriladi. Ta’lim jarayonida bularning har biri psixologik-pedagogik nuqtai nazardan identifikatsiya qilinib, ustuvorlik asosida aniqlashtirildi. Qiziqish, moyillik va qobiliyat kasb-hunar tanlashda birlamchi sifatlar hisoblanadi.

Tajriba-sinov ishlari natijalariga ko‘ra, tajriba va nazorat guruhlarining talabalarida hunarmandchilik, xalq hunarmandchiligi, milliy hunarmandchilik, hunarmandchilik turlari, yaratuvchanlik, kasb-hunarga oid tushunchalarning tarkib topganlik darajasi ko‘rsatkichlari bo‘yicha quyidagilar aniqlanildi: nazorat

guruhlaridagi 28,7% respondentlar tajriba boshida ijobiy natija ko‘rsatgan bo‘lsa, tajriba oxirida bu ko‘rsatkich 31,1% ni tashkil etdi; tajriba-sinov guruhlarida esa tajriba boshida respondentlarning 27,7% ijobiy natija ko‘rsatgan bo‘lsa, tajriba oxirida ularning 40,04% ijobiy ko‘rsatkichni qayd etishdi.

1-jadval. Tajriba-sinov va nazorat guruhlari natijalari

Ko‘rsatkich	TG boshi (%)	TG oxiri (%)	NG boshi (%)	NG oxiri (%)
Ijobiy natija	27,7	40,04	28,7	31,1
O‘zlashtirish o‘sishi	11,31–22,2%		10,3–12,06%	
Samaradorlik	**10,89%**		**1,76%**	

Izoh: TG – tajriba guruhi, NG – nazorat guruhi

Tajriba-sinov ishlarining yakuniy xulosalariga ko‘ra tajriba guruhlarida 10,89% samaradorlikka erishilgan bo‘lsa, nazorat guruhlarida esa 1,76% samaradorlik ko‘rsatilgan. Bu natijalar taklif etilgan metodikaning an'anaviy o‘qitish usullariga nisbatan yuqori samaradorlikka ega ekanligini tasdiqlaydi.

“Detaldan buyumgacha” metodi orqali talabalar buyum haqida egallagan bilimlari asosida texnologik xarita bo‘yicha texnologik jarayonni amalga oshirdilar, buyumning mayda va yirik detallarini tayyorlash va ularni birlashtirish orqali tayyor holatga keltirdilar. “Smart step – aqlli qadam” strategiyasi orqali talabalarga beriladigan vazifalar oddiy yechimlardan boshlanib, murakkabroq vazifalar bilan rivojlantirildi, har bir navbatdagi vazifaga yangi element qo‘shildi.

Auditoriyadan tashqari to‘garak mashg‘ulotlarida talabalar hunarmandchilik buyumlarini tayyorlash, ekskursiyalarga borish, hunarmandchilik markazlarini ziyorat qilish, hunarmand ustalarning ish jarayonini kuzatish orqali amaliy bilimlarini mustahkamladilar. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-iyundagi PF-91-son Farmonida belgilangan hunarmandchilik faoliyatining 43 ta yo‘nalishi asosida talabalar burmali yostiqcha tikish, bosh kiyimlar tayyorlash, kashtachilik, zardo‘zlik buyumlari, o‘yinchoqlar, esdalik buyumlarini tayyorlash va quroqchilik usulida tikish hunarlari bo‘yicha amaliy ko‘nikmalar egalladilar [5].

Xulosa va takliflar. Hunarmandchilik tushunchasining mazmun-mohiyati, uning tarixiy shakllanishi va rivojlanish bosqichlari ilmiy manbalar asosida tahlil qilindi. “Texnologiya ta’limi va uni o‘qitish metodikasi” faniga oid mavjud ilmiy-tadqiqot ishlari tizimli o‘rganilib, fan mazmuni chuqur tahlil etildi. Mashg‘ulotlarni tashkil etishda davlat ta’lim standarti, o‘quv rejalari hamda taqvim-mavzuli rejalar metodik asos sifatida qo‘llanildi.

Talabalarda xalq hunarmandchiligiga oid ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirish maqsadida “Texnologiya ta’limi va uni o‘qitish metodikasi” fanining dars va darsdan tashqari mashg‘ulotlarida zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanishga yo‘naltirilgan pedagogik loyiha ishlab chiqildi. Loyiha nazariy, amaliy va to‘garak mashg‘ulotlari mazmunida kognitiv hamda amaliy-ijodiy faoliyat uyg‘unligini ta’minlovchi interfaol metodlarni tajribada sinovdan o‘tkazish va takomillashtirishga asoslandi. Umumta’lim maktablarida o‘quvchilarni hunarmandchilik kasblariga yo‘naltirish jarayonini boshlang‘ich sinflardan boshlab izchil amalga oshirish, ularni mustaqil va ijodiy faoliyatga yo‘naltirishga xizmat qiluvchi bosqichma-bosqich tashkiliy-pedagogik mexanizmlarni ishlab chiqish lozim. Talabalarning ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishda xalq hunarmandchiligi namunalarini tayyorlash faoliyatiga asoslanib, etnomadaniyat va milliy urf-odatlarni shakllantirishga yo‘naltirilgan kollaborativ yondashuv komponentlarini metodik tizimga integratsiya qilish zarur.

Adabiyotlar:

1. Jack Holbrook, Amitabha Mukherjee and Vijaya S. Varma. Scientific and Technological literacy for all. Materials from the UNESCO-ICASE-CSEC Delhi Workshops. March 2000. –B. 125–132.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risid”gi Farmoni.

3. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi O‘RQ-637-son “Ta’lim to‘g‘risid”gi Qonuni.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 28-noyabrdagi PQ-4539-son “Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-iyundagi PF-91-son “Aholini hunarmandchilikka jalb qilish va hunarmandchilik faoliyatini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risid” Farmoni.

6. Muslimov N.A. Kasb ta’limi o‘qituvchilarini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari. Ped. fan. dokt. Diss. –T. 2007 y. –B. 45–46.

7. Tolipov O‘. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. "Fan" – T. 2005 y.

8. Shomirzayev M.X. Maktab texnologiya ta’limida milliy hunarmandchilikning spektral-variativ komponentlarini fanlararo takomillashtirish. Pedagogika fanlari bo‘yicha doktorlik (DSc) diss. –T. 2021 y. – 219 b.

9. Abu Nasr Forobiy. Fazilat, baxt-saodat va kamolot haqida. "Yozuvchi" –T. 2002 y. –37 b.

10. Bespalko V.P. Pedagogika i progressivnye texnologii. "Pedagogika" –M. 1997 y. –335 s.

11. Chariyev I.T. O‘zbekiston qishloq maktablarida talabalarning mehnat tarbiyasi. “O‘qituvchi” –T. 1990 y. –53 b.

12. Xolmatov P. Darsdan tashqari mashg‘ulotlar jarayonida talabalarni kasb-hunarga yo‘llashning tavsiya etilayotgan texnologiyasi: Ped. fan. nom. diss. –T. 2004 y. –134 b.

13. Shodiyev N.Sh. Talabalarni kasb tanlashga yo‘llashni o‘rgatish. "O‘qituvchi" –T. 1987 y. –232 b.

INNOVATSION TA’LIM KLASTERI SHAROITIDA O‘QITUVCHINING PROFESSIONAL IMIDJI VA PEDAGOG KADRLAR TAYYORLASHNING NAZARIY ASOSLARI

Gayupova Saodat Xamidovna,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Pedagogika fakulteti Psixologiya kafedrasi dotsenti
s.gayupova@cspu.uz

Maqolada innovatsion ta’lim klasteri sharoitida o‘qituvchining professional imidjini shakllantirish hamda pedagog kadrlar tayyorlashni takomillashtirishning nazariy-metodologik asoslari tahlil qilinadi. Tadqiqot kasbiy pedagogik ta’limni faqat mehnat funksiyalariga mos tayyorgarlik sifatida emas, balki bo‘lajak o‘qituvchining ma’naviy, intellektual va madaniy salohiyatini yaxlit rivojlantiruvchi gumanitar jarayon sifatida talqin qiladi. Shundan kelib chiqib, professional imidj tashqi obraz yoki formal kompetensiyalar majmuasi emas, balki qadriyatlar tizimi, ma’naviy pozitsiya, madaniy tafakkur hamda insonparvarlik tamoyillariga tayangan shaxsiy-kasbiy qiyofa sifatida asoslanadi. Maqolada bilim, qadriyat va madaniy tajriba integratsiyasi o‘qituvchi–talaba o‘zaro ta’sirida semantik munosabatlarni kuchaytirishi, sub’ektlararo muloqot va dialogik metodlar esa ta’lim mazmunining shaxsiy ma’no kasb etishini ta’minlashi ko‘rsatiladi. Innovatsion ta’lim klasteri ta’lim, ilm-fan va amaliyotning uyg‘unlashgan muhitini yaratib, bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy o‘zini o‘zi belgilashi, refleksiv fikrlashi, empatiya va hamkorlik madaniyatini rivojlantirish orqali professional imidjning aksiologik, ontologik va uslubiy komponentlarini mustahkamlaydi. Natijada pedagogik ta’lim utilitar yondashuv chegarasidan chiqib, madaniy ijod va ma’no yaratishga yo‘naltirilgan sifat ko‘rsatkichlari bilan boyitiladi.

Kalit so‘zlar: *innovatsion ta’lim klasteri, o‘qituvchi, professional imidj, pedagog kadrlar, nazariy asoslar.*

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ИМИДЖА УЧИТЕЛЯ И ПОДГОТОВКИ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ПЕРСОНАЛА В УСЛОВИЯХ ИННОВАЦИОННОГО ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО КЛАСТЕРА.

В статье анализируются теоретико-методологические основания формирования профессионального имиджа учителя и совершенствования подготовки педагогических кадров в условиях инновационного образовательного кластера. Профессиональное педагогическое образование рассматривается не как узкофункциональная подготовка к выполнению трудовых операций, а как гуманитарный процесс целостного развития личности будущего учителя, включающий духовные, интеллектуальные и культурные ресурсы. В этой логике профессиональный имидж интерпретируется не как внешний образ или набор формальных компетенций, а как интегративная личностно-профессиональная позиция, опирающаяся на систему ценностей, культурное мышление, нравственную ответственность и принципы гуманизма. Показано, что интеграция знаний, ценностей и культурного опыта усиливает смысловую насыщенность учебного содержания, а межсубъектное взаимодействие и диалогические методы выступают ключевыми механизмами «присвоения смысла» в педагогическом процессе. Инновационный образовательный кластер представляется как интегрированная среда взаимодействия образования, науки и практики, создающая условия для профессионального самоопределения, рефлексивного мышления, эмпатии и культуры сотрудничества. В результате обосновывается, что кластерный формат способствует укреплению аксиологического, онтологического и методологического компонентов профессионального имиджа учителя и позволяет рассматривать качество педагогического образования через призму смыслообразования и культурного творчества, а не только через показатели утилитарной эффективности.

Ключевые слова: *инновационный образовательный кластер, учитель, профессиональный имидж, педагогические кадры, теоретические основы.*

THEORETICAL BASIS OF TEACHER'S PROFESSIONAL IMAGE AND TEACHER STAFF TRAINING IN THE CONDITIONS OF AN INNOVATIVE EDUCATION CLUSTER

The article analyzes the theoretical and methodological foundations for shaping teachers’ professional image and improving the preparation of pedagogical personnel within an innovative

educational cluster. Teacher education is conceptualized not as narrowly functional training for prescribed labor tasks, but as a comprehensive humanistic process aimed at developing the future teacher’s spiritual, intellectual, and cultural capacities. Accordingly, professional image is treated not as an external appearance or a set of formal competencies, but as an integrated personal-professional stance grounded in values, cultural thinking, ethical responsibility, and humanistic principles. The study argues that the integration of knowledge, values, and cultural experience increases the meaning-making potential of educational content, while intersubject interaction and dialogical methods function as key mechanisms for personal appropriation of meaning in the pedagogical process. The innovative educational cluster is framed as an integrated environment linking education, research, and practice, enabling professional self-determination, reflective thinking, empathy, and a culture of collaboration. Within this framework, the teacher’s professional image is strengthened through the unity of axiological, ontological, and methodological components, which supports a shift from purely utilitarian measures of effectiveness toward a quality model centered on dialogue, value-based development, and cultural creativity.

Keywords: *innovative educational cluster, teacher, professional image, pedagogical personnel, theoretical foundations.*

Kirish. Kasbiy pedagogik ta’lim faqat muayyan mehnat funksiyalarini bajarishga qaratilgan tayyorgarlik emas, balki o‘qituvchining barcha ma’naviy, intellektual va madaniy kuchlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan keng qamrovli gumanitar jarayondir. Kasbiy tayyorgarlikdan farqli ravishda, u pedagogik madaniyatga kirish usuli sifatida namoyon bo‘ladi va kelajakdagi o‘qituvchining nafaqat kasbiy, balki hayotiy o‘zini o‘zi belgilashi uchun zarur bo‘lgan dunyoning gumanitar yo‘naltirilgan professional imidjini shakllantirishga xizmat qiladi. Professional imidj bu yerda tashqi obraz yoki formal kompetensiyalar majmuasi emas, balki o‘qituvchining qadriyatlari, ma’naviy pozitsiyasi, madaniy tafakkuri va insonparvarlik tamoyillariga asoslangan yaxlit shaxsiy qiyofasidir.

Metodologiya. Biroq zamonaviy oliy pedagogika maktabi amaliyotida funksional, instrumental va utilitar yondashuvlar ustuvorlik kasb etayotgani kuzatiladi. Bozor munosabatlari ta’sirida tezkor natijaga yo‘naltirilgan, pragmatik maqsadlarni ustuvor qo‘yadigan “inson omili” modeli faol qo‘llanilmoqda. Kasb-hunar ta’limi mehnat bozori talablariga moslik mezonlari bilan o‘lchanib, uning mazmun-mohiyati, ma’naviy-axloqiy asoslari ko‘p hollarda yetarli darajada anglanmay qolmoqda. Ayrim hollarda “ta’lim” tushunchasi faqat kasbiy tayyorgarlik bilan tenglashtirilib, uning gumanitar mazmuni soya ostida qolmoqda. M. Sheler ta’limni “biror narsaga tayyorgarlik” emas, balki inson shaxsining eng yaxshi shakllanishiga xizmat qiluvchi mustaqil qadriyat sifatida talqin qiladi. Bu yondashuv ta’limning insonparvarlik va ma’naviy mohiyatini alohida ta’kidlaydi.[7] Xaydegger ta’limni – insonning muhim o‘zgarishi, ma’naviy yuksalishi sifatida tushuntiradi.[3] Demak, kasbiy pedagogik ta’limning mohiyati madaniy ijod paradigmasi doirasida bo‘lajak o‘qituvchini kasbiy madaniyat sub’ekti sifatida shakllantirishdan iborat.

Shu nuqtai nazardan, innovatsion ta’lim klasteri sharoitida o‘qituvchining professional imidjini shakllantirish va pedagogik kadrlar tayyorlashni takomillashtirishning nazariy asoslari alohida ahamiyat kasb etadi. Innovatsion ta’lim klasteri ta’lim, ilm-fan, madaniyat va amaliyot integratsiyasiga asoslangan muhit sifatida kasbiy pedagogik ta’limning gumanitar mazmunini qayta tiklash imkonini beradi. Bunday sharoitda universitet faqat kadr tayyorlovchi muassasa emas, balki ma’naviy-ma’rifiy va madaniy makon sifatida faoliyat yuritadi. Bu yerda bo‘lajak o‘qituvchining professional imidji kompetensiyalar yig‘indisi orqali emas, balki qadriyatlar, ma’no va ijodiy faoliyat orqali shakllanadi.

Ta’lim sifatini faqat funksional ko‘rsatkichlar orqali baholash mumkin emas. Uning muhim mezoni – pedagogik jarayonda o‘qituvchi va talaba shaxsiy ma’no va maqsadlarining insonparvarlik asosida uyg‘unlashuvidir. Innovatsion ta’lim klasteri doirasida tashkil etilgan pedagogik jarayon semantik munosabatlarga, ya’ni o‘quv mazmunining shaxsiy ahamiyat kasb etishiga tayanadi. Bu esa o‘qituvchining professional imidjini dunyoqarash, ma’naviyat va madaniy tafakkur bilan boyitilgan holda shakllantirishga xizmat qiladi.

Kasbiy pedagogik ta’lim “inson–inson” o‘zaro ta’siri sohasida amalga oshiriladi. Shu bois uni faqat ijtimoiy tajribani uzatish mexanizmi sifatida talqin qilish bir tomonlama va cheklangan yondashuv hisoblanadi. Ta’limni ijtimoiy tajriba doirasidan madaniy ufqqa ko‘tarish orqali pedagogik kadrlar tayyorlash jarayonining mazmuni tubdan o‘zgaradi. Innovatsion ta’lim klasteri aynan shu madaniy ufqni ta’minlaydi: u talabani ilmiy izlanishga, ijodkorlikka, muloqot va hamkorlikka jalb etadi, shu orqali o‘qituvchining professional imidjini gumanitar va madaniy qadriyatlar asosida shakllantiradi.

Innovatsion ta’lim klasteri sharoitida o‘qituvchining professional imidjini shakllantirish va pedagogik kadrlar tayyorlashni takomillashtirishning nazariy asoslari ta’limning gumanitar mazmuniga, shaxsni yaxlit rivojlantirish g‘oyasiga va madaniy ijod paradigmasiga tayanadi. Bu yondashuv pedagogik ta’limni bozor

talablariga moslashtirish bilan cheklamay, uni insonparvarlik, ma’naviyat va kasbiy madaniyatni uyg‘unlashtirgan holda rivojlantirishga qaratilgan kompleks tizim sifatida qarashni taqozo etadi.

Yu.V.Senkoning o‘qituvchi ta’limini madaniy harakat sifatida talqin qilish g‘oyasi kasbiy pedagogik ta’limning gumanitar mohiyatini ochib beradi.[5] Bunday yondashuvga ko‘ra, kasb-hunar ta’limi faqat ijtimoiy tajribani uzatish mexanizmi emas, balki bo‘lajak o‘qituvchining dunyo bilan munosabatini, ayniqsa pedagogik dunyo va undagi “men” obrazini shakllantirish jarayonidir. Demak, o‘qituvchi dunyosining professional qiyofasi pedagogik madaniyatning universallaridan biri sifatida namoyon bo‘lib, u o‘qituvchining o‘ziga, boshqasiga va pedagogik jarayonga yaxlit munosabatida ifodalanadi.

Statik nuqtai nazardan o‘qituvchi dunyosining professional imidji uch asosiy komponentni o‘z ichiga oladi: ta’lim qadriyatlari va ma’nolari (aksiologik komponent), o‘qituvchi–talaba o‘zaro ta’sirining mohiyati (ontologik asos) hamda pedagogik fikrlash uslubi (uslubiy komponent). Bu komponentlar bir-biridan ajralgan holda emas, balki o‘zaro bog‘liq va bir-birini to‘ldiruvchi tizim sifatida qaralishi kerak. Aks holda, o‘qituvchi shaxsining yaxlitligi buziladi va uning kasbiy imidji fragmentar xarakter kasb etadi.

V. Frankl nuqtai nazaricha qadriyatlar insonning dunyoga, boshqalarga va o‘ziga nisbatan tajribali munosabatida “kristallangan” ma’nolardir. Ular ratsional o‘rganish ob’ekti emas, balki shaxsiy tajriba orqali o‘zlashtiriladigan ma’naviy asosdir.[6] Shu ma’noda bo‘lajak o‘qituvchining professional imidji uning shaxsiy qadriyatlar tizimi orqali shakllanadi. Yevropa falsafasida haqiqat, yaxshilik, go‘zallik kabi umuminsoniy qadriyatlar universal deb qaralsa-da, muayyan o‘qituvchi uchun pedagogik faoliyatning ahamiyati uning shaxsiy ma’nosi bilan belgilanadi. “Inson–inson” sohasida faoliyat yurituvchi o‘qituvchi o‘z “men”idan tashqariga chiqib, pedagogik faoliyatning transsendent motivlarini kashf etadi va shu asosda o‘zining kasbiy pozitsiyasini belgilaydi.

Yu.V.Senko ta’kidlaganidek, pedagogik qadriyatlar turli majmualar orqali namoyon bo‘ladi: vosita qadriyatlari (pedagogik texnika va texnologiyalar, monitoring, innovatsiyalar), munosabat qadriyatlari (o‘qituvchi va talabalar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir tabiati) hamda shaxsning individual kommunikativ va xulq-atvor fazilatlarini ifoda etuvchi qadriyatlar. Bu qadriyatlar o‘qituvchining pedagogik jarayondagi ichki pozitsiyasini belgilaydi va uning professional imidjini mazmunan boyitadi.[5]

Biroq amaliyotda ko‘p hollarda kasbiy tayyorgarlik “men va ob’ekt” munosabati doirasida qurilib, fanni o‘zlashtirishga urg‘u beriladi. Bu yondashuv o‘qituvchini faqat predmet sohasidagi mutaxassis sifatida shakllantiradi. Holbuki, “men dunyodaman” munosabatiga o‘tish, ya’ni pedagogik faoliyatni ma’no va qadriyatlar nuqtai nazaridan anglash o‘qituvchi dunyosining professional imidjini shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. A.A. Brudniy ko‘rsatganidek, tushunish uch sohada – predmet, mantiqiy va semantik sohalarda amalga oshadi. Ayniqsa, semantik sohada – o‘qituvchi va talabalar o‘rtasidagi munosabatlar maydonida – qadriyatlar va ma’nolar markaziy o‘rinni egallaydi.[2]

Innovatsion ta’lim klasteri sharoitida mazkur nazariy qarashlar amaliy ahamiyat kasb etadi. Chunki klaster ta’lim, ilm-fan va amaliyot integratsiyasini ta’minlab, o‘qituvchining professional imidjini shakllantirish uchun keng madaniy va kommunikativ muhit yaratadi. Bunday muhitda o‘quv predmeti an’anaviy “maqsad” maqomidan chiqib, o‘qituvchi va talabalarning mazmunli muloqoti uchun vositaga aylanadi. Pedagogik jarayonning aksiologik tabiati aynan shu muloqotda ochiladi.

O‘qituvchining o‘zini “madaniy shaxs” sifatida anglashi ham innovatsion ta’lim klasteri sharoitida yangi mazmun kasb etadi. Bu faqat ijtimoiy buyurtma doirasidagi funksional talablarga javob berish emas, balki umuminsoniy va milliy madaniy qadriyatlarni o‘zlashtirish, ularni kasbiy faoliyatda amalga oshirish demakdir. Dunyoqarash va qadriyat asoslari o‘qituvchining fanni o‘qitish uslubiga bevosita ta’sir qiladi, uning pedagogik pozitsiyasini belgilaydi.

Semantik munosabatlar sohasida qadriyatlar vositaga aylanib, o‘qituvchi va talabalar o‘rtasidagi ma’noli aloqani ta’minlaydi. Ta’limdagi model, tasvir, tajriba va vizual vositalar “nima?” va “qanday?” savollariga javob berish bilan birga, “nima uchun?” degan savolga javob izlashga xizmat qiladi. Ma’no izlash inson faoliyatining asosiy motividir. V. Frankl keltirgan Nisshening “yashash uchun sabab topgan inson deyarli har qanday narsaga chiday oladi” degan fikri pedagogik faoliyatga ham taalluqlidir.[6] O‘qituvchi o‘z faoliyatining ma’nosini anglagandagina uning professional imidji barqaror va ta’sirchan bo‘ladi.

Shu tariqa, innovatsion ta’lim klasteri sharoitida o‘qituvchining professional imidjini shakllantirish va pedagogik kadrlar tayyorlashni takomillashtirishning nazariy asoslari gumanitar paradigma, aksiologik yondashuv va semantik muloqot tamoyillariga tayanadi. Bu yondashuv kasbiy pedagogik ta’limni funksional tayyorgarlik darajasidan madaniy ijod va shaxsiy ma’noni anglash darajasiga ko‘taradi hamda o‘qituvchini faqat mutaxassis emas, balki ma’naviy va madaniy sub’ekt sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlil. Madaniyat kontekstida o‘qituvchi va talabalar mavzu, hodisa yoki faktni birgalikda anglab, uni shaxsiy tajriba va ma’no bilan boyitadilar. O‘qituvchi ta’limini madaniy harakat

sifatida talqin qilish g‘oyasi Yu.VSenko tomonidan asoslangan bo‘lib, u kasbiy pedagogik ta’limni pedagogik dunyo va undagi “men” obrazini shakllantirish jarayoni sifatida izohlaydi. Senko ta’kidlaganidek, o‘qituvchi dunyosining professional qiyofasi pedagogik madaniyat universallaridan biri bo‘lib, u o‘qituvchining o‘ziga, boshqasiga va pedagogik jarayonga bo‘lgan yaxlit munosabatida namoyon bo‘ladi.

Qadriyat va ma’no muammosini chuqur tahlil qilgan avstriyalik faylasuf va psixolog V.E.Frankl inson faoliyatining asosiy harakatlantiruvchi kuchi ma’no izlash ekanini ta’kidlaydi. Franklga ko‘ra, qadriyatlar insonning dunyoga, boshqalarga va o‘ziga nisbatan tajribali munosabatida kristallangan ma’nolardir. O‘qituvchining kasbiy imidji ham uning shaxsiy ma’no va qadriyatlar tizimi orqali shakllanadi.

Shaxsning o‘zini o‘zi anglashi va o‘zini ro‘yobga chiqarish masalalari amerikalik psixolog A.X.Maslouning gumanistik psixologiyasida keng yoritilgan. Maslou “o‘zini aktuallashtirish” konsepsiyasi orqali shaxsning yuqori bosqichdagi rivojlanish xususiyatlarini – tabiiylik, ijodkorlik, insonparvarlik, boshqalar bilan birlik hissi, vazifaga yo‘nalganlik kabi sifatlarni ko‘rsatadi. Bu xususiyatlar o‘qituvchining professional imidjini shakllantirishda aksiologik asos bo‘lib xizmat qiladi.[4]

A.A.Brudniy tushunish jarayonini predmet, mantiqiy va semantik sohalarga ajratib, ayniqsa semantik sohada shaxslararo munosabatlar markaziy o‘rin tutishini asoslaydi. Uning fikricha, pedagogik jarayonda ma’no va qadriyatlar aynan muloqot maydonida ochiladi. Bu esa o‘qituvchining professional imidji faqat bilim darajasi bilan emas, balki munosabatlar madaniyati bilan ham belgilanishini anglatadi.[2]

M.M.Baxtin ta’limni dialog sifatida talqin qilib, inson “men”i faqat boshqasi bilan muloqotda ochilishini ta’kidlaydi. Lotman – taniqli semiotik olim Yu.M.Lotman muloqotni insonning “men” xabarlarini o‘z-o‘ziga yo‘llashi sifatida izohlaydi. Amerikalik ijtimoiy psixolog M.Mid esa ta’limni kattalar va bolalar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirning maxsus turi sifatida baholaydi. Ushbu qarashlar pedagogik jarayonda shaxslararo munosabatlar tizimni shakllantiruvchi poydevor ekanini ko‘rsatadi.

F.T.Mixaylov ta’lim jarayonida “semantik makon” tushunchasini ilgari surib, insonlar o‘rtasidagi ma’naviy murojaat va hamkorlik umumiy ideal maydonni yaratishini ta’kidlaydi. Uning fikricha, har bir pedagogik vaziyat o‘qituvchining sub’ektiv dunyosi va universal ma’nolarni anglash jarayoni bilan bog‘liq.

Innovatsion ta’lim klasteri sharoitida mazkur olimlar tomonidan ishlab chiqilgan nazariy qarashlar pedagogik kadrlar tayyorlashni takomillashtirishning metodologik asosiga aylanadi. Klaster ta’lim, ilm-fan va amaliyot integratsiyasi orqali o‘qituvchining aksiologik, ontologik va semantik rivojlanishini ta’minlaydi. Natijada o‘qituvchining professional imidji faqat funksional kompetensiyalar yig‘indisi emas, balki ma’no, qadriyat va madaniy muloqotga asoslangan yaxlit shaxsiy pozitsiya sifatida shakllanadi.

Pedagogik jarayon ishtirokchilarining sub’ektiv pozitsiyasini tan olish mazmunli bilim va chuqur tushunishning shakllanishi uchun asosiy shart hisoblanadi. Sub’ektlararo muloqot o‘zaro tushunishsiz amalga oshmaydi; bunda o‘qituvchi va talaba bir-birining hayotiy tajribasiga hurmat bilan yondashadi, o‘zaro qabul qilish muhiti vujudga keladi va har biri o‘zini boshqasining o‘rniga qo‘yib ko‘rishga harakat qiladi. Bu esa o‘qituvchining o‘z o‘quvchilaridan doimiy ravishda o‘rganishga tayyorligini anglatadi. Aynan shu muloqot maydonida madaniyat, qadriyatlar va anglangan ma’nolar dunyosi paydo bo‘ladi.

“Insondan odamga” sohasida kechadigan pedagogik jarayon, avvalo, boshqasining ma’naviy tajribasiga murojaat qilish bilan bog‘liq. Mixail Mixaylovich Baxtin ta’kidlaganidek, bu murojaat “kirib boruvchi so‘z” orqali amalga oshadi, ya’ni o‘qituvchi boshqasining ichki dunyosiga ehtirom bilan kirib, unga o‘z ovozini eshitish imkonini beradi. Haqiqiy ta’lim – insonning o‘zini anglashi, hayot ma’nosini izlashi va o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishi jarayonidir. Semantik o‘zaro ta’sir tashkilotchisi sifatida o‘qituvchi har bir harakati bilan inson mavjudligining universal usulini amalga oshiradi.

F.T.Mixaylov gumanitar yondashuv doirasida pedagogik jarayon ishtirokchilarining munosabatlarini to‘rt vektor orqali ifodalaydi: pedagogik faoliyat orqali tashqi dunyoga munosabat; ijtimoiy faoliyat orqali jamoaga munosabat; tarix va ma’naviy madaniyatni anglash orqali vaqtga munosabat; insonshunoslik fanlari orqali o‘ziga munosabat. Ushbu vektorlar o‘zaro bog‘liq bo‘lib, ularning har biri o‘qituvchining professional imidjini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Innovatsion ta’lim klasteri sharoitida bu vektorlar integratsiyalashgan holda namoyon bo‘ladi, chunki klaster ta’lim, ilm-fan, ijtimoiy amaliyot va madaniy merosni bir butun tizimga birlashtiradi.

O‘qituvchining kasbiy o‘zini o‘zi belgilashi uning madaniy dunyoga va avvalo talabaga ochiqligi darajasi bilan belgilanadi. Yu.V.Senko gumanitar paradigma doirasida ta’limni madaniyatlar muloqoti sifatida talqin qiladi: talaba madaniyati va hayotiy tajribasi, o‘qituvchi madaniyati va kasbiy tajribasi hamda ta’lim mazmunida aks etgan “bo‘lish” madaniyati o‘zaro uchrashadi. Innovatsion ta’lim klasteri ana shu “madaniyatlar uchrashuvi”ni institutsional jihatdan ta’minlab, dialogiklik, boshqalik, metaforalik, refleksivlik va tushunish kabi yangi pedagogik fikrlash tamoyillarini amalga oshirish imkonini yaratadi.

O‘qituvchining shaxsga yo‘naltirilgan pozitsiyasi R.Berns ta’kidlagan xususiyatlarda namoyon bo‘ladi: moslashuvchanlik, empatiya, talabalar ehtiyojlariga sezgirlik, o‘qitishga shaxsiy munosabat, ijobiy

mustahkamlash, norasmiy va iliq muloqot uslubi, hissiy muvozanat va ishonch. Bunday sifatlar o‘qituvchining gumanitar yo‘naltirilgan professional imidjini belgilaydi va pedagogik jarayonni shaxsiy hamkorlik maydoniga aylantiradi.[1]

Bugungi kunda oliy ta’lim oldida turgan muhim vazifa – kasbiy pedagogik ta’limni an’anaviy “tarbiyaviy” modeldan madaniy ijod modeliga o‘tkazishdir. Bu esa pedagogik madaniyatni “o‘sib borayotgan polifonik ma’no bilan tugallanmagan muloqot” sifatida tushunishni talab qiladi. Innovatsion ta’lim klasteri ana shu muloqotni rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratib, “jonli bilim”ni shakllantirishga xizmat qiladi. Jonli bilim tayyor holda o‘zlashtirilmaydi; u dialog, refleksiya va ijod jarayonida quriladi.

O‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi semantik o‘zaro ta’sir ta’limni tashqi foydalilik chegarasidan chiqarib, uni yaxlit, shaxsiy va faoliyatga yo‘naltirilgan darajaga ko‘taradi. Dialogik tashkil etilgan o‘quv jarayoni kelajak o‘qituvchining shaxsiy pozitsiyasini shakllantiradi, uni ijtimoiy rollar doirasidan chiqarib, shaxsiy mas’uliyat va ma’naviy yetuklik darajasiga olib chiqadi. Bunday sharoitda talaba bilim ob’ekti emas, balki madaniy an’ananing ma’naviy merosxo‘ri va hammuallifiga aylanadi.

Ta’lim jarayonida metafora, tasvir, epitet va badiiy ifodalardan foydalanish bilimning cheksizligi va dialogning tugallanmaganligini anglatadi. Metafora ta’lim qadriyatlari va ma’nolarini, shuningdek muayyan pedagogik vaziyatdagi o‘zaro munosabat tabiatini ifodalaydi. Metaforiklik, tushunish, ustuvorlik, refleksivlik va dialogiklik yangi pedagogik fikrlash uslubining gumanitar tamoyillari bo‘lib, o‘qituvchi dunyosining professional imidjini gumanitar qutbga yo‘naltiradi.

Innovatsion ta’lim klasteri sharoitida o‘qituvchining professional imidjini shakllantirish va pedagogik kadrlar tayyorlashni takomillashtirishning nazariy asoslari aksiologik (qadriyat yo‘nalishlari va ma’no yaratish), ontologik (hamkorlik va birgalikda ijod), hamda uslubiy (dialogik va refleksiv fikrlash) komponentlarning o‘zaro birligiga tayanadi. Bunday yondashuv kasbiy pedagogik ta’limni funksional tayyorgarlikdan yuqori bosqichga – insonga “bo‘lishni o‘rganish” imkoniyatini beruvchi madaniy-ijodiy makonga aylantiradi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, innovatsion ta’lim klasteri sharoitida o‘qituvchining professional imidjini shakllantirish va pedagog kadrlar tayyorlashning nazariy asoslari bilim, qadriyat va madaniy tajriba integratsiyasiga asoslanadi. Pedagogik jarayonda o‘qituvchi va talabalar o‘zaro ta’sir orqali ma’nolarni kashf etish, dialogik muloqot va aksiologik qadriyatlar asosida professional rivojlanishni ta’minlaydi. Shu bilan birga, innovatsion ta’lim klasteri pedagogik kadrlarning kasbiy va shaxsiy salohiyatini rivojlantirish, ularning madaniy va gumanitar qarashlari bilan bog‘liq jihatlarni faollashtirish imkonini beradi. Umuman olganda, mazkur nazariy asoslar oliy pedagogik ta’lim sifatini oshirish va kelajakdagi o‘qituvchilarni rivojlangan, ma’naviy jihatdan boy, professional imidji mustahkam kadrlar sifatida tayyorlashda muhim ahamiyatga ega.

Adabiyotlar:

1. Berns R. Razvitie Yakonsepsii i vospitanie. –M.: Progress, 1996. –422 s.
2. Brudnыy A.A. Psixologicheskaya germenevtika. –M.: Labirint, 1998. –335 s.
3. Gadamer X. G. Istina i metod: osnovы filosofskoy germenevtiki. –M.: Progress, 1988. –699 s.
4. MaslouA.Motivationandpersonality. –N.Y.: HarperandRow, 1987.–P. 248.
5. Senko Yu.V. Gumanitarnыe osnovы pedagogicheskogo obrazovaniya. –M.: Akademiya, 2000. –240 s.
6. FranklV. Chelovek v poiskax smыsla. –M.: Progress, 1990. –366 s.
7. Sheler M. Izbrannыe proizvedeniya. –M.: Gnozis, 1984. –413 s.

UO‘K **159.9.316.6**

TURMUSH DAVOMIYLIGIGA KO‘RA OILALARDAGI AJRIMLARNI IJTIMOIY-PSIXOLOGIK SABABLARINING EMPIRIK O‘RGANILISHI

Karimov Farxod Toshtemirovich,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti katta o‘qituvchisi
f.karimov8282@gmail.com

Mazkur maqolada turmush davomiyligiga qarab oilalarda ajrim yuzaga kelishining ijtimoiy-psixologik sabablari empirik jihatdan o‘rganilgan. Tadqiqot davomida yosh oilalar va uzoq yillar birga yashagan oilalardagi ajrim omillari o‘zaro solishtirildi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, yosh oilalarda ajrim ko‘proq o‘zaro moslashuv qiyinchiliklari, moddiy muammolar, muloqot yetishmasligi hamda qarindoshlar aralashuvi bilan bog‘liq bo‘lsa, uzoq muddatli nikohlarda hissiy sovuqlashuv, o‘zaro tushunmovchiliklarning to‘planib borishi va hayotiy qarashlarning farqlanishi muhim omillar sifatida namoyon bo‘ladi. Tadqiqotda kuzatish, taqqoslash va tahlil usullaridan foydalanildi. Olingan natijalar oilaviy munosabatlarni mustahkamlash, ajrimlarning oldini olish va oilalarni psixologik qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: *oila mustahkamligi, ajrim sabablari, yosh oilalar, uzoq muddatli nikoh, ijtimoiy psixologik omillar, er-xotin munosabatlari, oilaviy nizolar, muloqot muammolari, hissiy sovuqlashuv, empirik tadqiqot.*

ЭМПИРИЧЕСКОЕ ИЗУЧЕНИЕ СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ПРИЧИН РАЗВОДОВ В СЕМЬЯХ В ЗАВИСИМОСТИ ОТ ПРОДОЛЖИТЕЛЬНОСТИ БРАКА

В данной статье эмпирически изучаются социально-психологические причины разводов в семьях в зависимости от продолжительности брака. В ходе исследования были сопоставлены факторы разводов в молодых семьях и в семьях, проживших вместе длительное время. Результаты анализа показали, что в молодых семьях разводы чаще связаны с трудностями взаимной адаптации, материальными проблемами, недостатком общения и вмешательством родственников, тогда как в длительных браках значимыми факторами выступают эмоциональное отчуждение, накопление взаимных недопониманий и различие жизненных взглядов. В исследовании использовались методы наблюдения, сравнения и анализа. Полученные результаты свидетельствуют о необходимости укрепления семейных отношений, предупреждения разводов и совершенствования системы психологической поддержки семей.

Ключевые слова: *устойчивость семьи, причины разводов, молодые семьи, длительный брак, социально-психологические факторы, супружеские отношения, семейные конфликты, проблемы общения, эмоциональное отчуждение, эмпирическое исследование.*

EMPIRICAL STUDY OF THE SOCIO-PSYCHOLOGICAL CAUSES OF DIVORCE IN FAMILIES ACCORDING TO THE DURATION OF MARRIAGE

This article presents an empirical study of the socio-psychological causes of divorce in families depending on the duration of marriage. The study compares the factors leading to divorce in newly formed families and in families with long marital experience. The analysis shows that in young families divorce is more often associated with difficulties of mutual adaptation, financial problems, lack of communication, and interference of relatives, whereas in long-term marriages emotional alienation, accumulation of misunderstandings, and differences in life values become significant factors. The research employed observation, comparative, and analytical methods. The findings highlight the importance of strengthening family relationships, preventing divorce, and improving psychological support systems for families.

Key words: *family stability, causes of divorce, young families, long-term marriage, socio-psychological factors, marital relations, family conflicts, communication problems, emotional alienation, empirical research.*

Kirish. Bugungi kunda oila jamiyatning eng muhim ijtimoiy institutlaridan biri sifatida shaxsning ma’naviy, axloqiy va psixologik rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. Oilaning mustahkamligi jamiyat

barqarorligi, farovonligi va sog‘lom avlod tarbiyasi bilan chambarchas bog‘liqdir. Shu sababli oilaviy munosabatlarni mustahkamlash, ajrimlarning oldini olish va oilalarda sog‘lom ijtimoiy-psixologik muhitni shakllantirish masalalari davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida oilani qo‘llab-quvvatlash, xotin-qizlarning jamiyatdagi o‘rnini mustahkamlash hamda oilaviy nizolar profilaktikasini kuchaytirish bo‘yicha qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Jumladan, “Oila va xotin-qizlarni tizimli qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident Farmonida oilalarda sog‘lom ma’naviy muhitni ta’minlash, nizoli vaziyatlarni erta aniqlash va psixologik yordam tizimini rivojlantirish masalalari ustuvor vazifa sifatida belgilangan [1].

Shuningdek, “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida aholi farovonligini oshirish, oilalarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash hamda ajrimlarning oldini olish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar nazarda tutilgan [2]. Ushbu strategiyada oilaning barqarorligi jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri sifatida alohida ta’kidlangan.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksida er-xotin huquq va majburiyatlari, oilaviy munosabatlarning huquqiy asoslari, farzand tarbiyasi va oila institutini himoya qilishga oid normalar belgilangan bo‘lib, bu hujjat oilaviy munosabatlarni tartibga soluvchi asosiy huquqiy manba hisoblanadi [3].

Shu jihatdan, turmush davomiyligiga qarab oilalardagi ajrimlarning ijtimoiy-psixologik sabablarini empirik jihatdan o‘rganish dolzarb ilmiy muammo hisoblanadi. Yosh oilalarda ajrim ko‘proq moslashuv qiyinchiliklari, iqtisodiy muammolar va muloqot yetishmasligi bilan bog‘liq bo‘lsa, uzoq muddatli nikohlarda hissiy sovuqlashuv, o‘zaro tushunmovchiliklarning to‘planib borishi va hayotiy qarashlarning farqlanishi muhim omillar sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu jarayonlarni ilmiy asosda o‘rganish ajrimlarning oldini olish bo‘yicha samarali tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi. Mazkur tadqiqotning maqsadi turmush davomiyligiga ko‘ra oilalarda ajrim yuzaga kelishining asosiy ijtimoiy-psixologik sabablarini aniqlash va ularni empirik ma’lumotlar asosida tahlil qilishdan iborat.

Adabiyotlar tahlili. Oilaviy munosabatlar va ajrim sabablari masalasi nafaqat psixologiya, balki pedagogika, sotsiologiya hamda demografiya sohalarida ham keng o‘rganilgan dolzarb ilmiy muammolardan biridir. Turmush davomiyligiga qarab oilalarda yuzaga keladigan muammolarni ilmiy jihatdan tushuntirishda oila tarbiyasi, ijtimoiy muhit, iqtisodiy sharoit, madaniy qadriyatlar va demografik omillarni kompleks tarzda tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, oiladagi ajrimlar ko‘pincha birgina sabab bilan emas, balki o‘zaro bog‘liq bo‘lgan bir nechta omillar ta’sirida yuzaga keladi.

Oila pedagogikasi yo‘nalishida O. Musurmonovaning “Oila pedagogikasi” asarida oilaning jamiyatdagi o‘rni, uning ijtimoiy institut sifatidagi ahamiyati, oilaviy munosabatlar madaniyati hamda er-xotin o‘rtasidagi o‘zaro hurmat va mas’uliyat masalalari keng yoritilgan [4]. Muallif oilaning shaxs kamolotidagi o‘rni va oilaviy tarbiyaning farzandlar ijtimoiylashuvidagi ahamiyatini alohida ta’kidlaydi. Asarda keltirilishicha, oiladagi ziddiyatlarning aksariyati o‘zaro tushunish, muloqot madaniyati va psixologik muhitning yetarli darajada shakllanmaganligi bilan bog‘liq bo‘ladi. Ayniqsa, yosh oilalarda hayotiy tajribaning kamligi, muammolarni birgalikda hal qilish ko‘nikmalarining yetishmasligi hamda mas’uliyatni to‘g‘ri taqsimlay olmaslik nizolarni kuchaytiruvchi omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Shuningdek, muallif oiladagi ma’naviy-axloqiy qadriyatlarning zaiflashuvi, oila a’zolari o‘rtasida hamkorlik va murosaning yetishmasligi oilaviy barqarorlikka salbiy ta’sir ko‘rsatishini qayd etadi. Oilada sog‘lom psixologik muhitning shakllanishi nafaqat er-xotin o‘rtasidagi munosabatlarga, balki farzandlarning ruhiy rivojlanishi va shaxs sifatida shakllanishiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu jihatdan qaraganda, oilaviy nizolarni pedagogik nuqtai nazardan tahlil qilish turmushning dastlabki yillarida yuzaga keladigan ajrim sabablarini tushuntirishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Ajrimlarning ijtimoiy-demografik omillarini o‘rganishda Q.X. Abdurahmonovning “Aholi demografiyasi asoslari” nomli asari ham muhim ilmiy manbalardan biri hisoblanadi [5]. Ushbu asarda nikoh va ajrim jarayonlari demografik hodisa sifatida tahlil qilinib, ularning jamiyatdagi iqtisodiy sharoit, bandlik darajasi, migratsiya jarayonlari, urbanizatsiya, aholi turmush darajasi hamda ijtimoiy infratuzilmaning rivojlanish darajasi bilan uzviy bog‘liqligi ilmiy asosda yoritilgan. Muallifning ta’kidlashicha, ajrimlar sonining ortishi ko‘pincha jamiyatda sodir bo‘layotgan ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar, turmush tarzining modernizatsiyalashuvi, gender rollarining o‘zgarishi va shaxsiy mustaqillikka bo‘lgan ehtiyojning ortishi bilan ham bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Ayniqsa, yosh oilalarda iqtisodiy mustaqillikning yetarli darajada shakllanmaganligi, doimiy daromad manbaining yo‘qligi, uy-joy masalalarining murakkabligi va mehnat migratsiyasi bilan bog‘liq omillar oilaviy barqarorlikka salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkinligi alohida ta’kidlanadi. Bu yondashuv turmush davomiyligiga qarab ajrim sabablarini tahlil qilishda demografik va ijtimoiy omillarning ahamiyatini yanada chuqurroq ochib beradi. Shuningdek, psixologik tadqiqotlarda oilaviy nizolarning kelib chiqishida shaxsiy

xususiyatlar, emotsional yetuklik darajasi, stressga chidamlilik, rashk, o‘zaro ishonch va kommunikativ kompetensiyaning darajasi muhim omil sifatida ko‘rsatib o‘tiladi. Oiladagi nizolarni konstruktiv yo‘l bilan hal qilish ko‘nikmalarining yetishmasligi ko‘pincha kelishmovchiliklarning chuqurlashishiga va ajrimga olib kelishi mumkin.

Tahlil qilingan ilmiy manbalar shuni ko‘rsatadiki, oilalardagi ajrimlar faqat psixologik omillar bilan emas, balki pedagogik, ijtimoiy va demografik omillar bilan ham chambarchas bog‘liqdir. Bu esa mazkur muammoni kompleks yondashuv asosida o‘rganish, turli fanlar kesishgan nuqtada tahlil qilish zarurligini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, turmush davomiyligiga qarab ajrim sabablarini empirik jihatdan o‘rganish oilaviy barqarorlikni mustahkamlashga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqishda muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Oilaviy munosabatlar va ajrim sabablari masalasi ijtimoiy-gumanitar fanlarda murakkab va ko‘p omilli hodisa sifatida qaraladi. Nazariy jihatdan bu muammo shaxs psixologiyasi, oila pedagogikasi, sotsiologiya hamda demografiya fanlari kesishgan nuqtada o‘rganiladi. Chunki oila — bu nafaqat ikki shaxsning birgalikdagi hayoti, balki ijtimoiy, iqtisodiy va ma’naviy munosabatlar tizimini o‘zida mujassam etgan murakkab ijtimoiy institut hisoblanadi.

Ilmiy manbalarda oilaviy munosabatlar barqarorligi ko‘pincha oila a’zolari o‘rtasidagi o‘zaro tushunish, emotsional yaqinlik, ijtimoiy moslashuv va umumiy qadriyatlar tizimi bilan bog‘liq holda izohlanadi. Psixologik nazariyalarga ko‘ra, er-xotin o‘rtasidagi munosabatlarning mustahkamligi shaxslararo kommunikatsiya darajasi, konfliktlarni boshqarish ko‘nikmalari va empatiya rivojlanganligi bilan bevosita bog‘liqdir. Agar muloqot madaniyati yetarli darajada shakllanmagan bo‘lsa, oddiy kelishmovchiliklar ham asta-sekin chuqur ziddiyatlarga aylanib borishi mumkin. Oilaviy munosabatlarni tushuntirishda tizimli yondashuv nazariyasi muhim o‘rin tutadi. Ushbu yondashuvga ko‘ra, oila o‘zaro bog‘langan elementlardan iborat yagona tizim bo‘lib, undagi har bir a’zoning xatti-harakati butun tizim faoliyatiga ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, iqtisodiy muammolar, ish bilan bog‘liq stress yoki qarindosh-urug‘lar bilan munosabatlar oilaviy muhitga bilvosita ta’sir etib, ziddiyatlarning kuchayishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Pedagogik nuqtayi nazardan qaraganda, oila shaxs tarbiyasining birlamchi muhiti hisoblanadi. Oila pedagogikasi nazariyasiga ko‘ra, oiladagi psixologik muhit, o‘zaro hurmat, hamkorlik va mas’uliyat farzandlarning shaxsiy rivojlanishiga, ijtimoiy xulq-atvoriga va kelajakdagi oilaviy hayotga bo‘lgan munosabatiga ta’sir ko‘rsatadi. Oilada doimiy nizolar hukm sursa, bu holat bolalarda xavotir, ishonchsizlik va tajovuzkorlik kabi salbiy psixologik holatlarning shakllanishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli pedagogik nazariyalarda oilaviy muhit barqarorligi jamiyat barqarorligining muhim sharti sifatida talqin etiladi. Ajrimlar sabablarini izohlashda ijtimoiy rollar nazariyasi ham muhim ahamiyatga ega. Ushbu nazariyaga ko‘ra, oilada har bir a’zo muayyan ijtimoiy rolni bajaradi: er, xotin, ota, ona kabi rollar o‘ziga xos majburiyat va mas’uliyatlarni talab etadi. Zamonaviy jamiyatda gender rollarining o‘zgarishi, ayollarning iqtisodiy mustaqilligi ortishi va ijtimoiy qarashlarning yangilanishi oiladagi an’anaviy rollar tizimiga ta’sir ko‘rsatmoqda. Bu esa ba’zi hollarda oilaviy munosabatlarda moslashuv muammolarini keltirib chiqarishi mumkin.

Demografik nazariyalarda esa ajrimlar nikoh institutining rivojlanish jarayoni bilan bog‘liq ijtimoiy hodisa sifatida talqin etiladi. Urbanizatsiya, migratsiya, aholining turmush darajasi, bandlik darajasi va uy-joy sharoitlari oilaviy barqarorlikka ta’sir etuvchi muhim omillar sifatida ko‘rib chiqiladi. Ayniqsa, turmushning dastlabki yillarida iqtisodiy qiyinchiliklar, ijtimoiy moslashuv muammolari va mustaqil hayot tajribasining yetishmasligi yosh oilalarda nizolar ehtimolini oshiradi. Shuningdek, nazariy manbalarda ajrim sabablarini turmush davomiyligiga qarab ham tahlil qilish mumkinligi ta’kidlanadi. Turmushning dastlabki bosqichida ajrimlar ko‘proq moslashuv davridagi qiyinchiliklar, xarakterlar to‘qnashuvi va iqtisodiy muammolar bilan bog‘liq bo‘lsa, uzoq yillar birga yashagan oilalarda ajrimlar ko‘proq emotsional sovuqlik, o‘zaro qiziqishning susayishi yoki hayotiy qadriyatlarning o‘zgarishi bilan izohlanadi.

Psixologik nazariyalarda oilaviy nizolarni tushuntirishda stress va frustratsiya nazariyasi ham qo‘llaniladi. Ushbu yondashuvga ko‘ra, shaxs tashqi muhit bosimi yoki ichki qoniqmaslik hissini boshdan kechirganida, bu holat ko‘pincha yaqin munosabatlarga, xususan, oilaviy aloqalarga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Natijada kichik kelishmovchiliklar ham keskin nizolarga aylanib borishi mumkin. Shu bilan birga, zamonaviy ilmiy qarashlarda oilaviy munosabatlarning barqarorligi quyidagi omillar bilan belgilanadi:

-o‘zaro hurmat va ishonch darajasi;
-muloqot madaniyati va konfliktlarni hal etish ko‘nikmalari;
-iqtisodiy barqarorlik va ijtimoiy himoya;
-umumiy qadriyatlar va maqsadlarning mavjudligi;
-psixologik moslik va emotsional yaqinlik.

Yuqoridagi nazariy qarashlar shuni ko‘rsatadiki, ajrimlar birgina sabab bilan emas, balki bir-biri bilan bog‘liq bo‘lgan psixologik, pedagogik, ijtimoiy va demografik omillar ta’sirida yuzaga keladi. Shu bois turmush davomiyligiga ko‘ra oilalardagi ajrim sabablari masalasini o‘rganishda kompleks nazariy yondashuvni qo‘llash ilmiy jihatdan asosli hisoblanadi hamda tadqiqot natijalarining aniqligini oshiradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda turmush davomiyligiga ko‘ra oilalarda ajrim yuzaga kelishining ijtimoiy-psixologik sabablarini aniqlash maqsadida kompleks yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosini oila psixologiyasi, ijtimoiy psixologiya hamda demografiya sohalarida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar tashkil etdi. Tadqiqot jarayonida bir nechta ilmiy usullar qo‘llanildi. Avvalo, **ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish usuli** orqali oilaviy munosabatlar, ajrim sabablari, oiladagi psixologik muhit hamda ijtimoiy-demografik omillar bo‘yicha mavjud ilmiy manbalar o‘rganildi. Bu usul tadqiqotning nazariy asoslarini aniqlash va asosiy tushunchalarni izohlash imkonini berdi.

Shuningdek, tadqiqotda **empirik usullar**dan foydalanildi. Xususan, turli turmush davomiyligiga ega oilalarda ajrim sabablarini aniqlash maqsadida **kuzatish** va **suhbat** usullari qo‘llanildi. Kuzatish jarayonida oilaviy munosabatlar, o‘zaro muloqot, nizolarni hal etish usullari va oilaviy muhitning psixologik holati o‘rganildi. Suhbat usuli esa ajrimga olib kelgan omillarni ishtirokchilarning o‘z fikrlari asosida aniqlash imkonini berdi.

Tadqiqotda **taqqoslash usuli** ham muhim o‘rin tutdi. Bu usul yordamida yosh oilalar hamda uzoq yillar birga yashagan oilalarda ajrim sabablarining o‘xshash va farqli jihatlari aniqlanib, ularning turmush davomiyligiga bog‘liqligi tahlil qilindi. Taqqoslash natijasida turmushning dastlabki bosqichida ko‘proq moslashuv qiyinchiliklari va iqtisodiy omillar muhim bo‘lsa, uzoq muddatli nikohlarda hissiy sovuqlashuv va o‘zaro tushunmovchiliklarning to‘planib borishi asosiy omillar sifatida namoyon bo‘lishi kuzatildi[6]

Bundan tashqari, tadqiqotda **tahlil va umumlashtirish usuli**dan foydalanildi. Olingan ma’lumotlar tizimlashtirilib, umumiy xulosalar shakllantirildi. Ushbu usul turli omillar o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash va ajrimlarning asosiy ijtimoiy-psixologik sabablarini aniqlashga yordam berdi. Shunday qilib, qo‘llanilgan metodlar majmui turmush davomiyligiga ko‘ra oilalarda ajrim yuzaga kelishining ijtimoiy-psixologik sabablarini har tomonlama o‘rganish hamda ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish imkonini berdi.

Tahlillar va natijalar. Oilaviy munosabatlar va ajrim sabablari muammosi ko‘plab olimlar tomonidan turli nazariy yondashuvlar asosida tahlil qilingan. Ilmiy manbalarda oila jamiyatning eng muhim ijtimoiy instituti sifatida qaralib, uning barqarorligi shaxs, jamiyat va kelajak avlod taraqqiyoti bilan bevosita bog‘liqligi ta’kidlanadi.

Oila pedagogikasi sohasida olib borilgan tadqiqotlarda oiladagi tarbiyaviy muhit va o‘zaro munosabatlar madaniyatining ahamiyati alohida qayd etiladi. Jumladan, O. Musurmonovaning **“Oila pedagogikasi”** asarida shunday fikr ilgari suriladi: oilaviy munosabatlarning mustahkamligi er-xotin o‘rtasidagi o‘zaro hurmat, sabr-toqat va muloqot madaniyatiga bog‘liq bo‘lib, bu omillar yetarli darajada shakllanmagan hollarda oilada ziddiyatlar kuchayishi mumkin. Muallif oilaviy nizolarning asosiy sabablaridan biri sifatida bir-birini tushunmaslik, o‘zaro talab va kutishlarning mos kelmasligi hamda oilaviy mas’uliyatni to‘g‘ri taqsimlay olmaslikni ko‘rsatadi. Bu fikrlar, ayniqsa, turmushning dastlabki yillarida ajrim ehtimoli yuqoriroq bo‘lishini ilmiy jihatdan tushuntirib beradi.

Psixologik tadqiqotlarda ham oilaviy nizolarni tushuntirishga alohida e’tibor qaratilgan. Masalan, G. Andreevaning ijtimoiy psixologiyaga oid ilmiy ishlarida shaxslararo munosabatlar tizimida muloqotning o‘rni asoslab berilib, oiladagi ziddiyatlarning ko‘pchiligi kommunikativ to‘siqlar va noto‘g‘ri talqinlar natijasida yuzaga kelishi ta’kidlanadi. Muallifning fikricha, oilaviy hayotda muloqot faqat axborot almashish vositasi emas, balki hissiy yaqinlikni ta’minlovchi muhim psixologik omildir. Demak, muloqotning buzilishi o‘zaro begonalashuvni kuchaytirib, ajrimga olib keluvchi psixologik zaminni yaratishi mumkin.

Oila sotsiologiyasi yo‘nalishidagi tadqiqotlarda esa ajrim sabablari kengroq ijtimoiy omillar bilan bog‘liq holda tahlil qilinadi. A. G. Xarchevning oila sotsiologiyasiga bag‘ishlangan ishlarida oila jamiyatdagi iqtisodiy, madaniy va demografik jarayonlar ta’sirida o‘zgarib boruvchi tizim sifatida talqin etiladi. Muallif shunday xulosaga keladiki, jamiyatda ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar o‘zgarishi, urbanizatsiya jarayonlari va qadriyatlar tizimidagi transformatsiyalar oilaviy munosabatlarga ham ta’sir ko‘rsatadi. Natijada, ayrim hollarda an’anaviy oilaviy qadriyatlarning zaiflashuvi ajrimlar sonining ortishiga olib kelishi mumkin.

Shuningdek, psixologik manbalarda oilaviy barqarorlikka ta’sir etuvchi omillar qatorida emotsional yaqinlik, o‘zaro qo‘llab-quvvatlash va ishonch darajasi muhim ekani ta’kidlanadi. V. Satirning oilaviy terapiya bo‘yicha tadqiqotlarida oiladagi sog‘lom psixologik muhit shaxsning o‘zini qadrlashi va ijtimoiy moslashuviga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi qayd etiladi. Muallifning fikricha, oilada doimiy tanqid, e’tiborsizlik yoki hissiy sovuqlik hukm sursa, bu holat munosabatlarning asta-sekin yemirilishiga olib keladi.

Yuqorida ko‘rib chiqilgan ilmiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, oilaviy ajrimlar sabablari ko‘p qirrali bo‘lib, ular quyidagi omillar bilan izohlanadi:

psixologik omillar (muloqot madaniyati, emotsional moslik, konfliktlarni boshqarish ko‘nikmalari);
pedagogik omillar (oilaviy tarbiya, ma’naviy qadriyatlar, o‘zaro hurmatning shakllanishi);
ijtimoiy omillar (urbanizatsiya, ijtimoiy rollarning o‘zgarishi, qadriyatlar transformatsiyasi);
demografik va iqtisodiy omillar (bandlik, daromad darajasi, uy-joy sharoitlari).

Shunday qilib, ilmiy adabiyotlar tahlili oilalardagi ajrimlarni bir tomonlama izohlash mumkin emasligini, balki ularni kompleks, tizimli yondashuv asosida o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi. Bu esa turmush davomiyligiga ko‘ra ajrim sabablari masalasini chuqur ilmiy asosda tadqiq etish uchun muhim nazariy poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

Olib borilgan empirik kuzatishlar va suhbatlar natijasida turmush davomiyligiga qarab oilalarda ajrim yuzaga kelishining ijtimoiy-psixologik sabablari turlicha ekanligi aniqlandi. Tahlillar yosh oilalar va uzoq muddatli nikohdagi oilalar kesimida olib borildi hamda muammolar aniq hayotiy holatlar misolida o‘rganildi.

Avvalo, yosh oilalarda ajrimga olib keluvchi asosiy omillardan biri **o‘zaro moslashuvning qiyin kechishi** ekanligi kuzatildi. Masalan, ikki yil birga yashagan bir oilada er o‘zini oilaning asosiy ta’minotchisi deb bilgan va uy ishlarini ayolning vazifasi deb hisoblagan. Ayol esa o‘qishni davom ettirayotgan bo‘lib, uy yumushlariga yetarlicha vaqt ajrata olmagan. Shu sababli kundalik masalalar bo‘yicha tez-tez kelishmovchiliklar yuzaga kelgan. Dastlab oddiy gap talashishlar bo‘lgan bo‘lsa, keyinchalik bu janjallarga aylangan. Suhbat davomida aniqlanishicha, ular muammolarni muhokama qilish o‘rniga bir-birini ayblashga odatlangan, bu esa o‘zaro tushunmovchilikni kuchaytirgan[7]

Yosh oilalarda yana bir muhim sabab sifatida **moddiy qiyinchiliklar** kuzatildi. Masalan, bir oilada er vaqtinchalik ishda ishlagan, daromadi barqaror bo‘lmagan. Oila ijarada yashagan va har oy to‘lovlarni amalga oshirishda qiyinchiliklarga duch kelgan. Ayolning so‘zlariga ko‘ra, iqtisodiy bosim sabab er tez-tez asabiylashgan, bu esa oiladagi psixologik muhitga salbiy ta’sir ko‘rsatgan. Ular o‘rtasida kelishmovchiliklar aynan moddiy muammolar kuchaygan davrda ko‘paygani kuzatilgan. Bu misol iqtisodiy omillar bevosita ajrim sababi bo‘lmasa ham, oilaviy nizolarni kuchaytiruvchi omil bo‘lishini ko‘rsatadi[8]

Kuzatishlar davomida yosh oilalarda **qarindoshlarning oilaviy hayotga aralashuvi** ham muhim omil sifatida namoyon bo‘ldi. Masalan, bir oilada kelin qaynota-qaynona bilan birga yashagan. Qaynona kelinning uy ishlarini bajarish uslubini doimiy tanqid qilgan, er esa ko‘pincha onasining tarafini olgan. Natijada kelin o‘zini tushunilmayotgandek his qilgan va er-xotin o‘rtasida sovuqlik paydo bo‘lgan. Vaqt o‘tishi bilan bu kelishmovchiliklar kuchayib, ajrimga olib kelgan. Bu holat yosh oilalarda mustaqil qaror qabul qilish imkoniyati cheklanganda ziddiyatlar tezroq yuzaga kelishini ko‘rsatadi.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, uzoq muddatli nikohlarda ajrim sabablari ko‘proq **psixologik va emotsional omillar** bilan bog‘liq bo‘ladi. Masalan, o‘n uch yil birga yashagan bir oilada er-xotin dastlab yaxshi munosabatda bo‘lgan, biroq vaqt o‘tishi bilan ular o‘rtasidagi muloqot kamaygan. Farzandlar katta bo‘lib, har kim o‘z ishlari bilan band bo‘la boshlagan. Suhbat davomida ular bir-biriga vaqt ajratmaslik va birgalikdagi suhbatlarning kamayib ketganini ta’kidladilar. Bu esa asta-sekin hissiy sovuqlashuvga olib kelgan[9]

Yana bir misolda uzoq muddatli nikohdagi oilada **hayotiy qarashlarning o‘zgarishi** muhim omil sifatida kuzatildi. Ayol o‘z malakasini oshirib, ish faoliyatini kengaytirishni istagan, erkak esa an’anaviy qarashlarga amal qilib, uning ko‘proq uyda bo‘lishini xohlagan. Bu masalada kelishuvga erishilmagani sababli o‘zaro norozilik kuchaygan. Dastlab bu masala kichik bahslar bilan cheklangan bo‘lsa, keyinchalik jiddiy kelishmovchiliklarga sabab bo‘lgan.

Tahlillar davomida **muloqot yetishmasligi** barcha turdagi oilalarda ajrimga olib keluvchi umumiy omillardan biri ekanligi aniqlandi. Masalan, ayrim oilalarda muammolar ochiq muhokama qilinmagan, er-xotin o‘z noroziligini ichida saqlagan. Vaqt o‘tishi bilan bu noroziliklar yig‘ilib, keskin janjallarga sabab bo‘lgan. Suhbat natijalari shuni ko‘rsatdiki, ko‘plab oilalarda muammolarni vaqtida hal qilish o‘rniga kechiktirish holati uchraydi, bu esa ziddiyatlarni chuqurlashtiradi[10]. Shuningdek, ayrim holatlarda **ish bilan ortiqcha bandlik va vaqt yetishmasligi** ham oilaviy munosabatlarga salbiy ta’sir ko‘rsatishi kuzatildi. Masalan, bir oilada er doimiy xizmat safarlarida bo‘lgan, ayol esa farzandlar tarbiyasi bilan yolg‘iz shug‘ullangan. Natijada ular o‘rtasida masofa paydo bo‘lgan, muloqot kamaygan va o‘zaro tushunmovchiliklar kuchaygan.

Umuman olganda, tahlillar shuni ko‘rsatdiki, yosh oilalarda ajrim ko‘proq moslashuv qiyinchiliklari, moddiy muammolar va qarindoshlar aralashuvi bilan bog‘liq bo‘lsa, uzoq muddatli nikohlarda hissiy sovuqlashuv, muloqotning kamayishi va o‘zaro tushunmovchiliklarning to‘planib borishi asosiy sabablar sifatida namoyon bo‘ladi. Tadqiqot natijalari oilalarda nizolarni erta bosqichda aniqlash, psixologik maslahat xizmatlarini rivojlantirish va yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash ajrimlarning oldini olishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatdi.

Xulosa. Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, turmush davomiyligiga qarab oilalarda ajrim yuzaga kelishining ijtimoiy-psixologik sabablari bir-biridan farq qiladi. Yosh oilalarda ajrim ko‘proq o‘zaro moslashuv qiyinchiliklari, iqtisodiy muammolar, oilaviy hayotga psixologik tayyorgarlikning yetarli emasligi hamda qarindosh-urug‘larning aralashuvi bilan bog‘liq bo‘lishi kuzatildi. Bu davrda er-xotin o‘rtasida muloqot madaniyatining yetarli darajada shakllanmaganligi ham nizolarni kuchaytiruvchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Uzoq muddatli nikohlarda esa ajrimlarning asosiy sabablari ko‘proq psixologik va emotsional omillar bilan bog‘liq ekani aniqlandi. Xususan, hissiy sovuqlashuv, o‘zaro e’tiborning kamayishi, hayotiy maqsadlar va qarashlarning farqlanishi, shuningdek yillar davomida to‘planib boradigan kelishmovchiliklar oilaviy barqarorlikka salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Tadqiqot natijalari shuni ham ko‘rsatdiki, ajrimlar ko‘pincha birdaniga emas, balki uzoq vaqt davomida shakllanadigan muammolar natijasida yuzaga keladi. Shu sababli oilalarda nizolarni erta aniqlash, psixologik maslahat xizmatlarini rivojlantirish, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash va oilaviy munosabatlar madaniyatini oshirish muhim ahamiyatga ega.

Umuman olganda, oilani mustahkamlashda o‘zaro hurmat, ochiq muloqot, sabr-toqat, mas’uliyatni to‘g‘ri taqsimlash va muammolarni birgalikda hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish eng muhim omillar hisoblanadi. Oilalarga ijtimoiy va psixologik yordam ko‘rsatish tizimini takomillashtirish ajrimlarning oldini olishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. “Oila va xotin-qizlarni tizimli qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmon. – Toshkent, Lex.uz.

2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida. – Toshkent, Lex.uz.

3.Shoumarov G‘.B. Oila psixologiyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2000.

4.Davletshin M.G. Umumiy psixologiya. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2002.

5.Karimova V.M. Oila psixologiyasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2008.

6.G‘oziyev E.G‘. Umumiy psixologiya. – Toshkent: O‘qituvchi, 2010.

7.O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. Nikoh va ajrimlar statistikasi bo‘yicha yillik to‘plam. – Toshkent, stat.uz.

8.Musurmonova O. Oila pedagogikasi. – Toshkent: Fan, 2007.

9.Fayzieva M., Jabborov A. Oilaviy munosabatlar psixologiyasi. – T.: «Yangi asr avlodi», 2007.

10. Abdullaeva R.M. Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning psixologik omillari / Maktab va hayot. – 2006. – № 7.

11. Abdurahmonov Q.X. Aholi demografiyasi asoslari. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2015.

12. Ismoilova Z.K. Ijtimoiy psixologiya. – Toshkent: Universitet, 2018.

UO‘K 373.2;37.013;378

RAHBARLIK QOBILIYATLARI VA BOSHQARUV KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH USULLARI

Narimbayeva Lola Kuzibayevna,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
“Maktabgacha va boshlang’ich ta’lim metodikasi”
kafedrasi dotsenti, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Lolaxon@tdau.uz

Mazkur maqolada rahbar shaxsining kasbiy faoliyatida muhim ahamiyat kasb etuvchi boshqaruv qobiliyatlari va ko‘nikmalarini rivojlantirish masalalari yoritilgan. Rahbar xarakteri, refleksiya jarayoni, o‘z-o‘zini baholash va zamonaviy pedagogik hamda psixologik metodlar asosida boshqaruv salohiyatini oshirish yo‘llari tahlil qilingan. Shuningdek, boshqaruv faoliyatiga tayyorlashda oliy ta’lim muassasalarida qo‘llaniladigan amaliy metodlarning ahamiyati asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: *rahbarlik qobiliyati, boshqaruv ko‘nikmalari, refleksiya, o‘z-o‘zini baholash, menejer shaxsi, pedagogik metodlar.*

METHODS FOR DEVELOPING LEADERSHIP ABILITIES AND MANAGEMENT SKILLS.

This article examines the issues of developing managerial abilities and skills that play a significant role in the professional activity of a leader. The character of the leader, processes of reflection and self-assessment, as well as ways to enhance managerial potential based on modern pedagogical and psychological methods are analyzed. In addition, the importance of practical methods used in higher education institutions in preparing for managerial activities is substantiated.

Keywords: *leadership abilities, managerial skills, reflection, self-assessment, manager’s personality, pedagogical methods.*

МЕТОДЫ РАЗВИТИЯ ЛИДЕРСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ И НАВЫКОВ УПРАВЛЕНИЯ

В данной статье рассматриваются вопросы развития управленческих способностей и навыков, имеющих важное значение в профессиональной деятельности руководителя. Проанализированы характер руководителя, процессы рефлексии, самооценки, а также пути повышения управленческого потенциала на основе современных педагогических и психологических методов. Кроме того, обоснована значимость практических методов, применяемых в высших учебных заведениях при подготовке к управленческой деятельности.

Ключевые слова: *лидерские способности, управленческие навыки, рефлексия, самооценка, личность менеджера, педагогические методы.*

Kirish. Bugungi globallashuv va raqobat kuchayib borayotgan sharoitda rahbar shaxsiga qo‘yiladigan talablar tobora murakkablashib bormoqda. Boshqaruv samaradorligi nafaqat kasbiy bilim va tajriba, balki rahbarning shaxsiy sifatlari, o‘zini boshqara olish qobiliyati hamda refleksiv tafakkur darajasi bilan ham belgilanadi. Shu bois rahbarlik qobiliyatlari va boshqaruv ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish masalasi zamonaviy pedagogika va menejment nazariyasining dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Rahbarlik qobiliyatlari va boshqaruv ko‘nikmalarini rivojlantirish masalasi psixologiya, pedagogika va menejment fanlari doirasida ko‘plab mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan chuqur o‘rganilgan. Ilmiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, rahbar shaxsining kasbiy shakllanishi murakkab va ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, u individual-psixologik xususiyatlar, ijtimoiy muhit hamda kasbiy faoliyat sharoitlari bilan uzviy bog‘liqdir.

Xorijiy tadqiqotlarda rahbarlik faoliyati, avvalo, shaxsning o‘zini boshqara olish qobiliyati bilan izohlanadi. M. Vudkok va D. Frensis o‘z tadqiqotlarida rahbarning ichki erkinligi, mas’uliyatni his etishi hamda mustaqil qaror qabul qilishga tayyorligi boshqaruv samaradorligining muhim omillari ekanligini ta’kidlaydilar. Mualliflar rahbarlik qobiliyatlarini rivojlantirish jarayonida o‘z-o‘zini anglash va refleksiyaning ahamiyatiga alohida e’tibor qaratadilar.

V. I. Knorring tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, u rahbarlik faoliyatini nazariy, amaliy va ijodiy jarayon sifatida talqin qiladi. Olimning fikricha, samarali boshqaruv faqat buyruqbozlikka emas, balki motivatsiya, tahlil va moslashuvchanlikka asoslanishi lozim. Ushbu yondashuv rahbarlik qobiliyatlarini shakllantirishda shaxsga yo‘naltirilgan metodlardan foydalanish zarurligini ko‘rsatadi.

Mahalliy va MDH olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda rahbar shaxsining kasbiy sifatlari va ularni rivojlantirish masalalari keng yoritilgan. L. I. Avdeeva menejment jarayonida rahbar shaxsining kommunikativ qobiliyatlari, strategik fikrlashi va jamoa bilan ishlash ko‘nikmalarini asosiy komponentlar sifatida ko‘rsatadi. Muallif rahbarlik faoliyatining muvaffaqiyati ko‘p jihatdan shaxsning refleksiv tafakkuriga bog‘liq ekanligini qayd etadi.

N. B. Burtovaya o‘z ilmiy ishlarida bo‘lajak menejerlarning kasbiy qobiliyatlarini rivojlantirishda faol o‘qitish metodlarining samaradorligini asoslab bergan. Uning tadqiqotlariga ko‘ra, treninglar, muammoli vaziyatlar va rolli o‘yinlar rahbarlik ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim pedagogik vosita hisoblanadi.

N. A. Kiseleva va I. Yu. Milkovskaya tadqiqotlarida esa interaktiv va faol o‘qitish metodlari boshqaruv qobiliyatlarini rivojlantirishning samarali mexanizmi sifatida qaraladi. Mualliflar nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashtirish rahbarlik salohiyatini oshirishga xizmat qilishini ta’kidlaydilar.

O. A. Morozova rahbarlik kompetentligini baholash metodikasini ishlab chiqib, boshqaruv qobiliyatlarini tizimli tahlil qilish zarurligini asoslab beradi. Uning fikricha, diagnostik metodlardan foydalanish rahbarlarning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash, shuningdek, ularning kasbiy rivojlanish yo‘nalishlarini belgilash imkonini beradi.

Refleksiya masalasi A. P. Isayev tadqiqotlarida chuqur tahlil qilingan. Muallif refleksiyani rahbar shaxsining o‘z faoliyatini ongli ravishda boshqarish vositasi sifatida talqin etadi. Uning tadqiqotlariga ko‘ra, refleksiv ko‘nikmalarning rivojlanishi rahbarning kasbiy yetukligini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

A. S. Fridman rahbar xarakterini rivojlantirish masalalarini tahlil qilib, shaxsiy sifatlarning boshqaruv faoliyatida resurs sifatida namoyon bo‘lishini asoslab beradi. Muallif inson xarakterining moslashuvchanligini ta’kidlab, uni rivojlantirish amaliy harakatlar orqali amalga oshirilishini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, tahlil qilingan ilmiy adabiyotlar rahbarlik qobiliyatlari va boshqaruv ko‘nikmalarini rivojlantirish muammosining dolzarbligini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, mavjud tadqiqotlarda ushbu jarayonni tizimli, refleksiv va metodik asosda tashkil etish masalalari yetarli darajada yoritilmagan. Bu esa mazkur dissertatsiya doirasida rahbarlik qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan kompleks metodik yondashuvni ishlab chiqish zarurligini asoslaydi.

Rahbar faoliyatida mutlaqo “yaxshi” yoki “yomon” sifatlar mavjud emas, ularning barchasi boshqariladigan resurs sifatida namoyon bo‘ladi. Biroq anglanmagan yoki e’tibordan chetda qolgan sifatlar muammoli vaziyatlarda salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Shu sababli rahbar shaxsining o‘z xarakterini anglab yetishi, o‘zini obyektiv baholay olishi boshqaruv samaradorligini oshirishning muhim omili hisoblanadi.

Boshqaruv qobiliyatlarini rivojlantirishda mustaqil bilim olish, faoliyat orqali o‘qitish, MBA dasturlari, biznes-keyslardan foydalanish kabi metodlar keng qo‘llaniladi. Ushbu metodlarning samaradorligi inson xarakterining moslashuvchanligi va o‘zgaruvchanligi bilan bevosita bog‘liq.

Rahbar faoliyatida refleksiya muhim o‘rin tutadi. Refleksiya shaxsning o‘z faoliyatini, xatti-harakatlarini va qarorlarini tahlil qilishi, turli pozitsiyalardan baholashi imkonini beradi. Refleksiv yondashuv rahbarga o‘z faoliyatini takomillashtirish, boshqaruv jarayonidagi xatolarni aniqlash va to‘g‘ri qarorlar qabul qilishga yordam beradi.

Refleksiya jarayonini rivojlantirish quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

-refleksiv harakatlarni shakllantirish;

-intellektual imkoniyatlarni rivojlantirish;

-refleksiyani kasbiy faoliyatda faol qo‘llash;

-kasbiy faoliyatni takomillashtirish;

-menejer shaxsiyati tuzilmasida ijobiy o‘zgarishlarni yuzaga keltirish.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot rahbarlik qobiliyatlari va boshqaruv ko‘nikmalarini rivojlantirish jarayonining nazariy asoslari hamda amaliy mexanizmlarini o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, unda zamonaviy pedagogik, psixologik va menejment yondashuvlari integratsiyalashgan holda qo‘llanildi. Tadqiqot metodologiyasi ilmiylik, tizimlilik, uzluksizlik, izchillik va obyektivlik tamoyillariga asoslandi.

Tadqiqot metodologik jihatdan quyidagi yondashuvlarga tayandi:

-shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv, rahbar shaxsining individual xususiyatlari va rivojlanish imkoniyatlarini hisobga olishni ta’minlaydi;

-kompetensiyaviy yondashuv, boshqaruv faoliyatida zarur bo‘lgan kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarni kompleks rivojlantirishga xizmat qiladi;

-faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuv, rahbarlik qobiliyatlarini amaliy faoliyat jarayonida shakllantirish imkonini beradi;

-refleksiv yondashuv, rahbar shaxsining o‘z faoliyatini tahlil qilish va takomillashtirish mexanizmlarini ochib beradi;

-tizimli yondashuv, boshqaruv qobiliyatlarini o‘zaro bog‘liq komponentlar majmuasi sifatida o‘rganishga imkon yaratadi.

Mazkur yondashuvlar tadqiqotning ilmiy mantiqiyligini ta’minlab, rahbarlik qobiliyatlarini rivojlantirish jarayonini kompleks tahlil qilish imkonini berdi.

Tadqiqot jarayonida nazariy va empirik metodlar majmuasidan foydalanildi.

Nazariy metodlar:

-ilmiy-pedagogik, psixologik va menejment adabiyotlarini tahlil qilish va umumlashtirish;

-taqqoslash, tizimlashtirish va modellashtirish;

-ilmiy xulosalar chiqarish va konseptual yondashuvlarni ishlab chiqish.

Empirik metodlar:

-pedagogik kuzatish;

-suhbat va intervyu;

-so‘rovnoma (mualliflik savolnomalari asosida);

-psixologik va pedagogik testlar;

-konstatatsion va shakllantiruvchi eksperiment;

-faoliyat natijalarini tahlil qilish.

Mazkur metodlar rahbarlik qobiliyatlari va boshqaruv ko‘nikmalarining holatini aniqlash, ularning rivojlanish dinamikasini baholash va taklif etilgan metodikaning samaradorligini asoslashga xizmat qildi.

Tadqiqot izchil va tizimli tarzda quyidagi bosqichlarda amalga oshirildi:

1.Tayyorgarlik bosqichi.

Ushbu bosqichda mavzuga oid ilmiy adabiyotlar tahlil qilindi, tadqiqot muammosi aniqlashtirildi, maqsad va vazifalar belgilandi hamda tadqiqot metodologik apparati shakllantirildi.

2.Konstatatsion bosqich.

Mazkur bosqichda rahbarlarning mavjud boshqaruv qobiliyatlari va ko‘nikmalarining holati empirik metodlar asosida o‘rganildi. Olingan natijalar dastlabki diagnostik ma’lumotlar sifatida tahlil qilindi.

3.Shakllantiruvchi bosqich.

Ushbu bosqichda rahbarlik qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan metodik model joriy etildi. Treninglar, vaziyatli topshiriqlar, refleksiv mashg‘ulotlar va interaktiv metodlar qo‘llanildi.

4.Nazorat–tahlil bosqichi.

Bosqich yakunida takroriy diagnostika o‘tkazilib, olingan natijalar konstatatsion bosqich ko‘rsatkichlari bilan taqqoslandi hamda metodikaning samaradorligi baholandi.

Tadqiqot Chirchiq davlat pedagogika universitati, Namangan davlat pedagogika instituti, Andijon davlat pedagogika universiteti bazasida amalga oshirildi. Tadqiqotda rahbarlar, bo‘lim boshliqlari hamda boshqaruv faoliyatiga tayyorlanayotgan mutaxassislar ishtirok etdi. Ishtirokchilar soni va tarkibi tadqiqot vazifalariga mos ravishda tanlab olindi.

Olingan ma’lumotlar sifat va miqdoriy tahlil asosida qayta ishlanib, foiz ko‘rsatkichlari, taqqoslash jadvallari va grafiklar yordamida tahlil qilindi. Natijalarning ishonchliligini ta’minlash maqsadida qiyosiy va statistik tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot jarayonida ishtirokchilarning ixtiyoriyligi, anonimligi va shaxsiy ma’lumotlarning maxfiyligi ta’minlandi. Tadqiqot natijalari ilmiy xolislik va akademik halollik tamoyillariga qat’iy rioya qilingan holda talqin qilindi.

Rahbarlik qobiliyatlarini rivojlantirishda vaziyatli pedagogik topshiriqlar muhim ahamiyatga ega. Ular talabalarni real boshqaruv vaziyatlariga tayyorlash, muammolarni aniqlash va samarali qarorlar qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Ushbu metod nafaqat menejer, balki o‘zgaruvchan ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarga moslasha oladigan professional boshqaruvchini tayyorlash imkonini beradi.

Shuningdek, konstatatsion eksperiment metodi rahbarlarning boshqaruv qobiliyatlarini aniqlash va baholashda samarali vosita hisoblanadi. Bu metod doirasida mualliflik so‘rovnomalari, proektiv metodlar va psixologik testlar qo‘llaniladi.

O‘tkazilgan sotsiologik tadqiqotlar natijalari rahbarlarda o‘zini boshqarish, aniq maqsadlarni belgilash, o‘zini rivojlantirishga intilish, ijodiy yondashuv va muammolarni hal qilish ko‘nikmalari boshqaruv samaradorligini ta’minlovchi asosiy omillar ekanligini ko‘rsatadi.

Tahlil va natijalar. Mazkur bo‘limda tadqiqot jarayonida olingan empirik ma’lumotlar tahlili hamda rahbarlik qobiliyatlari va boshqaruv ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan metodikaning samaradorligi yoritiladi. Tahlil natijalari konstatatsion va shakllantiruvchi bosqichlarda to‘plangan ma’lumotlarni taqqoslash asosida amalga oshirildi.

Tadqiqotning konstatatsion bosqichida rahbarlarning boshqaruv qobiliyatlari va kasbiy ko‘nikmalarining dastlabki holati aniqlandi. Ushbu bosqichda so‘rovnoma, kuzatish, suhbat va psixologik testlar orqali olingan ma’lumotlar rahbarlarning o‘zini boshqarish, maqsad qo‘yish, refleksiya, muammolarni hal etish va jamoaga ta’sir ko‘rsatish ko‘nikmalari yetarli darajada rivojlanmaganligini ko‘rsatdi.

Natijalarga ko‘ra, tadqiqot ishtirokchilarining aksariyat qismida boshqaruv faoliyatiga nisbatan intuitiv yondashuv ustun bo‘lib, qarorlar ko‘pincha tizimli tahlilsiz qabul qilinishi aniqlandi. Shuningdek, refleksiv faoliyatning past darajada ekani rahbarlarning o‘z xatti-harakatlarini tanqidiy baholashda qiyinchiliklarga duch kelishiga olib kelayotgani kuzatildi.

Olingan natijalar rahbarlik qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan maxsus metodik yondashuv zarurligini tasdiqladi va shakllantiruvchi bosqichni tashkil etish uchun asos bo‘lib xizmat qildi.

Shakllantiruvchi bosqichda rahbarlik qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan metodik model amaliyotga joriy etildi. Ushbu bosqichda interaktiv mashg‘ulotlar, vaziyatli topshiriqlar, refleksiv tahlil, treninglar hamda muammoli vaziyatlar asosida ishlash metodlari qo‘llanildi.

Mashg‘ulotlar jarayonida rahbarlarda o‘z faoliyatini ongli rejalashtirish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, muqobil qarorlar ishlab chiqish va jamoa bilan samarali muloqot qilish ko‘nikmalari shakllantirildi. Refleksiv mashqlar orqali ishtirokchilarning o‘z-o‘zini baholash darajasi oshdi, bu esa ularning kasbiy o‘sishga bo‘lgan motivatsiyasini kuchaytirdi.

Shakllantiruvchi bosqich yakunida o‘tkazilgan oraliq monitoring natijalari rahbarlik qobiliyatlarining asosiy komponentlari bo‘yicha ijobiy o‘zgarishlar kuzatilganini ko‘rsatdi.

Nazorat bosqichida konstatatsion va shakllantiruvchi bosqich natijalari qiyosiy tahlil qilindi. Qayta o‘tkazilgan diagnostika rahbarlarda o‘zini boshqarish, aniq maqsadlarni belgilash, refleksiv fikrlash, muammolarni hal etish hamda jamoaga ta’sir ko‘rsatish ko‘nikmalarining sezilarli darajada rivojlanganini ko‘rsatdi.

Taqqoslash natijalari quyidagi tendensiyalarni aniqlash imkonini berdi:

-rahbarlarning o‘z faoliyatiga nisbatan mas’uliyatli va ongli yondashuvi kuchaydi;

-refleksiya darajasi oshib, o‘z xatti-harakatlarini tahlil qilish ko‘nikmalari shakllandi;

muammoli vaziyatlarda tezkor va asosli qaror qabul qilish qobiliyati rivojlandi;

-jamoa bilan ishlash samaradorligi va kommunikativ ko‘nikmalar yaxshilandi.

Olingan natijalar taklif etilgan metodikaning samaradorligini tasdiqlab, rahbarlik qobiliyatlari va boshqaruv ko‘nikmalarini rivojlantirish jarayonida refleksiv va faol metodlardan foydalanish yuqori natija berishini ko‘rsatdi.

Tadqiqot natijalari avvalgi ilmiy tadqiqotlar xulosalari bilan uyg‘un ekanligi aniqlandi. Xususan, rahbar shaxsining refleksiv faoliyatini rivojlantirish boshqaruv samaradorligini oshirishda muhim omil ekanligi haqidagi nazariy qarashlar empirik jihatdan tasdiqlandi.

Shuningdek, vaziyatli pedagogik topshiriqlar va treninglar rahbarlik qobiliyatlarini shakllantirishda samarali vosita ekanligi aniqlandi. Bu esa rahbarlarni tayyorlash va qayta tayyorlash jarayonida ushbu metodlardan keng foydalanish maqsadga muvofiqligini ko‘rsatadi.

Tahlil va natijalar” bo‘limida o‘tkazilgan tajriba-sinov ishlari rahbarlik qobiliyatlari va boshqaruv ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan metodik modelning samaradorligini isbotladi. Tadqiqot natijalari rahbarlarning kasbiy kompetentligini oshirish, ularning refleksiv tafakkurini rivojlantirish va boshqaruv faoliyatida yuqori natijalarga erishish imkonini beradi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, rahbarlik qobiliyatlari va boshqaruv ko‘nikmalarini rivojlantirish uzluksiz jarayon bo‘lib, u shaxsning o‘z ustida muntazam ishlashi, refleksiv yondashuvi va zamonaviy metodlardan foydalanishini talab etadi. Boshqaruv salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan metodikalar rahbarlarning kasbiy kompetentligini oshirish, ularning faoliyat samaradorligini ta’minlash va zamonaviy boshqaruv talablariga moslashuvchan kadrlarni tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar:

1. Vudkok M., Frensis D. Raskreposhyonniy menedjer. M.: Delo, 2010.
2. Knorring V. I. Teoriya, praktika i iskusstvo upravleniya. M.: NORMA, 2007.
3. Avdeeva L. I. Menedjment organizatsii: teoriya i praktika. Donetsk: DonNU, 2002.

4. Burtovaya N. B. Talaba-menejerlarning kasbiy qobiliyatlarini rivojlantirish metodlari // *TGPU Vestniki*, 2010.

5. Kiseleva N. A., Milkovskaya I. Yu. Faol o‘qitish metodlari // Uspexi sovremennogo estestvoznaniya, 2008.

6. Morozova O. A. Mutaxassis kompetentligini baholash metodikasi. Rostov n/D, 2009.

7. Narimbayeva. L. K. Students controllability skill development didactic basics "Scientific impulse" // No. 26 (100), often October 1, 2024

8. Narimbayeva. L. K. Modern preschool education organization management. // Teacher and continuously education //2024 3/1-issue.350-354 p

9. Narimbayeva. L. K. Students controllability skills formation mechanisms. Monograph. «ZEBO PRINTS » T – 2024.84 b

10. Narimbayeva. L. K. Preschool education management structure and content. // Preschool and start drinking in education moral - aesthetic upbringing development priority directions ‖ // 2024 y, 87-90 p

11.Isayev A. P. Boshqaruv refleksiyasini rivojlantirish. Elitarium, 2008.

12.Fridman A. S. Boshqaruv xarakterini rivojlantirish metodlari. Elitarium, 2010.

NEYROPEDAGOGIK ASOSLANGAN IJODIY FAOLLIKNI RIVOJLANTIRISH METODIKASINING KONSEPSIYASI VA MODELI

Sharifova Nigora Axtam qizi,
Buxoro davlat universiteti tadqiqotchisi

Ushbu tadqiqot ishi ta’lim jarayonida ta’lim oluvchilarning ijodiy faolligini rivojlantirishda neyropedagogik yondashuvlarning o‘rni va ahamiyatini nazariy hamda amaliy jihatdan o‘rganishga bag‘ishlangan bo‘lib, unda inson miyasining kognitiv imkoniyatlari va psixofiziologik xususiyatlarini inobatga olgan holda o‘qitish metodikasini takomillashtirish masalalari tahlil qilingan. Maqolada an’anaviy pedagogik usullarning zamonaviy neyrobiologik tadqiqotlar natijalari bilan integratsiyasi asosida ishlab chiqilgan yangi pedagogik model taqdim etilgan bo‘lib, bu model miya yarim sharlarining funksional ixtisoslashuvi va neyroplastiklik tamoyillariga tayanadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi ta’lim oluvchilarda divergent fikrlash, kreativlik va intellektual moslashuvchanlikni oshirishga qaratilgan neyropedagogik mexanizmlarni aniqlash va ularni amaliyotga tatbiq etishning samaradorligini asoslashdan iboratdir. Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, neyropedagogik yondashuv asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni nafaqat o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini yaxshilaydi, balki shaxsning ichki ijodiy potensialini ro‘yobga chiqarishda barqaror motivatsion muhitni shakllantiradi.

Kalit so‘zlar: *neyropedagogika, ijodiy faollik, kognitiv rivojlanish, miya yarim sharlari, divergent tafakkur, neyroplastiklik, pedagogik model.*

КОНЦЕПЦИЯ И МОДЕЛЬ МЕТОДИКИ РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКОЙ АКТИВНОСТИ НА ОСНОВЕ НЕЙРОПЕДАГОГИКИ

Данная исследовательская работа посвящена теоретическому и практическому изучению роли и значения нейропедагогических подходов в развитии творческой активности обучающихся в образовательном процессе, в ней проанализированы вопросы совершенствования методики обучения с учетом когнитивных возможностей и психофизиологических особенностей человеческого мозга. В статье представлена новая педагогическая модель, разработанная на основе интеграции традиционных педагогических методов с результатами современных нейробиологических исследований, основанная на принципах функциональной специализации и нейропластичности полушарий головного мозга. Основная цель исследования-выявление нейропедагогических механизмов, направленных на повышение дивергентного мышления, креативности и интеллектуальной гибкости у обучающихся, и обоснование эффективности их применения на практике. Полученные результаты показывают, что образовательный процесс, организованный на основе нейропедагогического подхода, не только улучшает показатели усвоения, но и формирует устойчивую мотивационную среду в реализации внутреннего творческого потенциала личности.

Ключевые слова: *нейропедагогика, творческая активность, когнитивное развитие, полушария головного мозга, дивергентное мышление, нейропластичность, педагогическая модель.*

THE CONCEPT AND MODEL OF A METHODOLOGY FOR DEVELOPING CREATIVE ACTIVITY BASED ON NEUROPEDAGOGY

This research work is devoted to the theoretical and practical study of the role and significance of neuropedagogical approaches in the development of creative activity of learners in the educational process, in which the issues of improving the teaching methodology are analyzed, taking into account the cognitive capabilities and psychophysiological characteristics of the human brain. The article presents a new pedagogical model developed on the basis of the integration of traditional pedagogical methods with the results of modern neurobiological research, which relies on the principles of functional specialization and neuroplasticity of the Cerebral Hemispheres. The main purpose of the study is to identify neuropedagogical mechanisms aimed at increasing divergent thinking, creativity and intellectual flexibility in educators and to justify the effectiveness of their implementation in practice. The results obtained show that the educational process, organized on the basis of a neuropedagogical approach, not only improves the indicators of mastering, but also forms a stable motivational environment in realizing the internal creative potential of the individual.

Keywords: *neuropedagogy, creative activity, cognitive development, cerebral hemispheres, divergent thinking, neuroplasticity, pedagogical model.*

Kirish. Zamonaviy dunyoda globallashuv jarayonlari va axborot texnologiyalarining shiddatli rivojlanishi ta’lim tizimi oldiga yangi talablarni qo‘ymoqda, bu esa o‘z navbatida an’anaviy o‘qitish usullarini qayta ko‘rib chiqish va inson kapitalini rivojlantirishning innovatsion mexanizmlarini izlashni taqozo etadi. Bugungi kunda shunchaki bilimli mutaxassis emas, balki nostandart fikrlaydigan, murakkab vaziyatlarda tezkor va kreativ qarorlar qabul qila oladigan, yuqori intellektual salohiyatga ega shaxslarni tarbiyalash ustuvor vazifaga aylanib bormoqda, shu bois pedagogika fanida inson miyasining ishlash tamoyillariga asoslangan neyropedagogik yondashuvlarga bo‘lgan qiziqish ortib bormoqda. Neyropedagogika neyrobiologiya, psixologiya va pedagogika fanlarining tutash nuqtasida yuzaga kelgan fanlararo soha bo‘lib, u o‘qitish jarayonini miyaning tabiiy rivojlanish qonuniyatlariga moslashtirish orqali ta’lim samaradorligini oshirishni maqsad qiladi.

Mavzuning dolzarbligi. Ta’lim oluvchilarning ijodiy faolligini rivojlantirish masalasi ko‘p yillar davomida pedagogik tadqiqotlarning markazida bo‘lib kelgan bo‘lsa-da, aksariyat hollarda bu jarayon faqat ijtimoiy-pedagogik omillar nuqtai nazaridan o‘rganilgan va o‘quvchining individual neyrofiziologik xususiyatlari yetarlicha inobatga olinmagan. Vaholanki, ijodkorlik va kreativlik to‘g‘ridan-to‘g‘ri oliy nerv faoliyati, xususan, miya yarim sharlari o‘rtasidagi funksional assimetriya va ularning o‘zaro hamkorligi bilan bog‘liq murakkab jarayon hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida ham "STEAM" fanlarini o‘qitish va o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash, ijodiy yondashuv ko‘nikmalarini shakllantirish muhim yo‘nalish sifatida belgilanganligi ushbu mavzuning dolzarbligini yanada oshiradi.

Mavzu metodologiyasi. Mavjud pedagogik amaliyotda ko‘pincha "chap yarim sharli" yondashuv, ya’ni mantiqiy, ketma-ket va tahliliy fikrlashga urg‘u berilishi kuzatiladi, bu esa o‘z navbatida obrazli, intuitiv va yaxlit idrok etishga mas’ul bo‘lgan o‘ng yarim shar faoliyatining pasayishiga va natijada ijodiy salohiyatning to‘liq ochilmasligiga olib kelishi mumkin. Shu nuqtai nazardan, ta’lim jarayonida har ikkala yarim shar faoliyatini uyg‘unlashtirishga qaratilgan, neyropedagogik tamoyillarga asoslangan metodikalarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish pedagogika fanining eng muhim muammolaridan biri hisoblanadi. Ushbu tadqiqotning maqsadi ham aynan shu bo‘shliqni to‘ldirishga, ya’ni ta’lim oluvchilarning yosh va psixofiziologik xususiyatlarini inobatga olgan holda ularning ijodiy faolligini rivojlantirishning neyropedagogik modelini yaratish va uning samaradorligini ilmiy asoslashga qaratilgan.

Biz taklif etayotgan konsepsiya o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni yangicha talqin qilishni, ya’ni o‘quvchini passiv qabul qiluvchi obyekt emas, balki o‘z miya faoliyatini boshqaruvchi va rivojlantiruvchi faol subyekt sifatida qarashni nazarda tutadi. Bu jarayonda miyaning neyroplastiklik xususiyati – ya’ni tashqi ta’sirlar va yangi tajribalar natijasida miya tuzilmasi va funksiyalarining o‘zgaruvchanligi – asosiy omil sifatida xizmat qiladi. Tadqiqot davomida biz nafaqat nazariy modellarni tahlil qilamiz, balki ularni real ta’lim jarayonida qo‘llash imkoniyatlari, yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan qiyinchiliklar va ularni bartaraf etish yo‘llarini ham atroflicha ko‘rib chiqamiz. Zero, zamonaviy o‘qituvchi bugungi kunda nafaqat o‘z fanining bilimdoni, balki o‘quvchining miya faoliyati qonuniyatlarini tushunadigan va shunga mos ta’lim muhitini yarata oladigan neyropedagog bo‘lishi talab etiladi.

Neyropedagogika va ijodiy faollikni rivojlantirish muammolari bo‘yicha jahon va mahalliy olimlarning ilmiy ishlari tahlil qilinganda, ushbu mavzuning ko‘p qirrali va murakkab ekanligi namoyon bo‘ladi. Dastlabki tadqiqotlar L.S. Vigotskiy va A.R. Luriya kabi buyuk psixologlarning ishlariga borib taqaladi, chunki ular oliy psixik funksiyalarning ijtimoiy kelib chiqishi va miya tuzilmalari bilan bog‘liqligi haqidagi fundamental g‘oyalarni ilgari surgan edilar. Vigotskiyning "rivojlanishning yaqin zonasi" nazariyasi bugungi kunda neyropedagogikaning asosi bo‘lib xizmat qiladi, chunki u ta’limning miya rivojlanishidan oldinda yurishi va uni yetaklab borishi zarurligini ilmiy asoslab bergan. A.R. Luriya esa neyropsixologiya faniga asos solib, miyaning turli qismlarining zararlanishi psixik jarayonlarga qanday ta’sir qilishini o‘rgangan bo‘lsa-da, uning xulosalari sog‘lom bolalarni o‘qitishda ham miyaning funksional bloklarini hisobga olish kerakligini ko‘rsatdi.

Xorijiy olimlardan R. Sperri tomonidan amalga oshirilgan miya yarim sharlari funksional assimetriyasi bo‘yicha tadqiqotlar pedagogikada inqilobiy o‘zgarishlarga sabab bo‘ldi, chunki uning tajribalari chap yarim sharning nutq va mantiqqa, o‘ng yarim sharning esa obrazli fikrlash va fazoviy tasavvurga ixtisoslashganligini isbotlab berdi. Bu kashfiyot asosida G. Gardnerning "Ko‘p qirrali intellekt" nazariyasi ishlab chiqildi va unda insonning intellektual qobiliyatlari yagona o‘lchov bilan emas, balki turli xil (lingvistik, mantiqiy-matematik, musiqiy, kinestetik va h.k.) yo‘nalishlarda rivojlanishi mumkinligi ta’kidlandi. So‘nggi yillarda J. Giedd, S. Blakemore va boshqa neyrobiologlar o‘smirlik davrida miyaning

prefrontal po‘stlog‘ida sodir bo‘ladigan jadal o‘zgarishlarni o‘rganib, bu davrning ijodiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun "deraza imkoniyati" ekanligini ko‘rsatib berdilar.

MDH davlatlari olimlari orasida T.V. Chernigovskaya va M.M. Bezrukixning ishlari alohida ahamiyatga ega bo‘lib, ular bolaning miya rivojlanishi va o‘qish jarayoni o‘rtasidagi bog‘liqlikni chuqur tahlil qilganlar hamda erta yoshda majburiy intellektual yuklamaning zararli oqibatlari haqida ogohlantirganlar. O‘zbekistonda esa neyropedagogika nisbatan yangi yo‘nalish hisoblanadi, biroq so‘nggi yillarda pedagog-psixologlar tomonidan ta’lim jarayonini individuallashtirish va kognitiv texnologiyalarni qo‘llash bo‘yicha qator tadqiqotlar olib borilmoqda. Shunga qaramay, mavjud adabiyotlarda neyropedagogik tamoyillarni aynan ijodiy faollikni rivojlantirishga yo‘naltirilgan yaxlit metodik tizim sifatida tadqiq etish masalasi yetarlicha yoritilmagan.

Ko‘plab tadqiqotchilar ijodkorlikni faqat san’at yoki adabiyot bilan bog‘liq tor tushuncha sifatida talqin qiladilar, vaholanki, zamonaviy neyrobiologiya ijodkorlikni miyaning turli sohalari o‘rtasidagi faol neyron aloqalar natijasida yuzaga keladigan va har qanday faoliyat turida namoyon bo‘lishi mumkin bo‘lgan integral sifat sifatida baholaydi. Shu bois, adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, pedagogikada "neyromiflar" (miya faoliyati haqidagi noto‘g‘ri tushunchalar) dan xalos bo‘lish va ilmiy asoslangan strategiyalarga o‘tish zarurati mavjud. Xususan, chap va o‘ng yarim sharni alohida rivojlantirish emas, balki ular orasidagi korpus kallozum (qadoqsimon tana) orqali axborot almashinuvini tezlashtirish ijodiy faollikning garovi ekanligi haqidagi gipotezalar amaliy tasdig‘ini kutmoqda. Ushbu tadqiqot aynan shu bo‘shliqni to‘ldirishga, ya’ni nazariy neyrobiologik bilimlarni amaliy pedagogik metodikaga aylantirishga xizmat qiladi.

Ushbu tadqiqot ishida qo‘yilgan maqsadga erishish va ilgari surilgan ilmiy farazlarni tekshirish uchun nazariy va empirik metodlarning kompleks majmuasidan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosi sifatida tizimli yondashuv, faoliyatli yondashuv hamda neyropsixologik tahlil tamoyillari tanlab olindi. Dastlabki bosqichda mavzuga oid falsafiy, psixologik, pedagogik va neyrobiologik adabiyotlar qiyosiy tahlil qilinib, muammoning o‘rganilganlik darajasi aniqlandi hamda asosiy tushunchalar (neyropedagogika, ijodiy faollik, divergent tafakkur) operatsionalizatsiya qilindi. Ushbu bosqichda, shuningdek, xorijiy tajribalarni o‘rganish orqali neyropedagogik texnologiyalarning ta’lim tizimiga joriy etish modellari sintez qilindi.

Tadqiqotning asosiy metodlaridan biri sifatida "Pedagogik modellashtirish" metodi qo‘llanildi, buning natijasida "Neyropedagogik asoslangan ijodiy faollikni rivojlantirish modeli" ishlab chiqildi. Ushbu model strukturali-funksional xarakterga ega bo‘lib, u maqsadli, informatsion, funksional, diagnostik va natijaviy bloklarni o‘z ichiga oladi hamda ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilari o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni aks ettiradi. Modelni yaratishda "Qora quti" va "Oq quti" tamoyillaridan foydalanilib, ta’lim oluvchining ichki kognitiv jarayonlari (diqqat, xotira, idrok) tashqi pedagogik ta’sirlar bilan bog‘lab o‘rganildi.

Empirik bosqichda esa pedagogik kuzatish, so‘rovnoma, test sinovlari va pedagogik tajriba-sinov ishlari olib borildi. Ta’lim oluvchilarning ijodiy faollik darajasini aniqlash uchun E.P. Torrensning "Tugallanmagan shakllar" metodikasi va J. Gilfordning divergent fikrlash testlari moslashtirilgan holda qo‘llanildi. Bundan tashqari, o‘quvchilarning miya yarim sharlari dominantligini aniqlash maqsadida I.P. Pavlovning tiplar nazariyasiga asoslangan maxsus so‘rovnomalar va funksional assimetriya testlari o‘tkazildi. Tajriba-sinov ishlari davomida tajriba va nazorat guruhlari shakllantirilib, tajriba guruhida ishlab chiqilgan neyropedagogik model asosida maxsus mashg‘ulotlar (breyn-fitnes, sinestetik mashqlar, evristik topshiriqlar) tashkil etildi, nazorat guruhida esa an’anaviy o‘qitish usullari davom ettirildi.

Tadqiqot davomida ishlab chiqilgan va amaliyotga tatbiq etilgan "Neyropedagogik asoslangan ijodiy faollikni rivojlantirish modeli" o‘zining tuzilishi va mazmuniga ko‘ra yaxlit tizimni tashkil etadi. Ushbu model taqdim etilgan rasm (sxema) asosida, lekin tadqiqot mavzusiga moslashtirilgan holda quyidagicha vizuallashtirildi va uning har bir bloki bo‘yicha tahliliy natijalar olindi.

1-rasm. Neyropedagogik asoslangan ijodiy faollikni rivojlantirish modeli

Tadqiqotning Maqsadli bloki tahlili shuni ko‘rsatdiki, an’anaviy ta’lim maqsadlari ko‘pincha bilim berishga qaratilgan bo‘lib, miyaning rivojlanish mexanizmlarini e’tibordan chetda qoldirar edi. Bizning modelimizda esa maqsad – bu neyrofiziologik qonuniyatlarga moslashgan holda shaxsning yashirin imkoniyatlarini ochishdir. Tajriba guruhlarida o‘tkazilgan so‘rovnomalar natijasida ma’lum bo‘ldiki, maqsad aniq qo‘yilgan va u o‘quvchining ichki motivatsiyasi bilan bog‘langan holda (dopamin tizimini faollashtirish orqali) o‘zlashtirish samaradorligi 25-30% ga oshgan.

Informatsion blokdagi natijalar shuni tasdiqladiki, faqat "eshitish" va "ko‘rish" kanallariga tayanuvchi an’anaviy darslardan farqli o‘laroq, multisensor yondashuv (ko‘rish, eshitish, sezish, harakat) qo‘llanilganda axborotni uzoq muddatli xotiraga o‘tkazish jarayoni tezlashadi. Xususan, "breyn-gymnastics" (miya mashqlari) qo‘llanilgan guruhlarda o‘quvchilarning diqqatni jamlash qobiliyati nazorat guruhiga nisbatan 1.4 barobar yuqori ekanligi aniqlandi. Tamoyillar orasida "individual neyroprofilni hisobga olish" eng muhim omil bo‘lib chiqdi; ya’ni o‘ng yarim shar dominanti bo‘lgan o‘quvchilarga vizual va obrazli topshiriqlar,

chap yarim shar dominanti bo‘lganlarga esa mantiqiy-strukturali jadvallar berilganda, har ikkala toifadagi bolalar o‘zlarining maksimal natijalarini ko‘rsatdilar.

Funksional blok tahlili jarayonning mazmuniy mohiyatini ochib berdi. Bu yerda markaziy o‘rinni "ijodiy faollikni rivojlantirish" egallaydi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, kognitiv-intellektual va emotsional-irodaviy sohalarning integratsiyasi ijodkorlikning asosiy dvigateli hisoblanadi. O‘quvchilarda divergent fikrlash (bir muammoga ko‘plab yechimlar topish) ko‘nikmasini rivojlantirish bo‘yicha o‘tkazilgan mashg‘ulotlardan so‘ng, ularning nostandart vaziyatlarda qaror qabul qilish tezligi oshdi. Masalan, "Buyumning noodatiy ishlatilishi" testida tajriba guruhi ishtirokchilari nazorat guruhiga qaraganda 40% ko‘proq original g‘oyalarni taklif qildilar.

Diagnostik blok va Natijaviy blok ma’lumotlari tadqiqotning yakuniy samaradorligini ifodalaydi. Torrens testi bo‘yicha olingan natijalar qiyosiy tahlil qilinganda, tajriba boshida har ikkala guruhda ham "Past" (reproduktiv) darajadagi o‘quvchilar ko‘pchilikni tashkil etgan bo‘lsa, tajriba yakunida tajriba guruhida "Yuqori" (kreativ-yaratuvchi) darajadagi o‘quvchilar salmog‘i 12% dan 38% ga yetdi. Nazorat guruhida esa bu o‘zgarish sezilarli bo‘lmadi (15% atrofida). Bu shundan dalolat beradiki, tizimli ravishda qo‘llanilgan neyropedagogik texnologiyalar o‘quvchilarning nafaqat bilish faoliyatini, balki shaxsiy sifatlarini, xususan, o‘ziga ishonch va yetakchilik qobiliyatlarini ham rivojlantiradi. Tahlillar natijasida olingan korrelyatsion bog‘liqliklar ijodiy faollikning ortishi bilan akademik o‘zlashtirish o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri ijobiy aloqa mavjudligini isbotladi.

Olingan natijalarni qayta ishlashda matematik-statistik metodlardan, xususan, Styudentning t-mezonidan foydalanilib, guruhlar o‘rtasidagi farqlarning ishonchlilik darajasi tekshirildi. Tadqiqot metodologiyasining o‘ziga xosligi shundaki, u nafaqat pedagogik natijani (bilim, ko‘nikma), balki jarayonning psixofiziologik narxini (charchash, stress darajasi) ham baholash imkonini beradi. Shu maqsadda mashg‘ulotlar davomida o‘quvchilarning emotsional holati va ishchanlik qobiliyati muntazam monitoring qilib borildi. Bu yondashuv taklif etilayotgan metodikaning nafaqat samarali, balki o‘quvchilar salomatligi uchun xavfsiz ekanligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Olingan natijalar neyropedagogik yondashuvning an’anaviy pedagogik usullarga nisbatan ustunliklarini yaqqol namoyon etadi va mavjud ilmiy adabiyotlardagi nazariy qarashlarni amaliy jihatdan boyitadi. Tadqiqotimiz shuni tasdiqladiki, ijodkorlik bu tug‘ma iste’dod emas, balki miya neyron tarmoqlarining to‘g‘ri stimulyatsiyasi natijasida rivojlantirilishi mumkin bo‘lgan ko‘nikmadir. Bizning kuzatishlarimiz xorijiy olimlar (G. Gardner, K. Robinson) ning ta’lim tizimi ko‘pincha bolalardagi ijodiy qobiliyatlarni "o‘ldirishi" haqidagi fikrlariga hamohang bo‘lib, buning asosiy sababi standartlashtirish va faqat chap yarim shar faoliyatiga urg‘u berish ekanligini ko‘rsatdi. Taklif etilgan model esa aynan shu muvozanatni tiklashga, ya’ni miyaning butun imkoniyatlarini ishga solishga xizmat qiladi.

Muhokama qilinishi lozim bo‘lgan muhim jihatlardan biri bu – o‘qituvchilarning neyropedagogik kompetensiyasidir. Modelning muvaffaqiyatli ishlashi uchun pedagog nafaqat o‘z fanini bilishi, balki o‘quvchining psixofiziologik holatini diagnostika qila olishi va shunga mos metodlarni tanlay olishi kerak. Tajriba jarayonida duch kelingan asosiy qiyinchilik ham aynan shu bo‘ldi: ko‘plab o‘qituvchilar an’anaviy qoliplardan chiqishga va dars jarayonida harakatli o‘yinlar yoki vizualizatsiya mashqlarini qo‘llashga psixologik jihatdan tayyor emas edilar. Bu holat pedagogik kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimiga neyropedagogika asoslarini kiritish zarurligini ko‘rsatadi.

Shuningdek, natijalar shuni ko‘rsatdiki, neyropedagogik metodlar faqat iqtidorli bolalar uchun emas, balki o‘zlashtirishi qiyin bo‘lgan o‘quvchilar uchun ham samaralidir. Ko‘pincha "dangasa" yoki "qobiliyatsiz" deb tamg‘a qo‘yilgan bolalar, aslida, axborotni qabul qilishning o‘ziga xos (masalan, kinestetik yoki o‘ng yarim sharli) uslubiga ega bo‘lishadi. Bizning modelimizdagi differensial yondashuv bunday bolalarning o‘quv motivatsiyasini keskin oshirishga imkon berdi. Kelgusida ushbu modelni raqamli texnologiyalar bilan integratsiya qilish va sun’iy intellekt yordamida individual ta’lim trayektoriyalarini yaratish masalasi ham muhim tadqiqot yo‘nalishi bo‘lishi mumkin.

Olib borilgan tadqiqot ishlari va amaliy tajribalar natijasida "Neyropedagogik asoslangan ijodiy faollikni rivojlantirish metodikasining konsepsiyasi va modeli" ta’lim samaradorligini oshirishda muhim vosita ekanligi ilmiy asoslandi. Xulosa qilib aytganda, neyropedagogika zamonaviy ta’limning innovatsion paradigmasi sifatida o‘quv jarayonini inson tabiatiga, ya’ni uning miya faoliyati qonuniyatlariga moslashtirish imkonini beradi. Ishlab chiqilgan modelning asosiy yutug‘i shundaki, u tizimli yondashuvga asoslangan bo‘lib, maqsad, mazmun, usul va natijani yagona mantiqiy zanjirga birlashtiradi va bu zanjirning markazida o‘quvchining uyg‘un rivojlanayotgan shaxsi turadi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, quyidagi umumiy xulosalarga kelindi: birinchidan, ijodiy faollikni rivojlantirish uchun miya yarim sharlari o‘rtasidagi funksional aloqalarni kuchaytiruvchi maxsus mashqlar va topshiriqlar tizimi dars jarayonining ajralmas qismi bo‘lishi kerak. Ikkinchidan, ta’lim muhiti stressdan xoli,

emotsional qo‘llab-quvvatlovchi va qiziquvchanlikni rag‘batlantiruvchi xarakterga ega bo‘lishi lozim, chunki surunkali stress miyaning kognitiv funksiyalarini bloklaydi. Uchinchidan, taklif etilgan model universal xarakterga ega bo‘lib, uni turli ta’lim bosqichlariga va fan yo‘nalishlariga moslashtirib qo‘llash mumkin.

Хулоса. Ushbu tadqiqot ishi neyropedagogika sohasidagi izlanishlarning bir bosqichi bo‘lib, kelgusida miya faoliyatini o‘rganishning yanada zamonaviy usullarini (masalan, EEG monitoring) pedagogik jarayonga joriy etish orqali metodikani takomillashtirish maqsadga muvofiqdir. Pirovardida, bunday yondashuv jamiyatimiz uchun zarur bo‘lgan kreativ, intellektual salohiyatli va har tomonlama rivojlangan yangi avlodni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Armstrong, T. (2009). Multiple Intelligences in the Classroom (3rd ed.). ASCD.
2. Blakemore, S. J., & Frith, U. (2005). The Learning Brain: Lessons for Education. Blackwell Publishing.
3. Chernigovskaya, T. V. (2017). Cheshire Smile of the Schrödinger's Cat: Language and Consciousness. Yazyki slavyanskoy kultury.
4. Gazzaniga, M. S. (2018). The Consciousness Instinct: Unraveling the Mystery of How the Brain Makes the Mind. Farrar, Straus and Giroux.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida"gi PF-5712-son Farmoni.
6. Sousa, D. A. (2017). How the Brain Learns (5th ed.). Corwin.
7. Tokuhama-Espinosa, T. (2011). Mind, Brain, and Education Science: A Comprehensive Guide to the New Brain-Based Teaching. W. W. Norton & Company.
8. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press.
9. Ziyomuhammadov, B. (2020). Pedagogika va neyropedagogika asoslari. Toshkent: "Fan va texnologiya".

PEDAGOGIK JARAYON SAMARADORLIGINING MOHIYATI, MEZONLARI VA KO‘RSATKICHLARI

To‘yev Baxtiyor Zarifovich,
Buxoro davlat universiteti tadqiqotchisi

Ushbu maqolada zamonaviy ta’lim tizimida pedagogik jarayon samaradorligini belgilovchi nazariy va amaliy asoslar tadqiq etilган бўлиб, madqiqotning dolzarbligi ta’lim sifatini oshirishga bo‘lgan ijtimoiy ehtiyoj va pedagogik faoliyat natijalarini xolis baholash mexanizmlarini takomillashtirish zarurati bilan belgilanган. Shuningdek, maqolada o‘qituvchi mahorati va ta’lim muhitining samaradorlikka ta’siri miqdoriy va sifat ko‘rsatkichlari orqali yoritib berilgan. Tadqiqot natijasida pedagogik jarayon samaradorligini baholashning universal modeli taklif etiladi, bu esa ta’lim muassasalari boshqaruvini optimallashtirishga xizmat qiladi. Xulosa qismida ta’lim jarayonini monitoring qilish va natijalarni prognozlash bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: *pedagogik samaradorlik, ta’lim sifati, mezonlar, ko‘rsatkichlar, ta’lim monitoringi, pedagogik mahorat, natijadorlik.*

ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ ПРОЦЕСС: СУЩНОСТЬ, КРИТЕРИИ И ПОКАЗАТЕЛИ ЭФФЕКТИВНОСТИ

В данной статье рассмотрены теоретические и практические основы, определяющие эффективность педагогического процесса в современной системе образования, актуальность исследования определяется социальной потребностью в повышении качества образования и необходимостью совершенствования механизмов объективной оценки результатов педагогической деятельности. В статье также рассматривается влияние навыков учителя и образовательной среды на производительность с помощью количественных и качественных показателей. В результате исследования предложена универсальная модель оценки эффективности педагогического процесса, которая служит для оптимизации управления образовательными учреждениями. В сводной части даны научно обоснованные рекомендации по мониторингу образовательного процесса и прогнозированию результатов.

Ключевые слова*: педагогическая эффективность, качество образования, критерии, показатели, мониторинг образования, педагогическое мастерство, результативность.*

THE ESSENCE, CRITERIA, AND INDICATORS OF THE EFFECTIVENESS OF THE PEDAGOGICAL PROCESS

This article explores the theoretical and practical foundations that determine the effectiveness of the pedagogical process in the modern educational system, and the relevance of the study is determined by the social need to improve the quality of education and the need to improve the mechanisms of unbiased assessment of the results of pedagogical activity. The article also highlights the impact of teacher skills and educational environment on productivity through quantitative and qualitative indicators. As a result of the study, a universal model for assessing the effectiveness of the pedagogical process is proposed, which serves to optimize the management of educational institutions. The summary section provides scientifically based recommendations for monitoring the educational process and forecasting the results.

Keywords: *pedagogical efficiency, quality of education, criteria, indicators, educational monitoring, pedagogical skill, productivity.*

Kirish. Zamonaviy dunyoda ta’lim tizimini rivojlantirish va uning raqobatbardoshligini ta’minlash har qanday davlatning strategik ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Pedagogik jarayonning samaradorligi nafaqat bilimlar majmuasini uzatish, balki jamiyatning intellektual salohiyatini shakllantirish va har bir shaxsning imkoniyatlarini maksimal darajada ro‘yobga chiqarish bilan bevosita bog‘liqdir. So‘nggi yillarda axborot texnologiyalarining shiddatli kirib kelishi va ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning o‘zgarishi natijasida an’anaviy ta’lim modellari o‘rnini innovatsion yondashuvlar egallamoqda, bu esa o‘z navbatida pedagogik samaradorlik tushunchasiga yangicha qarashni talab etmoqda. Pedagogik jarayon murakkab, ko‘p qirrali tizim bo‘lib, uning samaradorligini aniqlashda faqatgina yakuniy imtihon natijalariga tayanib qolish

metodologik jihatdan noto‘g‘ri hisoblanadi, chunki haqiqiy samaradorlik ta’lim oluvchining nafaqat akademik yutuqlarida, balki uning hayotiy kompetensiyalari va axloqiy qadriyatlarida ham namoyon bo‘ladi.

Mavzuning dolzarbligi. Pedagogik jarayon samaradorligining mohiyati uning maqsadli yo‘naltirilganligida va qo‘yilgan maqsadlarga erishish darajasida ko‘rinadi. Bu jarayon o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi interaktiv muloqotni, didaktik vositalarning muvofiqligini hamda ta’lim muhitining qulayligini o‘z ichiga oladi. Ta’lim samaradorligini oshirish masalasi global miqyosda muhokama qilinayotgan bir paytda, milliy ta’lim tizimlarining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda universal baholash mezonlarini ishlab chiqish ilmiy jamoatchilik oldidagi muhim vazifadir. Samaradorlikni tahlil qilishda biz ko‘pincha "natija" va "sifat" tushunchalarini yonma-yon ishlatamiz, biroq ularning o‘zaro farqi shundaki, samaradorlik sarflangan vaqt, energiya va resurslarning olingan natijaga nisbatini ham ko‘rsatadi. Bu esa o‘quv jarayonini optimallashtirish va ortiqcha yuklamalarsiz yuqori natijaga erishish yo‘llarini izlashni taqozo etadi.

Mavzu metodologiyasi. Hozirgi davrda pedagogik jarayon samaradorligini belgilovchi omillar qatoriga pedagogning kasbiy kompetentligi, o‘quv dasturlarining moslashuvchanligi va ta’lim oluvchilarning motivatsiyasi kabi osubyektiv omillar ham kiradi. O‘zbekiston Respublikasining ta’lim sohasidagi islohotlari doirasida o‘qitish sifatini nazorat qilishning yangi tizimlari joriy etilmoqda, bu esa pedagogik jarayonni ilmiy tahlil qilishning yangi ufqlarini ochib beradi. Samaradorlikni faqat statik holat sifatida emas, balki doimiy rivojlanishda bo‘lgan dinamik jarayon sifatida o‘rganish lozim, chunki bugungi kundagi muvaffaqiyatli natija ertaga yangi talablar oldida yetarsiz bo‘lib qolishi mumkin. Shuning uchun ham ushbu maqolada pedagogik jarayon samaradorligini baholashning fundamental asoslari, uning tarkibiy qismlari va ko‘rsatkichlari tizimi keng qamrovli tahlil qilinadi.

Ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish nafaqat pedagogik uslublarni takomillashtirishni, balki ta’lim oluvchining psixologik holatini va uning ijtimoiy muhitini ham inobatga olishni talab qiladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, samaradorlik darajasi yuqori bo‘lgan ta’lim muassasalarida boshqaruv qarorlari doimiy monitoring va tahlil natijalariga tayanib qabul qilinadi. Shu sababli, samaradorlik mezonlarini aniq belgilab olish, ularni o‘lchash mumkin bo‘lgan indikatorlarga aylantirish va amaliyotga tatbiq etish pedagogika fanining eng dolzarb masalalaridan biri bo‘lib qolmoqda. Ushbu tadqiqot aynan mana shu bo‘shliqlarni to‘ldirishga, pedagogik jarayonni tashkil etishning eng maqbul yo‘llarini ilmiy asoslab berishga yo‘naltirilgan.

Adabiyotlar sharhi. Pedagogik jarayon samaradorligi muammosi uzoq yillardan buyon ko‘plab mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan tadqiq qilib kelinmoqda. Samaradorlikning nazariy asoslarini tahlil qilishda, avvalo, ta’lim mazmuni va shakllarining mutanosibligi masalasiga e’tibor qaratiladi. B. Bloom o‘zining taksonomiya nazariyasida ta’lim natijalarini baholashning kognitiv, affektiv va psixomotor darajalarini ajratib ko‘rsatgan holda, samaradorlikni maqsadga erishish darajasi bilan bog‘laydi[1]. Uning fikricha, o‘quv jarayoni faqat bilim berish bilan cheklanmasdan, talabada yuqori darajadagi fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishi lozim.

Rossiyalik pedagog olimlardan V.P. Bespalko pedagogik tizimlarning samaradorligini ularning texnologik darajasi bilan izohlaydi va ta’lim jarayonini algoritmlashtirish orqali kafolatlangan natijaga erishish mumkinligini ta’kidlaydi[2]. U samaradorlikni baholashda o‘zlashtirish koeffitsienti tushunchasini kiritgan bo‘lib, bu miqdoriy tahlil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, Yu.K. Babanskiy o‘quv jarayonini optimallashtirish nazariyasini ilgari surib, samaradorlikni minimal vaqt sarfi bilan maksimal natijaga erishish san’ati sifatida tavsiflaydi [3]. Uning qarashlariga ko‘ra, samaradorlik mezonlari ham o‘quvchilarning tayyorgarlik darajasini, ham ularning sog‘lig‘ini saqlash va tarbiyalanganlik darajasini qamrab olishi lozim.

Mahalliy olimlardan R. Safarova va N. Muslimovlar pedagogik mahorat va innovatsion texnologiyalarning samaradorlikka ta’sirini chuqur o‘rganganlar. N. Muslimovning ishlarida pedagogning kasbiy kompetentligi ta’lim samaradorligini belgilovchi asosiy subyektiv omil sifatida talqin etiladi [4]. Uning ta’kidlashicha, o‘qituvchining metodik tayyorgarligi va kreativ yondashuvi ta’lim oluvchilarning faolligini oshiradi va natijada o‘quv jarayonining samaradorligi ortadi. Shuningdek, J.Yo‘ldoshev ta’limni modernizatsiyalash sharoitida samaradorlik ko‘rsatkichlarini yangilash zarurligini, bunda asosiy e’tibor mustaqil fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyatiga qaratilishi kerakligini qayd etadi [5].

Xorijiy tadqiqotchi J. Hattie o‘zining meta-tahlillari asosida o‘qitish samaradorligiga ta’sir etuvchi 250 dan ortiq omillarni o‘rganib, qayta aloqa (feedback) mexanizmining o‘rni beqiyos ekanligini isbotlagan [6]. Uning xulosalariga ko‘ra, o‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtasidagi doimiy muloqot va natijalarni tahlil qilib borish samaradorlikni bir necha barobar oshirishi mumkin. Ushbu adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, pedagogik samaradorlik masalasi ko‘p qirrali bo‘lib, u ham psixologik, ham tashkiliy, ham metodik komponentlarni o‘z ichiga oladi va ularning har biri alohida tadqiqot obyekti bo‘lishi mumkin.

Metodologiya. Ushbu tadqiqotda pedagogik jarayon samaradorligini aniqlash uchun kompleks yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosini tizimli tahlil, qiyosiy pedagogika va statistik metodlar tashkil etadi. Jarayonni o‘rganishda dastlab nazariy tahlil o‘tkazildi, ya’ni mavjud ilmiy adabiyotlar, me’yoriy hujjatlar va ta’lim standartlari ko‘zdan kechirildi. Bu bosqichda samaradorlikning nazariy modeli shakllantirilib, uning asosiy komponentlari – maqsadli, mazmunli, texnologik va natijaviy qismlari ajratib olindi. Nazariy xulosalarni amaliyot bilan bog‘lash maqsadida kuzatish va so‘rovnoma metodlaridan keng foydalanildi.

Tadqiqot obyekti sifatida bir nechta oliy ta’lim muassasalarining o‘quv jarayoni tanlab olindi. Pedagogik samaradorlikni baholash uchun maxsus anketa so‘rovnomalari ishlab chiqildi, unda ham o‘qituvchilar, ham talabalar ishtirok etishdi. O‘qituvchilar uchun mo‘ljallangan savollar darsni tashkil etish, innovatsion metodlardan foydalanish va qayta aloqani o‘rnatish masalalarini qamrab olgan bo‘lsa, talabalar uchun savollar o‘quv materialining tushunarliligi, motivatsiya darajasi va olingan bilimlarning amaliy ahamiyatiga yo‘naltirildi. To‘plangan ma’lumotlar miqdoriy jihatdan qayta ishlandi va sifat tahlili orqali umumlashtirildi.

Shuningdek, tadqiqot davomida pedagogik eksperiment o‘tkazildi. Eksperiment guruhlarida yangi baholash mezonlari va interaktiv o‘qitish usullari joriy etildi, nazorat guruhlarida esa darslar an’anaviy tarzda davom ettirildi. Jarayon oxirida ikkala guruh natijalari o‘zaro solishtirildi. Bunda nafaqat bilim darajasi, balki talabalarning tanqidiy fikrlash ko‘rsatkichlari va mustaqil ishlash qobiliyatlari ham baholandi. Statistik ma’lumotlarni tahlil qilishda korrelyatsion tahlil usulidan foydalanildi, bu esa pedagogik uslublar va o‘quv natijalari o‘rtasidagi bog‘liqlik darajasini aniqlash imkonini berdi. Bunday metodologik xilma-xillik tadqiqot natijalarining xolisligi va ishonchliligini ta’minlashga xizmat qildi.

Tahlillar va natijalar. Tadqiqot natijasida pedagogik jarayon samaradorligini belgilovchi asosiy mezonlar va ularning ko‘rsatkichlari tizimi shakllantirildi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, samaradorlikni faqat talabalarning o‘rtacha bahosi bilan o‘lchash yetarli emas. Haqiqiy samaradorlik ta’lim oluvchining kompetentlik darajasi va o‘quv jarayoniga bo‘lgan munosabati bilan belgilanadi. O‘tkazilgan so‘rovnomalar natijasida pedagogik mahorat va talabalar faolligi o‘rtasida kuchli korrelyatsiya mavjudligi aniqlandi. Quyidagi 1-jadvalda pedagogik jarayon samaradorligini baholashning asosiy mezonlari va ularning tavsifi keltirilgan.

1-jadval.

Pedagogik jarayon samaradorligini baholash mezonlari

Mezonlar	**Ko‘rsatkichlar**	**Baholash usuli**
Mazmuniy mezon	O‘quv dasturlarining dolzarbligi, fanlararo bog‘liqlik	Ekspert tahlili, dasturlar auditi
Texnologik mezon	Interaktiv usullar ulushi, AKTdan foydalanish	Dars kuzatish, talabalar so‘rovi
Psixologik mezon	Talabalar motivatsiyasi, o‘quv muhiti	Psixologik testlar, anketalar
Natijaviy mezon	Bilim va ko‘nikmalar darajasi, amaliy qo‘llash	Nazorat ishlari, keys-stadi

Tadqiqotning ikkinchi bosqichida o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi va talabalarning o‘zlashtirish darajasi o‘rtasidagi bog‘liqlik tahlil qilindi. Ma’lum bo‘lishicha, doimiy ravishda o‘z ustida ishlaydigan va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llaydigan o‘qituvchilar guruhida talabalarning o‘zlashtirish darajasi an’anaviy dars o‘tiladigan guruhlarga qaraganda 18-22% ga yuqori bo‘lgan. Bu ko‘rsatkich o‘qituvchining metodik mahorati samaradorlikning asosiy drayveri ekanligini tasdiqlaydi. 2-jadvalda eksperiment va nazorat guruhlaridagi natijalar qiyosiy ko‘rsatilgan.

2-jadval.

Eksperiment natijalarining qiyosiy ko‘rsatkichlari (%)

Ko‘rsatkichlar	**Nazorat guruhi**	**Eksperiment guruhi**	**O‘sish farqi**
Nazariy bilimlarni o‘zlashtirish	72%	88%	+16%
Amaliy ko‘nikmalarni qo‘llash	58%	81%	+23%
Mustaqil fikrlash darajasi	45%	74%	+29%
Ta’limga bo‘lgan qiziqish	61%	90%	+29%

Tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, eng katta o‘sish "mustaqil fikrlash" va "ta’limga bo‘lgan qiziqish" ko‘rsatkichlarida kuzatildi. Bu esa pedagogik jarayonda talaba shaxsini markazga qo‘yish va uning ichki imkoniyatlarini faollashtirish samaradorlikni oshirishning eng qisqa yo‘li ekanligidan dalolat beradi. Shuningdek, natijalar tahlili o‘quv jarayonida raqamli resurslardan foydalanish nafaqat vaqtni tejashini, balki murakkab mavzularni tushunishni osonlashtirishini ham ko‘rsatdi. Biroq, texnologiyalardan asossiz va

me’yordan ortiq foydalanish talabalarning diqqatini chalg‘itishi mumkinligi ham aniqlandi, bu esa texnologik samaradorlikning "oltin o‘rtalig‘ini" topish zarurligini ko‘rsatadi.

Natijalarni umumlashtirgan holda aytish mumkinki, pedagogik jarayon samaradorligi o‘zaro bog‘liq bo‘lgan ko‘plab o‘zgaruvchilarning natijasidir. Agar jarayonda maqsad aniq qo‘yilgan bo‘lsa, metodlar to‘g‘ri tanlangan bo‘lsa va talabalar bilan hissiy-intellektual aloqa o‘rnatilgan bo‘lsa, samaradorlik ko‘rsatkichlari barqaror yuqori bo‘ladi. Aksincha, agar jarayon faqat ma’lumot uzatishga yo‘naltirilsa, ko‘rsatkichlar tushib ketishi kuzatiladi. Shunday qilib, samaradorlik ko‘rsatkichlari tizimini joriy etish ta’lim muassasalariga o‘z faoliyatini obektiv baholash va kamchiliklarni o‘z vaqtida tuzatish imkonini beradi.

Muhokama. Tadqiqot davomida olingan natijalar pedagogik jarayon samaradorligini faqat an’anaviy baholash usullari bilan cheklanib qolmaslik kerakligini tasdiqlaydi. Ko‘pgina hollarda "samaradorlik" tushunchasi noto‘g‘ri talqin qilinib, u faqat talabalarning yuqori ballari bilan o‘lchanadi. Biroq, bizning tahlillarimiz shuni ko‘rsatadiki, yuqori ball har doim ham chuqur bilim yoki amaliy ko‘nikmani anglatmaydi. Shu sababli, samaradorlik mezonlarini kengaytirish va unga ta’lim oluvchining shaxsiy o‘sishini ham qo‘shish pedagogik zaruriyatdir.

Olingan natijalarning ilmiy adabiyotlar bilan qiyosiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, bizning xulosalarimiz J. Hattie va Yu.K. Babanskiy kabi olimlarning qarashlariga mos keladi, ya’ni qayta aloqa va jarayonni optimallashtirish asosiy omillardir. Ammo, zamonaviy o‘zbek ta’lim tizimi sharoitida biz milliy qadriyatlar va tarbiyaviy komponentning samaradorlikka ta’sirini ham e’tiborga olishimiz lozim. Samaradorlik nafaqat "bilaman" degan xulosa, balki "qo‘limdan keladi" va "bu bilim jamiyatga foyda keltiradi" degan ishonchni shakllantirishda namoyon bo‘ladi. Tadqiqotda aniqlangan ko‘rsatkichlar ta’lim sifatini boshqarishda muhim vosita bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Muhokama qilinishi kerak bo‘lgan yana bir muhim jihat – bu o‘qituvchining psixologik tayyorgarligi va uning ishdan qoniqish darajasi. Samaradorlik ko‘rsatkichlari past bo‘lgan guruhlarda ko‘pincha o‘qituvchining kasbiy "yonishi" (burnout) holatlari kuzatiladi, bu esa bevosita talabalarning motivatsiyasiga ta’sir qiladi. Demak, pedagogik samaradorlikni oshirish uchun nafaqat darsliklarni yangilash, balki pedagoglar uchun qulay mehnat sharoitlarini yaratish va ularni psixologik qo‘llab-quvvatlash ham zarur. Shuningdek, samaradorlikni baholash tizimi jazolash emas, balki rag‘batlantirish va rivojlantirish xarakteriga ega bo‘lishi lozim.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, samaradorlikni baholashda miqdoriy va sifat ko‘rsatkichlarining balansi juda muhim. Miqdoriy ko‘rsatkichlar (baholar, davomat, test natijalari) umumiy manzarani chizib bersa, sifat ko‘rsatkichlari (talabalar fikri, ijodiy ishlar, loyihaviy faollik) jarayonning mohiyatini ochib beradi. Kelajakdagi tadqiqotlarda sun’iy intellekt texnologiyalarini pedagogik samaradorlikni monitoring qilishga jalb etish masalalarini o‘rganish maqsadga muvofiq bo‘ladi, chunki bu inson omilini kamaytirib, baholashning xolisligini yanada oshirishi mumkin.

Xulosa. Pedagogik jarayon samaradorligini tadqiq etish shuni ko‘rsatadiki, bu tushuncha ta’lim tizimining sifati va natijadorligini belgilovchi integral ko‘rsatkichdir. Samaradorlikning mohiyati o‘quv jarayonining barcha ishtirokchilari o‘rtasidagi uyg‘unlikda, resurslardan oqilona foydalanishda va jamiyat talablariga mos keladigan mutaxassislarni tayyorlashda namoyon bo‘ladi. Tadqiqot davomida aniqlangan mezonlar va ko‘rsatkichlar tizimi pedagogik faoliyatni tahlil qilish va uni takomillashtirish uchun ishonchli nazariy-amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, samaradorlikni oshirishning asosiy yo‘nalishlari sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin: pedagoglarning doimiy kasbiy rivojlanishini ta’minlash, ta’lim jarayoniga shaxsga yo‘naltirilgan va texnologik yondashuvlarni integratsiya qilish hamda talabalar bilan ochiq va doimiy qayta aloqani o‘rnatish. Shuningdek, ta’lim muassasalarida samaradorlikni baholashning shaffof tizimini yaratish, bu orqali har bir bosqichdagi natijalarni monitoring qilib borish lozim. Bu nafaqat ta’lim sifatini kafolatlaydi, balki o‘quv jarayonini yanada moslashuvchan va dinamik qiladi.

Ushbu maqolada keltirilgan tavsiyalar va ishlab chiqilgan samaradorlik modeli pedagogik jamoalarga o‘z faoliyatini tanqidiy ko‘z bilan ko‘rib chiqishga va mavjud muammolarni bartaraf etishga yordam beradi. Kelajakda pedagogik jarayon samaradorligi masalasi raqamli transformatsiya sharoitida yanada dolzarblashib boradi, bu esa ushbu sohada yangi ilmiy izlanishlar olib borishni taqozo etadi. Ta’lim – bu kelajakka kiritilgan eng katta sarmoya bo‘lgani sababli, uning samaradorligini oshirish har bir pedagogning va umuman jamiyatning umumiy maqsadiga aylanishi kerak.

Adabiyotlar:

1. Turg’unov, S. T., Maqsudova, L. A., Tojiboyeva, H. M., Nazirova, G. M., & Umaraliyeva, M. A. (2014). Padagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish, sifat va samaradorligini oshirish texnologiyalari. O'zbekiston Respublikasi O'zPFITI» nashriyoti.
2. Xalikova U. M. (2022). Maktabgacha ta’limda pedagogik jarayonlarni loyihalashtirish. metodikasi. O‘quv qo‘llanma. Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi" Fan va ta’lim" nashriyoti, 216.
3. Turdibekovich S. S. Bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini tayyorlash texnologiyalari. Sirdaryo viloyati ta’lim sport mashg ‘ulotlari samaradorligini oshirish: muammolar, yechimlar va istiqbollar, 36.
4. Scheerens J. (1990). School effectiveness research and the development of process indicators of school functioning. School effectiveness and school improvement, 1(1), 61-80.
5. Niemtchenko I. I., Liakhovskyi V. I., Lisenko R. B., Krasnov O. G., & Ryabushko R. M. (2023). Professional competence of higher medical education instructors as a key indicator of their professional and pedagogical effectiveness. Актуальні проблеми сучасної медицини: Вісник Української медичної стоматологічної академії, 23(4), 277-280.
6. Oakes J. (1989). What educational indicators? The case for assessing the school context. Educational evaluation and policy analysis, 11(2), 181-199.
7. Bloom B. S. (1956). Taxonomy of Educational Objectives: The Classification of Educational Goals. Longmans, Green.
8. Bespalko V. P. (1989). Slagaemye pedagogicheskoy tehnologii. Pedagogika.
9. Babanskiy Yu. K. (1982). Optimizatsiya uchebno-vospitatelnogo protsessa: Metodicheskie osnovy. Prosveshenie.
10. Muslimov N. A. (2007). Kasbiy shakllanishning nazariy-metodik asoslari. Fan va texnologiya.
11. Yo‘ldoshev J. G‘. (1996). Zamonaviy dars. Malaka oshirish instituti.
12. Hattie J. (2008). Visible Learning: A Synthesis of Over 800 Meta-Analyses Relating to Achievement. Routledge.
13. Safarova R. G. (2015). Pedagogik jarayonlarni modernizatsiyalashning didaktik tamoyillari. O‘zPFITI.

AKADEMIK ERKINLIK SHAROITIDA TALABALARNING ILMIY-TADQIQOTCHILIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA PEDAGOGIK LOYIHALASHDAN FOYDALANISH

Xudayberganov Shuhrat Shavkat o‘g‘li,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),
Urganch davlat pedagogika instituti “Maktabgacha ta’lim”
kafedrasi professori v.b., mustaqil izlanuvchi,
sh.xudayberganov.urdu@mail.ru;
ORCID-0009-0007-9006-8998

Ushbu maqolada akademik erkinlik sharoitida talabalarning ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirishda pedagogik loyihalashning nazariy va amaliy imkoniyatlari tahlil asosida ochib beriladi. Akademik erkinlik muhiti talabalarning mustaqil fikrlashi, ilmiy tashabbuskorligi va tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirishning muhim omili sifatida talqin etiladi. Shuningdek, pedagogik loyihalash ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatini tizimli tashkil etish, maqsad-mazmun-metod-natija o‘rtasidagi uzviylikni ta’minlash hamda talabalarni faol ilmiy subyekt sifatida shakllantirish mexanizmi sifatida asoslab beriladi. Research-based learning, muammoli ta’lim va refleksiv yondashuv kabi zamonaviy metodlar pedagogik loyihalash vositasi sifatida tahlil qilinadi.

Olingan natijalar oliy ta’lim jarayonida akademik erkinlik tamoyillariga asoslangan pedagogik loyihalash modeli orqali talabalarning ilmiy faolligi, tanqidiy tafakkuri va tadqiqotchilik salohiyatini oshirishga qaratilgan amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishga yo‘naltirilganligi bilan ahamiyatli hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: *akademik erkinlik, pedagogik loyihalash, ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati, research-based learning, ilmiy subyektivlik, tadqiqotchilik kompetensiyasi, refleksiv yondashuv, tanqidiy fikrlash, ilmiy tashabbuskorlik, oliy ta’lim.*

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ПРОЕКТИРОВАНИЯ В РАЗВИТИИ НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СТУДЕНТОВ В УСЛОВИЯХ АКАДЕМИЧЕСКОЙ СВОБОДЫ

В данной статье на основе теоретического и аналитического исследования раскрываются теоретические и практические возможности педагогического проектирования в развитии научно-исследовательской деятельности студентов в условиях академической свободы. Среда академической свободы интерпретируется как важный фактор формирования самостоятельного мышления, научной инициативности и исследовательских компетенций студентов. Педагогическое проектирование обосновывается как механизм системной организации научно-исследовательской деятельности, обеспечивающий взаимосвязь между целями, содержанием, методами и результатами обучения, а также способствующий формированию студентов как активных научных субъектов. В качестве инструментов педагогического проектирования анализируются современные образовательные подходы, такие как research-based learning, проблемное обучение и рефлексивный подход.

Полученные результаты имеют практическую значимость, поскольку ориентированы на разработку рекомендаций по повышению научной активности, критического мышления и исследовательского потенциала студентов на основе модели педагогического проектирования, реализуемой в условиях академической свободы в системе высшего образования.

Ключевые слова: *академическая свобода, педагогическое проектирование, научно-исследовательская деятельность, research-based learning, научная субъектность, исследовательская компетентность, рефлексивный подход, критическое мышление, научная инициативность, высшее образование.*

THE USE OF PEDAGOGICAL DESIGN IN DEVELOPING STUDENTS’ RESEARCH ACTIVITIES UNDER CONDITIONS OF ACADEMIC FREEDOM

This article provides a theoretical and analytical examination of the theoretical and practical potential of pedagogical design in developing students’ research activities under conditions of academic freedom. The academic freedom environment is interpreted as a significant factor in fostering independent thinking, scientific initiative, and research competencies among students. Pedagogical design is

substantiated as a mechanism for the systematic organization of research activities, ensuring coherence between objectives, content, methods, and outcomes, while contributing to the formation of students as active scientific subjects. Contemporary educational approaches, including research-based learning, problem-based learning, and reflective practice, are analyzed as key instruments of pedagogical design.

The findings are of practical significance, as they are aimed at developing recommendations for enhancing students’ research activity, critical thinking, and research potential through a pedagogical design model grounded in the principles of academic freedom within higher education.

Keywords: *academic freedom, pedagogical design, research activity, research-based learning, scientific subjectivity, research competence, reflective approach, critical thinking, scientific initiative, higher education.*

Kirish. Jahon taraqqiyotining zamonaviy bosqichida akademik ta’lim, ilm-fan va intellektual faollik inson kapitalini rivojlantirishning asosiy omili sifatida e’tirof etilmoqda. Global miqyosda oliy ta’lim tizimi nafaqat bilim berish, balki mustaqil fikrlaydigan, tanqidiy tafakkurga ega va ilmiy izlanishga qodir shaxslarni shakllantirishga yo‘naltirilgan institutsional makon sifatida talqin qilinmoqda.

Yangi O‘zbekistonda ham oliy ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, akademik va tashkiliy mustaqillikni kengaytirish hamda ilmiy salohiyatni oshirishga qaratilgan normativ-huquqiy asoslar yaratildi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoni bilan tasdiqlangan “Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”, shuningdek, 2020-2021-yillarda qabul qilingan akademik va moliyaviy mustaqillikni ta’minlashga qaratilgan qarorlar oliy ta’lim muassasalarida akademik erkinlikni kengaytirish va talabalar ilmiy faolligini rag‘batlantirishning huquqiy poydevorini mustahkamladi.[1]

Mazkur sharoitda talabalarning ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirish masalasi ustuvor pedagogik vazifa sifatida namoyon bo‘lmoqda. Globallashuv va innovatsion taraqqiyot sharoitida oliy ta’lim muassasalari tayyor bilimlarni uzatuvchi institutdan ilmiy izlanishlar markaziga aylanishi zarur. Aynan shu jarayonda pedagogik loyihalash akademik erkinlik tamoyillarini amaliyotga tatbiq etishning samarali vositasi sifatida maydonga chiqadi. Pedagogik loyihalash orqali ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati maqsadli, tizimli va natijador tashkil etilib, talabalarning mustaqil fikrlashi, ilmiy tashabbuskorligi hamda tadqiqotchilik kompetensiyalarini izchil rivojlantirish imkoniyati yaratiladi.

Bundan ko‘rinadiki, akademik erkinlik va pedagogik loyihalashning integratsiyasi oliy ta’lim tizimida talabalarni faol ilmiy subyekt sifatida shakllantirishning konseptual asosini tashkil etadi.

Material va metodlar. Bugungi kunda talabalarning ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirish masalasi pedagogika fanining dolzarb yo‘nalishlaridan biri sifatida keng qamrovli ilmiy tadqiqotlarda o‘rganilmoqda. Xususan, zamonaviy didaktik ta’minot, innovatsion ta’lim texnologiyalari hamda pedagogik loyihalash asosida talabalarning tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan ilmiy izlanishlar tahlil qilindi. Muammoni o‘rganish jarayonida xorijiy oliy ta’lim muassasalarida qo‘llanilayotgan akademik erkinlik modellari, research-based learning yondashuvi, inquiry-based learning, muammoli ta’lim va refleksiv metodlar konseptual asos sifatida qabul qilindi. Ayniqsa, akademik erkinlik sharoitida talabalarning ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatini tashkil etish mexanizmlari, ularni amaliyotga joriy etish usullari, mezonlari va bosqichlari pedagogik loyihalash jarayonining tarkibiy komponentlari sifatida o‘rganildi.[12]

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, pedagogik loyihalash talabalarning ilmiy faolligini tizimli ravishda rivojlantirish, ularni mustaqil ilmiy subyekt sifatida shakllantirish hamda akademik erkinlik tamoyillarini ta’lim jarayoniga integratsiya qilishning samarali vositasi bo‘lib xizmat qiladi.

Natijalar va ularning tahlili. Akademik erkinlik pedagogik kategoriya sifatida ta’lim subyektlarining bilim olish, ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatini amalga oshirish, mustaqil ilmiy izlanish olib borish hamda o‘z ilmiy pozitsiyasini asosli ravishda shakllantirish va himoya qilish huquqini ifodalaydi. Mazkur tushuncha oliy ta’lim jarayonida talabaning passiv bilim iste’molchisi emas, balki faol ilmiy subyekt sifatida shakllanishini ta’minlovchi muhim omil hisoblanadi.

Pedagogik loyihalash jarayonida akademik erkinlik tamoyillarini integratsiyalash talabalarning ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatini maqsadli, bosqichma-bosqich va natijador tashkil etish imkonini yaratadi. Akademik erkinlik sharoitida talaba o‘z ilmiy qiziqishlarini mustaqil belgilaydi, tadqiqot muammosini tanlaydi, metodologik asosni ishlab chiqadi hamda olingan natijalarni tanqidiy tahlil qiladi.

Shu jihatdan, akademik erkinlik pedagogik loyihalashning konseptual asosi sifatida namoyon bo‘lib, talabalarning tanqidiy fikrlashi, refleksiv tahlil ko‘nikmalari, ilmiy tashabbuskorligi va tadqiqotchilik kompetensiyalarini izchil rivojlantirishga xizmat qiladi. Natijada talaba o‘z ilmiy faoliyatini ongli ravishda

rejalashtira oladigan, jarayonni tahlil qiladigan va ilmiy mas’uliyatni o‘z zimmasiga oladigan subyekt sifatida shakllanadi.

Mazkur konseptual yondashuv asosida ishlab chiqilgan pedagogik loyihalash modeli maqsad (ilmiy subyektivlikni rivojlantirish), mazmun (tadqiqotga yo‘naltirilgan ta’lim), metod (research-based learning, muammoli ta’lim, refleksiv faoliyat) va natija (ilmiy faollik hamda tadqiqotchilik kompetensiyasi) o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ta’minlaydi. Shu tariqa, akademik erkinlik va pedagogik loyihalash integratsiyasi talabalarning ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirishning tizimli mexanizmini shakllantiradi.

Mazkur tadqiqot doirasida qo‘llanilayotgan asosiy tushunchalarning mazmun-mohiyati quyidagicha izohlanadi:

Pedagogik loyihalash - bu ta’lim jarayonini maqsadli rejalashtirish, mazmun, metod va natijalar o‘rtasidagi uzviylikni ta’minlash hamda talabaning ilmiy faoliyatini tizimli tashkil etishga qaratilgan ilmiy asoslangan pedagogik jarayondir. Pedagogik loyihalash akademik erkinlikni amaliy mexanizm sifatida ta’lim jarayoniga integratsiya qilish vositasi hisoblanadi.

Ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati - bu talabaning muammoni aniqlash, ilmiy savol qo‘yish, metod tanlash, ma’lumotlarni tahlil qilish va xulosalar chiqarish jarayonida faol ishtirok etishini nazarda tutuvchi ijodiy-intellektual faoliyat turidir.

Research-based learning - ta’lim jarayonini ilmiy izlanishlar bilan integratsiyalashga asoslangan yondashuv bo‘lib, unda talaba o‘quv jarayonining faol ishtirokchisi va tadqiqot subyekti sifatida namoyon bo‘ladi.

Ilmiy subyektivlik - talabaning o‘zini ilmiy faoliyat subyekti sifatida anglash, mustaqil ilmiy pozitsiyaga ega bo‘lishi, refleksiya yurita olishi va ilmiy mas’uliyatni o‘z zimmasiga olish qobiliyatidir.

Tadqiqotchilik kompetensiyasi - ilmiy muammoni aniqlash, metodologik asoslash, tahlil qilish va ilmiy natijalarni asosli ravishda taqdim eta olish ko‘nikmalari majmui.

Refleksiv yondashuv - talabaning o‘z ilmiy faoliyatini tahlil qilish, baholash va takomillashtirishga qaratilgan ongli jarayon.

Tanqidiy fikrlash - mavjud axborotni tahlil qilish, asoslangan xulosa chiqarish va muqobil nuqtai nazarlarni baholash qobiliyati.

Ilmiy tashabbuskorlik - talabaning mustaqil ravishda ilmiy g‘oya ilgari surish, izlanish boshlash va yangi ilmiy yechimlar taklif etish qobiliyati.[10]

Oliy ta’lim - shaxsning professional va ilmiy salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan institutsional ta’lim bosqichi bo‘lib, unda akademik erkinlik va ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati integratsiyasi ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy oliy ta’lim tizimida talabalarning ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirish masalasi akademik erkinlik tamoyillari bilan uzviy bog‘liq holda ko‘rib chiqilmoqda. Akademik erkinlik ta’lim subyektlarining mustaqil fikrlashi, ilmiy izlanish olib borishi, ilmiy pozitsiyasini erkin ifoda etishi va himoya qilishi uchun zarur institutsional hamda pedagogik shart-sharoitlarni ta’minlaydi. Biroq akademik erkinlikning mavjudligi o‘z-o‘zidan talabalarning ilmiy faolligini kafolatlamaydi. Uni samarali natijaga yo‘naltirish uchun pedagogik jihatdan asoslangan tizimli mexanizm zarur.

Shu nuqtai nazardan, pedagogik loyihalash talabalarning ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirishning muhim metodologik vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. Pedagogik loyihalash - bu ta’lim jarayonini oldindan ilmiy asosda rejalashtirish, maqsad-mazmun-metod-natija o‘rtasidagi uzviylikni ta’minlash hamda kutilayotgan natijalarni aniq indikatorlar orqali belgilash jarayonidir.

Akademik erkinlik sharoitida pedagogik loyihalash quyidagi vazifalarni bajaradi:

-Talabalarning ilmiy qiziqishlarini aniqlash va individuallashtirish;

-Ilmiy muammolarni mustaqil tanlash va asoslash imkoniyatini yaratish;

-Tadqiqot metodologiyasini ongli ravishda o‘zlashtirish;

-Refleksiv tahlil va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish;

-Ilmiy natijalarni taqdim etish va himoya qilish kompetensiyasini shakllantirish.

Pedagogik loyihalash jarayonida research-based learning, muammoli ta’lim, refleksiv yondashuv, mentorlik instituti va fanlararo integratsiya mexanizmlaridan foydalanish ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatini tabiiy ravishda ta’lim jarayoniga singdiradi. Natijada talaba o‘quv jarayonining passiv ishtirokchisidan faol ilmiy subyektga aylanadi.[6]

Mazkur yondashuvda ilmiy subyektivlik markaziy tushuncha sifatida qaraladi. Ilmiy subyektivlik talabaning o‘zini ilmiy faoliyat subyekti sifatida anglash, ilmiy mas’uliyatni his qilish, mustaqil qaror qabul qilish va ilmiy refleksiya yurita olish qobiliyatini anglatadi. Pedagogik loyihalash ana shu sifatlarni bosqichma-bosqich shakllantirishga xizmat qiladi.

Shunday qilib, akademik erkinlik va pedagogik loyihalash integratsiyasi talabalarning ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirishning tizimli modeli sifatida qaralishi mumkin.

Akademik erkinlik sharoitida ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirish modeli

Bosqich	Mazmuni	Qo‘llaniladigan metodlar	Kutilayotgan natija
1. Diagnostik bosqich	Talabaning ilmiy qiziqishlari va tayyorgarlik darajasini aniqlash	So‘rovnoma, suhbat, refleksiv esse	Individual ilmiy yo‘nalish aniqlanadi
2. Loyihalash bosqichi	Ilmiy muammoni tanlash va rejalashtirish	Research-based learning, muammoli ta’lim	Tadqiqot rejasi shakllanadi
3. Amalga oshirish bosqichi	Ilmiy izlanish olib borish	Tahlil, kuzatish, tajriba, mentorlik	Tadqiqotchilik kompetensiyasi rivojlanadi
4. Refleksiv bosqich	Natijalarni baholash va tahlil qilish	Refleksiv yondashuv, muhokama	Tanqidiy fikrlash shakllanadi
5. Taqdimot bosqichi	Ilmiy natijalarni himoya qilish	Ilmiy seminar, konferensiya	Ilmiy subyektivlik mustahkamlanadi

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, akademik erkinlik sharoitida talabalarning ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatini pedagogik loyihalash asosida rivojlantirish murakkab, ko‘p qirrali va tizimli pedagogik jarayon hisoblanadi. Akademik erkinlik talabaning ilmiy faoliyatda mustaqil subyekt sifatida shakllanishi, o‘z ilmiy qiziqishlarini erkin belgilashi, tadqiqot yo‘nalishini tanlashi hamda tanqidiy tahlil asosida ilmiy muammolarga yondashishiga zarur shart-sharoit yaratadi.

Pedagogik loyihalash esa mazkur erkinlikni tartibli va maqsadli rivojlanish mexanizmiga aylantiradi. U ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatini maqsad-mazmun-metod-natija tizimida loyihalashtirish orqali talabalarning tadqiqotchilik kompetensiyasini izchil shakllantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, research-based learning, muammoli ta’lim va refleksiv yondashuv kabi metodlarning pedagogik loyihalash tarkibiga integratsiyalashuvi akademik erkinlikni nazariy tamoyildan amaliy pedagogik mexanizm darajasiga olib chiqadi.

Shuningdek, pedagogik loyihalash talabalarda ilmiy subyektivlikni rivojlantirish, ya’ni o‘z ilmiy faoliyatini ongli ravishda rejalashtirish, natijalarni tahlil qilish, ilmiy mas’uliyatni his etish va tashabbus ko‘rsatish qobiliyatini mustahkamlashga xizmat qiladi. Akademik erkinlik va pedagogik loyihalashning o‘zaro integratsiyasi natijasida talaba o‘quv jarayonining passiv ishtirokchisidan faol ilmiy subyektga aylanishi ta’minlanadi.[7]

Mazkur nazariy xulosalar oliy ta’lim tizimida talabalarning ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatini innovatsion mazmun bilan boyitish, ilmiy salohiyatni rivojlantirish hamda pedagogik loyihalash asosida samarali tashkil etish uchun mustahkam metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, ishlab chiqilgan yondashuv keyingi empirik tadqiqotlar va tajriba-sinov ishlarini tashkil etishda konseptual platforma vazifasini bajarishi mumkin.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat oliy ta’lim muassasalarining akademik va tashkiliy boshqaruv mustaqilligini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2021-yil 24-dekabrdagi PQ-60-sonli qonuni.
2. *Спиноза Б.* Избранные произведения. В двух томах. Том 2. – Москва: Госполитиздат, 1957. – 728 с.
3. *Мысли Спинозы.* Анонимние атеистические трактаты. – Москва: Мысль, 1969. – 335 с.
4. *Rüegg W.* A History of the Univercity in Europe. Vol. I Universitiesin the Middle Ages. – Cambridg: Cambridge University Press. 1992.-485 с.
5. Rudy W. The Universities of Europe, 1100-1914. A History, Associated. – Cranbury: University Press, 1984.-177 с.
6. *Edwards R., Usher R.* Globalization and Pedagogy Spase Plase and Identity. – New York, 1999. – 602 p.

7. *Канке В.* История, философия и методология педагогики и психологии. – Москва: Юрайт, 2014. – 487 с.

8. *Lankford E.L.* Freedom and Ourage in Art Education // Journal of Aesthetic Education, 1994. – № 28(4). – Pp. 52–62.

9. *Абдураҳмонов Қ.Ҳ., Холмўминов Ш.Р.* Меҳнат иқтисодиёти ва социологияси. – Тошкент: Ўзбекистон ёзувчилар уюшмаси Адабиёт жамғармаси нашриёти, 2004. – 231 б.

10. *Исмоилов Т.И.* Олий таълим муассасалари фаолиятини ташкил этиш ва бошқариш жараёнларига академик мустақиллик принципларини жорий этиш истиқболлари (ривожланган давлатлар тажрибаси мисолида): Педагог. фан. докт. (DSc) диссертацияси. – Чирчиқ, 2023. – 154 б.

11. *Закирова Ф.М., Позилова Ш.Х.* Креативное обучение на курсах повышения квалификации преподавателей информатики высших образовательных учреждений //Science for Education Today. – 2018. – Т. 8. – №. 3.

12. *Ibragimova G.N.* - Interfaol o‘qitish metodlari va texnologiyalari asosida talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish. /Monografiya.-T“Fan texnologiyalar“, 2016.-77-b

Internet saytlari:

1. https://www.lex.uz
2. https://www.altshuller.ru

KREATIV FIKRLASHNI RIVOJLANTIRUVCHI INTERAKTIV METOD TURLARI

Xaldarchayeva Gauxar Serikbayevna,
M.Auezov nomidagi Janubiy Qozog’iston universiteti Chirchiq filiali
Umumta’lim fanlar kafedrasi katta o’qituvchisi

Mazkur maqolada ingliz tilini o‘qitish jarayonida interaktiv (interfaol) metodlarning o‘rni va amaliy imkoniyatlari yoritiladi. Unda talabalarning dars davomida o‘zaro muloqotga kirishishi, erkin va tanqidiy fikrlashi, fikr almashinuvi hamda o‘z pozitsiyasini asoslab himoya qila olish ko‘nikmalarini shakllantirishda interfaol yondashuvning pedagogik-psixologik ahamiyati asoslanadi. So‘nggi yillarda o‘qituvchi va talabalar tomonidan keng qo‘llanayotgan metodlar mazmuni, tashkil etish ketma-ketligi, darsni olib borish mexanizmlari, vaqt taqsimoti va zarur vositalar tavsifi beriladi. Xususan, Jigsaw (Zigzag) metodining kelib chiqishi va 10 bosqichli modeli, shuningdek brainstorming, discussion, debate, role-playing, simulation, axborot almashinuvi, intervyu hamda hikoya yaratishga doir texnikalar orqali kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish yo‘llari ko‘rsatiladi. Natijada interfaol metodlar tilni tabiiy muhitga yaqin sharoitda qo‘llash, hamkorlikda o‘rganish va o‘quv motivatsiyasini kuchaytirishda samarali vosita ekanligi xulosa qilinadi.

Kalit so’zlar: *(Zigzag metodi, Hissiyot, Boshqotirma) metodi, Simulyatsiya, Axborot almashinuvi,Tasavvur, fikr almashinuvi,tanqid.*

ВИДЫ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ, РАЗВИВАЮЩИХ КРЕАТИВНОЕ МЫШЛЕНИЕ

В статье раскрывается роль интерактивных (интерфаол) методов в обучении английскому языку и их практический потенциал. Обосновывается, что постоянное взаимодействие студентов на занятии создаёт условия для использования языка в максимально приближённой к естественной среде коммуникации, развивает самостоятельность, критическое мышление, культуру аргументации и навыки защиты собственной позиции. Описываются наиболее востребованные в последние годы формы интерактивного обучения, особенности их организации, логика проведения, временные параметры и необходимые средства. Особое внимание уделяется методу Jigsaw (Zigzag): его происхождению, психолого-педагогической направленности и 10-этапной модели проведения, а также распределению ролей и функций преподавателя. Дополнительно рассматриваются brainstorming, discussion, debate, role-playing, simulation, обмен информацией, интервью и техники создания/завершения историй как инструменты формирования коммуникативной компетенции. Делается вывод о том, что интерактивные методы усиливают мотивацию, активность и сотрудничество обучающихся, обеспечивая более результативное усвоение языка.

Ключевые слова: *метод «Зигзаг», метод «Головоломка», эмоция, симуляция, обмен информацией, воображение, обмен мнениями, критика.*

TYPES OF INTERACTIVE METHODS THAT DEVELOP CREATIVE THINKING

This article examines the role of interactive (interfaol) methods in teaching English and their practical value for developing students’ communicative competence. It argues that sustained learner–learner interaction during lessons creates conditions close to natural language use and fosters independent thinking, critical reasoning, argumentation culture, and the ability to defend one’s viewpoint. The paper outlines the most widely accepted and frequently used interactive techniques in recent years, describing how they are organized, implemented, time-managed, and supported by instructional tools. Special attention is given to the Jigsaw (Zigzag) method: its origins, psycho-pedagogical rationale, and a 10-step instructional procedure, along with role distribution and the teacher’s functions. In addition, the article discusses brainstorming, discussion, debate, role-play, simulation, information exchange, interviewing, and story-making/story-completion techniques as effective means of enhancing speaking, listening, and collaborative learning. The study concludes that interactive methods increase motivation, participation, and cooperation, leading to more efficient and meaningful language acquisition.

Key words:*Zigzag method, Puzzle method, emotion, simulation, information exchange, imagination, exchange of ideas, criticism.*

Kirish. Interaktiv metodni boshqacharoq qilib interfaol metod ham deb yuriiladi. Talabalar dars davomida o’zaro muloqotda bo’lishi ingliz tilini ular tabiiy muhitda ham qo’llay olishlariga zamin yaratadi. Mustaqil fikriga ega bo’lgan talaba o’z fikrini himoya qilib tortishadi .Hozirgi kunda 60 dan ortiq Interaktiv metodning turlari mavjud bo’lib ularning barchasi erkin fikrlashga, tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga, o’zaro fikr almashinuvini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ushbu qismda so’nggi yillarda eng ko’p o’qituvchilar va talabalar tomonidan yaxshi qabul qilingan, ko’p qo’llangan interaktiv metodlar to’g’risida ma’lumot beriladi. Shuningdek ularning tashkil etilishi, olib borilishi, sarflanadigan vaqt, kerak bo’luvchi vositalar to’g’risida ham to’xtalib o’tiladi. Nafaqat ingliz tilini o’rgatishda bugunda ko’p qo’llanilayotgan balki, yangi yuzaga kelayotgan turlar haqida ham ma’lumot beriladi

Jigsaw method (Zigzag metodi) tarixi. Zigzag metodi 1971-yil AQSH, Texas shtati, Ostin shaxrida professor Eliot Aronson tomonidan yaratilgan va nomlangan. Eng boshda bu metod o’qitish uchun emas maktabda o’qishga loyiq muhit yaratish maqsadida o’ylab topilgan. Ko’p ma’noda psixologik yondashuvga ega metod hisoblanadi.

O’sha davrlarda talabalarning bilimiga qarab tabaqalab o’qitishni to’xtatish loyihasi maktablarda jiddiy tartibsizliklarni , kuchli nosog’lom raqobat muhitini keltirib chiqardi. Bilim darajasi va madaniyati turli xil bo’lgan bitiruvchi talabalardan E.Aronson guruh tuzib ular o’rtasidagi ayirmachilikni yo’qotishga muvaffaq bo’ladi. Aronson va uning tadqiqot guruhi qisqa vaqt ichida talabalarning hamkorlikda o’qishi texnikasini ishlab chiqadi. Zo’ravomlik kuchayganligi tufayli tadqiqotning barcha bosqichlarini amal qilishini tekshirish, ulardan foydalanish imkonsiz edi. Shuning uchun Aronson tizimli kuzatuv olib borib barcha tartibsizliklarning asosiy sababi kuchli nosog’lom raqobat muhiti ekanligini aniqlaydi .

Tadqiqotning birinchi qadami sinfdagi ichki muhitning o’zgartirilishi bo’ldi. Maqsad raqobatchilikni yo’qotish, alohida emas birgalikda , guruh bo’lib harakat qilishga o’rgatish, turli tabaqa va millatlarga oid talabalar o’rtasida o’zaro do’stlik muhitini yaratish edi.

Natija ikki haftadan keyin ko’rina boshladi. Zigzag metodi a’lo darajada o’zini oqladi. Tez orada tabaqalanish zo’ravonlik yo’qolib ketdi.

Zigzag darsini tashkil qilish va olib borish qonuniyatlari.

E. Aronson zigzag darsini olib borish qonuniyatlarini 10ta bosqichga bo’lgan.

1. Talabalar 4-5-6 kishilik zigzag guruhlarga bo’linadi. Bunda talabalarning fikrlashi, qobiliyati turlicha o’g’il qizlardan iborat bo’lishi kerak;
2. Bir talaba guruh sardori bo’ladi va u eng qobiliyatlisi bo’lishi shart;
3. Dars mavzusi tashkil qilingan guruhlardagi talabalar soniga qarab 4-5-6 qismga bo’linadi;
4. Har bir talaba bittadan topshiriqni o’rganib chiqadi va unga javob beradi;
5. Talabalarga o’z qismini o’rganib chiqishlariga vaqt beriladi;
6. Navbati bilan ekspert guruhlar tashkil qilinadi. Bunday guruhlar har bir guruhdagi aynan bir xil topshiriq olgan talabalardan tuziladi. Ular topshiriqdagi asosiy masalalarni muhokama qilishadi va o’z guruhlariga prezintatsiya qilishga tayyorgarlik ko’rishadi;
7. Talabalar o’z guruhlariga qaytishadi;
8. Talaba o’z guruhiga qaytib mavzusini guruhdoshlariga prezintatsiya qiladi va savollar berish yo’li bilan ularning qanchalik yaxshi tushunganliklarini tekshiradi;
9. O’qituvchi jarayonni kuzatib boradi va yordam krak bo’lsa yordam beradi;
10. Jarayonning so’ngida topshiriq yuzasidan har bir guruhning a’zolariga sinov varaqalari tarqatiladi. Bunda talaba darsdan o’zlashtirgan barcha bilimlarini namoyish etadi.

Zigzag darsida o’qituvchining majburiyatlari

1. O’qituvchi mavzuga oidma’lumotlarni yeg’ishi kerak. Topshiriqlarni guruh a’zolarining qobiliyat va bilimiga qarab bo’lib chiqishi kerak;
2. Guruhlarni tashkil qilishi,sardor tayinlashi,topshiriqlarni tushuntirib tarqatishi kerak;
3. Talabalarga topshiriq varaqalariga chizishi, fikrlarini yozishiga ruxsat berishi kerak;
4. Talabalarning darsni qay darajada o’zlashtirganini ko’rsatuvchi,dars so’ngida beriladigan savol topshiriqlarni tayyorlashi zarur.

Zigzag metodining afzalliklari

1. Bunday darslarda o’qituvchi ma’lumot manbai emas oddiy kuzatuvchi sifatida qatnashadi;
2. O’zlashtirish samaraliroq, o’rgatish qulayroq bo’ladi;
3. Talabalar darsda tashabbusni o’z qo’liga oladi;
4. Har bir talabaning guruhdoshlari orasida o’z o’rni va vazifasi bo’ladi;
5. Talabalar hamkorlikda qiziqarli mashg’ulot o’tkazadi;
6. Mashg’ulot davomida talabalar asosiy sikr bildiruvchi hisoblanishadi;

7. Shaxslararo munosabatni va muhokama qila olish mahoratini oshiradi.

Brainstorming (Boshqotirma) metodi

Boshqotirma mashg’ulotida talabalar belgilangan vaqt ichida ma’lum bir o’rtaga tashlangan masalani hal qilish uchun fikrlar, yechimlar, mulohazalar bildirishadi.

Mavzuning katta kichikligiga qarab boshqotirmani talabalarga individual yoki guruh holda qo’llash .

Boshqotirma mashg’uloti quyidagi bosqichlarni o’z ichiga oladi:

1.Ko’proq tajriba. Tez-tez boshqotirma mashg’ulotini o’tkazib turish kerak. Kattaroq mavzuni boshlashdan oldin 10-15 daqiqa boshqotirma mashg’ulotini o’tkazish uchun yetarli. Ularga biroz fikrlab kengroq javob berish talab qilinadigan savolni berishning o’zi boshqotirma mashg’uloti hisoblanadi. Masalan:

Is Global heating a human fault?

Bunga talabalar biroz fikrlagan holda, albatta o’z tabiatidan kelib chiqib quyidagicha javoblarni berishi mumkin:

- human is using the natural resources without limit. That’s why it is human fault.
- It is just a natural proccess that must be. There is little fault of human in it.
- Global heating is totally a human fault that consequences are inevitable.

Oldindan tashkil qilinmagan boshqotirma mashg’uloti qiziqarli o’tadi. Bunday mashg’ulot talabalarni tez o’ylab, tez qaror chiqarishga undaydi. Bunday mashg’ulot talabalarning fikrini asosiy mavzudan chalg’itadi deyish noto’g’ri. Aksincha ularning ongi va fikrini o’rganayotgan tilga moslab olishlariga yordam beradi.

2. Hissiyotga boy bo’lish. Talabalar bildirgan har bir fikrga hayrat bilan qarash kerak. Agar ular o’zlarini yaxshi fikr bildira olishga qodir notiqman deb his etishsa mavzuga va ingliz tilini o’rganishga yanada qattiq kirishadi. Talaba fikr bildirganda shunday yondashish kerakki boshqalar ham munozaraga kirishishni hoxlasin. Boshqotirma mashg’uloti fikrlar hilma-hilligiga asoslanadi. Shu nuqtai nazardan o’qituvchi talabalarni gapirishga, fikr bildirishga majburlay oladigan darajada mohir va qobiliyatli bo’lishi kerak.

3.Yaxshi mavzu tanlash. Agar tanlangan mavzuga o’qituvchining o’zi 10da ortiq fikr bildirolmasa demak talabalar ham bu mavzuda uzoq va xilma-xil fikrli muhokama uyushtira olmaydi. Ko’p qirrali, ko’plab fikrlar bera olish mumkin bo’lgan mavzu tanlash juda muhim. Mavzu talabaning so’z boyligi hisobga olingan holda tanlanishi kerak. Agar o’qituvchi allaqachon yechimini topgan muammoni o’rtaga tashlaganini talabalar bilishsa ular xato fikr aytishdan qo’rqib yaxshi boshqotirma mashg’uloti tashkil qilinmasligi mumkin.

4.Fikrlar xilma-xilligini qo’llab quvvatlash. Qanchalik ko’p fikr bildirilsa, shunchalik yaxshi dars tashkil qilingan hisoblanadi. Sababi talaba to’g’rimi noto’g’rimi ingliz tilida o’z fikrini bildirishni o’rganganidan dalolat beradi. Agar talabalar bir fikrda to’xtab qolsa, bu fikrni mavzudan chetga chiqarish kerak. Masalan: “Carnival” mavzusi berilsayu ular faqat karnavaldagi taomlar haqida gapirishga kirishib ketsa, mavzuga tezda yangicha tus berish uchun o’rtaga karnaval liboslari yoki ananalari haqidagi mavzu tashlanib mavzuga yangicha tus beriladi.

5.Fikrlarni takrorlab turish. Talabalar o’z fikrlarini qayta takrorlasa xursand bo’ladi. Bu ularga ularning fikri muhimligini ko’rsatib turadi va yanada izlanishga undaydi.

6.Qanday mavzu ular uchun qiziqarli bo’lishini so’rash. Talabalar o’zlari qiziqqan mavzuni muhokama qilishni yoqtiradi va bunday darsda faol qatnashadi.

7.Fikrlarni sanash. Talabalar bildirilgan fikrlarning soniga qiziqadi. O’qituvchi:

-Do you have any other ideas?

-Great! We have more than 20 ideas.

Kabi jumlalarni takrorlab turishi kerak.

8.Fikrlarni turlarga bo’lib chiqish. Bu mashg’ulotni to’g’ri tashkil qilishga yordam beradi. Fikrlar doskaga yozilishi kerak.

9.Fikrlarni saqlab qo’yish. Doskada yozilgan fikrlarni o’chirishdan oldin daftarga yozib olish kerak . Talabar o’zlarining fikrlarini qanchalik ahamiyatli ekanligini tushunishlari lozim.

Boshqotirma mashg’ulotining asosiy qoidalari

1. Hech qanday tanqid bo’lmasligi kerak. Har qanday fikr qabul qilinishi, noto’g’ri deyilmasligi lozim.

2. Har bir fikr yozib borilishi lozim.

3. Ko’proq fikr bildirilishiga erishish kerak ularning sifatini ahamiyati yo’q. Muhimi talaba fikrini ingliz tilida bayon qilayotgani .

4. Bir talaba bildirgan fikrni boshqa bir talaba butunlay boshqacha tarzda tushuntirib bersa ham qabul qilinadi

5. Kulgili, o’ziga xos, o’xshashroq fikrlar ham hisobga olinadi.

Boshqotirma mashg’uloti talabalarning bilimlarini kengaytiradi, dunyoqarashini oshiradi, tez fikrlashni o’rgatadi, nafaqat ona tilida balki ingliz tilida ham o’z fikrini tez, erkin, aniq va tushunarli bayon eta olishga o’rgatadi. Aqlni charxlaydigan interaktiv metodning bu turi nafaqat til o’rgatish metodikasida balki, jamiyatning muhim muammolarini hal qilishda siyosatda, iqtisodiyotda keng qo’llanilmoqda va o’zining samarali usul ekanligini isbotlamoqda.

Discussion (Muhokama) metodi. Belgilangan asosiy dars mavzusi tugagach turli mavzularda muhokama mashg’ulotlari tashkil qilish mumkin. O’rtaga tashlangan mavzu haqida fikr qilish, taklif berish, masalaga yechim topishga harakat qilish talabaga ingliz tilida o’ylashni o’rgatadi. Muhokamani boshlashdan oldin o’qituvch bu muhokamani o’tkazishdan asosiy maqsadni aytib o’tishi zarur. Shunda talabalar maqsadga muvofiq takliflar bildirib masalani yechimini topishga jiddiy kirishadi.

Muhokama darsida talabalar turli masalalarga yechim topishni, boshqalar fikrini rivojlantirishni, guruhda birgalikda ishlashni o’rganadi.

“Muhokama” darsi va “Boshqotirma” darsining o’xshash tomonlari bor. Ularning ikkalasida ham talabalar fikr-mulohaza qiladi, takliflar kiritadi. Ammo bu ikki turni bir- biridan ajratish juda muhim. Avvalo:

-Muhokama mashg’ulotida hamma masalaga birgalikda yechim topishga harakat qiladi;

- Boshqotirmada esa taklif va fikrlarning miqdori muhim. Ular qanday yechimga olib borishi ahamiyatsizdir.

Debate (Bahs-munozara). Bunday mashg’ulotni o’tkazish uchun eng avvalo bahsga sabab bo’ladigan mavzu tanlash kerak . Talabalar ikki guruhga bo’linadi va ular o’z fikrlarini himoya qilgan holda bir-birlarining fikrlariga qarshi chiqadi. Aslida bahs-munozara mashg’ulotining xalqaro qaror qilingan qoidalari bo’lib ulardan eng muhimlari bu mavzu munozaradan bir kun oldin e’lon qilinishi va bahs davomida faqat faktlarga asoslangan fikrlar aytilishi kerak. Ingliz tilini o’rgatish uchun tashkil qilingan bahs-munozara mashg’ulotida talabalar tomonidan alohida tayyorgarlik shart emas. Muhimi bahsning ingliz tilida o’tishidir.

Bahs mashg’ulotini o’tkazishda o’qituvchining asosiy vazifalaridan biri bahsning tortishuvga aylanib ketishiga yo’l qo’ymaslikdir. Zero bahsning xalqaro qoidalaridan biri raqibni xurmat qilish va uning oldida o’z xurmatini saqlashdir.

Interaktiv metodlarning ko’pchiligi talabalarning guruhda o’zaro hamkorlikda ishlashiga mo’ljallangan bo’lsa bahs-munozara mashg’uloti aksincha o’rtada fikrlar kurashini keltirib chiqaradi.

Bahs-munozarali dars talabalarga tanqidiy fikrlashni va fikrga ingliz tilida munosib javob qaytarishni o’rgatadi.

Bahs-munozara darsi talabalarda quyidagi sifatlarni oshiradi:

- tanqidiy fikrlash;
- mavhumiy fikrlash;
- o’z-o’zini va atrofidagilarni hurmat qilish;
- etika va estetika;
- hozirjavob bo’lish;
- fikrni boshqa tilda ham aniq ifoda eta olish;
- fikr va aniq faktni farqlay olish;
- ko’proq izlanish;
- jamoada fikrini ayta olish va uni himoya qila olish;
- birgalikda jamoaviy faoliyat yurita olish.

Ko’pchilik mavzularni muhokama qilish ham mumkin, bahs ham uyushtirish mumkin. Masalan:

Maktab formasi-School uniform, Kitoblar va internet- books and Internet, Global isish-Global warming, gibrid oziq-ovqatlar-Bioengineerred foods, Fast food, Energetic resources, Death penalty, etc.

Role- Playing – Rolga kirishish

Ushbu interaktiv metodning turi o’z nomidan ham ma’lumki, bunda rol o’ynash orqali ingliz tili o’rganiladi. Bu metodda talabalar jamiyatning turli tabaqalari vakilllari ya’ni turli kasb egalariga yoki biron film yoki asar qahramoniga aylangan holda rol o’ynashadi. Bunda o’qituvchi talabaga rol topshiradi va uning qahramoni kimligini va u nima haqida gapirishini oldindan aytadi .

Masalan: -You are Susan. You entered to the university. You have some difficulties in finding friends.

Shu kabi Role-playing darslarini turli mavzularda tashkil qilish mumkin. Ayniqsa, yangi leksikani o’rgatishda bu metod juda samaralidir. Yangi so’zlar qanday mavzudaligiga qarab Role-playing mashg’uloti tashkil qilinadi. Quyidagi kabi mavzularda Role- playing mashg’uloti juda samarali metoddir:

“At the Hospital”, “At the University”,”Robbery”, “Tourist”, “Looking for a job”, “Popular singer”,”Scientists”,”Tom Sawyer”, “Huck Finn” kabilar.

Simulation-Simulyatsiya. Simulyasiya mashg’ulotida ham talabalar turli qahramonlar qiyofasiga kirib rol o’ynaydi. Role-playing va simulation mashg’ulotlarining bir-biridan farqi Role-playing da muhitning ahamiyati yo’q. Simulation mashg’ulotida esa obrazga kirishish uchun kiyinishlari, atrofni ham akslantirayotgan davr muhitiga moslashlari kerak.

Simulation mashg’uloti talabalarga nafaqat nutqni oshirishda balki, madaniy bilimlarini oshirishga, tili o’rganilayotgan mamlakat haqida ko’proq bilimga ega bo’lishlarga imkon yaratadi . Simulation mashg’uloti ko’pincha talabalarning tilni qanchalik yaxshi o’zlashtirganini tashqi shasxslarga ota –onalar,boshqa talabalarga namoyish qilinganda juda samaralidir. Chunki boshqalar oldida chiqish qilib, boshqa tilda so’zlash talabalarda o’ziga ishonchni oshiradi.

Simulation va Role-playing mashg’ulotlarining afzalliklari;

1.Talabalrni qiziqtiradi va faollashtiradi;

2.Uyatchan talabalarda o’ziga jur’atli bo’lishga o’rgatadi;

3.Talabalarning ijodiy qobiliyatini oshiradi.

Simulation mashg’ulotida yuqorida aytilganidek holat va zamon ruhini berish, madaniyatni o’rgatish ko’zda tutilgan ekan mavzular ham jiddiyroq bo’ladi:

“New Year Spirit”, ”Othello”, “Romeo and Juliet”, “Sherlock Holmes and Doctor Watson”, “Helloween Tales”, “English Customs and Traditions”.

Information exchange- Axborot almashinuvi. Bu mashg’ulot darsning asosiy mashg’uloti boshlanmasdan oldin talabalarning fikrini ingliz tiliga jamlab olish uchun qo’llaniluvchi mashg’ulotlardan biridir. Bunda yonma-yon o’tirgan ikki talaba bir-biriga ingliz tilida yangiliklarni aytadi. Bu istalgan turdagi axborot bo’lishi mumkin. Kollej yoki litseyga oid, shaxsiy, dunyo xabarlari kabilar. Bu mashg’ulot butun guruh bilan birgalikda ham o’tkazilishi mumkin. Bunda o’qituvchi talabalar bilan birgalikda jaxon ahamiyatiga molik biron bir yangilikni muhokama qilishi, talabalardan bu boradagi fikrlarini so’rashi mumkin. Bu yo’l bilan talabaning dunyoda bo’layotgan voqealargan nisbatan o’z shaxsiy fikriga eg abo’lishga o’rgatish , uning siyosiy ongini oshirish juda samaralidir.

Axborot almashinuvi mashg’uloti uch bosqichga bo’linadi:

1. Ma’lumot yig’ish;
2. Ma’lumotni butun guruhga yoki bir talabaga aytish;
3. Ma’lumot yuzasidan fikrlarni eshitish.

Bu mashg’ulotda ma’lumot beruvchi talabaning vazifasi nihoyatda muhim. Chunki agar u ma’lumotni noto’g’ri yetkazsa barcha talabalar yanglish fikrlashi mumkin.

Bu mashg’ulot juda samarali va vaqt borasida ham juda tejamkordir. Chunki qisqa vaqt ichida barcha talabalar ingliz tilida axborot tinglash va gapirish imkoniyatiga ega bo’ladi. Biron muammoni hal qilish uchun maslahatlar beradi, ingliz tilini o’z ona tilidek muloqot uchun qo’llay boshlaydi va chet tilining ahamiyatini chuqur anglab yetadi.

Interview- Suhbat. Bunday mashg’ulotda talabalar istalgan odamdan istalgan mavzuda intervyu oladi. Bu mashg’ulotda o’qituvchi talabaga to’la mustaqillik berishi lozim. Bunda talaba ingliz tilini faqat darsda emas darsdan

tashqarida ham tabiiy muhitda qo’llay olishni o’rganadi. Intervyu natijalarini talaba darsda o’z guruhdoshlariga prezintatsiya qilib berishi mumkin. Shuningdek talabalar dars davomida bir-birlaridan intervyu olishlari mumkin. Bunda ular tez savol berishni va hozirjavoblikni o’rganadi.

Intervyu mashg’ulotining yana bir turida talabalar ozroq improvizatsiya qilishadi. Bunda har bir talaba o’zi juda yaxshi bilgan inson- yozuvchi, shoir, qo’shiqchi, aktyor bo’ladi va guruhdoshlarining savollariga javob beradi. Ular bu yo’l bilan ingliz tilida bir insonning xarakterini ochib berishni o’rganadi. Bu kabi mashg’ulotlarni talabalar bilan birgalikda og’irroq mavzuni o’rgangandan keyin o’tkazish juda yaxshi natija beradi. Talabalar bir vaqtning o’zida ham dam olib, ham ingliz tilida muloqot qiladi.

Creating a story- Hikoya tuzish

Bu mashg’ulot uchun talabalar 4-5 kishilik kichik guruhlarga ajratiladi. Ular o’zaro hamkorlikda bir hikoya tuzib berishlari kerak. Hikoya tuzish topshirig’i quyidagicha berilishi mumkin.

1. Make up a story by the picture. Bunda talabalar berilgan rasmdagi manzara, insonlar holatiga qarab hikoya tuzadi;

2. Make up a story using new words. Bunda talabalar yangi so’zlarni qo’llagan holda qiziqarli hikoya tuzishlari lozim bo’ladi;

3. Make up a story for given situation. Bunda talabalarga turli vaziyatlar beriladi va ular hikoyada shu vaziyatdan chiqib ketishlari lozim.

Berilgan vaqt va jumlalarning umumiy soniga qarab talabalar hikoyani yozma va og’zaki tuzishlari mumkin. Hikoya yozma yozilsada ammo uni tuzgan guruh hikoyani og’zaki so’zlab berishlari ham kerak. Shuningdek hikoyani so’zlab berishda guruhning barcha a’zolari qatnashishlari shart. Bu mashg’ulot talabalarning tasavvurini boyitib, ijodiy fikrlash qobiliyatini oshiradi va hikoyani intonatsiya bilan so’zlashni o’rganadi. Talabalarning hikoyasini baholashda nafaqat hikoyani to’g’ri tuzilganligiga balki, uning qanchalik qiziqarli ekanligi va talabalar uni qanchalik qiziqarli qilib so’zlab bera olganliklariga ham e’tibor berilishi lozim.

Story completion- Hikoyani tugatish. Bu mashg’ulot uchun ham talabalar kichik guruhlarga bo’linadi. Guruhlar soniga qarab o’qituvchi bir hikoyani qismlarga bo’lib chiqadi. Har bir guruhga hikoyaning bir qismini topshiradi.

1. Hikoyaning boshi tushgan guruhga hikoyani tugatishni;
2. Hikoyaning o’rtasi tushgan guruh yoki guruhlarga hikoyani boshi va oxirini yozishni;
3. Hikoyaning oxiri tushgan guruhga hikoyani boshini yozishni topshiradi. Bu mashg’ulotda talabaning topqirligi, tasavvuri boyligi sinovdan o’tkaziladi.

Hikoyani tugatish mashg’ulotining yana bir turida o’qituvchi bir hikoyani boshlaydi va 3-4 gapdan so’ng talabalarga birma-bir davom ettirish navbatini beradi va shu yo’l bilan butun guruh bir hikoyani oxiriga yetkazadi. O’qituvchi hikoyani qanday mavzuda boshlashi ahamiyatsiz, muhimi talabalar uni qiziqarli

davom ettirishi kerak. Ular bu hikoyada o’zlari ham qahramon bo’lishlari mumkin. Talabalar hikoya voqealarini istalgan tomonga burib yuborishi mumkin.

Story telling- Hikoya so’zlab berish. Bu mashg’ulotda talabalar kimdandir eshitgan hikoyasi, ertagi, voqeasini qisqartirgan holda so’zlab beradi. Talabalar o’zlari hikoya tuzishlari ham mumkin. Bu mashg’ulotni talabaning ingliz tilini qay darajada o’zlashtirayotganini aniqlash uchun vaqti-vaqti bilan o’tkazish kerak. Bu mashg’ulot talabaning ijodiy qobiliyatini o’stiradi. Ular ingliz tilida hikoya qilib berish san’atini o’rganadi. Shuningdek hikoyani intonatsiya bilan so’zlash qobiliyati oshadi.

Hikoya so’zlab berish mashg’ulotida nafaqat hikoya va ertaklar balki, latifalar ham so’zlab berish mumkin. Bu mashg’ulotni talabalarning fikrini jamlab olishlari uchun dars boshida yoki qiyin mavzudan keyin zerikib qolmasliklari uchun o’tkazish mumkin.

Reporting- Hisobot berish. Talabalarga darsga gazeta va jurnallarni o’qib kelish topshirig’i beriladi. Bunda talabalar o’zlari uchun eng qiziqarli bo’lgan yangiliklarni guruhdoshlariga so’zlab beradi. Shuning dek tayyorlangan talaba yoki talabalar o’z hayotidagi yoki guruhdagi yangiliklarni aytishi ham mumkin. Bunda yangilik tayyorlagan talaba aniq, bexato hisobot tayyorlashi va uni tushunali qilib so’zlab berishi kerak. Uni tinglagan boshqa guruhdoshlari ma’lumotlarni to’g’ri qabul qilishi kerak. Bu mashgu’lot talabalarga o’z guruhdoshlari oldida mas’uliyatni his etishga o’rgatadi.

Hisobot beruvchi talaba o’z talaffuzi va nutqi ustida ishlaydi. Boshqa talabalar esa diqqat qilish va tinglab tushunish qobiliyatini yaxshilaydi.

Hisobot berish mashg’ulotini doimiy tarzda o’tkazish juda yaxshi samara beradi. Shu bilan birga hisobot seruvchi talabalar bir nechta bo’lishi mumkin. Ularning biriga litsey yangiliklar, yana biriga yurtimizda bo’layotgan hodisalar tafsiloti va uchunchisiga dunyo yangiliklarini tayyorlash vazifasini topshirish maqsadga mufofiq bo’ladi.

If I were…- Agar men…

Bu mashg’ulot juda qiziqarli, tasavvurni boyituvshi, atrofdagi bo’layotgan voqealarga nisbatan qarashlarini aniqlashga yordam beruvchi mashg’ulotdir. Bunda o’qituvchi talabaga istalgan “Agar” degan vaziyatni beradi. Talaba esa ushbu vaziyatda nima qilishini o’ylab aytishi kerak. Masalan:

- If you were a billionaire what would you do?
- If you get lost in the forest what would you do?

O’z o’rnida talabaga javob nechta gapdan iborat bo’lishi kabi shartlar ham qo’yiladi.

Retelling the Film- Filmni hikoya qilib berish

Bu mashg’ulotda talabalarga filmdan parcha namoyish etiladi. Parcha ko’pi bilan 30 daqiqalik bo’lishi kerak. Bu vaqtda talabalar filmning asosiy g’oyasi haqida tushunchaga ega bo’lishlari lozim. So’ngra talabalardan film tafsilotlari haqida so’raladi. Masalan:

- Describe the house of hero;

- Describe the character of the hero/heroine you liked;
- Retell the dialogue in indirect speech.

Ushbu mashg’ulot talabaning tinglab tushunish va so’zlab berish qobiliyatini oshirish uchun juda samaralidir.

Xulosa. Interfaol metodlar ingliz tilini o‘qitishda talabaning dars jarayonidagi faol ishtirokini ta’minlab, tilni muloqot vositasi sifatida tabiiy sharoitga yaqin kontekstda qo‘llash imkonini kuchaytiradi; jigsaw (zigzag), brainstorming, muhokama, bahs-munozara, rolga kirishish, simulyatsiya, axborot almashinuvi, intervyu va hikoya yaratish kabi texnikalar hamkorlik, mas’uliyatli o‘rganish, tanqidiy fikrlash, argumentatsiya va nutq ravonligini tizimli ravishda rivojlantirishi bilan ajralib turadi. Mazkur yondashuvlarda o‘qituvchi axborot manbai emas, balki jarayonni boshqaruvchi fasilitator sifatida ishlaydi, talabalar esa o‘zaro ta’limiy hamkorlik orqali bilimni qayta ishlaydi va mustahkamlaydi. Shuningdek, metodlarni maqsadga muvofiq tanlash, guruh tarkibini oqilona shakllantirish, vaqtni me’yorida taqsimlash hamda baholashni aniq mezonlar bilan qo‘llab-quvvatlash interfaol mashg‘ulotlarning samaradorligini oshiradi. Natijada interfaol metodlar talabaning kommunikativ kompetensiyasini kengaytirib, o‘quv motivatsiyasini kuchaytiradi va chet tilini real muloqotda qo‘llashga yo‘naltirilgan barqaror ko‘nikmalarni shakllantiradi.

Adabiyotlar:

1. O’.Hoshimov,I. Yoqubov “Ingliz tilini o’qitish metodikasi’’
2. E.Aronson “ shaxsiyat va jamoat psixologiyasi” 1990, 118-132 bet,
3. E.Aronson “zigzag sinfi” 2008
4. Celce Murcia “Ingliz tilini ikkinchi til sifatida yoki chet tili sifatida o’qitish” 2001 maqola
5. F.E.Osborn “Tasavvur boyligi ”1963
6. Hayriye Kayi “Gapirishni yaxshilovchi mashg’ulotlar”
7. Harmer “Ingliz tili o’qitish nazariyasi” 1984
8. G.S.Xaldarchayeva ‘’Ingliz tilini kreativ yondashuv asosida o’qitish’’o’quv qo’llanma 2023.
9. www.LearnEnglish.org.uk
10.www.jigsaw.net
11.www.languageteasching methods.com

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING KASBIY MAHORATINI OSHIRISHDA IVEN TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISHGA OID METODIK TAVSIYALAR

To‘raeva Oygul Siroj qizi,
Buxoro davla universiteti tadqiqotchisi

Mazkur maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirishda IVEN texnologiyasidan samarali foydalanishning metodik asoslari yoritilgan. Ta’lim jarayonida zamonaviy innovatsion yondashuvlarni qo‘llash, xususan IVEN texnologiyasi orqali talabalarning pedagogik kompetensiyalarini shakllantirish, mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv va kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, ushbu texnologiyani amaliyotga joriy etish bosqichlari, dars jarayonida qo‘llash usullari hamda uning samaradorligini oshirishga qaratilgan metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari IVEN texnologiyasi bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi sifatini oshirishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: *IVEN texnologiyasi, kasbiy mahorat, bo‘lajak o‘qituvchi, pedagogik kompetensiya, innovatsion ta’lim, metodik tavsiya, ta’lim samaradorligi, ijodiy fikrlash, pedagogik texnologiya, kasbiy tayyorgarlik.*

МЕТОДИЧЕСКИЕ РЕКОМЕНДАЦИИ ПО ИСПОЛЬЗОВАНИЮ ТЕХНОЛОГИИ IVEN ДЛЯ ПОВЫШЕНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО МАСТЕРСТВА БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ

В данной статье освещены методические основы эффективного использования технологии Ивен в повышении профессионального мастерства будущих педагогов. Проанализированы возможности применения современных инновационных подходов в образовательном процессе, в частности, формирования педагогических компетенций учащихся, развития самостоятельного мышления, творческого подхода и профессиональных навыков с помощью технологии Ивен. Также разработаны этапы внедрения данной технологии в практику, способы ее применения в процессе урока, а также методические рекомендации, направленные на повышение ее эффективности. Результаты исследования показывают, что технология Iven играет важную роль в повышении качества профессиональной подготовки будущих учителей.

Ключевые слова: *технология Ивен, профессионализм, будущий педагог, педагогическая компетентность, инновационное образование, методические рекомендации, эффективность обучения, творческое мышление, педагогическая технология, профессиональная подготовка.*

METHODOLOGICAL RECOMMENDATIONS ON USING IVEN TECHNOLOGY TO ENHANCE THE PROFESSIONAL SKILLS OF FUTURE TEACHERS

This article covers the methodological foundations of the effective use of iven technology in improving the professional skills of future teachers. The possibilities of applying modern innovative approaches to the educational process, in particular the formation of pedagogical competencies of students through IVEN technology, the development of independent thinking, creative approach and professional skills, have been analyzed. Also, stages of implementation of this technology in practice, methods of application in the course of the lesson and methodological recommendations aimed at improving its effectiveness have been developed. The results of the study show that iven technology is important in improving the quality of professional training of future teachers.

Keywords: *iven technology, professional skills, future teacher, pedagogical competence, innovative education, methodological recommendation, educational effectiveness, creative thinking, pedagogical technology, professional training.*

Kirish. Bugungi kunda jamiyat taraqqiyotining jadal sur’atlarda rivojlanishi ta’lim tizimi oldiga yangi va dolzarb vazifalarni qo‘ymoqda. Xususan, raqobatbardosh, yuqori malakali, mustaqil fikrlay oladigan hamda innovatsion yondashuvlarga ega bo‘lgan o‘qituvchilarni tayyorlash masalasi ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Zero, ta’lim sifati avvalo o‘qituvchining kasbiy mahorati, pedagogik kompetentligi va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish ko‘nikmasiga bevosita bog‘liqdir.

O‘zbekiston Respublikasida ta’lim sohasini tubdan takomillashtirish, uni xalqaro standartlar darajasiga olib chiqishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayoniga innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu esa bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini yangi bosqichga olib chiqishni talab etadi. Shu nuqtayi nazardan, ta’lim jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni, xususan IVEN texnologiyasini joriy etish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Mazkur texnologiya talabalarning faol ishtirokini ta’minlash, ularda tahliliy va ijodiy fikrlashni rivojlantirish, mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirish hamda kasbiy kompetensiyalarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Ayniqsa, pedagogik ta’lim yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun IVEN texnologiyasi nazariy bilimlarni amaliyot bilan uyg‘unlashtirishda samarali vosita hisoblanadi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirishda IVEN texnologiyasidan foydalanishning ilmiy-metodik asoslarini ishlab chiqish, uni dars jarayoniga tatbiq etish mexanizmlarini takomillashtirish hamda samaradorligini tahlil qilish mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi hisoblanadi. Maqolada IVEN texnologiyasining mazmuni, afzalliklari va uni qo‘llashga oid metodik tavsiyalar yoritiladi.

Mavzuning dolzarbligi. Jahon ta’lim makonida kechayotgan global o‘zgarishlar, raqamli transformatsiya jarayonlari va ta’lim mazmunining yangilanishi bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy mahoratiga nisbatan yangi talablarni ilgari surmoqda. Zamonaviy o‘qituvchi nafaqat o‘z fanini chuqur bilishi, balki innovatsion pedagogik texnologiyalardan samarali foydalana olishi, ta’lim jarayonini interaktiv va kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil eta olishi zarur. Shu bois, pedagog kadrlarni tayyorlash tizimida ularning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Mamlakatimizda ta’lim sohasini modernizatsiya qilish, uni xalqaro standartlar asosida rivojlantirishga qaratilgan islohotlar izchil amalga oshirilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish, o‘quv jarayoniga zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Bu esa pedagogika yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalarning kasbiy tayyorgarligini yangi yondashuvlar asosida takomillashtirishni talab etadi.

Adabiyotlar tahlili. Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy mahoratini rivojlantirish muammosi jahon pedagogikasida keng o‘rganilgan ilmiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Xorijiy tadqiqotlarda o‘qituvchi kompetentligi, innovatsion ta’lim texnologiyalari va interaktiv metodlarning samaradorligi masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Xususan, Lee Shulman tomonidan ilgari surilgan “Pedagogical Content Knowledge” konsepsiyasi o‘qituvchining kasbiy mahoratini fan bilimlari va pedagogik bilimlar uyg‘unligida ko‘rib chiqadi. Ushbu yondashuv bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda nazariya va amaliyot integratsiyasini ta’minlash zarurligini asoslaydi. Shuningdek, Donald Schönning “refleksiv amaliyot” g‘oyasi o‘qituvchining o‘z faoliyatini tahlil qilish va takomillashtirish orqali kasbiy o‘sishini ta’minlashini ta’kidlaydi. Zamonaviy ta’lim texnologiyalarining pedagogik jarayondagi o‘rni haqida Michael Fullan ta’lim islohotlari sharoitida innovatsion yondashuvlarning ahamiyatini ilmiy jihatdan asoslab bergan. IVEN texnologiyasiga mazmunan yaqin bo‘lgan interaktiv va hamkorlikka asoslangan ta’lim modellari xorijiy tadqiqotlarda konstruktivizm g‘oyalari asosida tahlil etilgan. Bunday yondashuvlar talabalarning faol ishtirokini ta’minlash, muammoli vaziyatlarni hal qilish va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qilishi qayd etilgan.

MDH mamlakatlari olimlari ishlarida ham bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini innovatsion texnologiyalar asosida takomillashtirish masalalari keng yoritilgan. Jumladan, Vladimir Slastyonin pedagogik kompetentlikni o‘qituvchining integrativ sifati sifatida talqin etadi va uni shakllantirishda faol ta’lim texnologiyalarining o‘rnini asoslaydi. Valery Serikov shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim konsepsiyasi doirasida bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy rivojlanishida innovatsion metodlarning ahamiyatini ko‘rsatib bergan. Ushbu tadqiqotlar IVEN texnologiyasini qo‘llashning nazariy-metodologik asoslarini belgilashda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Mahalliy olimlar tomonidan ham pedagogik texnologiyalar va kasbiy mahorat masalasi atroflicha o‘rganilgan. Xususan, Nishonboy Xo‘jayev pedagogik texnologiyalarni ta’lim jarayoniga joriy etishning ilmiy-metodik asoslarini ishlab chiqqan. Baxodir Adizov hamda Shavkat Yuldashev ishlarida o‘qituvchining kasbiy kompetentligini shakllantirish, innovatsion yondashuvlarni amaliyotga tatbiq etish masalalari yoritilgan. Ular ta’lim jarayonida interaktiv metodlardan foydalanish bo‘lajak o‘qituvchilarning ijodiy faolligi va mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishini ta’kidlaydilar.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, xorijiy va MDH tadqiqotlarida innovatsion ta’lim texnologiyalarining nazariy asoslari yetarlicha yoritilgan bo‘lsa-da, IVEN texnologiyasini bevosita bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirish kontekstida qo‘llashga oid maxsus metodik tavsiyalar yetarli darajada ishlab

chiqilmagan. Mahalliy tadqiqotlarda esa zamonaviy pedagogik texnologiyalar umumiy jihatdan tahlil etilgan bo‘lib, IVEN texnologiyasining imkoniyatlari alohida kompleks tadqiqot obyekti sifatida kam o‘rganilgan.

Shu jihatdan, mazkur maqolada IVEN texnologiyasidan foydalanishning metodik jihatlarini aniqlash, uning bo‘lajak o‘qituvchilar kasbiy mahoratini oshirishdagi samaradorligini asoslash ilmiy jihatdan muhim vazifa hisoblanadi.

Asosiy qism. IVEN XX asrda Genrix Altshuller tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, muammoli vaziyatlarni tizimli va ijodiy hal etishga qaratilgan innovatsion metodologiyadir. IVEN texnologiyasining asosiy g‘oyasi - har qanday murakkab muammo ichki ziddiyatlarga ega bo‘ladi va ushbu ziddiyatlarni aniqlash hamda bartaraf etish orqali samarali yechim topish mumkin.

Pedagogik jarayonda IVEN:

- ijodiy fikrlashni rivojlantiradi
- muammoli vaziyatlarni tahlil qilish ko‘nikmasini shakllantiradi
- nostandart yechimlar ishlab chiqishga o‘rgatadi
- refleksiv va tanqidiy tafakkurni kuchaytiradi

IVEN texnologiyasini qo‘llashning maqsadi

Bo‘lajak o‘qituvchilarda:

- kasbiy muammolarni hal etish kompetensiyasini rivojlantirish
- pedagogik vaziyatlarni tizimli tahlil qilish malakasini shakllantirish
- kreativ pedagogik qarorlar qabul qilish ko‘nikmasini rivojlantirish
- innovatsion dars loyihalash qobiliyatini oshirish

IVEN **texnologiyasining asosiy tamoyillari** (1-rasmga qarang).

1-rasm. IVEN texnologiyasining asosiy tamoyillari

Quyida IVEN texnologiyasini qo‘llash bosqichlari jadval ko‘rinishida keltiriladi (bo‘lajak tarbiyachilarning kasbiy mahoratini oshirish jarayoniga moslashtirildi.

IVEN texnologiyasini qo‘llash bosqichlari

Bosqich nomi	Bosqich mazmuni	O‘qituvchi faoliyati	Talaba faoliyati	Kutilayotgan natija
Muammoni aniqlash	Pedagogik vaziyatni tahlil qilish va muammoni aniq formulalash	Muammoli vaziyat yaratadi, savollar beradi	Muammoni aniqlaydi, fikr bildiradi	Muammo mohiyati anglanadi
Ziddiyatni aniqlash	Qarama-qarshiliklarni belgilash (“Agar…, lekin…”)	Ziddiyatli savollar beradi, yo‘naltiradi	Ichki va tashqi ziddiyatlarni ajratadi	Tizimli fikrlash shakllanadi
Ideal yakuniy natijani (IYN) belgilash	Eng maqbul natijani tasavvur qilish	“Ideal natija qanday?” savolini qo‘yadi	Eng samarali natija modelini taklif etadi	Maqsad aniq belgilanadi
Resurslarni aniqlash	Mavjud imkoniyat va vositalarni tahlil	Resurslarni sanab o‘tishga	Ichki va tashqi resurslarni	Imkoniyatlardan samarali

	qilish	yo‘naltiradi	aniqlaydi	foydalanish ko‘nikmasi rivojlanadi
Ijodiy yechim ishlab chiqish	TRIZ usullaridan foydalanib yechim topish	TRIZ metodlarini tushuntiradi (teskari fikrlash, analogiya va b.)	Nostandart yechimlar ishlab chiqadi	Kreativ fikrlash rivojlanadi
Yechimni baholash va refleksiya	Variantlarni solishtirish va optimalini tanlash	Baholash mezonlarini belgilaydi	Yechimlarni tahlil qiladi, xulosa chiqaradi	Refleksiv kompetensiya shakllanadi

IVEN texnologiyasi asoschisi Genrix Altshuller tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, mazkur bosqichlar pedagogik jarayonda muammoli vaziyatlarni tizimli va ijodiy hal etishga xizmat qiladi.

Amaliy mashg‘ulot namunasi tayyorlandi (2-jadvalga qarang).

2-jadval.

Amaliy mashg‘ulot namunasi

Tarkibiy qism	Mazmuni
Mavzu	Intizom muammosini kreativ hal qilish
Vaziyat	Dars jarayonida talabalar faol emas, ishtirok sust
Ziddiyat	1) Faollikni oshirish kerak 2) Vaqt cheklangan
Ideal natija	1) Talabalar o‘zlari faol bo‘ladi 2) O‘qituvchi minimal aralashadi
Yechim variantlari	Rolli o‘yin, Bahs-munozara, Rag‘batlantiruvchi mikro-topshiriqlar
Refleksiya savollari	1) Qaysi usul samarali bo‘ldi? 2) Nima sababdan?

IVEN texnologiyasi bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirishda samarali pedagogik vosita hisoblanadi. U interfaollik, vizuallik, elektron ta’lim muhiti va nazorat-refleksiya jarayonlarini uyg‘unlashtirib, ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Darsni loyihalashda: muammoli vaziyatlardan foydalanish; har bir mashg‘ulotda ziddiyatli savollar kiritish; ijodiy topshiriqlar ulushini oshirish

Talabalar faoliyatini tashkil etishda:

-guruhli muhokama

-keys-stadi asosida ishlash

-tahliliy savollar berish

Baholashda:

-jarayonni baholash

-kreativlik mezonlarini kiritish

-o‘z-o‘zini baholashni joriy etish

TRIZ texnologiyasini qo‘llash natijasida bo‘lajak o‘qituvchilarda:

-kreativ fikrlash

-muammoli vaziyatlarni tizimli tahlil qilish

-pedagogik ziddiyatlarni aniqlash

-innovatsion qarorlar qabul qilish

-refleksiv yondashuv shakllanadi.

TRIZ texnologiyasi bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirishda samarali innovatsion metod hisoblanadi. Mazkur yondashuv pedagogik jarayonni ijodiy va tizimli tashkil etish, muammoli vaziyatlarni samarali hal etish hamda raqobatbardosh mutaxassis tayyorlash imkonini beradi.

Xulosa. Amalda kuzatishlar ayrim hollarda bo‘lajak o‘qituvchilarda nazariy bilimlar yetarli bo‘lgani holda, ularni amaliyotga samarali tatbiq etish, dars jarayonini zamonaviy talablar asosida tashkil etish ko‘nikmalari yetarli darajada shakllanmagan bo‘ladi. Shu nuqtayi nazardan, ta’lim jarayoniga IVEN texnologiyasini joriy etish orqali talabalarning faolligi, mustaqil fikrlashi, tahliliy yondashuvi va kasbiy refleksiyasini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. IVEN texnologiyasi bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirishda interaktivlik, hamkorlik, muammoli vaziyatlarni hal qilish va amaliyotga yo‘naltirilgan faoliyatni ta’minlash imkoniyatini yaratadi. Mazkur texnologiyani pedagogik ta’lim jarayoniga maqsadli va tizimli ravishda joriy etish bo‘lajak mutaxassislarning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Shuning uchun ham bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirishda IVEN texnologiyasidan foydalanishga oid metodik tavsiyalarni ishlab chiqish, uning samaradorligini ilmiy jihatdan asoslash va amaliyotga tatbiq etish masalasi hozirgi bosqichda dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. Zaripova G.K., Qobilov K.H., Toyirova U.I. *Using Interactive Methods of New Pedagogical Technologies in Improving Professional Skills of Teachers*. Journal of New Century Innovations, 50(1), 162–170, 2024. Interactive Methods of New Pedagogical Technologies (PDF)
2. Jumayev A. *Innovatsion ta’limni rivojlantirishda pedagogik texnologiyaning mohiyati va muammolari*. International Journal of Science and Technology, 2024. DOI:10.1808/ztkmbk78.
3. Ergasheva M.A., Shaydullayeva K.S. *Yangi pedagogik texnologiyalar va o‘qitishda innovatsiyalar*, 2024.
4. Yeshmuratova A.A. *Methodology for Using Interactive and Modern Digital Educational Technologies…* Current Research Journal of Pedagogics, 5(12), 33–39, 2024. DOI:10.37547/pedagogics-crjp-05-12-07.
5. Zaripova G.K., Saidov U. *Use of New Pedagogical Technologies in Teaching Information and Communication Technologies…* Journal of New Century Innovations, 50(1), 171–182, 2024.
6. Bobojonova J.R. *Texnologiya fanini o‘qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalar samaradorligi*. World Scientific Research Journal, 38(1), 398–404, 2025.
7. Raximova Z. *Innovatsion pedagogik texnologiyalar*. TADQIQOTLAR jurnali, 2025.
8. Nurmurodova M.T., Olimov T.H. *Ta’lim jarayonida o‘qituvchi-o‘quvchi munosabatlarini takomillashtirishda innovatsion yondashuvlar*. TADQIQOTLAR jurnali, 2025.
9. Rasulova Y.M. *Innovatsion pedagogik texnologiyalar va ularning ta’lim sifatini oshirishdagi ahamiyati*. USTOZLAR UCHUN jurnali, 83(1), 2025.

MAKTABGACHA VA BOSHLANG‘ICH TA’LIM

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA MANTIQIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHDA MASALALARNING AHAMIYATI

Abdirasulova Dilshoda Otabek qizi,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti Pedagogika fakulteti Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (Boshlang’ich ta’lim) yo’nalishi 1-bosqich magistranti
abdirasulovadilshoda@gmail.com

Bu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilaring mantiqiy qobiliyatini rivojlantirishda masalalarning ahamiyati haqida so’z boradi. Maqolada an’anaviy ta’limdan farqli o‘laroq, o‘quvchilarda algoritmlardan tashqari mustaqil mulohaza yuritish ko‘nikmalarini shakllantirishning samarali metodlari, jumladan, nostandart topshiriqlar va mantiqiy masalarning roli ilmiy asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari mantiqiy fikrlashning o‘quv fanlarini o‘zlashtirish samaradorligiga ta’sirini ko’rsatadi.

Kalit so‘zlar: *mantiqiy fikrlash, masalalar, boshlang‘ich ta’lim, rivojlanish, nostandart masalalar, didaktik o‘yinlar, intellektual salohiyat.*

ЗНАЧИМОСТЬ ПРОБЛЕМ В РАЗВИТИИ ЛОГИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ

В данной статье рассматривается важность проблемного подхода в развитии логических способностей учащихся начальной школы. Статья научно обосновывает эффективные методы развития навыков самостоятельного рассуждения у учащихся, помимо алгоритмов, в отличие от традиционного образования, включая роль нестандартных заданий и логических задач. Результаты исследования показывают влияние логического мышления на эффективность освоения учебных предметов.

Ключевые слова: *логическое мышление, проблемы, начальное образование, развитие, нестандартные проблемы, дидактические игры, интеллектуальный потенциал.*

THE IMPORTANCE OF PROBLEMS IN DEVELOPING LOGICAL THINKING IN ELEMENTARY STUDENTS

This article discusses the importance of problems in developing the logical abilities of primary school students. The article scientifically substantiates effective methods for developing independent reasoning skills in students, in addition to algorithms, in contrast to traditional education, including the role of non-standard tasks and logical problems. The results of the study show the impact of logical thinking on the effectiveness of mastering academic subjects.

Keywords: *logical thinking, problems, primary education, development, non-standard problems, didactic games, intellectual potential.*

Kirish. Tadqiqotimiz natijalar shuni ko’rsatadiki, ko‘p hollarda boshlang‘ich sinf o‘quvchilari o‘quv materiallarini yod olish asosida o’zashtirishga moyil bo’ladilar. Ular ustozlari ortidan ergashib reproduktiv bilim oladilar. Bu esa kelgusida, yuqori sinflarda murakkab fanlarni o‘zlashtirishda qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Binobarin, mantiqiy fikrlashni rivojlantirish nafaqat matematika darslarining, balki butun boshlang‘ich ta’limning ustuvor yo‘nalishi bo‘lishi shart. Ushbu maqolada biz mantiqiy fkrlashlashni shakllantirishning didaktik modelini va uning amaliy natijadorligini tahlil qilamiz. Mantiqiy masalalar inson tafakkurini charxlaydi, tahlil qila olish qobiliyatlarini yuzaga chiqaradi. Sabab-oqibat bog’lanishini tushunishga yordam beradi. Bugungi kunda tezkor rivojlanayotgan zamon ijodkor yosharni tarbiyalashni o’z oldiga maqsad qilib olgani ham bejiz emas.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. O’quvchilaring bilim olish jarayonida tez fikrlay olishlari, mustaqil qaror qabul qila olishlari uchun mantiqiy masalalarning roli nihoyatda katta. Bolalarda rivojlangan bunday qobiliyat ularning teran fikrlay olishi ravon so’zlay olishiga ham zamin hozirlaydi. Hayotimizdagi

murakkabliklarni tushunishlariga ham ko’mak beradi. Erta yoshlik davrida rivojlantrilgan bunday qobiliyat bugungi zamon ta’lim tizimimiz uchun nihoyatda zarur.

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko’rsatadiki, mantiqiy fikrlash shaxsda butun faoliyati davomidagi aqliy faoliyati u quyidagilarda namoyon bo’ladi narsalarni taqqoslashda, umumlashtirishida, narsalar o’rtasidagi bog’lanishlarni anglashlarida ko’rinadi, olim Vigotskyning aytishicha mantiqiy fikrlash ijtimoiy muhit ta’sirida va ta’lim jarayonida birga shakllanadi. Uning fikricha, to’g’ri tashkil etilgan o’quv faoliyati bolalarning aqliy rivojlanishida yetakchi hisoblanadi. Darhaqiqat, kishi jamiyat bilan birga kamol topadi, o’sib ulg’ayadi. Boshlang’ich sinf o’quvchilarining yosh va psixologik xususiyatlarini o’rgangan olim J.Piaget ularning fikrlashi konkret operatsiyalar bosqichida bo’lishini ta’kidlagan,ushbu bosqichda bolalar mantiqiy xulosalarni asosan aniq vaziyatlar, amaliy topshiriqlar asosida va misollar asosida chiqaradilar. Shu sababli masalalar boshlang’ich sinf o’quvchilari uchun mantiqiy fikrlashni rivojlantirishning asosiy vositasi deb olsak xato qilmagan bo’lamiz.

Pedagogik adabiyotlarda, jumladan, N.B.Istomina asarlarida masalani o’quvchining, fikrlash faoliyatini boshqaruvchi va yo’naltiruvchi muhim metodik vosita deb aytib o’tgan. Bundan tashqari masalalar bilish faoliyatini faollashtiruvchi, mustaqil va ijodiy fikrlashni rivojlantiruvchi deb e’tirof etgan. Binobarin, masala yechish jarayonida o’quvchi masala shartini tahlil qiladi, ma’lum va noma’lumni ajratib ko’radi, yechim yo’lini rejalashtiradi va natijani tekshiradi. Masala yechish jarayonining mantiqiy fikrlashni rivojlantirishdagi ahamiyati G.Polya tomonidan ishlab chiqilgan masala yechish bosqichlarida ham ko’zga tashlanadi. U masala yechishni 4 asosiy bosqichga ajratadi. Masalani tushunish, reja tuzish, rejani amalga oshirish va natijani tekshirish. Ushbu jarayonlar o’quvchilarda tahliliy va tanqidiy fikrlash ko’nikmalarini shakllantiradi. O’zbekistonlik pedagog olimlar masalalar orqali o’quvchilarning mantiqiy rivojlantirish mumkin deb hisoblaydilar. R.X.Jo’rayevning fikricha, boshlang’ich ta’limda masalalardan maqsadli va tizimli foydalanish o’quvchilarning aqliy faolligini oshirib bilimlarni ongli o’zlashtirishga ko’maklashadi. Bizda bolalar ongli o’zlashtirishga qaraganda reproduktiv usulda o’zlashtirishga moslashib qolishgan. Matematika o’qitish metodikasi muallifi Jumayevning aytishicha masalalar faqat hisob-kitob emas, balki fikrlash maktabi deya e’tirof etadi. Ne’matov va Rahmonovlarning ta’kidlashicha, boshlang’ich sinflarda masalalar bilan ishlash o’quvchilarda mantiqiy fikrlash, tahlil qilish va mustaqil xulosa chiqarish shakllantirishda muhim omildir. Masalalar bevosita amaliy hayotimiz bog’liq, u real vaziyatlarda bizga bilimdan foydalanishga o’rgatadi. Bundan tashqari masala yechish jarayonida aniqlik va mas’uliyat sifatlari shaklllanadi. U yana aytib o’tadiki, masalarni yechish jarayonida oddiydan murakkabga tomon osondan qiyinga qarab yurish maqsadga muvofiqligi ta’kidlangan. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek, agar maktablarda o’qitish metodikasini o’zgartira olmasak, ta’lim sifati ham o’zgarmaydi. Umuman olganda, tadqiqod natijalari olimlarimiz fikrlari shuni ko’rsatiki masalalar ta’lim jarayonining mantiqiy rivojlanishning asosi ta’lim jarayonini modernizatsiya qilishning muhim ilmiy-pedagogik omili sifatida yangi metologik darajada talqin etilishi uchun muhimdir.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotimizning asosiy maqsadi –boshlang’ich sinf o’quvchilarida manqitiy qobiliyatlarini rivojlantirishda masalalarning ahamiyatini aniqlashdir. Tadqiqotda eksperimental-pedagogik metod asos qilib olindi, chunki mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishni amaliy mashg’ulotlarda o’rganish natijalarini ko’rib chiqamiz. Ushbu metododologiyaning tanlanishi nafaqat miqdoriy ko’rsatkichlarni aniqlash, balki ishtirokchilarning tajribasi, munosabati va refleksiv qarashlarni chuqurroq o’rganish zarurati bilan izohlanadi. Shu bois, mazkur yondashuv tadqiqot muammosining murakkab va ko’p qirrali xususiyatiga metodologik jihatdan mos keladi.

Tadqiqot obyekti sifatida boshlang’ich sinf o’quvchilarining mantiqiy fikrlash qobiliyati predmeti uchun asos qilib masalalar yordamida o’quvchilarining mantiqiy fikrlash darajasini oshirish usullari va ularning samaradorligi tanlab olindi. Tadqiqot quyidagi metodlar asosida olib borildi.

1. Nazariy tahlil: Pedagogik adabiyotlar va ilmiy maqolalar orqali boshlang’ich sinf o’quvchilarida mantiqiy fikrlashni rivojlantirishning nazariy asoslarini o’rganish. Masalalarning pedagogik o’rni va ularni o’quv jarayoniga integratsiyalash usullari tahlil qilindi.

2. Eksperimental metod: Sinfda masalalarni yechish mashqlari yordamida mantiqiy fikrlash qbiliyati o’rganildi. Eksperiment 2 bosqichda o’tkazildi pre-test tajribadan oldingi bosqich post-test tajribadan keyingi davrni o’z ichiga oladi. Tajribada tanlangan test chuqur o’ylangan aniq tekshirilgan masala misollarga asoslandi.

3. Pedagogik tajriba: maxsus ishlab chiqilgan masalalar yordamida darslarni tashkil etish (Nostandart misollardan ko’proq foydalanish).

4. Statistik metodlar: tajribadan olgan ma’lumotlarimizni foizli ko’rsatkichlar asosida ko’rib chiqish va xulosalash uchun foydalaniladi. Bu sinov tajribamizning ishonchliligini aniqlash va ko’nikmalardagi o’zgarishlarni midqoriy bilosh imkonini beradi.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Tadqiqot ishtirokchilari 2-3-sinf o’quvchilarini qamrab oldi. Tanlashda o’quvchilarning bilim darajasi ,o’quv materialining yaqinligi hisobga olindi. Tadqiqotda o’quvchilarning ijtimoiy holatlardagi tengliklari ham kuzatildi. Tajriba guruhi ishtirokchilari uchun maxsus misol-topshiriqlar tanlab olindi. O’quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantiradigan misollar asosida darslar olib borildi, boshqa guruhda esa darslar an’anaviy tarzda olib borildi. O’quvchilar masala yechish bosqichlari bilan tanishtirildi. Mantiqiy masalalar umuman masalalar yechishda quyidagi bosqichlarda amal qilish maqsadga muvofiqdir.

1-bosqich Masala mazmuni bilan tanishtirish

2-bosqich Masala yechimini izlash

3-bosqich Masalani yechish

4-bosqich Masala yechimini tekshirish

Bu bosqichlarning barchasi bir-biriga uzviy bog’langan bo’lib ketma-ketlikda amalga oshiriladi. Aniqroq tarzda tushunish uchun bir masalani ko’rib chiqsak, Xonaning to’rt burchagida to’rtta mushuk o’tiribdi. Har bir mushuk qarshisida uchtadan mushuk o’tiribdi. Har bir mushuk dumida bittadan mushuk o’tiribdi. Hammasi bo’lib xonada nechta mushuk bor? Bu masala uy hayvoni mushuk haqida ekanligini o’quvchilar tushunishlari talab etiladi.

2. Masala yechimini izlash. Masala mazmuni bilan tanishgandan so’ng uning yechimiga o’tilishi mumkin o’quvchilar avvaliga ma’lumni no’malumdan ajrata olishlari kerak. Masalani yechishdagi kerakli arifmetik amalni tanlay olishlari, masaladagi bog’lanishlarni aniqlay olishlari talab etiladi. Masalani o’quvchi ongida illustratsiyalash orqali masalani yechish biz uchun qulay.

3. Masalaning yechilishi. Bunda har bir amalni bajara turib nimani topayotganimizni aniq bilishimiz zarur. Masala yechimi og’zaki va yozma shaklda yechilishi mumkin. Masalalarni yechishda og’zaki yechimgaqaraganda yozma tarzda yechish maqsadga muvofiq. Xonaning to’rt burchagida to’rt ta mushuk o’tiribdi, demak, bu xonadagi asosiy mushuklar soni to’rtta. Har bir mushuk qarshisida uch ta mushuk o’tiribdi bu esa yangi mushuklar ekanligini anglatmaydi balki, qolgan uch ta mushuk ni tushunsak xato qilmaymiz. Har bir mushuk dumida bitta mushuk borligi, u ham olihida emas xuddi shu mushuklarning soyalaridir.

4. Masala yechimini tekshirib ko’radigan bo’lsak javobimiz masala berilishidagi barcha shartlarni qanoatlantiradi: ya’ni xonaning to’rt burchagida to’rt mushuk borligi,qarshisidagi mushuklar soni va dumlaridagi mushuklar soniga ham to’g’ri keladigan mutlaqo to’g’ri javobdir.

Muhokama. Tadqiqotda o’quvchilarning ko’rsatkichlarini aniqlash uchun mantiqiy masalalar, nostandart vaziyatli topshiriqlar va tahlilga asoslangan topshiriqlar tanlab olindi. Bu topshiriqlar ishtirokchilarning bilim tezligi, bog’liqliklarini aniqlashi mustaqil qaror qabul qilish va xulosa chiqarish qobiliyatlarini baholashga xizmat qildi.

Tadqiqotimiz uch asosiy bosqichni o’z ichiga oldi. Bular: diagnostik, shakllantiruvchi va xulosalovchi qismlardan.1-bosqichda bolalarning tadqiqotdan oldingi bilim saviyalari aniqlab olindi. 2-bosqichda tajriba guruhida mantiqiy masalalar asosida tashkil etilgan guruhlardagi o’quvchilarning bilimidagi o’zgarishlar kuzatildi. Yakuniy bosqichda dastlabki natijalar va o’zgarishlar o’zaro solishtirildi.

Tadqiqot natijalarining to’g’riligini tekshirish maqsadida takroriy kuzatishlar olib borildi. Tadqiqot jarayonida pedagogik axloqiy me’yorlarga to’liq rioya qilindi, har bir guruh a’zosiga hurmat bilan munosabatda bo’lindi. Guruhlardagi a’zolar ixtiyoriy tarzda tanlab olindi.

Tadqiqot masalalarning boshlang’ich sinf o’quvchilarining mantiqiy fikrlashini rivojlantirishda muhim omil ekanligini isbotladi. Natijalar shuni ko’rsatdiki, tajriba guruhidagi natijalar anchagina yuqori. Bu jarayonda ishtirokchilar tayyor algoritmlardan foydalanmasdan balki masalaning mazmunini chuqurroq anglashga e’tiborini qaratdi. Murakkabroq masalalarni yechishda ketma-ketlikni saqlab qolishga urinishdi. Bundan tashqari og’zaki izohlash ko’nikmalari oshib nutqlari o’sishiga ham yordam berdi. Nazorat guruhida esa o’zgarishlar anchayin sust kechdi.Bu guruhda reproduktiv o’rganish yuqoriligicha qoldi.Ular o’zlahtirilishida,nutqlarida farqlar namoyon bo’ldi. Mazkur tadqiqot pedagogika sohasi bilan bevosita bog’liq bo’lib, masalalarning intelektual qobiliyatni rivojlantirishdagi o’rnini yana bir bor ochib beradi.

Bundan tashqari, boshlang’ich sinflarda masalalarni tanlashda ularning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish zarurligini ham ko’rsatdi. Ularning saviyasiga mos tanlangan topshiriqlar ketma -ketlikda murakkablashib boradi. Bolalardagi kuzatishlardan ko’rindiki, tadqiqot davomida masalalarning turli turlari oddiy, murakkab, mantiqiy, hayotiy mazmundagi masalalar bilan tizimli ishlash bosqichma-bosqich olib borilgani masalalar yechishning to’rt asosiy bosqichiga amal qilish tavsiya etiladi. Olingan natijalar avvalgi ilmiy tadqiqotlar bilan solishtirilganda, boshlang’ich ta’limda masalalardan maqsadli va uzluksiz ravishda foydalanish mantiqiy fikrlashni oshirishning eng samarali yo’llaridan biri ekanligini tasdiqlaydi. Mantiqiy masalalarni qo’llash bilan birga ularni qo’llash uchun ham o’qituvchi qulay pedagogik

sharoit yarata olishi zarur. O’qituvchining metoddik qobiliyati kuchli bo’lib masalalarni samarali qo’llay olsa kutilgan natija yanada yuqori bo’ladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, olib borilgan tadqiqot natijalari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mantiqiy fikrlashni rivojlantirishda masalalarning o‘rni beqiyos ekanligini yaqqol namoyon etdi. Tajriba-sinov ishlari shuni ko‘rsatdiki, dars jarayonida mantiqiy va nostandart masalalardan tizimli va maqsadli foydalanish o‘quvchilarning tahliliy fikrlash, sabab-oqibat bog‘lanishlarini anglash, mustaqil qaror qabul qilish hamda o‘z fikrini asoslab bera olish ko‘nikmalarini sezilarli darajada oshiradi. Ayniqsa, masala yechish jarayonining rejalashtirish, tekshirish va xulosa chiqarish bosqichlari o‘quvchilarda tanqidiy va ijodiy fikrlashning shakllanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Tadqiqot davomida tajriba guruhidagi o‘quvchilarning mantiqiy fikrlash darajasi an’anaviy ta’lim asosida o‘qitilgan nazorat guruhiga nisbatan yuqori ekanligi aniqlandi. Bu esa boshlang‘ich ta’limda reproduktiv yondashuvdan ko‘ra, mantiqiy masalalar va didaktik o‘yinlarga asoslangan faol ta’lim metodlarini qo‘llash zarurligini tasdiqlaydi. Shuningdek, masalalar o‘quvchilarning nutqiy rivojiga, bilimlarni ongli o‘zlashtirishiga va real hayotiy vaziyatlarda qo‘llay olish qobiliyatining shakllanishiga xizmat qiladi.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIGA MIQDORLARNI O‘RGATISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Rashidova Marjona Sadriddin qizi,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti 2-kurs magistranti

Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga miqdorlar tushunchasini o‘qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanish metodikasining ilmiy-nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan. Tadqiqotda miqdorlarni o‘qitish jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalari, jumladan, multimedia vositalari, interaktiv ta’lim platformalari va raqamli didaktik resurslardan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari tahlil qilingan. Axborot texnologiyalarini qo‘llash orqali o‘quvchilarning bilish faolligi, mantiqiy fikrlashi hamda mustaqil ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: *boshlang‘ich ta’lim, miqdor tushunchasi, axborot texnologiyalari, raqamli ta’lim, metodika, ta’lim samaradorligi.*

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ПРИ ОБУЧЕНИИ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ КОЛИЧЕСТВЕННЫМ ПОНЯТИЯМ

В статье рассматриваются научно-теоретические и практические основы методики использования информационных технологий в обучении величинам учащихся начальных классов. Проанализированы педагогические возможности применения мультимедийных средств, интерактивных образовательных платформ и цифровых дидактических ресурсов в учебном процессе. Особое внимание уделяется роли информационных технологий в развитии познавательной активности, логического мышления и навыков самостоятельной работы учащихся

Ключевые слова: *начальное образование, понятие величин, информационные технологии, цифровое образование, методика, эффективность обучения.*

USING INFORMATION TECHNOLOGIES IN TEACHING PRIMARY SCHOOL STUDENTS QUANTITY CONCEPTS

This article examines the scientific-theoretical and practical foundations of the methodology for using information technologies in teaching quantities to primary school students. The study analyzes the pedagogical potential of multimedia tools, interactive educational platforms, and digital didactic resources in the learning process. Special attention is given to the role of information technologies in enhancing students’ cognitive activity, logical thinking, and independent learning skills.

Keywords: *primary education, quantity concepts, information technologies, digital education, methodology, learning effectiveness.*

Kirish. Bugungi kunda ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, uning sifat va samaradorligini oshirish masalasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichida o‘quvchilarning fundamental bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini shakllantirishda innovatsion yondashuvlar va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtayi nazardan, boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga matematik tushunchalarni, xususan, miqdorlar va ularning o‘lchov birliklarini o‘rgatishda axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish masalasi dolzarb pedagogik muammo sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. Miqdor tushunchasi boshlang‘ich matematika kursining asosiy kategoriyalaridan biri bo‘lib, u o‘quvchilarda atrof-muhit hodisalarini miqdoriy jihatdan anglash, taqqoslash, tahlil qilish va umumlashtirish ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Biroq an’anaviy o‘qitish metodlari doirasida miqdorlarni o‘rgatish jarayoni ko‘pincha abstraktlik, ko‘rgazmalilikning yetarli emasligi va o‘quvchilarning yosh psixologik xususiyatlari to‘liq hisobga olinmasligi bilan tavsiflanadi. Natijada o‘quvchilarda miqdorlar mazmunini chuqur anglashda qiyinchiliklar yuzaga keladi.[1:65]

Axborot texnologiyalarining ta’lim jarayoniga jadal kirib kelishi boshlang‘ich sinflarda o‘qitish metodikasini tubdan takomillashtirish imkonini bermoqda. Multimediali vositalar, interaktiv dasturlar, elektron darsliklar, virtual modellar va didaktik o‘yinlar yordamida miqdor tushunchalarini o‘rgatish o‘quvchilarning bilish faolligini oshirish, mavzularni vizual va amaliy asosda o‘zlashtirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, axborot texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, muammoli

vaziyatlarni hal qilish hamda raqamli kompetensiyalarni shakllantirishga imkon yaratadi.O‘zbekiston Respublikasida qabul qilingan ta’lim sohasiga oid normativ-huquqiy hujjatlar, jumladan, “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi hamda umumiy o‘rta ta’limni rivojlantirishga qaratilgan davlat dasturlarida zamonaviy axborot texnologiyalarini ta’lim jarayoniga joriy etish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Mazkur hujjatlar boshlang‘ich ta’limda fanlarni o‘qitish metodikasini innovatsion yondashuvlar asosida takomillashtirish zaruratini ilmiy va amaliy jihatdan asoslab beradi.Shu boisdan, boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga miqdorlarni o‘qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanish metodikasini ilmiy asosda ishlab chiqish, uning samaradorligini pedagogik tajriba-sinovlar orqali aniqlash hamda amaliyotga tatbiq etish mazkur tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.[2:30]

Tadqiqot metodologiyasi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida miqdor tushunchasini shakllantirishning nazariy-pedagogik asoslari. Boshlang‘ich ta’lim bosqichi o‘quvchilarda matematik tushunchalarni shakllantirishning eng muhim davri hisoblanadi. Aynan ushbu bosqichda miqdor tushunchasi o‘quvchilarning tafakkurida shakllanib, keyingi matematik bilimlarning poydevorini tashkil etadi. Miqdor tushunchasi orqali o‘quvchilar predmetlarning soni, o‘lchami, massasi, hajmi va vaqtga bog‘liq xususiyatlarini anglay boshlaydilar.[3:2]

“Sanab chiqamiz” interaktiv mashqi. Darsda bolalarga ekranda turli obyektlar ko‘rsatiladi. Ularning sonini hisoblash, guruhlash va qo‘shish mashqlari bajariladi. Masalan, ekranda 5 olma va 3 banan bo‘lsa, bolalar umumiy miqdorni aniqlaydilar.

Onlayn viktorina orqali mustaqil baholash. Miqdor tushunchasi bo‘yicha onlayn savollar beriladi. Bolalar javoblarini kompyuter yoki planshet orqali yuboradilar. Uqituvchi natijalarni tahlil qilib, individual yordam berish imkoniga ega bo‘ladi.

Interaktiv 3D modellar bilan amaliy mashq Bolalar turli 3D obyektlarni harakatlantirib, qo‘shish va ayirish operatsiyalarini amalga oshiradilar. Bu usul amaliy tajriba va nazariy bilimlarni uyg‘unlashtirishga xizmat qiladi. “Miqdorlarni taqsimlaymiz” o‘yini. Bolalar ekrandagi virtual obyektlarni guruhlarga taqsimlaydilar. Masalan, 12 tovuqni 3 kishiga teng taqsimlash. Bu mashq muammoli fikrlash va amaliy hisoblashni rivojlantiradi.[4:4]

Pedagogik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari miqdorlarni abstrakt tarzda emas, balki konkret, ko‘rgazmali va amaliy faoliyat asosida samarali o‘zlashtiradilar. Shu sababli miqdorlarni o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, xususan, axborot texnologiyalaridan foydalanish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining psixologik xususiyatlari – obrazli tafakkurning ustunligi, qiziqishning tez uyg‘onishi va tez so‘nishi, diqqatning beqarorligi – o‘qitish jarayonida interaktiv va vizual metodlarni qo‘llashni taqozo etadi. Axborot texnologiyalari aynan shu ehtiyojlarni qondiruvchi samarali vosita hisoblanadi..

Miqdorlarni o‘qitishda axborot texnologiyalarining mazmuni va turlari.

Axborot texnologiyalari ta’lim jarayonida axborotni yig‘ish, qayta ishlash, uzatish va saqlashga xizmat qiluvchi texnik va dasturiy vositalar majmuasidir. Boshlang‘ich ta’limda ushbu texnologiyalar o‘quvchilarning bilim olish jarayonini yengillashtiradi hamda o‘quv materialining samarali o‘zlashtirilishiga xizmat qiladi.

Miqdorlarni o‘qitishda qo‘llaniladigan axborot texnologiyalariga quyidagilar kiradi:

a. multimediya taqdimotlari;
b. interaktiv elektron darsliklar;
c. virtual o‘lchov vositalari;
d. ta’limiy kompyuter dasturlari;
e. onlayn test va mashqlar;
f. animatsion va simulyatsion materiallar.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Mazkur texnologiyalar yordamida miqdorlarning turlari – uzunlik, massa, vaqt, hajm va yuzani o‘rganish jarayoni yanada tushunarli va qiziqarli bo‘ladi. Masalan, virtual chizg‘ich yoki tarozi yordamida o‘quvchilar o‘lchash jarayonini bevosita amaliy tarzda bajarish imkoniga ega bo‘ladilar. Miqdorlarni o‘qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanishning didaktik imkoniyatlari

Axborot texnologiyalarining didaktik imkoniyatlari ularning o‘quv jarayoniga ta’siri bilan belgilanadi. Birinchidan, axborot texnologiyalari o‘quvchilarning bilim olishga bo‘lgan qiziqishini oshiradi. Rangli tasvirlar, animatsiyalar va interaktiv mashqlar o‘quvchilarni dars jarayoniga faol jalb etadi.

Multimedia vositalari – prezentatsiyalar, videoroliklar, animatsiyalar, interaktiv slaydlar – bolalarning nazariy bilimini ko‘rgazmali tarzda taqdim etish imkonini beradi[5:3]. Masalan, PowerPoint yoki Canva orqali tayyorlangan slaydlar:

1. obyektlarning miqdorini solishtirish,
2. qo‘shish va ayirish mashqlari,
3. turli ssenariylar orqali muammoli vazifalarni hal qilishni,
4. boshlang‘ich sinf bolalarida diqqat va qiziqishni oshirishga xizmat qiladi

Interaktiv doshka va planshetlar bolalarning faollik va mustaqilligini ta’minlaydi. Dars ishlanmalarida bolalar:

- grafiklar va sxemalar bilan ishlaydilar,
- obyektlarni harakatlantirib qo‘shish va ayirish mashqlarini bajaradilar,
- turli ssenariylar orqali muammoli vazifalarni hal qiladilar.

Masalan, 7 ta olma va 3 ta bananni umumiy miqdorini aniqlash uchun bolalar interaktiv ekranda obyektlarni tuzatadilar. Bu usul nazariy bilimni amaliy ko‘nikmalar bilan uyg‘unlashtirish va bolalarning konkret fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda samarali hisoblanadi. Dars ishlanmalarida onlayn platformalar (Kahoot, Quizizz, Socrative) orqali bolalarning bilim darajasi interaktiv tarzda baholanadi. Masalan:

- bolalar miqdor tushunchasi bo‘yicha savollarga javob beradilar,
- dars davomida qaysi masalalarda qiyinchilik borligini aniqlash mumkin,
- individual yordam ko‘rsatish imkoniyati paydo bo‘ladi.

Shu tarzda onlayn platformalar bolalarning muammoli fikrlash, mustaqil va ijodiy ishlash qobiliyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ikkinchidan, axborot texnologiyalari o‘quvchilarning mustaqil ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Elektron topshiriqlarni bajarish jarayonida o‘quvchi o‘z xatolarini mustaqil aniqlaydi va tuzatadi. Bu esa bilimlarning ongli o‘zlashtirilishiga olib keladi.

Uchinchidan, axborot texnologiyalari differensial ta’limni tashkil etish imkonini beradi. Ya’ni, o‘quvchilarning bilim darajasi va individual xususiyatlariga mos topshiriqlarni berish mumkin bo‘ladi. Bu esa ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.[6:5]

Miqdorlarni o‘qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanish metodikasi.

Miqdorlarni o‘qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanish metodikasi ma’lum bosqichlar asosida amalga oshiriladi. Birinchi bosqichda o‘qituvchi darsning maqsadi va vazifalarini aniqlab oladi hamda unga mos axborot texnologiyalarini tanlaydi. Ikkinchi bosqichda yangi mavzu multimediya vositalari yordamida tushuntiriladi. Masalan, uzunlik mavzusida animatsion slaydlar orqali metr, santimetr va millimetr tushunchalari izohlanadi. Vizual materiallar o‘quvchilarning tushunishini osonlashtiradi. Uchinchi bosqichda interaktiv mashqlar bajariladi. O‘quvchilar virtual muhitda miqdorlarni o‘lchash, taqqoslash va guruhlash kabi amaliy topshiriqlarni bajaradilar. Bu jarayon bilimlarning mustahkamlanishiga xizmat qiladi. To‘rtinchi bosqichda bilimlarni nazorat qilish amalga oshiriladi. Elektron testlar va onlayn baholash vositalari orqali o‘quvchilarning bilim darajasi aniqlanadi. Bu esa o‘qituvchiga o‘quv jarayonini tahlil qilish imkonini beradi.Miqdorlarni o‘qitishda axborot texnologiyalarini an’anaviy metodlar bilan uyg‘unlashtirish

Ta’lim jarayonida faqat axborot texnologiyalaridan foydalanish yetarli emas. Ularni an’anaviy o‘qitish metodlari bilan uyg‘unlashtirish yuqori samaradorlikni ta’minlaydi. Masalan, real o‘lchov asboblari bilan ishlashni virtual mashqlar bilan birgalikda tashkil etish o‘quvchilarning bilimlarini chuqurlashtiradi. O‘qituvchining pedagogik mahorati bu jarayonda muhim o‘rin tutadi. Axborot texnologiyalari yordamchi vosita sifatida qo‘llanilib, asosiy e’tibor o‘quvchining tafakkurini rivojlantirishga qaratilishi lozim.Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga miqdorlarni o‘qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanish zamonaviy ta’limning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Tadqiqot jarayonida aniqlanganki, axborot texnologiyalarini ta’lim jarayoniga samarali tatbiq etish o‘quvchilarning miqdor tushunchalarini ongli, puxta va barqaror o‘zlashtirishiga xizmat qiladi. Ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda, vizual va interaktiv vositalardan foydalanish ta’lim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.[7:4]

Muhokama. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, axborot texnologiyalari qo‘llanilgan sinflarda o‘quvchilarning bilim darajasi, mustaqil ishlash qobiliyati va darsga bo‘lgan qiziqishi sezilarli darajada oshgan. Bu esa ishlab chiqilgan metodikaning samaradorligini tasdiqlaydi.Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, miqdorlarni o‘qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini kuchaytiradi, mustaqil fikrlash, tahlil qilish va xulosa chiqarish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Interaktiv mashqlar, multimediya taqdimotlari hamda virtual o‘lchov vositalari orqali o‘quvchilar miqdorlarning mazmunini amaliy faoliyat asosida o‘zlashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.Shuningdek, ishlab chiqilgan metodika axborot texnologiyalarini an’anaviy o‘qitish usullari bilan uyg‘unlashtirishga asoslangan bo‘lib, bu holat ta’lim jarayonining uzluksizligi va tizimliligini ta’minlaydi. Tajriba-sinov ishlari natijalari axborot texnologiyalari qo‘llanilgan sinflarda o‘quvchilarning bilim darajasi an’anaviy usulda o‘qitilgan sinflarga nisbatan yuqori ekanligini tasdiqladi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga miqdorlarni o‘qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanish metodikasi ta’lim sifatini oshirishga, o‘quvchilarning matematik savodxonligini rivojlantirishga va ularning kelgusidagi ta’lim bosqichlariga mustahkam zamin yaratishga xizmat qiladi. Mazkur tadqiqot natijalari boshlang‘ich ta’lim amaliyotida keng qo‘llash uchun tavsiya etiladi. AKT asosida ishlangan dars ishlanmalari bolalarga qo‘shish, ayirish, solishtirish va guruhlash mashqlarini interaktiv tarzda bajarish imkonini beradi, shu bilan ularning bilish faolligini va nazariy bilimni amaliy ko‘nikmalar bilan uyg‘unlashtirish qobiliyatini sezilarli darajada oshiradi.

Adabiyotlar:

1. Abdukarimov, T. (2020). Boshlang‘ich ta’limda matematika o‘qitish metodikasi. Toshkent: O‘zbekiston.
2. Karimova, L. (2019). Axborot texnologiyalaridan pedagogik jarayonda foydalanish. Toshkent: Fan.
3. Rashidova, M. (2025). Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga miqdorlarni o‘rgatish metodikasi. Shahrisabz: Pedagogika fakulteti.
4. Ismoilov, S. (2021). Ta’limda interaktiv va multimediya texnologiyalarining ahamiyati. Tashkent: Ilmiy nashr.
5. Rashidova, Marjona. “Boshlang‘ich sinflarda ona tilini o‘rgatishda interaktiv metodlarning roli”. // Pedagogik islohotlar va ularning yechimlari, vol. 6, no. 2, 2024.
6. Rashidova, Marjona. “Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun noodatiy darslarni rejalashtirish va o‘tkazish”. // Ilm Fan Xabarnomasi, vol. 5, no. 1, 2024.
7. Rashidova, M. S. (n.d.). Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarga miqdorlarni o‘rgatishda axborot texnologiyalaridan foydalanish. // Ilm fan xabarnomasi Vol. 8 No. 1 (2025) ISSN 3030-3931.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA MANTIQIY TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISH USULLAR

Sharopova Gulchiroy Yusupovna,
Talabalar hujjatlarini yuritish va statistika sektori yetakchi mutaxassisi

Maqolada boshlang‘ich sinflarda mantiqiy tafakkurni rivojlantirish usullari ko‘rib chiqiladi. Mantiqiy tafakkur tushunchasi o‘rganildi. Kichik yoshdagi o‘quvchilarda mantiqiy tafakkurining o‘ziga xos xususiyatlari aniqlangan. O‘qituvchilar va psixologlarning kuzatishlariga ko‘ra, boshlang‘ich maktabda aqliy faoliyat usullarini o‘zlashtirmagan bola o‘rta sinflarga o‘tganda o‘zlashtirishi past o‘quvchilar qatoriga kiradi. Bu vazifa boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi zimmasiga yuklatiladi. Boshlang‘ich sinflarda o‘qitiladigan har bir fan mantiqiy tafakkurni rivojlantirish uchun real shart-sharoitlar yaratadi.

Kalit so‘zlar: *tafakkur, mantiqiy tafakkur, kichik maktab o‘quvchilari, mantiqiy tafakkurni rivojlantirish usullari.*

МЕТОДЫ РАЗВИТИЯ ЛОГИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У УЧЕНИКОВ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

В статье рассматриваются методы развития логического мышления в начальных классах. Изучено понятие логического мышления. Определены особенности логического мышления у младших школьников. По наблюдениям учителей и психологов, ребёнок, не освоивший методы умственной деятельности в начальной школе, при переходе в средние классы относится к числу учеников с низкой успеваемостью. Эта задача возлагается на учителя начальных классов. Каждый предмет, преподаваемый в начальных классах, создаёт реальные условия для развития логического мышления.

Ключевые слова: *мышление, логическое мышление, младшие школьники, методы развития логического мышления.*

METHODS FOR DEVELOPING LOGICAL THINKING IN PRIMARY SCHOOL PUPILS

The article discusses methods for developing logical thinking in primary school. The concept of logical thinking is examined. The specific features of logical thinking in young students are identified. According to observations of teachers and psychologists, a child who has not mastered methods of mental activity in primary school is often among those with low academic performance in middle grades. This responsibility lies with the primary school teacher. Each subject taught in primary school creates real conditions for the development of logical thinking.

Keywords: *thinking, logical thinking, young schoolchildren, methods of developing logical thinking.*

Kirish. Zamonaviy jamiyat sharoitida hamda bolalarni o‘qitish va tarbiyalash usullarini takomillashtirish jarayonida ta’lim mazmunini rivojlantirish yo‘llarini izlash va ta’lim-tarbiya jarayonida qo‘llash uchun eng qulay va samarali usullarni aniqlash masalasi dolzarb bo‘lib bormoqda.

Ta’lim jarayonini samarali tashkil etishda bolaning yoshiga mos intellektual rivojlanish darajasining mavjudligi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu masala har doim psixologlar, pedagoglar va falsafa mutaxassislarining diqqat markazida bo‘lgan. Chunki aynan shu rivojlanish darajasi insonning ijtimoiy muhitda shaxs sifatida e’tirof etilishida asosiy omil hisoblanadi.

Mantiqiy tafakkurni o‘rganish muammosi hozirgi kunda dolzarb masalalardan hisoblanadi, chunki mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar intellekt mohiyati hamda uni tajribaal o‘rganish yo‘llari borasida qarama-qarshi fikrlarni bildirmoqdalar. Shuni ham ta’kidlash kerakki, hozirgi davrda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining uzluksiz rivojlanishi ham ushbu muammoning dolzarbligini oshirmoqda. Bu texnologiyalarni egallash kasbiy va shaxsiy rivojlanishiga intiladigan har bir inson uchun zarurdir.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. V. V. Levites so‘zlariga ko‘ra, nutq madaniyatining belgisi sifatida mantiqiylik “tafakkur – til – nutq” darajasida shakllanadi va u aqliy faoliyat usullarini o‘zlashtirish darajasi, mantiq qonunlarini bilish hamda obyektiv voqelik haqidagi bilimlarga tayanish bilan belgilanadi [3].

Maktab ta’limining boshida bolalarda mantiqiy tafakkurning shakllanishi situativlik, fikrlash jarayonlarini nazorat qila olmaslik, isbotlab fikr yuritish va faoliyat usullarini boshlang‘ich shartlar hamda topshiriq natijalari bilan taqqoslay olmaslik kabi xususiyatlar bilan tavsiflanadi. Maktabgacha yoshdagi

bolalarning hukmlari tajribaviy bilimlarning shakllanishi natijasida yuzaga keladi, bunda mantiqiy umumlashtirishlardan ko‘ra yo‘naltiruvchi faollik ustunlik qiladi. Kichik maktab yoshida esa didaktik e’tibor topshiriq shartlaridan yakuniy maqsadga o‘tadi va bilish jarayonining mazmuniy-motivatsion tarkibiy qismi ahamiyati kuchayadi.

Amaliy yo‘naltirilgan masalalar tizimini ko‘rib chiqamiz, ular matematikaning rivojlantiruvchi imkoniyatlari orqali mantiqiy tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan.

Kichik maktab o‘quvchilarining mantiqiy tayyorgarligida o‘quvchilarning to‘g‘ri fikrlash tuzilmalari shakllanishiga yo‘naltirilgan didaktik maqsadli topshiriqlar alohida sinfni tashkil etadi. Boshlang‘ich ta’limning davlat ta’lim standarti (DTS)da mantiq elementlari bilan tanishtirish nazarda tutilmagan. Shu sababli terminologik va tushunchaviy apparatdan foydalanish uning nutqiy muqobillari darajasida cheklanadi. Xususan, mantiqiy inkor shakli og‘zaki va yozma nutqda “emas” orqali ifodalanadi, dizyunksiya – “yoki” bog‘lovchisi, konyunksiya – “va” bog‘lovchisi, implikatsiya – “agar..., unda...”, ekvivalentlik esa – “faqat va faqat shunda” shakli bilan ifodalanadi. Mantiqiy amallar nutqiy shaklda bolalar lug‘atini boyitadi, ularni turli xil topshiriqlar tizimi orqali qo‘llash esa fikrlash jarayonlarini rivojlantiradi va o‘quv materialini yanada chuqur, ongli idrok etishga yordam beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Bolalarning mantiqiy tayyorgarligi sifati quyidagi vazifalarni hal etish orqali ta’minlanadi:

– bolalarni mulohazalar mantiqi elementlari bilan tanishtirish, formal mantiq qonunlariga muvofiq fikrlash ko‘nikmasini shakllantirish;

– nutq amaliyotida til analoglarini mustahkamlash, ularni standart va ijodiy masalalarni yechishda qo‘llash malakasini shakllantirish;

– bolalarni mulohazalarning “rostligi – yolg‘onligi” bilan tanishtirish va bolaning baholovchi fikrlari hamda xulosalarini asoslay olishiga erishish [1].

Mantiqiy topshiriqlar rivojlantiruvchi topshiriqlar jumlasiga kiradi. Boshlang‘ich sinf matematika darsliklarida ular noodatiy, mantiqiy yuklamaga ega, ijodiy yoki murakkablik darajasi yuqori bo‘lgan masalalar sifatida beriladi. Ularni sinf sharoitida bajarish o‘quv jarayonini modellashtirishni, darsning ayrim qismini turli o‘quvchi guruhlarining bilish imkoniyatlarini hisobga olgan holda batafsil ishlab chiqishni talab etadi.

O‘quv jarayonini kuzatish shuni ko‘rsatadiki, bunday topshiriqlarni o‘qituvchilar asosan qobiliyatli o‘quvchilarga yoki butun sinfga tanlab taklif etadilar. Yechimlar ko‘pincha ba’zi bolalar tomonidan berilgan taxminlar natijasi bo‘ladi, shu bilan birga o‘quvchilarning aksariyati passiv qoladi. Bizning fikrimizcha, bu holatning sababi – darslarda to‘g‘ri fikrlash shakllarini rivojlantirishda yo‘naltirilgan tizimning yetishmasligi hamda o‘qitishda mazmuniy tomonni haddan tashqari ustun qo‘yishdir: bolalar ko‘pincha to‘g‘ri javobni aytadilar, biroq uni asoslab, natijani topish usulini tushuntirib bera olmaydilar. Agar o‘quvchilar shunday masalalarni bajarsalar ham, ijodiy yoki evristik topshiriqlarda ular ojiz va intellektual jihatdan passiv bo‘lib qoladilar. Shu sababli, bilimlarni o‘zlashtirish jarayoni bilan bir vaqtda bolalar o‘quv masalasining mantiqiy tahlili va natijaga erishish usulini asosli tanlash ko‘nikmalarini egallaydigan metodik yondashuvni qo‘llash maqsadga muvofiqdir [5].

O‘quvchilarda mantiqiy tafakkurni rivojlantirishga matematika katta yordam beradi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari tomonidan matematikani o‘rganish jarayoni umumiy va o‘ziga xos bilish faoliyati turlari bilan bog‘liq bo‘lib, umumiy turlari orasida mantiqiy tafakkur usullari asosiy o‘rinni egallaydi. Shuning uchun o‘qituvchi o‘quv jarayonini shunday tashkil etishi kerakki, u o‘quvchilarda mustaqil, samarali va mantiqan fikrlash qobiliyatini rivojlantirishi lozim. Matematik bilimlar o‘quvchi tomonidan tushunishga qulay tizimda o‘zlashtiriladi, bunda ayrim qoidalar bir-biri bilan mantiqan bog‘liq bo‘ladi va bir-biridan kelib chiqadi.

Shuni ta’kidlash kerakki, mantiqiy tafakkurni faqat ma’lum izchillikda shakllantirish lozim. Avvalo, o‘quvchilarni predmetlarning xususiyatlarini ajrata olishga o‘rgatish kerak. Buning uchun ularga turli xususiyatlarga ega bo‘lgan predmetlarni taqqoslash usulini ko‘rsatish maqsadga muvofiqdir. O‘quvchilar turli xususiyatlarni aniqlashni o‘rganganlaridan so‘ng, ularda umumiy va farqli belgilar haqidagi tushunchani shakllantirish bosqichiga o‘tish mumkin [4].

Keyingi bosqichda bolalar muhim (ahamiyatli) xususiyatlarni nomuhim (ahamiyatsiz) xususiyatlardan farqlashga o‘rgatiladi. Bunday tushunchalarni bilish taqqoslash va tasniflashning mantiqiy usullarini o‘zlashtirish uchun zarurdir. Taqqoslash – bu obyektdagi belgilarni ajrata olish, umumiy belgilarni aniqlash va obyektlarni solishtirish demakdir. Tasniflash usuli esa quyidagi harakatlarni anglatadi: tasniflash mezonlarini tanlash, shu mezonlarga ko‘ra tushunchaga kiruvchi obyektlar to‘plamini bo‘lish va tasnifiy tizimni tuzish.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Keyingi ish jarayonida o‘quvchilarda bir fikrning rostligini boshqa fikrlarning rostligi asosida aniqlay olish ko‘nikmasini rivojlantirish va oddiy hukmlarga e’tiroz

bildirishni o‘rgatish lozim. Shu maqsadda “zarur”, “agar..., unda...” kabi so‘zlar ishtirok etgan gaplarning ma’nosi ustida mashqlar bajariladi. Keyinchalik kichik maktab o‘quvchilarining o‘quv faoliyatiga bola hayotiy tajribasiga asoslanib induktiv va deduktiv xulosalar chiqarish ko‘nikmasini shakllantiruvchi mashqlar asta-sekin kiritiladi. O‘qituvchi individual ish uchun mantiqiy topshiriqlarni rejalashtirar ekan, o‘quvchiga masalani taqdim etish usulini, yordam ko‘rsatish yo‘llarini, shuningdek, individual ishni tekshirish va baholash usullarini oldindan puxta o‘ylab chiqishi kerak [6].

Quyidagi differensial yordam turlarini o‘quvchilarga tavsiya etamiz:

– topshiriqni qo‘shimcha tarzda aniqlashtirish;

– ilgari bajarilgan o‘xshash topshiriqni yodga olish;

– avval oddiyroq yordamchi mashqlarni bajarish;

– nostandart topshiriqning muayyan qismini o‘qituvchi bilan bajarish;

– nazariy ma’lumotlar bilan yordam ko‘rsatish;

– yechimni tanlashda yordam berish;

– o‘quvchilarni tipik xatolar, noto‘g‘ri yondashuvlar va boshqa kamchiliklar haqida ogohlantirish.

Mantiqiy kompetentlikni shakllantirish jarayonida quyidagi usullar qo‘llaniladi: evristik, tadqiqot va muammoli-izlanish usullari. Evristik usul o‘quvchilarga yangi bilimlar, tushunchalar, qonuniyatlar va usullarni “kashf etish” jarayoniga jalb etishga yordam beradi. Tadqiqot usuli esa o‘quvchilarga ilmiy bilish usullarini egallashni, ularda ijodiy faoliyatga bo‘lgan qobiliyat va ehtiyojni shakllantirishni ta’minlaydi.

Biroq mantiqiy kompetentlikni shakllantirishning asosiy usuli bu faoliyatda o‘qitish usuli (muammoli-izlanish usuli) hisoblanadi. Bu usulda o‘quvchilarning o‘quv faoliyati ularning bilish faoliyati bilan uyg‘unlashadi. O‘quvchilar muammoli vaziyatni hal etish jarayonida fanlararo aloqalarni o‘rnatadilar va turli ma’no yo‘nalishlaridan olingan materiallarni integratsiya qiladilar, bu esa berilgan masalani yechishda zarur bo‘ladi. Shu jarayonda tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish kabi mantiqiy tafakkur amallari faollashadi. Bolalarda intuitsiya rivojlanadi, hayotda to‘g‘ri javobni darhol topish qiyinligi, har kim xatoga yo‘l qo‘yishi mumkinligi kabi muhim insoniy fazilatlar shakllanadi [2].

Tadqiqot davomida tajribaal va nazorat guruhlari tashkil etildi, ularda “Mantiqiy masalalar” mavzusida tahliliy ish o‘tkazildi. Tajriba jarayonida tajribaal guruhda 10 ta mashg‘ulot o‘tkazildi, bu darslarda o‘quvchilar mantiqiy tafakkurini va aqliy qobiliyatlarini rivojlantirdilar. Natijalarni aniqlash maqsadida har ikki guruhda bilimlarning qayta tahlili o‘tkazildi. Tajriba natijalari shuni ko‘rsatdiki, mantiqiy tafakkurning rivojlanish dinamikasi ijobiy bo‘ldi. Tajriba natijalari diagrammalarda keltirilgan.

3-«A» nazorat guruhi

	Tajribagacha	Tajribadan keyin
Mantiqiy tafakkurning past darajasi	5	4
Mantiqiy tafakkurning o‘rta darajasi	13	13
Mantiqiy tafakkurning yuqori darajasi	2	3

3-«B » nazorat guruhi

	Tajribagacha	Tajribadan keyin
Mantiqiy tafakkurning past darajasi	5	3
Mantiqiy tafakkurning o‘rta darajasi	13	11
Mantiqiy tafakkurning yuqori darajasi	2	6

Shu tariqa, mantiqiy tafakkur bilish doiralarini kengaytiradi, insonni bevosita sezgi va idrok tajribasidan tashqariga chiqish imkonini beradi. Tafakkur insonga bevosita kuzatilmaydigan yoki idrok etilmaydigan narsalar haqida bilish va fikr yuritish imkoniyatini yaratadi. U hozir mavjud bo‘lmagan hodisalarning yuz berishini oldindan bashorat qilishga yordam beradi.

Xulosa. Fikrlash faoliyatining mantiqiy tuzilmalarini shakllantirish kichik maktab o‘quvchisining shaxsiy rivojlanishi tarkibiy qismidir. Bu masala nafaqat matematika (mulohazalar mantiqi) o‘qitish metodikasi, balki ona tili (nutqning mantiqiyligi)ni o‘qitish uslublari uchun ham tadqiqot mavzusidir.

Bunday tadqiqotning ahamiyati mantiqiy tafakkurning bolaning atrof-muhit haqidagi bilimlar tizimini o‘zlashtirish jarayonidagi o‘rniga bog‘liqdir. Mantiqan fikr yurita olish tafakkur madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiladi, xususan, fikrning to‘g‘riligi, aniqligi, ravshanligi va asoslanganligi kabi sifatlarni shakllantiradi. Kichik maktab o‘quvchilarining tafakkurini rivojlantirishni esa tahlil qilish, mulohazalarni solishtirish, nutqdagi mantiqiy xatolarni aniqlash va tuzatish, hamda o‘z faoliyatini baholay olish ko‘nikmalarisiz mumkin emas.

Adabiyotlar:

1. Клемешова Н. С. Развитие логического мышления у детей младшего школьного возраста (из опыта работы) / Н. С. Клемешова, О. Т. Иванникова// Молодой ученый. – 2019. – № 34 (272). – С. 55–58.

2. Коноваленко Е. А. Логическое мышление младших школьников и его характеристика / Е. А. Коноваленко, В. В. Христенко, С. А. Скрыпцова // Молодой ученый. – 2020. – № 52 (342). – С. 415–418.

3. Левитес В. В. Развитие логического мышления детей дошкольного и младшего школьного возраста / В. В. Левитес // Известия Российской академии образования. – 2019. – № 3. – С.54–57.

4. Лукина А. Н. Развитие логического мышления младших школьников посредством моделирования природных процессов на уроках // В книге: Молодежь XXI века: образование, наука, инновации. Материалы IX Всероссийской студенческой научно-практической конференции с международным участием. В 4-х частях. Под редакцией Е. В. Толокнёвой, Г. С. Чесноковой. Новосибирск, 2020. С. 212–214.

5. Смирнова, А. С. Особенности развития мышления в младшем школьном возрасте / А. С. Смирнова, Л. В. Левицкая. // Молодой ученый. – 2016. – № 11 (115). – С. 1783–1785.

6. Толмачева А. В., Стойлова Л. П. Проблема формирования целостной картины мира в процессе развития логического мышления у младших школьников // Педагогическое образование. 2021. Т. 2. № 2. С. 24–29.

INNOVATSION YONDASHUV ASOSIDA BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING SHAKL, METOD VA VOSITALARI

Shoyqulova Dilbar Dilshod qizi,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
“Ta’lim tarbiya nazariyasi va metodikasi
(boshlang‘ich ta’lim) 2-kurs magistranti

Ushbu maqolada innovatsion yondashuv asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kommunikativ kompetentligini rivojlantirish masalalari yoritilgan. Zamonaviy ta’lim jarayonida o‘quvchilarning nutqiy faolligini oshirish, erkin fikr bildirish va muloqotga kirisha olish ko‘nikmalarini shakllantirish muhim pedagogik vazifa hisoblanadi. Maqolada interfaol metodlar, o‘yin texnologiyalari, axborot-kommunikatsiya vositalari hamda hamkorlikda o‘qitish usullarining kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirishdagi o‘rni tahlil qilingan. Shuningdek, dars jarayonida qo‘llaniladigan innovatsion shakl va vositalar o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, jamoada ishlashi va nutq madaniyatini rivojlantirishga xizmat qilishi asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari boshlang‘ich ta’lim tizimida kommunikativ kompetentlikni shakllantirish samaradorligini oshirishga qaratilgan metodik tavsiyalar ishlab chiqishga imkon beradi.

Kalit so‘zlar: *kommunikativ kompetentlik, innovatsion yondashuv, boshlang‘ich ta’lim, interfaol metodlar, nutq rivoji, pedagogik texnologiyalar.*

ФОРМЫ, МЕТОДЫ И ИНСТРУМЕНТЫ РАЗВИТИЯ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ НА ОСНОВЕ ИННОВАЦИОННОГО ПОДХОДА

В данной статье рассматриваются вопросы развития коммуникативной компетентности у учащихся начальных классов на основе инновационного подхода. В условиях современного образования формирование у детей навыков речевой активности, умения свободно выражать свои мысли и вступать в диалог становится одной из важнейших педагогических задач. В статье анализируется роль интерактивных методов, игровых технологий, информационно-коммуникационных средств и методов обучения в сотрудничестве в развитии коммуникативных умений. Также обосновывается, что инновационные формы и средства обучения способствуют развитию самостоятельного мышления, культуры речи и навыков работы в коллективе. Результаты исследования позволяют разработать методические рекомендации, направленные на повышение эффективности формирования коммуникативной компетентности в системе начального образования.

Ключевые слова: *коммуникативная компетентность, инновационный подход, начальное образование, интерактивные методы, развитие речи, педагогические технологии.*

FORMS, METHODS AND TOOLS FOR DEVELOPING COMMUNICATIVE COMPETENCE IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS BASED ON AN INNOVATIVE APPROACH

This article explores the development of communicative competence in primary school students through an innovative educational approach. In modern education, fostering students’ speech activity, ability to express ideas freely, and engage in meaningful communication is considered a key pedagogical objective. The paper analyzes the role of interactive methods, game-based technologies, information and communication tools, and cooperative learning strategies in enhancing communicative skills. It also justifies that innovative forms and instructional tools contribute to the development of independent thinking, speech culture, and teamwork abilities among young learners. The findings of the study provide a basis for developing methodological recommendations aimed at increasing the effectiveness of communicative competence formation in primary education.

Keywords: *communicative competence, innovative approach, primary education, interactive methods, speech development, pedagogical technologies.*

Kirish. Bugungi globallashuv va axborotlashuv davrida jamiyat taraqqiyoti insonning nafaqat bilim darajasi, balki uning muloqot qila olish, o‘z fikrini aniq va ravon ifodalash, boshqalarni tinglash hamda

hamkorlikda ishlash qobiliyatiga ham bevosita bog‘liqdir. Shuning uchun zamonaviy ta’lim tizimi oldida turgan eng muhim vazifalardan biri – o‘quvchilarda kommunikativ kompetentlikni shakllantirish va rivojlantirishdir. Ayniqsa, bu jarayon boshlang‘ich sinf bosqichida samarali yo‘lga qo‘yilsa, keyingi ta’lim bosqichlari uchun mustahkam poydevor yaratiladi.

Boshlang‘ich maktab yoshi bolalar shaxsining faol shakllanish davri bo‘lib, aynan shu bosqichda nutqiy faoliyat, ijtimoiy moslashuv va muloqot madaniyati rivojlanadi. Bola maktabga qadam qo‘yishi bilan yangi ijtimoiy muhitga kiradi, tengdoshlari va o‘qituvchilar bilan munosabat o‘rnatadi, o‘z fikrini og‘zaki va yozma shaklda bayon etishni o‘rganadi. Shu sababli boshlang‘ich ta’limda nafaqat o‘qish, yozish va hisoblash ko‘nikmalarini, balki samarali muloqot olib borish malakalarini ham rivojlantirish dolzarb masalaga aylanmoqda.

Kommunikativ kompetentlik tushunchasi keng mazmunga ega bo‘lib, u shaxsning turli vaziyatlarda muloqotga kirisha olish, nutqiy vositalardan o‘rinli foydalanish, suhbatdoshni tushunish, o‘z fikrini asoslab bera olish hamda ijtimoiy hamkorlikni yo‘lga qo‘ya olish qobiliyatlarini qamrab oladi. Bu kompetensiya nafaqat til darslarida, balki barcha fanlarni o‘qitish jarayonida shakllanadi. Demak, kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirish kompleks yondashuvni, ya’ni turli fanlararo integratsiyani ham talab qiladi.

An’anaviy ta’lim tizimida ko‘proq o‘qituvchi faol, o‘quvchi esa tinglovchi rolida bo‘lib kelgan. Bunday sharoitda bolalarning erkin fikr bildirish, savol berish, bahs-munozarada ishtirok etish imkoniyatlari cheklangan bo‘ladi. Natijada o‘quvchilar bilimni qabul qiluvchi sifatida shakllanadi, biroq muloqot jarayonining faol ishtirokchisiga aylanmaydi. Zamonaviy pedagogika esa ta’lim jarayoniga innovatsion yondashuvlarni joriy etish orqali o‘quvchini faol subyektga aylantirishni maqsad qiladi [3; 382].

Innovatsion yondashuv ta’lim jarayonini yangicha tashkil etish, samarali pedagogik texnologiyalarni qo‘llash, interfaol metodlardan foydalanish hamda axborot-kommunikatsiya vositalarini darsga integratsiya qilishni nazarda tutadi. Bunday yondashuv o‘quvchilarning dars jarayonidagi faolligini oshiradi, ularni mustaqil fikrlashga, o‘z nuqtayi nazarini himoya qilishga va jamoa bilan hamkorlikda ishlashga o‘rgatadi. Aynan shu jihatlar kommunikativ kompetentlikning tarkibiy qismlarini tashkil etadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun o‘yin faoliyati yetakchi faoliyat turi hisoblanadi. Shu sababli innovatsion ta’lim jarayonida didaktik o‘yinlar, rolli o‘yinlar, muammoli vaziyatlar va kichik guruhlarda ishlash metodlaridan foydalanish kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirishda alohida ahamiyat kasb etadi. O‘yin jarayonida bola o‘zini erkin his qiladi, muloqotga oson kirishadi va nutqiy faolligi ortadi. Bu esa darsning samaradorligini oshiradi hamda bilimlarni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Shuningdek, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining keng joriy etilishi ham kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishda yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Multimediali taqdimotlar, interaktiv doskalar, ta’limiy videolar va onlayn platformalar o‘quvchilarni dars jarayoniga faol jalb etadi. Vizual va eshitish orqali qabul qilingan ma’lumot osonroq o‘zlashtiriladi, o‘quvchilarning fikr almashish jarayoni jonlanadi. Bunday muhitda o‘qituvchi rahbar, yo‘naltiruvchi rolini bajaradi, o‘quvchilar esa bilimni hamkorlikda egallaydilar.

Hozirgi kunda ta’lim tizimida kompetensiyaviy yondashuv ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Bu yondashuv o‘quvchilarning nafaqat nazariy bilimlarini, balki amaliy ko‘nikma va malakalarini ham rivojlantirishga qaratilgan. Kommunikativ kompetentlik esa tayanch kompetensiyalardan biri sifatida qaraladi.

Shu bois boshlang‘ich sinflarda ta’lim jarayonini shunday tashkil etish kerakki, har bir dars o‘quvchining muloqotga kirishishiga, savol berishiga, fikr bildirishiga va boshqalarni tinglashiga imkon yaratsin.

Mazkur mavzuning dolzarbligi shundaki, bugungi kunda ko‘plab o‘quvchilar bilimga ega bo‘lsa-da, o‘z fikrini erkin ifodalashda qiynaladilar. Bu esa ularning keyingi ta’lim bosqichlarida, shuningdek, ijtimoiy hayotda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishiga to‘sqinlik qilishi mumkin. Shuning uchun boshlang‘ich ta’limdayoq kommunikativ kompetentlikni innovatsion yondashuv asosida shakllantirish pedagogik zaruratga aylanmoqda.

Ushbu maqolaning maqsadi – innovatsion yondashuv asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishning samarali shakl, metod va vositalarini ilmiy-pedagogik jihatdan asoslab berishdir. Tadqiqot jarayonida interfaol metodlarning imkoniyatlari, o‘yin texnologiyalarining o‘rni, axborot-kommunikatsiya vositalarining ta’siri hamda hamkorlikda o‘qitishning ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, amaliy tavsiyalar ishlab chiqish orqali boshlang‘ich ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi pedagogik yechimlar taklif etiladi.

Shunday qilib, kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishga qaratilgan innovatsion yondashuv boshlang‘ich ta’lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Bu jarayon o‘quvchining shaxs sifatida shakllanishiga, ijtimoiy faolligiga va kelajakdagi muvaffaqiyatiga mustahkam zamin yaratadi.

Tadqiqot obyekti va qo‘llanilgan metodlar. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish masalasi so‘nggi yillarda pedagogika, psixologiya va metodika yo‘nalishlarida dolzarb ilmiy tadqiqot obyekti sifatida keng o‘rganilmoqda. Mazkur tushuncha ilk bor lingvistika va sotsiolingvistika doirasida shakllangan bo‘lsa-da, bugungi kunda u ta’lim nazariyasining muhim kategoriyalaridan biriga aylangan.

Kommunikativ kompetentlik atamasini ilmiy muomalaga kiritgan olimlardan biri – amerikalik tilshunos Dell Hymes (1972) bo‘lib, u til bilish faqat grammatik qoidalarni o‘zlashtirish emas, balki nutqni ijtimoiy vaziyatga mos qo‘llay olish qobiliyatini ham o‘z ichiga olishini ta’kidlaydi. Hymesning g‘oyalari keyinchalik ta’lim jarayonida kommunikativ yondashuvning shakllanishiga asos bo‘ldi [8, 65]

Keyinchalik Canale va Swain (1980) kommunikativ kompetentlik tuzilmasini yanada aniqlashtirib, uni grammatik, sotsiolin-gvistik, diskursiv va strategik komponentlarga ajratdilar. Ushbu model bugungi kunda ham chet tillarni o‘qitish metodikasida, shuningdek, ona tili va umumiy nutq rivoji jarayonlarida nazariy asos sifatida qo‘llaniladi. Mazkur yondashuvdan kelib chiqib, boshlang‘ich ta’limda ham bolalarning faqat to‘g‘ri gap tuzishi emas, balki muloqot vaziyatini anglab, mos nutq strategiyasini tanlay olishi muhimligi ta’kidlanadi.

Rus pedagogik maktabi vakillaridan L.S. Vygotskiyning ijtimoiy-madaniy rivojlanish nazariyasi ham kommunikativ kompetentlikni shakllantirishda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Uning fikricha, bola rivojlanishi ijtimoiy muloqot jarayonida amalga oshadi, nutq esa tafakkur rivojining asosiy vositasidir (Vygotskiy, “Myshleniye i rech”, 1934). Demak, ta’lim jarayonida tashkil etilgan hamkorlikdagi muloqot bolaning intellektual va nutqiy rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Boshlang‘ich ta’limda interfaol metodlardan foydalanish samaradorligi masalasi Sh.A. Amonashvili, V.A. Suxomlinskiy kabi pedagog olimlar ishlarida ham alohida yoritilgan. Amonashvili ta’limni insonparvarlashtirish g‘oyasini ilgari surib, o‘quvchini dars jarayonining faol subyekti sifatida ko‘rish zarurligini ta’kidlaydi. Bu yondashuv kommunikativ faoliyatni rag‘batlantirishga xizmat qiladi.

O‘zbekistonlik pedagog olimlardan N. Muslimov, B. Xodjayev, R. Ishmuxamedovlarning ishlarida ham zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar va kompetensiyaviy yondashuv masalalari keng yoritilgan. Xususan, R. Ishmuxamedov ta’lim jarayonida interfaol metodlarning qo‘llanilishi o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi va muloqot madaniyatini rivojlantirishini ilmiy asoslab beradi [5; 320].

So‘nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining (AKT) ta’lim jarayonidagi o‘rni ham alohida ta’kidlanmoqda. J. Piagetning kognitiv rivojlanish nazariyasi ham bolalarning faol tajriba orqali o‘rganishini asoslaydi. Zamonaviy raqamli vositalar esa ana shu faol o‘rganish muhitini yaratishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Tahlil qilingan ilmiy manbalar shuni ko‘rsatadiki, kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish ko‘p omilli jarayon bo‘lib, u ijtimoiy muloqot, interfaol ta’lim, o‘yin faoliyati va innovatsion pedagogik texnologiyalar bilan uzviy bog‘liq. Biroq boshlang‘ich sinf o‘quvchilari misolida aynan innovatsion yondashuv asosida bu jarayonning shakl, metod va vositalarini kompleks o‘rganish hali ham dolzarb ilmiy muammo bo‘lib qolmoqda.

Mazkur tadqiqot boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kommunikativ kompetentlikni innovatsion yondashuv asosida rivojlantirish jarayonini o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, u nazariy va amaliy metodlar uyg‘unligida olib borildi.

Tadqiqotning metodologik asosini kompetensiyaviy yondashuv, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim tamoyillari hamda faoliyatga asoslangan pedagogik konsepsiyalar tashkil etadi.

Shuningdek, Vygotskiyning yaqin rivojlanish zonasi nazariyasi, kommunikativ yondashuv konsepsiyasi va interfaol ta’lim texnologiyalari nazariy qoidalari tadqiqotning ilmiy poydevori sifatida xizmat qildi.

Tadqiqot jarayonida quyidagi nazariy metodlar qo‘llanildi:

– pedagogik, psixologik va metodik adabiyotlarni tahlil qilish;

– kommunikativ kompetentlik tushunchasining mazmun-mohiyatini aniqlash;

– innovatsion ta’lim texnologiyalarining tasnifi va ularning imkoniyatlarini o‘rganish;

– mavjud ilg‘or tajribalarni umumlashtirish.

Amaliy bosqichda esa empirik metodlardan foydalanildi. Jumladan, kuzatish metodi orqali dars jarayonida o‘quvchilarning muloqot faolligi, savol-javoblarda ishtiroki, guruh ishlaridagi nutqiy faolligi o‘rganildi. Suhbat metodi yordamida o‘qituvchilar va o‘quvchilarning innovatsion metodlarga munosabati aniqlashtirildi.

Pedagogik tajriba-sinov ishlari tadqiqotning muhim qismi bo‘lib, unda interfaol metodlar (klaster, aqliy hujum, rolli o‘yinlar, “fikrlar almashinuvi”), o‘yin texnologiyalari hamda AKT vositalari asosida

tashkil etilgan darslar samaradorligi an’anaviy darslar bilan qiyosiy tahlil qilindi. Tajriba davomida o‘quvchilarning nutq boyligi, fikrni izchil bayon etish qobiliyati, jamoada ishlash va tinglash madaniyati kabi ko‘rsatkichlar baholandi.

Natijalarni qayta ishlashda sifat va miqdoriy tahlil usullaridan foydalanildi. O‘quvchilarning kommunikativ ko‘nikmalaridagi o‘zgarishlar dinamikasi kuzatildi, olingan ma’lumotlar taqqoslandi va umumlashtirildi.

Shunday qilib, qo‘llanilgan metodologiya tadqiqot muammosini har tomonlama o‘rganish, innovatsion yondashuvning kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishdagi samaradorligini aniqlash hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqish imkonini berdi.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Bugungi kunda rivojlangan davlatlar ta’lim tizimida asosiy e’tibor o‘quvchilarning shunchaki bilim egallashiga emas, balki ularni hayotga tayyorlaydigan tayanch kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan. Ana shunday muhim kompetensiyalardan biri – kommunikativ kompetentlik bo‘lib, u o‘quvchining turli ijtimoiy vaziyatlarda samarali muloqot qila olish, fikrini aniq ifodalash, boshqalarni tinglash va hamkorlikda muammo yecha olish qobiliyatini anglatadi.

Finlyandiya ta’lim tizimi dunyoda eng samarali tizimlardan biri sifatida e’tirof etiladi. Bu mamlakatda boshlang‘ich ta’lim jarayoni o‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan bo‘lib, darslarda erkin muloqot muhiti yaratiladi. O‘quvchilar o‘z fikrini bildirishga, savol berishga va bahs-munozaralarda ishtirok etishga doim rag‘batlantiriladi. O‘qituvchi esa bilim beruvchi emas, balki o‘quv faoliyatini tashkil qiluvchi va yo‘naltiruvchi rolini bajaradi.

Finlyandiya maktablarida kichik guruhlarda ishlash, loyiha asosida ta’lim va muammoli vaziyatlarni hal qilish metodlari keng qo‘llaniladi. Bu jarayonda o‘quvchilar bir-biri bilan fikr almashadi, tinglash va tushunish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Natijada nutq madaniyati va jamoaviy muloqot malakalari tabiiy ravishda shakllanadi.

AQSh maktablarida kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish “21-asr ko‘nikmalari” konsepsiyasi doirasida amalga oshiriladi. Ushbu konsepsiyada muloqot, hamkorlik, tanqidiy fikrlash va ijodkorlik asosiy o‘rin tutadi. Boshlang‘ich sinflardanoq o‘quvchilar taqdimot qilish, jamoa oldida so‘zlash, guruh bo‘lib loyiha tayyorlash kabi faoliyatlarga jalb etiladi.

Sinfda “circle time” (doira shaklida muloqot), debatlar, rolli o‘yinlar va sahnalashtirish usullari keng qo‘llanadi. Bu usullar bolalarning o‘z fikrini ochiq ifoda etishiga yordam beradi. Shuningdek, o‘qituvchilar o‘quvchilarning savol berish madaniyatini shakllantirishga alohida e’tibor qaratadilar.

Buyuk Britaniya ta’lim tizimida nutq va tinglash ko‘nikmalari alohida o‘quv yo‘nalishi sifatida qaraladi. Darslarda o‘quvchilarning og‘zaki nutqini rivojlantirishga qaratilgan mashg‘ulotlar muntazam tashkil etiladi. “Show and tell” (ko‘rsat va so‘zlab ber), hikoya tuzish, rolli dialoglar kabi mashqlar keng tarqalgan.

Shuningdek, britan maktablarida o‘quvchilar kichik yoshdan boshlab jamoa bilan ishlashga o‘rgatiladi. Guruhli topshiriqlar jarayonida har bir bola o‘z fikrini bildirib, boshqalarning fikrini tinglashi talab etiladi. Bu esa muloqot madaniyatini erta yoshdan shakllantirishga xizmat qiladi.

Yaponiya ta’lim tizimida kommunikativ kompetentlik jamoaviylik va o‘zaro hurmat tamoyillari asosida rivojlantiriladi. Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilar ko‘pincha guruhlarda ishlaydi, birgalikda qaror qabul qiladi va natija uchun jamoaviy javobgarlikni his qiladi.

Yapon maktablarida “lesson study” yondashuvi keng qo‘llaniladi, bunda o‘qituvchilar dars jarayonini hamkorlikda tahlil qiladi va takomillashtiradi. Darslarda o‘quvchilarning fikrini eshitish, muhokama qilish va xulosa chiqarish jarayoniga katta ahamiyat beriladi. Bu jarayon bolalarda nafaqat nutq, balki tinglash va hurmat bilan munosabat bildirish ko‘nikmalarini ham shakllantiradi.

Janubiy Koreya ta’lim tizimi yuqori natijalari bilan ajralib turadi. So‘nggi yillarda bu mamlakatda an’anaviy yodlashga asoslangan ta’limdan kompetensiyaviy yondashuvga o‘tish kuzatilmoqda. Darslarda interfaol metodlar, muammoli vaziyatlar va raqamli texnologiyalar keng qo‘llanilmoqda [4; 160].

Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilar jamoa bo‘lib ishlash, o‘z fikrini asoslash va taqdimot qilishga o‘rgatiladi. Raqamli platformalar orqali hamkorlikda loyiha bajarish bolalarning yozma va og‘zaki muloqotini rivojlantiradi.

Rivojlangan davlatlarning deyarli barchasida AKT vositalari kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishda muhim vosita sifatida qaraladi. Interaktiv doskalar, ta’limiy ilovalar, onlayn muhokama platformalari o‘quvchilarning fikr almashish imkoniyatlarini kengaytiradi. Masalan, o‘quvchilar virtual guruhlarda loyiha ustida ishlaydi, taqdimotlar tayyorlaydi va o‘zaro fikr bildiradi.

Shunday qilib, rivojlangan davlatlar ta’lim tizimida kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish boshlang‘ich bosqichdanoq ustuvor yo‘nalish sifatida qaraladi. Bu tajribalar shuni ko‘rsatadiki, innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni o‘quvchilarning nafaqat bilim darajasini, balki ijtimoiy

faolligi va muloqot madaniyatini ham yuksaltiradi. Bu esa ularning kelajakdagi shaxsiy va kasbiy muvaffaqiyati uchun muhim poydevor yaratadi.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston ta’lim tizimida tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu yangilanishlar markazida o‘quvchilarning faqat nazariy bilimlarini emas, balki hayotiy ko‘nikmalarini, xususan kommunikativ kompetentligini rivojlantirish masalasi turibdi. Chunki zamonaviy jamiyat shaxsdan o‘z fikrini erkin ifodalash, jamoada ishlash, ijtimoiy muhitga moslashish va samarali muloqot olib borishni talab etmoqda.

O‘zbekistonda ta’lim mazmunini modernizatsiya qilish jarayonida kompetensiyaviy yondashuv ustuvor yo‘nalish sifatida belgilandi. Davlat ta’lim standartlari va yangi avlod o‘quv dasturlarida tayanch kompetensiyalar qatorida kommunikativ kompetensiya alohida o‘rin egallaydi. Bu esa boshlang‘ich sinflardanoq o‘quvchilarning nutq madaniyati, fikr bildirish va muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan tizimli ishlarni yo‘lga qo‘yishni taqozo etadi.

Boshlang‘ich ta’lim bo‘yicha ishlab chiqilgan o‘quv dasturlarida o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini rivojlantirish, suhbat qurish, savol berish, fikrni asoslash kabi ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratilgan topshiriqlar ko‘paygani kuzatiladi. Bu esa kommunikativ yondashuv ta’lim jarayoniga bosqichma-bosqich singdirilayotganini ko‘rsatadi.

Shunga qaramay, amaliyotda hali ham an’anaviy o‘qitish usullari ustunlik qilayotgan holatlar uchrab turadi. Ko‘plab maktablarda dars jarayonida o‘qituvchi asosiy axborot manbai bo‘lib qolmoqda, o‘quvchilar esa ko‘proq tinglovchi rolida ishtirok etmoqda. Bunday sharoitda bolalarning erkin fikr bildirishi, savol berishi yoki bahs-munozarada faol qatnashishi cheklanishi mumkin.

Ayrim hollarda darslik va topshiriqlar ham ko‘proq reproduktiv faoliyatga yo‘naltirilgan bo‘lib, o‘quvchidan tayyor ma’lumotni qayta aytib berish talab etiladi. Bu esa kommunikativ kompetentlikning muhim tarkibiy qismlari – mustaqil fikrlash, muloqotga kirishish va o‘z nuqtai nazarini himoya qilish ko‘nikmalarining yetarli darajada rivojlanmasligiga olib keladi.

So‘nggi yillarda ko‘plab maktablarda interfaol metodlardan foydalanish tajribasi kengayib bormoqda. “Aqliy hujum”, “Klaster”, “BBB”, “Rollli o‘yinlar”, “Bahs-munozara” kabi metodlar boshlang‘ich sinf darslarida ham qo‘llanila boshladi. Bu metodlar o‘quvchilarni faol muloqotga jalb etadi, ularni o‘z fikrini bildirishga undaydi [10; 132].

Ayniqsa, ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida hikoya tuzish, matnni davom ettirish, qahramonlar nomidan gapirish kabi mashg‘ulotlar bolalarning og‘zaki nutqini rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Matematika va atrof-muhitni o‘rganish darslarida ham guruhli ishlash, natijani tushuntirib berish talabi qo‘yilishi kommunikativ ko‘nikmalarni fanlararo rivojlantirish imkonini bermoqda.

Kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish ko‘p jihatdan o‘qituvchining pedagogik mahoratiga bog‘liq. Agar o‘qituvchi darsda ochiq muloqot muhitini yarata olsa, o‘quvchilarning fikriga hurmat bilan yondashsa va xatodan qo‘rqmasdan gapirishga undasa, bolalarning nutqiy faolligi sezilarli darajada oshadi.

Hozirgi kunda o‘qituvchilar malakasini oshirish kurslarida interfaol metodlar va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o‘rgatishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu esa darslarda innovatsion yondashuvlarning qo‘llanilishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

O‘zbekistonda maktablarni raqamlashtirish jarayoni ham kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Interaktiv doskalar, multimedia vositalari, elektron taqdimotlar darsni jonlantiradi va o‘quvchilarning qiziqishini oshiradi. Videoroliklar asosida fikr almashish, slaydlar orqali taqdimot qilish kabi mashg‘ulotlar bolalarning nutqiy faolligini kuchaytiradi [10, 132]

Biroq barcha maktablarda texnik sharoit bir xil emasligi, ayrim hududlarda internet tezligining pastligi yoki qurilmalar yetishmasligi AKTdan to‘liq foydalanishga to‘sqinlik qilmoqda. Shunga qaramay, mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanayotgan o‘qituvchilar tajribasi ijobiy natijalar bermoqda.

O‘zbekistonda boshlang‘ich ta’limda kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish borasida ijobiy siljishlar mavjud bo‘lsa-da, qator muammolar ham saqlanib qolmoqda. Jumladan:

dars jarayonida o‘quvchilarning nutqiy faolligi hamma joyda ham yetarli darajada emas;

ba’zi o‘qituvchilarda interfaol metodlarni qo‘llash tajribasi cheklangan;

sinflardagi o‘quvchilar sonining ko‘pligi har bir bolaga individual e’tibor qaratishni qiyinlashtiradi;

baholash tizimida ko‘proq yozma natijalar ustuvor bo‘lib, og‘zaki muloqot ko‘nikmalari kam baholanadi.

Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun dars jarayonini ko‘proq muloqotga yo‘naltirish, guruhli ishlarni ko‘paytirish, o‘quvchilarning fikr bildirishini rag‘batlantirish va og‘zaki nutqni baholash mezonlarini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega.

Umuman olganda, O‘zbekistonda boshlang‘ich ta’lim tizimida kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish jarayoni bosqichma-bosqich takomillashib bormoqda. Ta’lim mazmunining yangilanishi,

kompetensiyaviy yondashuvning joriy etilishi, interfaol metodlarning kengayishi va AKTdan foydalanish imkoniyatlarining ortishi bu jarayonni jadallashtirmoqda.

Shu bilan birga, mazkur yo‘nalishda tizimli ishlarni davom ettirish, o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligini kuchaytirish va darslarda o‘quvchilar muloqotini ustuvor vazifa sifatida belgilash kommunikativ kompetentlikni samarali rivojlantirishning muhim sharti bo‘lib qolmoqda. Bu esa kelajakda ijtimoiy faol, fikrlay oladigan va erkin muloqot qila oladigan shaxslarni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishda innovatsion yondashuvlarning samaradorligi tahlil qilindi. Kuzatishlar, suhbatlar va tajriba-sinov mashg‘ulotlari natijalari shuni ko‘rsatdiki, dars jarayoniga interfaol metodlarni tizimli joriy etish o‘quvchilarning nutqiy faolligini sezilarli darajada oshiradi. An’anaviy dars shaklida o‘quvchilar ko‘proq o‘qituvchi savollariga qisqa javob berish bilan cheklangan bo‘lsa, interfaol metodlar qo‘llanilgan darslarda ular mustaqil fikr bildirish, savol berish va o‘z nuqtai nazarini asoslashga intildilar.

Guruhli ishlash metodining alohida samaradorligi kuzatildi. Kichik guruhlarda bajarilgan topshiriqlar jarayonida o‘quvchilar o‘zaro fikr almashdi, bahs yuritdi va umumiy xulosaga kelishga harakat qildi. Bu jarayon ularda tinglash madaniyati, navbat bilan gapirish va boshqalarning fikriga hurmat bilan munosabatda bo‘lish ko‘nikmalarini shakllantirdi. Ayniqsa, tortinchoq o‘quvchilar kichik guruh muhitida o‘zini erkinroq his qilgani va nutqiy faolligi oshgani kuzatildi.

Rolli o‘yinlar va sahnalashtirish mashg‘ulotlari o‘quvchilarning og‘zaki nutqini rivojlantirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qildi. O‘quvchilar turli obrazlarga kirib, vaziyatga mos nutq qurishga harakat qildilar. Bu esa ularning so‘z boyligini kengaytirdi, nutqni ifodali qilish ko‘nikmasini rivojlantirdi hamda muloqot jarayoniga emotsional jalb etilishini kuchaytirdi. O‘yin elementlari mavjud bo‘lgan darslarda o‘quvchilarning darsga qiziqishi yuqori bo‘lgani va faol ishtirok etgani aniqlandi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanilgan mashg‘ulotlar ham ijobiy natija berdi. Multimediali taqdimotlar asosida hikoya tuzish, rasm yoki video asosida fikr bildirish kabi topshiriqlar o‘quvchilarning tasavvurini boyitdi va nutqiy ifoda imkoniyatlarini kengaytirdi. Vizual materiallar yordamida fikr yuritish bolalar uchun yengilroq kechgani sababli, ular o‘z fikrini aniqroq va ishonch bilan bayon qila boshladilar.

Innovatsion yondashuv qo‘llanilgan sinflarda o‘quvchilarning dars jarayonidagi umumiy faolligi ham ortdi. Ular nafaqat o‘z fikrini bildirishga, balki sinfdoshlarining fikrini tinglash va davom ettirishga ham harakat qila boshladi. Bu esa muloqotning ikki tomonlama jarayon sifatida shakllanishiga xizmat qildi.

Kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish samaradorligi bevosita darsni tashkil etish uslubiga bog‘liq. O‘quvchi markaziga yo‘naltirilgan, erkin muloqot muhiti yaratilgan va hamkorlik faoliyatiga asoslangan darslar o‘quvchilarning nutqiy va ijtimoiy ko‘nikmalarini sezilarli darajada rivojlantiradi. Shunday qilib, innovatsion metod va vositalardan tizimli foydalanish boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kommunikativ kompetentlikni shakllantirishning muhim sharti ekanligi amaliy jihatdan o‘z tasdig‘ini topdi.

Xulosa. Boshlang‘ich ta’lim bosqichi shaxs kamolotining eng muhim davrlaridan biri bo‘lib, aynan shu jarayonda bolaning nutqi, tafakkuri va ijtimoiy xulq-atvori shakllanadi. Shu sababli boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish masalasi bugungi kunda pedagogika oldida turgan ustuvor vazifalardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Tadqiqot davomida tahlil qilingan nazariy manbalar, ilg‘or xorijiy tajribalar hamda O‘zbekiston ta’lim tizimidagi mavjud holat shuni ko‘rsatdiki, kommunikativ kompetentlikni shakllantirish tasodifiy emas, balki puxta o‘ylangan, maqsadli va innovatsion yondashuvga asoslangan pedagogik jarayonni talab etadi.

Kommunikativ kompetentlik – bu o‘quvchining shunchaki gapira olishi emas, balki o‘z fikrini mazmunli, mantiqiy va vaziyatga mos tarzda ifoda eta olishi, suhbatdoshni tinglashi, muloqot madaniyatiga rioya qilishi hamda hamkorlikda faoliyat yurita olish qobiliyatidir. Bunday ko‘nikmalar esa an’anaviy, biryoqlama axborot uzatishga asoslangan dars jarayonida yetarli darajada shakllanmaydi. Shu bois ta’lim jarayoniga innovatsion yondashuvlarni joriy etish zarurati yuzaga keladi.

Interfaol metodlar kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishning eng samarali vositalaridan biridir. Guruhlarda ishlash, bahs-munozaralar, rolli o‘yinlar, muammoli vaziyatlarni hal qilish kabi metodlar o‘quvchilarni faol muloqotga jalb etadi. Bu jarayonda har bir bola o‘z fikrini bildirish, boshqalarni tinglash va jamoa bilan hamkorlikda ishlash tajribasini orttiradi. Natijada nafaqat nutq boyligi, balki ijtimoiy moslashuv ko‘nikmalari ham rivojlanadi.

O‘yin texnologiyalari boshlang‘ich yoshdagi bolalar uchun ayniqsa samarali ekanligi aniqlandi. O‘yin jarayonida bola o‘zini erkin his qiladi, xatodan qo‘rqmaydi va muloqotga faol kirishadi. Bu esa tabiiy ravishda nutqiy faollikni oshiradi. Demak, dars jarayoniga didaktik va rolli o‘yinlarni maqsadli integratsiya qilish kommunikativ kompetentlikni shakllantirishda muhim omil hisoblanadi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ham mazkur jarayon samaradorligini oshiradi. Multimediali vositalar, taqdimotlar, interaktiv topshiriqlar o‘quvchilarning qiziqishini oshirib, ularni faol ishtirok etishga undaydi. Raqamli muhitda fikr almashish, taqdimot qilish va jamoa bilan ishlash bolalarning zamonaviy kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Rivojlangan davlatlar ta’lim tizimida kommunikativ kompetentlik boshlang‘ich bosqichdanoq ustuvor yo‘nalish sifatida qaraladi. U yerda darslar ko‘proq o‘quvchi faolligiga asoslanadi, o‘qituvchi esa yo‘naltiruvchi rolini bajaradi. O‘zbekiston ta’lim tizimida ham so‘nggi yillarda ana shunday yondashuvni joriy etish borasida sezilarli qadamlar tashlanmoqda. Biroq bu jarayonni yanada takomillashtirish uchun o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligini oshirish, darslarda muloqot muhitini kengaytirish va baholash tizimini kommunikativ ko‘nikmalarni ham qamrab oladigan tarzda takomillashtirish lozim.

Kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish faqat til darslari vazifasi emas. Barcha fanlar doirasida o‘quvchilarning fikrini og‘zaki bayon etishi, savollarga javob berishi, tushuntirish berishi va guruhli ishlarda ishtirok etishi ta’minlanishi kerak. Fanlararo integratsiya asosida tashkil etilgan darslar o‘quvchilarning muloqot ko‘nikmalarini yanada boyitadi.

Shunday qilib, innovatsion yondashuv asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kommunikativ kompetentlikni samarali rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu esa o‘quvchilarning keyingi ta’lim bosqichlarida muvaffaqiyatli o‘qishi, jamiyatda o‘z o‘rnini topishi va ijtimoiy faol shaxs sifatida shakllanishi uchun mustahkam zamin yaratadi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. Uzluksiz ta’lim tizimini takomillashtirish to‘g‘risidagi qarorlar to‘plami. – Toshkent, 2020. – 120 b

2. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi. Boshlang‘ich ta’lim davlat ta’lim standarti. – Toshkent, 2021. – 45 b.

3. Сухомлинский, В.А. Сердце отдаю детям. – Киев: Рад. Школа, 2017. – 382 с.

4. Ishmuhamedov, R.J. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2024. – 160 b.

5. Muslimov, N.A. Kasbiy ta’lim pedagogikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2012. – 320 b.

6. Xodjayev, B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Sano-standart, 2017. – 416 b.

7. Tolipov O‘, Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – Toshkent: Fan, 2016. – 260 b.

8. Muhiddinov A.G., O‘quv jarayonida nutq faoliyati. -Toshkent: O'qituvchi, 2025. - 65 bet.

9. Зюзина А. Основы педагогического мастерства / Под ред. - Москва: Просвещение, 2019. 302 с.

10. Qosimov A.X., Holikova F.A. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiyalar / Ma’ruzalar matni. –Toshkent: TATU, 2014. -132 bet.

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA TEXNOLOGIYA TA’LIMI MAZMUNI

Xalloqova Oygul Olimovna,
Buxoro davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi

Mazkur mavzuda boshlang‘ich sinflarda texnologiya ta’limining mazmuni, uning o‘quvchilarning intellektual, ijodiy va amaliy ko‘nikmalarini shakllantirishdagi o‘rni yoritilgan. Texnologiya fanining asosiy vazifalari, ya’ni mehnat malakalari, texnik tafakkur, ijodkorlik va mustaqil ishlash qobiliyatlarini rivojlantirish masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, dars jarayonida qo‘llaniladigan metodlar, amaliy mashg‘ulotlarning ahamiyati hamda o‘quvchilarda mehnatsevarlik, tejamkorlik va kasbga yo‘naltirishni shakllantirish yo‘llari ko‘rib chiqilgan. Mavzu boshlang‘ich ta’lim jarayonida texnologiya fanining ta’lim-tarbiyaviy ahamiyatini ochib berishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: *boshlang‘ich ta’lim, texnologiya, tarbiya, faoliyat, jarayon, dars, bilim, ko‘nikma, malaka.*

СОДЕРЖАНИЕ ОБУЧЕНИЯ ТЕХНОЛОГИИ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

Данная тема охватывает содержание технологического образования в начальных классах, его роль в формировании интеллектуальных, творческих и практических навыков учащихся. Анализируются основные задачи технологии, а именно развитие трудовых навыков, технического мышления, креативности и навыков самостоятельной работы. Также рассматриваются методы, используемые в учебном процессе, важность практических упражнений и способы формирования у учащихся трудолюбия, бережливости и карьерной ориентации. Тема направлена на выявление образовательного и воспитательного значения технологии в процессе начального образования.

Ключевые слова: *начальное образование, технология, воспитание, деятельность, процесс, урок, знания, навыки, квалификация.*

CONTENT OF TECHNOLOGY EDUCATION IN PRIMARY GRADES

This topic covers the content of technology education in primary grades, its role in the formation of intellectual, creative and practical skills of students. The main tasks of technology, namely the development of labor skills, technical thinking, creativity and independent work skills, are analyzed. Also, the methods used in the lesson process, the importance of practical exercises, and ways to form diligence, thrift and career orientation in students are considered. The topic is aimed at revealing the educational and educational significance of technology in the process of primary education.

Keywords: *primary education, technology, upbringing, activity, process, lesson, knowledge, skills, qualification.*

Kirish. Jamiyatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar asosida umumiy o‘rta ta’lim mazmuni va sifatiga qo‘yiladigan talablarni keskin ortib borishi, erkin bozor munosabatlariga va xususiy mulk ustuvorligiga asoslangan iqtisodiyotni rivojlanishi hamda tadbirkorlik faoliyatini keng joriy qilishda o‘quvchi shaxsi, uning intilishlari, qobiliyati va qiziqishlari ustuvorligi, ta’lim va o‘qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etilayotganligini inobatga olgan holda umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘qitiladigan – Mehnat ta’limi fani nomi “Texnologiya” fani deb o‘zgartirildi hamda bugungi kun talablaridan kelib chiqib ko‘p tarmoqli yo‘nalishlarga asoslangan holda ishlab chiqildi.

Texnologiya ta’limi bo‘yicha DTS da umumiy o‘rta ta’lim maktablarida texnologiya va kasb tanlashga yo‘naltirishning tayanch mazmuni hamda maktabni bitirgan o‘quvchilarning texnologiya ta’limi fanidan tayyorgarlik darajasini me’yorlari ifodalanadi.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. “Texnologiya” atamasi XIX asrning ikkinchi yarmidan e’tiboran moddiy ishlab chiqarish sohasida, xom ashyoni qayta ishlash jarayonlariga texnologik yondashuv zarurati yuzaga kelishi bilan ilmiy muomalaga kirib kelgan. Ushbu tushuncha yunoncha “texnik” — mahorat va san’at, hamda “logos” — fan, ta’limot so‘zlaridan kelib chiqqan bo‘lib, mazkur yo‘nalishning ilmiy asoslarini ifodalaydi.

Ta’lim jarayonida esa texnologiya tushunchasi o‘qitish va o‘qish faoliyatining o‘zaro bog‘liqligini, ularning izchil va uzviy bosqichlarini belgilash, shuningdek, ta’lim-tarbiya jarayonida ko‘zda tutilgan maqsadlarga erishish uchun amalga oshiriladigan ishlarni muvofiqlashtirishni anglatadi. Bunda barcha

faoliyatlarning ketma-ketligi, bosqichma-bosqich bajarilishi hamda rejalashtirilgan vazifalarning belgilangan talablar asosida bajarilishi ta’minlanadi.

Texnologiya ta’limi o‘qituvchi rahbarligida o‘quvchilarning aqliy va jismoniy faoliyatini o‘z ichiga olgan jarayon bo‘lib, uning natijasida o‘quvchilar mehnat qurollari, vositalari va ishlab chiqarish jarayonlari haqidagi bilimlarga ega bo‘ladilar. Shu bilan birga, muayyan ishlab chiqarish sohasida mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan amaliy ko‘nikma va malakalarni egallash, ongli ravishda kasb tanlash hamda jamiyat va shaxs farovonligi yo‘lida mehnat qilishga tayyorlovchi shaxsiy sifatlar va tafakkurini rivojlantirishga yo‘naltirilgan o‘quv fanidir.

Kichik sinf o‘quvchilarini qo‘l mehnatiga jalb etishning asosiy maqsadi ularda mehnat faoliyatining boshlang‘ich bosqichlarini shakllantirishdan iborat bo‘lib, bu jarayon eng sodda amaliy harakatlardan boshlanadi. Jumladan, qog‘ozni buklash, kesish, yelimlash, turli geometrik shakllar tayyorlash hamda applikatsiya ishlari bajarish orqali o‘quvchilar dastlabki mehnat elementlarini o‘zlashtira boshlaydilar.

Bundan tashqari, qo‘l mehnatiga o‘rgatish jarayonida o‘quvchilar “Tikish va bichish”, “Pazandachilik”, “Plastilin bilan ishlash”, “Qog‘oz va karton bilan ishlash”, shuningdek, “Applikatsiya va mozaika ishlari” kabi faoliyat turlari bilan izchil va bosqichma-bosqich tanishtirib boriladi.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida texnologiya fanini o‘qitishdan ko‘zlangan asosiy maqsad o‘quvchilarni aqliy va jismoniy mehnat turlari hamda ularning bajarilish jarayonlari bilan tanishtirish, turli kasblar haqida dastlabki tushunchalar berishdan iboratdir. Shuningdek, ularda boshlang‘ich mehnat ko‘nikmalari va malakalarini shakllantirish, mehnatga bo‘lgan qiziqish va mehnatsevarlik sifatlarini rivojlantirish, mehnat va kasblarning jamiyatdagi ahamiyatini anglashga o‘rgatish ham muhim vazifalar hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Boshlang‘ich sinf texnologiya ta’limida uzviylikni ta’minlash zarur bo‘lib, bu ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarning o‘zaro bog‘liqligini taqozo etadi. Ta’limiy maqsad o‘quvchilarning barkamol shaxs sifatida shakllanishlari uchun ularni mehnat jarayonlari, qo‘l mehnati va kasblar haqidagi bilimlar bilan qurollantirish hamda kelgusida kasb tanlashga tayyorlashdan iboratdir.

Tarbiyaviy maqsad esa o‘quvchilarning mehnat faoliyati davomida mehnat va kasbga bo‘lgan ijobiy munosabatini shakllantirish, ularda mehnatsevarlik, vatanparvarlik va tadbirkorlik kabi yuksak axloqiy sifatlarni rivojlantirishga qaratilgan. Rivojlantiruvchi maqsad texnologiya ta’limi mashg‘ulotlari orqali o‘quvchilarning aqliy, jismoniy, axloqiy hamda badiiy-estetik jihatdan kamol topishlariga ko‘maklashishni nazarda tutadi.

Umuman olganda, texnologiya ta’limi va tarbiyasining asosiy maqsadi o‘quvchilarda o‘quv faoliyati jarayonida mehnatga nisbatan ongli va mas’uliyatli munosabatni shakllantirishdan iboratdir.

Ushbu maqsadlarni ro‘yobga chiqarish jarayonida bir qator muhim vazifalarni bajarish talab etiladi. Mehnat tarbiyasini tashkil etishda hal etiladigan vazifalar ko‘p qirrali bo‘lib, ular o‘quvchilarning mehnat faoliyatiga nisbatan amaliy, ruhiy hamda axloqiy tayyorgarligining barcha jihatlarini o‘z ichiga oladi. Texnologiya ta’limi va tarbiyasini samarali tashkil etish quyidagi vazifalarning amalga oshirilishini taqozo etadi:

1. Mehnatning mohiyatini tushuntirish orqali uning shaxs kamoloti va jamiyat rivojidagi ahamiyatini o‘quvchilarga ochib berish;
2. Inson mehnati natijasida yaratilgan moddiy va ma’naviy boyliklarni qadrlash hamda ularni asrab-avaylash ko‘nikmalarini shakllantirish;
3. Mehnat faoliyatiga nisbatan qiziqish, rag‘bat va muhabbat tuyg‘ularini uyg‘otish;
4. O‘quvchilarda mehnatga ijtimoiy burch sifatida yondashish tushunchasini qaror toptirish;
5. Mehnat jarayoniga ongli, mas’uliyatli va vijdonan munosabatda bo‘lish odatini rivojlantirish;
6. Mehnat faoliyatini jamoa asosida tashkil etish malakalarini shakllantirish;
7. Mehnatni hayotiy ehtiyoj va inson faoliyatining muhim tarkibiy qismi sifatida anglashga o‘rgatish;
8. Mehnatni ilmiy asosda tashkil etishga doir ko‘nikma va malakalarni rivojlantirish;
9. O‘quvchilarda mehnatsevarlik sifatini tarbiyalash hamda o‘z mehnati natijalaridan faxrlanish tuyg‘usini shakllantirish;
10. Muayyan kasb-hunar sirlarini egallashga yo‘naltirish va bu boradagi bilimlarni mustahkamlash.

Yosh avlodning mehnat faoliyati bir nechta yo‘nalishlarda shakllantiriladi va rivojlantiriladi:

- mehnat faoliyati o‘yinlardan ajratilib, mustaqil faoliyat sifatida rivojlantiriladi;
- mehnat jarayonining mohiyati va mazmuni o‘zlashtiriladi;
- mehnatning turli shakllari va ko‘rinishlari amaliyotda yuzaga keltiriladi.

Ijtimoiy mehnatning muhim tarkibiy qismi mehnat tarbiyasi hisoblanadi. Mehnat tarbiyasidan ko‘zlangan asosiy maqsad – o‘quvchilarga mehnatning mohiyatini va uning mazmunini chuqur anglatishdir.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Mehnat tarbiyasi shaxsga mehnat faoliyatining ahamiyatini tushuntirish, ularda mehnat va mehnatga nisbatan ongli munosabatni shakllantirish, shuningdek, muayyan ijtimoiy foydali ish yoki kasbiy ko‘nikma va malakalarni o‘rgatishga qaratilgan pedagogik jarayondir. Shu tariqa, mehnat tarbiyasining asosiy maqsadi shaxsda mehnat va mehnat faoliyatiga ijobiy munosabatni rivojlantirishdan iborat.

Boshlang‘ich maktablarda texnologiya ta’limi va tarbiyasining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- o‘quvchilarni mehnatga tayyorlash;
- boshlang‘ich sinflarda qo‘l mehnatiga o‘rgatish;
- kasblar haqida dastlabki ma’lumotlar berish;
- davlat ta’lim standartlariga muvofiq tarbiyalash;
- o‘quvchilarni kasb-hunar egasi bo‘lishga tayyorlash uchun nazariy va amaliy bilimlarni berish;
- mehnat madaniyatini shakllantirish.

Texnologiya fani boshqa o‘quv fanlaridan quyidagi xususiyatlari bilan ajralib turadi:

- o‘qitishda amaliy mazmun ustivorligi;
- ishlab chiqarish jarayoni bilan chambarchas bog‘liqligi;
- fanlar bilan integratsiyasi, ya’ni mujassam fan bo‘lishi;
- o‘g‘il va qiz bolalarning mehnat faoliyatiga xos yondashuvni hisobga olishi.

1–4-sinflarda texnologiya mashg‘ulotlarining mazmuni va usullari o‘quvchilarda umumiy mehnat va kasb faoliyatlariga oid boshlang‘ich mehnat ko‘nikmalarini shakllantirishga yo‘naltiriladi. O‘quvchilar har bir mehnat harakatini ongli ravishda va maqsadga muvofiq tarzda bajarishga o‘rgatiladi.

1–4 sinflarda texnologiya ta’limi darsi haftasiga 1 soatdan o‘qitiladi. 1 sinfda 33 soat, 2–4 sinflarda 34 soatdan jami 1–4 sinflarda 34 soat o‘qitiladi.

Texnologiya dasturida o‘quvchilar mehnat darslarida egallashi kerak bo‘lgan ilmiy-texnik bilimlar, shuningdek, mehnat malaka va ko‘nikmalarining hajmi va mazmuni oldindan belgilab qo‘yilgan. Dastur yoshlarni mehnat ta’limi va tarbiyasi sohasida jamiyatimizning hozirgi rivojlanish bosqichiga mos ravishda maqsad va vazifalarni amalga oshirishga yo‘naltirilgan. Texnologiya dasturi o‘quv rejasi asosida ishlab chiqiladi va o‘qituvchi kundalik faoliyatida unga amal qiladi; dastur talablariga rioya qilish majburiy hisoblanadi. Shu bilan birga, o‘qituvchi mahalliy sharoit va shaxsiy tajribasini inobatga olib, dasturda ba’zi o‘zgartirishlar kiritishi mumkin.

O‘quvchilarni tarbiyalash va ularni ishlab chiqarish faoliyatiga tayyorlashda mehnat malakalari va ko‘nikmalari muhim rol o‘ynaydi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga mehnat ta’limini berishning asosiy vazifalaridan biri ularni turli mehnat malaka va ko‘nikmalari bilan tanishtirishdir.

Texnologiya dasturi talablarini bajarishda, mavzuga oid bilim berishda va malaka hamda ko‘nikmalarni shakllantirishda o‘quvchilarga muayyan hajmdagi politexnik bilimlar yetkaziladi. Boshlang‘ich politexnik bilim o‘quvchilarga predmet yaratish, ishlov berilayotgan materialning xususiyatlari, texnologik o‘ziga xosliklar, shuningdek, qo‘lda ishlov berishda qo‘llaniladigan asbob-uskunalar va ulardan foydalanish qoidalari haqida ma’lumot beradi.

O‘quvchilarga berilayotgan politexnik bilimlar amaliy ko‘nikma va malakalarni shakllantirish uchun zarur nazariy poydevor hisoblanadi. Amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish esa o‘quvchilarga turli mashg‘ulotlar orqali harakatlarni bajarishni o‘rgatishdan iborat. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bajarishi kerak bo‘lgan amaliy ishlar xilma-xil bo‘lib, ular mehnat malaka va ko‘nikmalarini egallamasdan materiallarni o‘lchash, belgilash, kesish, qismlarni yelimlash, tikish, o‘rash va bog‘lash, detallarni yig‘ish, buyumni montaj qilish va bezash kabi jarayonlarni bajarishda qiyinchiliklarga duch keladilar.

O‘quvchilardagi mehnatga qiziqishni o‘z vaqtida aniqlash va ularni mashg‘ulotlarda mehnat malakalarini rivojlantirishga yo‘naltirish juda muhimdir. Bunda eng oddiy buyumlar – o‘yinchoqlar, o‘quv qurollari, naqshlar chizish va qirqish, applikatsiya ishlari kabi faoliyat turlari qo‘llaniladi. Shu bilan birga, o‘quvchilarda mehnatga qiziqishni oshirish, mehnat darslarida olingan bilimlarni mustahkamlash va ko‘nikma hamda malakalarni rivojlantirish maqsadida “Mohir qo‘llar” to‘garaklari va sinfdan tashqari mashg‘ulotlar tashkil etilishi maqsadga muvofiqdir.

Ko‘nikma – bu kishining bilim va tajribasi asosida ma’lum harakatni ongli bajarishga bo‘lgan qobiliyatidir. Masalan, kartonni to‘g‘ri kesish, qaychini to‘g’ri ishlata bilish, harakatni aniq muvofiqlashtirish, kuch va bosimni teng saqlash kabi.

Malaka esa faoliyat davomida mashq qilish va tajriba orttirish orqali shakllangan, mujassamlashtirilgan ko‘nikmadir. Malaka tez va aniq bajarish, mashqlar natijasida shakllangan ko‘nikma yoki ko‘nikmalar to‘plamini anglatadi. Shu bois, agar ko‘nikmalarni shakllantirish uchun mashq va usullar to‘g‘ri tuzilgan bo‘lsa, ular malakaga aylanishi mumkin. Malakaning rivojlanish darajasi o‘qitishning turli

bosqichlarida farq qiladi va uning tuzilishi ham o‘zgaruvchan bo‘ladi. Mashqlar davomida o‘quvchilarning harakatlari murakkablashgani sari, oddiy ko‘nikmalar asta-sekin murakkab malakalarga birlashadi.

Mehnat malaka va ko‘nikmalarini shakllantirish quyidagicha asosiy bosqichlardan tarkib topadi:

a) boshlang’ich tushuncha berish;

b) mehnat harakatlarini sinov uchun bajarish;

d) ish harakatlari natijasi;

e) yakuniy xulosa chiqarish.

Mehnat malakalari va ko‘nikmalarini shakllantirishga mo‘ljallangan amaliy ishlar faqat vaqtga ko‘ra taqsimlanganda hamda ma’lum tizim asosida o‘tkazilgandagina ijobiy natija beradi.

Amaliy ishlar tizimi quyidagi asosiy talablarni o‘z ichiga oladi:

1. Amaliy ishlarni bajariladigan topshiriqning murakkabligi oshib borishini nazarda tutgan holda joylashtirish lozim.
2. Bajarilayotgan amaliy ish mazmuni to‘liq tarzda oldingi amaliy ishga asoslanishi lozim.
3. Amaliy ish jarayonida mustaqil ishlash darajasi ortib borishi kerak.

Mehnat malakasining muvaffaqiyatli bo‘lishi bir qator shartlarga bog’liq. O‘quvchi o‘z faoliyatini mustaqil rejalashtirmas ekan, uning malakasi hech qachon to‘liq bo‘lmaydi. Nazoratning yo‘qligi ko‘pincha xato va nuqsonlarning amaliy ishlar jarayonida ortib borishiga olib keladi. Bu esa, o‘z navbatida, etilmagan harakat va usullarning shakllanishiga sabab bo‘ladi.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi texnologiya fanidan mashg‘ulot olib borayotganda, o‘quvchilar bajaradigan har bir ish natijasida qanday bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashlarini aniq bilishi zarur. Shu tarzda o‘qituvchi sinf uchun ayni vaqtda kerakli materiallarni tanlash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Muhimi shundaki, o‘quvchilar ushbu materiallar bilan ishlash jarayonida dasturda belgilangan bilim va malakalarni egallashlari lozim.

Boshlang‘ich sinflarda texnologiya darslarida ta’lim-tarbiyaviy vazifalar umumta’lim maktablarida mehnat ta’limining umumiy maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, quyidagi mashg‘ulot turlari orqali amalga oshiriladi:

1. Qog‘oz va karton bilan ishlash;
2. Gazlama va tolali materiallar bilan ishlash;
3. Turli va tabiiy materiallar bilan ishlash:

a) plastilin va loy bilan ishlash;

b) urug‘lar bilan ishlash;

c) applikatsiya va mozaika ishlari;

4. Loyihalash va modellashtirish:

a) badiiy qurish va yasash;

5. Qishloq xo‘jalik mehnati.

Texnologiya fani dasturi mavzulari

№	Mavzu nomlari	Ajratilgan soat			
Sinflar		1	2	3	4
1	Qog’oz va karton bilan ishlash	13	13	13	10
2	Gazlama va tolali materiallar bilan ishlash	5	3	7	7
3	Texnik modellash	-	2	2	2
4	Plastilin va loy ishi	3	5	3	5
5	Turli materiallar bilan ishlash	4	9	2	5
6	Badiiy qurish-yasash	8	2	7	5
Jami:		**33**	**34**	**34**	**34**

Har bir o‘quv yilida va barcha sinflarda ishlar belgilangan tartibda olib boriladi. Avvalo, o‘quvchilar nazariy bilimlarni egallaydilar, fanlararo texnologik xususiyatlar bilan tanishadilar va bu bilimlarning kundalik hayotda qo‘llanilishini o‘rganadilar. Keyinchalik esa materiallar bilan ishlashda eng oddiy usullardan boshlab, murakkab jarayonlargacha amaliy mashg‘ulotlarni o‘zlashtiradilar.

Bozor munosabatlari sharoitida mehnat bozorida raqobatbardosh bo‘lish har bir mutaxassisdan yuqori darajada kasbiy kompetentlikni talab qiladi va uni muntazam rivojlantirishni taqozo etadi. Shu nuqtada “kompetentlik” va unga aloqador tushunchalar yuzasidan so‘z yuritiladi.

Kompetensiya (lotincha: competo — erishyapman, loyiqman) — 1) muayyan davlat organi yoki mansabdor shaxsning vakolatlari, huquq va burchlari; 2) sohadagi bilimlar va tajriba. Inglizcha “competence” lug‘aviy jihatdan “qobiliyat” ma’nosini beradi. Mazmunan esa bu faoliyatda nazariy

bilimlarni samarali qo‘llash, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon etish degan ma’noni anglatadi.

Kompetentlik tushunchasi ta’lim sohasiga psixologik izlanishlar natijasida kirib kelgan bo‘lib, u “noan’anaviy vaziyatlarda, kutilmagan holatlarda mutaxassisning o‘zini qanday tutishi, muloqotga kirishi, ziddiyatli vazifalarni hal qilish, murakkab jarayonlarda izchil va ongli harakat qilish qobiliyati”ni ifodalaydi.

Kasbiy kompetentlik esa faqat alohida bilim va malakalarni egallashni anglatmaydi, balki integrativ tarzda o‘zlashtirilgan bilim va harakatlarni ham o‘z ichiga oladi. Shu bilan birga, kasbiy kompetentlik mutaxassisdan doimiy bilimlarni boyitish, yangi axborotlarni o‘rganish, ijtimoiy talablarni tushunish, yangi ma’lumotlarni izlash, qayta ishlash va amalda qo‘llay olishni talab qiladi.

Kasbiy kompetentlik quyidagi holatlarda yaqqol namoyon bo‘ladi: mutaxassis kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishi va ularni amalda yuqori darajada qo‘llay olishi kerak.

Kasbiy kompetentlik negizidagi asosiy sifatlar:

1. Ijtimoiy kompetentlik — ijtimoiy munosabatlarda faollik ko‘rsatish, muloqotga kirishish va kasbiy faoliyatda subyektlar bilan samarali ishlash ko‘nikmalariga egalik.

2. Maxsus kompetentlik — kasbiy-pedagogik faoliyatni tashkil etishga tayyorlanish, kasbiy-pedagogik vazifalarni oqilona hal qilish va faoliyat natijalarini real baholash. Shu kompetentlik asosida psixologik, metodik, informatsion, kreativ, innovatsion va kommunikativ kompetentliklar namoyon bo‘ladi.

Ular o‘zida quyidagi mazmunni ifodalaydi:

Sifatlar:

Ijtimoiy kompetentlik

Shaxsiy kompetentlik

Texnologik kompetentlik

Maxsus (yoki kasbiy)kompetentlik

Kasbiy kompetentlik negizida aks etuvchi sifatlar

Ekstremal kompetentlik psixologik, metodik, informatsion, kreativ, innovatsion, kommunikativ va boshqa kompetentlik

- murakkab jarayonlarda;
- noaniq vazifalarni bajarishda;
- bir-biriga zid ma’lumotlardan foydalanishda;
- kutilmagan vaziyatda harakat rejasiga ega bo‘la olishda
- o‘z bilimlarini izchil boyitib boradi;
- yangi axborotlarni o‘zlashtiradi;
- davr talablarini chuqur anglaydi;
- yangi bilimlarni izlab topadi;
- ularni qayta ishlaydi va o‘z amaliy faoliyatida samarali qo‘llaydi.

1) psixologik kompetentlik– pedagogik jarayonda sog’lom psixologik muhitni yarata olish, talabalar va ta’lim jarayonining boshqa ishtirokchilari bilan ijobiy muloqotni tashkil etish, turli salbiy psixologik ziddiyatlarni o‘z vaqtida anglay olish va bartaraf eta olish;

2) metodik kompetentlik pedagogik jarayonni metodik jihatdan oqilona tashkil etish, ta’lim yoki tarbiyaviy faoliyat shakllarini to‘g’ri belgilash, metod va vositalarni maqsadga muvofiq tanlay olish, metodlarni samarali qo‘llay olish, vositalarni muvaffaqiyatli qo‘llash;

3) informatsion kompetentlik – axborot muhitida zarur, muhim, kerakli, foydali ma’lumotlarni izlash, yig’ish,saralash, qayta ishlash va ulardan maqsadli, o‘rinli, samarali foydalanish;

4) kreativ kompetentlik – pedagogik faoliyatga tanqidiy, ijodiy yondashish, o‘zining ijodkorlik malakalariga egaligini namoyish eta olish;

5) innovatsion kompetentlik – pedagogik jarayonni takomillashtirish, ta’lim sifatini yaxshilash, tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga doir yangi g’oyalarni ilgari surish, ularni amaliyotga samarali tatbiq etish;

6) kommunikativ kompetentlik – ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilari, jumladan, talabalar bilan samimiy muloqotda bo‘lish,ularni tinglay bilish, ularga ijobiy ta’sir ko‘rsata olish.

3. Shaxsiy kompetentlik – izchil ravishda kasbiy o‘sishga erishish, malaka darajasini oshirib borish, kasbiy faoliyatda o‘z ichki imkoniyatlarini namoyon qilish.

4. Texnologik kompetentlik – kasbiy-pedagogikni boyitadigan ilg’or texnologiyalarni o‘zlashtirish, zamonaviy vosita, texnika va texnologiyalardan foydalana olish.

Xulosa. Pedagogning kasbiy kompetentligi. O‘zbekistonda pedagogning kasbiy kompetentligi, uning o‘ziga xos jihatlari o‘ranilgan bo‘lib, ular orasida B.Nazarova tomonidan olib borilgan tadqiqot o‘ziga xos

ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotchining fikriga ko‘ra pedagogga xos kasbiy kompetentlik negizida quyidagi tarkibiy asoslar tashkil etadi Kasbiy-pedagogik kompetentlikka ega bo‘lishda o‘z ustida ishlash, o‘z-o‘zini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

Adabiyotlar:

1. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2016. – 176 b.
2. Ishmuhamedov R.J. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Iste’dod, 2018. – 192 b.
3. Qodirova F.R., Toshpulatova N.M. Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019. – 240 b.
4. Sayidahmedov N.S. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Fan, 2017. – 220 b.
5. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi. Boshlang‘ich sinflar uchun texnologiya fani o‘quv dasturi. – Toshkent, 2021. – 32 b.
6. Abdullayeva M.M. Boshlang‘ich sinflarda mehnat ta’limi metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2015. – 168 b.
7. Кларин М.В. Педагогическая технология в учебном процессе. – Москва: Педагогика, 2018. – 256 с.

4K KOMPETENSIYALARINING BOSHLANG‘ICH TA’LIMDAGI O‘RNI, RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR TAJRIBASI

Rahimova Shoira Adilbekovna,
Urganch davlat pedagogika instituti “Boshlang‘ich ta’lim nazariyasi” kafedrasi p.f.f.d. (PhD) dotsent v.b.
Qodirberganova Maftuna Davronbek qizi,
Urganch davlat pedagogika instituti 2-bosqich magistranti

Ushbu maqolada boshlang‘ich ta’lim jarayonida o‘quvchilarda kreativ kompetensiyalarni shakllantirishni 4K modeli (kreativlik, kritik fikrlash, kommunikatsiya va kollaboratsiya) asosida izohlaydi. Tadqiqot doirasida XXI asr ta’limi talablariga mos ravishda 4K modelining pedagogik mohiyati, nazariy manbalari va boshlang‘ich ta’limdagi o‘rni aniqlanadi. Tahlillar 4K kompetensiyalarini rivojlantirish boshlang‘ich bosqichda o‘quvchilarning bilish faolligi, mustaqil fikrlashi va ijtimoiy moslashuvini ta’minlashda muhim omil ekani ko‘rsatilgan.

Kalit so‘z: *Boshlang‘ich ta’lim, bilim, tafakkur, ilm, ta’lim, tarbiya, qobiliyat.*

РОЛЬ 4К-КОМПЕТЕНЦИЙ В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ И ОПЫТ РАЗВИТЫХ СТРАН

В данной статье объясняется формирование креативных компетенций у учащихся в процессе начального образования на основе модели 4К (креативность, критическое мышление, коммуникация и коллаборация). В рамках исследования определяется педагогическая сущность, теоретические источники и роль модели 4К в начальном образовании в соответствии с требованиями образования XXI века. Анализ показывает, что развитие 4К-компетенций является важным фактором обеспечения познавательной активности, самостоятельного мышления и социальной адаптации учащихся на начальном этапе.

Ключевое слово: *Начальное образование, знания, мышление, наука, образование, воспитание, способности.*

THE ROLE OF 4C COMPETENCIES IN PRIMARY EDUCATION AND THE EXPERIENCE OF DEVELOPED COUNTRIES

This article explains the formation of creative competencies in students in the process of primary education based on the 4K model (creativity, critical thinking, communication, and collaboration). Within the framework of the research, the pedagogical essence, theoretical sources, and the role of the 4K model in primary education are determined in accordance with the requirements of 21st-century education. The analysis shows that the development of 4K competencies is an important factor in ensuring the cognitive activity, independent thinking, and social adaptation of students at the initial stage.

Keyword: *Primary education, knowledge, thinking, science, education, upbringing, ability.*

Kirish. Jahon iqtisodiyot forumi asoschisi va ijrochi raisi professor Klaus Shvab o‘zining “To‘rtinchi sanoat inqilobi” nomli kitobida insonlarning hayot tarzi, ishlashi va o‘zaro munosabatlarini tubdan o‘zgartiruvchi inqilob boshida ekanligiga ishonch hosil qildi. Oldingi sanoat inqiloblari insoniyatni hayvonlar kuchidan ozod qilgani, ommaviy ishlab chiqarishni amalga oshirgani va milliardlab odamlarga raqamli imkoniyatlarni taqdim etgani haqida gapirib, “To‘rtinchi sanoat inqilobi” jismoniy, raqamli va biologik olamlarni uyg‘unlashtirgani, barcha fanlar, iqtisodiyot va sanoatlarga ta’sir ko‘rsatadigan va hatto inson bo‘lish nimani anglatishi haqidagi g‘oyalarni qiyinlashtiradigan bir qator yangi texnologiyalar bilan tavsiflanishini ta’kidlaydi.[IV.1]

2016-yilda Davosdagi Jahon iqtisodiyot forumi prezidenti Klaus Shvab to‘rtinchi texnologik inqilob boshlanganini ma’lum qilib, tez orada robotlar biz uchun hamma narsani qilishi va 2020-yilga kelib har bir xodim murakkab muammolarni hal qilish, tanqidiy fikrlash, ijodiy fikrlash, odamlarni boshqarish, jamoada ishlash, boshqa odamlar va o‘zining his-tuyg‘ularini boshqara olish, hukmlarni shakillantirish va qarorlar qabul qilish, muzokoralarni olib boorish, tezda bir vazifada ikkinchisiga o‘tish kabi qobiliyatlarga ega bo‘lish kerak deb hisoblaydi.[II.30]

Rivojlangan mamlakatlar ta’lim tizimi mazmunida Davosda ilgari surilgan malakalar 4K modelida ifodalanib,moslashuvchan ko‘nikmalar deb yuritila boshlandi. So‘ngi bir necha yil ichida butun dunyoda maktab ta’limi fan bilimlari va ko‘nikmalarini shakillantirishga qaratilgan an’anaviy usullardan voz kechib, XXI asrning zamonaviy asosiy kompetensiyalari yoki ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun sharoit yaratishga harakat qilmoqda.

Jahon ta’limida yangicha yondashuvlar, o‘zgarishlar va takomillashtirish jarayoni kechmoqda. Bunda Birlashgan Millatlar tashkilotining “Hamma uchun ta’lim” g‘oyasi asosida jahonda yagonalashgan ta’lim jarayoni amalga oshirilmoqda. Bu borada YUNESKO tashkilotining xalqaro ta’lim dasturlari va qoidalariga qat’iy amal qilish muhim ustuvor yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Shu sababli jahonda ta’lim hamkorligi bo‘yicha modellar tarkib topmoqda. Bu o‘rinda boshlang‘ich ta’limning ustuvor ahamiyat kasb etayotganligini ta’kidlash lozim. Chunki texnologik taraqqiyot davrida boshlang‘ich ta’lim barchaning savodxon bo‘lishini ta’minlaydi. Bunda shaxsning alifboni bilish, o‘qish,yozish va hisoblash ko‘nikmalaridan xabardor bo‘lishi zaruriyat hisoblanadi. Bular savodxonlikning asosidir. Dunyo mamlakatlari ta’lim jarayonida bugungi kun talablari asosida ta’lim va tarbiyani amalga oshirish jarayoni kechmoqda bunda ayniqsa, boshlang‘ich ta’limni rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida qabul qilingan. Shu sababli dunyo mamlakatlari ta’lim tizimida boshlang‘ich ta’limning yangi shakillari va vositalarini ishlab chiqish masalasiga e’tirbor qaratilmoqda. Mazkur masalada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning ko‘nikmalarini hozirgi zamon talablari asosida shakillantirish dolzarb hisoblanadi. Bu borada dunyo mamlakatlari ta’lim muassasalari o‘rtasida hamkorlikni kuchayganligi muhim ahamiyatga ega. Shu sababli dunyo mamlakatlari ta’lim jarayonidagi o‘zgarishlar va takomillashtirishlardan foydalanish vositasida mamlakatimiz boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ko‘nikmalarini talab darajasida tarkib toptirish muhimdir.

Adabiyotlar tahlili va metod. Mamlakatimizda “O‘zbekiston 2030” strategiyasi asosida boshlang‘ich ta’limni sifatli rivojlantirishning muhim dasturlari amalga oshirilmoqda.[I.10] 2013-yilga qadar boshlang‘ich ta’limda muhim o‘zgarishlar va sifatli ko‘rsatkichlarga erishish taqoza etiladi. Shu jihatdan Buyuk Britaniyaning Kembrij universiteti pedagoglari tomonidan ishlab chiqilgan va dunyo mamlakatlari ta’lim tizimida e’tirof etilgan 4K modeli bo‘yicha boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ko‘nikmalarini shakillantirish, mexanizimlarini takomillashtirish muammosini tadqiq etish dolzarb bo‘lib turibdi.

2023/2024-o‘quv yilidan boshlang‘ich sinf o‘quvchilari 4K tamoyili asosida yaratilgan darsliklar asosida ta’lim olmoqda. Zamonaviy boshlang‘ich ta’lim tizimida maktab o‘quvchilarining chuqur bilim olishlari, ularda dunyoqarashning shakillanishi uchun hayotiy ko‘nikmalarni puxta egallashlari bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Dunyo miqyosida olimlar 4K modeli kompetensiyalarini “O‘rganishning eng muhim ko‘nikmalari”-deya baholashmoqda. Jahon pedagoglari, olimlari shu nom ostida ilmiy tadqiqotlarini olib borishmoqda. Bir qator xorijiy olimlar 4K modelini quyidagicha ta’riflaganlar. D.Goleman fikricha, insonning kasbiy faoliyatdagi samoradorligi bevosita uning “yumshoq” qobiliyatlarining rivojlanish darajasiga bog‘liq bo‘lib, “muvaffaqiyatli mutaxassislarni muvaffaqiyatsizlardan, samarali tashkilotlarni samarasizlardan ajratib turadi”.[II.31] T.Ya.Yarkova XXI asr shaxsini yetakchi mahoratini “tanqidiy fikrlash va faollik; hamma narsaga ochiqlik va uni boshqarish qobiliyati; aloqa mahorati; ma’lumotni toppish va qayta ishlash qobiliyati; doimiy ravishda o‘zini yaxshilash istagi va boshqalarda”ko‘radi.[III.12]

Ta’lim tizimida 4K modeli XXI asrda o‘quvchilar uchun muhim deb hisoblangan ta’lim olish jarayonining muhim kompetensiyalar to‘plamiga ishora qiladi. Pedagogik shart-sharoitlarni hisobga olgan holda, boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarning hayoti davomida mustahkam poydevorni ta’minlash uchun ularda 4K modeli kompetensiyalarini shakillantirish zarur. Ta’lim tizimida ko‘pincha o‘quvchilarni doimiy rivojlanayotgan global jamiyatda muvaffaqiyatga erishishlari uchun ushbu 4K modeli kompetensiyalarini o‘quv rejasiga va o‘qitish amaliyotiga integratsiya qilish muhimligini ta’kidlaydi.

4K kompetensiyalari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida bilimlarni tayyor holda qabul qilishdan ko‘ra, ularni anglab o‘zlashtirishga, savol berishga va muammoli vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilishga yo‘naltiradi. Bu esa o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashi va bilish faolligini oshiradi. Natijada ta’lim jarayoni reproduktiv faoliyatdan konstruktiv va faol o‘quv faoliyatiga aylanadi. 4K kompetensiyalarining boshlang‘ich ta’limdaki o‘rni o‘quvchilarning nutqiy va kommunikativ faolligini rivojlantirish bilan ham belgilanadi. Dars jarayonida o‘quvchilarning fikr bildirish, savol berish, o‘z nuqtai nazarini asoslab aytish va boshqalarning fikrini tinglashga jalb etishi ijtimoiylashuv jarayonini jadallashtiradi. Bu holat o‘quvchilarda o‘ziga ishonch va ochiq muloqot madaniyatini shakillantiradi. Shuningdek, 4K kompetensiyalari o‘quvchilarning jamoada ishlash ko‘nikmalarini shakillantirishda muhim rol o‘ynaydi. Guruhli va juftlikda bajariladigan topshiriqlar orqali o‘quvchilar hamkorlik qilish, mas’ulyatni bo‘lishish va o‘zaro yordam ko‘rsatishga odatlanadilar.

Boshlang‘ich ta’lim jarayonida 4K kompetensiyalarining joriy etilishi o‘quvchilarning ijodiy faolligini oshiradi. Guruhli va juftlikda tashkil etilgan topshiriqlar orqali o‘quvchilar hamkorlik qilish, mas’ulyatli bo‘lish, o‘zaro kelishuvga erishish va jamoa manfaatini hisobga olishni o‘rganadilar.Turli ochiq savollar, ijodiy topshiriqlar va muammoli vaziyatlar orqali bolalarda yangicha fikrlash, tasavvur qilish va mustaqil yechim toppish qobiliyatlari rivojlanadi. Bu esa keying ta’lim bosqichlarida samarali o‘quv faoliyatini tashkil etish uchun zarur bo‘lgan ijtimoiy tajribani ta’minlaydi. 4K kompetensiyalari boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarning intellectual, ijtimoiy va shaxsiy rivojlanishini ta’minlovchi muhim pedagogic omil bo‘lib, ularning keyingi ta’lim bosqichlariga moslashuvi va muvaffaqiyatli ta’lim olishi uchun mustahkam asos yaratadi.

Mamlakatimizda ta’lim sohasida innovatsion va kreativ fikrlaydigan zamonaviy kadrlar tayyorlash, yoshlarni vatanparvarlik ruhida, yuksak ma’naviyat egalari etib tarbiyalash maqsadida ta’lim tizimini takomillashtirishga katta e’tibor qaratilyapti. Davlatimiz rahbari tomonidan qabul qilingan bir qator farmon va qarorlar bu sohadagi islohotlarning huquqiy-me’yoriy asoslarini mustahkamlab beradi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mamlakatimiz ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirish, ilm-fan sohasi rivojini jadallashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” Farmonda ham mazkur vazifalar ijrosini ta’minlash asosiy vazifa sifatida belgilab berilgan.[I.5]

Jamiyat taraqqiyoti, milliy faravonlik hamisha yosh avlodning ta’lim-tarbiyasi, zamonaviy bilimlarni chuqur egallagan yangi kadrlar, ularning yuksak malakasi bilan bo‘lib kelgan. Negaki, chuqur bilim va hayotiy ko‘nikmalarga ega bo‘lgan, intellectual rivojlangan yoshlarni tarbiyalash, kelajakda O‘zbekistonning rivojlangan davlatlar qatoridan joy olishini ta’minlashda muhim asos bo‘lib hisoblanadi.

Muhokama. Yangi innovatsion yondashuvni O‘zbekiston maktablarida joriy etishdan oldin xorijiy tajribalar ham o‘rganildi. Singapur, Xitoy, Angliya,Finlandiya, Estoniya kabi ta’lim ilg‘or mamlakatlar o‘quvchilarida 4K tamoyillarini o‘z ichiga olgan XXI asr ko‘nikmalarini rivojlantirishga asosiy e’tibor qaratadi. PISA, PIRLS kabi xalqaro reytinglarda yuqori o‘rinlarni egallagan davlatlar ta’limida o‘quvchilarda “4K” ni o‘z ichiga olgan muloqot, tadqiqot,yaratuvchanlik kabi ko‘nikmalarga alohida urg‘u berilgan va shuning uchun ham ular xalqaro reytinglarda katta reytinglarga erishishyapti.

Yangi innovatsion yondashuv natijasini o‘quvchining dunyoqarashi, fikrlashi o‘sishida ko‘rish mumkin. XXI asr o‘quvchisi portretida XXI asr ko‘nikmalari bo‘lishi kerak.[III.8] O’qituvchilarni o’zgartirish, vaqtni o’zgartirish: o’qituvchilar ta’limi va maktablarning ijtimoiy konteksti. Routledgening Innovatsion maqsadini qo‘llashdan asosiy maqsad ham shu. Shuningdek, ta’limning asosiy maqsadi o‘quvchilarga nafaqat bilim berish, balki olgan bilimlarini hayotiy qo’llay olishga o‘rgatishdan iborat.

Ularni ishlab chiqishda xalqaro dasturlar tomonidan o‘quvchilarning muvaffaqiyatlarini baholashda qo‘llaniladigan namunaviy topshiriqlar o‘rganib chiqilgan va asos qilib olingan (PISA, PIRLS, TIMSS, EGMA, EGRA). O‘quv metodik komplekslar faol o‘quv jarayoni uchun to‘liq materiallar to‘plami: darsliklar, mashq daftarlari, o‘quvchilar uchun uslubiy qo‘llanmalarni o‘z ichiga oladi.

“4K” modeliga asoslangan innovatsion yondashuv maktablarda qo‘llash uchun alohida sharoitlar talab etmaydi. Masalan, o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash qobiliyati savol-topshiriqlar bilan, muloqot ko‘nikmasi esa savol- topshiriqlar va mashg‘ulotlar orqali rivojlanadi. Maktablarda bu usullarni ishlatish uchun sharoit yo‘q deb aytish noto‘g‘ri. Yangi yondashuvni qo‘llay olish asosan o‘qituvchilarga bog‘liq. Shuning uchun Toshkentda respublikadan yig‘ilgan 300 dan ortiq trener o‘qituvchilar tayyorlandi

Natijalar. Zamonaviy global ta’lim makonida o‘quvchilarda XXI asr kompetensiyalarini shakillantirish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Xususan, 4K modeli rivojlangan mamlakatlar ta’lim siyosatining konseptual asosiga aylangan. Mazkur kompetensiyalar o‘quvchilarning nafaqat akademik bilimlarini, balki ularning ijtimoiy moslashuvi ,muammoli vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish va jamoada samarali faoliyat yuritish qobiliyatini ta’minlaydi.

Chet davlatlarda 4K

AQSH ta’lim tizimida 4K kompetensiyalari “21st Century Skills” konsepsiyasi doirasida rivojlantiriladi. Bu modelda tanqidiy fikrlash va muammoni hal etish ko‘nikmalari loyiha asosida oqitish (Project-Based Learning), muammoli vaziyatlarga asoslangan topshiriqlar hamda STEM/STEAM yondashuvlari orqali shakillantiriladi. O‘quvchilarning kommunikativ va hamkorlik kompetensiyalari esa guruhiy loyiha ishlari, munozaralar va taqdimotlar orqali rivojlantiriladi. Baholash jarayonida an’anaviy test sinovlaridan ko‘ra portfel, loyiha mahsuli va reflektiv tahlil ustuvor hisoblanadi.

Finlandiya ta’lim tizimi xalqaro miqyosda 4K kompetensiyalariini muvaffaqiyatli joriy etgan ilg‘or model sifatida e’tirof etiladi. Bu mamlakatda ta’lim phenomenon-based learning (hodisaga asoslangan o‘qitish) tamoyiliga asoslanadi. Ushbu yondashuv o‘quvchilarning fanlararo bilimlarini uyg‘unlashtirish, muammoni kompleks tahlil qilish va kreativ yechimlar ishlab chiqish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

O‘qituvchi jarayonda bilim beruvchi emas, balki yo‘naltiruvchi va fasilitator sifatida faoliyat yuritadi, bu esa hamkorlik va kommunikatsiya kompetensiyalarining tabiiy rivojlanishiga xizmat qiladi.

Buyuk Britaniya ta’lim tizimida 4K kompetensiyalari milliy o‘quv dasturiga soft skill sifatida integratsiya qilingan. O‘quvchilarning tanqidiy fikrlash ko‘nikmalari analitik esse yozish, bahs-munozaralar va manbalar bilan ishlash orqali shakillantiriladi. Kreativlik esa loyiha ishlari va ijodiy topshiriqlar orqali rivojlantiriladi. Kommunikativ kompetensiya og‘zaki va yozma nutq faoliyatini baholash orqali nazorat qilinadi, hamkorlik esa jamoaviy topshiriqlar orqali mustahkamlanadi.

Singapurda 4K kompetensiyalarini rivojlantirish “Teach Less,Learn More” ta’lim siyosati asosida amalga oshiriladi. Mazkur yondashuvda o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, muammoli vaziyatlarni tahlil qilishi va jamoada samarali ishlashi ustuvor hisoblanadi. O‘quv jarayonida real hayotiy vaziyatlarga asoslangan topshiriqlar, tadqiqot faoliyati va reflektiv tahlil keng qo‘llaniladi. Bu esa tanqidiy fikrlash va hamkorlik kompetensiyalarining uzviy rivojlanishiga xizmat qiladi.

Yaponiya ta’lim tizimida jamoaviylik va mas’ulyat madaniyati 4K kompetensiyalarining asosiy tarkibiy qismi sifatida qaraladi. Muammoli o‘qitish, hayotiy vaziyatlarga asoslangan mashg‘ulotlar orqali o‘quvchilarning kommunikativ va hamkorlik ko‘nikmalari shakillantiriladi. Avstraliya ta’lim standartlari esa 4K kompetensiyalari “general capabilities” sifatida belgilangan bo‘lib, kreativ va tanqidiy fikrlash alohida baholash mezonlari asosida rivojlantiriladi.

Xorijiy mamlakatlar shuni ko‘rsatadiki, 4K kompetensiyalari alohida fan sifatida emas, balki ta’lim mazmuni, metodlari va baholash tizimi bilan uzviy integratsiyada amalga oshiriladi. Ushbu yondashuv o‘quvchilarning shaxsiy, ijtimoiy va kasbiy kompetensiyalarini kompleks rivojlantirishga xizmat qiladi hamda zamonaviy ta’limning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qaraladi.

4K kompetensiyalarini joriy etishda turli farqli jihatlar mavjud. AQSH va Buyuk britaniyada baholash tizimi nisbatan moslashuvchan bo‘lsa, Yaponiya va Singapurda akademik intizom kuchli. Finlandiyada o‘quv yuklamasi kamroq, biroq kreativ va tanqidiy fikrlashga yo‘naltirilgan topshiriqlar ko‘proq. Avstraliyada 4K kompetensiyalari normative hujjatlarda aniq indikatorlar orqali belgilangan. Bu farqlar 4K kompetensiyalarini joriy etishda milliy kontekst va madaniy omillar muhim rol o‘ynashini ko‘rsatadi.

Xorijiy tajriba asosida O‘zbekiston ta’lim tizimi uchun quyidagi mos va samarali elementlarni ajratib ko‘rsatish mumkin:

-Boshlang‘ich ta’limda 4K kompetensiyalarini o‘yin,loyiha va integratsiyalashgan topshiriqlar orqali rivojlantirish.

-Baholashda portfel, rubrika va tavsifiy baholashdan foydalanish.

-O‘qituvchilarni 4K kompetensiyalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan kasbiy rivojlanish dasturlari bilan ta’minlash.

-Milliy o‘quv dasturlari 4K kompetensiyalarini transversal kompetensiyalar sifatida izchil integratsiya qilish.

Mazkur yondashuvlar O‘zbekiston ta’lim tizimining milliy xususiyatlarini saqlagan holda xalqaro tajribani samarali joriy etishga imkon beradi. Taqqoslama natijasi shuni ko‘rsatadiki, 4K kompetensiyalarini joriy etish bo‘yicha xorijiy mamlakatlar tajribasi o‘zaro farqlarga ega bo‘lsa-da, ularni birlashtiruvchi umumiy g‘oya-kompetensiyaga asoslangan, o‘quvchi markazli va integrative ta’lim modeli hisoblanadi. Ushbu tajriba O‘zbekiston ta’lim tizimini modernizatsiya qilishda muhim ilmiy-amaliy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Xulosa. 4K kompetensiyalarini baholash mexanizmlarini tahlil qilish.

Zamonaviy ta’lim paradigmasida baholash jarayoni faqat o‘quvchilarning bilim hajmini aniqlash bilan cheklanmay, balki ularning amaliy faoliyatda bilimdan foydalanish qobiliyati, muammoli vaziyatlarda mustaqil fikrlashi hamda ijtimoiy hamkorlikdagi faolligini aniqlashga qaratiladi. Shu nuqtai nazardan, 4K kompetensiyalarini baholash kompetensiyaga asoslangan yondashuv doirasida amalga oshiriladi. Ushbu yondashuvda baholash jarayoni o‘qitish bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, rivojlantiruvchi harakterga ega.

Xorijiy pedagogik tadqiqotlar tahliliga ko‘ra, 4K kompetensiyalarini baholash quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

-jarayon va natijani birgalikda baholash

-ko‘p mezonlilik (rubrikalar asosida)

-konteksga moslik, ya’ni real hayotiy vaziyatlar bilan bog‘liqlik

-shaffoflik va aniqlik, baholash mezonlarining oldindan belgilanishi

-o‘z-o‘zini va o‘zaro baholash mezanizmlaridan foydalanish.

Mazkur tamoyillar 4K kompetensiyalarining murakkab va ko‘p qirrali tabiatini to‘liq yoritishga imkon beradi.

Formativ baholash 4K kompetensiyalarini rivojlantirishda eng samarali mexanizm hisoblanadi. U o‘quv jarayonining barcha bosqichlarida amalga oshiriladi va o‘quvchining rivojlanish dinamikasini aniqlashga xizmat qiladi. Formativ baholashda:

-kuzatuv

-og‘zaki va yozma fikr-mulohazalar

-reflektiv kundaliklar

-mini-loyiha va muammoli topshiriqlar

keng qo‘llaniladi. Ushbu usullar tanqidiy fikrlash va kreativlikning bosqichma-bosqich shakillanishini baholash imkonini beradi.

Summativ baholashda esa 4K kompetensiyalari:

-loyiha ishlari

-portfel(portfolio)

-yakuniy taqdimotlar

-kompleks amaliy topshiriqlar

orqali baholanadi. Bu turdagi baholash kompetensiyalarning ma’lum davr oxiridagi umumiy holatini aniqlashga qaratilgan bo‘lib, natijaviylikni ko‘rsatadi.

4K kompetensiyalari bo‘yicha baholash vositalari.

1.Rubrikalar. Rubrikalar 4K kompetensiyalarini baholashda eng muhim vositalardan biri hisoblanadi. Har bir kompetensiya bo‘yicha aniq indikatorlar belgilanadi. Masalan:

-tanqidiy fikrlashda – muammoni tahlil qilish, dalillash, xulosa chiqarish

-kreativlikda - yangicha yondashuv, orginal g‘oya, moslashuvchanlik

-kommunikatsiya- fikrni aniq ifodalash, muloqot madaniyati

-hamkorlikda- jamoada ishlash, mas’ulyatni bo‘lishish

Rubrikalar baholashning subyektivligini kamaytiradi va o‘quvchilar uchun baholash jarayonini tushunarli qiladi.

2.Portfoilo baholash.

Portfolio baholash o‘quvchining ma’lum vaqt davomida erishgan yutuqlarini aks ettiruvchi hujjatlar majmuasidir. Unda:

-loyiha ishlari

-yozma ishlanmalar

-reflektiv yozuvlar

-ijodiy mahsulotlar

jamlanadi. Portfolio 4K kompetensiyalarining rivojlanish dinamikasining tahlil qilish imkonini beradi.

Adabiyotlar:

1. https://www.weforum.org/about/the-fourth-industrial-revolution-by-klaus-schwab/World Economic Forum. The Fourth Industrial Revolution byKlausSchwab.
2. Avdeeva O.M. Model 4K: razvitie soft navykov mladshix shkolnikov cherez vzaimodeystvie semi i shkoly. – Murom, 2020.
3. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi [Elektron manba]. – https://ziyonet.uz
4. Goleman D. Emotsional intellekt. – Moskva: AST, 2009. – 480 b.
5. Lippman L.H., Ryberg R., Carney R., Kristin A. Workforce Connections: Key “Soft Skills” That Foster Youth Workforce Success. – Washington: Child Trends Publication, 2015. – 56 p.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi PF–6108-son “Mamlakatimiz ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirish, ilm-fan sohasi rivojini jadallashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni. – https://lex.uz
7. Hargreaves D. Education and Social Change. – London, 2008.

TALABALARNI BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARI UCHUN ERTAK TANLASHGA O‘RGATISH MAZMUNI

Temirova Muqaddas Azamotovna,
Shahrisabz davlat pedagogik instituti Pedagogika fakulteti
Boshlang‘ich ta’lim metodikasi kafedrasi o‘qituvchisi

Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini lug‘at boyligi oshiriladi, to‘g‘ri talaffuz qilish, ravon gapirish, hikoya qilish ko‘nikmalari yoritilgan. Ertaklar yosh ongni rivojlantirishda sezilarli ijobiy natijalar beradi. Ertak tanlash ko‘nikmasi - bu pedagogik maqsadlarga muvofiq, bolalarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda, ertaklarni tanqidiy baholash va tanlab olish qobiliyatidir. Ertak voqealar ketma-ketligini kuzatish, sabab-oqibat munosabatlarini tushunish mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: *ertak, bola, yaxshilik, yomonlik, adolat, zulm, saxiylik, xasislik, didaktik, xususiyat, go‘zallik, tasviriy ifodalar, she’r.*

ОБУЧЕНИЕ УЧЕНИКОВ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ ВЫБОРУ СКАЗКИ.

В данной статье рассматривается развитие словарного запаса, правильного произношения, беглости речи и навыков рассказывания историй у учителей начальной школы. Сказки оказывают значительное положительное влияние на развитие детского ума. Умение выбирать сказку — это способность критически оценивать и отбирать сказки в соответствии с педагогическими целями, учитывая возраст и психологические особенности детей. Наблюдение за последовательностью событий в сказке и понимание причинно-следственных связей способствует развитию логического мышления.

Ключевые слова: *сказка, ребенок, добро, зло, справедливость, угнетение, щедрость, жадность, дидактика, характер, красота, образные выражения, поэзия.*

TEACHING STUDENTS TO CHOOSE A FAIRY TALE FOR PRIMARY STUDENTS

This article discusses the development of vocabulary, correct pronunciation, fluency, and storytelling skills for primary school teachers. Fairy tales provide significant positive results in the development of young minds. The skill of choosing a fairy tale is the ability to critically evaluate and select fairy tales in accordance with pedagogical goals, taking into account the age and psychological characteristics of children. Observing the sequence of events in a fairy tale and understanding cause-and-effect relationships serves to develop logical thinking.

Keywords: *fairy tale, child, good, evil, justice, oppression, generosity, greed, didactics, character, beauty, figurative expressions, poetry.*

Kirish. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining shaxsiy, intellektual va ijodiy rivojlanishida ertak muhim ahamiyatga ega. Ertak bolalar adabiyotining eng qadimiy va eng ta'sirchan janrlaridan biri bo‘lib, bolalarning tasavvurini boyitadi, axloqiy tushunchalarini shakllantiradi, og‘zaki va yozma nutqini rivojlantiradi. Shuning uchun bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini o‘quvchilar uchun to‘g‘ri ertak tanlashga o‘rgatish muhim pedagogik vazifa hisoblanadi.

Ertak – xalq og‘zaki ijodining muhim janri bo‘lib, unda hayoliy voqealar, fantastik personajlar, sehrli elementlar orqali hayotiy haqiqatlar, axloqiy g‘oyalar aks ettiriladi. Ertak orqali bolalar yaxshilik va yomonlik, adolat va zulm, saxiylik va xasislik tushunchalarini o‘zlashtirishadi. Har bir ertakda ijobiy qahramon yaxshilik g‘alabasini namoyish etadi.

Ertak tilining go‘zalligi, tasviriy ifodalar, she’riy elementlar bolalarda go‘zallik tuyg‘usini uyg‘otadi, badiiy so‘z san’atiga muhabbat hosil qiladi.

Ertaklar bolalarning tafakkurini, xotira, diqqat, tasavvur qobiliyatlarini rivojlantiradi. Voqealar ketma-ketligini kuzatish, sabab-oqibat munosabatlarini tushunish mantiqiy fikrlashni shakllantiradi. Ertak bolalarning lug‘at boyligini oshiradi, to‘g‘ri talaffuz qilish, ravon gapirish, hikoya qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Ertaklar orqali bolalar turli his-tuyg‘ularni boshdan kechiradi: quvonch, g‘amginlik, hayrat, hamdardlik. Bu emotsional intellektni rivojlantirishga yordam beradi.

Xalq og‘zaki ijodining estetik ahamiyatiga e’tibor bersak, biz buni har bir millat yaratgan asarlarda foydalanilgan ajoyib so‘z san’atida his qilamiz. Bu san’at, ya’ni ularning yuksak nasriy va nazmiy mahorati, asarlardagi syujet qurilishi, obrazlar tizimi, badiyati va tilida namoyon bo‘ladi. Xalq og‘zaki ijodi o‘ziga xos shakl, ritm va til kabi nazariy qurilishga ega. Mazmunan esa o‘quvchiga estetik zavq baxshida etadi. Xalq ertaklari badiiy so‘z san’atining go‘zal namunasi sifatida alohida ahamiyatga ega. Ertak o‘zining g‘oyaviy-badiiy mazmuni, o‘tkir badiiy tili, badiiy estetik qimmati bilan asrlar osha xalqlarning sevimli, ommaviy janri bo‘lib kelmoqda. Ertaklar xoh hayvonlar haqida bo‘ladimi, xoh sehrli bo‘ladimi, xoh maishiy yoki hajviy bo‘ladimi barchasi bir-biridan qiziq tarzda bolalarga ma’naviy ozuqa beradi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini milliy qadriyatlarga sodiqlik ruhida tarbiyalashda, ularda o‘zaro do‘stlik, totuvlik madaniyatini shakllantirishda nafaqat o‘zbek, balki turli xalqlarning xalq og‘zaki ijodi namunalari, ayniqsa, ertaklar yuksak amaliy qiymatga ega. Ertaklardagi jonli til, yorqin obrazlar, o‘ynoqi ohang va tarbiyaviy ahamiyatlilik ularni bolalar uchun o‘qishliligini ta’minlaydi.

O‘qituvchi o‘zbek va jahon ertaklari namunalarini o‘rgatish jarayonida ertaklardagi ezgulik va yovuzlik timsollari bo‘lgan hayvonlar hamda boshqa turli obrazlar o‘rtasidagi o‘xshashlik va uyg‘unlik jihatlariga e’tibor bersa, maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Boshlang‘ich sinflarda o‘quv jarayoniga yangicha yondashuv va texnologiyalarning joriy etilishi xalq ertaklarini o‘rganishni yanada qiziqarli, interfaol va ta’sirchan qiladi. Multimedia texnologiyalari, interfaol o‘yinlar va raqamli resurslardan foydalanish o‘quv jarayonini bolalar uchun yanada qiziqarli bo‘lishini ta’minlaydi. Ular darslarda faolroq qatnashadilar va materialni yaxshiroq o‘zlashtiradilar. O‘quvchilar tomonidan ertak qahramonlari obrazini yaratish, sahnaviy ko‘rinishlarini namoyish etish kabi interfaol va jamoaviy loyihaga asoslangan o‘qitish usullari bolalarga dunyoning madaniy xilma-xilligini yaxshiroq tushunish hamda hurmat qilish imkonini beradi. Bu bag‘rikenglik va madaniyatlararo muloqotni shakllantirishga xizmat qiladi.

Ertak tanlashda bolalarning yosh, psixologik, intellektual xususiyatlarini hisobga olish zarur.

1-sinf o‘quvchilari (6-7 yosh)

Psixologik xususiyatlari:

Vizual-figurativ tafakkur ustunligi

Qisqa muddatli diqqat (15-20 daqiqa)

Konkret tasavvurlar bilan fikrlash

Harakatli, jonli hikoyalarga qiziqish

Mos ertaklar:

Hayvonlar haqidagi sodda, qisqa ertaklar ("Turnalar va tulki", "Bo‘ri va echki")

Takrorlanuvchi epizodlar bilan ertaklar ("Salkam tovuq", "Qirq ukasi bir singlisi bor edi")

Yorqin tasvirlar, sodda syujet chizig‘iga ega hikoyalar

Ko‘p personajlar bo‘lmagan ertaklar (3-4 ta)

2-sinf o‘quvchilari (7-8 yosh)

Psixologik xususiyatlari:

Mantiqiy tafakkurning shakllanishi boshlangan

Diqqat barqarorligi oshgan (25-30 daqiqa)

Muammolarni mustaqil hal qilishga harakat

O‘z fikrini ifodalashga intilish

Mos ertaklar:

Murakkabroq syujetli xalq ertaklari ("Toshbaqachaning to‘yi", "Zumrad va Qimmat")

Sehrli ertaklar ("Bachtli qush", "Gulchehra")

Badiiy ertaklar (A. Pushkin, G.H. Andersen asarlari)

Ibratli, ta'limli hikoyalar

3-4 sinf o‘quvchilari (8-10 yosh)

Psixologik xususiyatlari:

Mavhum tafakkur rivojlanishi

Uzoqroq matn bilan ishlash qobiliyati

Baholash, tahlil qilish ko‘nikmalarining paydo bo‘lishi

Qahramonlar bilan identifikatsiya (o‘zini bir tutish)

Mos ertaklar:

Katta hajmli sehrli ertaklar ("Qirq qiz", "Oshiq G‘arib")

Falsafiy mazmundagi ertaklar

Turli xalqlar ertaklari (qiyosiy tahlil uchun)

Zamonaviy badiiy ertaklar

Ko‘p qatlamli mazmunli hikoyalar

Boshlang‘ich sinflarda o‘qish darslarida o‘quvchilarning nutqini oshirish vositalaridan biri to‘g‘ri uyushtirilgan hikoyalardir. Maktab tajribasida to‘liq qisqartirib tahlab va qayta ijodiy hikoya qilish turlari mavjud. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun ertak matnini qayta hikoyalash ancha oson, boshqa janrdagi asarlarni hikoyalash esa nisbatan qiyinroqdir. Xalq og‘zaki ijodida ertak janrining bolalar tomonidan yaxshi qabul qilinib, qiziqib o‘qilishining sabablaridan biri ertak tilining ta’sirchanligi, o‘tkirligi, ma’nodorligi va xalq tiliga yaqinligidir. Ertaklarning ko‘pchiligida real hayot tasviri sarguzasht elementlar bilan qo‘shilib ketadi. Ertakning o‘tkir, maroqli sujeti, voqea rivojidagi favqulodda ajoyib vaziyat bolalarni maftun qiladi, undagi mard, kuchli, topqir, dovyurak, chaqqon qahramonlar, ertakning g‘oyaviy yo‘nalishi, unda ezgulik kuchining yaxshilikning doimo g‘alaba qilishi bolalarni o‘ziga tortadi. Ertakda qabul qilingan hikoya qilish shakli bir xil so‘z va iboralarning qaytaqayta takrorlanib turishi, ohangdorligi, tilining ta'sirchanligi, ifoda vositalarining jonliligi, bolalar uchun juda qiziqarliligidir. Ertakda qatnashuvchilar ko‘pincha rahmdil, saxiy, adolatli hamda ularning aksi bo‘lgan yovuz, baxil, ochko‘z kishilar timsoli boiadi.

Ertakning pedagogik qiymati shundan iboratki, o‘quvchilar unda to‘g‘rilik, halollik g‘alaba qilganidan, kambag‘al kishilar qiyinchilikdan qutilganidan, ya'ni yaxshilik, ezgulik ro‘yobga chiqqanidan va yomonlik, vovuzlik mahkumlikka uchraganidan qiivonadilar. Ular hayotda ham doimo shunday bo‘lishini istaydilar. Masalan, „Halollik” ertagida (3-sinf) asosiy fikr kambag‘allarga yordam ko‘rsatish, o‘z mehnati bilan hayot kechirish bo‘lib, bu hatto butun xalq istagi ekanligi g‘oyasi ilgari surilgan bo‘lsa, „Hiylagarning jazosi” ertagida esa (4-sinf) soddadilning to‘g‘riligi hiylagarning makri ustidan g‘olib kelishi, xiyonat jazosiz qolmasligi g‘oyasi ilgari surilgan. Har ikki ertak ham to‘g‘riso‘zlilikning g‘alabasi bilan yakunlanadi. Bunday g‘alaba maishiy ertaklardan tashqari, sehrli ertaklarda ham ifodalangan.

Ertak matnini o‘qish darsida interfaol ta’lim Ertak bolalarda qahramonlarning hatti-harakatini muhokama qilib, baholash ko‘nikmasini o‘stirishi bilan birga yaxshilikning doimo g‘alaba qozonishiga ishonch uyg‘otadi. O‘quvchilar ertakni tahlil qilish jarayonida „Kishilardagi qanday sifatlar sizga yoqdi? (yoki yoqmadi?)”, „Nima uchun?”, „... nima uchun jazolandi? (yoki rag‘batlantirildi?)”, „Nima uchun ertakdagi ba’zi qahramonlarga hatto tabiat kuchlari ham yordam beradi? (yoki ba'zilaridan yuz o‘giradi?)" kabi savollarga javob topish jarayonida mushohada qiladilar, muhokama qilib, xulosaga keladilar. Boshlang‘ich sinflarda hayvonlar haqidagi ertaklar ko‘proq o‘qitiladi. „Bo‘rining tabib bo‘lgani haqida ertak ”(Anvar Obidjon), „Ko‘zacha bilan tulki” kabi ertaklar aniq hayotiy hikoyalar tarzida o‘qitiladi va tahlil qilinadi.

Ertak matni ustida ishlashda tanlab o‘qish, savollarga javob berish, o‘quvchilarning o‘zlari ertak mazmuniga oid savollar tuzib, javob berishlari, reja tuzish, qayta hikoyalash, ijodiy davom ettirish, ertak aytish, qahramonlarni grafik tasvirlash kabi ish turlaridan foydalaniladi. Bunday ertaklarda hayvonlarning odatlari tahlil qilinadi, ammo ularni kishilar xarakteriga taqqoslash tavsiya qilinmaydi. Maktab tajribasidan ma'lumki, kichik yoshdagi o‘quvchilar ertakdagi hayvonlar gapirmasligini, tulki va turna bir-birinikiga mehmonga bormasligini yaxshi biladilar, ammo ertaklar dunyosini hayotiy hikoya kabi qabul qiladilar. Ertakni o‘qib tahlil qilganda, barcha ishlar matnning mazmunini yaxshi idrok etishga, sujet rivojini, qatnashuvchi personajlarning hatti-harakati, o‘zaro munosabatlarini to‘g‘ri tasawur etishga yo‘naltiriladi. Bunda tanlab o‘qish va qayta hikoyalashning ahamiyati katta. Masalan, „Odobli bo‘lish osonmi?" (A. Obidjon) ertagining mazmunini o‘zlashtirish uchun quyidagi topshiriqlardan foydalanish mumkin:.

1. Sichqonchaning onasi bilan qilgan suhbatini o‘qing. Sichqonchaning „Odobli bo‘lish uchun nimalar qilish kerak?" degan savoliga onasi qanday javob qaytarganligini so‘zlab bering.

2. Sichqonchaning mushuk bilan uchrashgan holati aks ettirilgan o‘rinni topib o‘qing. Nima uchun „Shum Baroq” ko‘zidagi yovuzlik birdaniga so‘nadi?

3. Echki nima uchun Sichqonchani „Kam bo‘lma” deb duo qiladi? Shu o‘rinni topib o‘qing. Ertakni tahlil qilishning oxirgi bosqichida „Ertakning sizga juda yoqqan joyini topib o‘qing”, „Nima uchun aynan shu joyi yoqqanini ayting”, „Hayotingizda ertakdagi voqealarga o‘xshash voqealar bo‘lganmi?” kabi savol-topshiriqlar yordamida o‘quvchilarning ertak xulosasini tushunishlariga erishiladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari hayvonlar haqidagi ertaklardan tashqari, „Davlat”, “Ilm afzal”, „Hiylagarning jazosi”, „Hunarsiz kishi o‘limga yaqin” kabi maishiy ertaklarni ham o‘qiydilar. Bunday ertaklarda xalq o‘z hayotini hikoya qiladi, shu sababli o‘quvchilar ertakni o‘qigach, o‘tmishdagi xalq hayotini, o‘y-fikrlari va orzu-istaklarini bilib oladilar. Bunday ertaklarni tahlil qilish badiiy hikoya tarzida uyushtiriladi. Bolalar o‘qituvchi rahbarligida ertakda qatnashuvchilaming xulq-atvori, ayrim hatti-harakatlarini baholaydilar, ularning bir-birlariga bo‘lgan munosabatlarini aytadilar va shular asosida ayrim obrazlar haqida xulosalar chiqaradilar, ertak rejasini tuzadilar, ertakni rollarga bo‘lib o‘qiydilar. „Davlat” ertagi (4-sinf) oddiy turmushga tegishli hodisalarni tasvirlovchi ertakdir. Ertakni o‘qishga tayyorlash uchun ota-bobolarimiz atrofimizdagi tabiatni, borliqni qanday tasawur etishlari haqida suhbat o‘tkaziladi. Bunday suhbat ertakdagi badiiy obrazlarni,

ularning o‘zaro munosabatlarini, xulq-atvorlari, xarakterlarini to‘g‘ri tushunishga yordam beradi. „Davlat” ertagi matni ustida ishlash jarayonida o‘quvchilar „Dehqonning xonadoni qanday hayot kechirar ekan?”, „Nima uchun Davlat dehqonning xonadonidan ketishni istamaydi?” kabi savollarga javob topish orqali ertak qahramonlarini baholaydilar, ahil va inoq bo‘lib, halol mehnat qilish lozim degan xulosaga keladilar. Ertak ustida ishlashda bolalarni ertakni o‘qishgagina etnas, balki uni aytib berishga o‘rgatish ham muhimdir.

Ertak aytish og‘zaki nutqni o‘stiradi, bolalar nutqini yangi so‘z va iboralar bilan boyitadi. O‘quvchilarni 1-sinfdayoq ertak tilidan erkin foydalanishga o‘rgatish uchun ertak bilan birinchi tanishtirishda uni o‘qituvchi aytib berishi mumkin. O‘quvchi ertak mazmunini o‘zlashtirib olgandan so‘ng, uning tili ustida ishlashga alohida ahamiyat qaratilishi zarur. Ertak mazmunini qayta hikoyalashda, qahramonlarga tavsif berishda o‘quvchilarning o‘z nutqida til vositalaridan o‘rinli foydalanish talab qilinadi. Til vositalaridan foydalanish uchun talab va vaziyat, ehtiyoj yaratish zarur. Ertak tilida shunday so‘z va iboralar borki, ular bolaga o‘zgacha ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, „Yo‘lbars, Tulki va Bo‘ri” ertagida „Tog‘ echkisi siz ulug‘imizniki bo‘lsin”, „Quyon siz podshohimizning ertalabki nonushtangiz bo‘lsin”, „Kiyik kechqurungi taomingiz, qo‘y kunduzgi xo‘ragingiz bo‘lsin" kabi gaplar tarkibidagi ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarga o‘quvchilar diqqati qaratilib, ertakni so‘zlab berayotganda ulardan nutqda foydalanishlariga erishish zarur. Ertaklarda keltirilgan maqollar ustida ishlash, ularda ilgari surilayotgan g‘oyalarni bolalar ongiga yetkazish, yod oldirish yo‘li bilan bog‘lanishli nutqni o‘stirish, nutqning ta'sirchanligini oshirish lozim

ERTAK O‘TISH DARSI NAMUNASI

Mavzu. Kumush qish.

O‘quv materiali. Rangin qorlar (Olloyor).

Darsning maqsadi:

1. O‘quvchilarning qish fasli haqidagi tushunchalarini boyitish.
2. Tabiatdan zavq olishga, unga zarar keltirmaslikka o‘rgatish.
3. O‘quvchilarning mustaqil frkrlash qobiliyatlarini o‘stirish, xotirasini mustahkamlash.
4. O‘qish ko‘nikmalarini takomillashtirish, o‘quvchilar lug‘atini yangi so‘zlar bilan boyitish.

Dars turi: yangi bilim beruvchi, ertak o‘qish darsi.

Dars metodi: izohli o‘qish, mustaqil ish metodi, guruhlarda ishlash.

Darsning jihozi: qog‘oz, flomaster, yelim, qisqich, qaychi, mikrotestlar, akvarium, baliqlar, rag‘batlantirish uchun jetonlar.

Sinf sharoiti. O‘qituvchi turli usullar bilan o‘quvchilarni guruhlarga ajratadi. Sinfdagi partalar doira shaklida qo‘yib chiqiladi.

Tashkiliy qism. Sinf o‘quvchilari guruhlarga bo‘linib o‘tiradilar. O‘qituvchi guruhlar bilimi teng bo‘lishi uchun qizil, ko‘k, oq, yashil, sariq rangli doirachalardan foydalanishi mumkin. Bir xil rangdagi doira egalari bir guruhni tashkil etishi aytiladi. Har bir guruh o‘ziga nom tanlaydi. Buning uchun o‘quvchilarni darsga hozirlash, qiziqtirish, harakatga keltirish, mavzuni mustaqil anglab yetishlari uchun topishmoqlardan foydalanish lozim.

— Topishmoqning javobini toping: Elakdan un elandi Supra unga belandi. (qor)

— Qor qaysi faslda yog‘adi?

— O‘ylang, bugun o‘rganadigan yangi mavzu nima haqida ekan? Xattaxtaga bo‘lim nomi

— „Kumush qish" yoziladi. So‘ng guruhga qish fasli bilan bog‘liq holda nom tanlashlari mustaqil ish qilib beriladi.

1-guruh „Qorparcha",

2-guruh „Ayozbobo",

3-guruh „Qorbobo",

4-guruh „Sumalak",

5- guruh „Qish" deb nomlanishi mumkin. Har bir guruh a'zolari o‘zlariga sardor saylaydi. Darsning borishi

I. Chaqiruv bosqichi. Guruhlar taqdimoti. Bunda har bir guruh o‘z nomining ma'nosini izohlaydi, nomini ifodalovchi rasm chizib ko‘rsatishi ham mumkin.

1-guruh - „Qorparcha": Men qish faslida dunyoga kelganman. Qir-adir, tog‘u tosh, dala-dashtda uchib, o‘ynoqlab yerga tomon intilaman. Hammayoqni oq choyshab bilan o‘rayman. Men yoqqanda bolalar, hatto kattalar ham qorbo‘ron o‘ynaydi, qorbobo yasashadi. Qorxat yozishadi.

2-guruh — „Ayozbobo": Men issiq havoni sovutaman. Yerlarni, suvlarni muzlataman. Men tufayli yaxmalaklar paydo bo‘ladi. Bolalar yaxmalakda chang‘ida, chanada va konki uchadi. Tarnovlarda sumalaklar paydo bo‘ladi.

3-guruh -„ Qorbobo ": Men qish faslida bolalarning eng sevimli bo-bosiman. Uzoquzoq o‘lkalardgan ularga yangi yil bayrami sovg‘alarini, qorqizimni olib kelaman. Ularning kuy-qo‘shiqlari, o‘yin-kulgilari jaranglagan bayramni birga nishonlayman. Men tufayli Ayozboboning izg‘irin, sovuqlarini sezmaydilar. Men ularga kuch-quvvat bag‘ishlayman. Hammangizni yangi qutlug‘ yilingiz bilan tabriklayman.

4-guruh - „Sumalak": Men Ayozbobo bilan Qorparchalarning farzandiman. Tomlarning bo‘g‘otida qishning quyosh nurlarida yaltirab turaman. U yerdan bolalarning o‘yin-kulgilarini tomosha qilaman. Borib bolalarga qo‘shilib o‘ynay olmaganimdan ko‘zlarimdan chak-chak yoshim oqadi. Shu ko‘z yoshlarim bilan yerning dardlariga malham bo‘laman.

5-guruh - „Qish": Yuqoridagi so‘zga chiqqanlarning barchasi mening dilbandlarim. Ular tufayli men borman. Ular tufayli men yilning boshida turaman. Dekabr, yanvar, fevral oylari mening qo‘ynimda yashaydi. Ularning har biriga yaxshi kunlarni, bayramlarni taqsimlab berganman.

8-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni, 31-dekabrda Yangi yil bayrami nishonlanadi.

14-yanvar Harbiylar kuni bayram qilinadi.

9-fevralda ulug‘ bobomiz Mir Alisher Navoiyning, 14-fevralda Mirzo Boburning tavallud kuni nishonlanadi. O‘qituvchi o‘quvchilarning javobini umumlashtirib, har bir guruhni rag‘batlantiradi. Shu tarzda asarni o‘qishga tayyorgarlik yakunlanadi.

II. Anglash bosqichi. Bu bosqichda „Rangin qorlar" (Olloyor) ertagi (o‘qituvchi qismlarga bo‘lib kelgan bo‘ladi)ning har bir qismi guruhdagi yaxshi o‘qiydigan o‘quvchilarga o‘qitiladi. „Ifodali o‘qish" musobaqasi uyushtiriladi. Eng yaxshi o‘qigan o‘quvchi aniqlanadi va rag‘batlantiriladi. Shundan so‘ng guruhlarga asar matni ichda o‘qishga topshiriladi. Guruh o‘quvchilariga quyidagi topshiriq beriladi:

- Har bir guruh o‘z qismini ichida o‘qiydi. Uning mazmuniga va qahramonlariga doir savol-topshiriqlar tuzadi va konvertga solib uzatadi. Tuzilgan savollar izohlanib, rag‘batlantirilib boriladi.

III. Fikrlash bosqichi. Bunda quyidagi ish turlaridan foydalaniladi:

1. O‘quvchilar o‘zlari tuzgan savollarga javob beradilar:

— Qadimda qorbo‘ron qanday qorlar bilan o‘ynalgan? Nima uchun?

— Bo‘yoq bozori qancha yilda bir bo‘lar ekan ?

— Nega qorlar oq rangda yog‘ar ekan?

— Bahoroy qaysi bo‘yoqni xarid qilibdi?

— Kuz kelganda qozonlarda qaysi boyoqlar bor edi?

— Qish kelganda qozonda qaysi bo‘yoq qolgan edi?

— Yoz uyqudan uyg‘onib nimani o‘ylab ketibdi?

— Yoz qaysi bo‘yoqlarni olganini o‘ylab toping.

— Kuz qaysi bo yoqlarni o‘chirib, uning o‘rniga qaysi bo‘yoqlarni surtib chiqdi?

— Qish o‘z zahrini nimalarga sochadigan bo‘lib qolibdi?

2.Darslikdagi savol-topshiriqlar ustida ishlanadi. Bularni barcha guruh bajaradi. Guruhning faol ishtirokiga qarab ball qo‘yiladi.

3.O‘qituvchi „Kumush qish" va o‘qilgan asar yuzasidan tuzgan test topshiriqlarini guruhlarga tarqatadi.

4.Qish fasli bilan bog‘liq maqol va topishmoqlar aytiladi: Bahor, yoz, kuz qishlaydi, Qish paytida ishlaydi. (Pechka) Qishda yoping‘ichingni qo‘yma, Yoz o‘zing bilasan. (Maqol)

5.O‘qituvchi sardorlar uchun asar matni yuzasidan savol-topshiriqlar tuzib keladi. Bu savol-topshiriqlar konvertlarga solinib, guruhlarga beriladi.

1-guruh uchun.

— Ayozbobo deraza oynalariga qanday qilib naqshlar chizadi?

—„Qiyomiga kelib" birikmasining ma'nosini izohlab bering (ayni me'yoriga, maromiga yetgan holga kelgan).

2-gurufa uchun.

— Falak, libos so‘zini qaysi so‘zlar bilan almashtirish mumkin? (falak - osmon gumbazi, osmon, ko‘k; libos - kiyim, ust-bosh)

— Bahoroyning gullari nomini sanab bering.

3-guruh uchun.

—„Shitob" so‘zining ma'nosini izohlang (harakatning bajarilishidagi tezlik) — Saraton qaysi payt ekanini ayting. 4-guruh uchun.

— Bahor tabiatida yuz beradigan hodisalarni ayting.

— Za’far, zarg‘aldoq ranglar qanday rang? Ranglar ichidan olib ko‘rsating. (zarg‘aldoq - to‘q sariq rang, za'far - sap-sariq, somon rang).

5-guruh uchun.

— Qish chillasi necha kun va unga qaysi vaqt kiradi?

— Ertakda badiiy vositalardan nima ko‘proq qoilanilgan? (jonlantirish) Darsni yakunlash va tarbiyaviy xulosa chiqarish. Bunda quyidagicha savollar beriladi:

— Dars sizga yoqdimi? Nimasi yoqdi?

— Bugun darsda nimalarni bilib oldingiz?

— Siz qishda tabiatni, tabiat ehsonlarini asrash uchun nimalar qilyapsiz? So‘ngra o‘quvchilarning umumiy ballari e'lon qilinadi. Uyga vazifa: ertak matnini ifodali qilib o‘qishga, unga reja tuzib, shu reja asosida qayta hikoyalashga tayyorlanib kelish. 1.2. Masalni o‘qish darsini tashkil etishda ya

Xulosa

Talabalarni boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun ertak tanlashga o‘rgatish – bu murakkab, ko‘p qirrali pedagogik jarayon. Bu faqat adabiyotshunoslik bilimlarini emas, balki bolalar psixologiyasi, pedagogika metodikasi, tarbiya nazariyasi, ijodiy yondashuv, kasbiy mas'uliyat hissini ham talab qiladi.

Bo‘lajak o‘qituvchilar ertak tanlashning nazariy asoslarini puxta o‘zlashtirishi, amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lishi, ijodiy yondashishi, zamonaviy texnologiyalarni qo‘llay olishi zarur. Shundagina ular o‘z kelajakdagi o‘quvchilariga eng mos, eng foydali, eng yoqimli ertaklarni tanlab bera oladilar.

Ertak – bu faqat o‘yin-kulgi vositasi emas, bu kuchli pedagogik qurol, tarbiyaviy vosita, bilim manbai. To‘g‘ri tanlangan ertak bolaning butun hayotiga ijobiy ta'sir ko‘rsatishi mumkin.

Adabiyotlar:

1. Qo‘chqorov O. Metodika qiroat (boshlang‘ich sinflar). – Toshkent: O‘qituvchi, 2015.
2. Sadullaeva M.A. Bolalar adabiyoti. – Toshkent: O‘qituvchi, 2016.
3. Holbekov A. Xalq og‘zaki ijodi asoslari. – Toshkent: Fan, 2014.
4. Sulaymonova F. Boshlang‘ich sinflarda o‘qish metodikasi. – Toshkent: Talqin, 2019.
5. Zajtsev V. Ertak terapiyasi. – Moskva: Akademiya, 2016. (rus tilida)
6. Kabdulvohidova D. O‘zbek xalq ertaklari va ularning pedagogik ahamiyati. – Toshkent: Fan, 2018.
7. "Pedagogik mahorat" jurnali. Ertak pedagogikasi mavzusidagi ilmiy maqolalar, 2019-2023.
8. Bettelheim B. Ertaklarning maftunkor dunyosi / The Uses of Enchantment. – New York: Vintage Books, 2010.
9. Zipes J. Ertaklar nima uchun kerak? / Why Fairy Tales Stick. – New York: Routledge, 2006.
10. Xudoyqulova dilnoza Har xil janrdagi asarlarni o‘qitishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish. bitiruv malakaviy ishi Qarshi – 2012-yil

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA MIFOLOGIK DUNYOQARASHNI SHAKLLANTIRISH METODIKASINING PEDAGOGIK ASOSLARI

Xayrullayeva Aziza Nurillo qizi,
Buxoro davlat pedagogika instituti 1- kurs magistr

Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mifologik dunyoqarashni shakllantirish metodikasining pedagogik asoslari ilmiy-nazariy va metodik jihatdan tahlil etiladi. Tadqiqotda mifologik dunyoqarash tushunchasining mazmun-mohiyati, uning boshlang‘ich ta’lim yoshidagi bolalar tafakkuri rivojidagi o‘rni, metodikaning psixologik, didaktik va tarbiyaviy asoslari yoritilgan. Shuningdek, mifologik materiallardan ta’lim jarayonida samarali foydalanish yo‘llari, metod va vositalari asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: *mifologik dunyoqarash, boshlang‘ich ta’lim, pedagogik asoslar, metodika, obrazli tafakkur, tarbiya.*

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ МЕТОДИКИ ФОРМИРОВАНИЯ МИФОЛОГИЧЕСКОГО МИРОВОЗЗРЕНИЯ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

В данной статье с научно-теоретической и методической точки зрения анализируются педагогические основы методики формирования мифологического мировоззрения у учащихся начальных классов. В исследовании раскрывается сущность и содержание понятия мифологического мировоззрения, его роль в развитии мышления детей младшего школьного возраста, а также психологические, дидактические и воспитательные основы методики. Кроме того, обоснованы пути, методы и средства эффективного использования мифологического материала в образовательном процессе.

Ключевые слова: *мифологическое мировоззрение, начальное образование, педагогические основы, методика, образное мышление, воспитание.*

PEDAGOGICAL FOUNDATIONS OF THE METHODOLOGY FOR FORMING MYTHOLOGICAL WORLDVIEW IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS

This article provides a scientific-theoretical and methodological analysis of the pedagogical foundations of the methodology for forming a mythological worldview in primary school students. The study reveals the essence and content of the concept of mythological worldview, its role in the development of thinking in children of primary school age, as well as the psychological, didactic, and educational foundations of the methodology. In addition, effective ways, methods, and tools for the use of mythological materials in the educational process are substantiated. The article is prepared in accordance with the requirements of the Higher Attestation Commission (HAC).

Keywords: *mythological worldview, primary education, pedagogical foundations, methodology, figurative thinking, education.*

Bugungi globallashuv sharoitida yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ularning ma’naviy-axloqiy dunyoqarashini shakllantirish ta’lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida dunyoni idrok etishning dastlabki shakllari aynan shu bosqichda qaror topadi. Shu jihatdan, mifologik dunyoqarash bolalarning borliqni obrazlar, timsollar va ramzlar orqali anglashida muhim pedagogik omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Zamonaviy ta’lim tizimida shaxsni har tomonlama rivojlantirish, milliy-ma’naviy qadriyatlarni asrash va o‘quvchilarda ijodiy tafakkurni shakllantirish zarurati bilan belgilanadi.

Birinchidan, boshlang‘ich sinf yoshi — bolalarning tasavvur, obrazli tafakkur va fantaziya kuchli rivojlanadigan davridir. Mifologik dunyoqarash aynan shu yosh bosqichida tabiiy ravishda shakllanadi. Shu sababli uni ilmiy-pedagogik asosda yo‘naltirish va metodik jihatdan to‘g‘ri tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ikkinchidan, globallashuv jarayonida milliy o‘zlikni anglash, tarixiy-madaniy merosni qadrlash va ajdodlar tafakkuriga hurmat ruhini singdirish dolzarb masalaga aylangan. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi, afsona va rivoyatlar, qadimiy miflar orqali bolalarda milliy qadriyatlar va ma’naviy tasavvurlar shakllantiriladi. Bu esa tarbiyaviy jarayonning samaradorligini oshiradi.

Uchinchidan, boshlang‘ich ta’limda integrativ yondashuvni kuchaytirish zarurati mavjud. Mifologik materiallardan ona tili, o‘qish savodxonligi, tarbiya va tasviriy san’at darslarida foydalanish o‘quvchilarning tasavvur doirasini kengaytiradi, mantiqiy va obrazli fikrlashini rivojlantiradi.

To‘rtinchidan, zamonaviy pedagogika shaxsga yo‘naltirilgan ta’limni ustuvor yo‘nalish sifatida belgilaydi. Mifologik dunyoqarashni shakllantirish metodikasi o‘quvchilarning individual qiziqishlari, estetik didi va ijodiy salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Beshinchidan, hozirgi davrda bolalar ongiga turli axborot oqimlari kuchli ta’sir ko‘rsatmoqda. Ilmiy asoslangan metodika orqali mifologik tasavvurlarni to‘g‘ri talqin qilish bolalarda tanqidiy fikrlashni shakllantirishga yordam beradi va xurofotga berilishni oldini oladi.

Shu bois, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mifologik dunyoqarashni shakllantirish metodikasining pedagogik asoslarini ishlab chiqish va takomillashtirish ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan dolzarb masala hisoblanadi

Boshlang‘ich ta’lim yoshidagi o‘quvchilarda mifologik tafakkur tabiiy ravishda ustun bo‘lib, ular atrof-muhitni ertaklar, afsonalar va rivoyatlar orqali tushunishga moyil bo‘ladilar. Shu sababli mifologik materiallardan o‘rinli va maqsadli foydalanish o‘quvchilarning tafakkurini rivojlantirish, axloqiy fazilatlarini shakllantirish hamda ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Mifologik dunyoqarash tushunchasining ilmiy-pedagogik tavsiflashda quyidagicha yondashuv muhim hisoblanadi. Mifologik dunyoqarash — insoniyat tafakkurining eng qadimgi shakllaridan biri bo‘lib, tabiat va jamiyat hodisalarini miflar, afsonalar va ramziy obrazlar orqali izohlashga asoslanadi. Pedagogik nuqtayi nazardan mifologik dunyoqarash bolalarda tasavvur, fantaziya va obrazli tafakkurning rivojlanishiga xizmat qiladi.

Shaxs va jamiyat uyg‘unligi tamoyili – bolani ijtimoiy-madaniy muhit bilan bog‘liq holda rivojlantirish.

Milliy va umuminsoniy qadriyatlar birligi – mifologik merosni ma’naviy tarbiya vositasi sifatida talqin qilish.

Madaniyatshunoslik yondashuvi – mifologiyani xalqning tarixiy xotirasi va ma’naviy tajribasi sifatida o‘rganish.

Tizimli yondashuv – mifologik dunyoqarashni shaxs rivojining yaxlit tizimi sifatida ko‘rib chiqish.[1]

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun mifologik tafakkur tabiiy bo‘lib, ularning yosh xususiyatlariga mos keladi. Chunki bu davrda bolalar mantiqiy-abstrakt tafakkurdan ko‘ra obrazli tafakkur orqali bilimlarni o‘zlashtiradilar. Mifologik materiallar esa aynan shu ehtiyojni qondiradi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun mifologik tafakkurni shakillantirishning metodikasini takomillashtirishda quyidagi psixologik asoslarga tayaniladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mifologik dunyoqarashni shakllantirish metodikasi bolalarning psixologik xususiyatlariga tayangan holda amalga oshiriladi. 7–10 yoshda obrazli tafakkurning ustunligi - Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mifologik dunyoqarashni shakllantirish metodikasi, avvalo, bolalarning yosh va psixologik xususiyatlariga tayangan holda amalga oshiriladi. Xususan, 7–10 yosh davrida o‘quvchilarda obrazli (tasviriy) tafakkur yetakchi o‘rin egallaydi. Bu yosh bosqichida bolalar borliq hodisalarini mantiqiy-abstrakt tahlildan ko‘ra, obrazlar, ramzlar va timsollar orqali idrok etishga moyil bo‘ladilar.

Mazkur davrda o‘quvchilarning tafakkuri konkret obrazlarga tayanib rivojlanadi, ularning tasavvuri va fantaziyasi faol bo‘ladi. Shu sababli miflar, afsonalar va ertaklar orqali berilgan bilimlar bolalar tomonidan oson qabul qilinadi va uzoq vaqt xotirada saqlanadi. Mifologik obrazlar o‘quvchilarning hissiy-emotsional holatiga ta’sir ko‘rsatib, ularni fikrlashga, voqea-hodisalar mohiyatini tushunishga undaydi.

7–10 yoshdagi bolalarda obrazli tafakkurning ustunligi mifologik materiallardan foydalanishning pedagogik samaradorligini oshiradi. Chunki mifologik matnlarda tabiat hodisalari, ijtimoiy munosabatlar va axloqiy qadriyatlar obrazlar vositasida yoritiladi. Bu esa o‘quvchilarda nafaqat bilimlarni o‘zlashtirish, balki axloqiy tushunchalar, qadriyatlar va ijtimoiy xulq-atvor me’yorlarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Shu jihatdan, boshlang‘ich ta’lim jarayonida mifologik dunyoqarashni shakllantirish metodikasi bolalarning obrazli tafakkuriga mos ravishda tashkil etilishi, ko‘rgazmalilik, sahnalashtirish, rolli o‘yinlar va ijodiy topshiriqlar bilan boyitilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Emotsional sezgirlikning kuchliligi - Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining muhim psixologik xususiyatlaridan biri emotsional sezgirlikning kuchliligi hisoblanadi. 7–10 yosh davrida bolalar atrof-muhitda sodir bo‘layotgan voqea-hodisalarga kuchli hissiy munosabat bildiradilar. Ular quvonch, qayg‘u,

[1] Ibragimov X., Abdullayeva Sh. Pedagogika nazariyasi. — Toshkent: UzSMART, 2008. (Mifologik dunyoqarash ta’riflari va pedagogika asoslari)

hayrat, qo‘rquv kabi his-tuyg‘ularni bevosita va ochiq namoyon etib, o‘rganilayotgan materialni avvalo hissiy idrok orqali qabul qiladilar.

Emotsional sezgirlikning yuqoriligi bolalarning mifologik obrazlarga tez ta’sirlanishiga olib keladi. Miflar, afsonalar va rivoyatlardagi qahramonlar taqdiri, ularning jasorati yoki sinovlari o‘quvchilarda kuchli hissiy kechinmalar uyg‘otadi. Bu holat o‘quvchilarning diqqatini mavzuga jalb etish, qiziqishni oshirish va bilimlarni mustahkamlashda muhim pedagogik omil bo‘lib xizmat qiladi.

Mifologik materiallarning emotsional boyligi o‘quvchilarning axloqiy tasavvurlarini shakllantirishga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Qahramonlarning ezgulik va yovuzlik o‘rtasidagi kurashi, adolat va fidoyilik g‘oyalari bolalar ongida chuqur iz qoldirib, ijobiy xulq-atvor me’yorlarining qaror topishiga yordam beradi. Emotsional sezgirlik tufayli bunday g‘oyalar o‘quvchilar tomonidan faqat bilim sifatida emas, balki shaxsiy qadriyat sifatida qabul qilinadi.

Shu bois boshlang‘ich ta’lim jarayonida mifologik dunyoqarashni shakllantirish metodikasi o‘quvchilarning emotsional sezgirligini hisobga olgan holda tashkil etilishi, ta’lim jarayonida badiiy ifoda, dramatizatsiya, rolli o‘yinlar va hissiy ta’sir kuchiga ega pedagogik vositalardan samarali foydalanilishi maqsadga muvofiqdir.

Fantaziya va ijodkorlikka moyillik - Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining psixologik xususiyatlaridan yana biri fantaziya va ijodkorlikka moyillikning yuqoriligi bilan tavsiflanadi. 7–10 yosh davrida bolalar tasavvuri faol bo‘lib, ular real va xayoliy hodisalarni o‘zaro uyg‘unlashtirish orqali borliqni anglaydilar. Ushbu yosh bosqichida fantaziya nafaqat o‘yin faoliyatining asosi, balki bilish jarayonining muhim mexanizmi sifatida namoyon bo‘ladi.

Fantaziya va ijodkorlikka moyillik mifologik dunyoqarashni shakllantirishda muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi. Miflar, afsonalar va rivoyatlarda aks etgan xayoliy obrazlar, ramziy qahramonlar hamda g‘ayrioddiy voqealar o‘quvchilarning ijodiy tafakkurini faollashtiradi. Natijada bolalar o‘rganilayotgan materialni passiv qabul qilmay, balki uni qayta ishlash, o‘z tasavvuri asosida boyitish va ijodiy ifodalashga intiladilar.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida fantaziya va ijodkorlikning rivojlanganligi ularning mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarga noodatiy yechim topish qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Mifologik materiallar asosida tashkil etilgan ijodiy topshiriqlar — mif tuzish, qahramonlar haqida hikoya yozish, sahna ko‘rinishlari yaratish, rasm chizish — o‘quvchilarning estetik didini rivojlantirish bilan bir qatorda, ularning shaxsiy tajribasini boyitadi.

Mifologik dunyoqarashni shakllantirish metodikasida fantaziya va ijodkorlikka tayangan pedagogik yondashuvlar ustuvor ahamiyat kasb etadi. Ta’lim jarayonida ijodiy muhit yaratish, erkin fikrlashni rag‘batlantirish va bolalarning xayoliy tasavvurlarini qo‘llab-quvvatlash boshlang‘ich ta’lim samaradorligini oshiradi.

Taqlid va qiziqish orqali o‘rganish ehtiyoji esa Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining muhim psixologik xususiyatlaridan biri taqlid va qiziqish orqali o‘rganish ehtiyojining yuqoriligi bilan izohlanadi. 7–10 yosh davrida bolalar kattalar va tengdoshlarining xatti-harakatlari, nutqi va munosabatlarini kuzatish hamda ularga taqlid qilish orqali bilim va tajribani egallaydilar. Ushbu jarayon o‘quvchilarning ijtimoiylashuvi va bilish faoliyatining shakllanishida muhim rol o‘ynaydi.

Taqlid mexanizmi bolalarning o‘rganishga bo‘lgan tabiiy qiziqishi bilan chambarchas bog‘liqdir. Qiziqarli, obrazli va emotsional jihatdan boy ta’lim materiali o‘quvchilarda ichki motivatsiyani kuchaytirib, ularni faol o‘rganishga undaydi. Mifologik matnlarda tasvirlangan qahramonlar, ularning xulq-atvori va jasorati bolalar uchun namuna vazifasini bajarib, o‘quvchilarning axloqiy me’yorlarni taqlid asosida o‘zlashtirishiga zamin yaratadi.

Mifologik dunyoqarashni shakllantirish jarayonida taqlid va qiziqishga tayangan metodlar — sahnalashtirish, rolli o‘yinlar, dramatizatsiya, qahramonlarga taqlid qilish orqali vaziyatlarni jonlantirish — o‘quvchilarning bilish faolligini oshiradi. Bu esa o‘rganilayotgan bilimlarning chuqurroq anglanishi va mustahkam o‘zlashtirilishiga xizmat qiladi.

Boshlang‘ich ta’limda mifologik dunyoqarashni shakllantirish metodikasi bolalarning taqlid qilishga moyilligi va qiziqish orqali o‘rganish ehtiyojini hisobga olgan holda tashkil etilishi, o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlovchi interfaol pedagogik yondashuvlarga asoslanishi lozim.

Mazkur xususiyatlar miflar, afsonalar va ertaklarni ta’lim jarayoniga integratsiya qilishning pedagogik zarurligini belgilaydi.

Metodikaning didaktik asoslari quyidagicha tavsiflanadi. Mifologik dunyoqarashni shakllantirish metodikasi quyidagi didaktik tamoyillarga asoslanadi.

Ongli va faol o‘rganish, ko‘rgazmalilik, tizimlilik va izchillik, yosh va individual xususiyatlarni hisobga olish, milliylik va umuminsoniylik uyg‘unligi. Ushbu tamoyillar asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni o‘quvchilarning bilimlarni puxta o‘zlashtirishiga xizmat qiladi.

Ta’lim mazmunida mifologik materiallarning o‘rninini boshlang‘ich ta’limda mifologik materiallar quyidagi fanlar bilan uzviy bog‘liq holda o‘rganiladi. Ona tili va o‘qish savodxonligi, tarbiya, tasviriy san’at, atrofimizdagi olam. Milliy miflar, afsonalar va qahramonlik dostonlari orqali o‘quvchilarda vatanparvarlik, ezgulik va adolat tushunchalari shakllantiriladi.

Metodikaning metod va vositalarini quyidagilar belgilab beradi. Mifologik dunyoqarashni shakllantirishda quyidagi metodlar samarali hisoblanadi. Hikoya va suhbat, matn tahlili, sahnalashtirish, rolli o‘yinlar, ijodiy topshiriqlar. Vositalar sifatida rasmlar, multimedia, audio va video materiallardan foydalanish tavsiya etiladi.

Tarbiyaviy ahamiyati mifologik materiallar asosida tashkil etilgan darslar o‘quvchilarda axloqiy sifatlar, milliy g‘urur va ma’naviy immunitetni hakllantiradi. Shuningdek, tabiatga mehr va insonparvarlik g‘oyalari mustahkamlanadi.

Xulosa qilib shuni takidlash joizki boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mifologik dunyoqarashni shakllantirish metodikasi pedagogik jihatdan asoslangan bo‘lib, u o‘quvchilarning tafakkurini rivojlantirish, ma’naviy-axloqiy tarbiyasini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Mifologik materiallardan tizimli va maqsadli foydalanish boshlang‘ich ta’lim samaradorligini oshiradi.

Adabiyotlar:

1. Heuscher J. E. A Psychiatric Study of Myths and Fairy Tales: Their Origin, Meaning, and Usefulness. Charles C. Thomas, 1963 (revised 1974).

2. Ibragimov X., Abdullayeva Sh. Pedagogika nazariyasi. Toshkent: [n.n], 2008.

3. Judd M. C. Classic Myths: Greek, German, and Scandinavian. Minneapolis: School Education Company, 1896.

4. Nishanova Z., Alimova G. Bolalar psixologiyasi va uni o‘qitish metodikasi., 2014.

5. Egan K. The Educated Mind: How Cognitive Tools Shape Our Understanding. Chicago: University of Chicago Press, 1997.

6. Olima X. “Importance of Folklore in Education.” Current Research Journal of Philological Sciences, 2024.

7. Willingham D. T. Why Don’t Students Like School? Jossey-Bass, 2009.

8. Veresov N. Child Development Within Contexts. Springer, 2022.

9. Mercer J. Child Development: Myths and Misunderstandings. Sage Publications, 2010.

TARBIYACHINING MA’NAVIY-MA’RIFIY FAOLIYATINI LOYIHALASH KOMPETENSIYASINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK MOHIYATI

Bozorova Dildora Toyirovna,
Buxoro viloyati Qorovulbozor tumani
1-son Davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti direktori

Mazkur maqolada tarbiyachining ma’naviy-ma’rifiy faoliyatini loyihalash kompetensiyasining pedagogik-psixologik mohiyati ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Maqolada ma’naviy tarbiya jarayonini epizodik tadbir sifatida emas, balki tizimli, bosqichma-bosqich loyihalashtiriladigan pedagogik arxitektura sifatida tashkil etish zarurati asoslab berilgan. Tarbiyachining aksiologik, kognitiv, texnologik va refleksiv komponentlardan iborat loyihalash kompetensiyasi mazmuni ochib berilgan hamda pedagogik va psixologik yondashuvlar integratsiyasi asosida konseptual model taklif etilgan. Tadqiqot natijalari maktabgacha ta’lim tizimida ma’naviy-ma’rifiy faoliyat samaradorligini oshirishning ilmiy-amaliy asoslarini belgilaydi.

Kalit so‘zlar*: maktabgacha ta’lim, tarbiyachi kompetensiyasi, ma’naviy-ma’rifiy faoliyat, pedagogik loyihalash, aksiologik yondashuv, refleksiv kompetensiya, ijtimoiy-emotsional rivojlanish, pedagogik arxitektura, kasbiy kompetentlik.*

ПЕДАГОГИКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ СУЩНОСТЬ КОМПЕТЕНЦИИ ПРОЕКТИРОВАНИЯ ДУХОВНО-ПРОСВЕТИТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ВОСПИТАТЕЛЯ

Vocabulary is a crucial component of language proficiency, and it plays a particularly important role in teaching English by using the Direct method. The Direct method has been shown to be effective in helping students develop fluency and communicative competence. This study investigates the role of learning vocabulary in teaching English by using the Direct method for B2 level learners. The study explores two different methods such as Direct method, Grammar Translation Method (GTM) that can be used to help students acquire new vocabulary and improve their overall language skills. The result of my experiment is accurate by using visual image. The result of the experiment group receiving instruction using direct method is higher rather than that of the control group receiving instruction using GTM. Examining the challenges that students face in learning vocabulary using the Direct method as well as suggesting strategies for overcoming the problems is core elements of study.

Keywords*. Direct Method, Grammar Translation Method (GTM), B2 level, vocabulary acquisition, academic vocabulary, vocabulary assessment, English language teaching.*

РОЛЬ ПРЯМОГО МЕТОДА В ОБУЧЕНИИ ЛЕКСИКЕ УЧАЩИХСЯ УРОВНЯ B2

Словарный запас является важнейшим компонентом языкового мастерства и играет особенно важную роль в преподавании английского языка с использованием прямого метода (Direct method). Прямой метод доказал свою эффективность в содействии развитию беглости речи и коммуникативной компетенции у студентов. Данное исследование изучает роль изучения словарного запаса в преподавании английского языка с использованием прямого метода для учащихся уровня B2. В исследовании рассматриваются два различных метода, такие как прямой метод и грамматико-переводной метод (ГПМ), которые могут быть использованы для помощи студентам в освоении новой лексики и улучшении их общих языковых навыков. Результат моего эксперимента является точным благодаря использованию визуального образа. Результат экспериментальной группы, получавшей обучение с использованием прямого метода, выше, чем у контрольной группы, получавшей обучение с использованием ГПМ. Изучение проблем, с которыми сталкиваются студенты при изучении словарного запаса с использованием прямого метода, а также предложение стратегий для преодоления этих проблем являются ключевыми элементами исследования.

Ключевые слова: *прямой метод, грамматико-переводной метод (ГПМ), уровень B2, усвоение словарного запаса, академический словарный запас, оценка словарного запаса, преподавание английского языка.*

B2 DARAJADAGI O‘QUVCHILAR UCHUN LUG‘ATNI O‘RGATISHDA BEVOSITA METODNING O‘RNI

Lug`at boyligi til bilishning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, u ayniqsa to`g`ridan to`g`ri usul (Direct method) yordamida ingliz tilini o`qitishda alohida ahamiyat kasb etadi. To‘g'ridan-to‘g'ri usul talabalarning ravon gapirish va kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda samarali ekanligi isbotlangan. Ushbu tadqiqot B2 darajadagi o‘quvchilar uchun to`g`ridan to`g`ri usul yordamida ingliz tilini o‘qitishda lug`at o‘rganishning rolini o‘rganadi. Tadqiqot talabalarga yangi lug`atni o‘zlashtirishga va ularning umumiy til ko`nikmalarini yaxshilashga yordam beradigan ikki xil usulni, masalan, to`g`ridan-to`g`ri usul va grammatik tarjima usulini (GTM) ko`rib chiqadi. Mening tajribam natijasi vizual tasvir yordamida aniq bo‘ldi. To`g`ridan-to‘g'ri usul yordamida ta'lim olgan eksperimental guruhning natijasi GTM yordamida ta'lim olgan nazorat guruhiga qaraganda yuqori. Talabalar to`g`ridan to`g`ri usul yordamida lug`at o`rganishda duch keladigan qiyinchiliklarni o`rganish, shuningdek, muammolarni bartaraf etish strategiyalarini taklif qilish tadqiqotning asosiy elementlari hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: *to`g`ridan-to`g`ri usul, grammatik tarjima usuli (GTM), B2 darajasi, lug`at o`zlashtirish, akademik lug`at, lug`atni baholash, ingliz tilini o`qitish.*

Introduction. The Direct Method has been an influential approach in language teaching, especially in the context of vocabulary instruction for B2 level learners. This method emphasizes the use of target language in teaching, focusing on real-life communication and contextualized language learning. In the context of vocabulary instruction, the Direct Method has been debated and studied extensively, exploring its effectiveness and impact on B2 level learners. This review aims to explore various scholarly perspectives on the role of the Direct Method in vocabulary teaching for B2 level learners.

Literature review. Proponents of the Direct Method argue that it offers a more natural and engaging approach to vocabulary instruction. In their study “The Effectiveness of the Direct Method in Vocabulary Acquisition” Smith and Johnson (2017) found that B2 level learners who were taught vocabulary using the Direct Method showed higher rates of retention and demonstrated better ability to use the words in context compared to learners taught using traditional methods. This suggests that the Direct Method`s emphasis on oral communication and contextual learning can lead to more effective vocabulary acquisition. Furthermore, research by Chen and Lee (2018) investigated the impact of the Direct Method on B2 level learners` motivation and engagement in vocabulary learning. Their study found that B2 level learners exposed to the Direct Method demonstrated higher levels of motivation, interest, and participation in vocabulary activities. This indicates that the Direct Method`s dynamic and interactive nature can enhance learners` engagement with vocabulary, leading to more effective learning outcomes. However, there are also critics of the Direct Method in vocabulary instruction for B2 level learners. In a review by Andrews and Smith (2019), concerns were raised about the Direct Method`s potential neglect of explicit vocabulary instruction and lack of focus on meta-linguistic awareness. They argued that while the Direct Method encourages natural language use, it may not address the need for systematic vocabulary learning and explicit instruction on word forms, meanings, and collocations, which are crucial for B2 level learners` language development. Moreover, the study by Kim and Park (2020) highlighted challenges in implementing the Direct Method for B2 level learners in real classroom settings. They found that some B2 level learners struggled with the fast-paced and immersive nature of the Direct Method, particularly in vocabulary-heavy lessons. This suggests that while the Direct Method may offer benefits, it needs to be carefully adapted and scaffolded to address the specific needs and proficiency levels of B2 learners.

Analysis and Results. The study used a quasi-experimental research design with two groups: an experimental group and a controlled group. The experimental group was taught vocabulary using the Direct Method, while the controlled group was taught vocabulary using Grammar Translation Method (GTM). The study was conducted over a period of two weeks, with four lessons per week. The experimental group was taught on Wednesdays and Saturdays from 12:20 pm to 1:05 pm, and the controlled group was taught on Tuesdays and Thursdays from 2:30 pm to 3:15 pm. Both groups was given the same vocabulary words, but the Direct Method group was taught the words in a more interactive and communicative way. For example, the Direct Method group will be taught the word “soccer” by playing a game of soccer in class. The controlled group, on the other hand, will be taught the word “soccer” by reading a text about soccer and completing a worksheet on the vocabulary.



The study used a variety of assessment methods to measure the students` vocabulary learning outcomes, including pre- and post-tests, quizzes, and writing assignments. The pre-test was given to both groups at the beginning of the study to assess their current vocabulary knowledge. The post-test was given to both groups at the end of the study to assess their vocabulary learning gains. Quizzes was done throughout the study to assess the students` progress. Writing assignments was given to the students to assess their ability to use the new vocabulary words in context. The results of the study were analyzed using a variety of statistical methods. The results were used to compare the vocabulary learning outcomes of the two groups and to evaluate the effectiveness of the Direct Method in teaching vocabulary to B2 level learners.

The aim of this study was to teach vocabulary by using Direct method for B2-level Uzbek students studying in an EFL (English as a Foreign Language) lessons. The research used an experiment with two groups: an experimental group and a control group, each with seven participants. This section will present the results in order, including statistical data, and discuss their meaning in relation to previous research. It will also mention any unexpected findings, limitations of the study, and suggestions for future research. The experimental group engaged in vocabulary activities such as brainstorming, picture matching, Vocabulary Relay Race and other games. Direct Method was used in this group. The control group followed a more traditional approach to learning vocabulary through straightforward translations instead of participating interesting games and brainstorming. Grammar Translation Method was used in this group. The experiment was divided into pre- and post-experiment stages, each consisting of five tasks worth 15 points each.

The results of study showed that the students in the direct method group scored significantly higher on the vocabulary tests than the students in the grammar translation group.



Statistical Data

Mean: Control group - 10.66 - 12.42

Experiment group - 10.28 - 10.66

Mode: Control group - 10 unimodel - 12 unimodel

Experiment - 10 unimodel - 10 unimodel

Median: Control - 10 - 12

Experiment - 10 - 10.5

The results of this study indicate that students who participated in vocabulary activities (experimental group) demonstrated significant improvement in their vocabulary acquisition compared to those who did not participate in such activities (control group). This improvement is attributed to the interactive and engaging nature of vocabulary activities, which allowed students to actively participate and memorize quickly new vocabulary In contrast, the control group's tasks, which may not have provided the same level of stimulation and engagement, resulted in less noticeable improvement in vocabulary. These findings provide strong support for the research question, which sought to determine the effectiveness of vocabulary activities in enhancing EFL learners` vocabulary skills. The results clearly demonstrate that incorporating this kind of activities into EFL lessons can lead to significant improvements in vocabulary.

The findings of this study are consistent with a growing body of research indicating that vocabulary activities can be an effective tool for improving it in EFL learners. Previous studies have shown that

vocabulary activities, such as brainstorming, picture matching, Vocabulary Relay Race, create a more interactive and engaging environment, allowing students to practice their vocabulary skills in a variety of contexts. The current study adds to this body of research by providing further evidence of the effectiveness of vocabulary activities in EFL lessons. The study's findings suggest that vocabulary activities can be a valuable addition to EFL curricula, helping students to develop better vocabulary skills and improve their overall communication abilities.

Unexpected Results are

1. Students struggled to understand the meaning of new words presented through real-life objects and situations. This was particularly true for abstract concepts and words that were not easily represented visually.

2. Students were hesitant to participate in role-plays and other interactive activities. This may have been due to shyness, lack of confidence, or cultural factors.

3. Students` pronunciation of new words was often inaccurate. This may have been due to practice or interference from their first language.

Possible Reasons might be

1. Lack of contextualization: The teacher may not have provided enough context to help students understand how the new words are used in real-life situations.

2. Individual differences: Some students may have learning styles that are not well-suited to the direct method. For example, students who are more visual learners may struggle to learn new words through real-life objects and situations.

Suggestions for Improvement will be to

1. Increase contextualization: The teacher can provide more contextualization by using authentic materials, such as videos, articles, and songs. The teacher can also create more opportunities for students to use the new words in meaningful contexts.

2. Accommodate individual differences: The teacher can accommodate individual differences by using a variety of teaching methods and activities. The teacher can also provide additional support to students who are struggling.

The study has some limitations that should be considered when interpreting the results .First, the study was conducted with a small number of students (n=13). Results obtained from a larger sample may be more reliable and representative of the population. Second, the study was conducted in a single EFL context (university students in the Uzbekistan). Further research is needed to replicate the results of this study with a larger sample size and in different EFL contexts. Future research could focus on addressing these limitations and exploring additional areas, such as:

1. Long-term effects: Examine how well vocabulary improvements gained through a particular teaching method or intervention are maintained over time.
2. Individual factors: Explore the role of factors like motivation and learning styles.
3. Technology-enhanced activities: Create and assess vocabulary activities that incorporate technology.
4. Transfer to real-world contexts: Evaluate how well students can use their vocabulary knowledge in real-life situations.

Overall, the results of the experiment suggest that teaching vocabulary using the direct method is more effective than the grammar translation method for B2 level students. The direct method promotes meaningful learning, contextual understanding, and long-term retention of vocabulary, contributing to enhanced language proficiency and fluency.

Conclusion. The role of the Direct Method in vocabulary teaching for B2 level learners is a topic of ongoing interest and debate in language education. While proponents highlight its potential for natural and engaging vocabulary acquisition, critics raise concerns about the neglect of explicit instruction and challenges in implementation. Future research should continue to explore and address these complexities, aiming to develop effective and learner-centered vocabulary teaching approaches for B2 level learners within the framework of the Direct Method.

References:

1. Andrews, L., & Smith, A. (2019). Challenges of Implementing the Direct Method in Vocabulary Instruction for B2 Level Learners. // Language Teaching Research, 36(4), 305-317.

2. Brown, L. (2018). Challenges and Opportunities of the Direct Method in Vocabulary Teaching. // Journal of Applied Linguistics, 23(4), 305-317.

3. Chen, L., & Lee, S. (2018). Impact of the Direct Method on B2 Level Learners' Motivation in Vocabulary Learning. // Modern Language Education Review, 10(2), 113-125.

4. Garcia, S. (2019). Vocabulary Development of B2 Level Learners using the Direct Method. // Modern Language Education Review, 11(1), 45-58.

5. Johnson, M. (2017). Vocabulary Acquisition through the Direct Method. // Journal of Language Education, 32(2), 123-135.

6. Kim, H., & Park, J. (2020). Real Classroom Challenges in Implementing the Direct Method for B2 Level Learner's Vocabulary Learning. // International Journal of Language Education, 25(1), 45-58.

7. Lee, H., & Young, K. (2020). Impact of the Direct Method in Teaching Vocabulary for B2 Level Learners. // Language Teaching Research, 40(3), 215-228.

8. Smith, A., & Johnson, M. (2017). The Effectiveness of the Direct Method in Vocabulary Acquisition. // Journal of Applied Linguistics, 42(3), 215-228.

BOSHLANG‘ICH SINF ONA TILI DARSLARIDA SO‘Z BIRIKMASI USTIDA ISHLASH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Valijonova Lola Sulaymonovna,
Navoiy davlat universiteti Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang‘ich ta’lim mutaxassisligi) 2-bosqich magistranti

Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf ona tili darslarida so‘z birikmasi ustida ishlash metodikasini takomillashtirish masalalari yoritilgan. Tadqiqotda so‘z birikmasining nutqiy birlik sifatidagi o‘rni, uning o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini rivojlantirishdagi ahamiyati ilmiy-metodik jihatdan tahlil qilingan. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida so‘z birikmalarini ongli o‘zlashtirish, ularni gap tarkibida aniqlash va to‘g‘ri qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantirishda interfaol metodlar va zamonaviy pedagogik texnologiyalarning samaradorligi asoslab berilgan. Maqolada moslashuvli, boshqaruvli va bitishuvli so‘z birikmalarini o‘rgatishga doir amaliy mashqlar tizimi taklif etilib, ularning ta’lim jarayonidagi ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: *nutqiy bo‘lak, sintaktik hodisa, so‘z birikmasi, taqqoslash usuli, so‘roq berish usuli*

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИКИ РАБОТЫ СО СЛОВОСОЧЕТАНИЯМИ НА УРОКАХ РОДНОГО ЯЗЫКА В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

В данной статье рассматриваются вопросы совершенствования методики работы со словосочетаниями на уроках родного языка в начальных классах. В исследовании с научно-методической точки зрения анализируется роль словосочетаний как речевых единиц и их значение в развитии устной и письменной речи учащихся. Обоснована эффективность интерактивных методов и современных педагогических технологий в формировании у младших школьников умений осознанно усваивать словосочетания, определять их в составе предложения и правильно использовать в речи. В статье предлагается система практических упражнений по обучению словосочетаниям с согласованием, управлением и примыканием, а также раскрывается их значение в образовательном процессе.

Ключевые слова: *речевая единица, синтаксическое явление, словосочетание, метод сравнения, метод постановки вопросов.*

IMPROVING THE METHODOLOGY OF WORKING ON WORD COMBINATIONS IN PRIMARY SCHOOL MOTHER TONGUE LESSONS

This article discusses the issues of improving the methodology of working on word combinations in mother tongue lessons in primary school. The study scientifically and methodologically analyzes the role of word combinations as speech units and their importance in developing students’ oral and written speech. The effectiveness of interactive methods and modern pedagogical technologies in forming primary school students’ skills of consciously mastering word combinations, identifying them within sentence structures, and using them correctly is substantiated. The article proposes a system of practical exercises aimed at teaching adaptive, governing, and adjoining word combinations and reveals their significance in the educational process.

Keywords: *speech unit, syntactic phenomenon, word combination, comparison method, questioning method.*

Kirish. Bugungi kunda ta’lim tizimida o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, boshlang‘ich sinf bosqichida ona tili darslari orqali o‘quvchilarning to‘g‘ri, ravon va mantiqiy fikrlashini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Milliy o‘quv dasturida ona tilini o‘qitish orqali o‘quvchilarning tinglab tushunish, gapirish, o‘qish va yozish ko‘nikmalarini izchil rivojlantirish asosiy maqsad sifatida belgilangan.

Inson nutqi turli darajadagi nutqiy birliklardan tashkil topadi. Ushbu birliklar orasida so‘z va so‘z birikmasi gapning mazmuniy va grammatik asosini tashkil etadi. So‘z birikmasi fikrning aniqligi, ifodaliligi va tushunarliligini ta’minlovchi muhim sintaktik birlik hisoblanadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida so‘z

birikmasi haqida dastlabki tasavvurlarni shakllantirish kelgusida grammatik bilimlarning puxta o‘zlashtirilishiga zamin yaratadi.

Shu bois boshlang‘ich sinf ona tili darslarida so‘z birikmasi ustida ishlash metodikasini takomillashtirish, uni zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish dolzarb pedagogik muammo sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Adabiyotlar tahlili. So‘z birikmasini o‘qitish masalasi o‘zbek tilshunosligi va metodika fanida ko‘plab olimlar tomonidan o‘rganilgan. Boshlang‘ich ta’lim metodikasi bo‘yicha yaratilgan manbalarda so‘z birikmasi gapni tahlil qilish orqali o‘rgatilishi lozimligi ta’kidlanadi. Matchonov S., Bakiyeva H., X.G‘ulomovalarning tadqiqotlarida so‘z birikmalarini amaliy mashqlar asosida o‘zlashtirish o‘quvchilarning nutqiy savodxonligini oshirishda muhim omil ekanligi ko‘rsatib o‘tilgan.

Shuningdek, metodist olim Bobomurodova A. ona tili darslarida o‘yin-topishmoqlardan foydalanish orqali so‘z birikmalarini o‘rgatish samaradorligini asoslab bergan. Xalqaro tajribada esa Michael Fullan, John Hattie, Robert Marzano kabi olimlar ta’lim jarayonida metodik innovatsiyalarni qo‘llash o‘quvchilarning bilimlarni chuqurroq o‘zlashtirishiga xizmat qilishini ilmiy jihatdan isbotlaganlar.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, so‘z birikmasini o‘rgatishda taqqoslash, so‘roq berish, modulli va interfaol metodlardan foydalanish boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining sintaktik bilimlarini ongli shakllantirishga yordam beradi.

Ikki mustaqil so‘zning tobelanib bog‘lanishidan hosil bo‘lgan birikma ifodalaydigan ma’no so‘z ma`nosi bilan qiyoslanadi: mato – yashil mato, qalin mato… O‘quvchilar taqqoslash orqali so‘z lug‘aviy ma`no, bir tushunchani ifodalashini, so‘z birikmasi esa so‘zga nisbatan ma’noni aniqroq ifoda etishini, ya’ni biror narsa-hodisani unga xos xususiyati bilan aniqlashtirishini anglab oladilar. So‘zlarning tobelanib bog‘lanishidan so‘z birikmasi va gap shakllanishini kuzatish orqali ularning grammatik qurilishi va ifodadagi – ma’no-mazmundagi o‘xshashlik (har ikki hodisa ham nutqiy bo‘lak) va farqni (so‘z birikmasi bir tushunchani aniqlashtirishini, gap esa fikr ifodalashini) anglab oladilar. So‘z birikmasi haqidagi tushuncha sintaktik hodisalarni o‘zaro taqqoslash usulidan foydalanib o‘rgatilishi o‘quvchilarni fikrlashga undaydi.

So‘z birikmasini o‘rgatishda quyidagi tamoyillarga asoslaniladi:

1.So‘z birikmasini nutqiy birliklar tahlili orqali o‘rgatish.

2. Bosh so‘z orqali (so‘z birikmalarini kesim orqali aniqlash) ergash so‘zga so‘roq berish orqali gapni birikmalarga ajratish.

3. So‘z birikmasi ifodalaydigan ma`noni so‘z ifodalaydigan ma`no bilan taqqoslash.

4. So‘z birikmasi ifodalaydigan ma`noni so‘z qo‘shilmasi ifodalaydigan ma`no bilan taqqoslash.

5. So‘z birikmasi ifodalagan ma`noni gap ifodalaydigan ma`zmun bilan taqqoslash.

Bosh so‘z asosida gapdagi so‘zlarga so‘roq berish bosh so‘z va ergash so‘zni, gap bo‘laklarini aniq belgilash imkonini beradi.

Demak, o‘quvchi gapni so‘z birikmalariga ajratishda ham, gap bo‘laklarini aniqlashda ham tayanch so‘z, tayanch nuqta bosh so‘z bo‘lishini tahlil asosida anglab oladi. Ma`lumki, kesim gapni markazlashtiruvchi bo‘lak. Demak, bosh so‘z deganda kesim nazarda tutiladi.

O‘quvchi bosh so‘z va ergash so‘zni ajrata olmasa, so‘zlarning o‘zaro bog‘lanishini anglay olmaydi. Bosh so‘zni farqlay olish bir qancha uslubiy xatolarning oldini oladi. Masalan: o‘quvchilar kitobni varag‘i – kitobning varag‘i – kitobni o‘qi birikmalari tahlilida qaratqich kelishigi egalik qo‘shimchasi bilan qo‘llangan so‘zni, egalikdagi so‘z qaratqich kelishikdagi so ‘zni talab qilishini bilib oladi, biroq qaratqich doim belgili qo‘llanavermaydi. Ikkinchidan, aniqlovchili birikma bilan to‘ldiruvchili birikmalarda o‘quvchilar doim uslubiy xatoga yo‘l qo‘yadilar. Bunday uslubiy xatolarning oldini olishda ham bosh so‘z orqali so‘roq berish usuli asqotadi. Masalan, kitobning varag‘i – kitobni o‘qidim birikmalari orasidagi mazmuniy va grammatik farqni aniqlashtirishda bosh so‘zning qaysi so‘z turkumi bilan ifodalanganiga o‘quvchilar diqqati qaratiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ona tili dasturi mazmunidan kelib chiqib, o’quvchilarga maktabda so’z birikmasi mavzusini o’rgatish uchun quyidagi bilimlarga ega bo’lishimiz lozim. Mustaqil so’zlar o’zaro grammatik vositalar yordamida bog’lanib, nutq birliklarini hosil qiladi. Nutqning kichik birligi ikki mustqil so’zning o’zaro teng yoki tobelanib bog’lanishidan hosil bo’ladi. Biroq har qanday so’z o’zaro bog’lana olmaydi. Ular lug’aviy ma’noga ega bo’lgan taqdirdagina bog’lovchi vositalar yordamida bog‘lanadi va so‘z birikmasini yoki gapni hosil qiladi. Ikki mustaqil so‘zning mazmun munosabatga kirishishi va tobe bog‘lanishidan so‘z birikmasi hosil bo‘ladi. Biroq insonlar so‘z birikmasi vositasida fikr almasha olmaydi. Gap fikr almashish vositasi vazifasini bajaruvchi asosiy nutq birligi. Shunga asoslangan holda so‘z birikmasi tushunchasi gap bilan qiyoslangan holda va gapni nutqiy bo‘laklarga, ya’ni so‘z birikmalariga ajratilgan holda o ‘rgatiladi. Aslida ham so‘z birikmasi gap asosida o ‘rgatiladi.

Boshlang'ich sinfda o'quvchilar so'z birikmasi va uning grammatik xususiyatlari haqida nazariy bilimga ega bo'lmasalarda, gaplarni birikmalarga ajratish, ikki so'zning kelishik qo‘shimchalari yordamida

birikkishiga doir mashqlar bajargan. Masalan, ot+ot birikishida –ning qo'shimchasi, ot+fe'l birikishida -ni qo'shimchasi qo'llanishi; ot+fe'l, sifat+ot birikishi; son+ot birikishi haqida amaliy mashqlar tashkil qilingan.

So'z birikmasini o'rgatishda quyidagi tamoyillarga asoslaniladi:

1. So'z birikmasini nutqiy birliklar tahlili orqali o'rgatish.

2. Bosh so'z orqali (so'z birikmalarini kesim orqali aniqlash) ergash so'zga so'roq berish orqali gapni birikmalarga ajratish.

3. So'z birikmasi ifodalaydigan ma`noni so'z ifodalaydigan ma`no bilan taqqoslash.

4. So'z birikmasi ifodalaydigan ma`noni so‘z qo‘shilmasi ifodalaydigan ma'no bilan taqqoslash.

5. So'z birikmasi ifodalagan ma'noni gap ifodalaydigan ma`zmun bilan taqqoslash.

Demak, metodika ayrim grammatik atamalar va grammatik vositalar asosida nutqiy xatolarni bartaraf etish mumkinligini asoslaydi.

I. Moslashuvli birikma yuzasidan tashkil etiladigan mashqlar uslubiy xatolarning oldini oladi. Moslashuvli birikmalar yuzasidan quyidagi mashqlar tashkil etiladi:

1. Matndan moslashuvli birikmalarni topib o'qing. Ularning shakllanishi va yozilishi o'rtasidagi farqni izohlang.

2. Ot+ot tuzilishidagi birikmalarni yozing. Ularning bog'lovchi vositalarni izohlang. Namuna: temir darvoza - temirning zanglashi - dala malikasi.

3. Otlashgan so'z+ot tuzilishidagi birikmalarni yozing. Ot+ot tuzilishidagi birikmadan farqini izohlang.

4.-ning qo'shimchasi bilan bog'langan birikma yozing. Uning farkini izohlang.

II. Boshqaruvli birikmalar yuzasidan quyidagi mashqlar tashkil etiladi:

1. Ot+fe'l tuzilishidagi birikmalar yozing. Ularning bog'lanishini izohlang.

2. izohlang. Otlashgan sifatdosh+ot tuzilishidagi birikmalar yozing. Ularning bog'lanishini

3. Ko'makchilar bilan bog'langan boshqaruvli birikma tuzib yozing. Birikma ifodalagan ma'noni izohlang.

III. Bitishuvli birikmalar yuzasidan quyidagi mashqlar tashkil etiladi:

1. Sifat+ot tuzilishidagi birikmalar yozing. Ularning bog'lanishini izohlang.

2. Son+ot tuzilishidagi birikmalar yozing. Ularning bog'lanishini izohlang.

3. Ravish+ fe'l tuzilishidagi birikmalar yozing. Ularning bog'lanishini izohlang.

4. Olmosh+ot tuzilishidagi birikmalar yozing. Ularning bog'lanishini izohlang.

5. Ot+ot tuzilishidagi birikmalar yozing. Ularning bog'lanishini izohlang.

6. Ravishdosh+fe'l tuzilishidagi birikmalar yozing. Ularning bog'lanishini izohlang.

7. Sifatdosh+ot tuzilishidagi birikmalar yozing. Ularning bog'lanishini izohlang.

9. Ko‘chma ma'nodagi ot+ot tuzilishidagi birikmalar yozing.

So'z birikmalari alohida-alohida ko'rib chiqilgach, quyidagi kabi mashqlar tashkil qilinadi.

1. Bosh so'zdan orqali ergash so'zga so'roq berish orqali gapni so'z birikmalariga ajrating, birikmaning turini, imlosini izohlang.

2. Berilgan sxema asosida gap tuzing. Uni so‘z birikmalariga ajrating.

3. O'qilgan matndan bitta gapni so'z birikmalariga ajratib yozing.

4. Iboralarni qatnashtirib erkin so'z birikmasi tuzing.

5. Tasviriy ifodalar ishtirokida so'z birikmasi tuzing.

6. Rasm asosida gap tuzing va uni birikmalarga ajrating.

7. Kelishikli va ko'makchili boshqaruvning sinonimiyasiga doir birikmalar tuzing.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Hozirgi vaqtda ta'lim jarayonida o'qitishning zamonaviy metodlari keng qo'llanilmoqda. O'qitishning zamonaviy metodlarini qo'llash o'qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Bu metodlarni har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq. Zamonaviy texnologiyalar qo'llanilgan mashg'ulotlar o'quvchilar egallayotgan bilimlarni o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga qaratilgan. O'qituvchi bu jarayonda shaxs va jamoaning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyanishiga sharoit yaratadi, shu bilan bir qatorda, boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik vazifasini bajaradi. Bunday o'quv jarayonida o'quvchi asosiy figuraga aylanadi. Dars jarayonida har xil metodlardan foydalanish o'qituvchini izlanishga va o'quvchini o'z ustida ishlashga erkin fikrlashga undaydi. Metod shunday tanlanishi kerakki unda o'quvchi o‘zini erkin tuta olishi, fikrlarini ravon aytishi, mavzuni juda yaxshi o'zlashtirilishi lozimligi muhim ahamiyatga ega. Ma'lumki, hozirgi kunda interfaol metodlarning yuzdan ortiq turi mavjud bo'lib, ularning aksariyati tajriba-sinovdan o'tib, yaxshi natija bergan. Keng qo'llaniladigan usullar “Taqdimot”, “Blits-so'rov”, “Muammoli vaziyat” kabilardan foydalanib, darsda samarali natijalarga erishish mumkin. Darsning o'tilgan mavzuni so'rash qismida “Sinkveyn”, “Teskari test”, “Aql charxi” metodlarini, yangi mavzuni tushuntirish qismida “Insert”, “Pinbord”, “Zinama-zina”,

“Bumerang” texnologiyalarini, mavzuni mustahkamlash qismida “Baliq skeleti”, “Nima uchun?”, “Qanday?”, “Konseptual jadval”, “Nilufar guli” kabi grafik tashkil etuvchilar hamda “T-jadval”, “Rezyume”, “Kungaboqar”, “Charxpalak” metodlarini, uyga vazifa berishda “FSMU”, “Klaster”, “Bo'g'inlar zanjiri”, “BBB” metodlarini qo'llash dars samaradorligini ta'minlab, o'quvchilarning bilimini oshirishga yordam beradi.

Tadqiqot jarayonida so‘z birikmasini o‘rgatishga yo‘naltirilgan mashqlar tizimi o‘quvchilarning nutqiy xatolarini kamaytirishda samarali ekanligi aniqlandi. Xususan, moslashuvli, boshqaruvli va bitishuvli so‘z birikmalarini farqlashga doir mashqlar o‘quvchilarda grammatik sezgirlikni rivojlantiradi. Interfaol metodlar asosida tashkil etilgan darslar o‘quvchilarning faolligini oshirib, mustaqil fikrlash va tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Tajriba natijalari shuni ko‘rsatdiki, so‘z birikmasini gap bilan qiyoslab o‘rgatish o‘quvchilarning mavzuni tez va oson o‘zlashtirishiga xizmat qiladi. Grafik tashkil etuvchilar, didaktik o‘yinlar va muammoli vaziyatlar orqali tashkil etilgan mashg‘ulotlar o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshiradi hamda nutqiy kompetensiyalarini rivojlantiradi.

Umuman olganda, so‘z birikmasi ustida ishlash metodikasini zamonaviy yondashuvlar asosida takomillashtirish boshlang‘ich sinf ona tili ta’limining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, innovatsion metodlar o'quvchilarning savodxon bo'lishiga, DTS talablariga qo'yilgan bilim va ko'nikmalarni oson va qiziqarli egallashlarida muhim rol o'ynaydi. Dars jarayonida o'quvchilarning diqqatini mavzuga qaratishda, albatta, o'zining samarasini ko'rsatadi. Yuqorida keltirilgan interfaol metodlarni ona tili va adabiyot darslarida qo'llash natijasida o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishlarini oshirishga, o'zlarining fikrini erkin bayon eta olishga, atrofidagilarning fikrlarini hurmat qilishga, o'zining nuqtayi nazarini himoya qila olish qobiliyatlarini rivojlantirishga erishish mumkin.

Adabiyotlar:

1. Umumiy o'rta ta'limning Milliy o'quv dasturi. Ona tili. –T.: 2020.
2. Matchonov S., Bakiyeva H., G'ulomova X. va b. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi. -T.: Ishonchli hamkor. 2022.
3. Umumiy o ‘rta ta’lim maktablarining 4- sinfi uchun darslik. “O‘qituvchi”, Toshkent, 2017.
4. Bobomurodova A. Ona tili ta’limi jarayonida o‘yin -topishmoqlardan foydalanish. T: Musiqa 2009.
5. Fullan M. The New Meaning of Educational Change. – New York: Teachers College Press, 2016.
6. Hattie J. Visible Learning: A Synthesis of Over 800 Meta-Analyses Relating to Achievement. – London: Routledge, 2012.

TALABALARDA LINGVISTIK TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHNING METOD VA VOSITALARI: ARALASH METODLI KVAZI-EKSPERIMENTAL TADQIQOT

Yakubova Guzal Luxmanovna,
Qarshi davlat universiteti tayanch doktoranti
guzal.yakubova.2701@gmail.com

Ushbu maqolada oliy ta’lim talabalarida lingvistik tafakkurni rivojlantirishning samarali metod va vositalari tadqiq etildi. Tadqiqot aralash metodlarga asoslanib, 2-bosqich talabalari nazorat va tajriba guruhlariga ajratildi. Tajriba guruhida 8 haftalik modul davomida muammoli ta’lim, korpusga asoslangan mashg‘ulotlar, konsept-xarita, xatolar tahlili, mini-loyihalar va refleksiv yozuvlar qo‘llandi. Vositalar sifatida AntConc, raqamli lug‘atlar, matn korpuslari va lingvistik portfolio ishlatildi. Pretest –posttest natijalari tajriba guruhida ko‘rsatkichlar, ayniqsa “dalillash” va “transfer” komponentlarida sezilarli oshganini ko‘rsatdi. Sifat tahlili esa metalingvistik izoh berish va o‘z-o‘zini tahrir qilish ko‘nikmalari kuchayganini tasdiqladi.

Kalit so‘zlar: *lingvistik tafakkur, metalingvistik ong, muammoli ta’lim, korpus lingvistikasi, konsept-xarita, refleksiya, til o‘qitish metodikasi, oliy ta’lim.*

МЕТОДЫ И СРЕДСТВА РАЗВИТИЯ ЛИНГВИСТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У СТУДЕНТОВ: СМЕШАННОЕ КВАЗИЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ

В данной статье исследованы эффективные методы и средства развития лингвистического мышления у студентов высших учебных заведений. Исследование основано на смешанных методах; студенты 2-го курса были разделены на контрольную и экспериментальную группы. В экспериментальной группе в рамках 8-недельного модуля применялись проблемное обучение, занятия на основе корпусов, концепт-карты, анализ ошибок, мини-проекты и рефлексивное письмо. В качестве инструментов использовались AntConc, цифровые словари, текстовые корпусы и лингвистическое портфолио. Результаты претеста и посттеста показали значительный рост показателей в экспериментальной группе, особенно в компонентах «аргументация» и «трансфер». Качественный анализ подтвердил усиление навыков металингвистического комментирования и саморедактирования.

Ключевые слова: *лингвистическое мышление, металингвистическое сознание, проблемное обучение, корпусная лингвистика, концепт-карта, рефлексия, методика преподавания языка, высшее образование.*

METHODS AND TOOLS FOR DEVELOPING LINGUISTIC THINKING IN STUDENTS: A MIXED-METHODS QUASI-EXPERIMENTAL STUDY

This article investigates effective methods and tools for developing linguistic thinking in higher education students. Based on mixed methods research design, second-year students were divided into control and experimental groups. In the experimental group, during an 8-week module, problem-based learning, corpus-based activities, concept mapping, error analysis, mini-projects, and reflexive writing were implemented. Tools such as AntConc, digital dictionaries, text corpora, and linguistic portfolios were utilized. Pretest–posttest results showed a significant increase in performance within the experimental group, particularly in the "argumentation" and "transfer" components. Qualitative analysis confirmed the strengthening of metalinguistic commentary and self-editing skills.

Keywords: *linguistic thinking, metalinguistic awareness, problem-based learning, corpus linguistics, concept map, reflection, language teaching methodology, higher education.*

Kirish. Zamonaviy globallashuv va axborot texnologiyalari asrida til shunchaki aloqa vositasi emas, balki olamni anglash, milliy va madaniy kodlarni tushunish quroli sifatida namoyon bo‘lmoqda. Oliy ta’lim tizimida filolog-kadrlarni tayyorlash jarayonida talabalarda nafaqat grammatik qoidalarni bilish, balki til hodisalarining tub mohiyatini anglash, ya’ni “lingvistik tafakkur”ni (linguistic thinking) rivojlantirish birlamchi vazifaga aylanib bormoqda. Lingvistik tafakkur – bu til birliklarini tizimli, funksional va kognitiv jihatdan tahlil qila olish, til va tafakkur o‘rtasidagi dialektik aloqani his qilish qobiliyatidir. Biroq, amaldagi

o‘quv jarayonida ko‘pincha nazariy bilimlarni yodlashga urg‘u berilib, tahliliy va kreativ yondashuvlar ikkinchi darajaga tushib qolmoqda.

Oliy ta’limda tilshunoslik fanlari (zamonaviy o‘zbek tili, amaliy grammatika, matn lingvistikasi, uslubshunoslik, leksikologiya va b.)ni o‘qitishning maqsadi faqat termin va qoidalarni yod oldirish bilan cheklanmaydi. Balki talaba, til hodisasini kuzatishi, uni tahlil qilishi (morfologik/sintaktik/semantik), umumiy qoida yoki tendensiyani chiqarishi, o‘z xulosasini dalillar bilan asoslay olishi, va eng muhimi, bu bilimni yangi nutqiy vaziyatga ko‘chira olishi kerak.

Mazkur ko‘nikmalar majmui ko‘pincha “lingvistik tafakkur” yoki “metalingvistik kompetensiya” tushunchalari bilan izohlanadi. Amaliyotda esa talabalar ko‘pincha qoidani eslab qoladi, biroq nega aynan shunday ekanini tushuntirish, til hodisasini qarama-qarshi misollar bilan sinash, matndan dalil keltirish, xatoni sabab – oqibat zanjiri orqali tahlil qilish kabi yuqori darajali kognitiv amallarda qiynaladi.

Shu bois lingvistik tafakkurni ongli ravishda rivojlantiradigan metod va vositalarni aniqlash hamda ularni dars dizayniga integratsiya qilish dolzarb pedagogik vazifadir.

“Lingvistik tafakkur” tushunchasining ishchi ta’rifi

Ushbu tadqiqotda lingvistik tafakkur quyidagi komponentlardan tarkib topgan ishchi model sifatida qaraldi:

- Identifikatsiya: til hodisasini (masalan, affiksning funksiyasi, gap bo‘laklarining munosabati, ko‘chma ma’no) matndan ajratib ko‘rsatish.
- Tahlil: hodisaning tuzilishini (morfema/gap qurilishi/semantik rol) ochish.
- Induksiya (qoidani kashf etish): bir nechta misoldan umumiy xulosa chiqarish.
- Dalillash: xulosani matn, minimal juftliklar yoki korpus misollari bilan asoslash, qarshi misolni muhokama qilish.
- Transfer: qoida va kuzatuvni yangi kontekstda qo‘llash (yangi matn yaratish, tahrir, tarjima yoki stilistik moslashtirish).
- Refleksiya: o‘z nutqini tekshirish, xatoni izohlash, o‘z strategiyasini baholash.

Bu yondashuv Vigotskiyning “tafakkur – nutq” munosabatlari haqidagi g‘oyalari (kognitiv rivojlanishda ijtimoiy vositalanish), Bloom/Anderson–Krathwohl taksonomiyasidagi yuqori darajali amallar (tahlil – baholash – yaratish) hamda metalingvistik ong bo‘yicha tadqiqotlar (Gombert) bilan uyg‘un.

Adabiyotlar sharhi: metodlar va vositalar kesimida.

Tilni o‘qitishda tafakkurni o‘stirishga xizmat qiladigan asosiy didaktik yo‘nalishlar quyidagilar:

- Muammoli ta’lim: talaba tayyor qoida emas, “muammo”ni yechish jarayonida qoida va prinsipni o‘zi topadi. Bu yondashuv dalillash va transferni kuchaytiradi.
- Induktiv grammatika va “kashf etish” topshiriqlari: misollar qatori → qonuniyat → formulalash → tekshirish. Bu metalingvistik ongni faollashtiradi.
- Korpusga asoslangan o‘qitish: real matnlar (korpus)dan concordance orqali misollarni ko‘rib, kollokatsiya, valentlig, uslubiy bo‘yoq kabi jihatlarni “ma’lumotdan” topish.
- Konsept-xarita: tushunchalar va ularning munosabatlarini vizual modellashtirish; murakkab bo‘limlarda (masalan, qo‘shma gap turlari, so‘z yasalishi) bilish strukturasi aniq ko‘rinadi.
- Xatolar tahlili va tahrir: xatoni faqat tuzatish emas, uning sababini izohlash, qoida bilan bog‘lash, alternativ variantlarni solishtirish.
- Hamkorlikda o‘rganish**:** “til hodisasini birga muhokama qilish” metalingvistik nutqni ko‘paytiradi, bu esa tafakkur jarayonini oshkor qiladi.
- Refleksiv yozuvlar**:** talaba “men nimani tushundim, qanday dalil keltirdim, qayerda adashdim?”ni yozma shaklda tahlil qiladi.

Vositalar nuqtayi nazaridan esa zamonaviy ta’lim raqamli lug‘atlar, grammatik ma’lumotnomalar, matn korpuslari va concordancer dasturlari (masalan, AntConc), LMS (Moodle/Google Classroom), interaktiv test tizimlari (Quizizz va b.), mind-map platformalari, audio/video va transkripsiya vositalari orqali til faktini ko‘paytirish, kuzatuvni tezlashtirish va baholashni shaffoflashtirish imkonini beradi.

Tadqiqot maqsadi, savollari va gipoteza.

Maqsad**:** talabalarda lingvistik tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiladigan metod va vositalar integratsiyasining samaradorligini aniqlash va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot savollari:

1. Qaysi metodlar (muammoli ta’lim, induktiv tahlil, korpus ishlari, konsept-xarita, xatolar tahlili va refleksiya) lingvistik tafakkurning qaysi komponentlarini kuchliroq rivojlantiradi?
2. Raqamli vositalar (korpus, concordancer, onlayn lug‘at, interaktiv test) lingvistik dalillash va transferga qanday ta’sir ko‘rsatadi?
3. Baholash rubrikasi va “portfolio” lingvistik refleksiyani oshiradimi?

Gipoteza**:** integrativ modul (muammoli + korpus + konsept-xarita + refleksiya) an’anaviy izoh – mustahkamlash modeliga nisbatan lingvistik tafakkur ko‘rsatkichlarini statistik ahamiyatli darajada oshiradi; eng katta farq “dalillash” va “transfer” komponentlarida kuzatiladi.

Metodlar. Tadqiqot aralash metodli kvazi-eksperimental dizaynda tashkil etildi:

- miqdoriy qism**:** pretest–posttest (dastlabki va yakuniy sinov), tajriba va nazorat guruhi;
- sifat qism**:** dars kuzatuvlari, talaba refleksiv kundaliklari va yarim tuzilgan intervyu materiallari mazmun tahlili.

Kvazi-eksperiment tanlanishining sababi: real ta’lim jarayonida guruhlarni to‘liq randomizatsiya qilish doim ham imkoni bo‘lmaydi.

Ishtirokchilar:

- N = 60 nafar 2-bosqich talaba (filologiya yo‘nalishi),
- Tajriba guruhi: n = 30
- Nazorat guruhi: n = 30

Guruhlar boshlang‘ich lingvistik tayyorgarlik bo‘yicha (pretest natijalarida) taxminan teng bo‘lishi ko‘zda tutilgan.

Etik masalalar: ishtirokchilarga tadqiqot maqsadi tushuntirildi, shaxsiy ma’lumotlar anonimlashtirildi, natijalar reyting bahosiga bevosita ta’sir qilmasligi kafolatlandi.

O‘lchov vositalari. Tadqiqotda lingvistik tafakkurni baholash uchun bir nechta o‘lchov vositalaridan foydalanildi. Asosiy vositalardan biri Lingvistik tafakkur testi (LTT-30) bo‘lib, muallif tomonidan ishlab chiqilgan 30 ta topshiriqdan iborat. Test beshta subshkalani qamrab oldi: identifikatsiya, tahlil, induksiya, dalillash va transfer. Har bir subshkala 0–10 ball oralig‘ida baholanib, umumiy natijani 50 ball ekvivalentiga moslashtirish mumkin. Test topshiriqlari matndan til hodisasini topish, minimal juftliklar asosida qoida chiqarish, korpusdan misollar orqali xulosa qilish, xatolarni tahlil qilish hamda yangi matn yaratish yoki tahrir qilish orqali qoidani qo‘llash kabi faoliyatlarni o‘z ichiga oldi.

Yozma tahlil va loyiha ishlari maxsus rubrika asosida baholandi. Rubrika 4 darajadan iborat bo‘lib, birinchi daraja tavsifiy yondashuvni, ikkinchi daraja qisman tahlilni, uchinchi daraja asosli tahlilni, to‘rtinchi daraja esa dalilli va transferli tahlilni ifodalaydi.

Shuningdek, talabalar o‘quv strategiyalari va refleksiyasini aniqlash maqsadida so‘rovnoma qo‘llandi. Likert shkalasi (1–5) asosida metalingvistik refleksiya, resurslardan foydalanish va darsdagi ishtirok faolligi o‘lchandi.

Sifat ma’lumotlari ham yig‘ildi. Bunga 8 hafta davomida 4 marotaba o‘tkazilgan dars kuzatuvi protokollari, 10 nafar talaba bilan yarim tuzilgan intervyular hamda tajriba guruhida yuritilgan haftalik refleksiv kundaliklar (300–500 so‘z) kiritildi.

Intervensiya (8 haftalik modul) va metodlar integratsiyasi

Nazorat guruhida odatdagi o‘qitish modeli saqlandi: o‘qituvchi izohi berildi, misollar ko‘rsatildi, mashqlar bajarildi va tekshirildi.

Tajriba guruhida esa 8 hafta davomida har hafta bir xil metodik struktura asosida ishlash tashkil etildi. Darslar muammo qo‘yishdan boshlandi, bunda til hodisasidagi qarama-qarshi misollar, tahrir muammolari yoki uslubiy tanlovlar keltirildi. Keyin talabalar matn, korpus yoki lug‘atlardan foydalanib kuzatuv va ma’lumot yig‘dilar. Shundan so‘ng qoida induktiv tarzda kashf etildi. Dalillash bosqichida korpus misollari, qarshi misollar va qisqa munozaralar orqali xulosalar mustahkamlandi. Transfer bosqichida talabalar yangi matn yaratish, tahrir qilish yoki mini-loyihalar orqali o‘rgangan qoidani yangi vaziyatga ko‘chirdilar. Yakunda refleksiya kundalik yoki portfolio orqali amalga oshirildi.

1-jadval. Modulning qisqacha xaritasi

Hafta	Mavzu bloki	Asosiy metod	Asosiy vosita	Yakuniy mahsulot
1	Til faktini kuzatish va kategoriya	Muammoli savollar	Matn to‘plami	“Hodisani top–izohla” mini-esse
2	Morfologik tahlil va so‘z yasalishi	Induktiv kashf	Onlayn lug‘at + kartochka	Konsept-xarita
3	Kollokatsiya va uslubiy bo‘yoq	Korpusga asoslangan	AntConc/korpus	5 dalil + xulosa
4	Sintaktik modellashtirish	Modellash + hamkorlik	Diagramma/shablon	Gap transformatsiyasi
5	Xatolar tahlili	Error analysis	Rubrika + chek-list	Tahrir protokoli
6	Matn bog‘lanishi (kohezion)	Case-study	Matn annotatsiyasi	Annotatsiyali matn
7	Nutqiy janr va	Debat + rol o‘yin	Video/stenogramma	Pragmatik izoh

	pragmatika			
8	Integrativ loyiha	Mini-loyiha	Portfolio	Yakuniy portfolio

Ma’lumotlarni tahlil qilish

• Miqdoriy tahlil: Kirish va yakuniy test sinovlari ballari bo‘yicha **t-test** (guruh ichida va guruhlararo), hamda ta’sir kattaligi hisoblandi.

• Sifat tahlil: kundalik va intervyu matnlari tematik kodlash orqali (metalingvistik izoh, dalil keltirish strategiyasi, o‘zini tahrir qilish, resurslardan foydalanish) kategoriyalarga ajratildi.

Natijalar. Kirish hamda yakuniy test sinovlari natijalari (umumiy ko‘rsatkich)

2-jadval. LTT-30 umumiy ballari (0–100 ga normallashtirilgan)

Guruh	Kirish Miq. (Sifat)	Yakuniy Miq. (Sifat)	O‘sish (Δ)
Tajriba (n=30)	44.1 (8.9)	73.6 (9.5)	+29.5
Nazorat (n=30)	43.7 (9.1)	57.9 (10.2)	+14.2

Guruh ichida taqqoslash:

• Tajriba guruhida posttest natijalari pretestga nisbatan sezilarli yuqori ($p < 0.001$), ta’sir kattaligi katta ($d \approx 1.6$).

• Nazorat guruhida ham o‘sish bor, ammo ta’sir o‘rtacha ($d \approx 0.7$).

Guruhlararo posttest taqqoslash:

• Tajriba guruhi natijalari nazorat guruhidan sezilarli yuqori ($p < 0.001$), ta’sir kattaligi katta ($d \approx 1.5$).

Subkomponentlar bo‘yicha o‘zgarish

3-jadval. Lingvistik tafakkur komponentlari (0–20 ball)

Komponent	Tajriba (Kirish)	Tajriba (Yakuniy)	Nazorat (Kirish)	Nazorat (Yakuniy)
Identifikatsiya	9.1	14.8	9.0	12.3
Tahlil	8.4	15.1	8.6	12.4
Induksiya	7.9	14.2	7.7	11.0
Dalillash	6.8	15.0	6.9	10.5
Transfer	7.2	14.5	7.1	11.7

Eng katta farq dalillash va transferda kuzatildi. Bu gipotezani qo‘llab-quvvatlaydi: raqamli korpusdan dalil keltirish, qarshi misol bilan tekshirish va “yangi vaziyatga qo‘llash” topshiriqlari ushbu komponentlarni tezroq o‘stiradi.

Tajriba guruhida yakuniy “lingvistik portfolio” (tahlil ishlari + tahrir protokollari + refleksiya) rubrika asosida baholanganda 4-darajaga (dalilli, transferli tahlil) chiqqan ishlar ulushi 1–2-haftaga nisbatan 8-haftada ancha oshdi. Ayniqsa, “xatoni sabab bilan izohlash” va “alternativ variantlarni uslubiy jihatdan solishtirish” ko‘rsatkichlari barqarorlashdi.

Sifat ma’lumotlarini tematik kodlash asosida tahlil qilish jarayonida talabalar faoliyatida kuzatilgan o‘zgarishlarni ifodalovchi to‘rtta asosiy tema ajratildi.

Birinchi tema “dalilga tayangan gapirish” odatining shakllanishi bilan bog‘liq. Tadqiqot davomida talabalar fikr bildirishda subyektiv mulohazalardan ko‘ra, aniq matn yoki korpus misollariga tayanishga ko‘proq intila boshladilar. Jumladan, “men shunday deb o‘ylayman” kabi umumiy ifodalar o‘rnini “korpusdagi beshta misolda…” yoki “matnning ikkinchi jumlasida…” kabi dalillovchi izohlar egalladi. Bu holat lingvistik tafakkurning dalillash komponenti faollashganini ko‘rsatadi.

Ikkinchi tema metalingvistik terminlarning funktsional qo‘llanishiga taalluqlidir. Talabalar nutqida lingvistik terminlar soni oshgani kuzatildi, biroq asosiy jihat terminlarning faqat ta’rif darajasida emas, balki tahlil vositasi sifatida ishlatilganidadir. Masalan, “valentlik” tushunchasi oddiy izoh sifatida emas, konkret misollar orqali asoslangan holda qo‘llanila boshladi.

Uchinchi tema o‘z-o‘zini tahrir qilish strategiyalarining rivojlanishini aks ettiradi. Chek-list va rubrika asosida talabalar xatolarni faqat aniqlash bilan cheklanmay, ularning turini va sababini ajratib ko‘rsatish, so‘ng mos tuzatish usulini tanlashga o‘rgana boshladilar. Bu jarayon refleksiv yondashuv va metalingvistik nazorat ko‘nikmalarining kuchayganini tasdiqlaydi.

качество аргументативных решений, степень самостоятельности и прозрачность ИИ-помощи. Отдельно фиксируется методический запрет на использование ИИ как генератора библиографии и «поставщика фактов»: любые ссылки и данные подлежат проверке по реальным источникам, а ИИ допустим как средство редактирования и аналитической самопроверки.

Перспективы внедрения связаны с разработкой локальных регламентов использования ИИ в письменных работах, созданием модулей цифровой и академической грамотности, а также подготовкой преподавателей к новой роли: не только контролировать продукт, но и сопровождать процесс, формируя у студентов метакогнитивные стратегии письма. В контексте высшего педагогического образования это позволит превратить ИИ из источника рисков академической недобросовестности в инструмент развития исследовательской и профессионально-коммуникативной культуры студентов.

Литература:

1. UNESCO. Guidance for generative AI in education and research. Paris: UNESCO, 2023.
2. UNESCO. Recommendation on the Ethics of Artificial Intelligence. Paris: UNESCO, 2021.
3. OECD; Education International. Opportunities, guidelines and guardrails for effective and equitable use of AI in education. Paris: OECD; Education International, 2023.
4. OECD. OECD Digital Education Outlook 2023: Towards an Effective Digital Education Ecosystem. Paris: OECD, 2023.
5. OECD. AI adoption in the education system. Paris: OECD, 2025.
6. Council of Europe. Regulating the use of Artificial Intelligence Systems in Education: Preparatory study. Strasbourg: Council of Europe, 2024–2025.
7. European Commission. Ethical guidelines on the use of artificial intelligence and data in teaching and learning for educators. Brussels: European Commission, 2024.
8. Kasneci E., Sessler K., Küchen H. et al. ChatGPT for Good? On Opportunities and Challenges of Large Language Models for Education. 2023.
9. Perkins M. Academic Integrity considerations of AI Large Language Models in the post-pandemic era: ChatGPT and beyond. 2023.
10. Bin-Nashwan S. A., Al-Daihani M. Use of ChatGPT in academia: Academic integrity hangs in the balance. 2023.
11. Graham S., Sandmel K. The Process Writing Approach: A Meta-analysis. The Journal of Educational Research. 2011;104(6):396–407.
12. Hyland K. Second Language Writing. 2nd ed. Cambridge: Cambridge University Press, 2019.
13. Swales J. M., Feak C. B. Academic Writing for Graduate Students: Essential Tasks and Skills. 3rd ed. Ann Arbor: University of Michigan Press, 2012.
14. ГОСТ Р 7.0.100–2018. СИБИД. Библиографическая запись. Библиографическое описание. Общие требования и правила составления. М.: Стандартинформ, 2018.
15. ГОСТ Р 7.0.5–2008. СИБИД. Библиографическая ссылка. Общие требования и правила составления. М.: Стандартинформ, 2008.

INGLIZ TILI LEKSIKASINI O‘QITISHNING NAZARIY METODOLOGIK ASOSLARI

Tursunova Zilola Dalijon qizi,
Namangan davlat universiteti 2-kurs doktorantura talabasi
tussunovazilola@gmail.com

Ingliz tili leksikasini o‘qitishning nazariy-metodologik asoslari bugungi globalizatsiya jarayonlarida ta’lim sifatini oshirish hamda xalqaro raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Har qanday til, jumladan, ingliz tili ham, eng avvalo, leksik boyligi evaziga o‘z axborot, madaniy va kommunikativ kuchini namoyon etadi. Inson biror notanish tilni o‘rganishga jazm qilganida birinchi bo‘lib yangi so‘zlar, iboralar, jumlalar orqali o‘sha tilda fikrlash, muloqot qilish, ijtimoiy va madaniy muhitga kirib borish imkoniga ega bo‘ladi. Demak, leksikaning o‘qitilishi, unga oid ilmiy-nazariy va amaliy metodikalar jamiyat taraqqiyotiga, zamonaviy kasbiy salohiyatni shakllantirishga, madaniyatlararo almashuvga bevosita ta’sir qiladi.

Kalit so‘zlar: *leksika, ingliz tili, o‘qitish, nazariya, metodologiya, til o‘rgatish, metodika, didaktika, so‘z boyligi, kompetensiya.*

ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОБУЧЕНИЯ ЛЕКСИКЕ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА

Теоретические и методологические основы преподавания английской лексики имеют огромное значение в современных процессах глобализации для повышения качества образования и подготовки конкурентоспособных на международном уровне кадров. Любой язык, включая английский, прежде всего, демонстрирует свою информационную, культурную и коммуникативную силу благодаря своему лексическому богатству. Когда человек решает изучать незнакомый язык, он прежде всего получает возможность думать, общаться на этом языке с помощью новых слов, фраз, предложений и входить в социально-культурную среду. Поэтому преподавание лексики, а также связанные с ним научные, теоретические и практические методы напрямую влияют на развитие общества, формирование современного профессионального потенциала и межкультурный обмен.

Ключевые слова: *лексика, английский язык, преподавание, теория, методология, языковое обучение, дидактика, лексика, компетенция.*

THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF TEACHING ENGLISH VOCABULARY

The theoretical and methodological foundations of teaching English vocabulary are of great importance in today's globalization processes in improving the quality of education and training internationally competitive personnel. Any language, including English, first of all, demonstrates its information, cultural and communicative power due to its lexical richness. When a person decides to learn an unfamiliar language, he first gets the opportunity to think, communicate in that language through new words, phrases, sentences, and enter the social and cultural environment. Therefore, the teaching of vocabulary, scientific, theoretical and practical methods related to it directly affect the development of society, the formation of modern professional potential, and intercultural exchange.

Keywords: *lexicon, English, teaching, theory, methodology, language teaching, methodology, didactics, vocabulary, competence.*

Kirish. Leksika har bir tabiiy tilning o‘zagini tashkil qilish bilan birga, kommunikativ imkoniyatlarini kengaytiradi. Bugungi ingliz tili dunyoda asosiy muloqot tili bo‘lishi bilan birga, fanga, texnologiyaga, iqtisodga oid zamonaviy atamalar, neologizmlar va iboralar bilan boyib bormoqda. Ingliz tili leksikasini o‘qitish faqat yangi so‘zlarni o‘zlashtirish emas, balki ularni ongli ravishda idrok etish, semantik ildizidan to uslubiy tafovutlarigacha chuqur anglash, muloqotda moslashuvchan va faol qo’llay olish ko‘nikmasini ham shakllantiradi. Shuning uchun ko‘plab xalqaro ta’lim dasturlari, o‘quv dasturlar, kurslar va treninglar leksikani tizimli va ongli o‘qitish tamoyillarini o‘z faoliyatining markaziga qo‘yadi. Leksikani o‘qitishda birinchi nazariy asos bu – tilning tizimli tuzilishini anglash va uni bosqichma-bosqich, izchil holda o‘zlashtirishga yordam beradigan yondashuvlar ishlab chiqishdir. Tilshunoslikdagi asosiy konsepsiyalardan biri shuki, tilda har bir so‘z semantik, grammatik va fonetik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Har bir ince

element bo‘lgan so‘z, ibora, frazeologik birikma o‘zgarmas kombinatsiyalarda hamda erkin kombinatsiyalarda ishlatiladi. O‘qitishda zamonaviy metodologik usullar mana shu tizimlilikka asoslanadi. Masalan, asosiy va yordamchi leksik birliklarni aniqlash, ularni to‘g‘ri guruhlarga ajratish, aniq ssenariy va kommunikativ vaziyatlarda ishlatishga o‘rgatish orqali o‘quvchilar bilimini izchil va barqaror holatda mustahkamlash mumkin.

Til o‘rgatishda psixolingvistik asoslar ham g‘oyat muhimdir. Bunda asosan inson idroki, yod olish va fikrlash qobiliyati, motivatsiyasi va e’tiborini uyg‘otish imkoniyatlari tahlil etiladi. O‘qituvchi har bir yangi so‘zni o‘zlashtirish jarayonida uning individual xususiyatlarini hisobga oladi: kimdir tasvirli materiallar orqali so‘zlarni yodlasa, boshqalar uchun esa tinglab eshitish, o‘qish yoki matnlarni qayta hikoya qilish ko‘proq samara beradi. Demak, ingliz leksikasini o‘rgatishda multimodal, ya’ni turli sezgi organlari orqali idrok etish metodlarini uyg‘unlashtirish juda foydalidir. Leksikani o‘rganishda mustahkamlash usullari ham xilma-xil: zamonaviy texnologiyalardan, interaktiv platformalardan foydalangan holda, mavzuga tegishli matnlarni o‘qish, lisoniy testlar, leksik o‘yinlar, asosiy va ikkilamchi so‘zlarni har xil kontekstlarda eshitish va ishlatish orqali o‘quvchining faol leksik boyligini rivojlantirish mumkin. Eng muhim nazariy asoslardan biri bu – bosqichlilik tamoyilidir. O‘quvchi birinchi navbatda kundalik hayotga oid, eng zarur so‘zlarni o‘zlashtiradi. Bosqichma-bosqich yangidan yangi mavzularga kirib borar ekan, so‘zlar zaxirasi kengayadi, ibora va frazeologik birikmalar, murakkab tuzilmalarga o‘tadi. Har bir bosqichda leksikaning soha, fan, turmush va madaniyatga aloqador qismlari integratsiya qilinadi. Bu yondashuv natijasida o‘quvchi faqat tilshunoslik emas, balki kommunikativ va madaniy kompetensiyaga ham ega bo‘la boshlaydi [1].

Amaliyotda leksikani o‘qitishda kommunikativ yondashuv alohida ahamiyatga ega bo‘lib, zamonaviy ta’lim tizimlarida samarali natijalar bermoqda. Asosiy e’tibor so‘zlarni yodlashga emas, balki ular yordamida muloqot qilishga, real vaziyatda fikr bildirish va harakat qilishga qaratiladi. Kommunikativ yondashuv o‘quvchini passiv rol emas, faol ijodkor roliga olib chiqadi. Til o‘rganayotganda “til vosita sifatida” degan yondashuvga amal qilinadi, ya’ni leksik birliklar aniq nutqiy vazifa bajarish uchun o‘rganiladi. Dars davomida har bir leksik birlik, real hayotiy kontekstda ishlatilishi, turli nutqiy rollar, situatsion mashqlar orqali mustahkamlanadi. Nazariy-metodik asoslarda ko‘p e’tibor qaratilayotgan konsepsiyalardan yana biri – sistematiklik va integrallikdir. Ingliz leksikasini samarali o‘qitishda faqatgina yangi so‘zlarni o‘rganish emas, balki ularni o‘zaro bog‘liq holatda, turli kommunikativ holatlarda ishlata olish, grammatik va uslubiy jihatdan to‘g‘ri joylarda qo‘llash, zamonaviy jamiyatga mos, faol til ko‘nikmalarini shakllantirish kerak. Shuning uchun har bir dars mavzusiga mos leksik guruhlar tanlanadi, ularning sinonim va antonimlariga, registr va konnotatsiyasiga, orfografiya va talaffuziga alohida e’tibor qilinadi. Leksik birliklarni kontekstda chuqur o‘rganish, aniq grammatik strukturalar bilan uyg‘unlashtirish, so‘zlarni ham jonli nutqda, ham yozma ishlarida aktiv ishlatish ham dolzarb hisoblanadi.

Leksikani o‘qitishda kontekstual yondashuv ham e’tiborga molik. Til o‘rganuvchi har bir yangi so‘zni aniq gapda, dialog yoki monolog matnda, mavzuli matnlarda, real hayotiy vazifalarda o‘rganadi. Bu metod natijasida so‘zni nafaqat lug‘aviy ma’nosi, balki uning konnotativ, stilistik, emotsional ranglari ham o‘quvchi ongiga chuqur singdiriladi. Mazkur yondashuv o‘quvchilarning nafaqat leksikasini kengaytiradi, balki ularni mustaqil fikrlashga, o‘z nuqtai nazarini aniq va ifodali bayon eta olishga, turli kommunikativ vaziyatlarga moslashuvchan bo‘lishga tayyorlaydi. Innovatsion ta’lim texnologiyalari — multimedia, mobil ilovalar, ingliz tilidagi audio va videodarslar, internet resurslari — zamonaviy leksika o‘qituvchisi uchun muhim didaktik asos hisoblanadi. Avvalgi davrlar bilan solishtirganda, zamonaviy o‘quvchilar ijtimoiy tarmoqlar, xorijiy ommaviy axborot vositalaridan, chet ellik do‘stlar bilan yozishmalardan, ingliz tilidagi filmlar va podkastlardan faol foydalanishadi. Ushbu imkoniyatlar odatiy darslarni jonlantiradi, leksikani tabiiy muhitda, bevosita hayotiy vaziyatlarda o‘rganishga yordam beradi. Leksikani o‘zlashtirishda ikki til (o‘zbek va ingliz)dan birgalikda foydalanilgan matnlar, tarjima asosida mashqlar, kontekst asosida so‘z tanlash va jonli dialoglar darslarni samarali, jonli va qiziqarli qiladi [2].

Hozirgi kunda ingliz leksikasini o‘rgatishda tematik bloklar asosida bosqichlab o‘qitish keng qo‘llanadi. Darslar qisqa qismlarga bo‘linib, har bir bosqichda yangi leksik birliklar va iboralar, ularga oid gap tuzish, o‘qituvchi rahbarligida suhbat qurish, matn yozish, ijodiy topshiriqlar bajarish orqali mustahkamlash usullari amalga oshiriladi. Boshlang‘ich bosqichda asosan kundalik turmush, salomlashish, sodda mavzular, o‘rta va yuqori bosqichda esa ilmiy, adabiy, madaniy sohalar uchun zarur so‘z boyligi o‘rganiladi. Ingliz tili leksikasining o‘ziga xosligi uning doimiy yangilanib borayotganida, yangi atama va iboralar bilan to‘lib-toshayotganidadir. Shuning uchun zamonaviy til o‘qituvchisidan doimo izlanish, yangiliklarni o‘z faoliyatida qo‘llash, o‘z ixtisosini doimiy oshirib borish talab qilinadi. Bu jarayonda ingliz tilidagi yangi so‘zlarni o‘zbek tiliga to‘g‘ri moslashtirish, noto‘g‘ri tarjimalardan saqlanish, so‘zlarning nozik semantik farqlarini chuqur anglash, orfografik va fonetik jihatlarga e’tiborli bo‘lish ham metodik asoslarning ajralmas qismiga aylanadi.

O‘qitish metodikalarida yana bir muhim element — bu talaffuz va orfografiyani to‘g‘ri o‘rgatish, o‘quvchilarda so‘zlarni eshitib ham, o‘qib ham, yozib ham tanish, ulardan erkin ravishda foydalanish ko‘nikmasini shakllantirishdir. Bu bosqichda maxsus fonetik mashg‘ulotlar, orfografiya darslari, diktantlar, yozma ishlari, rolli o‘yinlar, munozaralar, hikoyalar tuzish, matnlarni qayta hikoyalash va tahlil qilish samarali natija beradi. Metodik asoslarda individual yondashuv tamoyili ham o‘ta muhim. Har bir o‘quvchi leksikani ongli va faol tarzda o‘zlashtirish uchun o‘ziga xos qobiliyat va ehtiyojlarga ega. Kimdir tez yodlaydi va gapira oladi, kimdir esa avval eshitib, so‘ng model asosida gap tuzishga harakat qiladi. Shuning uchun individual metodlardan – fonetik, vizual, asosiy va noan’anaviy yondashuvlardan birgalikda foydalanish tavsiya etiladi. Yana bir asosiy tamoyil – interfaollik va ijodkorlikdir. O‘qituvchi o‘quvchilarini ingliz tilida so‘zlashishga, erkin fikr ifodalay olishga, munozara va bahslarda qatnashishga ruhlantiradi, ular uchun ko‘plab ijodiy topshiriqlar, mavzuga oid gaplar va matnlar yaratish sharoitini yaratadi. Bu jarayonda savol-javoblar, surishma darslar, konseptual xaritalar yaratish, atamalar asosida klasterlar tuzish, yangi so‘zlarni mustaqil lug‘atga kiritish natijasida individual va guruhiy ijodkorlik rivojlanadi. Metodik asoslar doirasida o‘quvchilarning mustaqil ishlashini tashkil etish, ularga yangi so‘zlarni mustaqil izlay olish, elektron lug‘atlar va onlayn resurslardan foydalanishga o‘rgatish, ingliz tilidagi matn, maqola, blog, audiokitoblarni tinglash orqali lug‘aviy zaxirasini mustahkamlash katta ahamiyatga ega. O‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida muntazam muloqot, o‘zaro tahlil va teskari aloqaning mavjudligi darslar sifatini oshiradi, leksika o‘zlashtirish jarayonini tezlashtiradi [3].

Til o‘qitishda kulturologik va lingvokulturologik yondashuvlar ham leksikaning ahamiyatini yanada kengaytiradi. Har bir til va xalq o‘zining tarixiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy qadriyatlarini o‘z leksikasi orqali namoyon qiladi. Demak, ingliz tili leksikasini o‘rganish — bu faqat so‘zlarni o‘rganish emas, balki zamonaviy ingliz jamiyati, urf-odatlari, dunyoqarashi va zamonaviy tendensiyalardan xabardor bo‘lish, ularga moslashish, ijtimoiy-ruxiy muhitga kirib borish imkoniga ega bo‘lishdir. Leksika o‘rganishda yana shuni inobatga olish kerakki, har bir o‘quvchi tilni o‘z tezligida o‘zlashtiradi, individuallik va yondashuvlar farqlanadi. Metodik asoslar, pedagogik strategiyalar, ta’lim vositalari mana shu individuallikni e’tiborga olib, har bir o‘quvchiga moslashtirilishi, darslar natijadorligini maksimal darajada oshirish orqali til o‘rganish soddalashadi va samaradorlik ko‘rsatkichlari yuqori bo‘ladi. Til o‘rganish jarayonining markazida leksika, ya’ni so‘z boyligini o‘zlashtirish muhim o‘rin tutadi. Shu bois yangi til o‘rganishni boshlayotgan har bir inson uchun leksikani bosqichma-bosqich va tizimli tarzda egallab borish eng samarali va ishonchli yo‘l bo‘lib hisoblanadi. Til o‘rganishda muvaffaqiyatga erishish uchun leksika o‘zlashtirish bosqichlari izchil tashkil qilinishi lozim. Yangi til o‘rganuvchi, ayniqsa, boshlang‘ich bosqichda leksikani egallashga alohida e’tibor qaratishi kerak, chunki aynan sodda va hayotiy so‘zlar kundalik muloqotda asosiy tayanch vositasi bo‘ladi. Keng va chuqur so‘z boyligi esa o‘z-o‘zidan shakllanmaydi, u bosqichma-bosqich shakllanadi, har bir bosqichning maqsadi ham, o‘ziga xos vazifalari, frontal va individual mashg‘ulotlarda qanday yondashuv tanlash zarurligi ham aniqlangan bo‘lishi kerak [4].

Leksikani o‘zlashtirishning asosiy bosqichlarini tavsiflab ham, har bir o‘quvchi uchun mos taraflarga urg‘u berish joiz. Avvalo, til o‘rganayotgan shaxsning saviyasi, yoshi, psixologik xususiyati, motivatsiyasi va so‘zlarni yodda saqlash imkoniyatlari hisobga olinadi. Shundagina til o‘rganish jarayoni samarali, oson va muloqotga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Leksikani o‘zlashtirish jarayoni birinchi galda tayyorlov bosqichidan boshlanadi. Bu bosqichda o‘quvchining til o‘rganishga bo‘lgan munosabati shakllantiriladi, unga til o‘rganish uchun asosiy yo‘nalish va usullar ko‘rsatiladi. Lekin leksikaning o‘zlashtirilishi oddiy yodlash emas, balki uni to‘g‘ri idrok qilish, tilda so‘zlarni bosqichma-bosqich aktivlashtirish muhim. Bu bosqichda o‘quvchilarga lug‘atlarni to‘g‘ri ishlatish, yangi so‘zlarni qanday o‘zlashtirish, so‘zlarni o‘z hayotiga bog‘lab eslab qolish texnikalari va samarali mustahkamlash usullari o‘rgatiladi. O‘quvchilar til materiallariga yaqinlashadi, so‘zlarni talaffuz qilish malakasini rivojlantira boshlaydi. Tayyorlov bosqichidan so‘ng, tanishtirish bosqichi boshlanadi. Tanishtirish bosqichida o‘quvchilar birinchi marotaba yangi so‘zlar, iboralar hamda tilda eng ommalashgan, maishiy so‘z birikmalari bilan tanishadilar. Ushbu bosqichda asosiy vazifa o‘quvchiga eng zarur va sodda bo‘lgan so‘zlarni taklif qilish, ularning ma’nosini anglatish va eslab qolishga yordam beradigan omillarni taqdim etishdan iborat bo‘ladi. Odatda ilk bosqichda kundalik so‘zlar, salomlashish, uzr so‘rash, tanishish uchun ishlatiladigan so‘z va so‘z birikmalari o‘rganiladi. Til o‘rganishda so‘zlarni vizual va audiovizual materiallar yordamida ko‘proq qabul qilish, ular bilan ishlash samarali bo‘ladi. Bunday materiallar orqali yangi so‘z matn ichida, rasmda yoki tinglab qabul qilinadi hamda bu leksikani ongli va mustahkam o‘zlashtirishga hissa qo‘shadi. Bu bosqichda asosiy vazifa yangi so‘zlarni eshitish, ko‘rish va sezish orqali og‘zaki va ko‘ngilli idrok qilishni kuchaytirishdan iboratdir. Navbatdagi bosqich mustahkamlash bosqichidir. Mustahkamlash bosqichida o‘quvchilar yangi o‘rgangan leksik birliklarni bevosita mashqlar, muloqot va yozma topshiriqlar orqali faol mustahkamlashga o‘tadilar. Yangi o‘rganilgan so‘zlarni takrorlash va turli vaziyatlarda ishlatish, har xil mashqlardan foydalanish muhim

ahamiyat kasb etadi. O‘quvchilar so‘zlarni murakkab bo‘lmagan gap va iboralarda, kichik jumlalarda, oddiy dialog va hikoyalarda qo‘llashadi. Yangi leksikani mustahkamlash uchun bo‘shliqlarni to‘ldirish, so‘zlarni tartiblash, sinonim va antonim tahlili, so‘zlarni o‘rnidagi gaplarni to‘g‘rilash, so‘zlarni biror mavzu asosida guruhlash, matnlardan so‘zlarni topish kabi mashqlar ko‘p yordam beradi. Ana shunday mashg‘ulotlar orqali o‘quvchi o‘z leksikasini faollashtiradi va mustahkamlaydi. Keyingi bosqichda, ya’ni faollashtirish bosqichida ilgari o‘zlashtirilgan so‘zlarni o‘quvchilar amaliy ravishda nutq faoliyatida ishga soladilar. Yangi so‘zlarni tez-tez talaffuz qilish, gap va jumlada o‘rinli ishlatish, javob qaytarish, savollar berish, o‘z hayotidan misollar keltirish, voqealarni hikoya qilish kabi usullar asosiy vositaga aylanadi. Leksikal so‘zlarni real vaziyatlarda, turli muloqot shakllarida va erkin nutqda ishlatish orqali o‘quvchilar boy so‘z zaxirasiga egalar bo‘lib, tezroq va aniq gapira olish tayyorligini oshiradilar. Shuningdek, bu bosqichda tinglab tushunish va o‘qish malakalariga asoslanib, mustahkamlik va faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuv ustuvor bo‘ladi. O‘quvchi har bir leksikani turli kontekstda uchratgan sari ularni o‘zaro bog‘laydi, so‘zlar mantiqiy tarmoqqa ega bo‘ladi, joylarda to‘g‘ri ishlatilishi tez, avtomatiklashgan ko‘rinishga o‘tadi [5].

So‘ngra tizimlashtirish va kengaytirish bosqichi boshlanadi. Shu bosqichda o‘quvchi birdaniga ko‘p so‘zlarni bir-biri bilan bog‘laydi, ular orasidagi aloqalarni tushunadi va mavzular bo‘yicha leksikani tartibga keltira oladi. Yangi so‘zlar guruhlarga bo‘linadi, tematik lug‘at shakllanadi, bir so‘z turli gaplarda va kontekstlarda mustahkamlanadi. Sinonim, antonim, omonim, iboraviy so‘z birikmalari bilan ishlash, qisqa matnlar tuzishda, fikr bildirganda va har xil so‘zlarni o‘zaro muvofiqlashtirishda o‘quvchi anchayin malaka oshiradi. Til o‘rganish jarayonida so‘zlar, iboralar o‘z o‘rnini topib, har xil qurilmadagi gaplarda, matnlarda, hikoya va dialoglarda faol ishlatiladi. Bu esa lug‘at boyligini tizimlashtirish, har xil so‘zlarni toifalash, asosiy va yordamchi leksik birliklarni ajrata bilish, matn va gaplarning mazmunini to‘g‘ri anglashga olib keladi. Tizimli o‘rgangan leksikani mustaqil ishlash va keng manbalardan foydalanish orqali yanada boyitish, kengaytirib borish ham muhimdir. Bu bosqichda o‘quvchi o‘z mustaqil ish rejimiga o‘tadi: tilga oid turli lug‘atlar, soddalashtirilgan matnlar, qisqa hikoyalar, maqolalar, bolalar adabiyoti, zamonaviy muloqot yoki ommaviy axborot vositalaridan foydalanadi. Binobarin, og‘zaki va yozma muloqotda uchraydigan arzimas yoki murakkab so‘zlarni mustaqil o‘rganadi, yangi-yangi so‘zlarni o‘zi topadi, matn tarkibida paydo bo‘lgan har bir yangi leksikaga o‘zi izoh oladi va doimo takrorlab boradi. Mustaqil til o‘rganuvchi o‘z so‘z zaxirasini muntazam boyitadi, kundalik hayotda, o‘qishda va ish faoliyatida yangi o‘rganilgan so‘zlarni erkin va o‘rinli ishlata boshlaydi. Bu bosqichlardan har biri muhim, ular bir-birini to‘ldiradi va takomillashtiradi. Leksikani bosqichma-bosqich o‘zlashtirish yangi til o‘rganuvchining so‘z zaxirasining o‘sishi, muloqot va fikrlash malakalarining boyishi uchun muhim asos bo‘lib xizmat qiladi. O‘zlashtirish jarayonida doimo izchillik, takroriy mashg‘ulotlar, motivatsiyani saqlash, individual va guruhli ishlashni o‘zaro uyg‘unlashtirish, hamma yangi o‘rganilgan so‘zlarni o‘z hayotiga bog‘lashga e’tibor qaratilishi kerak [6].

Har bir bosqichda yangi o‘rganilayotgan leksikani turli usullar bilan qo‘llash lozim: ularni ovoz chiqarib o‘qish, gapirgan holda talqin qilish, yozma shaklda ishlatib ko‘rish, tinglab tushunish, ayniqsa, zamonaviy audio va vizual usullar orqali takror-takror mashq qilish, noan’anaviy usullardan ham foydalanish mumkin. Keng imkoniyatlarni, zamonaviy metodikani va individual o‘rganish yo‘llarini uyg‘unlashtirish orqali har bir o‘quvchi o‘z so‘z zaxirasini mustahkamlashi, chuqur o‘zlashtirishi, uni uyg‘un va samarali tartibda o‘zlashtirishiga erishadi. Shunday qilib, yangi til o‘rganuvchilar uchun leksikani o‘zlashtirishni bosqichli tashkil etish natijasida o‘quvchi avval eng zarur oddiy so‘zlardan boshlaydi va bosqichma-bosqich murakkabroq, mavzulararo, turfa kontekstda ishlatiladigan leksikal birliklarni o‘zlashtira boradi. Bu esa nafaqat ularning umumiy leksikasini boyitadi, balki tilda erkin muloqot ega bo‘lish, mustaqil o‘qish va yozish ko‘nikmalarini rivojlantirish, axborotni to‘liq anglash, matn va audiomateriallarni to‘g‘ri tushunishga yordam beradi. Leksikani o‘zlashtirish bosqichma-bosqich fasllarga ajralgan holda, hayotiy va kommunikativ vazifalarga muvofiq olib borilgani, har bir bosqichda o‘quvchilar hayotiy zarur so‘z va iboralarni muntazam ravishda takrorlab, yangi kerakli so‘zlarni mustahkamlab borishgan taqdirda, bu jarayon yanada mustahkam va samarali tus oladi. Asosiy maqsad o‘quvchilarga so‘zlarni yodlatibgina qo‘yish emas, balki ularni amalda ishga solishga o‘rgatish, turli kontekst va vaziyatlarda o‘rinli ravishda qo‘llashni odat qilish, til o‘rganish jarayonini zavqli va tizimli hamda soft ko‘rinishda bosqichma-bosqich rivojlantirishdir. Yangi til o‘rganuvchilar uchun leksikani o‘zlashtirishda bosqichli yondashuv til o‘rganishda eng ishonchli, samarali va tabiiy yo‘l bo‘lib xizmat qiladi. Har bir bosqichda erishilgan natija yuqoriroq bosqichda foydalaniladi, mustahkamlanadi, o‘zlashtirilgan leksik birliklar yangi mavzular orqali kengaytiriladi va o‘quvchi kundalik muloqotdan tortib, murakkab adabiy asarlarni o‘qishga qadar o‘z imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu tarzda izchil va tizimli leksika o‘zlashtirish jarayoni o‘quvchining tildagi erkinligini, bilim doirasi va fikrlash ufqini tubdan kengaytirishga xizmat qiladi. Ta’lim jarayonining doimiyligi, muntazam takror, o‘zlashtirilayotgan leksikani tabiat holatida faol ishlatish esa uni mustahkam asosga ega qiladi va o‘quvchiga mustaqil so‘zlashuv qalbini beradi [7].

Ingliz tili leksikasini o‘qitishning nazariy va metodologik asoslari chuqur nazariy tadqiqotlar, til o‘rganish psixologiyasi, hamda zamonaviy xorijiy til o‘qitish amaliyotlari bilan bevosita bog‘langan sohadir. Mazkur masala, avvalo, leksika tushunchasining o‘zi, uning til tizimidagi o‘rni va nutq faoliyatidagi ahamiyatiga tayangan holda tahlil qilinadi. Ingliz tili o‘rganuvchilarining real kommunikativ ehtiyojlari, zamonaviy ta’lim standartlari va metodik tavsiyalar asosida leksik bilimlarni puxta egallash muhim ahamiyat kasb etadi. Nazariy jihatdan, leksikani o‘qitishda eng avvalo nutqning kommunikativ xususiyatlari, so‘z boyligi va uni samarali o‘zlashtirish omillariga e’tibor qaratiladi. Leksikaga oid bilimlar, so‘zlarning ma’nosi, ularning morfologik va semantik xususiyatlari, turli kontekstlarda ishlatilishi keng yoritiladi. Shuningdek, leksik birliklarni o‘rganishda antonim, sinonim, polysemik so‘zlar, frazeologizmlar, termin va diareal so‘zlar bilan chuqur ishlash zarur. Zamonaviy tilshunoslik yutuqlari asosida leksikani o‘zlashtirish amaliyotida lug‘aviy bilimlarni faollashtirish, eslab qolish, xotirada saqlash va to‘g‘ri qo‘llash mexanizmlari ham muhim ahamiyat kasb etadi [8].

Metodologik nuqtai nazardan, leksikani o‘qitishda kommunikativ yondashuv eng muvaffaqiyatli va samarali metod hisoblanadi. Bunda o‘quvchilarning hayotiy ehtiyojlari, motivatsiyasi, individual qobiliyatlari va shaxsiy tajribasi inobatga olinadi. Leksik materiallarni o‘rgatishda real kommunikativ vaziyatlar yaratish, rol o‘yinlari, dialoglar, interaktiv mashqlar tashkil etish yordamida so‘z boyligini kengaytirish mumkin. O‘quvchilarning mustaqil izlanishlari, zamonaviy axborot texnologiyalari, multimedia vositalaridan foydalanish ham ushbu jarayon uchun muhim imkoniyatlar yaratadi. Leksikani o‘qitish jarayonida metodik bosqichlarni to‘g‘ri tashkil qilish, ularni o‘quvchilarning yoshiga, darajasiga va ehtiyojlariga moslashtirish juda muhim. Dastlab, yangi so‘zlarni tanishtirish, ularni eslab qolish va faol lug‘aviy zaxiraga aylantirish, so‘ng esa mustahkamlash va turli nutqiy vazifalarda qo‘llab ko‘rish amaliyoti tatbiq etiladi. Bunda har xil konspektlar, vizual kartochkalar, lug‘aviy o‘yinlar, testlar va baholash usullari samarali vositalar sifatida xizmat qiladi. Shuningdek, lisoniy kompetensiyani rivojlantirishda o‘quvchilarga mustaqil o‘qish, matn tahlili, so‘z yasash va kontekstual ishlatish ko‘nikmalarini shakllantirish zarur [9].

O‘qitishda muvaffaqiyatga erishish uchun o‘qituvchining yuqori kasbiy mahorati, darsga yangilik kiritish, o‘quvchilarning faollashuvi va motivatsiyasini oshirish kabi omillar muhim hisoblanadi. O‘zini o‘zi baholash, fikr almashish, jamoaviy ishlash, interfaol usullardan foydalangan holda o‘quvchilarda mustahkam leksik bilimlarni shakllantirish mumkin. Yakuniy bosqichda leksika bo‘yicha o‘zlashtirish natijalari tahlil qilinadi. Odatda, bu o‘quvchilarning aktiv va passiv lug‘aviy boyligi, so‘zlarni mustaqil ishlata olish, turli nutqiy vaziyatlarda aniqlik va emotsionallik bilan ifodalay olish darajasi orqali aniqlanadi. Zamonaviy tilda ta’lim berishda ingliz tili leksikasini o‘zlashtirishda innovatsion texnologiyalar, elektron resurslar, onlayn platformalar va mashqlar, ta’limiy dasturlar keng joriy qilinmoqda. Natijada, zamonaviy metodik yondashuvlar yordamida o‘quvchilar leksik bilim va ko‘nikmalarini samarali rivojlantirib, ularni real kommunikativ faoliyatda erkin qo‘llash imkoniga ega bo‘lmoqda [10].

Ingliz tili leksikasini o‘qitishning nazariy va metodologik asoslari lingvistik, psixologik va didaktik yondashuvlarni o‘z ichiga oladi. Leksikani o‘qitishda asosiy metodlar – kommunikativ yondashuv, grammatik-tarjima, audio-lingval va zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishga asoslanadi. So‘nggi yillarda olib borilgan xalqaro va mahalliy tadqiqotlar, shuningdek, maktab va oliy ta’lim tizimida kuzatilgan amaliy natijalarga tayangan holda, ingliz tili leksikasini samarali o‘rgatishda kommunikativ yondashuvning ahamiyati ortib bormoqda. Statistik ko‘rsatkichlarga ko‘ra, zamonaviy metodlar yordamida o‘quvchilar yangi so‘zlarni kontekstdan kelib chiqib o‘zlashtirishda ko‘proq muvaffaqiyatga erishmoqda. Masalan, Cambridge Assessment ingliz tilini o‘rganish bo‘yicha olib borgan tadqiqotlariga ko‘ra, kommunikativ metod asosida o‘qitilgan talabalar so‘zlarni faol ravishda o‘zlashtirish bo‘yicha 80-87% natijaga erishgan. Grammatik-tarjima metodidan foydalangan talabalar o‘rtasida esa so‘zlarni eslab qolish darajasi 55-62% atrofida bo‘lib qolmoqda. Multimedia va axborot texnologiyalari orqali o‘zlashtirilgan leksika darajasi esa 75-90% gacha yetmoqda [11].

O‘zbekiston maktab va oliy ta’limida ingliz tili darslarida yangi so‘zlarni eslab qolish samaradorligi boshlang‘ich sinflarda vozchiladi 60-65% atrofida, yuqori sinflarda esa bu ko‘rsatkich 80-85% gacha oshgani kuzatiladi. Tadqiqotlar, shuningdek, o‘qituvchilarning 68% qismi leksikani o‘qitishda kommunikativ va interfaol uslublarni afzal ko‘rishini ko‘rsatgan. British Council hisobotiga ko‘ra, ingliz tilini xorijiy til sifatida o‘rganayotgan o‘quvchilarning 92% zamonaviy, ya’ni multimediadan foydalangan holda o‘tilayotgan darslarga yuqori darajada qiziqadi. Ta’lim tizimidagi o‘quvchilarning 83% yangi so‘zlarni mustaqil ishlash yoki shaxsiy topshiriqlar orqali samarali o‘zlashtirishini bildirgan. Shuningdek, fleshkart va boshqa zamonaviy metodlardan foydalanilganda so‘zlarni yodda saqlash natijasi klassik usullarga qaraganda 20-30% ga yuqoriligi aniqlangan. Interfaol, masalan, “peer-to-peer” (o‘quvchilar o‘zaro bir-biridan o‘rganish) yondashuvda o‘zlashtirish samaradorligi 84-88% gacha yetgan. O‘qituvchilar tomonidan olib borilgan monitoring natijalari, multimedia va ilovalardan foydalangan holda o‘quvchilar yil davomida

o‘rtacha 1200-1800 ta yangi so‘zni o‘zlashtirishlari mumkinligini ko‘rsatgan. An’anaviy usullarda esa bu ko‘rsatkich 950-1100 ta so‘z bilan cheklanmoqda [12].

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, ingliz tili leksikasini o‘qitishning nazariy-metodologik asoslari barcha zamonaviy pedagogik va tilshunoslik yutuqlaridan o‘zida mujassam etgan. Tizimlilik, bosqichlilik, kommunikativ va kognitiv yondashuvlar, madaniy hamkorlik, integratsiya va interfaollik, shuningdek, zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanish orqali har bir o‘quvchining til kompetensiyasi shakllanadi, leksik zaxirasi chuqurlashib boradi. Inson shaxs sifatida yuksak intellektual, madaniy va ijtimoiy jihatdan boyigan bo‘ladi, zamonaviy ingliz til muhitiga to‘laqonli moslasha oladi. Bu esa nafaqat ingliz tilini o‘rganayotgan shaxsning, balki butun jamiyatning taraqqiyoti, xalqaro miqyosda raqobatbardosh kadrlar yetishtirish uchun mustahkam asos va vosita bo‘lib xizmat qiladi. Metodik asoslar doimiy yangilanib borar ekan, tilni o‘qitishda ilg‘or g‘oyalar, innovatsion amaliyotlar va ijodiy yondashuvlar har doim markazda bo‘lib qolaveradi.

Adabiyotlar:

1. Anorkulov S. (2021). Хронотоп как отличительная черта романового универсума Ф.М. Достоевского. «Просвещение и познание», (5(5)), 16–23.

2. Anorkulov S. Просвещение и познание. Просвещение и познание Учредители: Прудник Ксения Евгеньевна, (5), 16–23.

3. Butayev Sh.T. Akademik lisey o‘quvchilarining leksik kompetensiyasini rivojlantirishda lingvistik lug‘atlardan foydalanish metodikasi (ingliz tili misolida): Diss. ... ped. fan. bo‘yicha falsafa doktori. — Toshkent, 2018. – 137 b.

4. Choriyev M. Ingliz tili leksikasiga o‘rgatishning lingvodidaktik va injener-lingvistik asoslari: Diss. ...ped. fanl. nomzodi. — Qarshi, 1999. – 198 b.

5. Ilmiddinovich K.S. (2020). Methods of teaching English to young learners. The American Journal of Social Science and Education Innovations, 2(11), 65–69.

6. Ilmiddinovich K.S. (2020). Online evaluating the language learners on the platforms of the social networking services and delivery people. International Journal of Research in Economics and Social Sciences (IJRESS), 10(11).

7. Ilmiddinovich K.S. (2021). The methodologies of learning English vocabulary among foreign language learners. Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(4), 501–505.

8. Ilmiddinovich K.S. (2022). Integrating 21st Century Skills into Teaching Medical Terminology. Journal of Pedagogical Inventions and Practices, 9, 114–117.

9. Jalolov J. Chet tili o‘qitish metodikasi. — Toshkent, 2012. – 434 b.

10. Кадирова Ф.Р. Лингводидактические основы обучения детей дошкольного возраста второму языку (на материале русского и узбекского языков): Дис...доктора пед. наук. — Ташкент, 2006. – 360 с.

11. Kuziev S. (2022). At English classes using approaches and methods of on teaching special terminology in medical universities. Eurasian Journal of Social Sciences, Philosophy and Culture, 2(12), 265–269.

12. Кузиев С.И. (2020). Communication among physicians and healthcare associates: the role and rank of medical terminology in surgery, public health and the history of medicine. Vestnik nauki i obrazovaniya, (13–3), 29–31.

14. Кузиев С.И. Общение между врачами и медицинскими работниками: роль и ранг медицинской терминологии в хирургии, здравоохранении и истории медицины. Вестник науки и образования, 2020, №13–3 (91). URL: https://cyberleninka.ru/article/n/obschenie-mezhdu-vrachami-i-meditsinskimi-rabotniki-rol-i-rang-meditsinskoy-terminologii-v-khirurgii-zdravoohranenii-i-istorii (дата обращения: 10.05.2023).

15. Назарова С. Совершенствование иноязычной лексической компетенции студентов при обучении китайскому языку: Дис…докт. философии по пед. наук. — Ташкент, 2018. – 153 с.

16. Qodirova Z. O‘zbek auditoriyasiga ingliz tili leksikasini o‘rgatish muammolari. Xorijiy tillarni o‘qitishning buguni va ertasi. — Toshkent, 2016. – 466 b.

DIAGNOSTIK BAHOLASH ORQALI TALABALARNING INGLIZ TILIDAGI LEKSIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH VA MUSTAHKAMLASH

Raximov Suxrob Ravshonbekovich,
Urganch davlat tibbiyot instituti o‘qituvchisi

Ushbu tadqiqot tibbiyot yo‘nalishi talabalarning ingliz tilidagi leksik kompetensiyasini diagnostik baholash orqali rivojlantirish va mustahkamlashga qaratilgan. Tadqiqot jarayonida talabalarning terminlarni tushunish, kontekstda qo‘llash va so‘z boyligini oshirish ko‘nikmalari interaktiv va tizimli mashqlar yordamida baholandi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, mashqlar tizimi talabalarning leksik kompetensiyasini oshirish va amaliy tarzda qo‘llashda samarali vosita hisoblanadi. Tadqiqot asosida kelajakda tibbiyot yo‘nalishi talabalari uchun interaktiv mashqlarni muntazam qo‘llash va onlayn platformalarni integratsiya qilish tavsiya etiladi.

Kalit so‘zlar: *tibbiyot ta’limi, ingliz tili, leksik kompetensiya, diagnostik baholash, interaktiv mashqlar, terminologiya, so‘z boyligi, o‘z-o‘zini baholash.*

ДИАГНОСТИЧЕСКОЕ ОЦЕНИВАНИЕ КАК СРЕДСТВО РАЗВИТИЯ И УКРЕПЛЕНИЯ ЛЕКСИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ СТУДЕНТОВ ПО АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ

Данное исследование направлено на развитие и укрепление лексической компетенции студентов медицинского направления через диагностическую оценку английского языка. В процессе исследования оценивались навыки студентов в понимании терминов, их применении в контексте и расширении словарного запаса с использованием интерактивных и системных упражнений. Результаты показали, что система упражнений является эффективным инструментом для повышения лексической компетенции студентов и практического применения знаний. На основе исследования рекомендуется регулярное использование интерактивных упражнений и интеграция онлайн-платформ для студентов медицинского направления в будущем.

Ключевые слова: *медицинское образование, английский язык, лексическая компетенция, диагностическая оценка, интерактивные упражнения, терминология, словарный запас, самооценка.*

DEVELOPMENT AND STRENGTHENING OF STUDENTS’ ENGLISH LEXICAL COMPETENCE THROUGH DIAGNOSTIC ASSESSMENT

This study is aimed at developing and strengthening the lexical competence of medical students through diagnostic assessment of English. During the research, students’ skills in understanding terms, applying them in context, and expanding their vocabulary were evaluated using interactive and systematic exercises. The results showed that the exercise system is an effective tool for enhancing students’ lexical competence and practical application. Based on the study, it is recommended to regularly use interactive exercises and integrate online platforms for medical students in the future.

Keywords: *medical education, English, lexical competence, diagnostic assessment, interactive exercises, terminology, vocabulary, self-assessment.*

Zamonaviy tibbiyot ta’limida ingliz tilini o‘rganish tibbiyot sohasidagi mutaxassislar uchun muhim hisoblanadi. Tibbiyot yo‘nalishi talabalari murakkab ilmiy tushunchalarni tushunishi va ingliz tilida samarali muloqot qila olishi kerak. Leksik kompetensiya—ya’ni sohaga oid so‘zlarni tanib olish, tushunish va to‘g‘ri qo‘llay olish qobiliyati—talabalarning akademik va professional rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Shunga qaramay, ko‘plab talabalar tibbiy terminologiyani o‘zlashtirish va uni amaliy kontekstlarda qo‘llashda qiyinchiliklarga duch keladi. Leksik bilimning cheklanganligi o‘quv adabiyotlarini, ilmiy maqolalarni va klinik hujjatlarni tushunishni qiyinlashtiradi, shuningdek, tengdoshlar, o‘qituvchilar va bemorlar bilan samarali muloqotga to‘sqinlik qiladi. Avvalgi tadqiqotlar leksik kompetensiyani rivojlantirishda tizimli va interaktiv yondashuvlarning zarurligini ko‘rsatadi. Tibbiyot yo‘nalishi talabalarining ingliz tilidagi leksik kompetensiyasini rivojlantirishda **mashqlar tizimi** markaziy o‘rin tutadi. Bu tizim nafaqat so‘z boyligini oshirishga, balki terminlarni kontekstual vaziyatlarda to‘g‘ri ishlatish, akademik va kasbiy muloqot ko‘nikmalarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Mashqlar tizimi talabalarni faol ishtirok etishga undaydi, ularning mustaqil fikrlashini rag‘batlantiradi va so‘zlarni amaliy tarzda qo‘llash imkonini yaratadi. Mashqlar tizimi bir qator pedagogik va lingvistik prinsiplarga asoslanadi. Ulardan eng muhimlari quyidagilardir:

tizimlilik, interaktivlik, kontekstual yondashuv, talabaning faol ishtiroki va nazorat bilan mustahkamlash. Bu yondashuvlar talabaning yangi tibbiy terminlarni yodlashdan ko‘ra ularni tushunish va real vaziyatlarda qo‘llashga yo‘naltirilgan. Shu bilan birga, mashqlar tizimi talabalarning o‘z-o‘zini baholash va rivojlanish jarayonini kuzatish imkonini ham beradi.

Tibbiyot yo‘nalishi talabalarning ingliz tilidagi leksik kompetensiyasini rivojlantirish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, so‘z boyligini oshirish va terminlarni maxsus vaziyatlarda ishlatish ko‘nikmalarini shakllantirishda interaktiv va tizimli mashqlar samarali vosita hisoblanadi. Nation (2001) talabalarga terminlarni tizimli o‘rganish va ularni akademik matnlarda ishlatishni tavsiya qilgan. Coxhead (2000) esa akademik so‘z boyligini oshirish uchun maxsus mashqlarni ishlab chiqishga urg‘u bergan. Schmitt (2008) va McCarthy O’Dell (2017) interaktiv mashqlar orqali terminlarni faol qo‘llashni samarali deb hisoblagan. Harmer (2015) rol o‘yinlari va amaliy dialoglar orqali talabalarning leksik kompetensiyasini oshirishni tavsiya qilgan, Richards (2018) esa guruh mashqlari va mini-prezentatsiyalar yordamida so‘z boyligini mustahkamlashni ta’kidlagan. Shuningdek, Webb (2008) va Nation Waring (2010) terminlarni takrorlash va kontekstda qo‘llashni leksik xotirani mustahkamlashning samarali vositasi deb hisoblagan. Laufer va Goldstein (2004) talabalarning akademik va professional vaziyatlarda terminlarni to‘g‘ri ishlata olish qobiliyati ustida ishlash zarurligini ko‘rsatgan. So‘nggi yillarda onlayn platformalar va ilovalar yordamida o‘tkazilgan tadqiqotlar ham e’tiborga loyiqdir. Masalan, Quizlet, Kahoot va boshqa interaktiv mashqlar talabalarning terminlarni tez eslab qolishi va ularni amaliy vaziyatlarda qo‘llash ko‘nikmalarini sezilarli darajada oshiradi (Godwin-Jones, 2018; Stockwell, 2010). Bugungacha olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, leksik kompetensiyani rivojlantirish nafaqat lingvistik, balki kasbiy tayyorgarlikni ham oshiradi. Tizimli va interaktiv mashqlar tizimi talabalarga so‘zlarni mustahkamlash, ularni kontekstda ishlatish va akademik hamda klinik vaziyatlarda samarali muloqot qilish imkonini beradi. Shu bois, tibbiyot yo‘nalishi talabalari uchun leksik kompetensiyani rivojlantirishga qaratilgan mashqlar tizimi ishlab chiqish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Tibbiyot yo‘nalishi talabalarning ingliz tilidagi leksik kompetensiyasini rivojlantirish darajasini aniqlash maqsadida dastlabki diagnostik tadbirlar o‘tkazildi. Ushbu tadbirlar nafaqat nazariy asoslarni, balki amaliy yondashuvlarni ham o‘z ichiga olgan bo‘lib, talabalarning so‘z boyligi, terminlarni tushunish va kontekstda qo‘llash ko‘nikmalarini aniqlashga xizmat qildi. Dastlabki diagnostika muvaffaqiyatli amalga oshirilishi orqali talabalar o‘z bilimini mustaqil tekshirish, terminlarni mantiqiy tahlil qilish va amaliy vaziyatlarda qo‘llash qobiliyatlarini namoyish etadi. Shu tariqa, tadqiqotning dastlabki bosqichi metodologik, tashkiliy va diagnostik jihatdan muhim ahamiyat kasb etdi. Tadqiqot maydoni sifatida O‘zbekistonning uchta tibbiyot ta’lim muassasasi tanlab olindi: Urganch davlat tibbiyot instituti, Samarqand davlat tibbiyot universiteti va Toshkent davlat tibbiyot akademiyasi. Tadqiqot ishtirokchilari tajriba va nazorat guruhlariga taqsimlandi.

Tibbiyot yo‘nalishi talabalarning ingliz tilidagi leksik kompetensiyasini rivojlantirishda mashqlar tizimiga asoslangan metodikani takomillashtirish bo‘yicha tajriba-sinov ishlarda ishtirok etgan respondentlarning tajriba va nazorat guruhlariga taqsimlanishi

1-jadval.

	OTM	Talabalar soni	Tajriba-sinov guruhlari	
			Tajriba guruhlarida	Nazorat guruhlarida
1	Urganch davlat tibbiyot instituti	126	65	61
2	Samarqand davlat tibbiyot universiteti	118	60	58
3	Toshkent davlat tibbiyot akademiyasi	120	62	58
Jami		**364**	**187**	**177**

Ushbu jarayon davomida bir nechta o‘zaro bog‘liq metodlardan foydalanildi. Avvalo, **so‘rovnoma** o‘tkazilib, unda talabalar ingliz tilidagi tibbiy terminlarni tushunish, so‘z boyligini kengaytirish, terminlarni turli vaziyatlarda qo‘llash, sinonim va antonimlardan foydalanish hamda o‘z leksik kompetensiyasini baholash darajasini aniqladilar. Shu bilan birga, talabalarning mashqlar tizimiga bo‘lgan qiziqishi, motivatsiyasi va o‘z-o‘zini baholash ko‘nikmalari ham kuzatildi.

Anketa so‘rovnoma natijalari

2-jadval.

Daraja	**Tajriba-sinov maydonlari bo‘yicha respondentlar soni va ko‘rsatkichlar**			
	UrDTI	**SamDTU**	**TMA**	**Umumiy ko‘rsatkichlar**
Ingliz tilidagi tibbiy terminlarni tushunish				
Yuqori daraja	7	6	6	
Yetarli daraja	27	28	29	
O‘rtacha	74	72	72	
Past daraja	18	12	13	
Terminlarni turli vaziyatlarda qo‘llash				
Yuqori daraja	5	5	5	
Yetarli daraja	25	22	22	
O‘rtacha	80	78	79	
Past daraja	16	13	14	
Sinonim va antonimlardan foydalanish				
Yuqori daraja	10	8	7	
Yetarli daraja	32	28	30	
O‘rtacha	71	73	70	
Past daraja	13	9	13	
Leksik kompetensiyani baholash				
Yuqori daraja	9	9	7	
Yetarli daraja	23	21	25	
O‘rtacha	70	68	69	
Past daraja	24	20	19	
Mashqlar tizimiga qiziqish va motivatsiya				
Yuqori daraja	12	10	10	
Yetarli daraja	32	30	28	
O‘rtacha	70	67	69	
Past daraja	12	11	13	

Kuzatuv varaqalari natijalari

3-jadval.

Darajalar	**Tajriba-sinov maydonlari bo‘yicha respondentlar soni va ko‘rsatkichlar**		
	UrDPI	TerDPI	AndDPI
Matnning asosiy mazmunini tez anglab, terminlar va atamalarni mantiqiy ketma-ketlikda ishlatish, tibbiy matnda muammoning asosiy jihatlarini ajratish			
Yuqori daraja	*14 (11%)*	*13(11%)*	*12 (10%)*
Yaxshi daraja	*28 (22%)*	*27(23%)*	*28(23%)*
O‘rtacha daraja	*59 (47%)*	*52(44%)*	*56(47%)*

Past daraja	*25 (20%)*	*26 (22%)*	*24(20%)*
Talaba yangi leksik birliklarni o‘z nutqida faol ishlatadi (Talaba yangi so‘zlarni yozma va og‘zaki nutqida amaliyotda qo‘llaydi)			
Yuqori daraja	*13 (10%)*	*12(10%)*	*13(11%)*
Yaxshi daraja	*35 (28%)*	*27(23%)*	*30(25%)*
O‘rtacha daraja	*59(47%)*	*55(47%)*	*55(46%)*
Past daraja	*19(15%)*	*24(20%)*	*22(18%)*
Talaba yozma mashqlarda yangi so‘zlarni grammatik jihatdan to‘g‘ri qo‘llaydi			
Yuqori daraja	*13(10%)*	*11(9%)*	*12(10%)*
Yaxshi daraja	*29(23%)*	*27(23%)*	*28(23%)*
O‘rtacha daraja	*58(46%)*	*54(46%)*	*55(46%)*
Past daraja	*26(21%)*	*26(22%)*	*25(21%)*
Talaba interaktiv mashqlar davomida so‘z birikmalari va frazalarni kreativ tarzda ishlatadi			
Yuqori daraja	*12(9%)*	*11(9%)*	*12(10%)*
Yaxshi daraja	*31(25%)*	*29(25%)*	*30(25%)*
O‘rtacha daraja	*57(45%)*	*52(44%)*	*54(45%)*
Past daraja	*26(21%)*	*26(22%)*	*24(20%)*
Talaba test va mashqlardan keyin o‘z xatolarini aniqlaydi va ularni tuzatishga harakat qiladi			
Yuqori daraja	*12(9%)*	*10(8%)*	*11(9%)*
Yaxshi daraja	*29(23%)*	*28(24%)*	*27(22%)*
O‘rtacha daraja	*62(49%)*	*59(50%)*	*60(50%)*
Past daraja	*24(19%)*	*21(18%)*	*22(19%)*

Muhokama. Dastlabki diagnostik tadbirlar natijalari tibbiyot yo‘nalishi talabalarning ingliz tilidagi leksik kompetensiyasini rivojlantirishda bir qator muhim jihatlarni ochib berdi. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, talabalarning terminlarni tushunish va kontekstda qo‘llash darajalari o‘rtacha va past darajada bo‘lgan. Masalan, Urganch davlat tibbiyot institutida terminlarni turli vaziyatlarda qo‘llash bo‘yicha yuqori daraja faqat 5 talaba (8%)da kuzatilgan bo‘lsa, o‘rtacha daraja 80 talaba (64%)da qayd etilgan. Bu natija talabalarning so‘z boyligi va terminologik bilimlarini mustahkamlashda tizimli yondashuvning zarurligini ko‘rsatadi. Kuzatuv varaqalari natijalari shuni bildiradiki, talabalar yangi leksik birliklarni amaliy tarzda qo‘llashda turlicha darajada faoliyat ko‘rsatadi. Yuqori darajaga ega talabalarning ulushi taxminan 9–11% atrofida bo‘lib, o‘rtacha va past darajadagi talabalar esa 46–50%ni tashkil qiladi. Bu holat, mashqlar tizimi talabalarning leksik bilimlarini yanada mustahkamlash va interaktiv faoliyat orqali rag‘batlantirish imkoniyatini beradi. Yozma mashqlar va interaktiv mashqlar natijalari shuni ko‘rsatdiki, talabalarning grammatika jihatdan to‘g‘ri leksik ishlatish qobiliyati o‘rtacha va yaxshi darajada rivojlangan. Bu esa mashqlar tizimining amaliy samarasini tasdiqlaydi, chunki interaktiv va kontekstual mashqlar talabalarga so‘zlarni mustahkamlash va real vaziyatlarda qo‘llash imkonini beradi. Shuningdek, talabalarning test va mashqlardan keyin o‘z xatolarini aniqlash va ularni tuzatishga bo‘lgan harakati, o‘z-o‘zini baholash va refleksiya ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, diagnostik baholash talabalarning ingliz tilidagi leksik kompetensiyasini rivojlantirish va mustahkamlashda samarali vosita hisoblanadi. Ular o‘z zaif va kuchli tomonlarini aniqlab, so‘z boyligini oshirish va lug‘atni kontekstda to‘g‘ri qo‘llash ko‘nikmalarini mustahkamlash imkoniga ega bo‘ladi. Shu bilan birga, diagnostik baholash talabalarning o‘quv jarayonini monitoring qilish va mustaqil o‘rganishni rag‘batlantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Adabiyotlar:

1. Brown H. D. Principles of Language Learning and Teaching, 2007.
2. Nation I. S. P. Learning Vocabulary in Another Language, 2013.
3. Harmer J. The Practice of English Language Teaching, 2015.
4. Thornbury S. How to Teach Vocabulary, 2002.
5. Richards J. C., Schmidt, R. Longman Dictionary of Language Teaching and Applied Linguistics, 2010.
6. Gairns R., Redman S. Working with Words: A Guide to Teaching and Learning Vocabulary, 1986.
7. Read J. Assessing Vocabulary, 2000
8. Schmitt N. Reviewing Vocabulary: Principles and Practices, 2008
9. Ellis R. The Study of Second Language Acquisition, 2008
10. Cunningsworth, A. Choosing Your Coursebook, 1995

XORIJIY TILNI O‘RGANAYOTGAN NOFILOLOGIK YO‘NALISH TALABALARI NUTQIDA INTERFERENSIYA HODISASI: NEMIS TILI MATERIALI ASOSIDA

Mansurova Gulbahor Maxdiyevna,
Qarshi davlat texnika universiteti, Xorijiy tillar kafedrasi dotsenti

Ushbu maqolada nemis tilini chet tili sifatida o'rganayotgan nofilogik yo`nalish talabalar nutqida yuzaga keladigan interferensiya hodisalari o'rganiladi. Unda fonetik interferensiya talaffuz va urg'u xatolarida, so'z tartibidagi sintaktik interferensiyada, grammatik jins va artikl tizimidagi morfologik xatolarda, semantik moslikdagi leksik xatolarda va yozma nutqda tinish belgilaridan noto'g'ri foydalanishdagi tinish belgilaridagi xatolarda namoyon bo'lishi ko'rsatilgan. Bundan tashqari, maqolada nemis tilini chet tili sifatida o'qitishda qiyosiy lingvistik yondashuvning ahamiyati muhokama qilinadi va talabalarning kommunikativ kompetentsiyasini rivojlantirish va interferensiya xatolarini kamaytirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: *nemis tili, interferensiya, morfologik xatolar, sintaktik xatolar, leksik xatolar, tinish belgilaridagi xatolar, qiyosiy lingvistik yondashuv.*

ФЕНОМЕН ИНТЕРФЕРЕНЦИИ В РЕЧИ СТУДЕНТОВ НЕФИЛОЛОГИЧЕСКИХ СПЕЦИАЛЬНОСТЕЙ, ИЗУЧАЮЩИХ ИНОСТРАННЫЙ ЯЗЫК: НА ОСНОВЕ НЕМЕЦКОГО ЯЗЫКОВОГО МАТЕРИАЛА

В данной статье исследуются явления интерференции, возникающие в речи студентов нефилологических специальностей, изучающих немецкий язык как иностранный. Показано, что фонетическая интерференция проявляется в ошибках произношения и ударения, синтаксической интерференции в порядке слов, морфологических ошибках в грамматическом роде и системе артиклей, лексических ошибках в семантической совместимости и пунктуационных ошибках в неправильном использовании знаков препинания в письменной речи. Кроме того, в статье обсуждается важность сравнительно-лингвистического подхода в преподавании немецкого языка как иностранного и рассматривается возможность разработки практических рекомендаций по развитию коммуникативной компетенции студентов и снижению интерференционных ошибок.

Ключевые слова: *немецкий язык, интерференция, морфологические ошибки, синтаксические ошибки, лексические ошибки, пунктуационные ошибки, сравнительно-лингвистический подход.*

THE PHENOMENON OF INTERFERENCE IN THE SPEECH OF STUDENTS OF NON-PHILOLOGICAL SPECIALTIES STUDYING A FOREIGN LANGUAGE: BASED ON GERMAN LANGUAGE MATERIAL

This article examines interference phenomena that arise in the speech of students majoring in non-philological fields and studying German as a foreign language. It is shown that phonetic interference manifests itself in pronunciation and stress errors, syntactic interference in word order, morphological errors in grammatical gender and the system of articles, lexical errors in semantic compatibility, and punctuation errors in the incorrect use of punctuation marks in written speech. Furthermore, the article discusses the importance of a comparative linguistic approach in teaching German as a foreign language and considers the possibility of developing practical recommendations for developing students' communicative competence and reducing interference errors.

Keywords: *German language, interference, morphological errors, syntactic errors, lexical errors, punctuation errors, comparative linguistic approach.*

Kirish. So‘nggi yillarda mamlakatimizning boshqa davlatlar bilan hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan siyosati, migratsiya jarayonlarining faollashuvi, xorijda ta’lim olish va mehnat faoliyatini amalga oshirish imkoniyatlarining kengayishi, shuningdek, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali xalqaro muloqotning jadallashuvi jamiyat hayotida xorijiy tillarning ahamiyati sezilarli darajada ortishiga olib kelmoqda. Natijada xorijiy til nafaqat o‘quv fanlaridan biri sifatida, balki zamonaviy ta’lim tizimining muhim tarkibiy elementi sifatida namoyon bo‘lmoqda hamda shaxsning kasbiy va ijtimoiy jihatdan o‘zini ro‘yobga chiqarishida muhim vosita sifatida xizmat qilmoqda.

Xorijiy tilni o‘rganish jarayoni esa ko‘plab lingvistik va metodik qiyinchiliklar bilan tavsiflanadi. Nemis tili o‘qituvchisi sifatidagi ko‘p yillik pedagogik tajriba davomida oliy ta’lim muassasalarining nofilologik yo‘nalishlarida tahsil olayotgan talabalar nutqida o‘quv jarayonida yuzaga keladigan ko‘plab tipik xatolar kuzatilgan. Mazkur xatolarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladigan omillardan biri interferensiya hodisasi hisoblanadi. Tilshunoslikda “interferensiya” tushunchasi bir til tizimi unsurlarining boshqa til tizimiga ta’siri natijasida yuzaga keladigan va shu til me’yorlaridan og‘ish holatlari bilan tavsiflanadigan lingvistik hodisa sifatida talqin etiladi. Zamonaviy globallashuv sharoitida ikki tillilik va ko‘p tillilik hodisasi ijtimoiy hayotning tabiiy va keng tarqalgan ko‘rinishiga aylanib bormoqda. Ko‘p tilli kommunikatsiyaning muhim lingvistik namoyon bo‘lish shakllaridan biri interferensiya hodisasi hisoblanadi. Ona tili tizimi hamda o‘rganilayotgan xorijiy tillar tizimlarining o‘zaro ta’siri, shuningdek, mazkur tizimlarning har biriga xos me’yorlardan og‘ish holatlari muqarrar ravishda interferensiya jarayonining yuzaga kelishiga olib keladi. Taniqli tilshunos olim Uriel Weinreich ta’kidlaganidek, bir nechta tillarda muloqot qiluvchi shaxslar oldida muayyan kommunikativ vaziyatlarda turli til tizimlariga xos ko‘plab me’yorlarga rioya qilish zarurati yuzaga keladi. Ushbu me’yorlarga to‘liq amal qilinmagan holatlarda esa bir til tizimiga xos bo‘lgan birliklarning boshqa til tizimi chegaralariga kirib borishi, ya’ni interferensiya hodisasi kuzatiladi [6, 148.].

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Til kontaktlari masalalarini o‘rganishga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlarda interferensiya muammosi, uning yuzaga kelish mexanizmlari hamda kommunikativ jarayonga ko‘rsatadigan ta’siri alohida ilmiy qiziqish uyg‘otib kelmoqda. Mazkur masala nafaqat umumiy tilshunoslik, balki xorijiy tillarni o‘qitish metodikasi doirasida ham dolzarb ilmiy muammolardan biri sifatida e’tirof etiladi. Ilmiy adabiyotlarda interferensiyaning turli nazariy va amaliy jihatlari ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan (E.V. Abramova, V.V. Alimov, L.V. Bondarko, E.A. Budnik, N.N. Varyushenkova, G.M. Vishnevskaya, A.E. Karlinskiy, N.A. Lyubimova, E.K. Chernichkina, G.N. Chirshyeva, O.A. Yamshchikova; J. Czochralski, B. Eisen, E. Haugen, M. Kocianova, G. Saunders, E. Ternes, Uriel Weinreich). Biroq mavjud ilmiy ishlarga qaramay, interferensiyaning ayrim jihatlari, xususan, uning amaliy-lingvodidaktik aspektlari hali ham chuqurroq tadqiq etilishini talab etadi.

Interferensiya hodisasi bilingv yoki multilingv nutqida turli til tizimlarining o‘zaro ta’siri natijasida yuzaga keladigan murakkab lingvistik jarayon bo‘lib, u barcha til sathlarida — fonetik, leksik va grammatik darajalarda namoyon bo‘ladi. Ushbu hodisaning yuzaga kelishi bir tomondan tillarning tipologik va struktur xususiyatlari bilan, ikkinchi tomondan esa til egasining ma’lum bir til bo‘yicha kommunikativ kompetensiyasining yetarli darajada shakllanmaganligi bilan izohlanadi [4, 126].

Tahlil va muhokama. Mazkur maqolaing asosiy maqsadi xorijiy til sifatida nemis tilini o‘rganayotgan nofilologik yo‘nalish talabalari og‘zaki va yozma nutqida kuzatiladigan interferensiya hodisalarini aniqlash, ularni tavsiflash hamda ona tili va xorijiy tilning interferensiyaviy ta’sir darajasini belgilashdan iborat. Bugungi kunda oliy ta’lim muassasalarida ko‘plab yo‘nalishlarda talabalar ikkinchi xorijiy til sifatida nemis tilini tanlaydilar. Shu bilan birga, ularning aksariyati maktab va kollejlarda allaqachon ingliz tilini o‘rgangan bo‘lishadi. Shu kontekstda talabalarda til kontaktlari uchastkalarida interferensiya (Interferenz) hodisasini kuzatish mumkin. Bunda uch til tizimi faoliyat ko‘rsatadi: L1 – Muttersprache (ona tili), L2 – erste Fremdsprache (Englisch; birinchi xorijiy til – ingliz tili), L3 – zweite Fremdsprache (Deutsch; ikkinchi xorijiy til – nemis tili)

Phonetische Interferenz. Til tizimidagi boshqa interferensiyalarga nisbatan, fonetik interferensiyaning salbiy ta’siri eng sezilarli hisoblanadi, chunki kommunikantning talaffuz me’yoridan chetga chiqishi **kommunikatsiya jarayonining samaradorligini** sezilarli darajada pasaytiradi. Ushbu hodisani **U. Vaynrayx** quyidagicha izohlaydi: “Ikkala til tizimidagi bir xil fonetik xususiyatlardan foydalanish – lingvistik strukturalar yukini yengillashtirishning samarali usuli. Aslida, har ikki tilni mukammal egallash uchun talaba yetarli darajada madaniy tajribaga ega bo‘lishi kerak, chunki har bir tilda o‘ziga xos subfonetik xususiyatlarning strukturaviy xilma-xilligini o‘zlashtirish murakkabdir” [2, 26]. Fonetik interferensiya **segmental** (tovushlar) va **supra-segmental** (urg‘u, ritm, intonatsiya) darajalarda namoyon bo‘ladi. Ushbu maqoladada biz **unli tovushlar**, undosh tovushlar tizimlaridagi va urg‘u taqsimotiga oid interferent xatolarni ko‘rib chiqamiz.

L1 – Muttersprache (ona tili) ta’siri fonetik darajada

Unli tovushlarning uzunligi va qisqasi (Vokallänge – vowel length): L3 – nemis tilida unli tovushlarning uzunligi va qisqasi asosiy fonologik xususiyat hisoblanadi, L1 – o‘zbek tilida bunday farq mavjud emas. Masalan: *Weg [e:] – weg [e], kam [a:] – Kamm [a]*. Agar talabada L2 – ingliz tilida yetarli kompetentsiya bo‘lsa, bu muammo kamayadi, chunki ingliz tilida ham unli tovushlarning uzun-qisqa farqi mavjud.

[o] tovushining reduksiyasi yo‘qligi: Nemis tilida [o] tovushi qisqa unli sifatida kamaymaydi, lekin ona tili ta’siri ostida talabalarda akatsiya kuzatiladi: *C[a]mputer, D[a]zent, H[a]tel, [a]ffizier, T[a]mate*. Ona tilida talaffuz shunday bo‘lishi mumkin, lekin nemis tilida bu tushunishni qiyinlashtiradi.

So‘z boshidagi [ü] tovushi: [y] va [y:] tovushlari ([ü]) noto‘g‘ri talaffuz qilinadi: *über → [ju:]ber, Übung → [ju:]bung*.

Aspiratsiyaning yo‘qligi (absence of aspiration / Fehlen der Aspiration): [p], [t], [k] tovushlarini talaffuz qilganda aspiratsiyaning yo‘qligi, ya`ni ona tilida bu hodisaning yo`qligi ta’siridan kelib chiqadi.

Urg‘u siljishi (Betonungsverschiebung / stress shift): Kompozit so‘zlarda urg‘u L1 tartibida siljiydi: *Großmútter, Heimatstádt, Gastarbéiter*.

L2 – erste Fremdsprache (Englisch):

So‘zlar -e bilan tugaganda tovush ko‘pincha talaffuz qilinmaydi, ingliz tilidagi so`z oxirida –e ning talaffuz etilmasligiga o‘xshash: *große, habe, kleine, komme*.

Unli tovushlarni ochiq/yopiq bo`gin bo‘lishiga qarab talaffuz qilish tendensiyasi mavjud: *B[ei]sel, T[ei]fel, N[ei]me; B[ʌ]s, [ʌ]nd; H[æ]nd, M[æ]nn; g[ju:]te, [ju:]niversität*.

Ba’zi so‘zlar inglizcha talaffuz qilinadi (yozuv o‘xshashligi sababli): *war, warst, mal, was, gern, wer, Fernstudium*.

So‘z yoki bo‘lak oxiridagi undoshlar ovozli talaffuz qilinadi: *un[d], Ta[g], zwanzi[g]*.

Labiodental [v] tovushi lab-labli [w] bilan almashtiriladi: *[w]ir, [w]ohnen, [w]ann, [w]ill*.

Affrikata z [ʦ] tovushi [z] kabi talaffuz qilinadi: *[z]ehn, [z]wölf, [z]wan[z]ig*.

Internacionalizmlarda urg‘u L2 ingliz tilidagi talaffuzga mos keladi: *Institut ['institʊt] – institute ['institju:t], Konzert ['kontsərt] – concert ['kɒnsət], Musik ['mu:zik] – music ['mju:zik]*.

Fonetik interferensiya nafaqat artikulyatsion bazani, balki **perseptiv jarayonlarni** ham ta’sir qiladi. Talaba xato talaffuz qiladi, chunki nafaqat tovushni chiqarishda qiyinchilik bor, balki uni noto‘g‘ri idrok etadi.

Chet tilini o‘rganish jarayonida turli tillar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir natijasida yuzaga keladigan muhim lingvistik hodisalardan biri **interferensiya** hisoblanadi. Nemis tilini o‘zbek tilida so‘zlashuvchi talabalar tomonidan o‘zlashtirish jarayonida ham interferensiya hodisasi tilning turli darajalarida — morfologik, sintaktik, leksik va punktuatsion sathlarda kuzatiladi. Bu holat, avvalo, nemis va o‘zbek tillarining turli tipologik guruhlarga mansubligi bilan izohlanadi. Nemis tili flektiv til tizimiga mansub bo‘lib, grammatik kategoriyalar ko‘pincha fleksiya vositasida ifodalanadi. O‘zbek tili esa agglutinativ til hisoblanib, grammatik ma’nolar qo‘shimchalar orqali ketma-ket ifodalanadi. Ushbu struktur farqlar o‘rganish jarayonida turli interferension xatolarning yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi.

Morphologische Interferenz. Morfologik darajadagi interferensiya til tizimining grammatik kategoriyalari bilan bog‘liq bo‘lgan og‘ishlarni o‘z ichiga oladi. Nemis tilida otlar **grammatik jins (rod), son va kelishik kategoriyalariga** ega. Rod kategoriyasi maskulinum, femininum va neutrum kabi uch grammatik jins orqali ifodalanadi hamda artikllar (*der, die, das*) yordamida belgilanadi. O‘zbek tilida esa grammatik jins kategoriyasi mavjud emas. Shu sababli o‘zbek tilida so‘zlashuvchi o‘quvchilar nemis tilidagi artikllarni tanlash va qo‘llashda qiyinchiliklarga duch keladilar. Bundan tashqari, nemis tilida shaxs olmoshlari ham otning grammatik jinsiga mos ravishda qo‘llanadi, o‘zbek tilida esa jinsni farqlamaydigan “u” olmoshi ishlatiladi. Bu farq ham morfologik interferensiyani yuzaga keltiradi. Beispiele für morphologische Interferenz:

Noto‘g‘ri: *Der Universität liegt in der Nähe.*

To‘g‘ri: *Die Universität liegt in der Nähe.*

Noto‘g‘ri: *Meine Heimatstadt ist Taschkent. Er ist sehr schön.*

To‘g‘ri: *Meine Heimatstadt ist Taschkent. Sie ist sehr schön.*

Syntaktische Interferenz. Sintaktik interferensiya gap tuzilishi va so‘z tartibining ona tilidagi model asosida shakllanishi natijasida yuzaga keladi. Nemis tilida gap tuzilishining muhim xususiyatlaridan biri **fe’lning ikkinchi pozitsiyada kelishi (Verbzweitstellung)** hisoblanadi. O‘zbek tilida esa gap tuzilishi odatda **ega – to‘ldiruvchi – kesim** modeliga asoslanib, kesim gap oxirida keladi. Shu sababli o‘zbek tilida so‘zlashuvchi o‘quvchilar nemis tilida gap tuzishda so‘z tartibini buzishlari mumkin. Bundan tashqari, nemis tilida analitik fe’l shakllari qo‘llanganda **fe’l ramkasi (Verbklammer)** hosil bo‘ladi, ya’ni yordamchi fe’l va asosiy fe’l gapning turli qismlarida joylashadi. O‘zbek tilida bunday sintaktik konstruktsiya mavjud emasligi ham interferensiya paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Beispiele für syntaktische Interferenz:

Noto‘g‘ri: *Am Mittwoch ich stehe um sieben Uhr auf.*

To‘g‘ri: *Am Mittwoch stehe ich um sieben Uhr auf.*

Noto‘g‘ri: *Von sieben bis neun ich mache meine Hausaufgaben.*

To‘g‘ri: *Von sieben bis neun mache ich meine Hausaufgaben.*

Noto‘g‘ri: *Ich habe getrunken Kaffee mit Milch.*

To‘g‘ri: *Ich habe Kaffee mit Milch getrunken.*

Interferenz durch Zeichensetzung. Punktuatsion interferensiya yozma nutqda vergul va boshqa tinish belgilarining noto‘g‘ri qo‘llanishi bilan bog‘liq. Nemis tilida qo‘shma gaplar va ergash gapli konstruktsiyalarda vergul qo‘yish qat’iy grammatik qoidalarga asoslanadi. O‘zbek tilida esa ba’zi sintaktik konstruktsiyalarda bunday qat’iylik kamroq bo‘lishi mumkin. Shu sababli o‘quvchilar nemis tilida vergulni ortiqcha qo‘yish yoki aksincha, zarur joylarda qo‘ymaslik holatlariga yo‘l qo‘yishlari mumkin. Beispiele für Interferenzen durch Interferenzzeichen:

Noto‘g‘ri: *Nach dem Unterricht, gehe ich nach Hause.*

To‘g‘ri: *Nach dem Unterricht gehe ich nach Hause.*

Lexikalische Interferenz-- Leksik interferensiya til birliklarining semantik va uslubiy xususiyatlarini noto‘g‘ri qo‘llash bilan bog‘liq. Bunday holatlarda o‘quvchilar ona tilidagi ma’no tizimiga tayanib, nemis tilidagi so‘zlarni noto‘g‘ri tanlashlari mumkin. Natijada leksik moslashuv qoidalari buziladi yoki noto‘g‘ri kollokatsiyalar yuzaga keladi. Beispiele für lexikalische Interferenzen:

Noto‘g‘ri: *Ich führe meinen Bruder in den Kindergarten.*

To‘g‘ri: *Ich bringe meinen Bruder in den Kindergarten.*

Noto‘g‘ri: *Die Studenten übersetzen den Vorschlag.*

To‘g‘ri: *Die Studenten übersetzen den Satz.*

Shunday qilib, nemis tilini xorijiy til sifatida o`rganayotgan nofilologik yo`nalish talabalari tomonidan interferensiya hodisasi tilning turli darajalarida — morfologik, sintaktik, punktuatsion va leksik sathlarda namoyon bo‘ladi. Bu xatolarning asosiy sababi ona tilining grammatik va struktur xususiyatlarining o‘rganilayotgan til tizimiga ko‘chishidir. Interferensiya hodisasini tizimli ravishda o‘rganish, uning sabablarini aniqlash hamda xatolarni tasniflash nemis tilini o‘qitishda samarali metodik yondashuvlarni ishlab chiqish va o‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa. Maqolada nemis tilini xorijiy til sifatida o`rganayotgan nofilologik yo`nalish talabalari nutqida fonetik, morfologik, sintaktik, leksik va punktuatsion interferensiya hodisalari keng tarqalgan. Ushbu xatolar til tizimlarining tipologik va struktur farqlari, shuningdek talabalarning birinchi xorijiy til — ingliz tilini o‘zlashtirgani bilan izohlanadi. Fonetik interferensiya talaffuz va urg‘u xatolariga, sintaktik interferensiya so‘z tartibining noto‘g‘ri qo‘llanishiga olib keladi. Morfologik xatolar asosan nemis tilidagi grammatik jins va artikl tizimiga, leksik xatolar semantik moslik va kollokatsiyalarga bog‘liq, punktuatsion xatolar esa yozma nutqda tinish belgilarining noto‘g‘ri ishlatilishida namoyon bo‘ladi. Interferensiya hodisasi til o‘rganish jarayonining tabiiy qismi sifatida ham baholanishi mumkin. Shu bois, o‘quv jarayonida qiyosiy-lingvistik yondashuvdan foydalanish, ya’ni o‘zbek, ingliz va nemis tillarining struktura va grammatik xususiyatlarini taqqoslab o‘rgatish samarali hisoblanadi.

Natijada, mazkur ilmiy maqola nemis tilini o‘qitish metodikasini takomillashtirish, nemis tilini xorijiy til sifatida o`rganayotgan nofilologik yo`nalish talabalari nutqidagi xatolarni kamaytirish va ularning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga amaliy asos yaratadi.

Adabiyotlar:

6. Axmedova S.A. Nemis tilini o’qitish metodlari. British International Science Conference.
7. Weinreich U. Odnoyazychie i mnogoyazychie [Monolingualism and multilingualism] // Novoe v lingvistike. № 6. - M., 1972. S. 25 – 60.
8. Chirsheva G.N. Dvyyazychnaya kommunikaciya [Bilingual communication]. Cherepovets, Cherepovets state university, 2004. S. 190.
9. Ternes, E. Probleme der kontrastiven Phonetik. Forum phoneticum, Bd. 13. - Hamburg: Buske Verlag, 1976. - S. 126.
10. Wandruszka M. Die Mehrsprachigkeit der Menschen. R. Piper & Co. Verlag, München, 1979, 357 s.
11. Weinreich U. Languages in contact: Finding and problems Text. - New-York: Linguistic Circle, 1953. - 148 p.
12. Williams S., Hammarberg B. Language switches in L3 production: Implications for a polyglot speaking model/ Applied Linguistics 19 (3), p. 295 – 333.
13. Соловова Е.Н. Методика обучения иностранным языкам : продвинутый курс : пособие для студентов пед. вузов и учителей / Е.Н. Соловова. – 2-е изд. – М. : АСТ : Астрель, 2010. – 272 с.
14. Щукин А.Н. Обучение иностранным языкам. Теория и практика : учеб. пособие для преподавателей и студентов / А.Н. Щукин. – М. : Филоматис, 2004. – 408 с.

XORIJIY TILLARNI O`RGANISHDA O`YINLARNING AHAMIYATI HAQIDA

Xaqberdiyeva Dilroz Abdurashid qizi,
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
Urgut filiali xorijiy til va adabiyoti:
ingliz tili ta’limi yo‘nalishi talabasi
Xaqberdiyevadilroz@gmail.com

Ushbu maqolada chet tilini o`rganish jarayonida o`yinlarning o`quvchilar motivatsiyasi, faolligi va kommunikativ ko`nikmalarni rivojlantirishdagi o`rni tahlil qilinadi. O`yin texnologiyalari mashg`ulotlarni qiziqarli va interaktiv shaklda tashkil etish imkonini beradi, bu esa o`quvchilarning nutq faoliyatini tabiiy ravishda rivojlantiradi. Tadqiqot o`yinlardan foydalanish o`quv jarayonining samaradorligini oshirishini ko`rsatadi.

***Kalit so`zlar:*** *o`yin texnologiyalari, chet tilini o`rgatish, motivatsiya, interaktiv metodlar, kommunikativ kompentensiya.*

О ЗНАЧЕНИИ ИГР В ИЗУЧЕНИИ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ

В данной статье рассматривается роль игр в повышении мотивации, активности и развитии коммуникативных навыков учащихся при изучении иностранного языка. Игровые технологии делают учебный процесс более увлекательным и интерактивным, способствуя естественному развитию речевой деятельности. Исследование показывают, что использование игр существенно повышает эффективность обучения.

Ключевые слова: *игровые технологии, обучение иностранным языком, мотивация, интерактивные методы, коммуникативная компетенция.*

ON THE IMPORTANCE OF GAMES IN LEARNING FOREIGN LANGUAGES

This article analyzes the role of games in enhancing learners’ motivation, engagement, and communicative skills in the process of foreign language learning. Game-based techniques allow lessons to be organized in a more engaging and interactive manner, promoting natural language use among students. The study demonstrates that integrating games into the learning process significantly increases its effectiveness.

Keywords: *game-based learning, foreign language teaching, motivation, interactive methods, communicative competence.*

Bugungi globallashuv davrida chet tillarni bilish har bir insonning shaxsiy va kasbiy rivojlanishida muhim omilga aylanmoqda. Ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish, o`quvchilarning tilga bo`lgan qiziqishini kuchaytirish hamda ularda kommunikativ kompetensiyani shakllantirish zamonaviy pedagogikaning ustuvor vazifalaridan biridir. Ana shunday maqsadlarga erishishda o`yin texnologiyalarining o`rni beqiyosdir. O`yinlar o`quv jarayonini jonlantiradi, darsga ijobiy psixologik muhit yaratadi va o`quvchilarning tilni tabiiy ravishda o`zlashtirishiga yordam beradi.

Chet tilini o`qitishda o`yinlardan foydalanish nafaqat o`quvchilarning faolligini oshiradi, balki ularni mustaqil fikrlashga, muloqotga kirisha olishga va o`rganilgan bilimlarni amaliy qo`llashga undaydi. Shuningdek, interaktiv va ijodiy yondashuvni talab etuvchi o`yinlar o`quvchilarning motivatsiyasini sezilarli darajada kuchaytiradi.

O`yin metodikasining afzalliklari.

Faol ishtirokni ta’minlash. “O`yin” metodikasi asosida o`tkaziladigan mashg`ulotlarda barcha o`quvchilar faol eshtirok etishadi. Bu ularning darsga qiziqshini oshiradi va charchash, zerikish kabi holatlarni kamaytiradi. Faol qatnashuv dars jarayonining samaradorligini oshiradi.

Hamkorlikni rivojlantirish. Ko`plab o`yinlar jamoa bo`lib ishlashni talab qiladi. Guruhli o`yinlar davomida talabalar birgalikda harakat qilishni, fikr almashishni va natijaga erishishni o`rganadilar. Bu jarayon nafaqat chet tilini o`rganishni, balki ijtimoiy ko`nikmalarni ham rivojlantiradi. Jamoaviy faoliyat ishtirokchilar o`rtasida hamjihatlikni kuchaytiradi. Raqobat muhitini yaratish. G`alaba qozonish istagi ishtirokchilar o`rtasida sog`lom raqobatni shakllantiradi. Raqobat jarayonida talabalar bilim va ko`nikmalarni oshirishga intilishadi. Bu ularning motivatsiyasini oshirib, o`quv jarayonini jonlantiradi.

So`z boyligini oshirish. So`z o`yinlari davomida ishtirokchilar ko`plab yangi so`zlarni yod olishadi. Shu tariqa leksik zaxira boyitiladi.

Chet tili darsida o`yinlardan foydalanish o`quvchilarning og`zaki muloqot va psixologik tayyorgarlik kompentensiyalarini shakllantirishga yordam beradi. O`yinlar vositasida o`rganish imkoniyatlarni sezilarli darajada oshirish mumkin. Bunday holda, o`yinlar albatta bir qator talablarga javob berishi kerak:

1. Ma’lum bir ta’lim muammolarini hal qilishga qaratilgan bo`lishi;
2. Darsda berilgan o`quv ishining ritmini buzmaslik uchun “boshqariladigan” bo`lishi;
3. Darsdagi stressni yengillashtirish va o`quvchilar faolligini rag`batlantirish;
4. Avvalo o`yin lahzalarini anglashi kerak, o`quv effekti fonda qoladi;
5. Barcha o`quvchilarni o`yin faoliyatiga jalb qilish imkoniyatiga ega bo`lish.

O`yinlardan foydalanar ekanmiz, ular bu jarayonda ma’lum bir fuksiyalarga ega bo`lishi lozim. Quyida ular bilan tanishamiz:

1. Ta’lim funksiyasi. O`yin chet tilini o’rganish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi, umumiy ta’lim samaradorligi va qobiliyatini rivojlantiradi.
2. Tarbiyaviy funksiyasi. O`yin o`zaro yordam va o`zaro qo`llab-quvvatlash tuyg`usini rivojlantiradi.
3. Ko`ngil ochish funksiyasi. O`yin darsda qulay, g`ayrioddiy muhit yaratishga yordam beradi.
4. Kommunikativ funksiya. O`yin o`rganuvchilarni birlashtiradi va xorijiy tilda o`zaro munosabatda bo`lishga yordam beradi.

Talabalar kommunikativ faoliyatini shakllantirishda asosiy omillardan biri obdon o`ylab tuzilgan kommunikativ o`yinlar tizimidir. Bunday o`yinlar tizimi uch xil o`yinlarni o`z ichiga oladi.

1. Til ko`nikmalarini shakllantiruvchi o`yinlar.
2. Nutq ko`nikmalarini rivojlantiruvchi o`yinlar.
3. Muloqot ko`nikmalarini shakllantiruvchi, o`stiruvchi o`yinlar.

Har bir o`yin turini o`ziga xos o`rni va kommunukativ faoliyat olib borishda
o`ziga xos ahamiyati bor.

O`qituvchilar va ta’lim muassasalari til o`rgatishda interaktiv usullarni keng joriy etishlari muhim hisoblanadi.

Misol uchun:

Rolli o`yinlarda o`quvchilar ma’lum bir vaziyatda muayyan rolda ishtirok etadilar. Masalan, restoranda buyurtma berish, do`konda savdo qilish kabi kundalik vaziyatlarni o`z ichiga oladi. Bu o`yin va nutq ko`nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

So`z o`yinlari lug`at boyligini oshirish uchun qulaydir. Masalan, “Scrabble”, “Crossword”, “Hangman” kabi o`yinlar yangi so`zlarni eslab qolish va qo`llashga yordam beradi.

Viktorinalar orqali o`quvchilar nazariy bilimlarini sinovdan o`tkazadilar. Bu o`yinlar bilimni mustahkamlash va takrorlash jarayonida qo`llanilladi.

Jamoaviy o`yinlar o`quvchilarni guruhda ishlashga o`rgatadi, hamkorlik va kommunikatsiyani rivojlantiradi. Masalan, “Pictionary” yoki “Taboo” kabi o`yinlar o`quvchilarni faol ravishda nutqga jalb qiladi.

Quyida turli xil o`yinlar va ularning samaradorligi haqida ma’lumotlar beramiz:

“Qiuck answers” ya’ni tezkor savol-javob. Bu o`yinda o`tilgan mavzu yuzasidan o`qituvchi o`quvchilar bilan tezkor savol-javob o`tkazadi. Bu metod o’quvchilarning diqqatini va tezligini oshirishga yordam beradi.

“Pantomima” bu usulda yangi so`zlardan foydalangan holda imo- ishora bilan bir o`quvchi ko`rsatadi, qolgan o`quvchilar esa qaysi so`zligini topishi kerak bo`ladi. Bu metod o`quvchilar zerikib qolmasliklari uchun yangicha usulda lug`atlarni so`rash.

“Men kimman?” o`yinning maqsadi speaking-gapirish texnikasini rivojlantirish. O`yinning borishi: guruhdagi xohlovchi chiqib biror narsa yoki shaxsni nomini aytmasdan tasvirlaydi va qolgan o`quvchilar ta’rifga ko`ra kim yoki nima ekanligini topadi. Bu o`yin nutqiy savodxonlikni oshiradi.

“Kahoot.it” platformasi orqali test o`yinlari o`tkaziladi. Talabalar berilgan savollarga raqobat asosida javob beradi. Testda yuqori natija ko`rsatgan ishtirokchi g`olib bo`ladi.

“Memory” o`yini (esda saqlash o`yini). Bu o`yinda o`qituvchi ma’lum bir mavzuga oid so`zlar va rasmlarni to`playdi. Masalan: Kiyim-kechak yoki oziq-ovqatga oid so`z va rasmlarni. Bu o`yin o`tilgan mavzuni mustahkamlash uchun qo`llaniladi. O`yin guruhlarda o`tkaziladi va har bir guruh 4 yoki 5 kishidan iborat bo`ladi. Har bir kartochkaga yozilgan so`z va rasmlar teskari holda qo`yiladi. Guruhdagi o`quvchi ikkitadan kartochka olishi lozim. Agar ular bir-biriga mos kelmasa yana teskari tomonini qilib qo`yadi va qaysi so`z va rasmlar qayerda turganini yodda saqlab qolishga harakat qiladi. Har bir topilgan so`z va rasmni

o`z oldiga qo`yib to`playdi. Guruhda kim ko`p topgan bo`lsa, o`sha o`quvchi yutgan bo`ladi. O`yin 15 daqiqa davom etishi mumkin.

“Bugungi kun odamlari”. Har biri 3-4 kishidan iborat bo`lgan guruhlar tashkil qilinadi. Har bir guruh sinfdagi biror bir o`quvchini tanlab oladi. Tanlab olingan o`quvchining ismini aytmasdan uning harakterini, qiziqishlarini va bo`sh vaqtini qanday o`tkazishini tasvirlab beradi. Lekin tashqi ko`rinishini tasvirlash man etiladi. Guruhlarga tayyorgarlik ko`rish uchun 10-15 daqiqa vaqt beriladi. So`ngra har bir guruh tasvirlagan o`quvchini boshqa guruhlar topishi lozim.

“Men ko`rayotgan narsani sen ko`rmayapsan”. Bu o`yinni o`tkazishda o`quvchilar 2 shaklida o`tirganlari ma’qul. O`qituvchi har galgidek o`yinni boshlab “Men ko`rayotgan narsani sen ko`rmayapsan” deb aytadi. O`quvchilar predmetni nomini to`g`ridan-to`g`ri aytmasdan quyidagi savollarni beradi. U devordami? U partaning ustidami? U to`rtburchakmi? U polning ustidami? U uchburchakmi? Va hakozalar. U devordami? deb so`raganda o`qituvchi “ha” desa, o`quvchilar faqat devorda osig`liq turgan narsalarni so`raydilar. Savollarga “ha” yoki “yo`q” deb javob berish kerak. Nimaligini kim topsa, o`sha o`quvchi o`yinni davom ettirib “Men ko`rayotgan narsani sen ko`rmayapsan” deb aytadi. O`yin shu tariqa davom etadi.

“Sifat o`yini”. Sifat o`yinini o`tkazishdan oldin o`qituvchi o`quvchilarga o`z ismini bosh harfi bilan boshlanadigan sifat va shahar nomini o`ylashni buyuradi. (Tili o`rganilayotgan mamlakatning shaharlari bo`lsa yoki dunyo mamlakatlarining nomlari bo`lsa maqsadga muvofiq bo`lar edi). O`yinni o`tkazish uchun o`quvchilar doira shaklida turadilar. O`qituvchi o`yinni o`zi boshlab, o`z ismining bosh harfi bilan boshlanadigan sifat va shahar nomini aytib qo`lidagi to`pni istagan o`quvchiga uloqtiradi. Masalan: Courageus Matluba from Magdeburg. Mutige Matluba aus Magedurg. (Magdeburlik jasur Matluba).To`pni olgan o`quvchi ham o`z ismining bosh harfiga sifat va shahar nomini aytib boshqa o`quvchiga otadi. Masalan: Hardworking Farhod from Frankfurt. (Frankfurtlik tirishqoq Farhod). O`yin shu tariqa davom etadi. O`yinda hamma o`quvchilar bir martadan qatnashishi lozim.

“Bahsli munozara” o`yini. O`quvchilar o`rtasida bahsli munozara o`yinini o`tkazish uchun tanlangan mavzu bahs yuritishga mos bo`lishi lozim. Masalan: quyidagi mavzular bo`yicha bahs yuritish mumkin: shahar yoki qishloq, televezor, avtomobil va hokazolar. O`quvchilar ikki guruhga bo`linadilar va bir-birlariga qarama-qarshi holda o`tiradilar. Aytaylik, birinchi guruh shaharning faqat ijobiy tomonini aytsa, ikkinchi guruh faqat salbiy tomonini aytadilar.

Interaktiv o’yin – bu o`quvchilarning til o`rganishda faol ishtirokini ta’minlovchi, o`yin shaklidagi faoliyatdir. U o`quvchilarga stressiz muhitda tilni o`rganish va qo`llash imkonini beradi. O`yin jarayonida nutq, tinglab tushunish, o`qish va yozish ko`nikmalari faol tarzda rivojlanadi. Bundan tashqari, o`yinlar ijtimoiy ko`nikmalarni, ya’ni jamoada ishlash, muloqot qilish va muloqot madaniyatini oshirishga xizmat qiladi.

O`yin talabadagi motivatsion ehtiyojlarni rivojlantirish uchun katta ahamiyatga ega bo`lib, talabalarni mustaqil fikrlashga, o`z fikrini isbotlashda aniq ishonarli dalillar bilan zarur bilimlarni o`zlari qidirib topishga, bahs –suhbatda faol eshtirok etishga, so`zlovchining fikrini tinglay olishga, suhbatdoshga nisbatan hurmat saqlashga o`rgatadi. U yoki bu rolni ijro etgan holda talaba tildagi xatoliklardan qo`rqishni bas qila boshlaydi va bu unga holatga moslashish, ishonchli tarzda harakat qilishiga yordam beradi.

Kommunikativ o`yinlar darslarni yanada kommunikativroq qilishda, o`qituvchi va o`quvchi o`rtasida do`stona munosabat o`rnatishda, o`quvchilarning og`zaki nutqini o`stirib borishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ilmiy tadqiqotlardan olingan faktlar va ma’lumotlar.

1. O`yinlar motivatsiyani sezilarli oshiradi.

- Tadqiqotlarga ko`ra, o`yin asosidagi ta’lim(game-based) qo`llanilganda o`quvchilarning motivatsiyasi 30-50% gacha oshadi.
- O`quvchilar o`yin jarayonida til o`rganish jarayonini majburiyat deb emas, qiziqarli faoliyat deb qabul qilishadi.

2. Lug`at boyligi tezroq o`zlashtiriladi.

- Eksperimental guruhlarda o`yinlardan foydalanilganda o`quvchilar yangi so`zlarni 2 baravar tez eslaqb qolgan.
- Xotirada saqlash muddati ham yuqori bo`lgan – o`yin bilan mustahkamlangan so`zlar 3-4 hafta davomida yaxshi tiklangan.

3. Kommunikativ ko`nikmalar kuchayadi.

- O`yin jarayonida o`quvchilar o`zaro ko`proq gaplashgani uchun nutq faolligi 40% dan ko`proq oshgan.
- O`yinlar nutqning tabiiy chiqishiga, xatolardan qo`rqmaslikka yordam beradi.

4. O`yinlar stressni kamaytiradi.

- Ko`plab tadqiqotlar shuni ko`rsatadiki, o`yin davomida o`quvchilar o`zlarini erkinroq his qilishadi va bu holat.
  - Auditoriya oldida gapirish qo`rquvini kamaytiradi.
  - Dars jarayonidagi psixologik bosimni yengillashtiradi.

5. Interaktiv o`yinlar diqqatni jamlashni kuchaytiradi.

- Raqamli o`yinlardan foydalanganda o`quvchilarning diqqatni jamlash darajasi 20-25% oshgan.
- Muammoli vaziyatlar, rolli o`yinlar, musobaqa shaklidagi o`yinlar miyaning faol ishlashini rag`batlantiradi.

6. Guruhda ishlash ko`nikmalari rivojlanadi.

- O`yinlar bosqichma-bosqich hamkorlik, jamoaviy qaror qabul qilish, o`zaro yordam kabi ko`nikmalarni mustahkamlaydi.
- Bu ko`nikmalar keying ta’lim va kasbiy hayotda ham juda zarur.

7. O`yin metodlaridan foydalangan darslar samaradorligi yuqori.

- An’anaviy darslar samaradorligi bilan solishtirganda, o`yinli darslarda:
  - Ishtirok darajasi 2 baravar yuqori;
  - Darsni baholashda o`quvchilar tomonidan “qiziqarli” deb topish ko`rsatkichi 80% dan yuqori bo`lgan.

Psixologlar inson hayotini uchta asosiy davrga ajratishadi: o`yin, ta’lim va mehnat. Ta’lim bosqichini boshdan kechirayotganida ham bola ruhiyatidan va xatti-harakatlaridan o`yinlarga, kulgili mashg`ulotlarga qiziqishni osongina sezib olish mumkin. Pedagogika sohasi yetuk olimlari ham o`yinlar orqali o`rganishni bola ta’lim olishining tabiiy yo`li sifatida tan olishgan. Zerikarli Grammatik mashqlar, uzundan-uzun matnlar va tushunish qiyin bo`lgan qoidalar ba’zan bolani chet tilini o`rganish mobaynida tushkunlikka tushirib qo`yishi mumkin. Bunday vaziyatda o`quvchilar zerikishni boshlaydi va bu keyinchalik o`qituvchi faoliyatiga ham salbiy ta’sir qilishi mumkin. Zero, har bir o`qituvchining muvaffaqiyati u ta’lim bergan o`quvchilarning bilim darajasi bilan chambarchas bog`liqdir. Ustozlarimiz esa uyalmasdan, aktyorlik mahoratidan to`liq foydalanib, tez-tez darslarda turli xil o`yinlardan foydalanishi kerak. Chet tilini o`yinlar orqali o`rgatish ta’lim berish jarayonini muhim va ruhlantira oluvchi, ijobiy va natijaga biy tajribaga aylantiradi.

Xulosa qilib aytganda, chet tilini o`qitishda o`yinlardan foydalanish o`quv jarayonining samaradorligini oshirishda muhim pedagogik vosita hisoblanadi. O`yinlar o`quvchilarning darsga bo`lgan qiziqishini kuchaytiradi, ularda musobaqalashish ruhini uyg`otadi, ijodiy fikrlash, tezkor qaror qabul qilish va muloqotga kirisha olish kabi muhim kompetensiyalarni rivojlantiradi.

Adabiyotlar:

1. Qurbonova N., O`ktamova M. Chet tilini (ingliz tili) o`qitishda zamonaviy metodlar. Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: Nazariya va amaliyot nomli ilmiy, masofaviy, onlayn konferensiya.

2. Nurillayev T., Mirzayeva M. Xorijiy tillarni o`qitishda didaktik o`yinlarning ahamiyati, “Sience and Education” Scientific journal.

3. Safarov B. Chet tilini o`rganishda “O`yin” metodikasi. Tanqidiy nazar, tahliliy tafakkur va innovatsion g`oyalar.

4. Xojiyeva S. Chet tilini o‘qitishda kommunikativ o‘yinlardan foydalanish. “Innovative research in science” International scientific-online conference.

5. Shamurotova G., Rahmatova N., A’zamova N., Chet tili darslarida o‘yinlardan foydalanishning ahamiyati, “International scientific and practical conference “ The role of women in the development of science and the spiritual and educational sphere: problems and solutions” February 28, 2025

6. Xodjaeva M., Qahhorova M. Chet tili o`qitish metodikasi.

7. Internet ma’lumotlari.

“PEDAGOGIK MAHORAT” JURNALI UCHUN MAQOLALARNI RASMIYLASHTIRISH TALABLARI

“PEDAGOGIK MAHORAT” ilmiy jurnali mualliflari diqqatiga!

1. “**PEDAGOGIK MAHORAT**” ilmiy jurnali ilmiy maqolalarni o‘zbek, rus va ingliz tillarida chop etadi.

2. E’lon qilinadigan maqolalarga bo‘lgan asosiy talablar:

- ✓ishning dolzarbligi va ilmiy yangiligi;
- ✓maqolaning hajmi: adabiyotlar ro‘yxati, chizma va jadvallar inobatga olingan holatda 4-8 betgacha;
- ✓maqola nomi, annotatsiya (80-90 ta so‘z) va tayanch so‘zlar (8-10 ta) ingliz, o‘zbek va rus tillarida keltiriladi.

3. Maqola boshida UDK (udc.online internet saytidan olishingiz mumkin), mavzu, muallifning F.I.O. (to‘liq yozilishi kerak), mualliflar bir nechta bo‘lsa, ularning har biri haqida to‘liq ma’lumotlar berilishi shart, tashkilot, shahar, mamlakat, muallifning e-maili ko‘rsatiladi. Matnda kirish qismi, tadqiqot obyekti va qo‘llanilgan metodlar, olingan natijalar va ularning tahlili, xulosa, adabiyotlar ro‘yxati, albatta, keltiriladi. Maqolada keyingi 10-15 yilda e’lon qilingan adabiyotlarga havola qilinishi tavsiya etiladi.

4. Matn uchun: Microsoft Word; Times New Roman, 11 shrift, maqola nomi bosh harflarda, intyerval 1,0; abzas 1,0 sm, yuqori va pastki tomon 2 sm, chap va o‘ng tomon 2 sm.

5. Agar maqolaga rasm, jadval, diagramma, sxema, chizma, turli grafik belgilar kiritilgan bo‘lsa, ular aniq va ravshan tasvirlanishi, qisqartmalarning to‘liq izohi yozilishi lozim. Formulalar matnga maxsus kompyuter dasturlarida kiritilishi kerak.

6. Iqtibos olingan yoki foydalanilgan adabiyot satr osti izohi tarzida emas, balki maqola oxirida asosiy matndagi ketma-ketligi asosida umumiy ro‘yxatda ko‘rsatiladi. Matn ichidagi ko‘chirmadan so‘ng iqtibos olingan asarning ro‘yxatdagi tartib raqami va sahifasi kvadrat qavs ichida beriladi. Bu o‘rinda kitob, to‘plam, monografiyalar uchun mualliflarning ism-familiyalari, manbaning to‘liq nomi, nashr ko‘rsatkichi (shahar, nashriyot va nashr yili) ko‘rsatiladi. Jurnal maqolalari va boshqa davriy nashrlar uchun mualliflarning ism-familiyalari, maqola nomi, jurnal nomi, yili va soni, sahifa nomyeri ko‘rsatiladi.

7. Maqola matni kamida 70-80 % muallifning shaxsiy izlanishlari natijasiga asoslanishi lozim. Topshirilgan maqolalar “Antiplagiat” tizimi yordamida tekshiriladi.

8. Tahririyatga taqdim qilingan maqolalar tahririyat tomonidan taqrizga beriladi. Maqola taqrizdan qaytgach, agar zarur bo‘lsa, barcha savol va e’tirozlar bo‘yicha muallifga qayta ishlash uchun taqdim etiladi. Maqola nusxalari qaytarilmaydi.

9. Tahririyat maqolani taqrizga yuboradi, taqriz ijobiy bo‘lsa maqola jurnalda chop etish uchun qabul qilinadi. Jurnalda anjuman tezislari va ma’ruzalari chop etilmaydi. **E’lon qilingan materiallarning haqqoniyligiga va ko‘chirilmaganligiga shaxsan muallif javobgardir.**

10. Tahririyat maqolaga ayrim kichik o‘zgartirishlarni kiritishi mumkin. Yuqoridagi talablarga javob bermaydigan maqolalar tahririyat tomonidan ko‘rib chiqilmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

11. Ijobiy taqriz berilgan maqola tahririyat tomonidan qabul qilingan sanaladi. Jurnal tahririyati maqola matnini qisqartirish va unga tahririy o‘zgartirishlar kiritishga haqlidir.

12. Yuqoridagi talablarga javob bermaydigan maqolalar tahririyat tomonidan qabul qilinmaydi va ko‘rib chiqilmaydi.

Manzil: O‘zbekiston Respublikasi, Buxoro viloyati, 200117, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy, bosh bino, 2-qavat, 219-xona.

Web site: www.buxdu.uz

E-mail: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

Telegram raqami: +998 (94) 837-18-38.



Buxoro davlat universiteti muassisligidagi
“PEDAGOGIK MAHORAT”
ilmiy-nazariy va metodik jurnali
barcha ta’lim muassasalarini
hamkorlikka chorlaydi.

Pedagoglarning sevimli nashriga aylanib ulgurgan “Pedagogik mahorat” jurnali maktab, kollej, institut va universitet pedagogik jamoasiga muhim qo‘llanma sifatida xizmat qilishi, shubhasiz.

Mualliflar uchun eslatib o‘tamiz, maqola qo‘lyozmalari universitet tahririy-nashriyot bo‘limida qabul qilinadi.

Manzilimiz: Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi 11-uy
Buxoro davlat universiteti, 1-bino 2-qavat, 219-xona

Tahririyat rekvizitlari:
Moliya vazirligi g‘aznachiligi
23402000300100001010
MB BB XKKM Toshkent sh. MFO 00014 INN 201504275
BuxDU 40011086006401709410035005

Pedagogik mahorat: rivojlanamiz va rivojlantiramiz!

PEDAGOGIK MAHORAT

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal

2026-yil 2-son (125)

2001-yil iyul oyidan chiqa boshlagan.

OBUNA INDEKSI: 3070

Buxoro davlat universiteti nashri

Jurnal oliy o‘quv yurtlarining professor-o‘qituvchilari, ilmiy tadqiqotchilar, ilmiy xodimlar, magistrantlar, talabalar, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari hamda maktab o‘qituvchilari, shuningdek, keng ommaga mo‘ljallangan.

Jurnalda nazariy, ilmiy-metodik, muammoli maqolalar, fan va texnikaga oid yangiliklar, turli xabarlar chop etiladi.

Nashr uchun mas’ul:
Nigora SAYFULLAYEVA
Muharrir: Mexrigiyo SHIRINOVA
Musahhih: Sarvinoz RAXIMOVA

Jurnal tahririyat kompyuterida sahifalandi. Chop etish sifati uchun bosmaxona javobgar.

Bosishga ruxsat etildi 26.02.2026
Bosmaxonaga topshirish vaqti 27.02.2026
Qog‘oz bichimi: 60x84. 1/8
Tezkor bosma usulda bosildi.
Shartli bosma tabog‘i – 20,6
Adadi – 100 nusxa
Buyurtma № 21
Bahosi kelishilgan narxda.

“BUKHARAHAMD PRINT” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Buxoro shahri, J.Ikromiy MFY, Hofiz tanish Buxoriy ko‘chasi, 190 B-uy.